

Pedagogika

УДК:378.57.371.4

TECHNOLOGIES OF INDIVIDUAL APPROACH IN TEACHING NATURAL SCIENCES - A FACTOR OF QUALITY AND EFFICIENCY

TABIY FANLARNI O'QITISHDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYALARI - SIFAT VA SAMARADORLIK OMILIDIR

ТЕХНОЛОГИИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК КАК ФАКТОР КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ

Raximov Atanazar Karimovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 111700. Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104 uy.

E-mail: atanazarkarimov@gmail.com

Annotation. In the article, the modern model of organizing the educational process through individual educational technology to increase the quality and efficiency of education (Chirchik experience), a new approach to teaching natural sciences based on the principle of "I heard - I saw - I did", methods of identifying and developing talented students, training international teachers and organizing the Academy of "Research Students" by making students interested in scientific and pedagogical research with the help of special methods, forms, tools illuminated.

Key words: Pedagogical education innovative cluster, "I heard - saw - did" principle, quality and effectiveness of education, individual education, talented students, international teacher, "Agro-bio-geo-chemistry" training -scientific-pedagogical experimental sites.

Annotatsiya. Maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda individual ta'lim texnologiyasi orqali o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy modeli (Chirchiq tajribasi), tabiiy fanlarni o'qitishda yangicha yondashuv yani "Eshitdim - ko'rdim - bajardim" tamoyiliga asoslanganligi, o'ziga xos metodlar, shakllar, vositalar yordamida xztalabalarni ilmiy, pedagogik tadqiqot ishlariga qiziqitirish orqali iqtidorli talabalarni aniqlash, rivojlantirish, xalqaro o'qituvchi tayyorlash va "Tadqiqotchi talabalar" akademiyasini tashkil etish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, "Eshitdim - ko'rdim - bajardim" tamoyili, ta'lim sifati va samaradorligi, individual ta'lim, iqtidorli talabalar, xalqaro o'qituvchi, "Agro-bio-geo-kimyoy" o'quv-ilmiy-pedagogik tajriba maydonchalari.

Аннотация. В статье рассмотрена современная модель организации образовательного процесса через индивидуальную образовательную технологию повышения качества и эффективности образования (опыт Чирчика), новый подход к преподаванию естественных наук по принципу «Услышал – увидел – сделал», методы выявления и развития талантливых студентов путем заинтересованности студентов в научно-педагогические исследования с помощью специальных методов, форм и инструментов, а также подготовка преподавателей-международников и методы создания академии «Студентов-исследователей».

Ключевые слова: инновационный кластер педагогического образования, принцип «Услышал – увидел – сделал», качество и эффективность образования, индивидуальное образование, талантливые студенты, преподаватель-международник, учебно-научно-педагогическая экспериментальные площадки.

Kirish. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi kunda talabalarni qisqa muddatda tegishli ma'lumotlar bilan qurollantirish ular tomonidan fan asoslarining puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbari asosiy e'tiborida bo'lgan masalalardan biri – o'sib kelayotgan yosh avlodning yuqori darajadagi bilimga ega bo'lishi, mustaqil va sog'lom fikrlovchi avlodni kamol topdirish bo'lib va ushbu faoliyatga oid bir qancha qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12- avgustdagi PQ-4805-sonli qarorining 5-ilovasida 2020-2025 yillarda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish, ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha pedagogik innovatsiyalar ta'lim tizimiga keng tadbiiq etilmoqda [1].

Innovatsiya asri hisoblangan XXI – asr ham bizdan shaxsiga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni taqozo qilmoqda. Uning asosida esa ma'naviy muloqotchan va kognitiv (yaratuvchan, tanqidiy, tizimli va nostandart fikrlash, keng dunyoqarash, hissiy idrok, katta va o'zgaruvchan ma'lumotlar bazasi bilan ishlay olish qobiliyati va hokazo) sifatlari doimiy o'zgarib borayotgan muhitda kamol topayotgan shaxsning rivojlanishi yotadi. Mazkur ustuvor vazifalar oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida talaba shaxsini rivojlantirish, bilimlarni ongli o'zlashtirishga kelgusi faoliyatida ulardan ongli foydalanishni o'rgatish, raqobatbardosh, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan kadr qilib tarbiyalashni talab etadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Zamonaviy ta'limda talabalar kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishda individual yondashuvning pedagogik texnologiyasi, bugungi kunda sifat va samaradorlik omili bo'lib, bir qator afzalliklarni namoyon etmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan biri bu – individual ta'lim sanaladi. Bu turdagi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari orqasida muhim, shuningdek, globallashtirish sharoitida dolzarblik kasb etadi. Individual ta'limning ahamiyatli jihati shundaki, talaba o'quv faoliyatining mazmuni, metodlari va sur'atini uning xususiyatlariga to'la moslashtirilishini nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talaba uchun o'zining ichki imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishi uchun zarur sharoitni yaratadi. O'quv materiallarini o'zlashtirish uchun o'zi sarflayotgan kuchni nazorat qilib borishni, o'zi uchun qulay vaqtda ta'lim olishni kafolatlay olishi bilan ta'riflanadi. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Globallashtirish sharoitida ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan foydalanib shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Demak, talabaning fikrlash va taraqqiyot strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. U o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini ko'zda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati talaba shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhiyatlashdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashish, uning shaxsini hurmat qilish va ishonch bildirishni taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruratini ifodalaydi [3,4].

Dars mashg'ulotlarni tashkil etishda professor-o'qituvchilar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. [2].

Individual ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etishning shakli va zamonaviy modeli hisoblanib, undan maqsadli foydalanish, davlat va jamiyat istiqboliga xizmat qiladigan mutaxassislarni tayyorlashda o'z ustuvorligiga ega. Ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan individual ta'limni joriy etishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: talabani o'quv faoliyatining mazmuni, usullari, ta'lim jarayonlari sur'ati, hamda xususiyatlariga to'liq moslashishga amaliy yordam beradi; mutaxassis sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilayotgan ob'ektiv va sub'ektiv muammolarni hal qilish harakatlar muvofiqligini ta'minlaydi hamda natija samaradorligini tezkor kuzatish imkonini beradi; ma'naviy-ma'rifiy dunyosini kengaytirib jaholatdan bilimga o'tishini kuzatishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llaydi, talaba shaxsini shakllantirishda zaruriy ko'rsatmalar orqali o'quv faoliyatida tuzatishlar kiritib boradi; ta'lim integratsiyasi va zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda talabani o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan ta'lim jarayoni dinamikasiga tez moslashishi uchun mobillik sifatlarini shakllantirishda amaliy yordam beradi.


Ta'lim jarayonida individual ta'lim texnologiyalarini qo'llash bir qator vazifalarni hal qilishga sharoit yaratadi va talabalar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga sabab bo'ladi: talaba vaqt tejamkorligiga erishgan holda, kam vaqt sarflab ko'p natijaga erishadi; talaba ta'lim olish va mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida ortiqcha ruhiy va aqliy zo'rliqdan qutuladi; talabaning bo'sh vaqtini samarali, mazmunli va foydali o'tkazishi ta'minlanadi; talaba yetuk mutaxassis shaxsini o'zida tasavvur etgan holda, motivatsion omillarga ega bo'ladi. Bu jarayon ularni keyingi faoliyat turiga o'tishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi; talaba bilan individual ishlash, ortiqcha jismoniy toliqishni bartaraf etgan holda o'z enerjiasini maqsadli sarflanishini doimiy nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi; talaba motivatsion omillar bilan to'yingan holda o'zi, ya'ni mutaxassisga aylanish uchun optimal vaqtda ishlash imkonini beruvchi ko'nikmani shakllantiradi; talabaga shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligini muvofiqlashtirish imkonini berib, yetuk mutaxassisga aylanishi uchun zamin bo'ladi; individual ta'lim shakli nafaqat ta'lim oluvchini o'quv faoliyati rivojiga, balki xulq-atvori korreksiyasi va innovatsion ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatini yuzaga chiqaradi; ta'lim oluvchilarning individual ta'lim ehtiyojlari va o'quv materiallarini o'zlashtirish sur'atini hisobga olgan holda, ta'limning mavjudligi va moslashuvchanligini oshirish orqali ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga; o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni hamda bilimlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish uchun professor-o'qituvchining shaxsiy maslahatlarini olishga imkon yaratadi.

Pedagogik faoliyatda shaxsga yo'naltirilgan individual texnologiyalarni qo'llash, ta'lim beruvchi pedagog kadrlar uchun ham samarali bo'lib: pedagog kadrlarning malakasini oshirish; yangi avlod davlat ta'lim standartlarini joriy etishga qaratilgan malakaviy kompetensiyalarni egallash; yangi ta'lim natijalariga erishish maqsadida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish; pedagogik jarayonda nazorat va kommunikatsiyaning yangi turlaridan foydalanish; yuqori motivli ta'lim oluvchilar bilan sifatli ishlashni tashkil etish; professor-o'qituvchining uslubini o'zgartirish: bilimlarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchi bilan interfaol muloqotga kirishishda o'z afzalliklariga egaligi bilan ajralib turadi.

Individual o‘qitish texnologiyalari mexanizmlarini muvofiqlashtirishning dinamik tizimlar o‘rtasida muvozanat quyidagilarni yuzaga chiqishiga xizmat qiladi: talabning o‘quv faoliyati mazmunini belgilash, ta‘lim olish usullari va sur‘atlari, hamda individual hususiyatlariga adaptivligini barqarorlashtirish; talabning individual imkoniyatlarini (qobiliyatlarini) yuzaga chiqarish va yanada uni rivojlantirish; talaba tomonidan o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish texnologiyalarini individual xususiyatlaridan kelib chiqqan hola faoliyatida qo‘llash, hamda uning muvaffaqiyatsizlik omillarini bartaraf etish malakalarini shakllantirish; talabning o‘zlashtirayotgan bilimlarining rivojlanish zonasini aniqlashtirish va uni rag‘batlantirish orqali individual ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirish; talabning individual ta‘lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, ko‘nikmalarini tarbiyalash, mutaxassislikka nisbatan mavjud bo‘lgan kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish; talaba shaxsida reflektiv yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish orqali, o‘z-o‘zini o‘rganish, mavjud qobiliyatlarini rag‘batlantirish, o‘z faoliyatiga tanqidiy ko‘z bilan qarashni oqilona omillarni o‘zida mujassamlashtirgan individual jihatlarni shakllantirish; individual o‘quv jarayonining strategik maqsadini ongli anglash, zamaonaviy jamiyat va shaxs kamoloti uchun zaruriy ehtiyoj ekanligini ular ongiga dasturlash, hamda faoliyat turiga aylantirish. Bu jarayon individual ta‘lim kontseptsiyaning zamonaviy yondashuvini taqozo etadi.

Muxtasar qilib aytganda, individual ta‘lim – ta‘lim oluvchining mavjud qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, kasbiy yo‘nalganligini muvofiqlashtirish, mutaxassislikka oid malakalarini rivojlantirish jarayonining qat‘iy bosqichida amalga oshiradi.

Ta‘lim sifatini oshirish va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish bo‘yicha Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023-yil 31-yanvardagi 01 - 17 - sonli "Universitetda talabalarni individual yondashuv asosida ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish to‘g‘risida"gi hamda 02.02.2023 yildagi 01-20 - sonli "Universitetning ta‘lim jarayoniga individual yondashuv texnologiyalarini tadbiq etish to‘g‘risida"gi buyruqlarining ijrosini to‘liq va sifatli ta‘minlash maqsadida tabiiy fanlar fakul‘tetida har bir kafedra hududiga professor-o‘qituvchilarning o‘quv-ilmiy faoliyati haqida to‘liq ma‘lumotlardan iborat innovatsion planshetlar tashkil etildi. Talabalar qiziqishi va o‘z tanlovi asosida professor-o‘qituvchilarga birlashtirildi.



1-rasm. Tabiiy fanlarni o‘qitishda individual ta‘limni shakllantirish tuzilmasi.

Talabalar hozirgi vaqtda ilmiy mavzulariga oid ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish, fan bo'yicha topshiriqlar tuzish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy va pedagogik tavsiyalarga, tanlagan mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni izlash, undan foydalanish tartibi, tahlil qilish bo'yicha tushunchalarga ega.

Universitetning ta'lim jarayoniga individual yondashuv texnologiyalarini tadbiiq etish bo'yicha individual yondashuvlarga asoslangan ta'lim texnologiya – bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va talabani o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir.

Tabiiy fanlarni o'qitishda yangicha yondashuv yani pedagogik ta'lim innovatsion klasterining tarkibiy qismi hisoblangan "Eshitim – ko'rdim – bajardim" tamoyiliga (Chirchiq tajribasi) asoslangan bo'lib, o'ziga xos metodlar, shakllar, vositalar yordamida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish, o'quvchi-talabalarni ilmiy, pedagogik tadqiqot va tadbirkorlik ishlariga qiziqtirish orqali iqtidorli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va "Tadqiqotchi talabalar" akademiyasini tashkil etilishidan iborat bo'ladi.

Talabalar yakka, juft holda kichik guruhlarda ishlaydi, ular o'rtasida do'stona muloqot, o'zaro yordam, hamkorlik vujudga keladi, nutqi rivojlantiriladi. Har bir talaba o'z qiziqishi, iqtidoriga asoslanib bilimni oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab yangi bilimlarni o'zlashtiradi. O'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazorati amalga oshiriladi. Bu esa talabani bo'sh vaqtini samarali, mazmunli va foydali o'tkazishni ta'minlaydi. Pedagogik munosabatlar o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy - amaliy konferentsiyalarda, innovatsion loyihalarda ozlarining maqola va ishlanmalari bilan faol ishtirok etmoqdalar.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida individual ta'lim bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda mutaxassislik va kasbiy fanlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borish va fanga oid xususiy kompetensiyalarga ega bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan: "Agro-bio-geo-kimyo" (Issiqxona, Bioekologik xilma-xillik, Zamonaviy geografik, kimyo maydoncha) o'quv-ilmiy-pedagogik tajriba maydonchalar majmuasi tashkil etilgan; Respublikada yagona "Geografiya Smart xonasi" mavjud; "Fitobar" faoliyati yolga qo'yilgan; "Qo'ziqorin etishtirish markazi" tashkil etilgan; "Maktab laboratoriyasi" innovatsion tajriba maydonchalari tashkil etilgan; "Tashabbuskor talabalar" guruhi tashkil etilgan; o'quv-ilmiy laboratoriyalar zamonaviy asbob-uskunlar bilan jihozlangan.

Individual ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash, o'z-o'zini, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini hamda ma'lumotlar izlab topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirish bilan birga o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabalarda muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishni taqozo etadi.

Tabiiy fanlar o'qitishda individual ta'lim berish jarayonida talabalarga qo'shimcha kasb berish - oilaviy tadbirkorlik va daromad topish sirlarini o'rgatish ishlari ham olib borilmoqda. Buning uchun "Issiqxona" xo'jaligida turli iqlim sharoitidan olib kelib introduktsiyalangan tsitrus, dukkakli, texnik va manzarali o'simliklarni yetishtirish, o'quv mashg'ulotlari va genetik tadqiqot ishlarni olib borish orqali nazariyaning amaliyot bilan birligi, ilm - fan - ishlab chiqarishning uyg'unligi, ta'lim turlari o'rtasida uzviy aloqadorlik va uzluksizlik bajardim tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugun kelajakning yangi ta'lim tizimini yaratuvchi mamlakatlar ertangi kunda dunyo iqtisodiyotining yetakchilariga aylanadilar. Bu borada shaxsning barkamol rivojlanshini ta'minlashda, uning ham kasbiy ham ma'naviy jihatdan rivojlanib, raqobatbardosh kadr bo'lishida, xalqaro darajadagi o'qituvchi tayyorlashda individual ta'lim eng zamonaviy va samarali usullardan biri sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ -4805-sonli qarori.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyari. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2015 – 208 b.
3. Rakhimov A.K. Improving the methodology for developing students' natural and scientific worldview (on the example of teaching the subject of "The doctrine of evolution"). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 02, 2020.
4. Raximov.A.K., Rasulova.O.O., Matyaqubov.A.Q. Ta'lim-tarbiya tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining roli //Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў. Нукус:4/2 2021 жыл.

Muallif:

Raximov Atanazar Karimovich - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

UDK 372.3/4

PEDAGOGICAL TOOLS FOR DEVELOPING IMPROVISATION SKILLS IN FUTURE PRIMARY TEACHERS

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA IMPROVIZATSION QOBILİYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK VOSITALARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ ИМПРОВИЗАЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Kasimova Odina Alimjanovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: kasimova odina @gmail.com

Abstract. This article talks about the competence of pedagogical improvisation, the importance of pedagogical improvisation in the educational system, ways to implement improvisation in the work of a future primary school teacher.

Key words: elementary school, improvisation, pedagogical improvisation, character of improvisation, pedagogical communication, pedagogical creativity, creativity, criteria of improvisation.

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya kompetensiyasi, ta'lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida improvizatsiyani amalga oshirish yo'llari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari.

Аннотация. В данной статье говорится о компетенции педагогической импровизации, значении педагогической импровизации в системе образования, способах реализации импровизации в работе будущего учителя начальных классов.

Ключевые слова: начальная школа, импровизация, педагогическая импровизация, характер импровизации, педагогическое общение, педагогическое творчество, креативность, критерии импровизации.

KIRISH. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi, faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan fanlarni chuqur bilishi zarur. Predmeti va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqishini oshirib, o'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'qituvchilar o'quvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uni shu fanga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyligini ham taqdirlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarini bilibgina qolmay, uni keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina, ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va tajribasidir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Faoliyatning o'zgargan sharoitlari o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, pedagogik improvizatsiya muayyan darsning maqsadlarini, o'quv materialining mazmunini, uslubiy qabul qilish va muloqotni maqsadga muvofiq ravishda aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. V.N.Xarkinning fikricha, pedagogik improvizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (Xarkin, 1992): yaratish va bajarish jarayonlarining mos kelishi yoki ularning minimal bo'shlig'i; ularning bevositaligi; jamoat xarakteri; mantiqiylikning birligi, dastlabki tayanch tushunchasi. L.Yu. Berixonovanning fikricha, pedagogik improvizatsiya tasodifiy hodisa emas, balki o'qituvchining ijodiy o'qitish faoliyatining tabiiy, ajralmas va juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'ylab topilgan narsani optimallashtirishning samarali usuli va pedagogik rejaga muvofiq pedagogik rejani tezkor tuzatish vositasi sifatida ishlaydi. (Paltshev, 2002)

Olingan natijalar va ularning tahlili

Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o'sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko'tarilish bilan o'lchanadi. V.I. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, improvizatsiya yo'qdan paydo bo'lmaydi. Muvaffaqiyatli improvizatsiya faqat yaxshi tayyorlangan zaminda mumkin. Zero, eng yaxshi improvizatsiya bu oldindan tayyorlangan improvizatsiya, deb yarim hazil bilan bejiz aytishmagan.

Muvaffaqiyatli improvizatsiyaning asosi odatiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi, qonunlar va tendentsiyalarni bilish, asosli gipoteza asosida bashorat qilishdir. "Ijodkorlik", deb ta'kidladi V. A. Suxomlinskiy. - bu hech qanday tarzda pedagogik jarayon tushunarsiz, faqat sezgiga bo'ysunadigan va oldindan ko'ra olmaydigan narsa degani emas. Faqat aksincha. Aynan nozik oldindan ko'ra bilish, pedagogik jarayonning ko'plab omillari va qonuniyatlari bog'liqligini o'rganish chinakam ustaga rejani bir zumda o'zgartirish imkonini beradi". (Zagvyazinskiy va boshq. 2005)

Talimni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, shaxsga qo'yiladigan kasbiy talablarning kuchayishi o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish zaruratini oshirdi. Ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik improvizatsiyadir. Tajribali o'qituvchilar o'z faoliyati davomida turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab texnikalarga ega. Ammo shunday vaziyatlar mavjudki, o'qituvchi tezda qaror qabul qilishi, sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda nostandart vaziyatlarda moslashuvchan bo'lishi kerak. (Abdullayeva Sh va boshq., 2019)

Lug'atlarda improvizatsiya tushunchasi etimologik jihatdan ajablanish va ajablanish elementlari bilan bog'liq. Aslida, bu ijodiy jarayon, bu ham uning natijasidir. Musiqiy, raqs yoki boshqa improvizatsiyalar mavjud. O'qituvchilar o'z ishlarida pedagogik improvizatsiyadan foydalanadilar. To'satdan yoki kutilmagan holatlarda paydo bo'lgan vaziyatlarda qanday yo'lni tanlash, improvizatsiya shu yerda va hozir tug'iladi. Bu tanqid, mulohaza yoki baholash bilan to'xtatilmagan, o'ziga shakl va yo'nalish beradigan, muallif "orqali" oqib o'tadigan, uni o'zidan o'tib, mavzu, mazmunning rivojlanishini kuzatish uchun vaqt topadigan ijodiy faoliyat oqimidir.

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus - kutilmagan) – o'qituvchining yangi echimlarni ishlab chiqish, shuningdek, paydo bo'lgan pedagogik vazifalarga tez, moslashuvchan va aniq javob berish qobiliyati. Barcha o'qituvchilar o'z darslarida ma'lum bir sxemadan foydalanadilar. Biroq, ular orasida o'zlarini improvizatsiya qilishga - darsning rejalashtirilgan kursidan chetga chiqishga, unga kutilmagan, tayyor bo'lmagan, to'satdan, shu erda va hozir paydo bo'ladigan narsalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydiganlar ko'p. Improvizatsiya jarayonida (kutilmagan vaziyat yuzaga kelganligi sababli) o'qituvchilar uchun turli xil xatti-harakatlar bo'lishi mumkin: tabiiy turi: samarali improvizatsiya harakatlari o'qituvchi uchun psixologik va hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi; stress-transformatsion tip: yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun shaxsning barcha resurslarini safarbar qilish mavjud; ataylab qochish turi: o'qituvchining kutilmagan pedagogik vaziyatni bartaraf etishdan ongli ravishda qochishi ("sezmaslik"); beixtiyor tormozlovchi turi: chalkashlik va o'qituvchining harakatlarini to'liq his qilish; hissiy buzilish: o'qituvchi nazoratsiz, tasodifiy harakat qiladi, ziddiyatni kuchaytiradi, o'zini tuta olmaydi yoki his-tuyg'ularini yashira olmaydi; noadekvat tip: o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini yashiradi, lekin ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tajriba va harakatlarga aylantira olmaydi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritish olishi, fan yutuqlarini o'quvchiga yetkaza olish va nihoyat o'quvchini ham ijodiy fikrlashga, ilmiy-tadqiqot ishlariga o'rgata olishni Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida buyuk mutafakkirlar, olimlar asarlarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida, foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi. Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanining rivojlanishida boshlang'ich omil hisoblanadi.

Pedagogik tajriba to'plash tizimi: 1. Maqsadni belgilash; 2. Tahlil etish, umumlashirish, xulosa qilish; 3. Yutuqlarni aniqlash; 4. Ma'lumot to'plash.

Pedagogik improvizatsiyani faollashtiradigan ichki mexanizm sezgi bo'lib, asosiy harakatlantiruvchi kuch - bu asl pedagogik g'oya va to'g'ridan-to'g'ri ta'lim yoki ta'lim jarayonida paydo bo'lgan yangi g'oya o'rtasidagi nomuvofiqlik, uni amalga oshirishning yanada samarali versiyasi va dars loyihasi (holatlar, hodisalar va boshqalar) va uni amalga oshirishning ob'ekt-sub'ekt shartlari. O'quv jarayonida pedagogik improvizatsiya o'quv aloqasini, uslubiy texnikani, o'quv materialining mazmunini, ta'lim yoki ta'lim maqsadlarini tashkil etish va aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Pedagogik improvizatsiya mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. 1. Ob'ektiv mezonlar: to'satdan (to'siqning ajablanishi, kutilmagan vaziyatga yoki to'satdan o'zgargan vaziyatga javob berish tezligi, bu harakatning yangiligi, uning g'ayrioddiyligi va kutilgan harakatlarga mos kelmasligi); zudlik bilan (harakatning darholigi); yangilik (o'ziga xoslik darajasi); oshkoralik (tomoshabinlar, improvizatsiya sheriklarining mavjudligi); pedagogik ahamiyati (ta'limga hissa qo'shish, shaxsni rivojlantirish). 2. Subyekt tomonidan improvizatsiyani amalga oshirish mezonlari: fikr ishini namoyish etish; ruhiy va hissiy yuksalish; qoniqish hissi. 3. Tomoshabinlar tomonidan idrok etilishidagi improvizatsiya mezonlari: ajablanish (kutilmagan narsaga munosabat); kiritish; faoliyat; hissiy sezgirlik; diqqatni jamlash; qiziqishning ortishi; ohang va kayfiyatning oshishi; empatiya chuqurligi.

Ko'tarilgan qoshlar, porloq ko'zlar, beixtiyor imo-ishoralar, mulohazalar, kulish va boshqalar ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Pedagogik improvizatsiyada ijodiy dominantning tarkibiy qismlari diqqat, tasavvur va ilhomdir.

Tasavvur - bu mavjud g'oyalar, bilimlar, tajribalar asosida yangi tasvirlar, g'oyalar, fikrlar yaratishdan iborat aqliy jarayon. Tasavvurni inson oldida turgan vazifalar, uning ehtiyojlari, his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, oldindan ko'rish

zarurati rag'batlantiradi. Tasavvur yaratilgan tasvirlarning yangilik darajasi bilan tavsiflanadi, u rekreativ va ijodiy bo'lishi mumkin. Ijodiy tasavvur jarayonida yangilik va o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan tasvirlar yaratiladi, ko'pincha bu hozir mavjud bo'lmagan ob'ektlarning tasvirlari. Ijodiy tasavvurda shaxsning bilimi, kechinmalari, tajribasi, kuchli irodali va intellektual harakatlari, ongsiz munosabati, sezgi ishtirok etadi.

Pedagogik diqqatning o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida turli ob'ektlarga (o'quvchilar, dars mazmuni va boshqalar) taqsimlanishi va aniq pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Diqqatni taqsimlash tufayli o'qituvchi ta'lim holatidagi o'zgarishlarni "tutib olishi" va harakat rejasini o'zgartirishga, ya'ni improvizatsiya qilishga qaror qilishi mumkin.

Improvizatsiyani amalga oshirish uchun ilhomning mavjudligi katta ahamiyatga ega. **Ilhom** - bu insonning kognitiv va hissiy sohalarini bog'langan va ijodiy muammoni hal qilishga yo'naltirilgan eng yuqori ko'tarilish holati. Ilhom, vazifa yoki muammoni qanday hal qilishni to'satdan tushunish bilan chambarchas bog'liq.

Jarayon tuzilishi bo'yicha: Klassik; uy vazifasi bilan improvizatsiya qilish; Aralash yoki o'tish davri improvizatsiyasi (dastlab klassik yoki dastlab uy qurilishi bo'lishi mumkin).

V.A. Kan-Kalik sinfda pedagogik improvizatsiyaning manbasiga qarab beshta variantni aniqladi: 1. Bilvosita induksiya qilingan improvizatsiya (amaliy fikrlash va hissiy barqarorlik muhim rol o'ynaydi); 2. "Ichkaridan" improvizatsiya (o'qituvchining individual ijodiy xususiyatlariga bog'liq); 3. Materialni taqdim etish mantig'idan kelib chiqqan improvizatsiya (pedagogik fikrlashning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi); 4. Introspektsiya va sinfiy idrokga asoslangan improvizatsiya; 5. Pedagogik kashfiyot bilan chegaralangan improvizatsiya ("pedagogik idrok" natijasi).

V.N. Xarkin pedagogik improvizatsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligini ta'kidlaydi (Xarkin,1997): 1-bosqich - insight (insight). Bu bosqichda g'oyaning kutilmagan intuitiv kashfiyoti, original harakat, paradoksal fikr va boshqalar sodir bo'ladi. Ko'pincha tushuncha nostandart vaziyatda yoki hissiy ko'tarilish fonida paydo bo'ladi. 2-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tushunish va uni amalga oshirish usulini tanlash. 3-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tuzatish bilan ommaviy amalga oshirish. 4-bosqich - improvizatsiya natijasini bir zumda intuitiv-mantiqiy tahlil qilish. Improvizatsiya yoki qayta qurish faoliyatini davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

XULOSA

Biz pedagogik ijodning tarkibiy qismi sifatida pedagogik improvizatsiyaning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ijodiy pedagogik faoliyatni o'qituvchining faoliyat sharoitiga, o'z ijodiy salohiyati va farovonligiga, o'quvchilar jamoasining kayfiyatiga, pedagogik rejani o'z vaqtida amalga oshirish va tuzatish qobiliyatisiz to'liq amalga oshirib bo'lmaydi ya'ni improvizatsiya qilishni maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatisiz amalga oshirish mushkul. Improvizatsiyani bo'lajak o'qituvchilar va yosh o'qituvchilarga maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimi yordamida o'rgatish kerak, ularning o'ziga xos xususiyati odatiy bo'lmagan pedagogik vazifani hal qilish uchun ajratilgan vaqtni maqsadli ravishda qisqartirish va asta-sekin kamaytirishdir. Bu yerda o'qituvchining improvizatsiyaga tayyorligi haqida gapirish kerak. Demak, darsning pedagogik loyihasi va uni amalga oshirishning yangi, kutilmagan, to'satdan paydo bo'luvchi holatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishning samarali vositalarini topishning tabiiy ehtiyoji mavjud. Bu pedagogik improvizatsiya bo'lib, u o'ziga xos "tartibga soluvchi" vazifasini bajaradi, u o'qituvchining g'oyalari uning ijodiy farovonligi va o'quv jarayonining haqiqiy sharoitlariga mos kelishini ta'minlashi kerak. Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o'sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko'tarilish bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh. Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik.- T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. М., 1987
3. Мягкая Е. Б. Роль педагогической импровизации в процессе творчества будущего педагога / Е. Б. Мягкая. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 42 (332). — С. 55-57.
4. Палтышев Н.Н. Постигание педагогического мастерства / – Москва: Изд.центр АПО, 2002. – 64 с.
5. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
6. Ходжайев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik –T.: Sano-standart, 2017.-
7. Харьков В.Н. Педагогическая импровизация: теория и методика. М., 1992 г. - 264с.
8. Харьков В.Н., Импровизация... Импровизация? Импровизация!. Магистр, 1997 г., - 288 с.
9. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. пед. образовательные учреждения. М., 2005.
10. Щербакова Т. Н. Импровизация как компонент творчества современного педагога — // Педагогическое мастерство: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Москва, 2014 г.). Москва: Буки-Веди, 2014. — С. 13-16.

Muallif:

Kasimova Odina Alimjanovna – Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, E-mail: kasimovaodina@gmail.com

UDC 372.3/4

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES FOR DEVELOPING READING LITERACY BASED ON THE REQUIREMENTS OF THE PIRLS ASSESSMENT PROGRAM

O'QISH SAVODXONLIGINI PIRLS BAHOLASH DASTURI TALABLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ ОЦЕНОЧНОЙ ПРОГРАММЫ PIRLS

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna

Alfraganus universiteti. 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Tiklanish MFY, Yuqori Karakamish, 2^a-yfl.

E-mail: maftunaqurbonova29@gmail.com

Abstract. This article examines the development of reading literacy in primary school students based on the requirements of the PIRLS assessment program, "4k" skills, as well as the need and methodological possibilities for developing these skills based on the requirements of the PIRLS assessment program.

Keywords: "4k" skills, independent work activity, PIRLS assessment program, reading, stages of understanding, creative thinking, "Reverse learning", practical skills, didactic games.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirish, «4k» ko'nikmalari, hamda mazkur ko'nikmalarni PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirish zarurati hamda metodik imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: «4k» ko'nikmalari, mustaqil ishlash faoliyati, PIRLS baholash dasturi, o'qish, tushunish bosqichlari, kreativ fikrlash, "Teskari ta'lim", amaliy faoliyat ko'nikmalari, didaktik o'yinlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование читательской грамотности учащихся начальных классов на основе требований оценочной программы PIRLS, навыков «4к», а также необходимость и методические возможности формирования этих навыков на основе требований оценочной программы PIRLS.

Ключевые слова: навыки «4к», самостоятельная трудовая деятельность, оценочная программа PIRLS, чтение, этапы понимания, творческое мышление, «Обратное обучение», навыки практической деятельности, дидактические игры.

O'qish savodxonligini baholash uchun PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi ta'lim tizimlarida o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu dastur jahonning turli mamlakatlaridagi o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashda muhim ahamiyatga ega. O'qish savodxonligi - bu inson o'qilgan matnни anglash, tahlil qilish, baholash va undan muloqotda, maslahat berishda foydalanish qobiliyatidir. Bu ko'nikma nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham zarur hisoblanadi.

O'qish savodxonligini shakllantirishda o'quvchi imkoniyatlarini oshiradigan usulni tanlash ijobiy samara beradi. Har qanday usul turli shakllar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, axborot metod ma'ruza, o'quv filmi ko'rsatish, darslik o'qish kabi shakllardan tashkil topadi. Reproductiv metodning shakllanishida esa suhbat, savol-javob, topshiriq kabilardan foydalaniladi. Biz quyida reproductiv mos sodda "Tez yurar" metodini savol-javob shakli asosida tashkil qilish haqida to'xtalib o'tamiz

"Tez yurar" o'tilgan mashg'ulotlardagi nazariy va amaliy yangiliklar doimo takrorlanib turgandagina o'quvchilarning xotirasiga muhrlanib qoladi. O'quvchilar ishtirok qilgan o'quv materialini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishiga erishish uchun doimo harakat qilishi darkor. Kishi ongida aks etgan voqea-hodisa yoki holatlarni, narsa buyumlarni mustahkamlash, saqlab qolishga ma'lum muddat o'tgandan so'ng tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira sanaladi. Xotiraning qay darajada mustahkam ekani, xotirada qoldirish metodlariga va uni takrorlab turishga bog'liqdir. Qolaversa, o'quv materialining xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi o'quvchining o'quv materialini to'la idrok qilishi va uni amaliyotga tatbiq qilishiga bog'liq.

"Tez yurar" metodida o'tilgan va avval o'tilgan mavzular doimo takrorlanadi. Bu takror faqat qoida aytish, yod olish asosda ko'rilmagan, mantiqiy fikrlash, idrok etish, mulohaza qilish, xulosa chiqarish, fikrni jamlash asosidagi javoblar asosda ko'riladi. Biz tavsiya etayotgan mazkur metodda asosiy e'tibor o'quvchi tomonidan qoidani aytishdan chekingan holda na-zariy ma'lumotlarning amaliy tomonini aks ettiruvchi savol tuzishdan iboratdir. Bu metodda o'quvchi o'z bilimini o'zi aniqlaydi, o'zini o'zi baholaydi. Ya'ni bilim qay darajada ekanligiga tashhis qo'yiladi va keyingi yangi mavzu bahsida shu tashhis asosida ularga bilim beriladi. Bu metodni o'tkazish uchun o'quvchilarga beriladigan savollar: tushunarli va aniq bo'lishi; qisqa, aniq javob talab qiluvchi bo'lishi; javobi "ha" va "yo'q" so'zlar bilan kelmasligi; savollar kitobiy bo'lmasdan, amaliyotdan olingan bo'lishi; yangi va eski o'tilgan mavzular bo'yicha tayyorlanishi; o'quvchilarni mushohada asosida javob berishlarini ta'minlashi kerak.

“Tez yurar” metodining yana bir psixologik ahamiyati takrorlash natijasida o‘quvchilarning nazariy, amaliy bilimlarining puxtalanishidir. Ma’lum mavzu o‘tilgach, o‘sha mavzu atrofida 10-15 savolga javob berish uchun o‘quvchi uni to‘la idrok qilishi kerak.

Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin, masalan, ona tili fanidan: Nima uchun sinonimlar ishlatiladi? Sinonimik qator nima? Sinonimik qatorga misol keltiring. “Do‘st” so‘zining sinonimlarini ayting. Sinonim so‘zlar qanday so‘zlar? Ma’nolari bir xil yoki o‘zaro yaqin so‘zlar qanday so‘zlar? “Shavla”, “Osh”, “Palov” so‘zlari sinonim bo‘ladimi? Nega? Sinonimlarni nima uchun o‘rganamiz? Sinonim so‘zlarga misol keltiring.

“Tez yurar” metodining ahamiyati haqida fikr yuritilgan ekan, quyidagi jihatlar dars samaradorligini ta’minlaydi: hozirjavoblikka o‘rganadi, barcha o‘quvchi birdan baholanadi, nutqi rivojlanadi, o‘quvchining tafakkur faoliyatini oshiradi, ilmiy-nazariy bilimga ega qiladi, o‘quvchi bilimiga tashhis qo‘yiladi, fikrini erkin izohlay oladi.

“Sharhlash” metodi jarayonini tashkil qilishda turli metod va metodlarni tanlash o‘qituvchining darsni tashkil qilishiga, uning bilim darajasiga, ijodiylikiga va o‘quvchilarning saviyalariga bog‘liq. Shularni hisobga olgan holda, har bir o‘qituvchi dars o‘tishda eng optimal metodni, yo‘lni tanlashi tabiiy. Masalan, ona tili darslaridagi asosiy maqsad, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish, til madaniyatini egallashini shakllantirib borib, shu orqali ularning o‘z fikrini hech qiyalmay, erkin va ravon bayon etishlariga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga erishish ekan, buni amalga oshirishda eng optimal usullardan biri mazkur usuldan foydalanishdir.

O‘yin texnologiyalardan tashqari interfaol usullardan “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Klaster”, “Insert”, “Muammoli savollar”, “Adashgan zanjirlar”, “Savol bering” “Kichik guruhlarda ishlash”, “Burchaklar metodi”, “Kubiklar” kabilarni sanab o‘tish mumkin. Bu metodlar sinfda o‘rganiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni yaratishga, mavzuni muhokama qilish asosida bahs-munozara orqali muammo yechimini topishda yaqindan yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning «4k» ko‘nikmalarini PIRLS baholash dasturi talablari asosida shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish yaxshi natijalar beradi [3]. Interfaol usullarning mohiyati o‘qitish jarayonida o‘quvchi faolligini oshirish, uni pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Bunday metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchini o‘z fikrini shakllantirishga, ifodalashishga, maqbul yo‘lni tanlash va buning uchun ma’suliyat his etishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, ma’suliyat, halollik, e’tibor va tirishqoqlik xususiyatlarini tarbiyalashga ham harakat qilinadi [4].

Interfaol asosida o‘quv mashg‘uloti jarayoni tashkil etilganda: o‘quvchilarning o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlik, ijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi; o‘quv, reja, dastur, darslik, standart, meyor, qo‘llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi; ta’lim mazmunini, ma’ruzasini mustaqil mutoola qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi; o‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi, ya’ni, o‘quvchining ehtiyoji, hoxish-istagi qondiriladi, o‘quv-bilish jarayonida ularning manfaatdorligi oshadi. Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko‘taradi.

Interfaol usullarni qo‘llash orqali quyidagi vazifalar hal qilinadi: o‘quvchilarni dars mavzusiga qiziqitirish; bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish; o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish; o‘quvchilarni o‘zaro muomala qilishga o‘rgatish; ta’lim jarayoniga barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun sharoit yaratish; o‘quvchilar guruhida mutaddil psixologik iqlim yaratish. O‘qituvchilar ta’lim jarayonida interfaol muhit yaratishlarida quyidagilarni e’tiborga olishlari talab etiladi: o‘quvchilarni darsga qiziqitirish; o‘qituvchi va o‘quvchilarning qiziqishlarining bir-biriga to‘g‘ri kelishi; qiziqarli ma’lumotlar berish, lekin juda ko‘p emas; uslub va vositalarning xilma-xilligiga erishish; o‘quvchilarni faollikka undash; o‘qituvchi va o‘quvchilarning samimiy o‘zaro harakatlari; o‘quvchilarning o‘z ishlari natijalarini namoyish qila olishlari; qo‘yilgan maqsadlarga erishish; o‘quvchilarni olgan bilimlarini hayotga tatbiq etishga o‘rgatish [5].

Tayanch so‘z va iboralar variantidan foydalanish shaklidagi topshiriqlarni tuzishda interfaol usullarni qo‘llab hal qilinadigan topshiriqlar miqdoriga ham e’tibor berish lozim. Bu usullarni o‘quvchilarning yoshi va imkoniyatlariga qarab tanlash va qo‘llash, ularning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, materialni yuqori intellektual darajasida o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baker, L., Scher, D. (2002). Beginning readers' motivation for reading in relation to parental beliefs and home reading experiences. *Reading Psychology*, 23(4), 239-269 c.
2. Qurbonova M.F. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33.
3. Qurbonova M.F. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10.
4. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar // Mug‘allim h m yzliksiz bilimlendirio‘. – Nukus, 2021. – B. 112-116.

5. Qurbonova M.F. Boshlang'ich ta'limda xalqaro dasturlar. O'quv qo'llanma, Chirchiq, Zebo-print. 2023-yil. 113-b.
6. Qurbonova M.F. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar asosida mustaqil ishlarni tashkil etish. International scientific journal volume 1, Issue 8. Uif-2022: 8.2, Issn: 2181-3337

Muallif:

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna - Alfraganus universiteti, P.f.d, (DSc).

UDK 373.6: 371.126

TECHNOLOGY OF DEVELOPING REFLEXIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF PROFESSIONAL EDUCATION

BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING REFLEKSIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Hayitov Anvar Isomidin o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU. 100014. Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

E-mail: anvar-hayitov2024@gmail.com

Annotation: this article discussed the creation and content of a model for the development of reflexive competence in future professional education teachers. The blocks of the creation of the model for the development of reflexive competence and the methods of their implementation are covered.

Keywords: professional education teacher, competence, reflexivity, reflexive competence, development of reflexive competence, model, Model content.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida releksiv kompetentlikni rivojlantirish modelini yaratish va uning mazmuni haqida so'z borgan. Releksiv kompetentlikni rivojlantirish modelini yaratishning bloklari va ularni amalga oshirish usullari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasb ta'limi o'qituvchisi, kompetentlik, refleksiya, refleksiv kompetentlik, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish, model, model mazmuni.

Аннотация: В данной статье рассматривается создание модели развития рефлексивной компетентности у будущих педагогов профессионального образования и ее содержание. Освещены блоки построения модели развития рефлексивной компетентности и способы их реализации.

Ключевые слова: учитель профобразования, компетентность, рефлексия, рефлексивная компетентность, развитие рефлексивной компетентности, модель, модельное содержание.

Kirish. Hozirgi rivojlanayotgan davrda xalqimiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jarayonida ta'lim subyektlariga yaratilayotgan imkoniyatlar, yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ta'lim muassasalarining o'quv-ilmiiy-metodik va moddiy-texnik imkoniyatlarini zamon talablari darajasida ta'minlash, Davlat ta'lim standarti, Davlat ta'lim talablari, o'quv dasturlarini o'zgartirish, yangilash va takomillashtirish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan ishlar ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan yuksaltirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonlar, o'z navbatida ta'lim oluvchilar va pedagoglar faoliyatini takomillashtirishning zarurligini belgilab beradi.

Respublikamizda boshlang'ich kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va ular uchun metodik ta'mintoning yangi avlodini yaratish, zamonaviy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi hamda moddiy-texnik bazasi takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-con «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonida. «Yoshlarni jismonan, ruhan va aqlan sog'lom, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai-nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi [1].

Ta'lim sohasidagi munosabatlar "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinib, qonunning 9-moddasida boshlang'ich ta'lim haqida so'z yuritiladi. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinishi hamda boshlang'ich ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilganligi belgilab berilgan [2].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonining umumiy mazmuni bo'lajak mutaxassisning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligiga nisbatan nazariy-metodologik yondashuvlarni aniqlashni talab etadi. Tadqiqot

uchun aniq metodologik asos sifatida tizimli, shaxsiy-faoliyatli, refleksiv-ijodiy, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlar belgilab olindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

N.A.Muslimov tadqiqotlarida tizimli yondashuvga quyidagicha ta'rif beriladi. Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida ob'ektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchining ob'ekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi [3].

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirishga E.F.Zeerning ilmiy ishlarida ajratib ko'rsatilgan omillar muayyan darajada ta'sir etadi [4].

E.F.Zeerning pedagogik refleksiyani rivojlanishiga yuqori darajada ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: o'ziga adekvat baho berish, o'z-o'zini nazorat qilish, fikriy faoliyatning moslashuvchanligi, kasbiy yo'nalganlik, ijobiy "Men" obrasi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga moyillik, xulq-atvorda subyektivlik, empatiya [4].

Shuningdek, pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra pedagogik refleksiyaning rivojlanishiga quyidagi omillar ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi belgilab berilgan:

- shaxsning individual tipologik xususiyatlari: jinsi, yoshi, xulq-atvor xususiyatlari;
- ijtimoiy omillari: pedagogning ta'lim va tarbiya tizimidagi tajribasi; ijtimoiy maqomi (muayyan rasmiy lavozimlarni egallash).

Mazkur omillarning samarali ta'siri orqali bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida o'z shaxsiyatini o'zgartirish va rivojlantirishga intilish, kasbiy faoliyat jarayonida o'zini o'zi bilish, shaxsning faoliyatda sheriklar tomonidan qanday qabul qilinishini tasavvur qilish, ichki xususiyatlarini tahlil qilish kabi qadriyatli munosabatlar tizimi shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan omillar refleksiv kompetentlikning alohida tarkibiy jihatlarini rivojlantirish amaliyotida hisobga olinishi lozim. Chunki ular bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida shaxslararo munosabatlarda empatiya, o'z-o'ziga adekvat baho berish, boshqalar bilan o'z shaxsini identifikatsiyalashga oid nuqta nazarlarni tarkib toptirishga xizmat qilib, samarali refleksiv pozitsiya va refleksiv tayyorgarlikni rivojlantirishda o'z o'rnida ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Model lotincha modulus – o'lchov, me'yor ma'nolarini anglatib, biror narsaning xuddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab ishlab chiqarish uchun andoza bo'la oladigan nusxasi [5].

Modellashtirish bu bilish obyektining har xil modellarini yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir. Modellashtirish metodida obyekt o'rniga uning modeli o'rganiladi [5]. Modellashtirish – biror narsaning modelini ishlamoq, yaratmoq.

Demak, model modellashtirilayotgan jarayonga samarali ta'sir etishga yo'naltirilgan tizimli-konseptual vositadir. Biz tomonimizdan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish modeli ochiq tavsifga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bevosita bog'liqlikda ishlab chiqilgan.

Ushbu fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini modellashtirish – bu bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda ahamiyatga ega bo'lgan tabellar asosida ishlab chiqilgan, zaruriy pedagogik shart-sharoitlarning samarali ta'sirini inobatga olgan holda usul, metod va vositalardan foydalanishni aks ettiruvchi mazkur jarayonni tashkil etish bosqichlari, funksiyalari, tamoyillari, mezonlari va darajalarini ifodalovchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan andozadir. Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishga nisbatan mavjud tarkibiy qismlar, yondashuv va tamoyillarni tahlil etish asosida jarayonni quyidagi modelni taklif etamiz.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish modeli uchta bir-biri bilan bog'liq motivatsion-qadriyatli, mazmunli-protsessual, baholovchi-natijali bloklardan iborat.

Motivatsion-qadriyatli blok o'zida ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalarni aks ettirdi. Ijtimoiy buyurtma sifatida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish belgilab olindi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi faoliyatning samarasi, eng avvalo, uning maqsadini to'g'ri belgilab olinishi bilan bog'liq. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish jarayoni mazmuni uning maqsad va vazifalarida yanada aniqlashtiriladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model doirasida quyidagi maqsad belgilab olindi: bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish jarayonining asosiy vazifalari etib quyidagilar [5]:

- bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, tendensiyalarini aniqlashtirish;
- integrativ yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish;
- fanlararo modulli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;
- bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida empatiklik, ijtimoiy munosabatlarda emotsional nazoratning mavjudligi, kommunikativlik, tashkilotchilik, hamkorlikdagi faoliyat, o'ziga ishonish, refleksivlik kabi fazilatlarini rivojlantirish;

• bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish jarayonining maqsad va vazifalari strukturaviy-funksional modelning bloklari bilan bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-con «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni. – T., 2020.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning tazariy-metodik asoslari. – Toshkent, 2007. – 315 b.
4. Зеер Э.Ф. Ключевые квалификации и компетентности в личностно-ориентированном профессиональном образовании. // Образование и наука. - 2000. - № 3 (15). - С. 90-102
5. O'zbek tilining izohli lug'ati / Begmatov E., Madvaliyev A. va boshq.; A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. – 2-jild. – 606-b.
6. Khayitov, A. I., Mirkholikova, C. K., Tursunova, M. B., & Baltamuratova, A. P. (2023). Pedagogical-Psychological Characteristics of Development of Reflective Competence of Future Primary Class Teachers. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1809-1818.

Muallif:

Hayitov Anvar Isomidin o'g'li - Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi.

UDK 373.6: 371.126

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISHNING XORIJIY TAJRIBASI

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Aripov Masud Marufovich

Qo'qon davlat universiteti, 150700, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon 23.

E-mail: aripovmasud@mail.ru

Annotation. This article analyzes the foreign experience of educational systems in the USA, Finland, Germany, Great Britain and Japan in organizing independent work for students. Using the example of these countries, methods of using innovative approaches, special programs and interactive platforms to guide students to independent work and development of their personal skills were studied. The purpose of the article is to consider the possibilities of effectively organizing independent work in the education system of Uzbekistan by studying foreign experience. These experiences also include opportunities to improve the quality of education, encourage students to conduct independent research, and apply successful methodologies.

Key words: independent work of students, mobile technologies, Moodle, Blackboard, Canvas, STEM, mobile technology, Opintopolku, Stud.IP, Self-Access Learning Centers.

Аннотация. В данной статье анализируется зарубежный опыт образовательных систем США, Финляндии, Германии, Великобритании и Японии по организации самостоятельной работы студентов. На примере этих стран изучались методы использования инновационных подходов, специальных программ и интерактивных платформ для направления студентов к самостоятельной работе, развитию их личностных навыков. Целью статьи является рассмотрение возможностей эффективной организации самостоятельной работы в системе образования Узбекистана путем изучения зарубежного опыта. Этот опыт также включает в себя возможности улучшить качество образования, побудить студентов проводить независимые исследования, а также применять успешные методологии.

Ключевые слова: самостоятельные работы студентов, мобильные технологии, Moodle, Blackboard, Canvas, STEM, мобил технологиялар, Opintopolku, Stud.IP, Self-Access Learning Centers.

Kirish. Mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish hozirgi kunda jahon ta'lim tizimlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli davlatlarda talabalarining mustaqil o'rganish va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ko'plab innovatsion usullar va texnologiyalar qo'llanilmoqda. Mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarini hal qilish va tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bunday ko'nikmalar talabalarining kasbiy tayyorgarligi, kelajakdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh, Finlyandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi mamlakatlardagi yetakchi universitetlar talabalarga o'qish jarayonida keng imkoniyatlar yaratish orqali ularning mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga alohida e'tibor qaratishadi. Ushbu mamlakatlar talabalarning mustaqil ishini rag'batlantirish uchun interfaol va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishadi. Masalan, interaktiv platforma va dasturlar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari va maxsuslashtirilgan o'quv yo'nalishlari talaba bilim olish jarayonidagi samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning xorijiy tajribalari, innovatsion yondashuvlar va turli pedagogik vositalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalardan o'rganish asosida O'zbekiston ta'lim tizimida mustaqil ishlarning sifatini yaxshilash imkoniyatlari ham muhokama qilinadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot ob'ekti — talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan xorijiy ta'lim tajribalari, xususan, AQSh, Finlyandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi mamlakatlar ta'lim tizimlari. Ushbu ob'ektga talabalarning mustaqil o'qish jarayonini tashkil qilishda qo'llanilayotgan usullar, vositalar va texnologiyalar kiradi. Tadqiqotda xorijiy tajribalardan o'rganish va ularni O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash ham asosiy maqsad sifatida belgilangan. Qo'llanilgan metodlar — tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: Ta'limiy-tahliliy metod: Xorijiy manbalar va ilmiy adabiyotlar orqali mustaqil ishlarni tashkil etish tajribasini tahlil qilish. Bu metod orqali turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan metodikalar, innovatsion yondashuvlar va ta'lim platformalari o'rganib chiqildi. Solishtirma-tahliliy metod: Xorijiy ta'lim tizimlaridagi mustaqil ishlarni tashkil qilishga doir yondoshuvlarni O'zbekiston ta'lim tizimi bilan taqqoslash va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini tahlil qilish. Tajriba-amaliy metod: Mustaqil ishlarni tashkil etishga doir xorijiy metodlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash va ularni o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu metodlar asosida talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishda xorijiy tajribalarning samaradorligi o'rganildi va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishda xorijiy tajribalar muhim ahamiyatga ega, chunki jahon bo'ylab turli universitetlar va ta'lim muassasalari mustaqil ishlarni tashkil etishda o'zgacha yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etgan. Bunday tajribalardan o'rganish, mustaqil ishlarni yanada samarali tashkil qilishga, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga, talabalarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

AQSh tajribasi

AQSh universitetlari ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishga bo'lgan yondashuvi alohida o'rin tutadi. Ko'plab universitetlar o'z kurslarida talabalarga mustahkam nazariy bilim berish bilan bir qatorda, ularni muammolarni mustaqil hal qilishga, yangi ma'lumotlarni izlashga va tahlil qilishga rag'batlantiradi. Buning natijasida talabalarning mustaqil ishlari tizimli ravishda va yuqori darajada tashkil etilgan. Harvard va Stenford universitetlarida mustaqil ishlar talabalarga birinchi kursdan boshlab yuklatiladi. Bu ishlar odatda talabalarning kasbiy maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bunday ta'lim tizimida talabalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, individual topshiriqlarni bajarish va mustaqil o'quv materiallari bilan tanishib chiqish talab etiladi. Bundan tashqari, AQSh universitetlarida talabalarning mustaqil ishlarni nazorat qilishda elektron platformalar keng foydalaniladi. Moodle, Blackboard va Canvas kabi platformalar orqali talabalar o'zlarining ishini elektron ravishda topshirishlari, baholash natijalarini ko'rishlari va o'qituvchilardan fikr-mulohaza olishlari mumkin. Bu esa mustaqil ishlarni nazorat qilish va baholash jarayonini soddalashtiradi.

“Maxsuslashtirilgan o'quv yo'nalishlari” [6] ta'limni individuallashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuv bo'lib, har bir talabaning shaxsiy qiziqishlari va o'quv maqsadlariga mos ravishda shakllantirilgan. Bu model asosan Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ta'lim tizimida ommalashgan bo'lib, unda talabalarning mustaqillik, o'quv motivatsiyasi va kasbiy sohalarga tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida yo'naltirilgan o'quv dasturlari tashkil etiladi.

Maxsuslashtirilgan o'quv rejaları va erkinlik “Maxsuslashtirilgan o'quv yo'nalishlari” talabalarga o'zlarini qiziqtirgan sohalarda chuqurroq bilim olish va mutaxassislashish imkonini beradi. Talabalar kurs mavzusini o'qituvchilar bilan hamkorlikda tanlashlari mumkin, bu ularning shaxsiy qiziqishlarini qondirishga va kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, STEM (Fan, Texnologiya, Injenering va Matematika) sohalarida maxsuslashtirilgan dasturlarda ishtirok etish talabalarni muammolarni mustaqil yechishga va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga yo'naltiradi.

Interaktiv platforma va texnologiyalar yordamida ta'lim AQShdagi Customized Learning Pathways modellarida onlayn platformalardan foydalanish talabalarga o'quv jarayonida erkinlik beradi. Masalan, Canvas yoki Google Classroom kabi onlayn platformalar yordamida talabalar darslarga erkin qo'shilishlari va bajarilgan ish natijalarini kuzatishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, mustaqil ishlarni tashkil etishda nazoratni osonlashtiradi va talabalarni doimiy ravishda faol bo'lishga undaydi.

Talabalarga moslashtirilgan o'quv tempi va o'zlashtirish Customized Learning Pathways modelining muhim jihatlaridan biri – o'quv tempining talabaning shaxsiy ehtiyojlariga qarab moslashtirilishi. Bu o'quv jarayonidagi individual farqlarni hisobga olib, har bir talaba o'z tempida harakatlanishiga yordam beradi. Masalan, qaysidir mavzuda

chuqurroq bilimga ega bo'lgan talabalar tezroq o'tishlari mumkin, o'zlashtirish qiyinroq bo'lgan mavzularda esa talabalarga qo'shimcha resurslar taqdim etiladi.

Talabalarining amaliyotga tayyorgarligini oshirish Customized Learning Pathways modellari talabalarni real hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan. Bu yo'nalishda ularga har bir o'quv predmetini o'rganish jarayonida ko'nikmalarni real dunyoda qo'llash imkoniyati berilgan. Masalan, talabalar ish jarayonida turli tadqiqot loyihalari va amaliy ishlar bilan shug'ullanishlari mumkin, bu ularning tanlangan sohadagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Onlayn va mobil ta'lim imkoniyatlari Customized Learning Pathways modellari AQShda keng tarqalgan mobil texnologiyalardan ham samarali foydalanishni nazarda tutadi. Talabalar o'zlarining shaxsiy qurilmalari orqali o'quv materiallariga erkin kirishlari, videodarslar ko'rishlari va mustaqil ravishda o'zlashtirishlari mumkin [6].

Finlyandiya ta'lim tizimi

Finlyandiya ta'lim tizimi jahondagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Bu tizimning asosiy tamoyillaridan biri – talabalarining mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlash va ularni yordamchi resurslar bilan ta'minlash. Finlyandiya mustaqil ishlarning asosiy maqsadi – talabalarining muammolarni mustaqil hal qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Universitetlarda talabalarining mustaqil ishi uchun o'qituvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri rahbarlikdan ko'ra, yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish tizimi ustun qo'yiladi. Bu esa talabalarga erkin harakat qilish imkonini beradi. Shuningdek, fin ta'lim tizimida multimedia vositalari va internet resurslaridan foydalanish talabalarining mustaqil o'qish jarayonini yanada samarali qiladi.

"Mustaqil ishlarni tashkil qilishning Finlyandiya tajribasi" bo'yicha bir necha muhim aspektlar mavjud. Finlyandiya ta'lim tizimi talabalarining mustaqil o'qish va ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jihatdan talabalarga erkinlik va javobgarlik berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida talabalar muammolarni mustaqil hal qilish, tahlil qilish va yangilikka intiluvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishadilar. Talabalarga keng ko'lamdagi elektron resurslar va interaktiv o'quv materiallarini taklif qiladi. Masalan, universitetlar "Opintopolku" kabi platformalar orqali talabalarga resurslar, kurslar va ta'lim dasturlari bo'yicha ma'lumot berishadi

Shuningdek, ular ko'pgina interfaol platformalarni qo'llab-quvvatlaydi va bu orqali talabalar mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin bo'ladi. Finlyandiya oliy o'quv muassasalarida talabalar ko'pincha guruh bo'lib ishlash, muammolarni hamkorlikda hal qilishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi, jumladan, ular virtual laboratoriyalar va ilmiy izlanishlarni amalga oshirish uchun resurslar bilan ta'minlanadi. Bu metodikalar talabalarni muammolarni mustaqil hal qilishga va mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi

Finlyandiya ta'lim tizimining mustaqil ishlarni tashkil etishdagi yutuqlar va innovatsion yondashuvlar xalqaro ta'lim maydonida keng e'tirof etilmoqda. Finlyandiyaning ta'lim tizimi mustaqil o'qish va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u talabalarga ta'lim jarayonida faol ishtirok etish va mustaqil ravishda ma'lumot izlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Finlyandiya maktablari va universitetlarida foydalaniladigan zamonaviy pedagogik usullar talabalarga yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni axborot texnologiyalari, innovatsion multimedia vositalari va internet platformalari yordamida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Talabalarga o'z vaqti va tempiga moslashtirilgan o'quv jarayonini ta'minlash muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv, ayniqsa, oliy ta'limda, ko'proq individual o'qish va mustaqil tadqiqotlar uchun sharoit yaratadi. Masalan, talabalar kurs va diplom ishlarni mustaqil ravishda bajarishlari, o'qituvchilar esa ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat berishlari mumkin. Bu esa talabalarda ijodiy fikrlash va mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, interaktiv muloqot platformalari orqali talabalar o'zaro muloqot qilib, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishadi [7].

Buyuk Britaniya ta'lim tizimi

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ishga bo'lgan yondashuvi boshqa rivojlangan davlatlarnikiga o'xshash bo'lib, talabalarga nazariy bilim berish bilan bir qatorda, mustaqil tadqiqotlar va amaliyotlar o'tkazishga katta e'tibor qaratiladi. Kembridj va Oksford universitetlari kabi oliygo'hlarda talabalar birinchi kursdan boshlab mustaqil ravishda yozma ishlar, esse va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishlari kerak. Talabalarga bibliografiya va manbalardan foydalanish madaniyatini o'rgatishga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa talabalarga mutaxassis sifatida faoliyat yuritishda muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Ulardan mustaqil ravishda ma'lumot topish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi tadqiqotchilik ko'nikmalari talab qilinadi.

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ishini tashkil etishga qaratilgan tajribalar an'anaviy ta'lim bilan bir qatorda, talabalarining o'zlashtirish qobiliyati va mustaqillikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Britaniya ta'lim tizimidagi mustaqil o'quv metodlari talabalarni mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, o'quv jarayonini boshqarishga va shaxsiy o'quv maqsadlarini belgilashga o'rgatishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini baholash va bilimlarni nazorat qilish ko'nikmalari Britaniya maktablarida ta'lim sifatini oshirish uchun keng qo'llaniladi. Masalan, talabalarga shaxsiy kundaliklar yoki "o'qish jurnallari"ni yuritish tavsiya etiladi, bu ularga o'quv rejalarini nazorat qilishga va o'quv maqsadlariga erishishda yordam beradi. Yetakchi universitetlarda, talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish uchun turli interfaol yondashuvlar joriy etilgan. Jumladan, mustaqil o'quv kompetensiyalarini baholash tizimlari yordamida har bir talabaning o'quv kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Bunday yondashuvlar orqali talabalar o'z faoliyatida individual maqsadlarga erishish uchun turli interaktiv vositalardan foydalanadi

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Buyuk Britaniyada mustaqil o'qish jarayonini tashkil etishda foydali metodlardan biri sifatida "tayanchsiz o'rgatish" usuli ham qo'llaniladi. Bu usul talabalarga murakkab mavzularni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi, natijada ularda o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatni o'z mehnatlari orqali qo'lga kiritish motivatsiyasi kuchayadi [8].

Germaniya ta'lim tizimi

Germaniya universitetlari ham talabalarni mustaqil ishga tayyorlash bo'yicha samarali tizimlarni joriy etgan. Bu mamlakatda talabalar mustaqil ravishda muammolarni hal qilish, tadqiqot ishlarini amalga oshirish va ilmiy maqolalar yozishga o'rgatiladi. Germaniyadagi ko'plab universitetlar talabalarga mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, kutubxonalar va ilmiy-amaliy markazlar talabalarining tadqiqotlarini o'tkazishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlangan. Universitetlarda mustaqil ishlarni bajarish jarayonida elektron kutubxonalar va axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Masalan, talabalar universitetning ichki platformalari orqali kutubxona resurslariga kirishlari va zarur ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlab topishlari mumkin. Bu esa ularga o'zlarining ilmiy izlanishlarini mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Talabalarining mustaqil ishini tashkil etish tizimi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bu borada bir qator innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi. Bunda asosiy maqsad talabalarga mustaqil izlanish va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish, ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish va zamonaviy texnologiyalar orqali o'quv jarayonini yengillashtirishdir.

Talabalarga mustaqil ish berish jarayonida Germaniyada turli elektron platformalardan keng foydalaniladi, masalan, Moodle va Stud.IP kabi platformalar talabalarga masofadan o'qish va mustaqil mashg'ulotlarni bajarishda qo'llaniladi. Ushbu platformalar orqali talabalar o'zlarining ish faoliyatini nazorat qilib, o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishlari mumkin.

Germaniyada talabalarining mustaqil ishini tashkil etish tizimi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bu borada bir qator innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi. Bunda asosiy maqsad talabalarga mustaqil izlanish va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish, ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish va zamonaviy texnologiyalar orqali o'quv jarayonini yengillashtirishdir.

Texnik va tadqiqot universitetlari talabalarining mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Masalan, Germaniya universitetlarida talabalarga mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib borish va akademik yozuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus kurslar taklif etiladi. Ushbu jarayonda talabalar elektron resurslar, virtual laboratoriyalar, va axborot texnologiyalari orqali o'quv materiallaridan foydalanadi [9,10].

Yaponiya ta'lim tizimi

Yaponiya ta'lim tizimida ham talabalarining mustaqil ishga bo'lgan yondashuvi alohida o'rin tutadi. Yaponiyadagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil o'rganish va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Yaponiya universitetlari o'quv dasturlarida mustaqil ishga alohida o'rin berib, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashga intiladi. Talabalarga kutubxona, laboratoriya va multimedia vositalaridan foydalanish imkoni beriladi. Bu esa talabalarining mustaqil o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Yaponiyaning talabalar mustaqil ishini tashkil qilish tajribasi ixtisoslashgan markazlar va o'quv resurslari orqali amalga oshiriladi. Mamlakatda mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlaydigan "Self-Access Learning Centers" (SALCs) markazlari ko'p uchraydi. Ushbu markazlarda talabalarga o'zlarining o'quv jarayonini boshqarish va mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun turli resurslar taqdim etiladi. Yaponiya universitetlaridagi SALCs markazlari talabalarni turli darslarni mustaqil o'rganishga yo'naltiradi, jumladan tillarni o'rganish va boshqa fanlar bo'yicha ham alohida yo'l-yo'riqlar beriladi. Ushbu markazlar talabalarga individual ta'limni rivojlantirishga yordam beradi va ularning ta'lim jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi.

SALCs markazlarida talabalar mustaqil o'qish jarayonida o'zlarining ko'nikmalarini yaxshilash uchun maxsus vositalar, multimedia dasturlari va maslahatchi o'qituvchilar yordamida bilim olishadi. Masalan, Otemon Gakuin universitetida talabalar uchun bonuslar va mukofotlar tizimi joriy qilingan bo'lib, bunda ular markazga tashrif buyurish va maslahat olish orqali onlayn o'quv tizimidan bahra olishadi. Bunday yondashuv talabalarni markazdan foydalanishga undaydi va ularning mustaqil o'qish jarayonida faolligini oshiradi.

Shuningdek, Yaponiya universitetlarida talabalar orasida internetdagi "onlayn uchrashuv joylari" ham foydalaniladi. Masalan, Kanada universitetida talabalar o'rtasida onlayn muloqot uchun alohida forumlar mavjud bo'lib, bu ularga bilim almashish, savollarga javob berish, fikr almashish va shaxsiy tajribalarni o'rganish imkoniyatini beradi. Yaponiyada mustaqil o'quv jarayonining yana bir muhim jihati - bu talabalarining markazlardagi maslahatchilar bilan shaxsan yoki onlayn muloqot orqali maslahat olish imkoniyatidir.

Yaponiyaning ta'lim sohasida talabalar mustaqil ishini tashkil qilishda qo'llangan bu innovativ yondashuvlar o'zgacha ahamiyatga ega bo'lib, bu ularning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish va uzluksiz o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Yaponiya tajribasi, talabalarni o'z o'quv jarayonini boshqarish va mustaqil bilim olishga jalb qilishda muhim o'rin tutadi [11].

Xulosa

Talabalarining mustaqil ishini tashkil etish va rivojlantirishda xorijiy tajribalardan o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh, Finlyandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi mamlakatlar o'quv jarayonida talabalarga

mustaqillik berishga, ularning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirishga va yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasida ta'lim platformalari, axborot texnologiyalari va yangi pedagogik yondashuvlardan foydalanish talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularni real hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu xorijiy modellarning o'ziga xos xususiyatlari, masalan, AQShdagi "Customized Learning Pathways", Finlyandiyadagi interaktiv ta'lim texnologiyalari yoki Germaniya va Yaponiyadagi mustaqil ishlarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar o'z natijasini bermoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu tajribalardan foydalanish talabalarning mustaqillik darajasini oshirish, o'quv jarayonining samaradorligini ko'tarish va ularda mustahkam bilim va ko'nikmalar shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda integratsiya qilish ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Mustaqil ishlarni tashkil qilishga doir zamonaviy innovatsion usullarni joriy qilish nafaqat talabalarning individual salohiyatini oshirishga, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mustahkam asos yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шок будущего / Э. Тоффлер ; пер. с англ. – М. : ООО «Издательство АСТ», 2002. – 557 с.
2. Merriam S.B. and Caffarella R.S. Learning in Adulthood. A comprehensive guide, San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
3. Hayes C. Beyond the American Dream. Lifelong learning and the search for meaning in a postmodern world, Wasilla: Autodidactic Press, 1998. 365p.
4. Knowles M. Self-Directed Learning. A guide for learners and teachers, Englewood Cliffs: Prentice Hall / Cambridge, 1975. 135 p.
5. Жураковский, В. Управление самостоятельной работой: мировой опыт // Высшее образование в России. 2003. № 2. С. 45–49.
6. <https://microcredentials.digitalpromise.org/explore/customized-learning-paths>
7. https://www.researchgate.net/publication/361210834_Experience_in_Organizing_Students'_Independent_Work_in_the_Distance_Learning_Format
8. <https://blog.irisconnect.com/uk/blog/9-tips-for-encouraging-students-to-become-independent-learners/>
9. <https://www.study-in-germany.de/en/>
10. <https://www.daad.de/en/>
11. <https://www.bing.com/search?pc=OA1&q=Japan%20independent%20study%20learning%20centers%20SALCs>

Muallif:

Aripov Masud Marufovich – Qo'qon davlat pedagogika instituti, Informatika kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

UDK:51(072)

METHODOLOGY FOR STUDYING THE WAVE PACKET FOR FREE MOTION USING COMPUTER PROGRAM SEQUENCES IN QUANTUM MECHANICS

KVANT MEKANIKA SIDA KOMPYUTER DASTURI KETMA-KETLIGI YORDAMIDA ERKIN HARAKAT UCHUN TO'LQIN PAKETINI ORGANISH METODIKASI

МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ВОЛНОВОГО ПАКЕТА СВОБОДНОГО ДВИЖЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ КОМПЬЮТЕРНОЙ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ ПРОГРАММ ПО КВАНТОВОЙ МЕХАНИКЕ

Eshboltayev Iqbol Mamirjonovich

Qo'qon davlat universiteti, 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy.

E-mail: iqboljon_808@mail.ru

Abstract: Basic concepts of quantum mechanics. If the phenomena occurring in atoms are analyzed based on the laws of classical mechanics and electrodynamics, theoretical results that contradict the experiment can be obtained. The deep conflict between theory and experimental results in this case requires fundamental changes in the laws and concepts of classical physics. In this article, we will explore some new principles of quantum mechanics with the help of examples. We work based on the manual of L.D. Landau and E.M. Lifshitz.

Key words: wave packet, quasiclassical limit, maple system, uncertainty principle, integral exponential, classical approximation, abstract representation, wave function, wave packet probability flux density, Planck's constant.

Аннотация: Основные понятия квантовой механики. Если проанализировать явления, происходящие в атомах, на основе законов классической механики и электродинамики, можно получить теоретические результаты, противоречащие эксперименту. Глубокий конфликт между теорией и экспериментальными результатами в этом случае требует фундаментальных изменений в законах и понятиях классической физики. В

этой статье мы рассмотрим некоторые новые принципы квантовой механики с помощью примеров. Мы работаем по руководству Л.Д. Ландау и Е.М. Лифшица.

Ключевые слова: волновой пакет, квазиклассический предел, клеевая система, принцип неопределенности, интегральная экспонента, классическое приближение, абстрактное представление, волновая функция, плотность потока вероятности волнового пакета, постоянная Планка.

Kirish. Mutaxassislarga sir emas, ayni paytda nazariy fizika, qattiq jismlar va yarim o'tkazgichlar fizikasi fanlar sohasida, ayniqsa nazariy fizika sohasida, katta ilmiy o'zgarishlar bo'lmoqda, jahon miqyosida hayron qolarli darajadagi ilmiy natijalar olinmoqda. Tabiiyki, bunday ulkan natijalarning nazariy tahlillari nafaqat zamonaviy va keng qamrovli matematikaviy apparatning, balki simvulli hisoblashlar tizimi (kompyuter algebrasi sistemasi)ning qo'llanilishi, ilmiy tadqiqotchilardan esa bunday metodlardan foydalana olishni talab etadi. Biroq bunday murakkab va ayrim hollarda, biri biri bilan umuman bog'liq bo'lmagan, hisoblash usullarini to'g'ridan-to'g'ri o'rganish muammosi mavjud. Erkin harakat uchun to'lqin paketini o'rganishda shuni qayd qilish kerakki, kvant mexanikasidan klassik mexanikaga o'tishda to'lqin funktsiya yordamida tavsiflanadigan harakat aniq trayektoriya bo'yicha kechadigan harakatga o'tavermaydi. Buning uchun aniq bir trayektoriya bo'ylab boradigan harakatni olish uchun maxsus ko'rinishdagi to'lqin funktsiyasidan (masalan, to'lqin paketidan) foydalanish talab etiladi.

Tadqiqot ob'yekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqotning ob'yekti sifatida kvaziklassik chegarada harakatlanish soha o'lchamlarini Plank doimiysi bilan birgalikda o'zgartirib borish zarurligi e'tiborga olindi. Ana shunday holda kvaziklassik chegarada to'lqin paketi fazoda zarraning klassik trayektoriyasi bo'ylab harakatlanishi mumkin. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual, analitik va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bir o'lchamli to'lqin paketining eng umumiy ko'rinishini quyidagicha tanlaylik

$$\Psi(x, t) = \int_{-\infty}^{\infty} \psi(k, x, t) dk$$

bu yerda $\psi(k, x, t) = C(k) e^{i(kx - \omega t)}$ va $\omega = \frac{\hbar k^2}{2m}$.

Bunday holda integralning yaqinlashishi uchun $C(k)$ amplituda $k \rightarrow \infty$ shartda, hech bo'lmasa $1/k$ qonuniyat bilan nolga intilishi kerak. Shunday tanlangan ixtiyoriy amplituda aniq ko'rinishdagi yechimga olib keladi [1,2].

To'lqin paketni qurishni shunday tanlaymizki, $t = 0$ boshlang'ich vaqt momentida paket tavsiflayotgan zarraning topilish ehtimolligi $p_0 = \hbar q$ impulsli zarra harakat qila oladigan $x = 0$ nuqta atrofidagi sohada (noaniqlik prinsipi e'tibordan chiqarmagan holda) noldan sezilarli farq qilsin. Bu shartlardan, xususan,

$$\Psi(x, 0) = A e^{-\left(\frac{x^2}{2a^2} + iqx\right)}$$

Bu funktsiyani yassi to'lqinlarga nisbatan qatorga yoyish quyidagicha tarzda ifodalanadi

$$\Psi(x, 0) = \int C(k) e^{ikx} dk$$

bu yerda $C(k) = \frac{Aa}{\sqrt{2\pi}} \exp\left[-\frac{(k-q)^2}{2}\right]$.

Boshlang'ich $t = 0$ vaqt momentiga nisbatan $C(k)$ koeffitsiyentni hisoblab ixtiyoriy vaqt momentidagi to'lqin paketni qurish mumkin, ya'ni

$$\psi(x, t) = \frac{Aa}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} e^{\left(-\frac{a^2(k-q)^2}{2} + I k x - \frac{I h k^2 t}{2m}\right)} dk$$

Bu integralni hisoblaymiz va uning vaqtga nisbatan tabiatini aniqlaymiz[1,2]. Kelgusi hisoblashlarni **Maple** tizimi yordamida amalga oshirishga harakat qilamiz. Integral osti eksponenta argumentiga qiymatlar beramiz[3]:

> **restart;**

arg:=-a^2/2*(k-q)^2+I*k*x-I*h*k^2/(2*m)*t;

$$arg := -\frac{1}{2} a^2 (k-q)^2 + I k x + \frac{-1}{2} I h k^2 t / m$$

Bu integralni hisoblashga harakat qilaylik

> **otv:=int(exp(arg),k=-infinity..infinity);**

$$otv := \left[\frac{e^{\left(\frac{1}{2} I (-a^2 q^2 h t + 2 m a^2 q x + I m x^2)\right)}}{a^2 m + I h t} \sqrt{2} \sqrt{\pi} \operatorname{csgn}\left(\frac{1}{2} a^2 + \frac{1}{2} \frac{I h t}{m}\right) = 1 \right]_{-\infty}^{\infty} \quad \text{otherwise}$$

Bu holda javob quyidagi tasdiqni beradi: agar $\operatorname{csgn}\left(\frac{1a^2}{2} + \frac{I h t}{2m}\right) = 1$, u holda integral eksponentaga

teng bo'ladi, qolgan barcha hollarda integral uzoqlashadi, ya'ni "cheksiz"ga teng bo'ladi. Bunday murakkab ifodadan yetarli javob olish mumkin. Tabiiyki, buning uchun olingan ifodaning turini bilish talab etiladi.

> **whattype(otv);**

function

Bunday tur ifoda uchun ifodadagi xadlar sonini va ularning ketma-ketligini aniqlash mumkin

> **nops(otv);**

op(otv);

$$\operatorname{csgn}\left(\frac{1}{2} a^2 + \frac{1}{2} \frac{I h t}{m}\right) = -1, \frac{e^{\left(\frac{1}{2} I (-a^2 q^2 h t + 2 m a^2 q x + I m x^2)\right)}}{a^2 m + I h t} \sqrt{2} \sqrt{\pi}, \infty$$

$$\sqrt{\frac{a^2 m + I h t}{m}}$$

Shunday qilib, zaruriy javob –

> **op(2,otv)**

tur funksiya ifodasida ikkinchi operanddir

$$\frac{e^{\left(\frac{1}{2} I (-a^2 q^2 h t + 2 m a^2 q x + I m x^2)\right)}}{a^2 m + I h t} \sqrt{2} \sqrt{\pi}}{\sqrt{\frac{a^2 m + I h t}{m}}}$$

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Simvolli hisoblashlar sistemasiga nisbatan amaliy(hisoblashlar) tajribasini orttiramiz. Hisoblashni, dastavval, integral ostida joylashgan eksponentaning argumentini soddalashtirishdan boshlaymiz

> **factor(arg);**

$$-\frac{1}{2} \frac{a^2 m k^2 - 2 a^2 m k q + a^2 m q^2 - 2 l k x m + l h k^2 t}{m}$$

To'g'ridan-to'g'ri hisoblash zaruriy javobni bermaydi va, shuning uchun, **student** kutubxonasi(paketi)ning qator tizimlashtirilgan protseduralaridan foydalanamiz

> **arg:=student[completesquare](arg,k);**

$$arg := -\frac{1}{2} \frac{(a^2 m + l h t) \left(k - \frac{m(a^2 q + l x)}{a^2 m + l h t} \right)^2}{m} + \frac{1}{2} \frac{(-l a^2 q^2 h t + 2 l m a^2 q x - m x^2)}{a^2 m + l h t}$$

Argument ikki qo'shiluvchilarga ajraladi. Ularning biri k to'liq vektoriga kvadratik bog'langan bo'lsa, ikkinchisi esa k ga bog'lanmagan bo'ladi. Bunday integrallar bilan **Maple** tizimida qanday ish olib borilishini ko'raylik. Dastlab argumentning k ga kvadratik bog'langan qismi bilan ish boshlaymiz[4].

> **In:=int(exp(-b^2*z^2),z=-infinity..infinity);**

$$In := \begin{cases} \frac{\text{csgn}(b) \sqrt{\pi}}{b} & \text{csgn}(b^2) = 1 \\ \infty & \text{otherwise} \end{cases}$$

Yana b parametring kvadratning ishorasiga nisbatan tanlangan shartni olamiz[5]. Biroq, $0 < b$ qo'shimcha shartlarda

> **interface(showassumed=0);**

assume(b>0);

In:=unapply(int(exp(-b^2*z^2),z=-infinity..infinity),b);

$$In := b \rightarrow \frac{\sqrt{\pi}}{b}$$

bu integral oson hal ilinadi

> **In(c);**

$$\frac{\sqrt{\pi}}{c}$$

Ta'kidlaymizki, bu holda jadvalni integralni tasvir ko'rinishida berdik.

Shunday qilib, integralni hisoblash uchun integrallash o'zgaruvchilarni almashtirish qoldi. Shunday qilib, argumentdagi kvadratik hadlarni ajratib olamiz

> **arg1:=op(1,arg);**

$$arg1 := -\frac{1}{2} \frac{(a^2 m + l h t) \left(k - \frac{m(a^2 q + l x)}{a^2 m + l h t} \right)^2}{m}$$

va yangi o'zgaruvchilar kiritamiz

> **k0:=solve(arg1,k);**

$$k0 := \frac{m(a^2 q + l x)}{a^2 m + l h t}, \frac{m(a^2 q + l x)}{a^2 m + l h t}$$

So'ngra **student** paketining tizimlashtirilgan tuyruq'idan foydalanib o'zgaruvchilarni almashtirish mumkin[6].

> **In1:=student[changevar](k-k0[1]=y,Int(exp(arg1),k=-infinity..infinity),y);**

$$In1 := \int_{-\infty}^{\infty} e^{\left(-\frac{1}{2} \frac{(a^2 m + 1 h t) y^2}{m}\right)} dy$$

Ko'rmayaptiki, nafaqat integral osti ifoda, balki integrirallash chegaralari ham o'zgardi. Bunday bo'lishidan qat'iy nazar, endi parametrlarning qiymatlariga qo'shimcha cheklanishlar qo'yib bu integralni hisoblash mumkin[1,2].

Boshqacha yo'l, koeffitsiyentlarni ajratish, bilan hisoblashni olib borish mumkin

> **assume(a>0,h>0,t>0,m>0);**

b0:=normal(sqrt(arg1/(k-k0[1])^2));

$$b0 := \frac{1}{2} \sqrt{-\frac{2 a^2 m + 2 1 h t}{m}}$$

va ularni jadvalli integralga qo'ysak, u holda

> **In(b0);**

$$2 \frac{\sqrt{\pi}}{\sqrt{-\frac{2 a^2 m + 2 1 h t}{m}}}$$

Endi argumentning k kattalikka bog'lanmaydigan qismini qaraylik

> **arg2:=op(2,arg);**

$$arg2 := \frac{1}{2} \frac{-1 a^2 q^2 h t + 2 1 m a^2 q x - m x^2}{a^2 m + 1 h t}$$

X o'zgaruvchiga oshkora bog'liq qismini ajrataylik

> **arg2:=student[completesquare](arg2,x);**

$$arg2 := -\frac{1}{2} \frac{m (x - 1 a^2 q)^2}{a^2 m + 1 h t} - \frac{1}{2} a^2 q^2$$

Shunday qilib, natijada

> **psi:=A*a/sqrt(2*Pi)*In(b0)*exp(arg2);**

psi:=normal(psi);

$$\psi := \frac{A a \sqrt{2} e^{\left(\frac{1}{2} \frac{-1 a^2 q^2 h t + 2 1 m a^2 q x - m x^2}{a^2 m + 1 h t}\right)}}{\sqrt{-\frac{2 a^2 m + 2 1 h t}{m}}}$$

To'lqin paketi to'lqin funksiyasini hisoblashlardan so'ngra $\rho(x,t) = |\psi(x,t)|^2$ to'lqin paketi zichligining o'zini tutishini ko'ramiz

> **rho:=evalc(simplify(abs(psi)^2));**

$$\rho := \frac{a^2 m e^{\left(-\frac{a^2 m^2 x^2}{a^4 m^2 + h^2 t^2} + \frac{h t (-a^2 q^2 h t + 2 m a^2 q x)}{a^4 m^2 + h^2 t^2}\right)}}{\sqrt{a^4 m^2 + h^2 t^2}} A^2$$

Ta'kidlaymizki, bu holda **Maple** tizimidan tizimlashtirilgan *evalc* buyrug'idan foydalangan holda kompleks hisoblashlarni bajarish talab etiladi. ρ ehtimollik zichligi ifodasidagi eksponenta argument yetarli darajada murakkab ifodadan iborat va uni soddalashtirish zarur

> **rho:=simplify(rho);**

$$\rho := \frac{a^2 m e^{-\frac{a^2 (m x - q h t)^2}{a^4 m^2 + h^2 t^2}}}{\sqrt{a^4 m^2 + h^2 t^2}} A^2$$

Olingan natijaning keng qamrovli tafsilotini adabiyotlardan topish mumkin[1,2].

Endi to'liq paketi ehtimollik oqimi zichligini ko'ramiz

$$s(x, t) = \frac{h}{2 m I} \left[\overline{(\psi)} \left(\frac{\partial}{\partial x} \psi \right) - \psi \left(\frac{\partial}{\partial x} \overline{(\psi)} \right) \right]$$

Bu aniqlashni **Maple** tizimida abstrakt ko'rinishida qayd qilamiz

> **s:=phi->(h/(2*I*m))*(conjugate(phi)*diff(phi,x)-phi*diff(conjugate(phi),x));**

$$s := \phi \rightarrow \frac{-\frac{1}{2} I h \left(\overline{(\phi)} \left(\frac{\partial}{\partial x} \phi \right) - \phi \left(\frac{\partial}{\partial x} \overline{(\phi)} \right) \right)}{m}$$

Ushbu aniqlanishga to'liq paketining to'liq funksiyasini qo'yib S zichlikni hisoblashimiz mumkin[3].

Biroq, agar qaralayotgan to'liq paketi shuning kabi anilansa, u holda to'liq funksiyalarning hosilasini aniqlash mumkin

> **assume(q,real); assume(x,real);**

> **simplify(diff(psi,x)/psi);**

$$\frac{m (I a^2 q - x)}{a^2 m + I h t}$$

> **simplify(diff(conjugate(psi),x)/conjugate(psi));**

$$\frac{m (I a^2 q + x)}{-a^2 m + I h t}$$

u holda to'liq funksiyalar hosilalari o'zlariga mutanosib bo'ladi. Bu oqimning $S = v\rho$ kattalikka proporsionalligini anglatadi va V koeffitsiyent quyidagi ko'rinishni oladi

> **v:=simplify(s(psi)/rho);**

$$v := -\frac{h |A|^2 (a^4 q m + x h t)}{A^2 (a^2 m + I h t) (-a^2 m + I h t)}$$

Ta'kidlaymizki, q va x o'zgaruvchilarga nisbatan olingan qo'shimcha chegaraviy shartlarsiz amalda mumkin emas. Shu ma'noda sistemani berilgan ifodani soddalashtirishiga majbur qilamiz

> **v:=simplify(evalc(v));**

$$v := \frac{h (a^4 q m + x h t)}{a^4 m^2 + h^2 t^2}$$


Buning uchun, tezlik dispersiyasini grafikda tasvirlash uchun masaladagi parametrlarning xususiy qiymatlarini V kattalik uchun qayd qilingan ifodaga qo'yish kerak

> **v1:=simplify(subs(h=1,m=1,a=1,q=2,v));**

$$v1 := \frac{2 + x t}{1 + t^2}$$


So'ngra ehtimollik o'qimi zichligining to'la ehtimollikka nisbati, ya'ni "tezlik"ning har xil momentlarida koordinataga bog'liqligini tasvirlaymiz

```
> p0:=plot(subs(t=0,v1),x=-5..10,color=black,
title='Dispersiyaning chiziqiligi', legend='t=0'):
p1:=plot(subs(t=1,v1),x=-5..10,color=red,legend='t=1'):
p2:=plot(subs(t=2,v1),x=-5..10,color=blue, legend='t=2'):
p3:=plot(subs(t=3,v1),x=-5..10,color=green, legend='t=3'):
plots[display](p0,p1,p2,p3);
```



Ushbu to'g'ri chiziqlar tezlikning dispersiyasini tasvirlaydi. Galda tezlik taqsimotining vaqtga bog'liq o'zgarishini (animatsiyani) ko'raylik

```
> plots[animate](v1,x=-5..10,t=0..5,frames=30,color=blue,title='Izmenenie skorosto vo vremeni')[6];
```



Tezlikning yetarli darajada murakkab o'zgarishi to'lqinogo paketining har xil qismlari (tashkil etuvchilari) har xil tezliklar bilan harakatlanishi bilan tavsiflanadi, chunki ayrim hollarda to'lqin paketining ayrim qismlari, hatto, to'lqin tarqalishiga qarama-qarshi tyo'nalishda, manfiy tezlik bilan ham tarqalishi mumkin[7].


$\rho(x, t)$ zichlik ifodasiga parametrlarning xususiy qiymatlarini qo'yamiz

```
> rhoS:=simplify(subs(A=(Pi)^(-1/4),h=1,m=1,a=1,q=2,rho));
```

$$\rho S := \frac{e^{-\frac{(-x+2t)^2}{1+t^2}}}{\sqrt{1+t^2} \sqrt{\pi}}$$

Zichlik taqsimotining ikoordinataga nisbatan o'zgarishini (animatsiya) ko'raylik

```
> plots[animate](rhoS,x=-5..15,t=0..5,frames=30,color=red,numpoints=200,title='Izmenenie raspredeleniya plotnosti vo vremeni');
```





To'la ehtimollik, bu holda, o'zgarmas va birga teng $\int_{-\infty}^{\infty} \rho S, x=-\infty.. \infty) [5];$

Nazarimizda to'liq paketining "suvashib ketish" jarayoni $\log(\rho)$ zichlik logarifm grafiki (animatsiya) deb ataladi yaqqol tasvirlanadi.

$> \text{LogRho} := \text{simplify}(\log(\rho S));$

$\text{plots}[\text{animate}](\text{LogRho}, x = -5..15, t = 0..5, \text{view} = [-5..15, -10..0], \text{frames} = 30, \text{color} = \text{red}, \text{numpoints} = 200, \text{title} = \text{'Izmenenie logarifma plotnosti vo vremeni'});$



To'liq paketi har xil qismlarining har xil tezliklar bilan tarqalishi (hatto yo'nalishlarga nisbatan ham) zarra koordinatasi xatoligining ortishiga olib keladi [5].

Xulosa. Bu maqolaning yaratilish sabablaridan biri informatsiya (ma'lumot)larning kvant nazariyasi, kvantli kriptografiya, kvantli kompyuterlar va kvantli algoritmlarni o'z ichiga olgan hozirgi zamon informatika sohasining gurkirab o'sib borishidir. Shunday qilib, kvant mexanikasi asoslarini bilmasdan turib informatsiya (ma'lumot)larni qayta ishlash va tekshirishning hozirgi zamon metodlarini yoki hozirgi zamon dasturlash metodlarini o'rganib bo'lmaydi. Shuningdek, bizningcha, dasturchilar uchun hozirgi zamon kompyuter texnologiyalarini qo'llagan holda kvant mexanikasini o'rganish qiziqarli va zamonaviydir.

Adabiyotlar:

1. I.M.Eshboltayev, R.Ya.Rasulov. Kvant mexanika-Toshkent, "Ilm va fan" nashriyoti 2023.
2. I.M.Eshboltayev. Kvant mexanikasi fanidan masalalar yechish-Toshkent, "Ilm va fan" nashriyoti 2023.
3. L.D.Landau, E.M.Lifshits. Kvantovaya mexanika. Moskva, Nauka, 1989.
4. G.X.Xoshimov, R.Ya.Rasulov, N.H.Yuldashev. Kvant mexanikasi asoslari. Toshkent.: O'qituvchi 1999.
5. Mathcad 6.0 Plus. Finansovye, inzhener i nauch rascheti v srede Windows 95./Perevod s angl. - M.: Informatsionno-izdatelskiy dom "Filin", 1996.
6. Dyakonov V.P. Spravochnik po MathCAD PLUS 6.0 PRO. - M.: "SK Press", 1997.
7. Dyakonov V.P., Abramenkova I.V. MathCAD 8 PRO v matematike, fizike i Internet. - M.: "Nolidj", 2000.
8. Kudryavtsev Ye.M. MathCAD 2000 Pro. - M.: DMK Press, 2001.
9. Ochkov V.F. Mathcad 7 Pro dlya studentov i inzhenerov. - M.: KompyuterPress, 1998.

Muallif:

Eshboltayev Iqbol Mamirjonovich- Qo'qon davlat pedagogika instituti, Fizika va astronomiya kafedrasini professori, fizika – matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

УДК:373.37.06

FORMATION OF INDEPENDENT THINKING SKILLS OF STUDENTS IN LESSONS

DARSLARDA TALABALARNI MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ

Ibragimova Mayramxon G'ulomovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti. 150700. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar, Usmon Nosir 38A.

E-mail: ibragimovamaryamxon1@gmail.com

Abstract. The article provides ways for students to develop independent thinking skills. Improving the academic performance of a student, that is, shaping his intellectual, mental skills, is the main result of modern education and is a process of separating the process of learning the basics of intellectual development and is an important process of transition from direct sensory to abstract solutions. Students are given information about creativity, the ability to create creative works through research, personality, individual, creativity. Today, it is an important task to create opportunities for them, to teach based on a meaningful program, to involve them in classes and extracurricular activities. It is shown that From this point of view, timely identification of talented young people in the education system, their selection and giving them reasonable guidance in the development of their abilities is the best idea in the republic. It is an important source of education of a new generation of intelligent, outgoing thinkers.

Keywords: thinking processes, educational process, improvement, critical thinking, idea, intellectual, interest, creativity.

Аннотация: В статье приводятся пути развития у учащихся навыков самостоятельного мышления. Повышение успеваемости учащегося, то есть формирование его интеллектуальных, умственных навыков, является главным результатом современного образования и представляет собой процесс разделения процесса обучения основам интеллектуального развития и является важным процессом перехода от непосредственного чувственного к абстрактным решениям. Учащимся дается информация о креативности, способности создавать творческие произведения через исследовательскую, личностную, индивидуальную, креативность. Сегодня важной задачей является создание для них возможностей, обучение по содержательной программе, вовлечение их в занятия и внеклассную деятельность. Показано, что с этой точки зрения своевременное выявление талантливой молодежи в системе образования, их отбор и предоставление им разумного руководства в развитии их способностей является лучшей идеей в республике. Это важный источник воспитания нового поколения умных, общительных мыслителей.

Ключевые слова: мыслительные процессы, процесс обучения, совершенствование, критическое мышление, идея, интеллектуальность, любознательность, творчество.

Kirish. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar oliy ta'lim tizimida barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan va nazariy g'oyalarni tiklashda yordam beradigan eng qulay vositalardir. Ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatiga qarab shaxsni qo'llab-quvvatlashga asoslangan bo'ladi, ular ta'limni tashkillash uchun eng maqbul yo'llarini izlab topish imkonini yaratadi. Pedagogika institutining ta'lim jarayonida iqtidorli talabalarni aniqlash qobiliyati intellektual salohiyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart – sharoitlarni yaratish uchun zarurdir. Jaxon ta'lim ta'minotini yaxshilash, ilm – fan va innovatsion texnologiyalar ijtimoiy va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, har bir jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda talaba yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning mustaqil fikrlashi, huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda ko'plab texnologiya, til va platforma tanlovlari mavjud. Inson o'zida ko'nikmalarni shakllantirishda, rivojlantirishda mustaqil fikrlashni bilishi lozim. Zero, shiddat bilan davom etayotgan hayotimizda insonning erkin fikrlashi juda ham ahamiyatlidir. Dunyoda sodir bo'layotgan fan-texnika yutuqlari, yangiliklar va taraqqiyot sari davom etayotgan o'zgarishlar inson aqli zakovatining mahsuli hisoblanadi. Fan-texnika rivojlanishi ko'p jihatdan mutaxassisning erkin hamda mustaqil fikrlashiga bog'liq. Fikr - bu aksiomatik qoidalar asosida atrofdagi dunyo qonunlarini modellashning aqliy jarayoni. Fikrlash tevarak-atrofdi, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, talabaning keng ko'lamli faoliyatidir.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Mustaqil fikr yuritishning ro'yobga chiqishida talaba fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo tadi. Xuddi shu bois talaba o'zining mustaqil fikrlashi, nutqi, ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Talaba mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, haqiqiyliigi yoki ularning voqelikka mos tushishi va tushunmasligini aniqlaydi.

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alamatlari va belgilari to'g'risida materiallar to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichdan iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi.

Talabning fikrlash faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega. Fikrlashning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatlanish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ulardan o'z o'rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o'rtoqlashish ehtiyoji vujudga kelgan. Insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishi natijasida fikr bildirish, so'zlashuv yuzaga kela boshlagan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tafakkur sifatlaridan tezlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik, sezuvchanlik va boshqalardan foydalanish mumkin. Talabada mustaqil fikr yuritish muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi, lekin mazkur vaziyat tug'ilishi, yechimi bu bilan tugallanmaydi. Talabada bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorqin bo'lmaydi, u noaniq holda yuzaga keladi, so'ngra bu ma'noda yechimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nihoyat uning yechimi topilsa, lekin bilishning muammodan keying bosqichi fikrning o'z yo'nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi. Talabning mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin: 1. Muammoning talaba idrok maydonida paydo bo'lishi. 2. Talaba tomonidan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash. 3. Ularga o'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi. 4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning uzluksiz tug'ilishi. 5. Taxminlarni bosqichma-bosqich tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash. 6. Yangi taxminning yuzaga kelishi va takomillashuvi. 7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish (ikkinchi marta tasdiqlash). 8. Masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish). 9. Ixtiyorsiz aqliy xatti-harakatlarning davom etishi (fikrlarning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

Mustaqil fikr yuritish o'zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan kasbiy tayyorgarlik mahorat sari talabalarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Talabani qo'llab-quvvatlash fikrlash qobiliyatlarini boshqarish, rivojlangan mamlakatlarda intellektual qobilyat, ilm – fan taraqqiyotining zarur sharti hisoblanib, yuqori baholanib kelinmoqda. Shu bois yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, yangicha fikrlay oladigan, intellektual qobilyat yuqori darajadagi shaxsni shakllantirish, ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.[1] Talabalarda mustaqil fikr yuritishining ro'yobga chiqishida, avvalambor, ularda maqsad, fikr, g'oya, kabi tushunchalar vujudga keladi. Mustaqil fikr yuritish muloqot jarayoni bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib bu jarayonlarda til va nutq asosiy omillar hisoblanadi. Atrofimizda bo'layotgan har qanday o'zgarishlar va yangiliklarning barchasi inson ongli faoliyatining ijod mahsuli hisoblanadi. Talaba yoshlar biron bir yuksaklikka erishishi uchun bir necha yo'llarni bosib o'tishi lozim. Bular jismoniy, ahloqiy va aqliy rivojlanish yo'llari hisoblanib talablarining bu yo'ldagi asosiy quroli ularning mustaqil fikrlashi va mustaqil qadam tashlay olishidir. Talabalarning biron narsani idrok qilishi yoki o'sha narsa haqida o'zining shaxsiy va ijodiy fikrini bayon qilishi ham talaba mustaqil fikrlashining asosiy omili hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan murakkab bilish jarayonlari nafaqat talabalardan balki jamiki insonlardan irodaviy zo'rlikni ongli munosabatni va qulay shart-sharoitni talab qiladi hamda shu narsalarning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir mustaqil qarorga kelinadi.[2] Talabalarning mustaqil fikrlashini oshirishning yana bir o'ziga xos xususiyati nutqiy faoliyat hisoblanadi. Nutqiy faoliyatning ta'sirida fikrlashning izchilligi va tizimliliigi paydo bo'lgan va kelajak avlod uchun meros qoldirish imkoniyati yuzaga kelgan .

Talabalarning mustaqil tafakkuri ularning tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlanishi natijasida paydo bo'ladi. Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning birinchi bosqichi, talabalarda tafakkur sifatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni talabalarda turli xildagi muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi bilan boshlanadi. Chunki talabalarning mustaqil fikr yuritishi uchun ularga muhit kerak bo'ladi va bu muhit ularning ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning mustaqil fikrlashini dars jarayonida rivojlantirishda bir qancha innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Bulardan bittasi "Keys-stadi" texnologiyasidir. "Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870-yilda AQSHning Gorvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan.[4]

O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillaridan faollashgan. Texnologiyalar talabalarning predmetni o'zlashtirishiga bo'lgan qiziqishlarini va amaliy ko'nikmalarini hamda eng muhimi mustaqil fikrlash malakalarini shakllantiradi.

"Keys-stadi" texnologiyasi yordamida talabalar mustaqil fikrlashning quyidagi ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. 1. Tahliliy ko'nikmalar. 2. Amaliy ko'nikmalar. 3. Ijodiy ko'nikmalar. 4. Muloqot ko'nikmalari. 5. Ijtimoiy ko'nikmalar. 6. O'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalari.

Talabalarning mustaqil fikrlashining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu tanqidiy fikr ham hisoblanadi. Tanqidiy fikr - bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Talabalarning hayotida tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlashining va mustaqil fikrlashining ahamiyatli jihatlari: hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi; jamoaning ochiq fikrini rivojlantiradi; shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi; o'qituvchi o'quvchi talabalar o'rtasida hamda o'quvchi talabning o'zaro hurmatini

ta'minlaydi; mashg'ulot jarayonida o'quvchi -talaba tajribasidan foydalaniladi. O'quv mazmuni talabaning talablariga mos va aniq belgilanadi. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi. Shu kabi talabalar uchun foydali bo'lgan mashg'ulotlarga zamin yaratadi. Har qanday yangilik taraqqiyot inson aql zakovatining mahsuli hisoblanadi, xuddi shu bois fan texnika rivoji, ko'p jihatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog'liq

Komil inson bo'lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo'lg'usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat va qadriyatlar egallash uchun hamda kelajak rivojini ta'minlash uchun talabalardan mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shunday qilib mustaqil fikrlash talabalarining ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va ularning har bir masalaga kreativ usul bilan yondashishi uchun ko'maklashadi. Mustaqil fikrlash va mantiqiy fikrlash haqida Abu Ali Ibn Sino "Mantiq ilmuni egallasa, kishi Bahri muhitda cho'kmaydi"deydi. Ibn Sinoning ta'lim tarbiyaviy qarashlari yuksak insoniylik tamoyillariga, ulug' insonparvar g'oylarga tayanar edi. Bugungi kundagi talaba yoshlarni ham ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyaviy ruhida tarbiyalash mustaqil fikrlash mexanizmini to'g'ri shakllantirishni yo'lga qo'ysakgina talaba yoshlarda mustaqil hayot uchun erkin harakat va faol jarayon yuzaga chiqadi

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гуломовна И. М. Инновационная деятельность в образовательных учреждениях и ее влияние на качество образования. Репозиторий открытого доступа, 2022. 9(11), 138-142.
2. Усмонова, М. Имконияти чеклалановые поля и потребности развития экономических технологий. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 2022. 1(4).
3. Гуломовна И.М. Обучение профессиональных навыков в процессе технологического образования. Репозиторий открытого доступа, 2022. 9(11), 143-146.
4. СОБИРОВА Ю.М. Модернизация содержания, методов и инструментов технологий в организации современного образования. ИЭЙРД. 2021.

Муаллиф:

Ibragimova Mayramxon G'ulomovna - Qo'qon davlat pedagogika instituti, texnologik ta'lim kafedrasini v.b.dotsenti.

УДК 37.013.42

TENDENCIES OF FORMING 21ST CENTURY SKILLS IN STUDENTS THROUGH EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS

MAXSUS MAKTAB INTERNATLARIDA TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI

ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ XXI ВЕКА У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ЭФФЕКТИВНУЮ ОРГАНИЗОВКУ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КУРСОВ В СПЕЦИАЛЬНЫХ ШКОЛАХ-ИНТЕРНАТАХ

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti, 150700. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar, Usmon Nosir 38A.

E-mail: usmonovamuxlisaxon@gmail.com

Abstract. The science of technology provides students not only with education, but also with labor training and corrective and educational tasks. In this regard, the task of science is to form the knowledge, skills and abilities that students need in life and work, and it acts as a driver for students with intellectual disabilities to find their place in life. In this regard, the skills of the 21st century, that is, the "4K" model, are of great importance. Teaching these skills to students and identifying their trends are urgent tasks. In the article, we aimed to identify the trends aimed at the formation of 21st century skills in students through the effective organization of technology classes, and teaching them to students during the classes was considered a demand of the times. It was found that the formation of 21st century skills, i.e., creativity, critical thinking, cooperation, and communication skills, is important in the development of students with intellectual disabilities. Of course, long-term monitoring and experimental work was carried out on the implementation of these works.

Key words: education, 21st century skills, "4K" model, creativity, critical thinking, cooperation, communication, labor education, profession, scientific and technical development, methodology.

Аннотация. Наука технология обеспечивает студентов не только образованием, но и трудовой подготовкой и коррекционно-воспитательными задачами. В связи с этим задача науки состоит в формировании знаний, умений и навыков, необходимых учащимся в жизни и работе, и выступает драйвером для студентов с ограниченными интеллектуальными возможностями в поиске своего места в жизни. В связи с этим огромное значение приобретают навыки XXI века, то есть модель «4К». Обучение студентов этим навыкам и выявление их тенденций являются актуальными задачами. В статье мы стремились выявить тенденции, направленные на формирование у студентов навыков XXI века посредством эффективной организации занятий по технологиям, а обучение им студентов во время занятий считалось требованием времени. Установлено, что формирование

навыков XXI века, а именно креативности, критического мышления, сотрудничества и общения, имеет важное значение в развитии учащихся с ограниченными интеллектуальными возможностями. Разумеется, по реализации этих работ велась многолетняя контрольно-экспериментальная работа.

Ключевые слова: образование, навыки XXI века, модель «4К», творчество, критическое мышление, сотрудничество, общение, трудовое образование, профессия, научно-техническое развитие, методология.

Kirish. Jamiyat kelajagi bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratish dolzarb masalalardandir. Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, xususan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) o'quvchilarini kasbiy o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning sifatli ta'lim olishiga oid huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" [2] deb belgilangan bo'lsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasida "Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi. Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi" [3] deb belgilanishi jamiyatimizning g'oyatda insonparvarligidan dalolat beradi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun) maktab va maktab-internatlari (Keyingi o'rinlarda – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari deb yuritiladi) o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda, ularni voyaga yetishishida, o'z iqtidorini to'la namoyon etishlarida, barcha qobiliyatlarini yuzaga chiqishida hamda jamiyatda o'z o'rnini topishlarida boshqa fanlar qatori "Texnologiya" fani ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlari o'quvchilarni aqlan fikrlashga, ijodkorlikka, zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda professional tayyorgarlikni oshirishga va jismoniy mehnat turlaridan samarali foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda to'g'ri qo'llay bilish kompetensiyalarini egallashga undaydi. Ularning nafaqat jismoniy sog'lom, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bo'lishlari uchun asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga o'quvchilarni ishlab chiqarishda texnologik talablarni bajarish; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etish; ish vaqtini mustaqil rejalashtira olish; o'zini muntazam nazorat qilish; ish jarayonidagi vaziyatlarga baho berish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish; mehnat faoliyatiga ijodkorlik bilan yondasha olish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha kreativ tashabbuslar ko'rsata olish; bajargan ishi bo'yicha shaxsiy mas'uliyatni va javobgarlikni his qilish; kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllanishi, kasb-hunarga ega bo'lishi va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga xizmat qiladi.

Tadqiqot obekti va qo'lanilgan metodlar

Tadqiqotning obekti sifatida maxsus maktab internatlarining texnologiya fani mashg'ulotlari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kichik guruxlarda ishlash, yakka tartibda ishlash, jamoa bilan ishlashga oid interfaol metod 4K modelidan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida Texnologiya fani o'quvchilarni mehnat qilishga o'rgatish va kasbga yo'naltirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Texnologiya fanini o'qitishning mazmuni va mohiyati – o'quvchilarda texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, muhandislik ko'nikmalarini shakllantirish mustaqil amaliy faoliyatga (hayotga) tayyorlash, kasb-hunar o'rgatish hamda tarbiyalashga qaratiladi.

Mazkur maktab va maktab-internatlarning vazifasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashdan iboratdir. Shu sababli, ularni ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish davrida bilish faoliyatiga alohida o'rin va e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlari yordamida nuqsonlari kamayadi va qisman bartaraf etib boriladi. Bu vazifalarni hal qilishda pedagogik, tibbiy va texnik vositalar keng qo'llaniladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarga berilayotgan bilimlarning murakkablik darajasiga, ta'lim usullariga hamda ta'lim olayotgan o'quvchilarning psixologik imkoniyatlariga bog'liqdir. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida mehnat faoliyati sodda, tushunarli va ayrim mavzular ma'lum jihatdan qayta berilayotganligi sababli, o'quvchilardagi sezgi organlarining samarali ishlashiga, fikrlash jarayoni va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun ham mazkur muassasalarda Texnologiya fani mazmuni va uni o'qitish metodikasini belgilab olishda maxsus dasturlardan foydalaniladi va shu asosida metodik ta'minoti yaratiladi.

Mehnat jarayonining samaradorligi, mehnat gigienasiga rioya qilinishi, har bir o'quvchiga individual yordam berilishi va ustaxonaning talab darajasida jihozlanishi o'quvchilarning xulq-atvori va sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni darslik, texnologik xarita, ko'rgazma, chizma va texnik rasmlar, raqamli ta'lim resurslari bilan ta'minlangan holda amalga oshiradi. O'qituvchi nazariy va amaliy mashg'ulotlar asosida o'quvchilar egallashi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyalarni tashkil etadi.

O'qituvchi tomonidan sinfda psixologik muhit yaratadi, o'quvchiga imkoniyat beradi, texnik va muhandislik ko'nikmalarini shakllantiradi, kasb tanlashga yordamlashadi, yetarli darajada hom-ashyo va asbob-uskunalar bilan ta'minlaydi hamda o'quvchining individual harakatini nazorat qiladi.

Ushbu muassasalarda Texnologiya fanini o'qitilishi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: og'zaki, yozma va ko'rgazma; o'lchash, belgilash va kesish; buyum yasash; o'z ishini nazorat qilish.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tayanch o'quv rejagasiga ko'ra Texnologiya fani 1-4-sinflarda haftasiga 2 soat, 5-sinfda 6 soat, 6-sinfda 8 soat, 7-sinfda 10 soat, 8-sinfda 12 soat, 9-sinfda 13 soatdan o'qitiladi.

Texnologiya fanida 5-9-sinflarda Gender tamoyillari inobatga olingan holda mehnat turini teng huquqli tanlov asosida tanlash imkoniyati beriladi va o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitiladi. Guruhdagi o'quvchilar soni 4 nafardan kam bo'lsa, ularni jinsidan qat'iy nazar boshqa guruh o'quvchilari bilan to'ldirish tavsiya etiladi.

5-sinfda ushbu fanning mazmunida pazandachilik, tikuvchilik, duradgorlik, temirchilik, kosibchilikning umumiy (o'g'il va qiz bolalar uchun hayotda kerak bo'ladigan ish turlari) malakalari, xizmat ko'rsatish (mehmon kutish, ish yurituvchilik, xarid qilish, mahsulot tarqatish va boshqa kundalik hayotda zarur ko'nikmalar), qog'oz va karton bilan ishlash, maishiy xizmatning turli yumushlariga doir mavzular o'qitiladi. Bunda o'quvchilar xom-ashyo tanlashga, reja tuzishga, loyihalar tayyorlashga hamda o'z mahsulotini reklama qilishga o'rgatiladi.

6-sinfdan boshlab, ish turlari kengaytiriladi. Uning tarkibiga fanning zamonaviy yo'nalishlari: oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik, dizaynerlik, zardo'zlik, dekorativ bezatish, naqqoshlik, o'ymakorlik, kashtachilik, bo'yoqchilik, gulchilik, chorvachilik, obodonlashtirish, oddiy ta'mirlash ishlari, uy qurish, uyni bezash (bo'yoqchilik, suvoqchilik, rang va jihoz tanlash, ularni xona xususiyatlariga qarab joylashtirish, xonadon yer maydonlarini obodonlashtirish), elektr ishlari hamda santexnikaga oid oddiy dastlabki bilimlar va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mavzular kiritiladi.

7-8-9-sinflarda o'quvchilarning imkoniyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda yo'nalishlar tanlanadi va mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining tayanch o'quv rejagasiga asosan Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

XXI asr ko'nikmalari sifatida 4K modeli zamonaviy ta'limda o'quvchida rivojlantirish zarur bo'lgan ko'nikmalar deb qaralmoqda.

“4K” modeli o'zi nima?

“4K” yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

1. Ijodkorlik (kreativ fikrlash) ko'nikmasi – o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, nostandart fikrlash asosida ilg'or takliflarni ilgari suradi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

2. Tanqidiy fikrlash (kritik fikrlash) ko'nikmasi – mushohada va tahlil orqali muammolarga yechim topish, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Hamkorlik (kollaboratsiya) qilish ko'nikmasi – maqsadga erishish yo'lida birgalikda ishlash, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi.

4. Muloqot qilish (kommunikativlik) ko'nikmasi – o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi.

Bu ko'nikmalar asosida o'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Bu ko'nikmalar asosida o'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Tadqiqotimiz davomida “4K” modelini Texnologiya faniga joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda “4K” tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratgan. Buning natijasida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda “4K” ni o'z ichiga olgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muloqot qilish ko'nikmalariga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishmoqda.

“4K” modelini samarali ishlashi uchun alohida sharoitlar talab etilmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati muammoli topshiriqlar, keyslar, IQ test kabilar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi.

4K modelini inobatga olgan holda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida Texnologiya fani nuqsonli

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

o'quvchilarni umumtexnik, kasb-hunar va xo'jalik-maishiy bilimlarni o'rgatishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va maktablarda shu maqsad asosida ish olib boradi. Texnologiya fanida o'rgatiladigan ish usullarining mazmuni, mohiyati, tashkil qilinishi aqli zaif o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, ularda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqillik, faollikni tarbiyalashga qaratiladi.

Xulosa

Olib borgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, hatto yuqori sinf o'quvchilarida ham yetarli mustaqillik shakllanmay qolar ekan. Yuqori sinf o'quvchilarining atigi 20 foizigina u yoki bu darajada ishni mustaqil hal qila oladi. O'quvchilarning asosiy qismi o'qituvchilardan yordam olishga intiladi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar asosan ish vaqtida fikrlash jarayonlari talab etilganda yuzaga kelar ekan. Bu asosan, ishni rejalashtirishda, nazorat qilishda ko'zga tashlanadi. Ba'zi o'quvchilar bajarayotgan ish jarayonini mustaqil gapirib bera olmaydilar. Shu bois, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

O'quvchilar mehnat qila turib ham aqlan, ham jismonan, ham shaxsan takomillashib boradi. Albatta, bu takomillashish, rivojlanish normal o'quvchilar darajasida bo'lmaydi. Chunki, normal o'quvchilar ongli, tushungan holda bajarib borsalar, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning aksariyati ishni mexanik tarzda, tushunmasdan bajaradilar. Shuning oqibatida ish natijalarida ham keskin farqlar yuzaga keladi. Bu kabi farqlarni yanada rivojlantirishda XXI asr ko'nikmalari, ya'ni "4K" modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun amaliy ishlar jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Texnologiya fani o'quvchilarga nafqat ta'lim balki mehnat tarbiyasi berish va tuzatuvchi-tarbiyalovchi vazifalarni ham amalga oshiradi. Shu jihatdan fanning vazifasi o'quvchilarda hayotda, mehnatda zarur bo'ladigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'lib, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun drayver vazifasini bajarib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: "O'qituvchi" MU MCHJ, 2021.-184 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son (<https://lex.uz/docs/6445145>).
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
4. Ayupova M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011
5. Axundov N., Axmedov G. i dr. Texnologiya 5: Uchebnik po predmetu Texnologiya dlya 5-go klassa obsheobrazovatel'nyx shkol. – Baku: «ASPOLIQRAF», 2017.-80 s.
6. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – T.: "RTM", 2017.-140 b.
7. Po'latova P.M., Nurmuhamedova L.Sh., va boshqalar. Maxsus pedagogika (Darslik). – T.: "Fan va texnologiya", 2014.-368 b.
8. Simonenko V.D. Texnologiya: Uchebnik dlya uchashixsya 5 klassa selskix obsheobrazovatel'nyx shkol. – M.: «Ventana-Graf», 2002, 240 s.
9. Sh.E.Toxtiyarova, Sh.V.Shokirova, N.Z.Abidova. Nutqning ontogenezda rivojlanishi. O'quv qo'llanma. T.:2020
10. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: "RTM", 2017.-72 b.
11. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. // O'quv qo'llanma. – T.: "TDPU", 2011.-166 b.
12. Sharipov SH.S. va boshqalar. Mehnat ta'limi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "Sharq", 2012.-240 b.
13. Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A., Toxirov O'.O. va boshqa. Texnologiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: RTM, 2021.-240 b.
14. Chernova Ye.N., Dubina I.V. Trudovoe obuchenie. Texnicheskiy trud: uchebnoe posobie dlya 7-go klassa uchrejdeniy obshego srednego obrazovaniya s russkim yazikom obucheniy. – Minsk: «Narodnaya asveta», 2019.-206 s.

Muallif:

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna – Qo'qon davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti.

UDK 372.853

INTERACTIVE METHODS USED IN TEACHING THE DEPARTMENT OF ELECTROSTATICS.

ELEKTROSTATIKA BO'LIMINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КАФЕДРЫ ЭЛЕКТРОСТАТИКИ.

Mamadaliyeva Nargizaxon Zokirjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti, 150700. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar, Usmon Nosir 38A.

E-mail: hadasd633@gmail.com

Abstract. Today, in our country, the development of continuous education and the introduction of international technologies into public education are improving. In the priority directions, such tasks as "Development of the field of education and science, organization of education and use of the system of pedagogical technologies" are defined. As a solution to these tasks, it is important to improve the methodology of forming the professional competence of students based on the specific features of modular technology in higher education institutions. Today, it is impossible to become a qualified pedagogical specialist without learning and mastering the reserve of modern educational technologies. The use of any innovative technology in the educational process depends on the personal nature of who is teaching the students and who the teacher is educating. Trainings conducted on the basis of innovative technology provide an opportunity for students to express their personal relationships to important life achievements and problems, to think about them, and to justify their points of view. The role and importance of innovative educational technologies in the formation of a creative approach in students during the educational process is incomparable.

Key words. Modular technologies, graphic organizers, Venn diagram, educational technologies, ammeter sensitivity, measurement accuracy, measurement error.

Аннотация. Сегодня в нашей стране совершенствуются развитие непрерывного образования и внедрение международных технологий в народное образование. В приоритетных направлениях реализуются такие задачи, как «Развитие сферы образования и науки, организация образования и использование системы образования». педагогические технологии». В качестве решения этих задач важно совершенствование методики формирования профессиональной компетентности студентов с учетом особенностей модульной технологии в высших учебных заведениях. Сегодня невозможно стать квалифицированным педагогическим специалистом, не изучив и не освоив резерв современных образовательных технологий. Использование любых инновационных технологий в образовательном процессе зависит от личностного характера того, кто учит учащихся и кого воспитывает преподаватель. Тренинги, проводимые на основе инновационных технологий, дают возможность студентам выразить свое личностное отношение к важным жизненным достижениям и проблемам, задуматься о них, обосновать свою точку зрения. Роль и значение инновационных образовательных технологий в формировании творческого подхода у студентов в учебном процессе бесценны.

Ключевые слова. Модульные технологии, графические органайзеры, диаграмма Венна, образовательные технологии, чувствительность амперметра, точность измерения, погрешность измерения.

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida olib borilayotgan keng islohatlar oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifat-samaradorligi ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga fizika fanini modulli o'qitish texnologiyalari asosida o'qitishga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirish zarurati ham mavjud. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor yo'nalishlarda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, ta'limni tashkil etish va pedagogik texnologiyalar tizimidan foydalanish" kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar yechimi sifatida oliy ta'lim muassasalarida modulli texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari zaxirasini o'rganmasdan va o'zlashtirmasdan turib, pedagogik malakali mutaxassis bo'lish mumkin emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, Muammoli ta'lim texnologiyalari, O'yin texnologiyalari, Modulli texnologiya, Casetnologiyalar, Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari, Hamkorlik pedagogikasi, chizmalı organayzerlar, Guruh texnologiyalari, An'anaviy texnologiyalar (sinf-dars tizimi) [2]

Modulli ta'lim texnologiyalari bo'yicha mashg'ulot o'tish jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmalı vositalar chizmalı organayzerlar deb ataladi. "Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchilar)" – fikriy jarayonlarni ko'rgazmalı taqdim etish vositasi. Grafikli organayzerlar ma'lumotlarni tartiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan fizik tushunchalar (hodisalar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqadorlikni o'rnatish vositalari ["insert"-jadvali, "klaster (tutam, bog'lam)"-sxemasi, "toifalash"-jadvali, "konseptual" jadval], ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash vositalari ("Venna" diagrammasi, "SWOT-TAHLIL" jadvali) va muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirish vositalari ("nima uchun?"-sxemasi, "baliq skleti" chizmasi, "qanday?" diagrammasi, "pog'ona"- tuzilmaviy-

mantiqiy chizma, “piramida” – chizmasi, “Nilufar guli”- chizmasi) kabi turlarga bo‘linadi. Grafikli organizatoridan laboratoriya jarayonida foydalanilsa samarali natija beradi.

Tadqiqot ob’yekti va qo‘llaniladigan metodlar

Tadqiqotning ob’yekti sifatida Umumiy fizika kursining elektrostatika bo‘limini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar va ularning qo‘llash metodlari to‘g‘risidagi adabiyotlar tahlili o‘tkazilgan bo‘lib, asosan Ampermetr va voltmetr asboblarning o‘lchash chegaralarini orttirish laboratoriya mashg‘ulotlari tanlab olingan.

Olingan natijalar va ularning tahlili


«Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma’nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’nodagi u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi. Modulli o‘qitish-o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. Inson bosh miyasi to‘qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv xujayralari) yoki apparatli modullardan iborat. To‘qima xujayralari bir-biri bilan ko‘p sonli to‘qnashuvlarda bo‘lishadi. Bir xujayra va uning o‘simtasini boshqa xujayra va uning o‘simtasi bilan to‘qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Demak, bosh miya to‘qimasidagi to‘qnashuvlar (kontaktlar) soni astronomik sonni ($1 \cdot 000000000 \times 6000$) tashkil etadi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi. Bu sohalaridagi izlanishlarga ko‘ra, to‘qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborotni kvant ko‘rinishda (boshqacha aytganda, ma’lum hissalar ko‘rinishida) eng yaxshi jihatdan qabul qiladi. Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi: [2] modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi; o‘qitishni individuallashtirish; amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish; kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi. Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o‘qitish jarayoni to‘laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta’lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o‘quvchi tomonidan ketma-ket o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Turli konsepsiyalar doirasida, modulli ta’lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko‘rinishlarga taqdim etilgan axborot banki; o‘quvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Yuqorida keltirilgan texnologiyalarni Umumiy fizikaning Elektr va magnetizm bo‘limidagi “Ampermetr va voltmetr asboblarning o‘lchash chegaralarini orttirish.” mavzusida ham qo‘llash mumkin. O‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok zanjirlaridagi tok kuchini o‘lchaydigan asbob – ampermetr (kichik toklarni o‘lchaydigan asboblardan milliampermetr, mikroampermetr) deb ataladi. O‘lchash vaqtida ampermetr zanjirga ketma-ket ulanadi, bunda zanjirdagi hamma tok ampermetr orqali o‘tadi. Zanjirdagi tokning qiymatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi uchun ampermetrlarning qarshiligi kichik bo‘lishi lozim. [3]

Har qanday ampermetr (milliampermetr) ma’lum bir chegaralangan qiymatdagi tok kuchini o‘lchashga mo‘ljallangan bo‘ladi. Agar zanjirdagi tok kuchi I ampermetr o‘lchashi mumkin bo‘lgan I_0 tok kuchidan taxminan n marta katta bo‘lsa bunday tokni o‘lchash uchun ampermetrning o‘lchash chegarasini kamida n marta orttirish lozim. Buning uchun ampermetrga parallel ravishda shunt deb ataluvchi qarshilik ulanadi. Ampermetrdan o‘tadigan tokning bir qismi shuntidan, qolgan qismi esa ampermetr g‘altigidan o‘tadi, ya’ni tok tarmoqlanadi. Ampermetrning ko‘rsatish darajasini necha marta orttirish lozimligiga qarab shuntning qarshiligi (R_{sh}) tanlanadi. Shuntlangan, ya’ni ko‘rsatish darajasi oshirilgan ampermetr elektr zanjiriga ketma-ket ulanadi.



1-rasm.

Elektr toki biror qarshilikdan o‘tganda potensial tushishi 1 volt bo‘lsa, bu vaqtda voltmetr strelkasining cheklangan nuqtasiga 1 V deb yozib qo‘yamiz. Xuddi shuningdek 2, 3, ... Voltlarni ko‘rsatadigan nuqtalarni topsak, shu bilan voltmetrni darajalagan bo‘lamiz. Agar tayyor shkalali voltmetr berilgan bo‘lsa, uning har bir bo‘limining haqiqiy qiymatini tekshirib qurish kerak. Ishni bajarishda asboblarni 1-rasmda keltirilgan sxema bo‘yicha ulanadi, r_2 qarshiliklar magazini va darajalanadigan voltmetr o‘zaro parallel holda umumiy zanjirning a va b nuqtalariga ulanadi. Odatda,

voltmetrlarning ichki qarshiliklari 10000 Om ga yaqin bo`ladi. Voltmetrdan juda oz tok o`tgani uchun zanjirdan o`tayotgan tokning deyarli hammasi r_2 qarshilikdan o`tadi. Shuning uchun amalda voltmetrdan o`tgan yukni e`tiborga olmaslik mumkin. Agar A va B nuqtalardagi potentsiallar ayirmasini $V_A - V_B$ bilan belgilasak, a va b nuqtalardagi potentsiallar ayirmasini $V_a - V_b$ bilan belgilasak, voltmetrdan o`tgan tok kuchini hisobga olmagan holda Om qonuniga asosan quyidagani yozish mumkin: [4]

$$I = \frac{V_A - V_B}{R} = \frac{V_a - V_b}{r} \quad (1)$$

Bunda $R = r_1 + r_2 + r_3$


Agar $V_A - V_B = E$ va $V_a - V_b = e$ deb belgilasak:

$$e = \frac{r_2}{R} E \quad (2)$$

bo`ladi. Tajriba boshlagan vaqtda R ning qiymati 100 Om va r_2 ning qiymati 1 Om ga yaqin bo`lsin.


O`lchash va natijalarni hisoblash

Asboblar 2 – rasmda tasvirlangan Sxema buyicha ulangandan keyin voltmetrning nolinch ko`rsatishi yozib olinadi. So`ngra K kalit tutashiriladi. Qarshiliklar magazini yordamida ab qismning qarshiligi voltmetrning ko`rsatishi har safar shkalaning 10-12 bo`limiga oshadigan qilib o`zgartiriladi va voltmetrning ko`rsatishlari yozib olinadi.



2-rasm.

O`lchangan natijalardan xulosa chiqarishda quyidagi grafik organayzer yani Venn diagrammasidan foydalanish mumkin. Venn diagrammasi bu bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko`p doiralarda ko`riladi, ular o`rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g`oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko`rsatishi kerak. Masalan, talabalar ampermetr va voltmetr asboblarining o`zaro o`xshash va farqli tomonlari solishtiriladi. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ikki o`lchov qurilmasining farqlari alohida yoziladi, ayni vaqtda ularning umumiy o`xshashliklarini ko`rsatish imkonini beradi. Buni quyidagicha keltirish mumkin. Venn diagrammasi.



Xulosa. XXI asr axborot texnologiyalari asri bo`lib, fan texnika shiddat bilan rivojlanmoqda. Endilikda kompyuterda ishlashni bilish, internetdan foydalana olish va kerakli ma`lumotlarni topish davr talabiga aylanmoqda. Bundan tashqari hozirda ko`pchilik ta`lim maskanlari eng zamonaviy moddiy texnika bilan ta`minlangan. O`quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko`nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo`llarini ochib beradi, ta`limni faollashtirish uchun

prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Innovatsion texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolar shaxsiy munosabatlarini bildirishiga, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantirishida innovatsion ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ta'lim tizimiga yangi o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llashga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur. Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ularni ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak. O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi: - fanlar va modullar bo'yicha o'qitish uzluksizligining tahminlanishi; - modullararo metodik jihatdan asoslangan muvofiqlik o'rnatilishi; - fanning modulli tuzilishi tarkibining moslashuvchanligi; - talabalarning qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individuallashtirishni tavsiya etishi mumkin); - axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual hamda mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish. Buning natijasida, talaba yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamadaliyeva, Nargizaxon Zokirjon Qizi, and Sirojiddin Shukurjon O'G'Li Qurbonaliyev. "Pedagogika oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichida "Bio-savar-laplas" qonunini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.9 (2021): 908-913.
2. Dadaboeva, F. O., M. Rahimberdieva, and K. A. Rakhimov. "The importance of time aphorisms in strengthening the educational aspects of education." *Open Access Repository* 9.12 (2022): 21-25.
3. Olimjonovna, Dadabaeva Feruzakhon, Rahimov Kamoliddin Anvarovich, and Ibrahimova Rana Hamdamovna. "The importance of the principle of historicism in the humanitarization of physics and astronomy education." *galaxy international interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 92-95.
4. Otaqo'ziyevna, Toxirova Maxfuzaxon, and Abdumanonova Firuza Abdualiyevna. "The role and role of virtual technologies in solving interdisciplinary applied issues on newton's laws at school." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 118-121.
5. Toxirova, M. "Maktabda fizika qonunlariga doir fanlararo tatbiqiy grafik masalalarni yechish metodikasi." *Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari. Chirchiq davlat pedagogika instituti mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferensiyasi to'plami* 11 (2021): 874-877.

Muallif:

Mamadaliyeva Nargizaxon Zokirjon qizi - QDPI, Fizika va astronomiya kafedrasida dotsenti (PhD).

УДК: 37.01/09

FORMATION OF INDUSTRY SKILLS IN STUDENTS IN GAS PROCESSING TECHNOLOGY LESSONS

**O'QUVCHILARIDA GAZLAMALARGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI DARSLARIDA KASANACHILIK
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ПО ТЕХНОЛОГИИ
ПЕРЕРАБОТКИ ГАЗЛАМА**

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, To'ron ko'chasi 23-uy

E-mail: firdavshonyusufhujjeva@gmail.com

Abstract: In this article, the formation of a mature person, his acquisition of a suitable profession, his ability to contribute to the development of society, to live and thereby manifest his identity in society, that is, to mature as a person, are taken into account. The pursuit of perfection is a complex process that takes place together with the professional formation of a person and lasts almost a lifetime. In a broad sense, professional formation means that a person receives education in a certain profession according to his mental abilities, physical capabilities, abilities, interests and aspirations for this or that field, as well as values and worldviews, and then enters and adapts to this field. Finally, it is understood that over the years he will grow into a mature and qualified specialist, and his main criterion at the current stage of quality

education is to study the technology of collective creative works in practice. The article talks about the importance of building housekeeping skills among secondary school students by processing gas products, as well as the economic efficiency of housekeeping, which is widely used in developed countries.

Key words: labor, economy, craftsmanship, gas, folk craft, profession.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование зрелого человека, приобретение им подходящей профессии, его способность вносить вклад в развитие общества, жить и тем самым проявлять свою идентичность в обществе, то есть созревать как личность. учтено. Стремление к совершенству – сложный процесс, протекающий вместе с профессиональным становлением человека и продолжающийся практически всю жизнь. В широком смысле профессиональное становление означает, что человек получает образование по определенной профессии в соответствии со своими умственными способностями, физическими возможностями, способностями, интересами и стремлениями к той или иной области, а также ценностями и мировоззрениями, а затем поступает и наконец, понимается, что с годами он вырастет зрелым и квалифицированным специалистом, и его главным критерием на современном этапе качественного образования является изучение технологии коллективного творчества на практике. В статье рассказывается о важности формирования навыков ведения домашнего хозяйства у учащихся средних школ путем переработки газовых продуктов, а также об экономической эффективности ведения домашнего хозяйства, которое широко используется в развитых странах.

Ключевые слова: труд, хозяйство, мастерство, газ, народный промысел, профессия

Kirish. Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Zero, inson mehnatda toblanib kamol topadi. Bizning jamiyatda inson mehnati ulug'lanadi.

Dono xalqimiz tomonidan «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishini ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Nahshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan so'zlari hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimni haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

O'zbekiston milliy Entsiklopediyasining birinchi jildida kasanachilikning iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilishi bayon etilgan. Masalan, 2000 yillarda AQShda kasanachilik usulida ishlaydiganlar soni 5mln. kishidan ortgan. Yaponiyada esa elektrotexnika, elektronika, turizm kabi tarmoqlarda ham kasanachilik keng qo'llaniladi. Kasanachilikda mehnat faoliyati to'la bo'lmaydi, shu bois oiladan, uy ishidan ajralib korxonada, tashkilotlarda ishlash imkoniyati bulmaganlar va yordamchi daromadga muhtoj shaxslar uchun juda qulay mehnat ko'rinishidir.

O'quvchilarda kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirishda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlari, sog'liqlari, o'zlashtirishlari va hissiyotlarini hisobga olish lozim. O'quvchining kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Ayniqsa gazlamalarga ishlov berish texnologiyasini o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish alohida o'rin egallaydi. Quyidagilarni puxta o'zlashtirilishi o'quvchilarda kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi: o'quvchilar gazlama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berish, bichish-tikish asoslarini o'rganishlari; kiyim turlari, ahamiyati, tikuv, yigiruv asbob-uskunalari va mashinalari, ularning turlari, tuzilishi va ishlashi bilan tanishishlari.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilarida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirishda gazlamaga ishlov berish texnologiyasining xalq hunarmandchiligi tarmoqlari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishlari juda muhimdir. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasining xalq hunarmandchiligi tarmoqlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: kashtachilik, do'ppido'zlik; zardo'zlik, quroqchilik; popochilik, milliy oyinchoqlar tayyorlash va boshqa yo'nalishlar.

Maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarida gazlamalarga ishlov berish orqali ularda kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish ahamiyati muhokama qilinadi. Xalq hunarmandchiligi sohalari tavsiflanadi. Kasanachilik bilan shug'ullanib kelayotgan xorijiy davlatlar faoliyati misol tariqasida keltirildi. Gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi —

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [1]. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri — o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va hakazo. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod nishonlarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashimni muhimdir. [2]

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning hayotda o'z o'rnini topa olish garovidir. Bu dolzarb vazifa ko'pincha maktab amaliyotida texnologiya darslarini to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Shu bois texnologiya darslarida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirishda gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo'limi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan manashu bo'limda o'zlashtirilgan bilimlar asosida kasanachilik ko'nikmalari shakllantiriladi, Chunki, xalq hunarmandchilikning asosiy sir-asrorlari shu bo'limda aks etgandir.

Kasanachilik insonlarni mehnat shakllaridan biri bo'lib, turli xalq hunarmandlariga xos bo'lgan azaliy mehnat qilishning bir usulidir. Kasanachilik — hunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o'z uyida ishlashi, yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish demakdir. Kasanachilikda maxsus tashkilot va korxonalar bilan kelishuv, shartnoma asosida buyurtmalar bajariladi. Kasanachilik jamiyatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, qo'shimcha daromad topish, ish vaqtining qat'iy belgilanmaganligi, maxsus binolarga ehtiyoj bo'lmasligi va boshqa bir qator qulay sharoitlarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bois o'quvchilarda kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Xulosa.

O'zbekistonda mehnat resurslari, oila xo'jaligi tuzilishi, ishlab chiqarish vositalari sharoitlari Kasanachilik rivojini ta'minlaydi. Hunarmandchilik, ayniqsa, igna ishi talab etuvchi tikuvchilik, kashtachilik, mebelsozlik va boshqa hunarmandchilikni turlari uchun Kasanachilik qulay. O'zbekistonda "Mahalla" jamg'armasi, respublika Tovarlar ishlab chiqarish va tadbirkorlar palatasi mahallalarda Kasanachilikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. Shu bois umumta'lim maktablarida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish o'ta muhimdir. Zero, Qo'qon xonligida hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo'lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsulotni bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo'qon shahri zargarlik va qog'oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg'ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o'zining tikuvchilik, to'quvchilik, cho'yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan.

Butun xonlik hududida ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, asosiy hunar turlari – ip va ipak matolar to'qish, oyoq kiyim tayyorlash, teriga ishlov berish, kulolchilik mahsulotlari tayyorlash, temirchilik, egar-jabdug` yasash, bo'yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravasoqlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, o'ymakorlik, mum ishlash, pista ko'mir tayyorlash, kashtachilik, do'ppichilik, pichoqchilik kabilar edi. Undan tashqari, xonga tegishli poroh ishlovchi va qog'oz tayyorlovli ustaxonalar ham bo'lgan. Biz ana shunday qadimgi hunarmandchilik turlarini o'zimizda jo ettirgan xalqmiz, Shunday ekan bugungi yosh avlodni ham ana shu milliy qadriyatlarimizga sodiq ruxda tarbiyalash aynan texnologiya fani oqituvchilarning sharli burchi ekanligini oliy ta'limda tahlil olayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilar ongiga sindirilib borilishi biz qo'ygan muammolarni maqbul yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
2. Эрматова, Г. Н. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar / Г. Н. Эрматова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 21 (259). — С. 615-618.
3. O'zbekiston milliy Entsiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000 y
4. Muranov B.I. Texnologiya ta'limining o'quvchilarni kasblarga yo'llashdagi didaktik imkoniyatlari. T. RPPKITM. 2003 y. 5 dekabr.

Muallif:

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna – Qo'qon davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrasini v.b. dotsenti.

UDK:53:371.3:378

LATEST DEVELOPMENTS AND TRENDS IN ELEMENTARY PARTICLE PHYSICS

ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASINING SO‘NGGI TARAQQIYOT YO‘NALISHLARI VA TENDENSIYALARI

ПОСЛЕДНИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ И ТЕНДЕНЦИИ ФИЗИКИ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ЧАСТИЦ

Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 150700. Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi 23-uy
akmalmadaliyev86@gmail.com

Annotation: This article talks about the characteristics of modern research in physics, the directions of development of elementary particle physics, achievements in the field and their role in the formation of students' worldview.

Key words: elementary particle, interactions, Higgs boson, proton, decay, fusion, theory, experience, trend, education, methodology.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanidagi zamonaviy tadqiqotlar xususiyatlari, elementar zarralar fizikasining taraqqiyot yo‘nalishlari, sohasidagi yutuqlar va ularning talabalar dunyoqarashi shakllanishidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: elementar zarra, o‘zaro ta’sirlar, Xiggs bozoni, proton, parchalanish, birlashish, nazariya, tajriba, tendensiya, ta’lim, metodika.

Аннотация: В данной статье говорится об особенностях современных исследований в области физики, направлениях развития физики элементарных частиц, достижениях в этой области и их роли в формировании мировоззрения студентов.

Ключевые слова: элементарная частица, взаимодействия, бозон Хиггса, протон, распад, синтез, теория, опыт, направление, образование, методология.

Kirish. Jahon miqyosida elementar zarralar fizikasi sohasida so‘nggi yillarda yangi zarralarni izlash, neytrino ossilyatsiyasi, materiyaning yangi turlari bo‘lgan qora materiya, qora energiya, gravitatsion to‘lqinlarni qayd qilish, Xiggs zarrasining tajribada topilishi kabi ko‘plab olamshumul yutuqlarga erishildi. Bundan tashqari nanofanlar–nanofizika, nanotexnologiyalar shakllanib jadal rivojlanmoqda. Zarralar fizikasining yutuqlari tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va sanoatning barcha sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Bu yutuqlar va ularning insoniyat turmushidagi qo‘llanishlarini yaxshi tushunish uchun hozirda eng jadal rivojlanayotgan va fizikaning eng yosh bo‘limi bo‘lgan elementar zarralar fizikasini dunyo va zamon talablari darajasida bilish talab qilinmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan islohatlar jahon andozasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Bu esa o‘qitishni ham mazmun ham uslub jihatdan yuqori pog‘onaga ko‘tarishni talab qiladi. Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032-son qarorida, fizika fani bo‘yicha zamonaviy darsliklarni yaratish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quv adabiyotlarining mazmuni fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasini yetarli qamrab olmagan, masalalar to‘plami, praktikum, laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha qo‘llanmalar, multimedia dasturlarini yaratishga e’tibor qaratilmaganligi takidlangan va oliy ta’lim muassasalarida fizika fanlarini o‘qitishning integrativ prinsiplarini joriy etish, yangi va ta’lim bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarning fizika ta’limi bilan qamrab olish darajasini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Elementar zarralar fizikasi bo‘limini o‘qitish va mazmunini takomillashtirish sohasida olib borilgan. M.Yu.Mansurovaning “Oliy ta’limda elementar zarralar fizikasi mazmuni va uni o‘qitish metodikasi (bakalavriat bosqichi misolida)”, N.G.Vloxinaning “Методическая система формирования понятия об элементарных частицах в курсе физики основной школы”, G.Vienerning “Elementary particle physics in early physics education” nomli nomzodlik hamda doktorlik ishlari, M.Israilov va D.R.Savronovlarning “Fizika fanining elementar zarralar bo‘limini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish”, professor K.R.Nasriddinovning hammualliflikda “Elementar zarralar fizikasi asoslari”, “Zarralar olamida simmetriya va saqlanish qonunlari”, “Izotopik fazo va izotopik spin (izospin)”, “G‘alati zarralar va g‘alatilik kvant soni”, “Maftunkor zarralar va maftunkorlik kvant soni” hamda “Zarralar fizikasi tushunchalari va o‘lchov birliklari”, A.Hobsonning “Teaching elementary particle physics”, R.Millarning “The role of practical work in the teaching and learning of science”, M.D.Omeoduning “Impact of Practical Work in the Teaching of

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Physics in Secondary Schools in Rivers State”, O.Passon, Z.Zyugge va J.Grebe - Ellislarning “Pitfalls in the teaching of elementary particle physics”, V.Christianto va F.Smarandacheylarning “Thirty Unsolved Problems in the Physics of Elementary Particles” kabi ishlari elementar zarralar fizikasining muammolari, yangiliklari va ta’lim jarayonida mazmunini va o’qitish metodikasini takomillashtirish ishlari olib borilgan.

Ilm – fanning uzoq taraqqiyoti davomida fizika sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlari xarakteri ham zamonga mos ravishda o’zgarib kelgan. Dastlabki paytlarda fizika sohasidagi yangilik, kashfiyot va ixtirolar kuchli aql-zakovat sohiblari tomonidan yaratilgan bo’lsa, keyinchalik ma’lum muammoni hal qilishga yo’naltirilgan olimlar guruhi tomonidan uzoq muddatli izlanishlar natijasida ma’lum ko’zlangan natijalarga erishila boshlandi. Bu holat 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ma’lum yo’nalishdagi muammolarni o’rganishga mo’ljallangan ilmiy markazlarda amalga oshirish odatiga aylandi. Shu taxlit Fermilab (AQSh), DEZI (Germaniya), CERN (Shveysariya), YeKA (Yevropa kosmik agentligi) kabi xalqaro ilmiy markazlar va tashkilotlar vujudga kelgan [1].

Bunday ilmiy markaz va tashkilotlarning yuzaga kelishiga sabab, birinchidan fizika va astronomiya sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun yangi va katta xarajat talab qiladigan qurilmalar hamda tadqiqotlarni amalga oshirish uchun yuqori salohiyatli olimlar guruhi yoki guruhlari o’ta zarurligi hisoblanadi. Ikkinchidan, dunyodagi xech bir davlat bunday katta xarajat talab qiladigan tadqiqot olib borishni mablag’ bilan mustaqil ta’minlay olmaydi. Shu sababli bunday ilmiy markazlarda tadqiqot ishlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan mablag’ bilan ta’minlanishi yo’lga qo’yilgan hamda tadqiqot ishlariga tanlov asosida butun dunyodagi davlatlar mutaxassislari jalb qilinishi odatga aylandi.

XXI asrning boshlarida ushbu dunyo ilmiy markazlarida elementar zarralar fizikasi sohasida olamshumul yutuqlarga erishildi [2]. Bu yutuqlar va ulkan ilmiy siljishlar quyidagi yo’nalishlarda sodir bo’ldi va bo’lmoqda:

- elementar zarralar fizikasi nazariyasi sohasida birlashtiruvchi nazariyalar, ya’ni 4 ta fundamental o’zaro ta’sirni yagona mexanizm asosida birlashtiruvchi nazariyalar qurish yo’nalishida;
- neytrino fizikasi sohasida, ya’ni neytrino tabiatini o’rganish, neytrino ossilyatsiyasini tadqiq qilish yo’nalishida;
- astrozarralar xususiyatlari, materiyaning yangi shakllari (Qora materiya, Qora energiya, gravitatsion to’lqinlar)ni o’rganish yo’nalishida;
- yangi avlod tezlatkichlarini qurish va yanada yuqori energiyalarda zarralar xususiyatlarini o’rganish yo’nalishida;
- yangi zarralarni izlash sohasida, ya’ni tezlatkichlarda va tezlatkichsiz zarralar fizikasi sohasida (koinot nurlarining xususiyatlarini o’rganish) yo’nalishida;
- nanotexnologiyalar yo’nalishida;

Sohada bo’lgan bu yangiliklar elementar zarralar fizikasidagi shu vaqtgacha shakllangan tasavvurlarni juda kengaytirib yubordi va albatta mutaxassislar, ayniqsa, yosh avlod uchun qiziqish maydoniga aylandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Birlashtiruvchi nazariyalar - barcha 4 ta fundamental o’zaro ta’sirni tushuntiruvchi nazariya. XX asr davomida bu o’zaro ta’sirlarni birlashtirish bo’yicha ko’plab nazariyalar ilgari surildi. Ulardan birortasi ham eksperimentda tasdiqlanmadi yoki eksperimentni o’tkazish imkoni bo’lmadi. Bu yo’ldagi asosiy qiyinchilik Kvant mexanikasi va Umumiy nisbiylik nazariyasi (UNN) ning qo’llanish sohalari har xilligidir. Kvant mexanikasi, asosan, mikroduyo jarayonlarini tushuntirishga xizmat qiladi, Umumiy nisbiylik nazariyasi esa makroduyoda qo’llaniladi. Maxsus nisbiylik nazariyasi (MNN) yuqori tezliklardagi jarayonlarni tushuntiradi. Umumiy nisbiylik nazariyasi esa Nyuton gravitatsiya nazariyasining umumlashgan ko’rinishi hisoblanadi. Ya’ni, Nyuton gravitatsiya nazariyasining MNN bilan birlashtirilgan va katta masofa hamda katta massalar holati uchun kengaytirilgan ko’rinishi. Kvant mexanikasi va MNN ning bitta formalizm doirasida moslashtirilishi (relyativistik kvant maydon nazariyasi) turli cheklovlarga olib keladi. Ya’ni, eksperimentda tekshiriluvchi kattaliklar uchun aniq nazariy qiymatlarning mavjud bo’lmasligi yuzaga keladi. Bu muammoni hal qilish uchun olingan qiymatlarni qayta normirovkalash (perenormiroka) usullari ishlatiladi. Ayrim nazariy modellar qayta normirovkalash mexanizmi natijasida jarayonlarni yaxshi tushuntiradi. Lekin bu nazariyaga UNN sini kiritish yana cheklovlarga olib keladi. Hozirgacha bu cheklovlardan qutilishning biror yo’li topilgani yo’q [3].

XIX asr oxirida elektrodinamika fani shakllandi. Bu fan doirasida Maksvell tenglamalari asosida elektr va magnit maydonlari (kuchlari) yagona elektromagnit maydonga birlashtirildi. Shundan keyin barcha fundamental o’zaro ta’sirlarni birlashtirish g’oyasi ilgari surildi.

Zamonaviy fizika hozirda ma’lum quyidagi o’zaro ta’sirlarni birlashtirishni talab qilmoqda:

- gravitatsion o’zaro ta’sir;
- elektromagnit o’zaro ta’sir;
- kuchli o’zaro ta’sir;
- kuchsiz o’zaro ta’sir;
- Xiggs maydoni.

Bundan tashqari bu nazariya barcha elementar zarralarning mavjudligini ham tushuntirishi kerak. Birlashtirish yo’lidagi dastlabki qadam 1967 yilda Stiven Vaynberg, Sheldon Gleshou va Abdus Salam tomonidan elektromagnit va

kuchsiz o'zaro ta'sirlarning elektrokuchsiz o'zaro ta'sirga birlashtirilishi bo'ldi. 1973 yilda esa kuchli o'zaro ta'sir nazariyasi taklif qilindi. Shundan keyin Buyuk birlashtirish nazariyasining bir necha variantlari taklif qilindi. Shulardan eng taniqlisi Pati-Salam Nazariyasi 1974 yilda taklif qilindi. Bu nazariyalar doirasida gravitatsion o'zaro ta'sirdan tashqari barcha kuchlar birlashtirildi. Lekin bu Buyuk birlashtiruvchi nazariyalardan birortasi ham eksperimentda o'z tasdig'ini topmadi. Ayrimlari esa ular doirasida bashorat qilingan protonning parchalanishi eksperimentda kuzatilmaganligi sababli inkor qilindi. Qolgan nazariyalardan birortasining eksperimentda tasdiqlanishi hozirda o'rganilmoqda. Bundan tashqari Kvant mexanikasi va UNN asosida gravitatsiyaning kvant nazarisini yaratish masalasi haligacha amalga oshmadi. Hozirda birlashtiruvchi nazariya sifatida asosiy nomzodlar -torlar nazariyasi, sirtmoq nazariyasi va Kalutsa-Kleyn nazariyalari qaralmoqda. Shu o'rinda Kalutsa-Kleyn nazariyasiga to'xtalib o'tamiz. XX asr boshlarida Koinotning o'lchami, biz bilgan 3 ta fazoviy va bitta vaqtdan tashqari, ko'proq o'lchamga ega degan fikrlar paydo bo'ldi. Bu fikrga Kalutsa-Kleyn nazariyasi turtki vazifasini bajardi. Bu nazariya doirasida UNN ga qo'shimcha o'lcham kiritilsa Maksvell tenglamalari kelib chiqishi ko'rsatildi. Kalutsa va Kleyn g'oyalariga tayanib yuqori o'lchamli nazariyalar yaratish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu ma'noda gravitatsion o'zaro ta'sirning boshqa ta'sirlarga qaraganda kuchsizligi ham ayon bo'ldi. Unga ko'ra gravitatsiya yuqori o'lchamli fazolarda mavjud va uning kuzatiladigan fazodagi ta'siri kuchsizlanib qoladi.

1990 yillarning oxirida bu birlashtiruvchi nazariyalarning umumiy muammosi yuzaga keldi: ular Koinotning kuzatiladigan xarakteristikalarini qat'iy aniqlay olmaydilar. Umuman olganda Buyuk birlashtiruvchi nazariya Koinotning fundamental qonuni, qolgan barcha nazariyalar esa bu qonunning xususiy hollari yoki natijalari hisoblanadi.

Birlashtiruvchi nazariya g'oyasiga ko'ra ma'lum energetik masshtabda barcha ta'sir doimiyliklari tenglashadi, bu holat 80 GeV dan yuqori energiyalarda sodir bo'ladi. Bu masshtabda barcha o'zaro ta'sirlar bir xil kuchga ega va barcha zarralar bitta matematik apparat yordamida ifodalanadi. Hisoblarga ko'ra bunday birlashish taxminan 10^{14} GeV da sodir bo'ladi. Bu masshtab tezlatgichlarda erishib bo'lmaydigan qiymatdir. Lekin uni boshqacha yo'l bilan tekshirib ko'rish mumkin. Ma'lumki kuchsiz o'zaro ta'sir ostida neytron proton, elektron va antineytrinoga parchalanadi. Birlashtiruvchi nazariyaga ko'ra poton ham stabil emas va parchalanishi kerak. Protonning ozgina ehtimollik bilan bo'lsada parchalanishi xavfli bo'lib, uning stabiligi Koinotdagi barcha materiyaning stabiligini belgilaydi. Lekin hozirgacha uning parchalanishi to'g'risida birorta ham eksperiment natijasi yo'q [4].

Xulosa

Ushbu jahon miqiyosida erishilgan va erishilayotgan elementar zarralar fizikasi sohasidagi yutuqlar, sohada rejalashtirilayotgan tadqiqot ishlari albatta ta'lim tizimimizda o'z aksini doimiy topib borishi kerak. Elementar zarralar fizikasining taraqqiyot yo'nalishlari dunyoning mikro o'lchamlarida sodir bo'layotgani va erishilayotgan yangidan yangi natijalar insoniyat dunyoqarashini butkul o'zgartirib yuborayotgani, bu jarayonlarni ko'z bilan ko'rib, jarayon ishtirokchilarini qo'l bilan ushlab bo'lmasligini inobatga olsak, bu sohaga albatta axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiiq etish ta'limning zamonaviy talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [A luminous future for the LHC](#), CERN Courier, Feb 23, 2015.
2. [The Future Circular Collider study](#), CERN Courier, Mar 28, 2014.
3. B.Povh, K.Rith, Ch. Shcolz, F. Zetsche. Particles and Nuclei. An introduction to the physical concepts. 2008. Springer, Berlin-Heidelberg. -395 p.
4. Ch.W.Fay. Introduction to modern physics. Ferris state university press. 2011. -157 p.

References:

1. [A luminous future for the LHC](#), CERN Courier, Feb 23, 2015.
2. [The Future Circular Collider study](#), CERN Courier, Mar 28, 2014.
3. B.Povh, K.Rith, Ch. Shcolz, F. Zetsche. Particles and Nuclei. An introduction to the physical concepts. 2008. Springer, Berlin-Heidelberg. -395 p.
4. Ch.W.Fay. Introduction to modern physics. Ferris state university press. 2011. -157 p.

Muallif:

Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich – Qo'qon davlat pedagogika instituti, Fizika va astronomiya kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

UDK: 784.4

UZBEK WOMEN'S VOCAL ART: THE INEXTRICABLE LINK BETWEEN NATIONAL MUSICAL HERITAGE AND CONTEMPORARY CREATIVITY

O‘ZBEK AYOL XONANDALIGI: MILLIY MUSIQA MEROSI VA ZAMONAVIY IJODNING UZVIY BOG‘LIQLIGI

УЗБЕКСКОЕ ЖЕНСКОЕ ВОКАЛЬНОЕ ИСКУССТВО: НЕРАЗРЫВНАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ НАЦИОНАЛЬНЫМ МУЗЫКАЛЬНЫМ НАСЛЕДИЕМ И СОВРЕМЕННЫМ ТВОРЧЕСТВОМ

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 150700. Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi 23-uy

E-mail: mamajonovadildoraxon5@gmail.com

Abstract. This article is dedicated to studying the contributions of Uzbek female vocalists in preserving the national musical heritage and their role in contemporary creative processes. It analyzes how traditions related to maqom and folk instrumental music have influenced the development of female performance and examines the role of female singers in bringing national music to a modern stage. Furthermore, the article explores the importance of Uzbek musical traditions, the refinement of female vocal performances, the significance of educating the younger generation through music, and the issues surrounding the preservation of national identity through women's creativity.

Keywords: Uzbek female vocal art, national musical heritage, contemporary creativity, Uzbek traditional music, women's creativity, musical excellence, performance art, folk music, maqom creativity.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению вклада узбекских женщин-вокалисток в сохранение национального музыкального наследия и их роли в современных творческих процессах. В статье анализируется, как традиции, связанные с макамом и народным инструментальным искусством, повлияли на развитие женского исполнительства, а также рассматривается роль женщин-вокалисток в выводе национальной музыки на современный этап. Кроме того, обсуждается значение узбекских музыкальных традиций, изящество женского вокального исполнения, важность воспитания молодого поколения через музыку, а также вопросы сохранения национальной самобытности через женское творчество.

Ключевые слова: Узбекское женское вокальное искусство, национальное музыкальное наследие, современное творчество, узбекская традиционная музыка, женское творчество, музыкальное совершенство, исполнительское искусство, народная музыка, макамоное творчество.

Kirish. O‘zbek musiqa san‘ati bugungi kunda nafaqat an‘anaviy ko‘rinishlari, balki zamonaviy xonan dalik yo‘nalishlarida ham xalqaro miqosda e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek musiqiy merosining murakkab va betakror qismi bo‘lmish maqom ijodiyoti va sof cholg‘u musiqasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishlar o‘zbek xalqining boy va rang-barang musiqiy merosidan ilhom olgan holda, zamonaviy bastakorlik san‘atining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xalqchil kuy va maqom an‘analariga tayangan xonandalik ijodi o‘z milliy xususiyatini saqlagan holda, musiqiy barkamollikka erishmoqda.

O‘zbek musiqasining qadimiy tarixiy zaminida shakllangan ‘O‘n ikki maqom/’, Buxoro va Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari va xalq bastakorlik ijodiyoti o‘zbek ayol xonandalarining ijodiy yo‘nalishlarini ham belgilab beradi. Milliy musiqa san‘atida ayollar ijodiyoti va xonandaligi ko‘hna an‘analarimizni saqlab qolish va rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Ayollar nafaqat milliy merosni davom ettirish, balki uni zamonaviy musiqa jarayonlariga moslashtirishda ham faol ishtirok etishmoqda.

Tadqiqot ob‘yeki va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob‘yeki sifatida ayol xonandalar milliy maqomlar, diniy-falsafiy ashulalar va zamonaviy bastakorlik yo‘nalishlarida ijod qilingan manbalar. Ularning ijrosi milliy o‘zlikni saqlash va targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi va milliy madaniyatning asosi sifatida yangi avlodga yetkaziladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy–qiyosiy, eksperimental, empirik, suhbat va kuzatuv, tarixiy-tahliliyusullardan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning rahlili

Bugungi mustaqillik davrida ayol xonandalar milliy maqomlar, diniy-falsafiy ashulalar va zamonaviy bastakorlik yo‘nalishlarida katta ijodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishmoqda. Xususan, maqom ashulalari va tasavvufona kuylarning ijrosi milliy o‘zlikni saqlash va targ‘ib etishda muhim omil sifatida ko‘riladi. Ayollar tomonidan ijro etilayotgan bunday kuylar, ayniqsa, keksalar va milliy madaniyatga aloqador shinavandalar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Musiqiy ijodning ushbu sohalari orqali ayol xonandalar milliy merosning qadr-qimmatini o‘z tinglovchilariga yetkazib, xalqimizning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Xalq orasida qadrlangan hofiza va sozandalar bugungi kunda ham ma‘naviy mulkimizning saqlovchilari va targ‘ibotchilari sifatida el-yurtimiz tomonidan hurmat bilan eslanadi.

Ayol xonandalarning o'ziga xos o'rni nafaqat musiqiy ijodda, balki yosh avlodni tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Musiqiy madaniyat nafasat didini shakllantirishda muhim vositadir. Ayniqsa, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ayol xonandalar ishtirokida o'tkazilgan musiqa to'garaklari orqali yosh qizlarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ayollar ijodiyoti nafaqat xalqimizning musiqa merosini saqlab qolish, balki uni yangi avlodga yetkazishda ham katta ma'noga ega.

Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ba'zi ruhiy kasalliklarni musiqa yordamida davolash mumkinligini ta'kidlagan[4.]. Bu g'oya shuni ko'rsatadiki, musiqa inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni tinchlantirishi, ba'zan esa davolashi ham mumkin. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy esa o'zining "Katta musiqa" kitobida musiqa nazariyasining turli jihatlarini, ohanglarning inson ruhiy holatiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan[3.]. Forobiy nafaqat nazariyotchi, balki taniqli musiqachi, sozanda va bastakor bo'lgan. U yangi musiqa asboblari ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Forobiyning ta'kidlashicha, musiqa insonning ruhiy muvozanatini saqlab turadi. Musiqa milliy madaniyatda yuksak his-tuyg'ular, g'oyalar olamini ochib, insonni ma'naviy jihatdan boyitadi va uni sof barkamollikka yetkazadi. Bola hali o'qish va yozishni o'rganmay turib, musiqani his qilishi mumkin. Shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo'lgan munosabatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida musiqa ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Musiqa bolalarning his-tuyg'ularini boyitib, ularni nafaqat nafasat, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi.

O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqa ijrochiligi nihoyatda rivojlangan. Bu musiqiy meros avloddan-avlodga o'tib, o'z qadriyatini saqlab qolgan. Bu borada Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sino kabi buyuk olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ular musiqa nazariyasi va ijrochilik uslublari haqida risolalar yozib, musiqa ilmining rivojiga katta hissa qo'shganlar. Bu an'anani davom ettirgan yana ko'plab olimlar, jumladan, Mahmud bin Ma'sud ash-Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy va Abdurahmon Jomiy, musiqa ilmi bo'yicha qimmatli asarlar yaratib, xalq musiqasi va ashulalarining tahliliga katta ahamiyat berganlar[5.]. Ularning ilmiy izlanishlari nafaqat musiqa ijrochiligini rivojlantirish, balki ayol xonandaligiga ham katta hissa qo'shgan.

Ayol xonandaligi esa qadimdan O'rta Osiyo madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ayollar musiqada o'ziga xos uslub va yo'nalishlarni shakllantirib, o'z ijrochilik mahorati va nafis san'atini namoyon qilganlar. Shu jihatdan, ayol xonandalarning ijodi milliy musiqamizning ajralmas qismiga aylangan. Maqomlar va ashulalar orqali ayollar o'zlarining his-tuyg'ularini ifoda etib, jamiyatning ma'naviy yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqdalar. Musiqa bilan shug'ullanish ularga nafaqat ijodiy imkoniyatlar, balki ma'naviy va ruhiy boylik ham keltiradi.

O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy madaniyati tarixida xalq qo'shiqlarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Ular xalqning ruhiy kechinmalari va maishiy turmush tarzining aksidir. Bu qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib, sayqal topib, bugungi kungacha yetib kelgan. Xalq ijodi namunalarda, xususan, maishiy ashulalarda, lirik va ishqiy xarakterdagi qo'shiqlarda, to'y va marosim qo'shiqlarida hamda bolalar qo'shiqlarida O'rta Osiyo xalqlarining ko'p ming yillik madaniy merosi va hayoti mujassamdir. Bu qo'shiqlar xalq ijodining oltin merosidir. Qo'shiqlarning mazmunida xalqning kundalik turmush tarzidan tortib, katta tarixiy hodisalargacha ifoda topgan. "Yallama yorim", "Bodom qovoq", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi qo'shiqlar xalqimizning iztiroblari va quvonchlarini, mehnat va marosimlaridagi ijtimoiy voqeliklarni aks ettiradi. Bu qo'shiqlarning lirikasi xalqning nozik tuyg'ulari, estetik qarashlari va ichki dunyosini ochib beradi. O'rta Osiyo musiqashunos olimlari qo'shiqlarni ijro yo'nalishlari va ularning tahliliga katta e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sino kabi allomalar musiqaning kuchli ta'sirini tadqiq qilganlar, bu ilm nafaqat nazariy, balki amaliyotda ham qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlashgan. Ayniqsa, musiqaning ruhiy kasalliklarni davolashdagi o'rni haqida ko'plab ilmiy risolalar yaratilgan. Musiqiy merosning nazariy asoslarini yaratishda va uni saqlashda ayollar xonandaligining ham o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Ayol xonandalarning ijrosi O'rta Osiyo musiqa madaniyatida chuqur ildizlarga ega bo'lib, ular milliy qo'shiqchilikda sezilarli iz qoldirgan. Ayol xonandalar ijrosidagi lirik va maishiy qo'shiqlar, to'y va marosim qo'shiqlari, mehnat ashulalari o'ziga xos nazokat, hissiylik va tuyg'ularning ifodasi bilan ajralib turadi. Bu qo'shiqlar milliy an'analarni saqlash va yangi avlodga yetkazishda muhim vositadir. Ular orqali xalqning nafasat dunyosi, estetik qarashlari va ichki kechinmalari kuylanadi. Ayol xonandalarning milliy qo'shiqlardagi roli faqat ijrochilik bilan cheklanmaydi, balki ular qo'shiqlar orqali milliy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlashda ham faol ishtirok etadi. Shuningdek, ayol xonandalarning ijodi milliy musiqa merosining asosiy unsurlaridan biri sifatida ko'riladi. Ular o'z ijrolarida milliy she'riyat va musiqani uyg'unlashtirib, qo'shiq orqali xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari va hissiyotlarini aks ettiradilar. Shu bilan birga, ayol xonandalar ijrosida insoniy fazilatlar, sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik, mardlik va bag'rikenglik mavzulari hamda ularning musiqaviy ifodasi alohida o'rin tutadi. Ayol xonandalar, shuningdek, musiqa ilmida muhim iz qoldirgan. Ular milliy qo'shiqchilik merosini o'rganish va rivojlantirishda faol ishtirok etgan. Bu borada qadimgi qo'shiqlarni ijro etish va ularning amaliy tahlili, shuningdek, nazariy ilmiy tadqiqotlar ayol xonandalarning musiqiy madaniyatga qo'shgan hissasini namoyon etadi. Umuman olganda, ayol xonandalar milliy musiqiy merosning uzviy qismi bo'lib, ularning ijodi

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

milliy musiqaning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Ular milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarining saqlanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Qo'shik, termini birinchi marta XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlar bizgacha etib kelgan eng qadimiy hisoblangan Mahmud Qoshgariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "qoshug'" shaklida berilgan bo'lib, bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. Huningdek "qo'shiq" so'zini Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Qoshgariyning "Muqaddimatul - adab" lug'atida ham shunday ma'nolarni uchratamiz. Xususan Alisher Navoiyning "Mezonul - avzon" va Zahiriddin Boburning "Risolai aruz" asarlarida so'zi surud, ayolg'u, lahn, turki tarona, ashula, chilga (chinga) nomi bilap ham ta'riflangan. Ular qo'shiqning turli janrlarini atash uchun qo'llanilganligi bayon qilinadi.

O'zbek xalq qo'shiqlari shu darajada ko'p va xilma-xilki, uning barcha namunalari hali tula ravishda o'rganilishi kerak. An'anaviy qo'shiqchilikda qoshiqlarni Mavsum-marosim; Urf-odat qo'shiqlari; Mehnat Bushnqlari; Lirik qo'shiqlarni; 4 guruhga bo'lib, har bir guruh tahlili davomida ularning ichki turlarini ko'rib o'tinishi joizdir. O'zbek xalqi an'anaviy qo'shiqchiligida ijrochilik uslubi, ijrochilik maktabini yaratdi. Bu avloddan avlodga "Usto shogird" an'analar orqali o'tib kelmoqda. Bu uslub akademik ijro uslubiga yaqin bo'lib, xonanda qo'shiqni "Ishkami" uslubida kuylaydi. Ya'ni kuylash uchun zarur bo'ladigan to'liv; nafas qorin bo'shlig'iga olinib ashula ijrosiga qarab taqsimlab ijro etiladi. An'anaviy ijro uslubing; akademik ijrodan birgina farqi shundaki, xofiz har bir bo'g'in va so'zlarga "nolalar" yordamida qo'shiqni ijro etib b-erishi kerak. Akademik ijroda esa bu bezak nolalar cheklangan. yolda ijro etiladi. An'anaviy ijroda "Binnigi" va "Gulligi" uslubi ayniqsa zarurdir. "Binnigi" - ijrosida taloffuz dimoq yo'li orqali ijro etiladi va qo'shiqning dardli, mungli, yoqimli ijro bo'lishiga erishiladi. "Gulligi" - uslubi esa ososan tomoq ishlatish orqali bezaklar berib aytiladi. Utmtssh xofizlarimiz J.Sultonov, M.Uzoqov, Rasulqori Mamadaliev kabilar asosan tomoqni ko'p ishlatib ijro qilishgan. Bunda so'zlar dardchil, oxang oishq holda eshitiladi. Lekin bu uslubning murakkabligi shundaki, ovoz ijro vaqtida tezda charchab, o'z rangini, jarangini yo'qotib, tovush paylari zo'riqib ovoz xastalajib qoladi. Yuqori avj pallalarda tomoqda jismoniy zo'riqish paydo bo'ladi. Bu esa xonanda ichki fiziologik o'zgarishlarga olib keladi. Qon bosimini oshib ketishi, tovush pardalarining shikastlanishi, miya qon bosimini ko'tarilishi, ovoz paylarida, muskullarda "mayib bo'lish" (grija)paydo bo'lishiga olib keladi. Bo'lar esa o'z navbatida xonandaning ijrochilik faoliyatining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Biz uchun mashgulot jarayonida eng maqbul uslub, ovozni zo'riqmasdan "Binnigi" uslubida kuylatish yaxshi samara beradi. Sababi ovoz membranadan chiqib yuqori tag'nakka tegib, yuqori jag' orqali burunga beriladi va ovozdagi quvvat ortib sifatli ijroga erishiladi. Tomoq ham zararlanmaydi. Musiqiy ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar an'anaviy qo'shiqchilik madaniyat tarixidan, qo'shiqchilik janrlari mavsum -marosim, urf - odat ,mexnat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar xadida ma'lumotlarni mashgulot jarayonlarida o'rganadilar. Kuylash uchun xalq qo'shiqlari, o'tmish bastakorlari ijodi, mumtoz qo'shiqlardan namunalar o'rganib kelajak avlodga etkazishda fidoiylilik qiladilar degan umiddaman.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'zbek ayol xonandalari milliy musiqa san'atining yorqin yulduzlari sifatida nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda ham xalqning ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shishda davom etadi. Ularning ijodiy yutuqlari milliy madaniyatimizning uzviy qismiga aylanib, xalqimizning ruhiy ehtiyojlarini qondirishda bebaho manba bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017-yil
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Toshkent: Fan nashriyoti, 1965.
3. Abu Nasr Forobiy. Katta musiqa. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari (musiqaning ruhiyatga ta'siri haqidagi izlanishlar). Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1996.
5. Mahmud Qoshgariy. Devoni lug'atit turk. Toshkent: Fan, 1976.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bili. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1990.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Risolai aruz. Toshkent: Fan, 1986.
8. Abdulqodir Marog'iy. Musiqai ilmi (Tadqiqotlar va asarlar). Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

Muallif:

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna - Qo'qon davlat pedagogika instituti 13.00.02 - Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha 2 – bosqich tayanch doktoranti.

УДК 614.2, 378.1

ASSESSMENT AND DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCIES OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS BASED ON THE DIGCOMPEDU MODEL

KELAJAKDAGI CHET TILI O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI DIGCOMPEDU MODELI ASOSIDA BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH

ОЦЕНКА И РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ DIGCOMPEDU

Ханбабаев Хакимжон Икрамович, Мамаджанова Светлана Валентиновна

Qo'qon davlat pedagogika instituti, 150700. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy

E-mail: svetlika699@gmail.com

Abstract: The article addresses the issue of developing digital competencies in future foreign language teachers based on the DigCompEdu model. The aim of the study is to analyze the current level of digital competencies among students of pedagogical programs and identify areas requiring improvement. The research utilized a survey covering six key areas of the DigCompEdu model: pedagogical practice, content creation, communication and collaboration, assessment and feedback, management of digital resources, and professional development. The results revealed that students demonstrate basic skills in content creation and communication but face challenges in managing digital resources and fostering professional self-development. The author emphasizes the need for a targeted approach to developing digital skills among teachers through the implementation of courses on digital pedagogy and the use of practice-oriented assignments.

Keywords: digital competencies, future foreign language teachers, DigCompEdu, digital pedagogy, professional development, educational technologies, survey, skills assessment

Annotatsiya: Maqolada kelajakdagi chet tili o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini DigCompEdu modeli asosida rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi – pedagogik yo'nalishdagi talabalar orasida mavjud raqamli kompetensiyalar darajasini tahlil qilish va rivojlantirishni talab qiluvchi sohalarini aniqlash. Tadqiqotda DigCompEdu modelining olti asosiy yo'nalishini qamrab olgan so'rovnomaga ishlatilgan: pedagogik amaliyot, kontent yaratish, muloqot va hamkorlik, baholash va fikr-mulohaza, raqamli resurslarni boshqarish hamda kasbiy rivojlanish. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalar kontent yaratish va muloqot qilish bo'yicha asosiy ko'nikmalarga ega, biroq raqamli resurslarni boshqarish va professional o'z-o'zini rivojlantirish borasida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Muallif o'qituvchilar uchun raqamli ko'nikmalarni shakllantirishda maqsadli yondashuv zarurligini, jumladan, raqamli pedagogika bo'yicha kurslarni joriy etish va amaliy topshiriqlarni qo'llashni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli kompetensiyalar, kelajakdagi chet tili o'qituvchilari, DigCompEdu, raqamli pedagogika, kasbiy rivojlanish, ta'lim texnologiyalari, so'rovnomaga, ko'nikmalarni baholash

Введение. В условиях стремительно развивающегося информационного общества важность цифровых компетенций педагога становится все более очевидной, особенно для преподавателей иностранных языков. Образовательные стандарты требуют от будущих педагогов не только знания учебного материала, но и способности эффективно использовать цифровые инструменты для организации учебного процесса, повышения качества взаимодействия с учащимися и адаптации образовательных практик под новые технологические вызовы.

Современная образовательная среда требует от преподавателей иностранного языка не только знаний в области предметной подготовки, но и владения цифровыми компетенциями. Использование цифровых технологий в обучении позволяет повысить качество преподавания, а также адаптировать образовательные методики к современным запросам общества. Важной задачей становится определение уровня цифровых компетенций будущих преподавателей иностранного языка и выявление областей, требующих развития.

Одним из самых актуальных подходов к оценке и развитию цифровых компетенций преподавателей является модель DigCompEdu, разработанная Европейской Комиссией. Эта модель представляет собой структуру, которая помогает выявить, развить и оценить цифровые навыки педагогов, учитывая их профессиональные потребности и специфические условия работы.

Модель DigCompEdu охватывает широкий спектр цифровых навыков, включая способность эффективно использовать технологии для преподавания, взаимодействия с учениками и создания образовательных материалов. Важно отметить, что успешное внедрение цифровых компетенций требует не только теоретических знаний, но и практических умений, которые должны развиваться в процессе педагогической подготовки.

Цель исследования. Провести анализ уровня цифровых компетенций будущих преподавателей иностранного языка на основе модели DigCompEdu, определить ключевые проблемные зоны и разработать рекомендации для их совершенствования.

Материалы и методы

В рамках исследования были использованы анкетирование, включающее 12 вопросов. Анкета-опросник, включала вопросы, ориентированные на основные области модели цифровых компетенций DigCompEdu, такие как: педагогическая практика, создание контента, общение и сотрудничество, оценка и обратная связь, управление цифровыми ресурсами и профессиональное развитие. Данная анкета разработана на 3-х языках: русском, узбекском и английском. На начало эксперимента в опросе приняли участие 84 студента 2 курса направления «Иностранный язык и литература» Кокандского государственного педагогического института.

Результаты исследования и их обсуждение

Цифровая компетентность педагогов включает в себя умения и знания, необходимые для эффективного использования цифровых технологий в образовательной среде.

Цифровая компетентность акцентирует внимание на социокоммуникативных аспектах деятельности человека. П. Гилстер выделяет ключевые навыки, такие как поиск информации, общение с пользователями и создание контента в различных форматах [4].

Один из наиболее популярных инструментов диагностики цифровой компетентности педагогов — это опросник, разработанный Европейской Комиссией в 2017 году на основе рамки цифровых компетенций педагогов DigCompEdu. Модель DigCompEdu состоит из шести ключевых областей и 22 компетенций, которые оценивают готовность педагога использовать цифровые технологии в образовательной деятельности (рис 1):



Рис. 1. Цифровые компетенций педагогов на основе модели DigCompEdu

Оценка цифровой компетентности педагогов может проводиться с помощью различных инструментов, включая самооценку, анкетирование и наблюдение. Важно учитывать не только уровень знаний, но и способность применять эти знания на практике.

Самооценка позволяет педагогам самостоятельно оценить свои навыки и выявить области для улучшения. Это может быть сделано с помощью опросников, основанных на критериях модели DigCompEdu.

Анкетирование может быть использовано для сбора данных о цифровых навыках группы педагогов. Вопросы могут охватывать различные аспекты цифровой компетентности, включая использование технологий в классе и уровень комфорта с различными цифровыми инструментами.

Наблюдение за педагогами в процессе преподавания может дать ценную информацию о том, как они используют цифровые технологии на практике. Это может включать в себя анализ уроков, использование технологий для взаимодействия с учащимися и оценку их вовлеченности.

В рамках опроса для каждой группы компетенций педагогов формулируется от 2 до 5 вопросов (таблица 2), которые позволяют определить уровень владения каждой из компетенций. Результаты оценки представлены в таблице 1.

Таблица 1

Уровни освоения цифровых компетенций педагогами образовательных учреждений

Уровень	Содержание
Новичок (A1)	Ограниченное понимание и использование технологий.
Исследователь (A2)	Эксперименты с цифровыми инструментами.
Интегратор (B1)	Регулярное использование цифровых технологий в практике.

<i>Эксперт (B2)</i>	<i>Эффективное включение технологий в процесс обучения.</i>
<i>Лидер (C1)</i>	<i>Использование технологий на высоком уровне и внедрение инноваций.</i>
<i>Новатор (C2)</i>	<i>Критически оценивает возможности современной дидактики, экспериментирует со сложными цифровыми технологиями и пропагандирует их коллегам</i>

Анкетирование по модели DigCompEdu является важным инструментом для объективной оценки уровня цифровых компетенций будущих преподавателей, позволяя выявить сильные и слабые стороны в их подготовке. Этот процесс помогает более точно определить направления для развития цифровых навыков, что способствует эффективному внедрению технологий в образовательный процесс. В таблице 2 представлен фрагмент использованной анкеты.

Таблица 2

Фрагмент анкеты, отображающей уровни владения компетенциями педагогов в рамках опроса

Раздел	Вопросы	Ответы
Turkiston ASSRda ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish yuzasidan 1922-yil 24 nafar o'zbekistonlik ayollar Moskva shahriga savodsizlik va madaniy hayot tartibotlarini targ'ibot kurslarida qatnashish uchun jo'nab ketdi. Ularning 6 nafari kurslardagi faolligi hisobga olinib Germaniyaga o'qishni davom ettirish uchun safarbar etildi.[6] 1921-yili savodsizlikni tugatish kurslari uchun Toshkent shahrida 850 nafar mutaxassisdan iborat guruh tuziladi. Kurslar uchun alifbolar va o'quv qo'llanmalari tayyorlandi. Ushbu yildan komissiya kurslar faoliyatini qishloq va ovullarda jonlantirishga urg'u berila boshlandi. Qishloqlarda savodsizlikni tugatish maqsadida 3 – 4 oylik kurslar tashkil etiladi. [10]

1921-1922-o'quv yilidan boshlab, Qo'qon pedagogika bilim yurtida tatar xotin-qizlar vakili tomonida "Yangi yo'l" nomli 1500 nusxada gazeta chop etilib, unda o'lka xotin-qizlarini savodini chiqarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan edi. [11] Bu tavsiylarning o'quv qo'llanma asosidagi taqatmalarini ham keng ko'lamlari tarqatilishi nazoratga olingan.

O'zbek xotin-qizlar institutining 1923-yildagi rahbari etib Saodat Enikiyeva tayinlangan bo'lib, u faoliyati davomida O'zbek xotin-qizlari institutining asosiy talabalari musulmon ayollardan iboratligini hisobga olib ilm dargohida kutubxona, qiroatxona, teatr adabiyot va musiqa to'garaklarini ham tashkil etgan. O'zbekiston SSR tashkil topgan 1924-yilda respublikada 23 ta texnikum va ikkita oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatib, ularda 6,5 mingdan ziyod talabalar tahsil olardi. 1917-1924-yillarda O'zbekiston hududlaridagi qishloqlarda o'rta maktablar soni 12,1 baravar ko'paydi. [12]

O'zbekiston SSRda yashovchi tojik aholisi orasida xotin-qizlar ta'limini rivojlantirish uchun 1925-1926-o'quv yilida Samarqandda tojik xotin-qizlar pedagogika texnikumi ochildi. Bu texnikum keyinchalik tojik qizlar maktablarini keng ko'lamda ko'paytirish imkonini berdi.

1925-yil oxirlarida Turkiston Kommunistik universiteti (SAKU)da ta'lim olayotgan 504 nafar talabadan 39 nafari

ayollar bo'lgan. Faoliyat yuritayotgan ikkita markaziy va beshta oblast va 5 ta uyezd sovet-partiya maktablarida jami 1312 kishi ta'lim olgan bo'lsa, ularning 10 foizini ayollar tashkil qilgan. [13]

Turkiston ASSR da savodsizlikni tugatish kurslari va rus tuzem maktablari uchun 1923-yil 500 nafar xotin-qizlar 23 ta kursda tatar ayol muallimlar tomonidan targ'ibot faoliyati uchun tayyorlangan bo'lsa, 1925-yil O'zbekiston SSRda xotin-qizlar uchun 82 ta savodsizlik kurslari tashkil etilib, ularni 2700 nafar ayol bitirgan. [14]

1925-1926-yillarda respublikada mashg'ulotlar o'zbek tilida o'tkaziladigan dastlabki ishchi fakultetlari (rabfak) ochildi, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mutaxassislar tayyorlash uchun Samarqand, Toshkent, Farg'onada kechki ishchi universitetlari tashkil etildi. Ularda erkaklar bilan bir qatorda o'zbek va boshqa tub joy millat xotin-qizlari ham o'qiy boshladilar. Sanoat, iqtisod, mexanika, qishloq xo'jaligi, o'rmon va boshqa sohalarga oid texnikumlar ochildi, ulardagi o'quvchilvar soni 1929-yilda 3500 kishiga yetdi. [15]

Xulosa

Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yilligida O'zbekiston hududlarida xotin-qizlarni ta'lim tizimiga tortish, shu asosda ularni ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini ta'minlashda turli usul va vositalardan foydalanildi. Bunda ayniqsa, sovet tuzumining ateistik siyosat alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Turkistonda tashkil etilgan "Hudosislar" jamiyati XX asrning 20-yillarida dinga, diniy qarashlarga qarshi kurashda va shu asosda milliy qadriyatlarining toptalishi va yo'q qilib yuborilishida katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. O'zbekistondagi ateistik siyosatning avj oldirilishda mustamlakachi bolshevik hokimiyatigina emas, balki mahalliy xalq vakillari ham muayyan o'rin egalladilar.

Bu yillardagi ayollar savodsizligini tugatish ommaviy kampaniyasi jamiyat hayotida amal qilib kelayotgan mavjud ijtimoiy-maishiy tartib hamda munosabatlarga ham putur yetkazdi. Ijtimoiy hayot jarayonlariga jadal tortilgan xotin-qizlarning itoatkorligi yo'qolib bordi, oilaviy-nikoh munosabatlarga putur yetib, ajralishlar soni keskin ko'paydi. Bu davrgacha Turkiston hayotida umuman kuzatilmagan "bolalar uyi" degan muassasalar sovet tuzumining dastlabki o'n yilligidayoq paydo bo'la boshladi. Arzimagan sabablar bilan oilalarning ajralib ketishiga ayollarning "ozodlikka chiqishi" ham alohida ta'sir ko'rsatgan va buning oqibatida ularning farzandlari taqdirida tub burilishlar yuzaga kelgan.

O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikning asta-sekin kamayib borishi, savodli ayollarning respublikada ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishining o'sib borishi xotin-qizlardan mutaxassis kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga chiqardi. Bu masalada ham ilk davrda qator muammolar kuzatildi. Respublikaning yirik shaharlarida xotin-qizlardan pedagogik kadrlar tayyorlaydigan pedagogika texnikumlari, o'qituvchilar bilim yurtlarining ochilishi sovet maktablari, shuningdek, savodsizlikni tugatish maktablari uchun milliy tillarda dars o'tadigan ayol o'qituvchilar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek xotin-qizlarining ommaviy savodli qilinishi va ularning jamiyat hayotiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga keng jalb etilishi ularning asosiy burch va vazifalarini (oila, farzand tarbiyasi) ikkinchi darajaga surib qo'ydi hamda an'anaviy turmush tarzining tezlik bilan o'zgarib borishiga, ya'ni "sovetlashib" borishiga olib keldi.

O'zbek xotin-qizlarining sovetlar ta'biri aytganda "ozodlikka chiqishi" kelgusida ularning erkaklar bajarishi lozim bo'lgan og'ir mehnatga keng jalb etilishiga olib keldi. Ayollar erkaklar bilan bir qatorda zavod-fabrikalarda, qishloq xo'jaligidagi turli yumushlarda ishlay boshladilar. Kommunistik mafkura, sovet tuzumi targ'iboti bilan ayollar traktorchilik, xaydovchilik kabi erkaklar kasbini ham egallay boshladilar va ularning soni yil sayin ko'payib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ayol baxtli bo'lsa – oila, jamiyat baxtli bo'ladi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston". 2022 yil 8-mart. №32 1-bet.
2. Иноятов Н.Ш. Борба Коммунистической партии за подготовку и воспитание учительских кадров в Узбекистане (1921-1925 гг.) – Т.: Наука, 1965. – С. 6.
3. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 4-varaq.
4. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yxat, 453-ish, 122-varaq.
5. Расулов А., Исоқбоев А., Насретдинова Д. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар. – Т.: Турон-Иқбол, 2019. – Б. 149.
6. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yxat, 453-ish, 32-varaq.
7. Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-30 йиллари мисолида). Ўқув кўланма. – Тошкент, 2013. – 95 б.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. – Т.: Фан, 1974. – Б. 378.
9. Расулов А., Исоқбоев А., Насретдинова Д. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар. – Т.: TURON-IQBOL, 2019. – Б. 153.
10. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. – Москва, 1960. – С. 426.
11. Алимова Д.А. Женский вопроса в Узбекистане (1917-1941). Краткий историографический очерк– Т.: Фан, 1987. – 22 с.
12. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы. –Т.: С. 32
13. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi yo'l, 2015. – Б. 129.

14. Муратходжаева.А. Народное образование в Узбекской ССР за 25 лет (1924-1949). – Т.: Госиздат УзССР, 1949. – С. 14.

15. Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябр Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 444.

Muallif:

Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna – Andijon davlat pedagogika Maktabgacha ta’lim fakulteti dekan o‘rinbosari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

UDK 372.853

METHODOLOGY OF USING MODERN PEDAGOGICAL SOFTWARE IN TEACHING PHYSICS

**FIZIKANI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH
METODIKASI**

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО
ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ**

Qo‘chqorov Mavzurjon Xursanboyevich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahar, Turon 23.

E-mail: mavzur2090@mail.ru

Abstract. The article discusses the methods and stages of using modern pedagogical software in teaching physics. The main stages of introducing digital tools into the educational process, including the selection of programs, lesson planning and organization of student work, are described. Methods of using virtual laboratories, simulations and interactive tasks to improve understanding of physical phenomena and increase student activity are described. The main advantages and difficulties of introducing software tools are also highlighted and ways to overcome them are proposed. In conclusion, the importance of using digital technologies to increase learning efficiency is emphasized.

Keywords: Methodology, physics, pedagogical software tools, virtual laboratories, simulations, interactive learning, digital technologies, physics teaching.

Аннотация. В статье рассматриваются методы и этапы использования современных педагогических программных средств при обучении физике. Основные этапы внедрения цифровых инструментов в учебный процесс, включая выбор программ, планирование уроков и организацию работы учащихся. Описаны методы использования виртуальных лабораторий, моделирования и интерактивных задач для улучшения понимания физических явлений и повышения вовлеченности студентов. Также были выделены основные преимущества и трудности внедрения программных средств и предложены пути их преодоления. В заключение подчеркивается важность использования цифровых технологий для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: Методика, физика, педагогические программные средства, виртуальные лаборатории, симуляции, интерактивное образование, цифровые технологии, преподавание физики.

Kirish. Zamonaviy ta'lim o'quv jarayonini yanada qulayroq, vizual va interaktiv qilishga yordam beradigan raqamli texnologiyalarni faol joriy etishni talab qiladi. Mavhum va tushunish qiyin bo'lgan tushunchalarga boy fizika fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Virtual laboratoriyalar va fizik jarayonlarni simulyatsiya qilish kabi dasturlar talabalarga fizik hodisalarni amalda o'rganish, tabiat qonunlarini o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, ushbu vositalarni fizikani o'qitishda joriy etish metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada fizikani o'qitishning turli bosqichlarida zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodologiyasi ko'rib chiqiladi. Unda rejalashtirish bosqichlari, tegishli dasturiy vositalarni tanlash, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish va ulardan foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklari tasvirlangan.

Tadqiqot sifati va qo'llanilgan metodlar

Fizikani o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish so'nggi o'n yilliklarda raqamlashtirish va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali faol rivojlanayotgan sohadir. Jismoniy fanlarni o'qitishda interaktiv va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini tasdiqlovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Olingan natijalar va ularning taxlili

Xorijiy mualliflarning tadqiqotlari. Xususan, Wieman va Perkins (2005) asarlari AQSh maktablari va universitetlarida Phet Interactive Simulations interaktiv simulyatsiyalarini joriy etish natijalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, simulyatsiyalar elektromagnetizm va mexanik tebranishlar kabi murakkab fizik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, ayniqsa talabalar modellar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari va virtual tajribalar o'tkazishlari mumkin bo'lgan hollarda.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Redish va Steinberg (1999) kabi boshqa tadqiqotchilar interaktiv ta'lim usullarini talabalarning turli guruhlariga moslashtirish muhimligini ta'kidlab, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ularning fizikani idrok etishini hisobga olib o'rganish, samaradorligini oshiradi, deb ta'kidlaydilar. [2].

Rossiya va mahalliy tajriba, shuningdek, o'quv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Shunday qilib, Astashovanning (2020) ishida Rossiya universitetlarida ishlatiladigan raqamli dasturiy vositalarni, shu jumladan talabalarga jismoniy hodisalarni xavfsiz va vizual o'rganishga yordam beradigan masofaviy va virtual laboratoriyalarni joriy etishning asosiy usullari va bosqichlari tasvirlangan. Ivanov va Petrova (2019) fizikani o'qitishda interaktiv dasturlardan foydalanish uchun pedagogik ssenariylarni ishlab chiqishning ahamiyatini ta'kidlab, bu sinflarning tuzilishini yaxshilaydi va talabalarning o'rganishga faol munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Metodologiya. Fizikani o'qitishda pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish metodologiyasi talabalarning maksimal interaktivligi va faolligini ta'minlaydigan bir necha asosiy tarkibiy qismlarga asoslanadi.

1. O'quv ssenariylarini rejalashtirish va ishlab chiqish

Ishning dastlabki bosqichi har bir dars uchun batafsil o'quv ssenariylarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. O'quv ssenariylarida dars bosqichlari ketma-ketligi va ularning har birida dasturiy vositalardan foydalanish usullari tasvirlangan. Masalan, birinchi bosqichda mexanik tebranishlarni o'rganishda talabalar nazariy asoslar bilan tanishadilar, so'ngra simulyatsiyadan foydalanib, boshlang'ich parametrlar o'zgaranda tebranish chastotasi va amplitudasining o'zgarishini kuzatib, virtual tajriba o'tkazadilar.

2. Talabalarning turli guruhlariga moslashish

Dastur har bir guruhning tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi kerak. Boshlang'ich o'quvchilari uchun oddiy tushunchalarga ega bo'lgan asosiy simulyatsiyalar qo'llaniladi, ilg'or talabalar uchun esa yanada murakkab modellarni joriy etish va chuqurroq tahlil qilish mumkin. Bu ba'zilar uchun haddan tashqari murakkablikdan, boshqalari uchun yetarlicha bo'lmagan chuqurlikdan qochishga yordam beradi. [2].

3. Baholash va fikr-mulohaza usullarini qo'llash

O'quv dasturi, albatta, interaktiv testlar va topshiriqlar kabi baholash elementlarini o'z ichiga oladi va talabalarga o'qituvchi bilan o'tkazgan tajribalari natijalarini muhokama qilish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga, shuningdek xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Dasturiy ta'minotni joriy etishning asosiy bosqichlari

Fizikani o'qitishda dasturiy ta'minotni samarali amalga oshirish puxta rejalashtirishni talab qiladi. Asosiy bosqichlarni ko'rib chiqing:

1. o'quv maqsadlarini aniqlash

Har qanday dasturiy ta'minotni amalga oshirishdan oldin, o'quv maqsadlarini aniq belgilash kerak. Ushbu vosita bilan ishlash natijasida talabalar qanday bilim va ko'nikmalarni o'rganishlari kerakligini tushunish muhimdir. Misol uchun, agar darsning maqsadi mexanik tebranishlarni o'rganish bo'lsa, simulyatsiyani tanlash kerak, bu yerda talabalar parametrlarni (massa, ip uzunligi, ishqalanish kuchi) o'zgartirishi va uning tebranish chastotasi va amplitudasiga qanday ta'sir qilishini kuzatishi mumkin. [3].

2. tegishli dasturiy vositalarni tanlash

O'quv maqsadlari asosida aniq dasturlarni tanlash amalga oshiriladi. Bugungi kunda fizikani o'qitish uchun juda ko'p turli xil dasturlar mavjud: PhET Interactive Simulations, Labster, Algodo va boshqalar.[7].Dastur dars maqsadlariga qanchalik mos kelishini, talabalar foydalanishi uchun mavjudligini va zarur funktsiyalarga ega ekanligini baholash muhimdir.

3. o'quv jarayonini rejalashtirish

Tegishli dasturiy ta'minotni tanlagandan so'ng, talabalar dastur bilan qanday va qachon o'zaro aloqada bo'lishlarini aniq belgilab beradigan batafsil dars rejasini ishlab chiqish kerak. O'z-o'zini o'rganish, amaliy vazifalarni bajarish va natijalarni muhokama qilish bosqichlarini ta'minlash muhimdir.[5]. Masalan, darsni bir necha qismga bo'lish mumkin: jismoniy hodisani tushuntirish bilan kirish ma'ruzasi, eksperiment o'tkazish uchun dastur bilan ishlash va dars oxirida natijalarni muhokama qilish.

Interfaol dasturlarni qo'llash usullari

Zamonaviy interaktiv dasturlar o'quv jarayonini sezilarli darajada diversifikatsiya qilishga imkon beradi, bu esa uni yanada vizual va qiziqarli qiladi[6]. Bunday dasturlardan to'g'ri foydalanish ma'lum bir metodologiyaga rioya qilishni talab qiladi, shunda talabalar nafaqat simulyatsiyani kuzatibgina qolmay, balki material bilan faol aloqada bo'lishadi.

1 virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni darslarga integratsiya qilish

PhET Interactive Simulations va Labster kabi virtual laboratoriyalar o'quvchilarga jismoniy hodisalar bilan mustaqil tajriba o'tkazish imkonini beradi. Ulardan foydalanish metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: [7].

* Tajribaga tayyorgarlik. O'qituvchi talabalar amalda sinab ko'radigan asosiy nazariy jihatlarini tushuntiradi. Bu garmonik osilatorning ishlash tamoyillarini namoyish qilish yoki mexanik tebranishlardagi bog'liqliklarni o'rganish bo'lishi mumkin.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

* Muammoni shakllantirish. Talabalarga virtual laboratoriya yordamida hal qilishlari kerak bo'lgan aniq vazifa beriladi. Masalan, prujinadagi massa ortishi bilan tebranish amplitudasi qanday o'zgarishini o'lchang.

* Eksperimentni mustaqil ravishda bajarish. Ushbu bosqichda talabalar parametrlarni o'zgartirish va natijalarni yozish orqali simulyatsiya bilan ishlaydi. Bu ularga har bir o'zgartirilgan parametarning to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini kuzatish va jismoniy naqshlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

* Natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish. Vazifani bajargandan so'ng, talabalar o'qituvchi bilan birgalikda natijalarni muhokama qiladilar, xatolarni ko'rib chiqadilar va nazariy ma'lumotlar bilan taqqoslashadi.

2. interaktiv topshiriqlar va viktorinalardan foydalanish

Interfaol topshiriqlar va viktorinalar ko'pincha materialni birlashtirish uchun ishlatiladi. Kahoot va Quizizz kabi dasturlar o'yin shaklida bilimlarni tekshirishni tez va oson tashkil etishga imkon beradi, bu esa yodlash jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qiladi.

3. Interaktiv namoyishlar

Interaktiv namoyishlar odatda jarayonlarni vizualizatsiya qilish uchun algodoo yoki EjsS (Easy Java Simulations) kabi dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu usul, ayniqsa, elektromagnit to'lqinlar yoki molekularning harakati kabi murakkab va mavhum mavzularni tushuntirish uchun foydalidir. Namoyish paytida o'qituvchi jismoniy tamoyillarni bosqichma-bosqich tushuntiradi va talabalar Real vaqtda simulyatsiya qilinishi mumkin bo'lgan tajribalar uchun savollar berishlari va o'z takliflarini kiritishlari mumkin.

Natijalar va tahlillar

Metodologiyaning samaradorligi to'g'risida empirik ma'lumotlarni olish uchun interfaol dasturlarni amalga oshirishdan oldin va keyin o'quvchilarning yutuqlari va ishtirokini qiyosiy tahlil qilish mumkin. Tahlil uchun taxminiy ko'rsatkichlar:

* Ishlash: dasturiy ta'minotdan foydalanishdan oldin va keyin kursning asosiy mavzularidagi baholarni taqqoslash.

* Talabalarni jalb qilish: simulyatsiyalardan faol foydalanadigan va amaliy topshiriqlarni bajaradigan talabalar foizi.

* Samaradorlikni baholash: talabalarning interaktiv vositalardan foydalanish bo'yicha fikr-mulohazalarini, ularning taassurotlarini va qo'llash qiyinligini tahlil qilish.

Foydalanishning afzalliklari va qiyinchiliklari

1 afzalliklari

Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish bir nechta muhim afzalliklarga ega:

* Faollikni oshirish. Talabalar mustaqil ravishda tajribalar o'tkazishlari va natijalarni kuzatishlari mumkin bo'lganda ko'proq qiziqishadi.

* Murakkab tushunchalarning mavjudligi. Dasturiy ta'minot sizga murakkab jismoniy jarayonlarni tasavvur qilish imkonini beradi, aks holda tushuntirish qiyin bo'ladi.

* Xavfsizlik va samaradorlik. Virtual laboratoriyalar potentsial xavfli va qimmat tajribalardan qochadi, shu bilan birga butun o'quv effekti saqlanib qoladi. [4].

2 qiyinchiliklar va ularni qanday yengish kerak

O'qitishda dasturiy ta'minotni joriy etish ba'zi qiyinchiliklar bilan birga bo'lishi mumkin:

* Texnik muammolar. Ba'zi maktablar va universitetlar dasturlarni ishga tushirish uchun zarur bo'lgan texnik resurslarning yetishmasligiga duch kelishi mumkin. Yechim murakkab uskunalarni talab qilmaydigan veb-simulyatsiyalardan foydalanish yoki texnikani almashish bo'lishi mumkin.

* Talabalarni moslashtirishning qiyinchiliklari. Hamma talabalar ham raqamli vositalarni darhol o'zlashtira olmaydi. O'qituvchi uchun dastur bilan ishlashni tushuntirish va talabalarni dastlabki bosqichda qo'llab-quvvatlash uchun vaqt ajratish muhimdir.

Tadqiqotning dolzarbligi va yangiligi

Fizikani o'qitishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish o'quv muhitining dolzarb talablariga javob beradi, bu yerda o'quvchilarga interaktivlik va individual yondashuvga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Raqamlashtirish sharoitida ta'lim talabalarga murakkab tushunchalarni oson va vizual tarzda o'zlashtirishga yordam beradigan yangi format va usullarga moslashishi kerak. Xususan, fizika fan sifatida nazariy tushunchalar to'plamidir, ularning ko'pchiligini modellar va amaliy misollardan foydalanmasdan tushuntirish qiyin. [6].

Ushbu tadqiqotning yangiligi o'quv dasturlari darajasida fizikani tushunishni yaxshilash uchun dasturiy vositalardan foydalanishga uslubiy yondashuvda yotadi. So'nggi o'n yillikda ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, interfaol vositalarni talabalarning turli darajalariga moslashtirish masalalari, shuningdek o'quv ssenariylarini yaratish metodologiyasi yetarlicha batafsil yoritilmagan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, xalqaro miqyosda dasturiy vositalardan foydalanish tajribasini tahlil qilishga qiziqish mavjud va ushbu tadqiqot ularning ta'lim amaliyotidagi rolini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotning keyingi yo'nalishlari

Fizikani o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanishni o'rganish bir necha yo'nalishda kengaytirilishi mumkin:

* Har xil turdagi simulyatsiyalarning individual mavzularni tushunishga ta'sirini o'rganish. Masalan, simulyatsiyalarning turli darajadagi talabalarda "tebranishlar va to'lqinlar" mavzusini idrok etishga ta'sirini tahlil qilish.

* Muayyan fizika muammolari va mavzulari uchun maxsus interaktiv dasturlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Bu o'qituvchilarga dars mazmuniga qarab vositalarni yanada samarali tanlash imkonini beradi.

* Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanishning talabalarning keyingi mavzular yoki fizika kurslaridagi muvaffaqiyatlariga uzoq muddatli ta'sirini empirik o'rganish.

Ushbu yo'nalishlar raqamli ta'lim texnologiyalarining fizika sohasidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sirini batafsil o'rganish imkonini beradi, bu esa ta'lim sifati va talabalar muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish fizikani o'qitish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa uni yanada qulayroq, interaktiv va qiziqarli qiladi. Ushbu vositalardan foydalanish metodologiyasi talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki tahlil qilish, tajriba o'tkazish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun ta'limni yaratishga imkon beradi. Texnik va tashkiliy qiyinchiliklarni yengib, o'qituvchilar fizikani o'rganish uchun dinamik va xavfsiz muhit yaratib, o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асташова, Е.В. Современные технологии обучения в системе высшего образования. – Москва: Научное издательство, 2020.
2. Иванов, И.А., Петрова, Л.С. Интерактивные методы обучения физике: Учебное пособие для вузов. – Санкт-Петербург: Университетское издательство, 2019.
3. Сидоров, А.Н. Применение информационных технологий в учебном процессе: Теория и практика. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2021.
4. Petty, G. Teaching Today: A Practical Guide. – Oxford: Oxford University Press, 2018.
5. Wieman, C. E., Perkins, K. K. Transforming Physics Education. *Physics Today*, 2005, 58(11), 36–41.
6. Redish, E. F., Steinberg, R. N. Teaching Physics: Figuring Out What Works. *Physics Today*, 1999, 52(1), 24–30.
7. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. <https://phet.colorado.edu>.

Muallif:

Qo'chqorov Mavzurjon Xursanboyevich - Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

UDK 372.800.2

ON INFORMATICS IN MODERN CONDITIONS ORGANIZATION OF CIRCLE ACTIVITIES

ZAMONAVIY SHAROITDA INFORMATIKA BO'YICHA TO'GARAK FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

ОБ ИНФОРМАТИКЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ОРГАНИЗАЦИЯ КРУЖКОВЫХ ЗАНЯТИЙ

Botiraliyeva Maftunaxon Botirali qizi

Qo'qon davlat universiteti, 150700, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon 23.

E-mail: maftunaxon-botiraliyeva2024@gmail.com

Abstract: Clubs hold an important place in the school's extracurricular system. Clubs are organized based on the interests, desires, and needs of students. Popular clubs in schools include those dedicated to academic subjects, as well as social, technical, sports, and creative activities. There is extensive pedagogical experience in organizing club activities. However, current educational changes necessitate the establishment of a modern approach to club activities, particularly for computer science clubs. The article discusses the application of the modern approach to the activities of computer science clubs.

Key words: computer science, club, club activities, acmeology, approach, acmeological approach.

Аннотация. Кружки играют важную роль в школьной системе внеурочной деятельности. Кружки организуются исходя из интересов, желаний и потребностей учащихся. В школах созданы кружки в области учебных дисциплин, а также социальной, технической, спортивной и творческой деятельности. Имеется многолетний педагогический опыт организации деятельности Кружков. Однако происходящие в настоящее время изменения в образовании требуют формирования современного подхода к деятельности кружков, в частности кружков информатики. В статье говорится о становлении современного подхода к деятельности кружков компьютерных наук.

Ключевые слова: информатика, кружок, круговая деятельность, акмеология, подход, акмеологический подход.

Kirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya ishlari sinfda, sinfdan hamda maktabdan tashqari sharoitlarda amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida ularning

qiziqish, xohish-istak, intilishlari asosida uyushtirilib, o'qitish jarayonining sifati, samaradorligini ta'minlashga ko'maklashuvchi tadbirlar tizimi sanaladi. Garchi sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida tashkil qilishga asoslansada, biroq, ularning har biri maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari va qamrab olinadigan sub'ektlar jihatidan bir-biridan farq qiladi. SHu sababli ayni o'rinda sinfdan tashqari ishlar va uning keng ommalashgan ko'rinishi to'garak faoliyati xususida so'z yuritiladi.

Sinfdan tashqari ishlar – darsdan tashqarida o'qituvchi rahbarligida ixtiyoriylik tamoyiliga muvofiq uyushtirilib, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi va ijodiy mustaqilligini uyg'otadigan ishlarning tashkiliy shakli [5]; pedagog tomonidan darsdan tashqari vaqtda shaxsni ijtimoiylashtirishga qaratilgan zarur shart-sharoitlarning yaratilishini ta'minlovchi turli ko'rinishdagi o'quvchilar faoliyatining tashkil qilinishi [6].

Keltirilgan izohlarga tayangan holda “sinfdan tashqari ishlar” tushunchasini shunday ta'riflash mumkin: sinfdan tashqari ishlar – darsdan tashqari sharoitda ta'limiy jarayonni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini ko'ngilli tashkil qilish, ularni har tomonlama uyg'un kamol toptirishga qaratilgan metodik rahbarlik hamda nazoratga asoslangan pedagogik faoliyat tizimi.

Tadqiqot ob'ekti v qo'llanilgan metodlar

T.A.Poskrebishevaning qayd etishicha, sinfdan tashqari ishlar aniq ifodalanuvchi tarbiyaviy-rivojlantiruvchi va eng muhimi, ijtimoiy-pedagogik yo'nalishga ega bo'lib, maktab o'quvchilarining umumiy madaniy qiziqishlarining rivojlanishini ta'minlaydi, axloqiy tarbiya muammolarini hal qilishga yordam beradi [8].

Sinfdan tashqari ishlar tizim uchun xarakterli bo'lgan bir qator belgilarni namoyon qiladi. Ular: darsdan tashqari sharoitda tashqil qilinadi; o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqish, istak, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ixtiyoriylik asosida turli shakllarda amalga oshiriladi; jarayon aniq maqsad, puxta ishlangan reja va barcha omillar inobatga olingan dasturga asoslanadi; reja, dastur ta'lim muassasasining o'quv-metodik birlashmasi yig'ilishidan o'rganilib chiqiladi, ma'qullangach, mas'ul rahbari tomonidan tasdiqlanadi; jarayon fan o'qituvchisi, sinf yoki to'garak rahbarining nazorati ostida olib boriladi; ta'limiy jarayonni qo'llab-quvvatlaydi; o'quv fanlari va ulardan tashqari ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik (harbiy vatanparvarlik), intellektual, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, o'lkashunoslik, baynalmilallik, estetik (badiiy havaskorlik, tasviriy san'at), sport, turizm, qishloq xo'jaligi, radio texnika, milliy hunarmandchilik, kompyuter texnologiyasi, maishiy texnika (mobil qurilmalar, maishiy elektr jihozlarini ta'mirlash), tikuvchilik, to'quvchilik, qandolatchilik, oshpazlik kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi. So'nggi yillarda sinfdan tashqari ishlar muayyan yo'nalishlar (masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish, ularda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini shakllantirish) bo'yicha volontyorlik shaklida ham amalga oshirilmoqda.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sinfdan tashqari turkum ishlarni yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarni bu jarayonga jalb qilish orqali ularda o'quv fanlari yoki ilm-fan, texnika, texnologiyaning muayyan sohalariga qiziqishni oshirish, “individual qiziqishlari, qobiliyatlarini, layoqatlarini aniqlash, yanada rivojlantirish, ularning mustaqil ishlashini rag'batlantirishga e'tibor qaratiladi” [7].

Tizimda amalga oshiriladigan ishlar yagona maqsad – o'quvchilarni har tomonlama (ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, intellektual, jismoniy, tibbiy, hissiy, kasbiy) uyg'un rivojlantirish bo'yicha ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltiriladi.

Har qanday maqsad uning negizida belgilangan vazifalarni hal qilish orqali ro'yobga chiqadi. Shunga ko'ra qayd etilgan maqsadning ijobati sinfdan tashqari ishlar jarayonida quyidagi vazifalarning hal qilinishi hisobiga ta'minlanadi: ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, xohish-istaklari, ehtiyojlarini o'rganish; o'quvchilarni har tomonlama (ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, intellektual, tibbiy, hissiy, kasbiy) uyg'un rivojlantirish, ularning dunyoqarashini boyitish; ta'lim oluvchilarning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, intellektual, jismoniy, tibbiy, hissiy hamda kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish; o'quvchilarning o'quv fanlari va ulardan tashqari ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik (harbiy vatanparvarlik), intellektual, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, o'lkashunoslik, baynalmilallik, estetik (badiiy havaskorlik, tasviriy san'at), sport, turizm, qishloq xo'jaligi, radio texnika, milliy hunarmandchilik, kompyuter texnologiyasi, maishiy texnika (mobil qurilmalar, maishiy elektr jihozlarini ta'mirlash), tikuvchilik, to'quvchilik, qandolatchilik, oshpazlik, volontyorlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha qobiliyatga egaliklarini tashxislash, aniqlash hamda mavjud qobiliyatlarni izchil rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash; “ta'lim oluvchilarning dars jarayonida doim ham namoyish qilinavermaydigan individual imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini boyitish; ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantirish” [7]; o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni qaror toptirish, insoniylik, jamoaviylik, oliyjanoblik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, umum manfaati uchun kurashish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini e'zozlash, ijodkorlik ruhida tarbiyalash, ularning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish; ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish; o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli, ko'ngilli, samarali tashkil qilinishiga erishish; ta'lim oluvchilarni samarali ijtimoiylashtirish.

Sinfdan tashqari ishlar tizimida Informatika fani bo'yicha tashkil qilinadigan turkum tadbirlar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Informatikadan sinfdan tashqari ishlar – “o'quvchilarning Informatikadan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlar” [1] hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar jarayonida “informatika

fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning metodik tizimini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur dasturning dolzarbligi informatika va kompyuterlashtirish sohasining yangi talablariga javob berishi bilan belgilanadi, sinfdan tashqari ishlar mazmuni o'quvchilarda kasbiy hamda umumiy bilim, ko'nikma, kompetentsiyalarni rivojlantirishga qo'yiladigan talablarga mos keladi. Tegishli kurs o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi, o'zini o'zi anglashi va o'zini o'zi belgilashi uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi; ularda o'quv samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan axborot madaniyatini shakllantiradi, sinfdan tashqari ishlar jarayonida hamkorlikka erishish shakllariga nisbatan innovatsion yondashuvlarni belgilaydi" [7].

Manbalardan birida informatika bo'yicha sinfdan tashqari ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Ya'ni: 1. O'quvchilarning informatikaning nazariy asoslari, dasturlash, kompyuter hamda tarmoqlar me'morchiligi (dizayni), dastur ta'minot bilan tanishish va u bilan ishlash. 2. Axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni ommalashtirish va ular bilan tanishish. 3. Kompyuter va dasturiy ta'minot bilan ishlash malakalarini takomillashtirish, soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish. 4. O'quvchilarda bosma, shuningdek, elektron ilmiy-ommabop adabiyotlarni mutolaasiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ular bilan ishlash ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. 5. O'quvchilarni informatika sohasida kasbiyga yo'naltirish. 6. Informatika bo'yicha jamoaviy faoliyatni tashkil qilish, bu borada hamkorlikka erishishga oid tajribalarni to'plash uchun qulay sharoitni hosil qilish. 7. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish [10].

Informatika bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda quyidagi masalalarning hal qilinishiga ham e'tibor qaratish joiz: o'quvchilarda informatikaga bo'lgan barqaror qiziqishni paydo qilish va rivojlantirish; tafakkur madaniyatini rivojlantirish; o'quvchilarning informatika fani o'qituvchilari bilan yanada mustahkam ishchanlik aloqalarini o'rnatish asosida bilishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash; muayyan sinf jamoasiga informatika ta'limini samarali tashkil qilishda fan o'qituvchilariga yordam ko'rsatish (ko'rsatmali qo'llanmalar tayyorlash, o'zlashtirishda ortda qolgan o'quvchilar bilan ishlash, boshqa o'quvchilar o'rtasida informatikaga oid bilimlarni targ'ib qilish) malakasiga ega faollarni shakllantirish [2].

Barcha turdagi sinfdan tashqari ishlar umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga har bir tadbir o'zining ijtimoiy-tarbiyaviy, ta'limiy tavsifiga ko'ra o'ziga xoslikni ham namoyon qiladi. Informatika bo'yicha tashkil qilinadigan to'garak quyidagi umumiy-pedagogik va o'ziga xos individual xususiyatlarga ega:

Informatika bo'yicha to'garakning umumiy-pedagogik va individual xususiyatlari

Umumiy-pedagogik xususiyatlari	Individual xususiyatlari
1. O'quvchilarning qiziqish, ehtiyojlari va ixtiyoriylik tamoyiliga muvofiq tashkil qilinishi.	1. O'quvchilarni raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot bilan yaqindan tanishtirish.
2. Aniq maqsad, dastur va rejaga ega bo'lish.	2. O'quvchilarning raqamli iqtisodiyotni jamiyat hayotidagi ahamiyati va taraqqiyotini belgilashdagi rolini yetarlicha anglanishi.
3. Izchil, uzluksiz tashkil etilishi.	3. SHaxsni iqtisodiy ijtimoiylashtirish vositasi sifatida namoyon bo'lishi.
4. Pedagog (sinf yoki to'garak rahbari) tomonidan amaliy-metodik rahbarlik.	4. Amaliy yo'nalganlik.
4. O'quvchilar individual qobiliyatini inobatga olish va uni rivojlantirish.	5. Ijodiy, loyihaviy va kompetentli yondashuvga asoslanishi.
5. Jamoaviylikka asoslangan holda shaxsni ijtimoiylashtirish.	6. Natijaning o'quvchilar tomonidan muayyan topshiriqlarni ixtiyoriy va erkin bajarilishi bilan belgilanishi
6. Natijaga erishilganlikning tahliliy o'rganilishi	

Aynan o'ziga xoslik sinfdan tashqari sharoitda uyushtiriladigan tadbirlarning rang-barang va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Inson kapitali qimmatli resurs sifatida baholanib, xalqaro maydonda uni rivojlantirishga e'tibor kuchayotgan mavjud sharoitda Informatika fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlar tizimini tashkil qilishga nisbatan an'anaviy yondashuvlardan voz kechish, aksincha, innovatsion g'oyalarga tayanib ish ko'rish taqozo qilinadi.

Dastlabki o'rganish va tahlil natijalarining ko'rsatishicha, respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika fanidan sinfdan tashqari ishlar tizimini, xususan, to'garak faoliyatini tashkil qilishga nisbatan innovatsion yondashuv qaror toptirilmagan. Misol uchun, 68 soatga mo'ljallangan "Informatika o'qituvchilari uchun 5-6-7-8-9-10-11-sinflar uchun mo'ljallangan yillik to'garak rejasi (2023-2024 yy.)" [4] pedagogik-psixologik nuqtai nazardan noto'g'ri tuzilgan. Binobarin: birinchidan, 5-6-7-8-9-10-11-sinflar uchun birgina variantda yillik to'garak rejasining berilishi pedagogik-psixologik jihatdan mutlaqo noto'g'ri; har qanday rejani ishlab chiqishda o'quvchilarni yosh, psixologik xususiyatlari va individual imkoniyatlari inobatga olinishi zarur; ikkinchidan, ko'rsatilgan (5-11) sinflarning o'quvchilari yosh xususiyatiga ko'ra ikki davr – o'smirlik va o'spirinlik davriga mansub bo'lib, tabiiy ravishda ular ham ijtimoiy (mikro va makro muhitda atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olmaslik, ular bilan doimiy ziddiyatga borish va hokazolar) ham fiziologik

(organimning umumiy holati ham o'quv-bilish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi) ham psixologik xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi; bu farq murakkab akademik tushunchalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarishda o'smirlarga qiyinchilik tug'diradi; uchinchi, o'spirin (yuqori sinf – 9-11-sinf o'quvchilari) uchun “Informatika fani haqida”, “Axborot va raqamli texnologiyalar”, “Axborot turlari”, “Turli sanoq sistemalarida arifmetik amallarning bajarilishi”, “Matnli axborotlarni kodlash”, “Algoritm tushunchasi”, “Mobil qurilmalar tavsifi”, “Elektron jadvalning vazifalari va imkoniyatlari”, “Elektron jadvallar dasturida turli funktsiyalarni qo'llash”, “Jadval maydonlarini yaratish”, “SHaxsiy kompyuterning tuzilishi”, “Sichqoncha bilan ishlash ko'nikmalari” va hokazo kabi o'nlab mavzularni qayta o'rganish nafaqat qiziqarli emas, aksincha, zerikarlidir; to'rtinchi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarning faoliyati tashkil qilish o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslanishi zarur; taqdim qilingan yillik to'garak rejasida ko'rsatilgan mavzularning derli barchasi Informatika fani doirasida dars soatlarida o'rganiladi, shu sababli ularni to'garak faoliyatida qayta o'rganish uchun zaruriyat yo'q; beshinchi, sinfdan tashqari ishlar, jumladan, to'garak faoliyati asosiy o'quv soatlarini to'ldirishi, qo'llab-quvvatlashi kerak, bu esa tabiiy ravishda to'garak ish rejasining yangi tushuncha va mavzular bilan boyitish zarurligini anglatadi.

34 soatga mo'ljallangan “2023-2024-o'quv yilida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun tuzilgan “Kompyuter savodxonligi” nomli to'garagining ish rejasi [3] xususida ham tanqidiy fikrlarni bildirish mumkin. Birinchi, to'garak bu turdagi o'quv-bilish faoliyatiga an'anaviy yondashuvga muvofiq odatda o'quvchilar shaxsini, individual qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish maqsadida tashkil qilinadi; ikkinchi, bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos tizimi mavjud bo'lib, unga ko'ra bu toifadagi o'quvchilar (shu jumladan, ularning ota-onalari) uchun darsdan keyin maslahatlar, qo'shimcha, asosan, individual (yoki guruhli) va tabaqalashtirilgan mashg'ulotlar, maktab psixologi (imkoni bo'lsa, tajribali psixolog, tibbiyot xodimlari) bilan hamkorlikka asoslanuvchi treninglar uyushtiriladi; uchinchi, bu kabi mashg'ulotlarda qiyinlik darajasiga ko'ra uch turdagi – oson, o'rtacha qiyinlikdagi va murakkab o'quv topshiriqlaridan bosqichma-bosqich foydalaniladi; to'rtinchi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun to'garak emas, balki pedagogik profilaktika, pedagogik tashxis va pedagogik terapiya xarakteridagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Zamonaviy sharoitda Informatika fani bo'yicha tashkil qilinadigan to'garak faoliyatiga nisbatan innovatsion yondashish borasida xorijiy mamlakatlarda boy tajriba to'plangan. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda Informatika to'garagi doirasida o'quvchilar innovatsion, tahliliy, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlashni taqozo qiluvchi muammolar bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, amaliy tajribani o'zlashtirmoqda. Ayni o'rinda misol sifatida quyidagi muammolarni keltirib o'tish o'rinalidir: kompyuterda modellashtirish: qo'llash sohalari va chegaralari; kompyuter tajribasi; tibbiyotda ma'lumotlar bazalarini loyihalash; axborot madaniyati va tarmoq etikasi; jahon axborot resurslari; axborot-qidiruv tizimlari; statistik ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash usullari va vositalari; axborotlashtirishning ijtimoiy oqibatlari; axborot xavfsizligi asoslari; sun'iy intellekt va uning ijtimoiy-individual ahamiyati; kompyuterga texnik xizmat ko'rsatish; dasturiy ta'minot hamda axborot texnologiyalarini standartlashtirish; Informatika fanining zamonaviy texnik vositalari; kompyuterda modellashtirish: taxminlar, noto'g'ri tushunchalar, xatolar; simulyatsiya vositalari.

Shu bilan birga xorijiy mamlakatlarda Informatikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasiga erishish va uni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda to'garak faoliyatida quyidagi muammolarni tadqiqiy o'rganish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda: biologiya va kibernetika; fizik kattaliklarni o'lchash va ularni kompyuterda qayta ishlash; kimyoviy tajriba va kompyuter; elektron entsiklopediyalar: yaratish va ulardan foydalanish; chet tilidagi matnlarning kompyuter tarjimai asoslari; tarixda modellashtirish va modellarni talqin qilish; kompyuter texnologiyasi yordamida kutubxona va tarmoq resurslari bilan ishlash texnologiyasi; ishlab chiqarishni boshqarish modellari; iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun geografik axborot tizimlari; boshqariladigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizimlar; kompyuter yordamida loyihalash asoslari; axborot tizimlarini loyihalash; kompyuterda loyihalash; video axborotni yaratish va tahrirlash texnologiyalari va vositalari; kompyuterda audio axborotni qayta ishlash [9].

Axborot texnologiyalari sohasida tezkor o'zgarishlar, yangilanishlar Informatika to'garagi faoliyatini quyidagi muammolar bo'yicha tashkil qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda: o'yin nazariyasi va kompyuter o'yinlari; geografik axborot tizimlari; bionika; AdobePremiere yordamida raqamli video tahrirlash; veb-sayt yaratish texnologiyasi; nashriyot tizimlari; axborot biznesi; tarmoqda ishlashda kompyuterda axborot xavfsizligini ta'minlash; onlayn do'kon dizayni; zamonaviy mutaxassisning avtomatlashtirilgan ish joyi; operatsion tizimni optimallashtirish; muhandislik kompyuter grafikasi; musiqa kompyuteri; Google ijtimoiy tarmoq xizmatlari; shaxsiy blogni yaratish va yuritish [9].

Informatika fanidan to'garak faoliyatida mavjud xorijiy tajribalardan foydalangan holda, qolaversa, milliy jamiyat taraqqiyoti istiqboli uchun taqozo qilinadigan muammolarning o'rganilishi, o'quvchilarning ular bo'yicha kichik tadqiqotlarni amalga oshirish malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash tezkor, axborotlashgan davr talabi sanaladi. Tegishli to'garak faoliyatini ishlab chiqishda masalaning bu jihatini inobatga olish zarur.

SHunday qilib, sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil qilinadigan pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy elementlaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlarni aniq maqsad, dastur va reja asosida tashkil qilish maktab ta'limini qo'llab-quvvatlash, uning sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan qo'shimcha tadbir

sifatida kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Global axborotlashuv davrida an‘anaviy yondashuvlarni takomillashtirish bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlar tizimi, shu jumladan, Informatika fani bo‘yicha darsdan tashqari sharoitda tashkil qilinadigan o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar fenomenida innovatsion qarashlarning in‘ikosini ta‘minlash o‘ziga xos dolzarflik kasb etadi. Bunda Informatika fani bo‘yicha tashkil qilinadigan sinfdan tashqari ishlar misolida olinsa, ularning Informatika darslarida o‘rganiladigan mavzularni bevosita qayta takrorlashga asoslanmay, aksincha, o‘quvchilarni sohaga oid yangi bilimlar bilan qurollantirishga, ularning zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyotga oid tasavvurlarini yanada kengaytirishga yo‘naltirilishi ahamiyatli sanaladi. SHuningdek, sinfdan tashqari ishlarining muhim shakllaridan biri – Informatika to‘garagi faoliyatida o‘quvchilarning kompyuter texnologiyasiga, mobil qurilmalarga texnik xizmat ko‘rsatish; kompyuterda modellashtirish va dasturlash; jamiyat hayotining barcha sohalarini (ularning biri misoli)da ma‘lumotlar bazalarini loyihalash; statistik ma‘lumotlarni kompyuterda qayta ishlash usullari va vositalari; sun‘iy intellekt imkoniyatidan ijodiy, kreativ foydalanish; video kontentni yaratish va tahrirlash; kompyuterda audio va video kontentlarni qayta ishlash; veb-sayt yaratish; kompyuter xizmatlari dizaynini yaratish; shaxsiy blogni yaratish va yuritish bo‘yicha amaliy malaka va kompetentsiyalarga ega bo‘lishlari uchun zarur pedagogik sharoitni yaratish tegishli ta‘lim sohasining amaliy ahamiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev B., Mahkamov M., Xidirov Sh. Informatikadan sinfdan tashqari ishlar // <http://restm.zn.uz/11>.
2. Vneklassnaya rabota po informatike // https://sgpi.ru/user/-250/umk/vneklassnaya_rabota_po_inf.pdf.
3. Informatika 5-11-sinf bo‘sh to‘garak (34 soat) // <https://ilmlar.uz/informatika-fanidan-5-11-sinf-yillik-togarak-rejasi>.
4. Informatika 5-11-sinf bo‘sh to‘garak (68 soat) // <https://ilmlar.uz/informatika-fanidan-5-11-sinf-yillik-togarak-rejasi>.
5. Lizunova Ye.V. Vneklassnaya rabota kak sposob formirovaniya predstavleniy o zdorovom obraze jizni u detey starshego shkolnogo vozrasta // J. Azimut nauchnykh issledovaniy: pedagogika i psixologiya. – Tolyatti: 2015. - № 1 (10). – S. 31.
6. Malev V.V., Maleva A.A. Vneklassnaya rabota po informatike // Uchebno-met.posobie dlya stud.fiziko-mat.fakul’teta. – Voronej: VGPU, 2003. – S. 27.
7. Niyazova F.T. Osobennosti vneklassnoy raboty po informatike // J. Science and innovation. – T.: 2022. - № 7. Tom 1. – S. 1105-1107.
8. Poskrebysheva T.A. Organizatsionno-pedagogicheskie usloviya razvitiya intellektualno-tvorcheskogo potentsiala shkolnikov vo vneurochnoy deyatelnosti: dis. ... kand.ped.nauk. – Nijniy Novgorod: 2010. – S. 14.
9. Ryjova N.I., Trubina I.I. Tendentsii razvitiya sodernaniya vneurochnoy deyatelnosti shkolnikov po informatike i matematike v usloviyax informatizatsii i modernizatsii rossiyskogo obrazovaniya // J. Prepodavatel XXI vek. – M.: 2016. - № 4. – S. 102-103.
10. Uchebno-metodicheskiy kompleks po uchebnoy distsipline “Vneklassnaya rabota po informatike (fakul’tativ)”. – Minsk: Belorusskiy GPU im. MaksimaTanka. 2017. – S. 4.

Muallif:

Botiraliyeva Maftunaxon Botirali qizi - Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti.

UDK 372.800.2

MODERN TECHNOLOGIES FOR ENSURING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

TA‘LIM MUASSASALARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA‘MINLASHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGILARI

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Primov Dilmurod Dusmatovich

Xalqaro Nordik Universiteti, 100115, Tashkent sh.

E-mail: dil.primov1202@gmail.com

Annotation: The article aims at the comprehensive use of traditional and modern methods of training by ensuring the integration of disciplines and the effective use of integrative capabilities of didactic tools by introducing pedagogical conditions for preparing young people for professional activities in the conditions of qualitative renewal of educational programs on the issues of innovation and integration of education at present. Also, the importance and role of integration in modern pedagogic education is increasing. The focus on the problem of integrated education is growing. The integration process itself is not a new concept, but very little research has been established in this area. It has been raised several times in the pedagogical literature, but little discussed in theory, the reasons for which are considered to be the relevance of the problem of integration and the insufficient level of difficulties on the way to its implementation.

Keywords: Innovation, integration, pedagogical conditions, specialization, civilization, science, regularity, awareness, socialization, humanization, theorization, mathematicalization, interdisciplinary communication, content and essence of integration, its role in modern education.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы инноваций и интеграции образования в настоящее время внедрение педагогических условий подготовки молодежи к профессиональной деятельности в условиях качественного обновления образовательных программ, направленных на эффективное использование комплексных традиционных и современных методов обучения и интегративных возможностей дидактических средств путем обеспечения интеграции дисциплин. Также возрастает значение и роль интеграции в современном педагогическом образовании. Повышается внимание к проблеме интегрированного образования. Сам процесс интеграции не является новой концепцией, но в этой области было проведено очень мало исследований. Она неоднократно поднималась в педагогической литературе, но мало обсуждалась теоретически, причинами этого являются актуальность проблемы интеграции и недостаточная степень сложности пути ее реализации.

Ключевые слова: инновация, интеграция, педагогическая предпосылка, специальность, цивилизация, научность, регулярность, осознанность, социализация, гуманизация, теоретизация, математизация, междисциплинарность, содержание и сущность интеграции, ее роль в современном образовании

Kirish. Dunyo hamjamiyatining ilmiy-texnik taraqqiyoti, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi ulkan islohotlar, ilmiy-texnik axborotlar tizimining tezkor rivojlanishi va takomillashuvi ta'lim mazmuniga innovatsion va integrativ yonlashuvlarni tatbiq etish bilan ifodalanadi. Ayniqsa, ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi masalalari bo'yicha ta'lim dasturlarining sifat jihatdan yangilanish sharoitida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini joriy etish fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ham mehnat bozori va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan hal etishda o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlarining umumta'lim va ixtisoslik fanlaridan tuzilgan fan dasturlari mazmuni hozirgi zamon innovatsion va pedagogik texnologiyalari yordamida optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'rta maxsus ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Tadqiqotning obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida o'rta-maxsus ta'lim yo'nalishlarida umumta'lim va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayoni. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda integratsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ta'lim integratsiyasining nazariy asoslarini tahlil etish asosida o'rta maxsus ta'limda umumta'lim va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari o'rganiladi

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ta'lim jarayonida ta'lim sifatini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirrali vazifa bo'lib, uni to'liq nazariy tushunishni talab qiladi. Bu masala bo'yicha ko'plab nashrlar va rasmiy ta'riflar mavjud bo'lishiga qaramay, manfaatdor tomonlarning turli guruhlari tomonidan bu atamani subyektiv talqin qilish sifatga erishish yo'llari bo'yicha jiddiy bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi.

Ta'lim sifati masalalari bo'yicha adabiyotlarni tahliliga asoslanib, ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu mavzu Bolon jarayoni va sifat kafolati bo'yicha Yevropa standartlarini ta'minlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqilayotganini qayd etish mumkin [7]. So'nggi paytlarda ta'lim dasturlarini mustaqil baholash va xalqaro hamda jamoat-kasbiy akkreditatsiya jarayonlari masalalari alohida dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi [8]. Shuningdek, bir qator nashrlar turli monitoring texnologiyalari va ta'lim sifatiga ichki baho berish, hamda ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimlarini joriy etish masalalariga bag'ishlangan [9].

Shunday bo'lsa-da, fikrimizcha, ushbu tadqiqotlarda ta'lim sifati masalasining pedagogik omillari nisbatan kam o'rganilgan. Bu holat ma'lum darajada ta'lim sifatga iqtisodiyot sohalarining tadqiqot obyekti sifatida qaralishi bilan belgilanib, ularda ta'lim sifati bevosita ta'lim muassasalarini boshqarish sohasidagi islohotlar bilan bog'lanadi. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim sifati ta'lim muassasasining xalqaro standartlarga mos kelishi va xalqaro darajada tan olinishi va reytinglardagi mavqeiga muvofiqligi bilan asoslanadi.

Shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim sifatini ta'minlash masalalariga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar xulosalari ta'lim sifati ta'lim jarayonining bevosita ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogik nuqtai nazardan ta'lim sifati asosan o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish, ta'lim texnologiyalari, o'quv qurollari va o'quv-metodik materiallarni tanlash, pedagogning kasbiy malakasi, auditoriyada ishchi muhit yaratish va ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati bilan bog'liq. Agar ta'lim beruvchilarning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlariga "tashqaridan yuklatilgan", munosabati haqida gapiradigan bo'lsak, ko'pincha bu

kabi yangiliklar ta'lim beruvchilar uchun aniq bo'lmagan ijobiy natijalarga olib keladigan "qo'shimcha mehnat talab qiluvchi yuk" sifatida qabul qilinadi [10].

Ta'lim sifati masalalarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarida sifat ko'p komponentli tushuncha sifatida talqin qilinadi. Deyarli barcha tadqiqotchilar ta'lim sifati ko'p o'lchovli tushuncha ekanini tan olishadi, u ta'lim muassasasining barcha faoliyat tomonlarini o'z ichiga oladi va ta'lim jarayonining barcha subyektlari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Masalan, V.A. Sadovnichiy ta'lim sifatini ta'lim muassasasi faoliyatining murakkab xususiyati sifatida talqin qilishni taklif qiladi, u ta'lim muassasasining jamoatchilik tomonidan tan olingan o'quv va ilmiy ishlar darajasi, ta'lim beruvchilarning kompetentligi, zamonaviy moddiy-texnik bazasi va bitiruvchilarning mehnat bozorida talabgorligiga asoslanadi [11].

V.I. Andreyev ta'lim sifatining 12 komponentlarini ajratib ko'rsatadi, jumladan ta'lim maqsadlari sifati, mazmun, boshqaruv, ta'lim oluvchilarning rivojlanish darajasi, pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatleri, o'qitish usullari va texnologiyalari, moddiy-iqtisodiy ta'minoti, ta'lim natijalari darajasini ko'rsatib o'tadi [12].

Agar yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan sifat komponentlari ro'yxatlarini umumlashtirishga harakat qilinsa, to'rtta asosiy sifatli ta'lim komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: ta'lim oluvchilar sifati, professor-pedagoglar sifati, ta'lim muassasasi boshqaruvi sifati va ta'lim muhiti sifati.

O'z navbatida, ta'lim oluvchilar sifati o'z ichiga quyidagilarni oladi: Ta'lim faoliyatiga munosabat va ichki motivatsiyani o'z ichiga olgan boshlang'ich savodxonlik va rivojlanish darajasi; Ta'lim natijalari darajasi, jumladan, bilim va tarbiya ko'rsatkichlari, shuningdek, qadriyat yo'nalishlari, axloqiy, fuqarolik, intellektual va ishbilarmonlik fazilatleri, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari; Mehnat bozorida talabgorlik, ishga joylashish, tanlangan kasbda muvaffaqiyatli bo'lish; Ijtimoiy va ijodiy faollik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qo'shilish; O'zini-o'zi aniqlash, o'zini-o'zi kognitiv potensialini oshirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi ijodiy qobiliyatlarini kengaytirish va uzluksiz o'zini takomillashtirish qobiliyati.

Professor-pedagoglar sifati quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi: Psixologik-pedagogik tayyorgarlik, fan sohasidagi professionallik; Shaxsiy va kasbiy sifatlar darajasi (umumiy madaniyat, pedagogik mahorat, stressga barqarorlik, halollik, kreativlik, ekologik mas'uliyat); Ta'lim dasturlari, baholash fondi, o'rganilayotgan bilimlarni rejalashtirish va ishlab chiqish; Ta'lim va tarbiyada qo'llanilayotgan metod va texnologiyalar, jumladan, innovatsion va ta'lim oluvchilar faolligiga yo'naltirilgan texnologiyalar; Ta'lim natijalarini baholash uchun monitoring texnologiyalarini qo'llash, ta'lim oluvchilar bilan munosabatda qaytar aloqaning ustuvorligiga erishish; Ilmiy-tadqiqot faoliyati, ta'lim va kasbiy muhitga qo'shilish; Tarbiya ishi; O'z-o'zini o'qitish va rivojlantirish, kasbiy o'sishga intilish; Moslashuvchanlik, dinamiklik, adaptivlik.

Ta'lim muassasasining boshqaruvi bo'yicha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi kriteriyalar quyidagicha: Ta'lim, tarbiya va rivojlanish maqsadlarini belgilash; Ta'lim dasturlarining mazmuni; Rahbariyatning innovatsion va tadqiqot faoliyati; Tashqi muhit, jumladan ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar bilan munosabatlar; Ta'lim natijalari va pedagoglar faoliyatini baholash uchun monitoring texnologiyalarini qo'llash; Professor-pedagoglar tarkibining malakasini oshirish tizimi; Professor-pedagoglar tarkibini rag'batlantirish tizimi; Ta'lim muassasasidagi korporativ madaniyat, jamoadagi psixologik muhit va boshqalar.

Ta'lim muhitining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir doirasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti; Ta'lim jarayonining o'quv-metodik jihatdan ta'minlanishi; Ta'lim jarayonini tashkil etish, qulay dars jadvali; Dam olish sharoitlari, o'quvdan tashqari faoliyatni tashkil etish va boshqalar.

Barcha ta'lim jarayoni subyektlari o'zaro bog'liq va doimiy hamkorlik munosabatida ekanligi e'tiborga olinsa, ta'lim sifati- yuqorida keltirilgan har qanday komponentni yaxshilash ta'lim tizimining barcha boshqa elementlariga ijobiy ta'sir qiladi va aksincha, ulardan birining sifati pasaysa, yakuniy natija sifati ham salbiy tomonga o'zgaradi. Har qanday mukammal kurs dasturi bo'lishidan qat'iy nazar, ta'lim beruvchilar qanchalik iste'dodli bo'lmasin, o'qitish uchun tegishli sharoitlar yaratilmasa, ta'lim sifati ijobiy ko'rsatkichni qayd eta olmaydi. Pedagogik soha tadqiqotchilari yuqorida keltirilgan ta'lim sifatini ta'minlovchi omillarning asosiy ta'sir etuvchilari etib ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilarini belgilaydilar. Tadqiq etilayotgan muammo doirasida ta'lim sifatiga oid ikki asosiy komponent — ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar haqida batafsil o'xtalib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Albatta, ta'lim sifatiga o'quvchi asosiy boshlang'ich (yoki majburiy) ta'limda qanday bilim olgani, qanday oilada tarbiyalangani va qanday jamiyatda o'sgani katta ta'sir ko'rsatadi, biroq, bizning fikrimizcha, uning muvaffaqiyatli o'qishiga eng muhim rol uning ta'limning ixtiyoriy bosqichiga (professional ta'lim, oliy ta'lim va hokazo) qanday motivatsiya va rejalar bilan yo'nalganligi o'ynaydi. Ayrim shaxslar uchun ixtiyoriy ta'lim — kelajakdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni olish, boshqalar uchun esa qo'shimcha maqomga ega bo'lishdir, ular ta'limni muvaffaqiyatli karera istiqbollari bilan bog'laydilar [13]. Shaxsning ta'limga bo'lgan chuqur ichki ehtiyoji ta'lim sifati uchun zarur shart ekanligi, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirmasdan, ularda o'rganilayotgan fanga barqaror qiziqishni shakllantirmasdan va rivojlantirmasdan ta'lim sifati masalasini hal etishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Bunda ta'lim oluvchi shaxs intellektual mehnatga odatlanishi, ta'limda faol qatnashishni o'rganishi kerak [14].

Klassik yondashuv an'alarini saqlash tarafdorlari esa ta'limda insonning oliy qadriyati - har tomonlama rivojlangan va mukammal shaxsni tarbiyalash maqsadida tarbiya komponentini kuchaytirish kerakligini qo'llab-quvvatlashadi. Ular yuqori malakali mutaxassis, kerakli axborotni tez topish uchun kompyuter texnikasidan foydalana olishdan ko'ra, turdosh fanlarda umumiy ilmiy xususiyatga ega bo'lgan keng nazariy bilimlarga ko'proq ega bo'lishi kerak, deb hisoblashadi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy sharoitda barcha holatlarga mos keladigan yagona to'g'ri o'qitish usuli yoki uslubi bo'lishi mumkin emas va eng samarali natijalarga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanib, an'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va ma'naviy madaniyatni tarbiyalashga, pragmatik vositaviy qadriyatlarga emas, qaratilgan holda erishish mumkin. Raqamli texnologiyalar aniq vazifalarni bajarish uchun vosita ekanini unutmash kerak, biroq eng asosiysi - ta'lim muhitida inson va uning intellektual salohiyatidir, ya'ni o'z kursining mazmuni va uning doimiy yangilanishini ta'minlaydigan pedagogdir.

L. Endrissi o'z tadqiqotlarida ta'kidlashicha, XX asr oxirida yuz bergan ta'limning ommalashuvi va diversifikatsiyasi tufayli pedagogik yondashuvni faqat moslashtirish emas, balki butunlay o'zgartirish lozim. Ta'lim oluvchilar sonining tez sur'atlarda o'sishi natijalaridan biri ular kontingentining diversifikatsiyasi bo'lib, u o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan insonlar uchun ta'limni ochib berdi. Demak, an'anaviy ravishda elita universitetlari va muayyan darajadagi o'quvchilar bilan ishlashga odatlangan pedagoglar ommaviy ta'limga qayta yo'naltirilishi va turli darajadagi tayyorgarlikka ega ta'lim oluvchilar oqimiga javob berishlari kerak edi [83].

Shuni ta'kidlash kerakki, bu muammo bizning mamlakatimiz uchun ham dolzarb. Hozirgi kunda tadqiqot ishimiz obyektini etib belgilangan professional ta'lim muassasalarida turli darajadagi bilim, ko'nikma va malakaga ega o'quvchilarni uchratish mumkin. Bunday ta'lim oluvchilarning kognitiv geterogenligiga nisbatan optimal yondashuv ta'lim sifatini ta'minlashda muhim pedagogik muammoga aylanmoqda. Bunday sharoitda pedagog har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi va ta'limda differensial yondashuvdan foydalanishi kerak, bu esa turli darajadagi qo'shimcha topshiriqlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Jahon sivilizatsiyasidagi integratsion jarayonlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o'rni masalasi barcha davrlarda ham olimlarni qiziqtirib kelgan. Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy g'oyalarini ishlab chiqishda respublikamizning bir qator mutaxassis olimlari, Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni fanlararo aloqadorlik vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi [3], Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish [2], Oliy ta'limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash metodikasi [1]. Ta'limda fanlararo aloqadorlik, uzviylik va integratsiya masalalarini hal etishga qaratilgan Z.Sh.To'xtayeva, F.X.Gaffarov A.A.Xasanov, A.K.Zakirovlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganiladi.

Fanlararo aloqadorlik muammosi pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassislarning o'quv bilish faoliyatini faollashtiradi, bilimlar sifatini oshiradi, ta'limning ilmiyligi, tushunarli, tizimlili, tizimlili va mobilligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiya tushunchasi amaliyot nuqtai nazaridan integratsiya fanlar orasidagi aloqalarni mustahkamlash, o'quvchilarning ortiqcha yuklanishlarini kamaytirish, sinflardagi axborotni kengaytirish va boyitish, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim olish motivlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Umuman olganda, integratsiya - bu alohida-alohida ajratilgan qismlarning birlashuvini nazarda tutuvchi nazariy tushunchadir.

Hozirgi vaqtda integratsiya muammosiga ta'limni tashkil etish jarayonida yana katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy maktabda integratsiya deganda o'quvchilarga yanada samarali va oqilona ta'sir ko'rsatish maqsadida undagi ishlarni yaxshilashga, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan yangi pedagogik echimlarni faol izlash yo'nalishlaridan biri tushuniladi.[6]

Ta'limda integratsiyalashgan muhit - bu shaxsiy integrativlik prinsipi asosida qurilgan maqsadli pedagogik jarayonning natijasidir, uning davomida o'quvchilar o'zlarining onglarida turli xil o'quv fanlaridan bilim tarkibiy qismlarini aks ettirish asosida tibbiy bilimlarning yaxlit tizimini tashkil etuvchi maxsus integral kognitiv-operatsion tuzilmalarga aylantiradilar.

Integratsion muhit - bu ilmiylik, muntazamlik, onglik tamoyillariga rioya qilishni talab etuvchi tarkibiy komponentdir. Integratsion muhitdan foydalanish fanni o'qitish tizimida ilmiylik tamoyilini quyidagi jihatlar bo'yicha yanada to'liq amalga oshirishni ta'minlaydi: ilmiy bilimning yaxlit birliklari to'g'risida (tushunchalar tizimlari va qonunlar to'g'risida hamda nazariyalar va kompleks muammolar to'g'risida) tasavvur hosil qilish; integratsiya jarayonlari (ijtimoiylashtirish, insonparvarlashtirish, nazariylashtirish, matematikalashtirish va boshqalar) ta'siri ostida yuzaga keluvchi fan rivojlanishining zamonaviy an'alarini ochib berish; o'quvchilarda fan to'g'risidagi tushunchalarni bilimlar va usullar tizimi sifatida shakllantirish; fan tarixini va uning amaliy qo'llanilishini yanada to'laroq ochib berish; ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilimlarning sotsial qiymatini yanada ravshanroq yoritib berish.[4]

L.V.Kolyasnikova integratsiya so'zini lotincha integratio – tiklash, to'ldirish, “integer” butun so'zidan kelib chiqqanligini qayd etgan holda, uning ikki ma'noda ifodalanishini ta'kidlaydi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni [15].

O.Abduquddusov “integratsiyani” (lotincha Integeration -tiklash, to'ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq”, “integratsiya – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi”, degan fikrni ilgari suradi. Bunda integratsiyani sintez jarayonining yuqori darajasi deb tushuntiradi, ya'ni sintez jarayonida qism yoki elementlarning birlashtirishi (umumlashtirishi) vujudga keladi. Shu ma'noda integratsiya natijasida qism yoki elementlarning birlashishi nazarda tutilgan [12].

Ta'limni tashkil etish mazmun va mohiyati, ta'lim muassasa joylashgan xududga va mehnat bozori xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yangi yo'nalishlarni tashkil etish va ta'lim muassasani ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, professional ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik modellari va professional ta'lim muassasalarida ta'limning turli shakllarini modernizatsiya qilish orqali mehnat bozori talablariga javob beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya ya'ni ta'limda fandan boshqa fanlarni ham o'qitishning asosiy prinsiplaridan biridir. Bu turli fanlar va mavzularni bir-biriga bog'laydigan, ularni bir qatorda o'rgatish va o'rganuvchiga ta'limga qiziqishni yaratishning usullaridan biridir.

Fanlararo integratsiya jarayonida, murabbiy va o'quvchilar faqatgina bir fanni o'qigan bo'lmaydi, balki turli fanlarni bog'langan darsliklar, mashg'ulotlar va amaliyotlar orqali o'rganadi. Misol uchun, matematika va fizikni birgalikda o'rgatish orqali murabbiy o'quvchilarga bu ikki fanni bir-biriga bog'liq ekanligini tushuntirishi mumkin.

Fanlararo integratsiya yordamida o'quvchilarga farzandlari doimiy ravishda xalqaro muloqotlarda ishtirok etish, muammosiz muhokama qilish, masalalar yechish va ijtimoiy muzokaralar ko'tarilishi imkoniyatini beradi. Bu jarayon uni zamonaviy dunyo bilan bog'liqlikka tayyorlashga yordam beradi va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fanlararo integratsiya ta'limda motivatsiyani oshiradi va o'quvchilarning tushunchalari orasidagi munosabatlarni kuchaytiradi. Uning natijasida, o'quvchilarning ma'lumotlari ilmiy darajada tarbiyalanadi va ularning jamiyat bilan bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya, ilmiy-metodik fanlarni mustaqil o'rganish, ularning bir-biriga bog'liqligini tushunish va ularni amaliy hayotda birlashtirish jarayoni. Bu integratsiya jarayoni orqali o'quvchilarga bir necha fanga oid ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida berish, ularni biror masalaga doir savollarga alohida javob topish uchun o'zlashtirishga imkon beradi. Bu usul ta'lim-tarbiya protsessini samarali va effektiv qiladi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. [5]

Yuqoridagi keltirgan fikrimiz isboti sifatida Monamarkazda o'quv jarayonini kuzatdik, dars mashg'ulotlari tashkil qildik hamda tajriba-sinov ishlarni o'tkazdik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa integratsiyalashgan darslarning bolalarga qay darajada qiziqish uyg'otishini hamda ularning ilmiy salohiyatining oshishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonini integratsiyalash texnologiyalari asosida tashkil etish bo'yicha o'tkazildi. Kompyuter savodxonligi darslari bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar amalda sinab ko'rildi. Nazorat guruhleri va tajriba guruhlarda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan testlar bo'yicha darslar o'tilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar “Ishga-marhamat” monomarkazidagi Kompyuter savodxonligi guruhi o'quvchilarida o'tkazildi. Ushbu tadqiqot ishida 4/24-guruhi nazorat guruhini, 3/24 tajriba guruhini tashkil qildi. Tajriba-sinov ishida jami 53 nafar o'quvchilari qamrab olindi. Shulardan 29 nafari tajriba guruhi, qolgan 24 nafari nazorat guruhi sifatida olindi.


Tajriba-sinov dasturiga muvofiq, guruhlardan oktabk oyida integratsiyalashgan test-so'rovnoma topshirig'i olindi.

Jadval-1

Integratsiyalashgan test-so'rovnoma topshirig'i jadvali

Guruhlar	Guruh t/r	Talabalar soni	Dastlabki test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % da	Keyingi test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % da
Tajriba guruhi	“Kompyuter savodxonligi”	29	74%	84%
Taqqoslash guruhi	“Buxgalteriya”	24	73%	78%

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



Ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi ballarning o'rtacha qiymati nazorat guruhiga nisbatan yuqori. Pedagogik tadqiqotlarda gipoteza sifatida nazorat guruhida olib borilgan an'anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhida olib borilgan maxsus metodika asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi natijalarning samarali ekanligi ko'rsatildi. Tajriba-sinov ishlari natijasida olingan umumiy ko'rsatgichlar mosligi va farqlarining haqqoniyligini tekshirish va matematik-statistik ishlov berish uchun ishchi jadval ishlab chiqildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda integrative yondashuv sifatida qaraladi, yani u ta'lim jarayonini yaxlitlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga mehnat bozorida raqabatchilik mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim muassasalarida o'qitishning asosiy talabi talabning hayotiy tajribasi, ilgari olgan bilimlari va qiziqishlari asosida yangi ta'lim berishdir. Muassasadagi fanlarini bir-biriga bog'lab o'qitishda o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borishi kerak, uning pedagogik mahorati o'sib borishi o'quvchilarning faolligida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya turli fanlar va disiplinlarning birlashtirilishi yoki bir-biriga bog'lanishi jarayoni hisoblanadi. Bu muhitdagi turli sohalaridagi bilimlarni va ma'lumotlarni bir-biriga bog'lash orqali yangi bilim va texnologiyalar yaratishga imkon beradi. Fanlararo integratsiya matematika, fizika, kimyo, biologiya, injinerlik, informatika va boshqa sohalarining bir-biriga bog'lanishini o'rganish uchun muhimdir. Bu jarayonning natijasida o'quvchilarning tushunchalari kengayadi va ularning yaratuvchi fikrlash usullari rivojlanadi. Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya istiqboli yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtayeva Z.SH. Oliy ta'limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash metodikasi (engil sanoat yo'nalishlari misolida). Diss, ... ped. fan. nomz.-Toshkent, 2022. -111 bet.
2. Gaffarov F.X Professional ta'lim tizimida nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash metodikasi p.f. doktori (DSc) disser. –T.:2022. 35 b.
3. Xasanov A.A. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni fanlararo aloqadorlik vositalasida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimi Diss, ... ped. fan. nomz.-Toshkent, 2018-121. Bet.;
4. Xoliqova O.Yu., Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. p.f. bo'yicha falsafa doktori. Avtoreferati
5. Dusbayev I. R. Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya// Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti . *Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari 11-13*
6. Ergasheva N.A. Zamonaviy pedagogic ta'limda integratsiyaning o'rni// International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia <https://econferencezone.org>
7. Motova G.N. Двойные стандарты гарантии качества образования: Россия в Болонском процессе // Высшее образование в России. 2018. Т. 27. № 11. С. 9–21.
8. Safarova R., Inoyatova M. va boshqalar. Istiqboldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. - Toshkent: Fan, 2009. -240 bet.
9. Soboleva E.Yu. Построение внутривузовских систем обеспечения гарантий качества образования // Высшее образование в России. 2011. № 11. С. 148–155.
10. Baydenko V.I., Seleznyova N.A. Нынешний раунд Болонского процесса: сохранение оптимизма. И немного о российском... (статья 1) // Высшее образование в России. 2017. № 11 (217). С. 122–136.

11. Sadovnichiy V.A., Krujalin V.I., Artyushina I.A. Artyushina I.A. Как Как посчитать качество образования// Ректор вуза. 2008. № 8. С. 14–18.
12. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlari mazmunini integrasiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. -T.: - 2001. -124 bet
13. Glayssner O.Yu. Система высшего образования в Германии: великое множество путей // Alma mater. 2008. № 10. С. 59-60
14. Coulon A. Le métier d’étudiant: L’entrée dans la vie universitaire. Paris: Economica, 2005. 240 p.
15. Kolyasnikova L.V. Диагностическое обеспечение образовательного процесса.-Ekaterinburg: Изд-во Рос.гос. проф. пед. ун-та, 2003. -152 с.

Muallif:

Primov Dilmurod Dusmatovich - Xalqaro Nordik Universiteti tadqiqotchisi.

УДК: 952.512.133-1

MEDIA COMMUNICATION AS A NEW FACTOR IN ENHANCING TEACHER CREATIVITY AND INTERACTION IN EDUCATION

MEDIA KOMMUNIKATSIYALAR – PEDAGOGNING IJODKORLIGINI OSHIRISHDA O‘ZARO TA’SIRNING YANGI OMILI SIFATIDA

МЕДИА - КОММУНИКАЦИИ КАК НОВЫЙ ФАКТОР ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ПОВЫШЕНИИ ТВОРЧЕСТА ПЕДАГОГА

Raximov Jo‘rabek Qadamovich

Xalqaro Nordik Universiteti, 100115, Tashkent sh.

E-mail: jurabekrahimov4300@gmail.com

Abstract: Today, one of the most pressing issues in the development of education is the use of digital technologies. Digital technologies are used as the main tool in such matters as ensuring the rapid exchange of information in the educational process, the organization of distance learning, the technologization of learning tools, and the improvement of didactic and methodological support for learning. This article highlights infographics and their role in education, the use of infographics in improving the visibility of learning, and the principles of preparing learning tools using infographics. The pedagogical teacher is a highly cultured specialist, a person with a deep knowledge of his educational science, familiar with Science News, practical knowledge of children's psychology, a high level of educational methodology, as well as the ability to educate a harmonious generation, have pedagogical abilities (predisposition to communication, workability, ability to imagine the future, professional independence, speed perception of sensory information (reading from the face),

Keywords: professional training, infographics, visual learning tools, tabular infographics, graphic organizer, principles of infographics, infographic capabilities Creativity of the educator, child psychology, personal and professional qualities of the educator, personal example, Labor personality formation, pedagogical skill, pedagogical technology, professional skill, tendency to communication, workability, ability to imagine the future, professional independence, speed perception of sensory information

Аннотация: Сегодня одним из актуальных вопросов в развитии сферы образования является использование возможностей цифровых технологий. Цифровые технологии используются в качестве основного инструмента в таких вопросах, как обеспечение быстрого обмена информацией в образовательном процессе, организация дистанционного обучения, технологизация средств обучения, совершенствование дидактико-методического обеспечения обучения. В данной статье освещаются инфографика и ее роль в образовании, использование инфографики в улучшении наглядности обучения, принципы подготовки средств обучения с помощью инфографики. Педагог - это высококультурный специалист, человек, обладающий глубокими познаниями в своей педагогической науке, знакомый с новостями науки, практическими знаниями детской психологии, высоким уровнем методики обучения, а также умением воспитывать гармоничное поколение, обладающий педагогическими способностями (предрасположенностью к общению, работоспособностью, способность представлять себе будущее, профессиональная независимость, скорость восприятия сенсорной информации (чтение по лицу),

Ключевые слова: профессиональное обучение, инфографика, визуальные средства обучения, табличная инфографика, графический органайзер, принципы инфографики, возможности инфографики, креативность педагога, детская психология, личностные и профессиональные качества педагога, личный пример, формирование трудовой личности, педагогическое мастерство, педагогическая технология, профессиональное мастерство, склонность к общению, работоспособность, умение представлять себе будущее, профессиональная независимость, скорость восприятия сенсорной информации.

Kirish: XX asrning soʻnggi choragida media atamasining hayotga tatbiq etilishi eng soʻnggi axborot texnologiyalarining davr madaniy-kommunikativ holatining barcha jabhalariga inqilobiy taʼsiri bilan bogʻliq xolatni yuzaga keltirdi. “Yangi ommaviy axborot vositalari” sohasidagi har qanday yangilik ijtimoiy muhit konturlarida bir nechta oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi: axborot oqimlari zichligining oshishi, ular tezligining oshishi, yangi ijtimoiy-madaniy hodisalarning paydo boʻlishi. Shu nuqtayi nazardan, media axborotlarni jamiyatning turli tizimlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni ramziy almashinuv mexanizmlari orqali taʼminlaydigan ijtimoiy muhit sifatida, shubhasiz, ommaviy axborot makonining dolzarb mavzusiga aylandi.

Taʼlim jarayonida vizuallik, oʻrganishning vizuallik vositalar orqali amalga oshirilishi va koʻrsatkichlarning oʻziga xos usullarini integratsiyalashni anglatadi.[7] Bu, taʼlim oluvchilar uchun maʼlumotlarni osonroq tushuntirish, tushunish va yodlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Vizuallik vositalar, masalan, slaydlar, video darsliklar, infografikalar va boshqa multimediyaga usullari orqali, oʻquvchilar bilimlarini mustahkamlash va interaktiv dasturlar va boshqa multimediyaga usullarini oʻz ichiga oladi. Bu vositalar taʼlim oluvchilarga maʼlumotlarni vizual ravishda namoyish etish va tushunishlarini yaxshilash imkoniyatlarini beradi, shuningdek taʼlim vositalarining rang-barangligi taʼlim oluvchilarning oʻzlashtirishga boʻlgan motivatsiyasini ragʻbatlantirish hamda oʻquv jarayoni jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Professional taʼlimning 5-bosqich texnikumlari taʼlim jarayonida pedagoglar ijodkorligini oshirishda infografikaning imkoniyatlari oʻrganildi. Nazariy va amaliy taʼlim jarayonida taʼlim vositalaridan foydalanishning samaradorligi 68 nafar oʻquvchilarning oʻzlashtirish samaradorligi koʻrsatkichlari asosida tahlil etildi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ijodkorlik muammosini oʻrganishga yondashuvlardan biri mazkur fenomenni shaxs sifati pozitsiyasidan koʻrib chiqishni taqozo etadi. Zamonaviy ilm-fanda «shaxs» tushunchasini tadqiq qilishda quyidagi yoʻnalishlar ajratib koʻrsatiladi: shaxsni bir butun deb tushunish; ushbu fenomenda uning dinamik xarakterini aniqlash; shaxsning oʻzgaruvchanligini, unda istiqbolli, potensial imkoniyatlar, haqiqiy, tugʻma mavjud boʻlgan va keyinchalik egallangan jihatlar borligini qayd etish; shaxsning atrof-olamga va oʻziga nisbatan baholovchi munosabatlari tizimini ishga tushirish.

Nazarimizda, eng aniq va asoslab berilgan pozitsiyani B.G.Ananyev ilgari surgan. U inson shaxsini bilish, mehnat qilish va muloqot subyekti sifatida koʻradi [1]. Biz quyidagi taʼrifga tayanamiz: «Shaxs - oʻziga xos boʻlgan xarakter, intellekt va emotsiyalarning individual xususiyatlariga ega, faoliyat subyekti sifatidagi ijtimoiy individ». Ijodiy shaxsni tadqiq etishga bagʻishlangan ilmiy ishlarni shartli ravishda bir qancha yoʻnalishlarga boʻlish mumkin.

Ilk yoʻnalishni shunday tadqiqotlar tashkil etadiki, ularning mualliflari fikricha, ijodkor shaxs har qanday inson boʻlishi mumkin, agar unda maʼlum sifatlar kamol topgan boʻlsa kifoya, bunda alohida rol mustaqillikka, ishdagi tirishqoqlikka, muntazam yangilik yaratishga intilishga qaratiladi. Ijodkor shaxsning quyidagi xususiyatlari sanab oʻtilgan: «...yuqori hayotiy ishtiyoq, bunda inson zerikish va loqaydlik nimaligini bilmaydi, ijodiy izlanishdan doim ulkan axloqiy qoniqish hosil qiladi. Ijodiy mehnat kishisining boshqa bir xarakterli xususiyati - dunyoqarashini kengaytirish va bilimlarini chuqurlashtirishga tinimsiz intilishidir».[9]

Tadqiqotchilar quyidagi shaxsiy xislatlarni ijodkor shaxsning asosiy sifatleri deya hisoblaydi: 1) mustaqillik – shaxs standartlari guruh standartlaridan muhimroq, shaxsiy qadriyatlarga ustuvor eʼtibor qaratish, begonalarning gap-soʻzi va bahosiga uchmaslik; 2) aqlning ochiqligi – yangilikka, noodatiy narsalarga oʻchlik, oʻzining va boshqalarning fantaziyalariga ishonishga tayyorlik; 3) nomuayyan va ruxsat etilmagan vaziyatlarga tolerant munosabatda boʻlish, ushbu vaziyatlarda konstruktiv faollik koʻrsatish; 4) kamol topgan estetik tuygʻu.

Ijodkorlik va intellekt oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikning tadqiqi, 11-12 yoshli maktab oʻquvchilari shaxsiga doir xususiyatlari ularning namoyon boʻlishiga yetarlicha kuchli taʼsir etishini oshkor qilishadi (1-jadvalga qarang). Aniq bir shaxsda intellekt va kreativlik darajasi oʻzaro nisbati turli variantlarini koʻzdan kechirarkanmiz, qiziq bir xulosaga kelamiz: qachonki, yuqori intellekt kreativlikning yuqori darajasi bilan uygʻunlashsa, ijodkor insonning muhitga moslashuvi har jihatdan yaxshi kechadi, u faol, emotsional jihatdan vazmin, mustaqil boʻladi va hokazo; aksincha, kreativlik past darajali intellekt bilan hamohanglik kasb etsa, u holda inson odatda asabiy, qoʻrquvga tushgan, ijtimoiy atrof-muhit sharoitlariga yaxshi moslashmagan boʻladi.[5]

Shunga bogʻliq ravishda quyidagi omillarni belgilab olamiz, ular ijodkorlik xislatlarini yuzaga chiqaradi: 1) intellekt qobiliyat sifatida; 2) bilimlar; 3) fikr yuritish tarzi; 4) individual xususiyatlar; 5) motivatsiya; 6) tashqi muhit. Ushbu omillar doimiy ravishda oʻzaro aloqada boʻladi, shu sababli umumiy effekt ulardan qaysidir birining taʼsiriga olib kelmaydi. Motivatsiya ijodiy muhit yoʻqligi oʻrnini toʻldirsa, intellekt motivatsiya bilan hamohanglikda kreativlik darajasini sezilarli oshiradi.

Ijodkorlik qobiliyatini aniqlangan obyektiv mezonlar asosida, intellektual faollik darajalarini: stimulli-hosilali, evristik va kreativ koʻrinishda optimal tasniflash taklif etilgan.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Intellektual faollik darajalari tasnifi ijodkorlik tipologiyasi bilan o‘zaro bog‘liqlik hosil qiladi. Stimulli-hosilali darajada inson dadil farazlarni bildirish va original g‘oyalarni ilgari surishga qodir. Evristik daraja – “empirik kashfiyotlar darajasi”dir [11]. Kreativ daraja esa yangi qonuniyatlarni ijodkorlik yo‘li bilan ochishga mos keladi.

Dj.Gilfopdning uqtirishicha, [7], ijodkorlik qobiliyatlari negizida divergent fikrlash tarzi yotadi. Bu tarz o‘z fikrini bemalol ifoda etish va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Fikrlashning shunday yo‘siniga ega insonlar muammoni hal qilarkan, o‘zining barcha sa’y-harakatlarini yagona to‘g‘ri javobni topishga qaratmaydi, balki barcha ehtimoliy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘proq variantlar izlashga tushadi. Bundan odamlar aksariyat kishilar faqat muayyan yo‘sinda qo‘llaydigan elementlardan yangi kombinatsiyalar hosil qilishga va bir qarashda hech bir umumiylik yo‘qdek ko‘ringan ikki element o‘rtasida bog‘liqlikni shakllantirishga qodir bo‘ladi.

1-jadval

Intellekt darajalari

Yuqori	Past
<ul style="list-style-type: none"> • o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch • o‘zini yaxshi nazorat qilish • yaxshi ijtimoiy integratsiya • e‘tiborni jamlashga yuqori darajada qodirlik • barcha yangi narsaga katta qiziqish 	<ul style="list-style-type: none"> • oliy ta‘lim talablari to‘g‘risidagi shaxsiy tasavvurlari o‘rtasidagi doimiy ziddiyat • o‘ziga ishonchning yetishmasligi • atrofdagilarning baholashidan qo‘rqish
<ul style="list-style-type: none"> • bor quvvat o‘qishda muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan • muvaffaqiyatsizlik fojia sifatida qabul qilinadi • tavakkal qilishdan va o‘z shaxsiy fikrini bildirishdan qo‘rqish • muloqotga no‘noqlik • o‘ziga baho berishdan qo‘rqish 	<ul style="list-style-type: none"> • (tashqi belgilariga ko‘ra) yaxshi moslashuv va hayotdan mamnunlik • intellektning yetishmasligi ijtimoiy faol muloqotga kirishish yoki bir qadar passivlik ko‘rsatish bilan kompensatsiya qilinadi

Ijodkorlik fenomenini o‘rganayotgan psixologlar uni shaxsning maqbul ijtimoiy sharoitlarda yuzaga chiqadigan sifati shaklida ko‘rishadi. Bu xususiyat har bir odamga xos bo‘lib, u har tomonlama yuksalishni va ochilishni talab qiladi. Innovatsion nazariya esa, kreativlikni pirovard mahsulotning yangiligi mezoniga ko‘ra baholashga e‘tibor qaratishga urg‘u beradi.

Taniqli ijodkorlar, asarlar mualliflarining tadqiqot etuvchilarning ta‘kidlashicha, ijodiy fikr yuritish ikki darajada namoyon bo‘ladi: anglanmagan darajada, bunda emotsional-affektiv holatlar yetakchi rol o‘ynaydi hamda anglangan darajada, bunda birinchi o‘ringa fikrlash va iroda singari ruhiy holatlar chiqadi. Anglanmagan darajada shaxsning ijodkor sifatida qaror topishi evristik dastur ko‘rinishida hozir bo‘ladi, ushbu dastur emotsional ta’sirlar asosidagi aks aloqa mexanizmarini ishga tushiradi. Ijodiy jarayonning dastlabki bosqichida olamni u yoki boshqa rakursda ko‘rish, dalillar va detallarni saralab olish emotsional munosabat bilan belgilanadi. His-tuyg‘ular va emotsional holatlar xulq-atvor tizimini qayta quradi va ayni shu lahzada ular anglanadimi yoki yo‘q, bundan qat’i nazar, e‘tibor yo‘nalishini yaratadi, muayyan tarzda reaksiya ko‘rsatishga intilishni paydo qiladi.[6]

Shaxsda ijodkorlikni qaror toptirish haqida gapirarkanmiz, shaxsning yetakchi tarkibiy tavsifi – yo‘nalganlik haqida eslatmaslik mumkin emas. Aynan yo‘nalganlik shaxsning mohiyati sanaladi, u insonning motivatsion, iste‘mol, qadriyatga oid, oriyentatsion, dunyoqarashi kabi turli sohalari rivojini belgilaydi. “Rassom shaxsining yo‘nalganligi, ruhiy jarayonlarning boshqaruvchisi bo‘lib chiqarkan, uning ongida voqelikka munosabati umumiy tendensiyasiga muayyan tarzda dalillarni qayd etadi. Diqqat, tasavvur, xotira, intuitsiya voqelikka munosabatning umumiy tendensiyasiga bo‘ysundirilgan. Ruhiy jarayonlarning bu taxlit yo‘nalish olganligi olamga nisbatan “nuqtai nazar”ni hamda rassomning qarashlarini yaratadi”. Shu bilan birga qayd etish o‘rinli, “har bir insonning, ayniqsa, rassomning voqelik bilan o‘zaro aloqaga kirishuvi emotsional munosabatdan boshlanadi”. “Bir qadar yorqin har bir shaxs o‘zining ozmi-ko‘pmi yorqin ifodalangan emotsional tarziga va o‘z usuliga, his-tuyg‘ulari asosiy palitrasiga ega, bunda u ko‘pincha olamni idrok etadi”.

Tadqiqotlarning uchinchi yo‘nalishi kreativlikni insonning fazilati sifatida o‘rganish bilan bog‘liq. «Ijodkorlik – motivatsion struktura orqali o‘zgartirilgan intellekt hosilasidir, bu struktura uning xislati yuzaga chiqishini yo tormozlaydi, yoki stimullaydi”. Shaxs ijodkorlik xislatlarini “tadqiq qilish birligi” sifatida intellektual (aqliy qobiliyatlar) va nointellektual (shaxsga doir, birinchi navbatda motivatsion) omillarni o‘zida birlashtirgan intellektual faollikni ko‘zdan kechirish taklif qilinadi.

Ijodkorlik qobiliyatini aniqlangan obyektiv mezonlar asosida, intellektual faollik darajalarini: stimulli-hosilali, evristik va kreativ ko‘rinishda optimal tasniflash taklif etilgan

Ta‘lim vositalari - o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi

Ta‘lim vositalari: 1. Ta‘lim berishning texnik vositalari (TTV); 2. Yordamchi ta‘lim vositalari (YOTV); 3. O‘quv-uslubiy materiallar (O‘UM).

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; ta'lim oluvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.[10]

Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va boshqalar

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Ta'lim oluvchilarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:[9] 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbaiga; 3) ta'lim usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlariga.

Vizual tasvirlar va katta hajmdagi ma'lumotlarning kombinatsiyasi sifatida **infografika** turli xil ta'lim muassasalarida, matn yozish va kasbiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha matnlarni onson anglash va vizuallashtirish orqali ularni yod olishda samarali foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga ta'limda infografikadan foydalanish sintez, analiz, axborot uzatish va ijtimoiy harakatlar kabi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ta'lim oluvchilarning ta'lim samaradorligini oshiradi.[3]

Infografika axborot dizaynining bir qismi sifatida quyidagi imkoniyatlarni namoyon etadi: ma'lumotlarni ko'rsatish; vizual elementlarni yaratish usullarini emas, balki ma'lumotlarning o'zini tushunishni rag'batlantirish; ma'lumotni aslini buzmasdan to'liq taqdim etish; mazmunli va qisqa ma'lumotlar massivlarini aniq ifodalaniishi; ma'lumotlarni taqqoslashni rag'batlantirish; tafsilotlarning bir necha darajalariga ega bo'lish; ma'lum bir maqsadga xizmat qilish (tadqiqot, tahlil, jadval tuzish); kontekstga integratsiya qilish [12]

Ma'lumotlarni optimallashtirish ya'ni ko'p darajali infografik tizim, qiziqarli yo'sinda o'quv materialini taqdim etish imkon beradi. Ma'lumotni taqdim etishning har bir keyingi darajasi avvalgisiga nisbatan optimallashtirib boradi, lekin ayni paytda ma'lum bir murakkablik kasb etib boradi. Ta'limda infografika asl ma'lumotni saqlab qolgan holda vizual material ko'rinishida batafsilroq yoritib berishga yordam beradi.[13]

Infografikalar ta'lim vositasi sifatida qo'llanilganda quyidagi ustuvor aspektlar belgilanadi: **1.** Murakkab tushunchalarni vizual ravishda ifodalash - Infografikalar murakkab mavzular, jarayonlar yoki tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda vizuallashtirish imkonini beradi. Bu ta'lim oluvchilarga mazmunni tezroq va osonroq idrok etishlariga yordam qiladi. **2.** Ma'lumotlarni osonroq eslab qolish - Insonga ko'rish orqali qabul qilinadigan ma'lumotlar eshitish orqali qabul qilinadigan ma'lumotlarga nisbatan yaxshiroq eslab qolinadi. Infografikalar ta'lim oluvchilarning ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi. **3.** Diqqatni markazlashtirish - Infografikalar muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish orqali o'quvchilarning diqqatini asosiy mavzuga qaratishga yordam beradi. **4.** Tahlil va taqqoslash - Infografikalar ma'lumotlarni grafiklar, diagrammalar va boshqa vizual elementlar yordamida tahlil qilish va taqqoslash imkonini beradi. **5.** Xotirada saqlash - Ma'lumotlarning vizual tarzda taqdim etilishi ularni xotirada osonroq saqlashga yordam beradi. **6.** Tasavvurni kengaytirish - Infografikalar turli mavzular, jarayonlar yoki tushunchalar haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.[14]

Infografikalar yaratishda eng keng tarqalgan va mashhur dasturiy ta'minotlar quyidagilar hisoblanadi (2-jadval):

2-Jadval

Ta'lim vositalari ishlab chiqishda qo'llaniladigan keng tarqalgan dasturiy ta'minotlar

t/r	Dasturiy ta'minot	Imkoniyatlari
1	Adobe Illustrator	Adobe Illustrator vektorli grafikani yaratish va tahrirlash uchun juda kuchli va qo'llanilishi keng tarqalgan vositadir. U infografikalar uchun turli xil shakl, grafik va diagrammalar yaratish imkonini beradi.
2	Canva	Canva infografikalar, posterlar, prezentatsiyalar va boshqa ko'rgazmali materiallar yaratish uchun mo'ljallangan onlayn platforma hisoblanadi. U turli xil shablon va dizayn elementlari bilan ta'minlangan.
3	Piktochart	Piktochart ham infografikalar, diagrammalar, jadvallar va boshqa vizual elementlar yaratish uchun mo'ljallangan onlayn vositadir. U foydalanish osonligi va ko'plab shablon-dizaynlari bilan ajralib turadi.
4	Visme:	Visme - infografikalar, prezentatsiyalar, posterlar va boshqa ko'rsatmali materiallar yaratish uchun mo'ljallangan onlayn platforma. U dizayn, animatsiya va interaktivlik imkoniyatlarini taqdim etadi.
5	Infogram	Infogram infografikalar, diagrammalar, jadvallar va boshqa vizual elementlarni yaratish imkonini beradi. Bu vosita oson foydalanish va minimal kod yozish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Bu dasturiy ta'minotlar keng qo'llanilishi va yaxshi natijalar berishi bilan infografikalar yaratishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Infografikalar yaratishda ma'lumotlarni taqdim etish usullari juda muhim ahamiyatga ega. Infografikalar eng samarali bo'lishi uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi [8], [12], [13]: **1. Vizual elementlar:** Grafik,

* GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI *

* Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 *

diagramma, shtrixli va yoziluvchan elementlardan foydalanish. Bu ma'lumotlarni oson va tushunishga qulay qiladi. Tasvirlar, ikonkalar, animatsiyalar kabi vizual elementlar foydalanuvchining e'tiborini jalb qiladi. 2. **Struktura va tartiblilik:** Infografikani mantiqiy va tahliliy tarzda tashkil etish. Axborotni guruhlar va bo'limlar shaklida joylashtirish. Eng muhim ma'lumotlarni alohida ajratib ko'rsatish va ularni tezda topishga imkon berish. 3. **Rangli dizayn:** Muvofiq ranglar va kontrast kombinatsiyalaridan foydalanish. Bu ma'lumotlarni osonroq qabul qilishga yordam beradi. Rang, shrift va boshqa dizayn elementlari orqali asosiy e'tiborni tortish. 4. **Qisqa va aniq matn:** Uzun va murakkab matnlardan qochish. Asosiy fikrlarni qisqa va tushunarli ifoda etish. Infografikada faqat eng muhim va kerakli ma'lumotlarni taqdim etish. 5. **Maqsadga muvofiqlik:** Infografika mavzusi va maqsadiga mos keladigan ma'lumotlarni tanlash. Foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olish va ular uchun foydali bo'lgan ma'lumotlarni yetkazish.

Infografika ta'limda keng qo'llaniladigan mos ravishdir, chunki u o'qitish va o'rganish jarayonlarini vizual ravishda ifodalash imkoniyatini beradi: 1. Ko'rsatuvchi ma'lumotlar: Infografika ma'lumotlarni o'rganishni osonlashtiradi, chunki u vizual formatda, oddiy va to'g'ri bilan yetarli ma'lumotni ko'rsatadi. Bu, o'qituvchilar uchun ham foydali bo'ladi, chunki ularga o'quvchilariga ma'lumotlarni oson va qisqa ko'rsatish imkoniyatiga egallab beradi. 2. Ko'ngillilik: Infografikalar o'qitish jarayonini ko'rsatishning oson va ko'ngil ko'rinishini taklif qiladi. Bu, o'quvchilarga matnni o'qish va tushuntirishning ortiqcha muhim qismini tashkil etadi. 3. O'qitish usullari va tushunchalarini tushuntirish: Infografikalar o'qituvchilar uchun yangi tushunchalar va o'qitish usullarini tanish qilish imkoniyatini beradi. Ular o'qituvchilar uchun innovatsion usullarni o'rganishga, ta'lim jarayonini qiziqarliroq va osonlashtirishga yordam beradi.

Infografika asosan ko'rsatuvchi va tushuntiruvchi bo'lishi kerak, shuning uchun uni ta'limda o'rganish bo'yicha foydalanish juda foydali bo'ladi. Infografika, ma'lumotlarni vizual ravishda ifodalovchi, oddiy va yetarli qisqartirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan usuldur. Ta'lim sohasida infografikadan foydalangan holda, quyidagi yo'lga e'tibor berish mumkin:

	Obyekt A	Obyekt B	Obyekt C
Sifatlar 1	1A	2A	3A
Sifatlar 2	1B	2B	3B
Sifatlar 3	1C	2C	3C
Sifatlar 4	1D	2D	3D

	Obyekt A	Obyekt B	Obyekt C
Umumiy jihat	Rasm 1	Rasm 1	Rasm 1
Farq qiluvchi jihatlar	Rasm 2	Rasm 2	Rasm 2
Ustunlik jihatlari	Rasm 3	Rasm 3	Rasm 3

Jadval-palitrasi. Ushbu jadvaldagi kataklarda raqamlar yoki hatto tasvirlar mavjud emas, faqat rang soyalari mavjud. Bunday jadval mutlaq qiymatlar emas, balki ularning nisbati muhim bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Masalan, haftaning kunlaridagi eng gavjum soatlar yoki yilning eng mashhur tug'ilgan kunlari aniq ko'rsatilgan. Qorong'i soya eng mashhur (band) vaqtga to'g'ri keladi, yengil – eng bo'sh. Ko'pincha bunday jadval issiqlik xaritasi deb ataladi.

	Obyekt A	Obyekt B	Obyekt C
1			
2			
3			
4			
n			

1-30 % 31-65% 66-100%

Xulosa. So'nggi yillarda tadqiqotchilar Infografikani ta'lim oluvchilarni XXI-asrning ijtimoiy harakati va o'zaro ta'siri mexanizmlariga jalb qilish hamda yanada dinamik va interaktiv ta'lim muhitini yaratishdagi muhim rol o'ynashi haqidagi fikrlarni ilgari surmoqdalar. Bunda infografikaning multimodal janr sifatida ahamiyatliligi asoslanib, uning dolzarbligi nafaqat ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim etishda, balki ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va axborot savodxonligini rag'batlantirishda muhimligi aytilmoqda. Bir qator mualliflar infografikani ma'lumotni vizualizatsiya qilish vositasi sifatida e'tirof etib, ta'lim jarayonida o'quv materiallarini chizmalar, diagrammalar va boshqalar yordamida taqdim qilish bilan bir qatorda infografikaning dizayn imkoniyatlari kengligini belgilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев. Б.Г. Человек как предмет познания — СПб.: Питер, 2001 — С. 288.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashr., 2011. – 206 b.

3. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 60 b.
4. Серова Л.К. Психология личности спортсмена: учебнопособие для академического бакалаврианта / Л.К. Серова. – 2-е изд., испр. И доп. – М.: издательство Юрайт, 2019. – 124 с.
5. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Moliya, 2003. – 192 b.
7. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта / Дж.Гилфорд // Психология мышления/под ред.А.М.Матюшкина.-М.: Прогресс, 1965. – 525 с
8. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova va b. – Namangan: “Navro'z”, 2014. – 263 b.
9. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'zieva, M.H. Usmonboeva. – T.: “Fan” nashriyoti, 2012. – 246 b.
10. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: TDPU,
11. Mahmudov A.X. Kompetentlik yondashuvining didaktik asoslari (2012).
12. Tufte, E. R. (1990). *Envisioning Information*. Cheshire: Graphics Press.
13. Walker, Allison Smith, and Georgeanna Sellers. "I See What You Mean: Using Data Visualization to Inspire Action Across Diverse Curricula." *Visual Imagery, Metadata, and Multimodal Literacies Across the Curriculum*, edited by Anita August, IGI Global, 2018, pp. 145-181. <https://doi.org/10.4018/978-1-5225-2808-1.ch009>
14. Jones, J. C. (1992). *Design Methods: Seeds of Human Futures*. Hoboken: John Wiley & Sons Ltd

Muallif:

Raximov Jo'rabek Qadamovich - Nordik xalqaro universiteti, Pedagogika kafedrasida 2-bosqich magistranti.

UDK 373.6: 371.126

**FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS
BASED ON MEDIA EDUCATION TOOLS**

**BO'LAJAK PEDAGOGLAR METODIK TAYYORGARLIGINI MEDIATA'LIM VOSITALARI ASOSIDA
RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ РАЗРАБОТКИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ
ИНСТРУМЕНТОВ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ**

Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: nodirabonu-maxmudova2024@gmail.com

Abstract. The article describes the features of developing methodological training for future teachers based on media education tools. It also mentions the content and essence of the concepts of "media", "media tools", "media activity", "media environment", "media competence", "development of media competence in future specialists". The article presents the results of a study of the role and importance of the media environment, media education tools in the educational process.

Keywords: digital technologies, media, media tools, media activity, media environment, media competence, educational process, education.

Аннотация. В статье описаны особенности разработки методической подготовки будущих педагогов на основе инструментов медиаобразования. Также упоминаются содержание и сущность понятий «медиа», «медиаинструменты», «медиаактивность», «медиасреда», «медиакомпетентность», «развитие медиакомпетентности у будущих специалистов». Представлены результаты исследования роли и значения медиасреды, инструментов медиаобразования в образовательном процессе.

Ключевые слова: цифровые технологии, медиа, медиаинструменты, медиаактивность, медиасреда, медиакомпетентность, образовательный процесс, образование.

Kirish. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarning rivojlanishiga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratishning me'yoriy asoslari ishlab chiqildi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Qo'yilgan vazifalarni bajarish davomida bo'lajak mutaxassisilarning mediamadaniyatini rivojlantirish, ularni kelgusi faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayoniga

virtual ta'lim texnologiyalarini keng tatbiq etish, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning metodik ta'minotini takomillashtirishga keng sharoitlar yaratiladi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llanilishi jarayonida juda ko'plab yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Jumladan, «media», «mediavositalar», «mediafaoliyat», «mediamuhit», «mediakompetentlik», «bo'lajak mutaxassislarda mediakompetentlikni rivojlantirish» kabilarni keltirish mumkin. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

1960-yillarning boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari uchun kommunikatsiya nazariyasi sohasidagi eng obro'li mualliflardan biri M.Makklyuen tomonidan aytilgan “Media mazmundir” iborasi juda dolzarb bo'ldi. Aynan u “media” atamasini muomalaga kiritdi [1]. Bugungi kunda bu atama keng qo'llaniladi, jamoatchilik ongida “media” atamasi “Ommaviy axborot vositalari”, “Ommaviy kommunikatsiya vositalari” va “Ommaviy axborot vositalari” kabi atamalar bilan uzviy bog'liq. Ingliz tilidagi so'zlarning yangi lug'atida “media” [inglizcha massmedia – ommaviy axborot vositalari] xuddi massmedia kabi ma'noga ega. Xuddi shu lug'atda atamaning ikkinchi ma'nosi: “murakkab so'zlarning birinchi tarkibiy qismi bo'lib, ommaviy axborot vositalariga tegishli ekanligini bildiradi, masalan: mediabiznes, mediakompaniya, mediaxolding, mediamagnat, mediaprogramma, mediasoyuz, mediateka, mediaforum».

L.P.Krisinning [2] xorijiy tillardan olingan so'zlarning izohli lug'atida, shuningdek, T.F.Efremova [3] va D.V.Dmitrievlarning [4] yaqinda nashr qilingan izohli lug'atlarida shunga o'xshash yoki yaqin definitsiyalar keltiriladi.

Tadqiqotchi A.V.Fedorovning [5] ta'kidlashicha «media» (media, massmedia) – (ommaviy) kommunikatsiya vositalari – axborotni yaratish, yozib olish, nusxa ko'chirish, adadini ko'paytirish, saqlash, idrok etish va uni sub'ekt (mediamant muallifi) va ob'ekt (ommaviy auditoriya) o'rtasida almashinish vositalaridir. Ushbu ta'rifda “media” va OAV ning bir-biriga funktsional yaqinlashish an'anasi aniq ta'kidlanadi, ular o'zlarida ikkita vazifani birlashtirishni boshlaydilar: texnologik va kommunikativ. A.V.Fedorov [5] o'zining ishlarida turli mamlakatlarda ma'qullangan “media” ta'riflarida, odatda, har xil o'qilmasligiga e'tiborni qaratadi. Ular faqatgina stilistik farq qiladi”.

E.L.Vartanova [6] “media – guruhlar, individuumlar orasida kommunikatsiyaning va (yoki) auditoriyaning har qanday mazmunli mahsulotini etkazib berishni amalga oshirish vositalaridir” – deb ta'kidlaydi. U “media ko'p sonli va ommaviy axborot vositalarini (gazetalar, jurnallar, kitoblar, televidenie, kabel tarmoqlari, radio, kinematograf), alohida axborot va ma'lumot tashuvchilar (xatlar, audio va videoyozuvlar, kompakt-disklar), shuningdek, jamiyatning kommunikatsion tizimlari (telegraf, telefon, pochta, kompyuter tarmoqlari)ni o'z ichiga oladi, deb hisoblaydi”.

O.V.Orlova [7] o'z tadqiqotida shunday yozadi: “Nisbatan yaqin vaqtlardan boshlab (uzog'i bilan yaqin o'n yil, ayniqsa, oxirgi yillarda jadallik oshirildi) “media” komponenti ilmiy jamiyatda tez-tez uchrab turadigan va to'liq kodlashtirilgan, turli fanlarning atamashunoslik tizimlarida turlicha talqin qilinadigan bo'lib qoldi. IT-axborot texnologiyalar sohasidagi va undan kengroq mutaxassis – fizika-matematika va texnika sohalarining vakili - uchun “media” kontsepti gumanitardan farqli o'laroq, biroq boshqacharoq mazmunga ega bo'ladi. Tadqiqotchi “media” ta'rifiga ijtimoiy dialogli va polilogli interaktsiyalar quroli sifatida qaraydi”.

E.N.Ejova [8] o'tkazgan tahlil shuni ko'rsatadiki, «ommaviy axborot vositalari tilida hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarining muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda hozirgi kunda «media» so'zi mustaqil verbal-kognitiv birlikka hamda maksimal tez-tez qo'llaniladigan va kontseptual jihatidan keng qamrovli atamaga va shu bilan so'z hosil qiluvchi jarayonlarga faol kirib bordi: mass-media, mediaxolding, mediakratiya, mediamuhit, mediarejalashtirish, mediahukumat, mediata'sir, mediapsixologiya, mediaeffekt, mediavoqelik, mediamatn, mediamarketing va b» .

M.Makklyuen [1] tomonidan turli xil kommunikatsiya vositalarini definitsiya qilish uchun tarqatilgan “media” atamasi endi oddiy “fazo” ni bildirmaydi. M.Makklyuen “media”ga ommaviy axborot vositasi sifatida emas, balki “madaniyat kodlari ishlab chiqariladigan, estetikalashtiriladigan va uzatiladigan ko'p funktsiyali muhit” sifatida o'ziga xos ta'rif beradi. M.Makklyuen [1] xatlarni, yo'llarni, sonlarni, kiyim-kechakni, elektr yorug'ligini, shaharni, pulni, soatlarni, nashrni, reklamani, avtomatik qurilmalarni, qurolni, fotografiyalarni, o'yinlarni, matbuotni, telegrafni, yozuv mashinkasini, televideniye va boshqa ko'plab narsalarni mediaga kiritadi. Bu barcha bir-biri bilan qo'shilmaydigan tushunchalarni “insonning atrof olam bilan kommunikatsiyasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritadigan, uning idrok etish usulini va turmush tarzini qayta tashkil qiladigan vositachilar” ekanligi birlashtiradi. M.Makklyuen “media” o'ziga xos “insonning tashqi kengaymalari, uning tanasining, sezgi organlarining va qobiliyatlarining texnik davomi” deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi I.V.Jilavskayaning [9] nuqtai nazariga ko'ra “media” so'zi ma'noli qo'shimchasiga ega bo'lgan ko'p sonli yangi hosil bo'lgan so'zlar ko'pincha ichki o'zaro qarama-qarshi lingvistik, ba'zan hech qanday ma'noga ega bo'lmagan mashqlarni ifodalaydi, deb hisoblaydi. Adekvat til shaklini izlab topishning qiyinligining sabablari avval mavjud bo'lgan axborot muhitidan tamoyilan farq qiladigan mediamuhitni tadqiq qiluvchilarning oldiga qo'yilgan vazifalarning yangiligi va tuturiqsizligidadir. U «medium» atamasi o'rta asrlarda “ma'jusiylar ruhoniysi”, “jodugar”, “shaman” kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lganligini, bugun esa turli Evropa mamlakatlarida “vosita”, “vositachi”,

“ta’sir o’tkazishga oson beriladigan” degan ma’noni bildiradi. Shuningdek bizga “media”ning I.V.Jilavskaya [9] taklif qilgan ta’rif ko’proq yoqadi. U «media» – bu hayotning barcha sohalariga kirib boradigan, jamiyatni ko’rinadigan va ko’rinmaydigan iplar bilan mustahkamlaydigan hamda individ uchun aynan uning uchun qulay bo’lgan axborot faozining konfiguratsiyasini yaratadigan yashash muhitidir” deb ta’kidlaydi.

Bizning nazarimizda, bu fikrlar mediaaxborot kontenti sohasidagi egasi nimani yoqtirishiga qarab ko’rsatuv va reklamani tanlaydigan “aqlli” televizorlarni, shuningdek so’nggi tipdagi brauzerlarni yaratishga yo’naltirilgan, ehtiyojlarga va kontent reklamalarga javoblarni taklif qiluvchi oxirgi ishlanmalar bilan ham qo’llab-quvvatlanadi.

“Media” mediamuhit deb ataluvchi majmuaviy va ko’pqirrali tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tushunchaga tadqiqotchi N.B.Kirillova [10] mediamuhitga mediamadaniyat amal qiladigan sharoitlar yig’indisi, ya’ni insonni ommaviy kommunikatsiyalar vositasi vositachiligi orqali atrof olam bilan bog’laydigan, ma’lumot beradigan, ko’ngilochar, u yoki bu ahloqiy-etnik qadriyatlarini targ’ib qiladigan, insonlarning fikriga va xulqiga mafkuraviy, iqtisodiy va tashkiliy ta’sir ko’rsatadigan, ya’ni shaxsni ijtimoiylashtirishga ta’sir qiladigan soha” deb ta’rif beradi. Muallif mediamuhit bir jinsli emas va uchta tashkil etuvchidan iborat deb hisoblaydi: global mediamuhit, umumiy va regional mediamuhit.

Tadqiqotchi A.M.Kuzmin [11] mediamuhit – bu “ommaviy kommunikatsiyalar va ommaviy axborot vositasi yordamida axborot jamiyati madaniyati shakllanadigan, tarqatiladigan va qayta ishlab chiqariladigan (yoki aks ettiriladigan) fazo” deb hisoblaydi.

Xulosa sifatida “mediamuhit” tushunchasi - bu mediavositalar yordamida amal qiluvchi, axborot fazosining har bir konkret individuum va umuman jamiyat uchun mos variantini yaratuvchi, hamda zamonaviy axborot jamiyatining asosiy madaniyati hisoblanadigan madaniy muhit.

Yuqoridagilardan kelib chiqib mediamuhitning quyidagi o’ziga xos xususiyatlarini keltiramiz:

1. Qayd qilinganlik. mediaaxborot har doim ma’lum raqamli tashuvchilarda qayd qilingan bo’ladi.
2. Geografik jihatdan borish mumkin. Media geografik masofalarning ahamiyatini silliqilaydi (niveliruyut).
3. Keng qamrovli. Kommunikatsiyalarning sonini va hajmini sezilarli darajada oshirish, shuningdek mavjud ijtimoiy cheklanishlarni olib tashlash imkonini beradi.
4. Tezlik. Kommunikatsiyalarning tezligini sezilarli darajada oshiradi.
5. Agressivlik. Keraksiz, ortiqcha, to’qib chiqarilgan ma’lumotlar, axborot fantomlarining, “trollarning”, reklamalarning ko’pligi bilan hujum qilinadigan va h.k.
6. Boshqariluvchanlik. Ma’lumotlar ko’pligidan tuyuladigan xaosga (tartibsizliklarga) qaramasdan media ma’lum odamlar tomonidan oson va samarali boshqariladi, bu odamlar shu muhit yordamida qo’yilgan maqsadlarga erishadilar.
7. Interfaollik. Mediamuhitga tizimni tashkil qilish tamoyili xos, bunda qo’yilgan maqsadga shu tizimning elementlari bilan axborot almashinuvi amalga oshiriladi.

Bizning nazarimizda, mediamuhit bir-birini to’ldiradigan ikkita qismni o’z ichiga oladi: mediamuhit va mediafaoliyat. Lug’atda “mediamuhit” atamasining ma’nosini tavsiflashda mediamuhitni – reklama murojaatini oluvchiga yetkazish usullaridan biri, deb hisoblaydi. Bu har qanday ommaviy axborot vositasi, reklama shitlari, o’ramlar va hokazolar bo’lishi mumkin.

“Mediafaoliyat” tushunchasi manbalarda [5] “mediafaoliyat” – bu “media faollik, media agentliklar va individumlarning turli ko’rinishdagi va janrdagi mediamatnlarni idrok etish, baholash, yaratish va tarqatishga munosabati bo’yicha faoliyat deb keltirib o’tadi”.

I.A.Fateeva [12] “mediafaoliyat” deganda “sub’ektning mediamatnlarni, ya’ni massmedia orqali tarqatishga mo’ljallangan matnlarni ishlab chiqarishga va adekvat idrok etishga yo’naltirilgan har qanday faolligini tushunadi”.

I.V. Jilavskaya [9] mediafaoliyat – bu mediakontentni yaratish bo’yicha qator funktsiyalarning bajarilishi yoki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli natija olish maqsadida faoliyatning har xil turlari uchun mediayo’llanma ta’minoti deb hisoblaydi.

Demak, mediafaoliyat – mediamuhitda mediavositalar yordamida axborotni izlash, olish, foydalanish, ijodiy qayta ishlab chiqish, uzatish, saqlash, shuningdek ishlab chiqarish va tarqatishdan iborat faoliyat turi.

Yuqoridagilarga asosan, pedagoglarning mediakompetentligi axborot muhitida ta’lim berishi zarur bo’lgan, pedagogning samarali faoliyatini ta’minlaydigan, tanqidiy fikrlash, qabul qilish, o’zlashtirish, ijodiy qayta ishlash, uzatish, saqlash, sifatli ta’lim berish va taqsimlashdan iborat axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog’liq bo’lgan professional ko’nikmalariga oid kompetensiyasi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, bo’lajak pedagoglarning mediakompetentligini ikki qismga ajratish mumkin. Bu axborot kompetentlik va kommunikativ kompetentlik. Bunday holda, axborot kompetentlik asosiy va belgilovchi xususiyatga ega bo’ladi.

Bo’lajak pedagoglarning mediakompetentligining o’ziga xos xususiyatlari mavjud bo’lib, quyidagilarda ko’rinadi:

- 1) moddiy bo’lmagan mahsulotni yaratishga imkon beradi (boshqacha aytganda, pedagogik faoliyatining samaradorligini oshiruvchi samarali ta’lim jarayoniga hissa qo’shadi);

- 2) ijodiy xarakterga ega va shuning uchun amalga oshirishda o'zgar olmaydi;
- 3) mediamuhit jarayonida maqsadli faoliyat yuritadi;
- 4) amalda foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud;
- 5) multidistsiplinar xususiyatga ega;
- 6) qo'shimcha professional kompetenttsiyalarni rivojlantirishni ta'minlaydi;
- 7) texnik axborot va kommunikatsiya texnologiya vositalarining o'zlashtirilganligiga asoslanadi;
- 8) shaxsning kommunikativ qobiliyatiga tayanadi;
- 9) ma'lumotlarni va bilimlarni tezda o'zlashtirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi;
- 10) individual faoliyat turlari bo'yicha tuzilishi mumkin;
- 11) doimiy o'zini-o'zi rivojlantirishni talab qiladi.

Xulosa. Mediakompetentlik bo'lajak pedagoglarining o'zini-o'zi yangilab borish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim jarayoni sub'ektlarining maqsadli faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi xulosaga kelish mumkin: bo'lajak pedagoglarining mediamadaniyatini rivojlantirish - ijobiy miqdor va sifat o'zgarishlarini bosqichma-bosqich kompleks tarzda to'plash va oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida bo'lajak pedagoglarini maqsadli tayyorlab borishni boshqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макклюэн, М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Жуковский: «КАНОН-пресс-Ц», 2003. – 464 с.
2. Крысин, Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2008. – 944 с.
3. Ефремова, Т.Ф. Новый толково-словообразовательный словарь русского языка. – М.: Дрофа, 2000. – С. 1233.
4. Дмитриев, Д.В. Толковый словарь русского языка. – М.: Издательство: Астрель, 2003. – 1578 с.
5. Федоров, А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов: изд-во ЦВВР, 2001. – 708 с.
6. Вартанова, Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 336 с.
7. Орлова, О.В. Дискурсивно-стилистическая эволюция медиаконцепта: жизненный цикл и миромоделирующий потенциал: дис. ... д-ра фил. наук: 10.02.01. – Томск, 2009. – 425с.
8. Ежова, Е.Н. Медиа-рекламная картина мира: структура, семиотика, каналы трансляции: дис.... д-ра фил. наук: 10.01.10 – Ставрополь, 2010. – с. 180.
9. Жилавская, И.В. Медиаповедение личности: учебное пособие. – М.: РИЦ МГГУ им. Шолохова, 2012. – 91 с.
10. Кириллова, Н.Б. Медиасреда российской модернизации. – М.: Академический Проект, 2005. – 400 с.
11. Кузьмин, А.М. Категория «медиасреда» и ее содержание на современном этапе развития общества // Медиаскоп – эл. науч. журнал фак. журналистики МГУ Россия. – 2011. – № 1.
12. Фатеева, И.А. Медиаобразование: теоретические основы и практика реализации: монография. – Челябинск: Челяб. гос. ун-т, 2007. – С.270.

Muallif:

Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.800.2

HISTORY AND CURRENT IMPORTANCE OF VR, AR TECHNOLOGIES

VR, AR TEXNOLOGIYALAR TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ VR, AR

Nurmuhamedova Feruzaxonim Ahmadjon qizi

Guliston davlat universiteti, 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: nurlihayot@gmail.com

Annotation. The first attempts to create devices that replicate movements and exchange information with each other began in the early 20th century. The development of this work was the initial impetus for the development of the VR (virtual reality) and AR (augmented reality) industries. This industry has not been around for long, but VR and AR devices, software and content have gone through a significant evolutionary path and have already experienced several growth spurts. This article discusses the evolution of VR and AR concepts and technologies, as well as current market trends.

Keywords: New technologies, VR, AR, digital factory, industrial revolution, innovation, virtual games.

Аннотация. Первые попытки создания устройств, воспроизводящих движения и обменивающихся информацией друг с другом, начались в начале 20 века. Развитие этой работы стало первоначальным толчком для развития индустрий VR (виртуальной реальности) и AR (дополненной реальности). Эта индустрия существует не так давно, но устройства VR и AR, программное обеспечение и контент прошли значительный эволюционный

путь и уже испытали несколько скачков роста. В этой статье рассматривается эволюция концепций и технологий VR и AR, а также текущие тенденции рынка.

Ключевые слова: Новые технологии, VR, AR, цифровая фабрика, промышленная революция, инновации, виртуальные игры.

Кирish. VR va AR texnologiyalarini nafaqat o'yin-kulgi va o'yinlarda qo'llash mumkin. Balki ko'pgina ekspertlarning fikricha, VR va AR texnologiyasi Big Data, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va boshqalar bilan bir qatorda sanoat inqilobining asosiy texnologiyalariga aylanadi. VR va AR ham keying davrda yirik hisoblash platformasi bo'lish potentsialiga ega. Bugungi kunda VR va AR texnologiyalari nafaqat kontseptual jihatdan yangi bozorlarni yaratishga, balki mavjudlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra AR va VR texnologiyalarini ommaviy tarqatish yo'lidagi asosiy to'siqlar quyidagilar hisoblanmoqda: AR/VR yechimlarini joriy etish va ishlatish uchun yuqori xarajatlar; yuqori sifatli tarkibning yo'qligi va nomukammal qurilmalar mavjudligi.

Empirik tadqiqotlar asosida VR va AR texnologiyalaridan foydalanish afzalliklarining ancha keng ro'yhati tuzildi: o'qitish va yo'naltirish jarayonlari samaradorligini oshirish, yordamchi xodimlarni tayyorlash; maxsus tayyorgarlik (tibbiy operatsiyalar va invaziv muolajalar, evakuatsiya, xavfsizlik, turli favqulodda vaziyatlarda qutqarish) vaqtida xodimlar va boshqa odamlarning hayoti va sog'lig'iga potentsial xavflarni kamaytirish va tegishli kompensatsiyalarni optimallashtirish; xatolar sonini kamaytirish va maxsus jihozlarni yig'ish, ta'mirlash va ishlatish jarayonlarini tezlashtirish, ma'lumotni, kerakli detallarni, mahsulotning ombordagi joylashuvini izlash; nosozliklarni erta aniqlash hisobiga avariya darajasini, shuningdek, qidiruv ishlariga sarflanadigan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish; ob'ektlarni loyihalash va prototiplash sur'atlarini tezlashtirish, jismoniy modellashtirish jarayonining narxini va davomiyligini sezilarli darajada qisqartirish; mijozlar tajribasini, mahsulot va savdo maydonchalari dizaynini takomillashtirish, bu esa sotish hajmining mos ravishda oshishiga olib keladi; aloqani takomillashtirish (soddalashtirish) va uning samaradorligini oshirish. VR va AR haqidagi munozaralar tez-tez o'tkaziladi. Ikkala texnologiya ham ommaviy axborot vositalarida yoritiladi, ular tadqiqot ob'ektiga aylanadi va ular haqida kitoblar, filmlar yaratildi.

Bu texnologiyalarining jadal rivojlanishiga so'nggi 10 yil ichida mobil qurilmalar bozori sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu texnologiyalar yordamida mobil qurilmalar tanib bo'lmas darajada o'zgardi: kuchli videokameralar, joylashishni aniqlash datchiklari va giroskoplar bilan jihozlangan sensorli ekranli smartfonlar va to'liq jihozlangan operatsion tizimga ega planshetlar tugmali qurilmalar o'rni egalladi [1].

"Virtual haqiqat" atamasi 1980-yillarning o'rtalarida mashhur bo'ldi. Virtual reallik texnologiyalarini tijorat sohasida qo'llash targ'iboti amerikalik olim Jaron Lanier tomonidan ilgari surilgan. Asosan ma'lumotlarni vizualizatsiya qilingan, biometrik texnologiyalar sohasida qo'llagan va ommalashtirilgan.

Bugungi kunda VR va AR texnologiyalari nafaqat kontseptual jihatdan yangi bozorlarni yaratishga, balki mavjudlarini kengaytirishga ham hissa qo'shadigan texnologik imkoniyatlar manbaiga aylandi. O'yin-kulgidan tashqari, bu texnologiyalar muhandislar, arxitektorlar, dizaynerlar, rieltorlar va riteylerlar uchun dasturiy mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va qayta tayyorlash uchun keng qo'llaniladi. VR va AR texnologiyalari ta'lim va tibbiyotda qo'llaniladi; ular asosida o'quv dasturlari va simulyatorlar ishlab chiqiladi; tibbiy asboblarni yordamida tibbiy operatsiyalarni sintez qiladi va amalga oshiradi. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, bu texnologiyalarining biznesga ta'siri dolzarb masala.

Aralash (gibrid) voqelik modeli yoki "haqiqat-virtuallik (VR) uzluksizligi" ni birinchi marta 1994 yilda P. Milgram, F. Kishinovlar tasvirlagan. Aralash voqelik - real va virtual olam ob'ektlari real vaqtida, virtual uzluksizlik doirasida birga mavjud bo'lgan va o'zaro ta'sir qiladigan tizim sifatida aniqlanadi. Ushbu modeldagi oraliq havolalar VR va ARdir.

Model mualliflari uning asosiy elementlarini aniqladilar: To'liq haqiqat - bizni o'rab turgan tanish dunyo. VR (Virtual haqiqat) – zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida to'liq yaratilgan raqamli dunyo. AR (To'ldirilgan reallik) – "to'ldirilgan" real dunyo virtual elementlar va sensorli ma'lumotlar bilan. Kengaytirilgan virtuallik – real dunyoning jismoniy elementlari bilan "to'ldirilgan" virtual dunyo. Ushbu tadqiqot, birinchi navbatda, kengaytirilgan haqiqat va virtual haqiqatga qaratilgan. Ularning orasidagi tub farq shundaki, VR foydalanuvchining real dunyoga kirishini cheklab, butunlay raqamli dunyoni quradi, AR esa faqat raqamli dunyoning elementlarini realga qo'shib, foydalanuvchi makonini o'zgartiradi. VRda muhit virtual haqiqat shlemlari yoki boshqa texnik vositalar yordamida foydalanuvchi tomonidan ko'rinadigan narsalarni dinamik ravishda yangilaydigan uning idrokiga murakkab ta'sir qilish orqali yaratiladi. Inson miyasida virtual elementlari va haqiqiy dunyoning elementlari neyronlari reaksiyaga kirishadi. Shu sababli, inson virtual muhitni idrok etadi va virtual olam ichida sodir bo'layotgan voqealarga xuddi real dunyoda sodir bo'lgandek munosabatda bo'ladi.

Asosiy qism. "Virtual haqiqat" atamasi 1980-yillarning o'rtalarida mashhur bo'ldi. Virtual reallik texnologiyalarini tijorat sohasida qo'llash targ'iboti amerikalik olim Jaron Lanier tomonidan ilgari surilgan. Asosan ma'lumotlarni vizualizatsiya qilingan, biometrik texnologiyalar sohasida qo'llagan va ommalashtirilgan. Ushbu texnologiyalar 20-asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Biroq, ba'zi ekspertlarning fikricha, VRning ayrim elementlari olimlar va faylasuflar tomonidan bundan ancha oldin tasvirlangan.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Bizning fikrimizcha, real dunyo sharoitlarini sun'iy ravishda qayta tiklaydigan va shu bilan birga inson idrokiga kompleks ta'sir ko'rsatadigan birinchi qadam deb hisoblash mumkin. 1929 yilda Link Trainer parvoz simulyatori patentlangan. Vizual tasvir sifatida harakatlanuvchi rasm ishlatib navigatsiya tutqichlari harakatni, aylanishni, tushishni va o'zgarishini uzatdi. Shuning uchun virtual harakat hissi yaratildi.

Foydalanuvchiga eng real tuyg'ularni berish, uni sun'iy ravishda yaratilgan hissiyotlar olamiga singdirish qobiliyati faqat inson idrokiga murakkab ta'sir ko'rsatish bilan mumkin. Ushbu effektlar 1950-yillarda kino sanoati rivojlanishi uchun zarur deb hisoblangan [2]. An'anaviy kino ekranlarini tomosha qilish uchun odamga ko'rish maydonining atigi 5% kerak bo'ladi. Umuman olganda, inson idrokining 70% (yana 20% - eshitish, 5% - hid, 4% - teginish va 1% - ta'm) ko'rish komponentiga bog'liq. To'liq vizual suvga cho'mish effektini yaratish uchun ko'rish maydonining butun 100% dan foydalanish va shu bilan birga tasvirning aniqligini saqlash kerak. Shunga ko'ra, mutlaq immersivlikni yaratish uchun idrokning boshqa tarkibiy qismlariga nisbatan xuddi shunday ta'sirga erishish kerak.


1957 yilda Pensilvaniya universitetining Annenberg maktabi negizida Morton Xeylig dunyodagi birinchi virtual "Sensorama" simulyatorini yaratdi, u gumbazli o'yin mashinasiga o'xshaydi va bir foydalanuvchi uchun o'ziga xos 4D kinoteatri edi.



1-rasm. Morton Xeylig dunyodagi birinchi virtual "Sensorama" simulyatori.

Qurilmaga patent 1962 yilda olingan. Foydalanuvchi Bruklin ko'chalari bo'ylab virtual mototsiklda sayr qilishi mumkin edi. Mavjudlik effektiga bir vaqtning o'zida barcha asosiy his-tuyg'ularga ta'sir qilish orqali erishildi: ekranda uchta kinokamera tomonidan bir vaqtning o'zida suratga olingan kino ko'rsatildi: o'rindiqli tebrandi, shamol effekti yaratildi, stereo dinamiklar orqali ovozlari uzatildi, gavjum ko'cha tovushlari, mos keladigan hidlar xonaga kirdi. Muxlislar o'zlarini xuddi ko'chada sayr qilgandek his qilishdi.

1967 yilda Ivan Sutherland birinchi virtual reallik qurilmasi "Damocles Sword" (tarj: Damokl qilichi) ni yaratdi. Boshqa o'rnatilgan displey kompyuterda yaratilgan tasvirlarni ekranga uzatadi. Bundan tashqari, qurilma yaratilgan tasvirlarni boshning harakatlariga mos ravishda o'zgartirishga imkon berdi. Ixtirochi VR qurilmani "matematik mo'jizalar olamining ko'zgusi" ekanligini ta'kidladi [3]. Kompyuterga ulangan "ideal" displey (taqiladigan qurilma) haqiqiy dunyoda amalga oshirilmaydigan g'oyalarni tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyaning rivojlanish chegarasi uning yordamida kompyuter materiyani mavjudligini nazorat qila oladigan qurilma bo'ladi.



2-rasm. Damocles Sword.

Heilig va Sutherland ixtirolari tijorat muvaffaqiyatiga erisha olmadi, ammo keyingi ishlanmalar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ularning g'oyalari Endryu Lippmanni ilhomlantirdi, u 1978 yilda MITdagi hamkasblari va uning jamoasi bilan birgalikda Aspenning (Kolorado) birinchi interaktiv xaritasini yaratdi. Bu avtomobilda shahar bo'ylab virtual sayohat qilish imkonini berdi.

1972 yilda Myron Kruger kompyuterda yaratilgan tasvirga ob'ektning (shaxsning) video tasvirini qo'shish tizimi va shu tomonidan ishlab chiqilgan boshqa vositalardan foydalanish orqali erishish mumkin bo'lgan natijalarni aniqlash uchun "sun'iy haqiqat (AR)" atamasini kiritdi.

1980-yillarda VR texnologiyalari NASAning bir qator loyihalarida, masalan, VR Ko'zaynaklarini yaratishda qo'llanilgan. VPL Research Company virtual reallik uchun EyePhone ko'zaynaklari va bosh va tana harakatlarini tahlil

qilish va ularni boshqariladigan kompyuter simulyatsiyasi doirasida uzatish qobiliyatiga ega sensorli DataSuit kostyumini yaratdi.



3-rasm. EyePhone ko'zoynaklari va DataSuit kostyumi.

1990-yillarda virtual haqiqat texnologiyalari o'yin sanoatida qo'llanila boshlandi. 1993 yilda Sega korporatsiyasi Genesis konsolini - virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalangan holda o'yin platformasini ishlab chiqdi. Afsuski, grafik va aparat komponentlarining nomukammalligi

foydalanuvchilarda nojo'ya ta'sirlar sifatida ko'ngil aynishi va bosh aylanishiga olib keldi. Shu sababli konsol hech qachon sotuvga chiqmagan. Ularning yuqori narxi virtual haqiqat texnologiyalaridan vaqtincha voz kechishga olib keldi.

To'ldirilgan haqiqatni (Total reality) amalga oshirishga birinchi urinishlar 20-asrning boshlarida qilingan. "To'ldirilgan reallik" atamasi birinchi marta 1992 yilda Tom Kaudell tomonidan samolyotlarni yasashda foydalanilgan raqamli displeylarni tavsiflash uchun taklif qilingan. Yig'uvchilar portativ kompyuterlarni olib yurishgan va shaffof displey panellari bo'lgan ko'zoynak uskunasi yordamida chizmalar va ko'rsatmalarni ko'rishlari mumkin edi [4].

1992 yilda Lyuis Rozenberg USAF(AQSH havo kuchlari) uchun birinchi ishlaydigan kengaytirilgan haqiqat tizimlaridan birini ishlab chiqdi. Rosenbergning ekzoskeleti harbiylarga masofadan boshqarish markazidan mashinalarni deyarli boshqarish imkonini berdi. 2000-yillarning boshlarida kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalarini ishlab chiquvchilar ko'ngilochar industriyaga murojaat qilishdi. 2000 yilda kengaytirilgan reallik texnologiyalari tufayli "Quake" video o'yinida haqiqiy ko'chalar bo'ylab yirtqich hayvonlarni quvish mumkin bo'ldi. Buning uchun sensorlar va kameralar bilan virtual ko'zoynaklar kerak edi, bu o'yin mashhurlikka erishmadi, ammo bu taniqli PokemonGo paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

2010-yillarda kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari iste'molchi auditoriyasi tomon yana bir qadam tashladi. 2012-yilning 1-avgustida unchalik taniqli bo'lmagan Oculus startapi Kickstarter kampaniyasini platformasida VR ko'zoynak ishlab chiqarish uchun mablag' yig'ishni boshladi. Ishlab chiquvchilar har bir ko'z uchun 640 dan 800 pikselgacha bo'lgan displeylardan foydalangan holda foydalanuvchilarga "to'liq immersion effekti"ni va'da qilishdi. 2014 yilda Google korporatsiyasi GoogleGlass - ko'zoynak ramkasiga integratsiyalangan mini-kompyuterni sinovdan o'tkazishni boshladi. 2016-yilda Microsoft korporatsiyasi HoloLens – to'ldirilgan reallik bilan ishlash uchun aqlli ko'zoynaklarni taqdim etdi.



4-rasm. GoogleGlass - ko'zoynak.

Ushbu startaplar kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari sohasidagi ishlarni faol davom ettirishga xizmat qildi. Shunday qilib, ushbu texnologiyalarning rivojlanish tarixini tahlil qilgandan so'ng, ularning umumiy jihatlari juda ko'p ekanligini ta'kidlash mumkin. To'ldirilgan reallik real va virtual olamni o'zida mujassamlashtiradi, real dunyoni to'ldiradi va uning idrokini kengaytiradi. Virtual haqiqat, albatta, butunlay virtualdir.

Virtual haqiqat qurilmalari. VR qalpoqlar va ko'zoynaklar (boshga o'rnatilgan displey). VR qalpoqlarda foydalanuvchi ko'zlari oldida tashqi yorug'likdan himoya qiluvchi ikkita displey, stereo naushniklar, o'rnatilgan akselerometrlar va joylashuv sensorlari mavjud [4]. Rivojlangan VR qalpoqlarning aksariyati juda og'ir, lekin odatda

virtual haqiqat ilovalari bo'lgan smartfonlar uchun mo'ljallangan ba'zi soddalashtirilgan yorug'lik variantlari (shu jumladan kartondan tayyorlanganlar) mavjud. VR qalpoqlari uch turga bo'linadi:

Kompyuterga (HTCVive, OculusRift) yoki konsollarga (Playstation VR) ulangan ish stoli dubulg'alari yuqori quvvatli uskunani talab qiladi.



5-rasm. HTC Vive, Oculus Rift.


Smartfonlar bilan birgalikda ishlaydigan arzon mobil naushniklar kompyuterga qaraganda kamroq talabchan va noqulay; ular linzali smartfon uchun ushlagichdir (Samsung Gear VR, Google Cardboard, YesVR);



6-rasm. Google Cardboard.

avtonom virtual reallik ko'zoynaklari - maxsus yoki moslashtirilgan operatsion tizimlar bilan ishlaydigan mustaqil qurilmalar, tasvirni qayta ishlash to'g'ridan-to'g'ri VR qalpoqlarning o'zida amalga oshiriladi: OculusGo, HTC Vive Focus, SulonQ, DeePoon, AuraVisor.

Hozircha sotuvga chiqarilmagan Virtual haqiqat xonalari (Cave Automatic Virtual Environment). Tasvirlar to'g'ridan-to'g'ri xonaning devorlariga uzatiladi, ko'pincha bu Motion Parallax 3D displeylari (ularning yordami bilan foydalanuvchi uch o'lchamli ob'ekt xayoliga ega bo'ladi, chunki ekranda yaratilgan virtual ob'ektning maxsus proyeksiyasi ko'rsatiladi).



7-rasm. Virtual haqiqat xonalari (Cave Automatic Virtual Environment).

Ba'zan 3D ko'zoynaklar yoki hatto shlemlar bunday xonalarda to'liq suvga cho'mish effektini yaratish uchun ishlatiladi. Ba'zi ekspertlarning fikriga ko'ra, virtual haqiqatning bunday turi yanada mukammaldir, chunki displeylar virtual elementlarni yuqori aniqlikda ko'rsatishga imkon beradi, katta hajmli qurilmalarni kiyish va simlarga chigallashning hojati qolmaydi. Bu narsa o'z-o'zidan identifikatsiya qilishni soddalashtiradi, chunki foydalanuvchi doimo o'zini ko'radi.

Yordamchi minigarnaturalar. Axborot qo'lqoplari va joysticklar foydalanuvchining kosmosdagi o'rnini, shuningdek uning harakatlarini yaxshiroq aniqlashga yordam beradi.

Boshqa qurilmalar. Ular turli xil oyoq platformalarini (3DRudder) va yugurish yo'laklarini (VirtuixOmni) o'z ichiga oladi.

Foydalanuvchi oyoqlari harakatini boshqarish qobiliyatiga ega va yugurish yo'laklarida u hatto haqiqiy dunyoda to'siqlarga duch kelishdan qo'rqmasdan kosmosda harakatlana oladi. O'rnatilgan sensorlar va kameralarga ega ixcham qurilmalar foydalanuvchi atrofidagi muhitni tahlil qilish, undagi yo'nalish xaritasini shakllantirish imkonini beradi. Aksariyat ko'zoynaklar ovoz va harakatni aniqlash funksiyasi bilan jihozlangan, ularni qo'ldan foydalanmasdan boshqarish mumkin. Tasvirlar ko'zoynak yoki maxsus mini-displeylarning linzalarida proyeksiyalanadi, kontent yaratish uchun qo'shimcha teglar kerak emas. Ko'zoynak va VR qalpoqlarning binokulyar (Hololens, DAQRISmartGlasses, Meta 2) va monokulyar (GoogleGlass, Vuzix M3000) modellari mavjud.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Mobil qurilmalar. Deyarli har qanday zamonaviy smartfon yoki planshet kengaytirilgan haqiqat qurilmasiga aylanishi mumkin, buning uchun faqat tegishli dasturni o'rnatish kerak. Ob'ektni tanib olish uchun markerlar sifatida marker texnologiyasi, QR kodlari, yaratilgan so'nggi nuqtalar, logotiplar, kompyuterni ko'rish va yuzni tanishdan foydalaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari bozori endigina rivojlana boshlaydi va texnologiyalarni qo'llash ko'ngilochar va o'yinlar sohasi bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda ulardan foydalanish loyihalari nafaqat kontseptual jihatdan yangi bozorlarni yaratishga, balki mavjudlarini kengaytirishga ham yordam beradi.

Ba'zi prognozlarga ko'ra, VR texnologiyasi taxminan 2-5 yil ichida, AR texnologiyasi esa 5-10 yil ichida joriy etiladi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kompaniyalarda tobora ommalashib bormoqda. Yaqin kelajakda kengaytirilgan va virtual haqiqatlar o'rnatilgan biznes jarayonlari va vazifalariga tubdan yangi tajribalarni keltirib chiqaradigan o'zgarishlarni olib keladi [5][6].

1-jadval

Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish [KaiserR., Schatsky D., 2017]

Nima?	Qayerda?	Potentsial natijalar
<i>Boshqaruv va o'zaro ta'sir</i>		
Ishchilarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va yig'ish vazifalarini bajarishda yordam beradigan vizual belgilakrommunal xo'jalik, texnik va amaliy fanlar	Aerokosmik sanoat, harbiy sanoat majmuasi, avtomobilsozlik, qurilish, sog'liqni saqlash, neft va gaz sanoati, energetika va	Hosildorlikni oshirish, ish jarayonini soddalashtirish, xavfni kamaytirish, masofadan o'zaro ta'sir qilish
<i>Immersiv o'rganish</i>		
Oddiy sharoitlarda xodimlar uchun yuqori xavf yoki yuqori xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan o'qitish uchun real muhitni yaratish; psixologik reabilitatsiya maqsadida muayyan sharoit va hodisalarni takrorlash	Iste'molchi segmenti, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim / ta'lim dasturlari, sanoat mahsulotlari	Xatarlarni kamaytirish, xarajatlarni kamaytirish, terapevtik ta'simi oshirish, sarf materiallarini tejash
<i>Mijozlar tajribasini yaxshilash</i>		
Kompaniya, brend yoki mahsulot bilan o'zaro ta'sir qilishning sozlanishi va noyob usullarini qo'llash orqali mijozlar tajribasini yaxshilash	Avtomobil sanoati, bank va qimmatli qog'ozlar, iste'mol mahsulotlari, ommaviy axborot vositalari va ko'ngilochar, turizm, xizmatlar	Mijozlarni jalb qilish, marketing imkoniyatlarini oshirish, sotishning o'sishi, brend raqobatbardoshligini oshirish
<i>Dizayn va tahlil</i>		
Ma'lumotlarni vizualashtirish, dizaynini rejalashtirish, tahlilning yangi shakllari	Aerokosmik va harbiy sanoat majmuasi, avtomobil sanoati, qurilish, oliy ta'lim, ko'chmas mulk, texnik va amaliy fanlar	Xarajatlarni tejash, samaradorlikni oshirish, dizayndagi xatolarni dastlabki bosqichlarda aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobot berish va prognozlashning yangi usullari

Bugungi kunda virtual va kengaytirilgan haqiqat uchun kontent va dasturiy ta'minot ishlab chiqilishini mobil ilovalarning rivojlanishi bilan solishtirish mumkin. Bozorda ushbu texnologiyalarga asoslangan yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchilar va biznes vositalari mavjud.

Tarkib va dasturiy ta'minotni ham ikki turga bo'lish mumkin: iste'molchiga yo'naltirilgan, taassurotlar, hissiy tajribalar yaratish yoki to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot berish uchun mo'ljallangan: reklama, o'yinlar va o'yin-kulgilar, mahsulot va uning xususiyatlarini namoyish qilish; amaliy muammolarni hal qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun xodimlarga yo'naltirilgan: ta'lim va malaka oshirish; prototiplash va vizualizatsiya; uskunalarni ishlatishda yordam berish; kommunikatsiyalar.

2016 yilda GoldmanSachs investitsiya banki virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari bozorining global tahlilini o'tkazdi, faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha 2020 va 2025 yillarda bozor potentsialini prognoz qildi [7][8]. Mutaxassislar fikriga ko'ra, 2025 yilda virtual va to'ldirilgan reallik uchun dasturiy ta'minot bozorining umumiy hajmi 35 milliard AQSh dollarini, umumiy auditoriyasi esa 315 million foydalanuvchini tashkil qiladi (2017 yilda bozor hajmi qariyb 9,1 milliard dollarni tashkil etgan).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda VR texnologiyalarni ilm fanga, ta'limda uni qo'llash jadal rivojlanmoqda. Uni bu sohalarga qo'llash uchun albatta uni tarixini va rivojlanish bosqichlarini bilish muhimdir. Albatta hozirgi zamonda ta'limga yangi innovatsion usullarni qo'llab o'quvchilarni qiziqishini ortirish muhimdir. Bu texnologiyalar bunga keng yordam beradi. Kelajakda VR va AR larni zamonaviylashtirib borishi ta'lim berish va o'zlashtirish sifatlarini yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmuxamedova F.A. Sun'iy Intellekt Dunyo Nigohida. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). ISSN (online): 2181-2454. Volume 2 | Issue 8 | August, 2022. Revizto team blog. User Experience// Revizto. URL: <https://revizto.com/ru/blog/cases>.

3. Autonomous non-commercial organization Sochi 2014 Olympic and Paralympic Winter Games Organizing Committee// NextSpace.URL: <https://next.space/portfolio/sochi-2014/>.

4. Nurmuxamedova F.A. "Artificial Intelligence In Preschool Institutions"// ICARHSE.International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education.Malasia Conference october 15th 2022, <https://confrencea.org/>.

5. In 2018 the global AR / VR market will grow to \$ 18 billion (2017) // Computerworld Russia. № 19. URL: <https://www.osp.ru/cw/2017/19/13053468/>.

6. Order of the Government of the Russian Federation of 28.07.2017 N 1632-p "On approval of the program "Digital Economy of the Russian Federation" // Consultant Plus. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_221756/.

7. The market of virtual reality in Russia ([2017]) // Institute of Modern Media (MOMRI). URL: <http://momri.org/wp-content/uploads/2017/04/MOMRI.-VR-market-in-Russia.-April-2017-rus.pdf>.

8. Tomasz Mazuryk Michael, Gervautz Michael Gervautz[article] - "Virtual Reality - History, Applications, Technology and Future".- 1999 30-dec.

Muallif:

Nurmuhammedova Feruzaxonim Ahmadjon qizi - Guliston davlat universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası, PhD doktrantı.

UDK 373.6: 371.126

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna

Guliston davlat universiteti, 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: yanglish8392@gmail.com

Abstract: The article presents the state of development of professional competencies of future teachers, the purpose of professional competence of a teacher, the tasks of professional competence of a teacher, the requirements for professional competencies, professional competence of a teacher, professional competent approach and professional pedagogical competence, as well as conclusions and recommendations on the qualities of professional competence of a teacher.

Keywords: Competence, self-analysis, competent approach, pedagogy, self-assessment, methodology, pedagogical-psychological trajectory, professional pedagogical competence.

Аннотация: В статье рассмотрены состояние развития профессиональной компетентности будущих педагогов, цель профессиональной компетентности педагога, задачи профессиональной компетентности педагога, требования к профессиональной компетентности, профессиональная компетентность педагога, подход к профессиональной компетентности и представлены профессиональная педагогическая компетентность, а также заключение о качествах профессиональной компетентности педагога и рекомендации.

Ключевые слова: Компетентность, самоанализ, компетентностный подход, педагогика, самооценка, методика, педагогико-психологическая траектория, профессиональная педагогическая компетентность.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [1].

"O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda [1].

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar

Respublikada ta‘lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash,

Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimzda turgan dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Oliy ta'lim jarayonida o'qituvchining maqsadi bo'lajak informatika o'qituvchilarini innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid yangi bilimlar, ko'nikmalar hamda zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

Oliy ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifalari: pedagogning kasbiy kompetentligining nazariy asoslarini tahlil qilish; pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmunini aniqlash; pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik- psixologik yo'nalishlarini tahlil qilish; kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillarini tahlil qilish; innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash; tinglovchilarda pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish. tinglovchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish; kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olish; algoritmik tuzilmalarni, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish; kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qulay olishga o'rgatish; tinglovchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va ta'lim-tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Oliy ta'limda talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar: Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va o'zlashtirish jarayonida, talaba: pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni; kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish omillari; innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik- psixologik yo'nalishlari; pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari; pedagoglarda kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriy shart-sharoitlari, modellari; kasbiy faoliyatda tayanch va xususiy-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalar; fanlarni o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish; amaliy va rolli o'yinlar; pedagogik nizolarni samarali hal etish yo'llari; zamonaviy pedagog imidji va modelini ishlab chiqish; o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib borish yo'llari; kreativlik-pedagogik ijodkorlikdan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallashi; pedagogning xususiy-metodik kompetentligini rivojlantirish yo'llari; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish; talabalarning o'quv-bilish faoliyati faolligini oshirish va mustaqil ta'limini tashkil etish; pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalarini ishlab chiqish kompetensiyalarni egallashi lozim.

O'zbekiston Respublikasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida N.A. Muslimov tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi [2], [3].

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi: kasbiy BKMni takomillashtirib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni bugungi kunda pedagoglarning ta'lim berish samaradorligini oshirish va amalga oshirishi kerak bo'lgan bir qator talablar qo'ydi. Ular quyidagilarni tashkil etishi lozim [4]: 1.Dars berish mahorati. 2.Tarbiyalash mahorati. 3.O'quv-tarbiyaviy jarayonlardainsonparvarlik tamoyillariga yondashuvni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar. 4.Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning bosh go'yasi – shaxsning turli hil sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy- ma'naviy rivojlanishidir. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so'ng esa uni takomillashtirish yo'llarini bilish lozim.

Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas [5]. Shunday ekan biz o'qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni

tashkzamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - oliy ta‘limda yangicha, ya‘ni kompetent yondashuvni joriy etishdir.

Kompetent yondashuv talabdan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta‘lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - oliy ta‘limda yangicha, ya‘ni kompetent yondashuvni joriy etishdir.

Kompetent yondashuv oliy ta‘limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta‘limning an‘anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko‘nikma - malaka”ni oltita birlik (sektet) - “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi.

Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma‘nolarini bildiradi) – sub‘yektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyektini bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud [6].

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma‘nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo‘lgan» kabi ma‘nolarni bildiradi [6].

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [6].

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir [6].

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy [7].

L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogic kompetentlikni tuzilmashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo‘lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz [7]: faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka va pedagogic faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z-o‘zini amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar); kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malaka) Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega.

Shuni ta‘kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba‘zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: maxsus pedagogik kompetensiya; pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma‘lumotga ega bo‘lish.

Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog‘liq: ijtimoiy pedagogik kompetensiya; ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi.

Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik: bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan; shaxsiy pedagogik kompetensiya; bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘z-o‘ziga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

O‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri: 1. O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish. 2. Ta‘lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o‘rnata olish. 3. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish. 4. O‘z ustida ishlash. 5. Pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish. 6. O‘z fanini mukammal bilish. 7. Ta‘lim muhitiga yangilik kiritishi Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytish lozimki, shaxsga ta‘lim va tarbiya berishda nafaqat ta‘lim oluvchiga ta‘limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e‘tibor qaratishni talab etadi.

Ta'lim tizimida kompetentli yondoshuv ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ro'lda jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo'nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an'anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta'lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2013.
3. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida"gi. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
6. Pedagogika: ensiklopediya. 1-2-3-jild / tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
7. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: 2004.

Muallif:

Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.800.2

METHODS OF FORMING AND DETERMINING INTELLECTUAL COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

TA'LIM TIZIMIDA INTELLEKTUAL SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA ANIQLASH USLUBLARI

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Jonibekov Doniyor Baxtiyor o'g'li

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: doniyorjonibekov1995@gmail.com

Abstract: This article shows the process of formation and determination of intellectual potential of students in the school education system. The issues of building a new educational environment using modern media and communication capabilities, including the maximum potential of information technology, in the formation, improvement and assessment of the intellectual potential of students through information systems are covered. The theories of world scientists and their approaches to increasing intellectual potential are also described.

Keywords: testometrics, IQ testing, intellectual potential, abstraction, flexibility, spatial thinking, resourcefulness, efficiency, technological literacy, attention and memory, logical thinking, verbal, gamification.

Аннотация: В данной статье показан процесс формирования и определения интеллектуального потенциала учащихся в системе школьного образования. Освещены вопросы построения новой образовательной среды с использованием современных медиа и коммуникационных возможностей, в том числе максимального потенциала информационных технологий, в формировании, повышении и оценке интеллектуального потенциала обучающихся посредством информационных систем. Также описаны теории мировых учёных и их подходы к повышению интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: тестометрика, IQ-тестирование, интеллектуальный потенциал, абстракция, гибкость, пространственное мышление, находчивость, оперативность, технологическая грамотность, внимание и память, логическое мышление, вербальное, геймификация.

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv jarayonini samarali tashkil qilish va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, dunyoda IT sohasi, elektron hukumat tizimi, jamiyatning kompyuter tizimlari va xizmatlari, davlat interaktiv xizmatlaridan to'la qonli va oqilona foydalanishni bilish muhim ko'rsatkichlardan hisoblanib kelmoqda. Buning uchun Respublikamizda axborot texnologiyalari ta'limida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari yetarli

darajada o'rganishlari va shu sohada intellektual fikrlash qobiliyatini shakllantirish yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan sanaladi. Chunki kun sayin axborot texnologiyalari uchun asosiy bo'lgan axborot tizimlari doimiy rivojlanib, turli xil rejim, texnologiyalar bilan boyitib borilmoqda. Bu esa maktabda o'rgangan bilim va ko'nikmalar bo'yicha intellektual salohiyati shakllanmagan bo'lsa, qayta-qayta o'rganish ma'lum vaqtni talab qiladi. Ta'lim tizimi jarayonining asosiy omillaridan biri – o'quvchi yoshlarga fundamental bilim berish bilan birga ularni fikrlashlarini shakllantirish va aniqlash asosida rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda dunyoda juda ko'plab intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlashga doir ta'limiy resurslarni sinflashtirilgan holda uchratishimiz mumkin. Masalan, testometrika.com, globalintelligentsia.com veb portallari. Bu portallarda 11 turdagi testlash masalalari keltirilgan bo'lib, eng tarqalgan testlash usuli bu IQ testlashdir. IQ (intelligence quotient), ya'ni intellekt bosqichi, aqlning rivojlanish omili yoki intellektual salohiyat degan ma'nolarni bildiradi [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Axborot texnologiyalarida ma'lum bir aniq vazifani bajarish uchun bir nechta usullar mavjud. Masalan, oddiy matn muharririni ishga tushirishning 7 xil usuli mavjud. Savol tug'iladi, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi axborot texnologiyalari ta'limida o'quvchilarga shu 7 ta usulni o'rgatish lozimmi yoki aniq bilim va ko'nikmaga asoslangan holda intellektual salohiyati bilan matn muharririni ishga tushirishnimi?

Albatta, bu masalada 7 ta usulni o'rgatish o'quvchining bilim va imkoniyatini chegaralab qo'yadi va axborot tizimining o'zgarishlari sodir bo'lganda, bilim va ko'nikmasi yetarli emasday tuyuladi. Agar o'quvchi aniq bilim va ko'nikmaga asoslangan holda intellektual salohiyatini ishga solib, bu vazifani bajarishni o'rgansa, kelajakda u hech qachon to'xtab qolmaydi. Ta'lim tizimidagi eng murakkab jarayonlardan biri bu – darsdir. Darsni quyoshga o'xshatsak, uning atrofidagi sayyoralar – bu o'qitish usullari va vositalaridir [2]. Shuningdek, darsning sub'ekt va ob'ektlari, ya'ni ishtirokchilari, vositalari, o'qitish usullari va uslublari, o'qitish shakllari ham mavjud. Ta'lim tizimida intellektual salohiyatni shakllantirish borasida juda ko'plab ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular asosan har bir maktab predmeti va har bir mavzuning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yuqorida keltirilgan darsning sub'ekt va ob'ektlari, ya'ni ishtirokchilari, ta'minotlari hamda usul va uslublarni tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Kettell-Xorn-Kerol nazariyasi dunyoda keng qo'llanib kelinayotgan bo'lib, yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, intellektual salohiyatni shakllantirish uchun o'ziga xos nazariyalardan biridir [3]. Bu nazariya o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari tuzilishining psixologik nazariyasini keng talqin qiladi hamda bir vaqtda 3 ta yirik nazariyachilar Raymond Kettell, Jon Xorn va Jon Kerollarning nazariyasini birlashtirib, o'quvchi intellektual salohiyatining rivojlanishiga qaratilgan.

Bu nazariya 20 asrning oxirgi yillari davomida ko'plab uslubiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib o'z-o'zini o'qitish bilan shug'ullanadigan insonlar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan [3]. Kettell-Xorn-Kerolning nazariyasi ikkita, Kettell-Xorning moslashuvchan va bilimni aniqlash intellekti nazariyasi, Kerolning kognitiv qobiliyatning uch darajali nazariyasidir [4]. Ikkala nazariya ham yaqin o'xshashliklarga ega. Bu esa ushbu nazariyalarni o'zaro birlashtirishga yordam beradi. Juda ko'p intellektual salohiyatni shakllantirishga oid uslubiy va amaliy asarlar tahlili asosida moslashuvchan va bilimni aniqlash intellektini kuyidagilarga bo'lish mumkin. Moslashuvchan intellekt quyidagi qobiliyat va fazilatlarini o'z ichiga oladi: 1. O'rganish. 2. Mavhum (abstrakt) fikrlash qobiliyati. 3. O'zaro munosabat, qonuniyatlarni topish va aniqlash, olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish, yangi bilimlarni tahlil qilish va ishlov berish qobiliyati. 4. Yangi sharoitga moslashish, moslashuvchanlik qobiliyati. 5. Deduktiv va induktiv fikrlash qobiliyati. 6. Ilk bor duch keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati. 7. Oldindan aniq bo'lgan muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlardan foydalanish; 8. Esda saqlash qobiliyati.

Ko'p hollarda moslashuvchanlik intellektning rivojlanish darajasi uchun muhim. Bu qobiliyat va fazilatlarini eng rivojlanish davri umumiy o'rta ta'lim maktab yoshdagilarida baland cho'qqisiga chiqadi. Shundan so'ng uning darajasi asta-sekin pasaya boshlaydi [5]. Bilimni aniqlash intellekti (BAI) - oldindan to'plangan bilim va ko'nikmalarni, qo'llash qobiliyatini aniqlash usul va uslublaridir. BAI moslashuvchan intellekt to'plagan va uni amalda qo'llaydigan uzoq muddat xotirada qolgan bilim va ko'nikma maxsulidir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Sohaga oid so'zlar (lug'at). 2. Oldindan bilgan va tajribada sinalgan usullar bilan muammo-larni hal qilish qobiliyati; 3. Umumiy bilimlar asosi (predmetlarning o'zaro bog'liqligi va fun-damental predmetlar), sohaga oid bilimga ega bo'lish.

Olimlarning ta'kidlashicha, turli va bir xil sohalarida BAI darajasi har xil. Masalan, axborot texnologiyalaridan foydalanishni oladigan bo'lsak, dasturchi, tizim administratori, foydalanuvchi bo'lishi mumkin [5]. BAI moslashuv bog'liqligi shundaki, qanchalik tez o'rgansa, ko'proq ma'lumot va bilim olish mumkin bo'lsa, shunchalik ko'proq bilim hajmi va intellektual salohiyat yuqori bo'ladi. Nobel mukofoti laureati, Chikago universiteti professori Jeyms Hekman (James Heckman) iqtisodiy tizimlarning inson qobiliyati va ko'nikmalari bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, har qanday yirik iqtisodiyot fuqarolarning malakasi, bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari rivojlanishiga asoslanadi. Olimning hisob-kitobiga ko'ra, erta ta'lim uchun sarflangan xarajatlarning kamida 13 foizi kelajakda "jamiyatga qaytadi". Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarning erta yoshdan kognitiv qobiliyat bilan birga rivojlantirilishi kelgusida jamiyatga foyda keltiradigan fuqarolarning paydo bo'lishiga olib keladi [6]. Respublikamiz olimlarining fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi,


mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlari hamda ta'lim jarayonidagi kognitiv yondashuvlar orqali mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali intellektual salohiyatni o'ziga xos jihatlarini shakllantiradi va aniqlaydi [7].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Yuqoridagilarga asoslanib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kognitiv qobiliyatga katta e'tibor berish kerak. Ayniqsa, bugungi kunda elektron xukumat doirasida maktabning har bir bitiruvchisi ma'lum bir ma'noda axborot texnologiyalari ta'limi doirasida moslashuvchan va bilimni aniqlash intellekti, kognitiv qobiliyatga ta'lim mazmuni va jarayonini qaratish davr talabidir. Kerroll uchta bilim bosqichi g'oyasini oldinga surgan [4]. Birinchi daraja: cheklangan qobiliyatlar. Bu bilim bosqichining aniq qobiliyatlari hamda uning asosi va asosiy tarkibiy qismidir: 1. Nutq tezligi, grammatika va so'z boyligini bilish, chet tillarini o'rganish, tinglash va muloqot qilish qobiliyati; 2. O'qish tezligi, o'qilganlarni tushunish va uni o'zlashtirish qobiliyati, yozish tezligi va parolni ochish qobiliyati; 3. Matematik bilimlar. 4. Deduktiv va induktiv fikrlash qobiliyati, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligini to'g'ri qurish; 5. Xotirasining tezligi va esda saqlash qobiliyati; 6. Fikrlash tezligi va tezkor qoidalarni topish, o'ziga xoslik; 7. Eshitgan ma'lumotni eslash qobiliyati, voqea, hodisa uchun algoritim ijrosini idrok etish va lokalizatsiyasini aniqlash qobiliyati; 8. Vizual ko'rish qobiliyati, vizual xotiraning rivojlanish darajasi, vizual ob'ektlarga asoslanib fikr yuritish qobiliyati va fikrlash.

Ikkinchi daraja: keng ko'nikmalar. Bularga quyidagilar kiradi: 1. Bilim yutuqlari: oldingi tajriba, natijalarga asoslanib fikr yuritish, oldin olingan bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati; 2. O'qish va yozish qobiliyati; 3. Miqdoriy tushunchalarni o'zlashtirish va sonlar bilan amallarni bajarish qobiliyati; 4. Tushuntirish qobiliyati; 5. Tezkor xotira va esda saqlash muddatining uzoqligi; 6. Uzoq muddatli xotira va undan ma'lumot olish qobiliyati; 7. Eshitish jarayonida ishlov berish, tushunish va idrok qilish qobiliyati; 8. Vizual ishlov berish qobiliyati; 9. Ba'zi vazifalarni avtomatik ravishda bajarish qobiliyati.

Uchinchi daraja: umumiy aql. Umumiy intellektual qobiliyat – bu keng qobiliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasidir. Informatika va axborot texnologiyalari fanining asosiy bilimlariga matematika, tillarni bilish, raqamli savodxonlik, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash qobiliyati va mantiqiy fikrlashga asoslangan intellektual salohiyat lozim bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Axborot texnologiyalari ta'limida o'quvchilarning intellektual salohiyati tarkibiy tuzilmasi.

Dunyoda juda ko'p intellektual salohiyatni shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, uslubiy tadqiqot ishlari olib borilgan va turli nazariyalarga asos solingan. Shuningdek, dunyo hamjamiyatida aql va fikrlashni rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud. Bugungi kunda jahonni bu yo'nalishdagi rivojini kuzatishda, internet global tarmoqlarida xorijiy mutaxassislar tomonidan treninglar, seminarlar, o'quv dasturlar, onlayn kurslarni topish mumkin. Bu tizimlarda ko'proq ma'lum usullar mavjud - mantiqiy muammo va jumboqlarni yechish, testlarni topshirish, shaxmat o'ynash va boshqalar.

Ammo intellekt sohasidagi xizmatlar bozori jadal rivojlanmoqda va innovatsion texnologiyalar bilan to'ldirilmoqda. Masalan, ikkinchi jahon urishidan so'ng, o'zining eng samarali yondashuvi bilan tez suratlarda Yaponiya rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirgan. Buning asosiy sabablaridan biri bu - maktab o'quvchilari, talabalar, yoshlar o'rtasida intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlashga bag'ishlangan ilmiy, uslubiy tadqiqotlarga keng yo'l ochib berish natijasidir. Ushbu usul Yaponiya intellektini rivojlantirish tizimi deb ataladi. Tizimni yaponiyalik olim - professor, tomografiya mutaxassisi, tibbiyot fanlari doktori Ryuta Kavashima tomonidan taklif qilingan. Ular yigirma yildan ortiq vaqt davomida inson miyasining stimulyatsiyasini o'rganib kelgan va 2003 yilda "Aqlni mashq qildiring"[8]. Aql va xotirani rivojlantirish uchun Yaponiya tizimi, "Yapon aql-idrokni rivojlantirish tizimi"[9] nomli ilmiy asarlarni nashr qildirgan. Bu olim birinchidan hozirgi vaqtda shaxs aqli qanchalik samarali ishlayotganini aniqlashni, ikkinchidan, unda

fikrlash, aql va xotirani rivojlantirish uchun juda ko'p oddiy mashqlarni, uchinchidan, qobiliyatni vaqti-vaqti bilan baholash uchun maxsus usullarni o'z ichiga oladigan g'oyani oldinga surgan[10]. Ryuta Kavashima o'z tadqiqotlarida inson arifmetik muammolarni yechib, ularni bir muncha vaqt hal qilganda, miya maksimal faollikni namoyish etadi, degan xulosaga keldi. Shuningdek, u ovoz chiqarib o'qish yaxshi natijalar berishini aniqlagan. Biroq u matematik muammolarga alohida e'tibor qaratishga qaror qiladi, uning tadqiqot natijalari va ko'plab arifmetik topshiriqlar, mashqlarni taklif qiladigan ilmiy monografiyalar yaratilgan[8].

Kavashimaning yondashuvi ikki bosqichdan iborat [8]: 1. O'quvchini asosiy sinovlardan o'tishga chorlaydi. Bu dastlabki boshlang'ich nuqtani – joriy bilim darajasini aniqlashga imkon beradi. Ushbu sinov vaqtida bir nechta mashqlarni bajarish talab qilinadi. Ular orasida, masalan, baland ovoz bilan 1 dan 120 gacha sanash sinovi, ikki daqiqada so'zlarni yodlash sinovi va boshqalar. Vazifalarni bajargandan so'ng, natijalar yozib olinadi. 2. O'quvchi nazariy va amaliy manbaaga o'tadi va asosiy arifmetik muammolarni hal qilishga kirishadi. Har kuni belgilangan barcha topshiriqlarni bajarib, o'rganishi kerak. Bu usul bugungi kunda nafaqat yaponiyada balki butun dunyoda tarqalgan va o'ziga xos usullari mavjud. Masalan, koreys, xitoy, amerika, yevropa, ruscha yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan nazariyalar ham bor. Bunday yondashuvli nazariyalaridan tashqari, mantiqqa asoslangan, intellektni shakllantirishga va aniqlashga qaratilgan o'yinli texnologiyalar, nazariya, usul va uslublar mavjud.

Mantiq va tafakkur bo'yicha o'yinlar pedagogikada ancha vaqtdan beri o'qitish maqsadida ishlatilgan, F.Murodovanning "Informatika va axborot texnologiyalari fanida" didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi o'z aksini topgan, hamda ularning natijalari asosida o'yin orqali foydali ko'nikmalarni rivojlantirishga to'liq asoslangan alohida darslar va hatto dars ishlanmalari ishlab chiqilgan. Bularidan farqli o'laroq, mantiqiy o'yinlarga qadimgi shaxmatdan tortib to o'quvchilar yoqtiradigan zamonaviy moslashuvchan platformalar uchun turli vazifali, bosh qotirmali va jumboqlarni o'z ichiga oladigan ilovalargacha kiritish mumkin. Ularning shubhasiz ustunligi - bu ba'zan mashxur kishilar bilan tengdosh ko'rish, foydalilik, kirishish va qiziqtirishdir.

Bugungi kunda, uydan chiqmasdan ham, Internetga ulangan har bir o'quvchi bo'sh vaqtlarida bir nechta jumboqlarni yechish yoki bir nechta jumboqlarni topish orqali o'zlarini intellektual salohiyatlarini shakllantirish va aniqlashlari mumkin [11]. Ammo shunday bir maqsadli, ya'ni o'quv o'yinlari bo'lish kerak, ular yordamida o'quvchilar mos predmetning nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'rganib borishi va aqlni charxlab turishi lozim.

Umuman olganda, mantiqiy o'yinlar - bu o'qishni rag'batlantirishga yordam beradigan ajoyib ta'lim strategiyasidir. Ularga quyidagi o'yinlarni kiritish mumkin: Geymifikatsiya (gamification) atamasi 2019 yilda inglizchadan ruschaga tarjima qilindi va dunyo jamiyatida o'z o'rniga ega o'yinlar nazariyasidir. Bunda ishtirok etish darajasini oshirish vazifalarni hal qilish uchun o'yinli bo'lmagan vaziyatlarda o'yin usullari va o'yin uslubidan foydalanishga qaratilgandir. Gamifikatsiya usullari insonni raqobatga, yutuqlarga va o'z-o'zini ifodalashga bo'lgan tabiiy moyilliklariga ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil o'yinlar mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish uchun marketing va onlayn savdo markazlarida keng tarqalgan.

O'quv jarayonini gamifikatsiya qilish ham XXI asr ta'limidagi progressiv yo'nalishdir. Bu nafaqat klassik ta'lim, balki o'quv dasturlari va onlayn kurslarni ham qamrab olmoqda. Masalan, Microsoft Ribbon Hero 2 o'z MS Office paketiga yordamchi mahsulot sifatida chiqardi. O'yin foydalanuvchilarga MS Office ilovalaridan samarali foydalanishni o'rganishga yordam berish uchun yaratilgan va eng mashhur Microsoft Labs loyihalaridan biriga aylandi.

Taniqli MOOC ta'lim portal KhanAcademy, shuningdek, o'z dasturlarida o'yinlarni keng tatbiq etmoqda. Nyu-York Ta'lim departamenti butun o'quv jarayoni o'yinlar orqali o'tadigan "Quest to learn" maktabining g'oyasini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda [12]. Mantiqiy, intellektual va boshqa o'yinlar o'quvchilarni o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Ular kattalar uchun mahorat va samaradorlikni oshirish bo'yicha treninglarda, seminarlarda keng qo'llaniladi. Chunki ular darhol olingan bilimlarning amaliy foydalarini ko'rishga imkon beradi.

Hatto maktab o'quvchilariga muayyan sharoitlarda ham rezyumelar tez-tez tekshirib turiladi va ko'rsatilgan analitik qobiliyatlarning mavjudligini bilish uchun, HR-menejeri topishmoq yoki jumboqni topish vazifasi yuklanadi. Bunga ishonish qiyin, lekin kattalar ko'pincha bolani bir necha daqiqada o'quvchilar bajara oladigan narsalarni qila olmaydilar. Shuning uchun nafaqat kasbiy rivojlanish uchun, balki umuman o'zini rivojlantirish uchun ham mantiq va tafakkur bo'yicha eng oddiy vazifalarni hal qilish muhim rol o'ynaydi. Bu xotira, e'tibor, og'zaki sanash kabi foydali ko'nikmalarni shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Onlayn o'yinlar – onlayn flesh-ilovalar sifatida bajarilgan ba'zi o'yinlar, topshiriq va vazifalarni taklif qiladi, hamda qulay bo'lishdan tashqari, barcha yoshdagi va turli xil ko'nikmalarni o'rgatadigan mantiqiy o'yinlar majmuasidir. Masalan, "olti qurbaqa" jumbog'i – ushbu dasturning asosi juda taniqli 6 ta qurbaqa haqidagi matematik jumboqdir [10]. Ushbu onlayn flesh o'yin o'quvchilarga oddiy va oson bo'lib tuyulishi mumkin, ammo ular shartni bajarishga harakat qilganda, odatda o'z fikrini o'zgartiradi.

Tahlillarga ko'ra o'rtacha IQ (100-110 ball) bo'lgan odam 3 daqiqada javobni topishi kerak. Uning maqsadi intellektual salohiyatni, mantiqiy fikrlashni, og'zaki sanash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bunday onlayn o'yinlarni ko'plab sanash mumkin. Kompyuterga yo'naltirilgan o'yin texnologiyalaridan tashqari jumboqlarni topishga

bag'ishlangan o'yinlar ham borki, ulardan ham an'anaviy usullarda foydalanish mumkin. Axborot asriga qaramay, ko'plab mantiqiy va jumboqli o'yinlar muxlislar uchun samarali va qiziqarlidir. Buning sababi shundaki, ularning ba'zilar kompyuter dasturlari ko'rinishida yuqori sifatli analoglarni, boshqalari esa "jonli" o'ynash, muloqot qilish va boshdan kechirish uchun ancha qiziqarli va yoqimlidir [13].

Xulosa. O'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va aniqlash uchun asosan maktabda o'qitiladigan fan mazmuniga e'tibor berish hamda shu mazmundan kelib chiqqan holda IQ vositalarini tanlash lozim. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalari ta'limining mazmuni va hozirgi holatini tahliliy va tanqidiy, zamonaviy talablar asosida o'rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айзенк Г. Ю. Интеллект: новый взгляд /Г.Ю. Айзенк //Вопросы психологии. - 1995. -№1. 111-131 с.
2. Мо'aminov В.В. Informatikadan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun pedagogik dasturiy ta'minot yaratish va foydalanish metodikasi. (akademik litseyning aniq fanlar yo'nalishi misolida): Avtoref. ped. fan. nom. – Toshkent: BDU, 2009. –10-16 b.
3. Kettell-Xorn- Kerroll nazariyasi CHC (Gf- Gc): o'tmish, hozir va kelajak Kevin S. Mac Gry, Minnesota Universiteti. // Vikipediya. 2020.
4. Кэрролл. Дж. Б. Когнитивные способности человека: обзор факторно-аналитических исследований. Нью-Йорк:// издательство Кембриджского универ-ситета. (1993).
5. Ясвин, В.А. Психологическое моделирование образовательных сред. /В.А. Ясвин. // Психологический журнал. 2000. - том 21 - №4 - 79- 88 с.
6. Хекман Дж, Мун С. Х., Пинто Р., Савельев П. А., Явиц А. Экономическая отдача от дошкольного образования детей из неблагополучных семей: уроки програм «Хайскоуп Перри» // Финансы и бизнес. - 2010. № 3.- 39- 51 с.
7. Коломеец, Б.К. Интеллектуализация содержания высшего образования как составляющая компетентностного подхода. /Б.К. Коломеец. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.-21с.
8. Кавашима Р. Тренируй свой мозг: Японская система развития интел-лекта и памяти. — СПб.: Питер, 2016. — 191 с.
9. Кавашима Р. Как заставить работать мозг в любом возрасте: японская система развития интеллекта и памяти. / пер. с яп. А. Борисова. - СПб.: Питер, 2017. - 156 с. (Вы и ваш ребёнок) ISBN 978 - 5 - 496 - 02969 - 8 : 700 0 экз.
10. Murodova Z.R. Axborot texnologiyalar ta'limida intetlektual salohiyatini shakllantirish innovatsiyalari. // Pedagogik mahorat. – Buxoro 2019. №3, 133-135 b.
11. Muradova F.R. Kasb-hunar kollejarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. nom. diss. –B., 2018. -148 b.
12. Murodova Z.R. Ilmiy-axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishida intellektual salohiyatning shakllanishi. // Pedagogik mahorat. Ilmiy metodik jurnal. Buxoro 2020. №3, 91-94 b.
13. Мингазов Э.Г. Активизация познавательной деятельности учащихся средствами наглядности: Автореф. дисс. ... кан. пед. наук. – Москва, 1969. – 16 с.

Muallif:

Jonibekov Doniyor Baxtiyor o'g'li - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.853

IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING PHYSICS USING THE STEAM APPROACH

STEAM YONDOSHUVINI QO'LLASH OPRQALI FIZIKA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ STEAM ПОДХОДА

Abdullayeva Shoira Isajanovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Toshkent 100084, Amir Temur shox ko'chasi 108 uy

E-mail: abdullayeva@tuit.uz

Abstract: This article discusses the STEAM approach as one of the revolutionary tools for changing education and the methodology for developing technical creativity in students based on it. The meaning of the concept of "STEAM education" is revealed, its significance and the main factors of its occurrence are considered. An analytical review is provided comparing the trends and prospects for the development of STEAM education in Uzbekistan using the STEAM approach for developing technical creativity in students. The authors also conducted a comprehensive theoretical and methodological study to determine the problem of the formation and development of the STEAM approach at the levels of higher education in the Republic of Uzbekistan and analyzed the results. The purpose of this study is to increase the technical creativity of students using STEAM education. The methodological basis of the study is made up of general

scientific proposals of the systemic and dialectical approaches, and the opportunity to evaluate the interrelated and interacting elements that make up this education as a whole is chosen.

Key words: STEAM, technical creativity, higher education, teaching methods, project-based learning, universities, communication, integrated approach, innovation, engineering education.

Аннотация: В данной статье рассматривается STEAM подход как один из революционных инструментов изменения образования и основанная на нем методика развития технического творчества у учащихся. Раскрывается смысл понятия «STEAM-образование», рассматривается его значение и основные факторы его возникновения. Приведен аналитический обзор, сравнивающий тенденции и перспективы развития STEAM-образования в Узбекистане с использованием подхода STEAM для развития технического творчества у учащихся. Также авторы провели комплексное теоретико-методологическое исследование по определению проблемы становления и развития STEAM-подхода на уровнях высшего образования Республики Узбекистан и проанализировали результаты. Целью данного исследования является повышение технического творчества учащихся с помощью STEAM-образования. Методологическую основу исследования составляют общенаучные предложения системного и диалектического подходов, а также выбрана возможность оценить взаимосвязанные и взаимодействующие элементы, составляющие это образование в целом.

Ключевые слова: STEAM, техническое творчество, высшее образование, методика преподавания, проектная форма, университеты, коммуникация, комплексный подход, инновации, инженерное образование.

Kirish. Raqamlashtirish tez sur'atlarda hayotimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda va bu jarayon ta'lim sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. STEAM yondashuvining asosiy maqsadi – an'anaviy ta'limdagi amaliy masalalarni hal qilishdan ajralganlikni bartaraf etish va universitet fanlari o'rtasida talabalar uchun tushunarli bog'liqlikni shakllantirishdir. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) g'oyasi va qisqartmasi birinchi marta 2000-yillarning boshlarida, Amerikada, o'qitish va ta'lim sohalaridagi innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbus sifatida ishlatilgan. STEAM ta'limi asosan ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini integratsiya qilishni maqsad qilgan. Bu yondashuv san'atni STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) bilan birlashtirib, ijodkorlik, dizayn va tizimli fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu tariqa STEAMning asosiy tamoyillari AQShdagi turli oliy o'quv yurtlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanila boshlandi [1]. Shuningdek, oliy ta'limdan so'ng, umumiy va qo'shimcha ta'lim tizimida ham ushbu tizimning elementlari faol tarqalmoqda. Shunday qilib, mamlakatimiz dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylanishga intilayotgan sharoitda ushbu mavzuning ahamiyati shubhasizdir.

Tadqiqot obekti va qo'llanilgan metodlar

“STEAM” atamasining mazmunini va ushbu kategoriya tarkibiy qismlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. XXI asrda jamiyat yangi texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirishga intilmoqda. Yangi kasblar paydo bo'lishi davom etmoqda, IT, muhandislik, katta ma'lumotlarni tahlil qilish, dasturlash va dizayn bilan bog'liq mutaxassisliklarga talab oshib bormoqda. Bularning barchasi fonida yangi turdagi yoki yangi ta'lim tizimi - STEAM paydo bo'lmoqda.

STEAM - bu Science (Ilm-fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik), Art (sa'nat) va Mathematics (Matematika) atamalarining qisqartmasidir. STEAM amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, maxsus ta'lim mazmunini yaratishga va ta'lim faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. STEAM bu keltirilgan fanlarni birlashtirgan integratsiyalangan yondashuvdir. Shuni ta'kidlash lozimki, ilmiy terminologiya aniqligining to'g'riligini belgilash masalasi har qanday amaliy faoliyat uchun juda muhimdir. Taklif etilgan materiallar va metodlar har doim ma'lum bir yondashuv, muallif paradigmasi va qarashlar tizimiga asoslangan bo'lishi kerak. Shu sababli, STEAM yondashuvining ta'rifini ilmiy metodologiya asosida qat'iy tuzilgan tahlil qilish zarur [2-3].

STEAM yondashuvi quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: Ta'lim jarayoni loyiha shaklida bo'lib, talabalarining ularga yuklatilgan ta'lim vazifalarini birgalikda hal qilishiga yo'naltirilgan; Ta'lim vazifalari amaliy xarakterga ega bo'lib, yakuniy natijalar oila, sinf, maktab, universitet, korxonalar, shahar va boshqalar tomonidan foydalanilishi mumkin; O'qitishning fanlararo tabiati: ta'lim vazifalari shunday tuzilgan bo'lib, bir nechta ilmiy sohalaridan olingan bilimlar bir vaqtda qo'llanilishi kerak; Fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhim jihati - bu muhandislar yoki amaliy ilmiy tadqiqot mutaxassislarini tayyorlashda fanlar sikli, ilg'or texnologiyalar, turli muhandislik fanlari va boshqalar.

Oliy ta'lim tizimidagi STEAM bo'yicha mavjud nazariy nuqtai nazar, bizning fikrimizcha, masalalarni to'liq qamrab olmaydi, bu esa amaliy faoliyat samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. STEAMda fanlar tabiiy fanlar, masalan, fizika, kimyo yoki biologiya va rasmiy fanlar, masalan, matematika yoki statistikaning o'z ichiga oladi. Ba'zi tadqiqotchilar STEAMga psixologiyani ham kiritadilar, ammo bu qarash bahsli hisoblanadi [4-6]. STEAM ta'limida muhim ko'nikma – topilgan ma'lumotlarni to'g'ri qo'llash va amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanish qobiliyatidir.

Zamonaviy STEAM ta'limi - bu fanlar kombinatsiyasi bo'lib, yangi texnologiyalarni rivojlantirishga va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan, uning asosida muhandislik kadrlarini tayyorlash yotadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, STEAMga asoslangan bunday ta'lim tizimi faqat to'g'ri boshqarilsa va uning barcha darajalarda barqaror ishlashi ta'minlansa samarali bo'ladi.

Olingan natijalar va tahlili

Tadqiqotning metodologik asosi ilmiy tadqiqotga yondashuvlarning butunlay, tizimli va dialektik metodologiyalariga asoslangan bo'lib, bu yondashuvlar bir-biri bilan bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan elementlarning umumiylikini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlarni qo'llash tadqiqot masalasini keng qamrovli tahlil qilish va uni o'rganish strategiyasini aniqlashda yordam beradi.

STEAM yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning texnik ijodkorligini shakllantirish muammosini o'rganishning asosiy prinsiplari quyidagilar: **abstraktdan konkretga ko'tarilish prinsipi**, bu obyektning mohiyatini ochib berishga va uning butun tasvirini olishga imkon beradi; **tahlil va sintezning birligi prinsipi**, bu obyektning bo'lib, uning alohida qismlarini (strukturasi) va fanlararo aloqalarini ajratish imkonini beradi va uni alohida element sifatida emas, balki murakkab butunlik sifatida anglashga yordam beradi. Bu prinsip obyektning uning barcha qismlari va xususiyatlarini birligida va aloqasida o'rganishga imkon beradi; **mantiqiy va tarixiy prinsipi**, bu obyektning maxsus shartlarini va rivojlanish shakllarini, ularning tarixiy zarur bosqichlardan boshqalarga o'tish ketma-ketligini va o'rganilayotgan obyektning alohida elementlarining rolini ochib berishga imkon beradi; **turli sifatidagi aloqalar va ularning o'zaro aloqasini aniqlash prinsipi**, bu tizimli darajada obyektning turli xil o'zaro aloqalar yig'indisi sifatida ko'rib chiqishga va bu obyektning ma'lum bir koordinatalar tizimidagi o'rnini (rolini) aniqlashga imkon berdi; **obyektning strukturaviy, funksional va genetik tasavvurlari sintezi prinsipi**, bu tadqiqot obyektini uning kelib chiqishi, mavjudlik bosqichlari, o'zgarish ketma-ketligi va tarixiy tendensiyalar nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi.

Maqolada keltirilgan keng qamrovli nazariy va metodologik tadqiqotda ko'rsatilgan muammoni fenomenologik tahlil qilish usuli qo'llanildi. Ilmiy bilishning asosiy usullari quyidagilar: **taqqoslash usuli**, bu o'rganilayotgan obyektning elementlarini taqqoslashga, uning turli fanlardagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu taqqoslash natijasida umumlashtirish amalga oshiriladi - STEAM ta'limining umumiy xususiyatlari va fazilatlarini birlashtirish. Umumlashtirishda sifat va miqdoriy xususiyatlar birlashdi. Umumlashtirishning muhim sharti shundaki, STEAM ta'limi kontsepsiyasining mazmuni uning alohida elementlari emas, balki butun kontsepsiyasi orqali umumlashtirildi; **abstraktsiya usuli**, bu tadqiqot usuli STEAM-ta'lim kontsepsiyasida faqat belgilarni, xususiyatlarni, ajratishga yordam berdi, ammo o'rganilayotgan obyektga nisbatan umumiy yoki aniq kontsepsiyalarni ajratib ko'rsatmaydi. STEAM ta'limi kontsepsiyasi abstraksiyalashganda, tafsilotlar yo'qolib, muhim xususiyatlar aniqladi, eng muhim qonuniyatlar va o'zaro bog'liqliklar yuzaga chiqi. Abstraktsiya natijasida STEAM ta'limi kontsepsiyasi haqidagi eng to'liq bilimlarni aniq shakllantirildi; **kontent tahlili**, bu hujjatlarning mazmunini sifat va miqdoriy jihatdan tekshirish usuli bo'lib, jamiyatdagi faktlar va tendensiyalarni aniqlash yoki o'lchashga imkon beradi, bu esa STEAM ta'limini boshqarish shartlarini yaxshilashga qaratilgan zarur o'zgarishlarni, yangi qabul qilingan qonun hujjatlarni kuzatish imkonini berdi; **diskursiv tahlil** matn, bu tadqiqot obyektini sifatli va mazmunli tahlil qilishga imkon berdi va nafaqat aniq taqdim etilgan va aniq yozilgan matn ma'lumotlarini, balki xabarning yashirin, ma'nolarini ham topishga imkon berdi. Sifatli kontentga asoslangan diskursiv tahlilning umumlashtirilgan modeli quyidagi tadqiqot strategiyalaridan iborat edi: o'rganilayotgan materialni aniqlash; uning rasmiy xususiyatlarini ajratish; kontekstni aloqa holati sifatida belgilash; tahlil yo'nalishi va strategiyasini tanlash; tadqiqot bosqichlarini nazariy ajratish va tuzilishi; muayyan tadqiqot modeli qo'llanganda tahlil usullari va vositalarini aniqlash; tahlil birliklarini belgilash; nazariyada va empirik materialda kategoriyalar tizimini tekshirish; tavsiflash, rekonstruksiya, talqin qilishni amalga oshirish; tadqiqot natijalarini yig'ish, umumlashtirish, talqin qilish va tuzish; **nazariy tahlil**, bu o'rganilgan masala bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan va xorijiy adabiyotlarni o'rganish, masala bo'yicha to'plangan empirik tajribani tahlil qilish va masalaning nazariy darajadagi mavjud kontsepsiyalarini va yondashuvlarini tahlil qilish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032 son (19.03.2021 yilda) "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi ko'rib chiqildi, bu esa ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda.

Bugungi kunda IT parklarda, universitetlarda yoki ta'lim texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash markazlari tarkibida ko'proq STEAM markazlari ochilmoqda, ular ta'lim oluvchilarga yangi texnologiyalarni o'rganishga va ularni ilm-fan va texnologiyalarda qo'llashga yordam beradi. Shunday qilib, talabalar texnik ijodkorligini, ilmiy va ijodiy erkinligini o'z ishlarida uyg'unlashtirishni o'rganadilar [7]. Metodologik nuqtai nazardan, STEAM yondashuvi loyiha faoliyati davomida texnologik masalalarni hal qilishdan tashqari, talabalar quyidagilarni o'zlashtirishlarini nazarda tutadi: – jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; – fikrni konstruktiv tarzda tanqid qilish va himoya qilishni o'rganish; –


ijro etish ko'nikmalarini egallash; – noaniqlik holatlarda g'oyalar yaratishni o'rganish; – muayyan mahsulotni samarali ilgari surish va ommalashtirish uchun marketing va reklama tamoyillaridan foydalanish; – muayyan texnologiyaning turli sohalarida amaliy foydalanish uchun mavjud ijodiy salohiyatni tushunish.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi ustuvorligini oshirish uchun STEAM yondoshuvining joriy etilishilishiga quyidagi sabablarni keltirishimiz mumkin: Yaqin kelajakda dunyo bo'ylab muhandislar, yuqori texnologik sohalarida mutaxassislar va boshqa professionalar yetishmovchiligi keskin seziladi, shuningdek, bu holat mamlakatimizda ham ham yuz berishi mumkin. Kelajakda insoniyatga tabiiy fanlar bilan texnologiya kesishadigan sohalarida ishlaydigan mutaxassislar kerak bo'ladi, shuning uchun fizika, kimyo, biotexnologiya va nanotexnologiya sohalarida ta'limni rivojlantirish zarurati tug'iladi.

STEAM ta'limining O'zbekistonda amalga oshirish bo'yicha vazilar quyidagicha: O'quvchilarga temperament, mentalitet va ko'nikmalariga mos keladigan bog'lanish nuqtalarini topish yoki yaratish uchun yagona ta'lim muhitini yaratish usulini ishlab chiqish. Ushbu usul yoki metodning vaqt o'tishi bilan, ya'ni umumiy ta'limdan kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, qo'shimcha ta'lim tizimiga uzluksiz integratsiya sharoitida ishlashini ta'minlash. STEAM ta'limini mavjud ilmiy tadqiqot markazlarda, IT parklarda amaliyotda integratsiya qilish. Jamiyatda STEAM savodxonligini oshirish, kengaytirilgan qayta tayyorlash va kasbiy rivojlanish kurslarini tashkil etish, bu esa mutaxassislarga yuqori malakali mehnat bozorida talabga ega bo'lishga yordam beradi.

STEAM ta'limining o'qitish usuli sifatida aralash ta'lim muhitini yaratilishi, qo'llanilgan usullar kundalik hayotda foydali bo'lishi, o'qitish va tadqiqot faoliyati ta'lim muassasasida va undan tashqarida mavjud bo'lishi va STEAM beshta alohida fanlarni yagona ta'lim tizimiga birlashtirishi kerak.

Bugungi kunda Yevropa va Osiyoning ko'plab mamlakatlarida STEAM ta'limining elementlarini amalda tatbiq etish bo'yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar STEAM elementlarini o'quv jarayonining ayrim qismlarida qo'llashda juda ko'p variantlar mavjudligini ko'rsatmoqda. STEAM ta'limi texnologiya kompaniyalarida to'liq ish o'rinlariga tayyor mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, fizika va matematika o'quv dasturini o'rganishda STEAM texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarning akademik natijalari sezilarli darajada oshadi, shu bilan birga ularning asosiy ijodiy ko'nikmalari va qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada, STEAM ta'limi yondashuvi mamlakatimizda turli ta'lim sohalarida joriy etilishi mumkin. Bu nafaqat ta'lim faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi, balki davlatni ilm-fan va texnologiyalar sohalarida innovatsion rivojlanish yo'liga qo'yadi [8-10].



Mamlakatimizning ilmiy, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yutuqlarga erishish, O'zbekistonning dunyoning yirik iqtisodiyotga ega davlatlar qatoriga kirishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. STEAM texnologiyalari AQSh, Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardagi ta'lim muassasalarida uzoq vaqtdan beri faol qo'llanib kelinmoqda. Mamlakatimizdagi iqtisodiy o'sishga erishishni ta'lim dasturlariga STEAM yondashuvlarini keng joriy etish bilan bog'lashimiz mumkin. Hozirgi vaqtda eng ommabop ko'nikmalarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: 1) kognitiv, bunda asosiylari barcha bilim jarayonlari, bilim va ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ko'nikmalar hisoblanadi; 2) shaxsiy, intellektual ochiqlik, mehnat etikasi, o'ziga ishonchni o'z ichiga oladi; 3) shaxslararo, bu esa shaxsning jamoada ishlash qobiliyati, guruhda ishlash va boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini belgilaydi. Sanab o'tilgan barcha ko'nikmalar talabalar ta'lim jarayonida STEAM yondashuvlari doirasida shakllanishi kerak. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fizika darslarda qanday ijobiy ishlar qo'llanilmoqda? Bu savolga javob berish uchun biz Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU universitetiga fizika o'qitiladigan talabalar sonini tahlil qilib chiqdik. Bunda talabalar shartli ravishda ikki guruhga, STEAM yondoshuvi asosida texnik ijodkorligini shakllantiruvchi mashg'ulotlar asosida fizika o'qitiladigan guruh va an'anaviy mashg'ulotlar olib boriladigan guruh. O'tkazilgan tajribalar, kuzatuvlarimiz asosida STEAM yondoshuvli guruhlarda talabalarning o'zlashtirish ko'rtakichi va dars samaradorligi yuqoriligi ko'rindi. Ma'lumotlarni tasvirlash uchun STEAM-yo'nalishlari bo'yicha ta'lim dasturlarida

talabalar taqsimoti diagrammalari yaratildi. Shunday qilib, quyida berilgan jadvaldan ko‘rishimiz mumkin, tajriba guruhida talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichining yuqori bo‘lganligini.

Shunday qilib, oliy ta‘limda STEAM ta‘limining joriy holatini tahlil qilish, mamlakat ta‘lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishini rag‘batlantirish zarurligini, shuningdek, STEAM yondashuvlarini ta‘lim munosabatlarining barcha ishtirokchilari orasida moslashtirish bo‘yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqishni ko‘rsatadi. Bu nuqtai nazardan, STEAM ta‘lim sohalarida oliy ta‘lim tizimida olingan asosiy kompetensiyalar kognitiv, shaxsiy va shaxslararo kompetensiyalar bo‘lib, ular raqamli savodxonlik, hisoblash fikrlash, ijodkorlik, ochiq fikr, soft skills va boshqalarda ifodalanadi. Oliy ta‘lim tizimida STEAM ta‘limi konsepsiyasi ilmiy bilimlar haqidagi tushunchalarni transformatsiya qilishni va aniq fanlar, lingvistik, muhandislik, san‘at va boshqalar sohalarida ko‘nikmalarni shakllantirish orqali innovatsion rivojlanish jarayonini qurishni ta‘minlaydi.

Xulosa

STEAM ta‘lim tizimi talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadigan tuzilishga ega. Talabalar o‘z bilimlarini turli faoliyatlarda qo‘llashga va ongli ravishda ishlarni bajarishga qodir bo‘ladilar. Shuningdek, STEAM ta‘limi ijodkorlik, tanqidiy fikrlash hamda boshqa ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv modeli sifatida qaralishi lozim. Biroq, san‘at va ijodiy ta‘lim komponentlarini fizika, matematika va texnologiya ta‘limi strukturasi integratsiya qilish, shuningdek, zamonaviy raqamli iqtisodiy muhitda faoliyat yuritadigan mutaxassislarini tayyorlashda uning ahamiyatini o‘rganish uchun ishonchli empirik tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Э.З.Имамов, Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов. // “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -С. 479-482.
2. В.В.Турдиқолов, О‘С.Назирова, Ю.Н.Каримов. // Atom va molekullarning yorug‘likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –С. 1252-1258.
3. Э.З. Имамов, Х.Н.Каримов, А.Э.Имамов. // Янги Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергия манбаларини жорий этиш билан боғлиқ муаммолар. // “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 3. -С. 367-372.
4. X.N.Karimov. //Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104.
5. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov. // Development of creative thinking in higher education.// “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2023. №3. -С. 359-361.
6. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies. // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233.
7. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies. // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -С. 471–475.
8. . X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o‘qitishni rivojlantirish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. 2023. –P. 113-115.
9. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -С. 479-482.
10. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov. // Kredit tizimi sharoitida fizika faning elektromagnitizm bo‘limidan laboratoriya ishlarini tashkil etish muammolari va uning yechimlari // “Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlari” jurnali. №12. 2022. –B. 154-158

Muallif:

Abdullayeva Shoira Isajanovna – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti.

UDK 372.800.4

STRATEGIC CONCEPT FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS IN THE TECHNICAL DIRECTION BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

ТЕХНИКА YO‘NALISHI TALABALARI KASBIY TAYYORGARLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK KONTSERTSIYASI

СТРАТЕГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПЦИЯ ПО РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОЕ НАПРАВЛЕНИЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Eshnazarov Dilshod Azamatovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti. 100100, Toshkent sh, Yakkasaroy tum., Shohjahon ko‘chasi, 5

E-mail: dilshod-eshnazarov2024@gmail.com

Abstract: This article is devoted to the use of innovative teaching methods and innovative ideas among students of the technical direction of the university. Theoretical conditions in the field of introducing innovative teaching methods in foreign countries, CIS countries, as well as in Uzbekistan were analyzed. This article focuses on the effective use of innovative approaches in the field of education reform in the country.

Key words: higher education, science, processing, innovation, innovative development, integration, development, social development, technics, technology, educational system, innovative approaches, pedagogical technologies, educational reforms.

Аннотация: Эта статья посвящена применению инновационных методов обучения и инновационных идей у студентов технического направления вуза. Проанализированы теоретические условия в сфере внедрения инновационных методов обучения в зарубежных странах, странах СНГ, а также в Узбекистане. Данный доклад посвящен вопросам эффективного использования инновационных подходов в сфере реформы образования в стране.

Ключевые слова: высшее образование, наука, разработка, инновация, инновационное развитие, интеграция, развитие, социальное развитие, техника, технология, система образования, инновационные подходы, педагогические технологии, образовательные реформы.

Kirish. Innovatsion strategiya - yuqori texnologiyali korxonaning etakchi funktsional strategiyasi bo'lib, u umumiy strategiyaning asosi va shu bilan birga korxonaning raqobatbardosh rivojlanishining asosiy shartidir. Innovatsion strategiya mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, uning tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish, eng yangi boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish va innovatsiyalarni tashkilotning mavjud madaniyatiga maqsadli integratsiyalashuvi bo'yicha butun muvozanatli chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Strategiya atamasi quyidagilarni anglatadi: Strategiya- korxonadan maqsadga erishish uchun foydalaniladigan harakatlar va holatlar ketma-ketligi; tashqi muhit va ichki potentsial ta'sir xususiyatlariga asoslangan tashkilotni rivojlantirishning uzoq muddatli rejasidir. Hozirgi paytda «innovatsion strategiya» tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, bunda texnologiyalarda ham, kompaniyani rivojlantirish umumiy strategiyasiga muvofiq texnologiyalarni boshqarishda ham kiritiladigan yangiliklarni tanlash va amalga oshirish tizimini shakllantiruvchi va belgilab beruvchi qoidalar va me'yorlar to'plami tushuniladi. Ushbu kontseptsiyani raqobatdosh ustunlikka erishishga olib keladigan real harakatlar bilan to'ldirilgan biznes kontseptsiyasi (bu bozorni tushunishni, tashkilotning bozordagi o'rnini baholashni, uning raqobatdosh afzalliklarini tushunishni talab qiladi); Boshqariladigan ob'ektning mavjud holatini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan sifat jihatidan yangi maqsadlarga erishishga qaratilgan uzoq muddatli harakatlar rejasining maqsadlari bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ta'lim sohasiga davlat darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda. Zamonaviy ta'limda yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bunday yuqori marralarga esa ta'lim jarayoniga ilg'or, innovatsion yondashuvlarni jalb etmay turib erishib bo'lmaydi. Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar

Ta'lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni joriy etilishi ijtimoiy hayotning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etilishi esa, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy takomilini ta'minlash, aholi turmush faravonligini oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida o'zining muhim o'rniga egadir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy kudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi. K.Angelevskiy fikricha, «... barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda... Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy... yondashuvni talab etadi.

Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir... Novatorlikka Qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim» [4].

Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, yangilik yaratish, yangilik kabi ma'noni anglatadi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarnifaollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman

ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish va innovatsion pivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, mamlakatda oliy tizim va ilmiy muassasalar ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladigan asosiy maskandir; oliy ta'limda innovatsion g'oyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy va pedagogik kadrlar salohiyati mavjud; uchinchidan, xorijiy davlatlarning ta'lim tizimida innovatsiyalar bo'yicha tajribalarini keng o'rganish va mahalliy sharoitda joriy etish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Bu o'rinda, mening nazarimda, ikkita asosiy vazifani hal etish zarur: birinchi – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart; ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish" deb ta'kidlagan [1].

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish O'zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

O.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, "Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi" [4].

Oliy ta'lim tizimining innovatsion rivojlantirishda, avvalambor, oliy o'quv yurtlarini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida o'rni yuksaltirish yuzasidan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ularni faqatgina ta'lim dargohi emas, balki ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish, real hayotga yangi mahsulotlar, texnika va texnologiyalar barpo etuvchi muassasalar sifatida rivojlantirish, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi olimlarning har tomonlama rag'batlantirish, ularning mehnat natijalarini xalq xo'jaligiga keng joriy etish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

"Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatli bosqichga o'sib o'tishini ta'minlashda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini dialektik tarzda uyg'unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma'naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg'un tarzda rivojlantirishni yo'lga qo'yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma'naviyat bilan uyg'un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o'zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi" [4].

Oliy ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun o'qituvchi va talabalarda ongida yangicha tafakurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, texnologik g'oyalarni shakllantirish lozim. "Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakkordan turib qarash, yangicha, ya'ni innovatsion yondashuv lozim bo'ladi. Bu yangicha metodologiya, yangicha texnologiya, xullas innovatsion yondashuvdir. Innovatsion, ya'ni yangilikka asoslangan texnologiyalar, yangicha boshqaruv jarayonlarini joriy etish uchun yangicha tafakkurga tayanish lozim" [4].

Oliy ta'limda talabalarga fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni echishga jalb etib, innovatsion jarayonlar ishtirokchisiga aylantirish lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliy o'quv yurtlarida ilmiy-innovatsion markazlar, tajriba-texnik konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik jihozlarga ega zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda yosh olimlar va iqtidorli talabalarning ilmiy salohiyati, yangi g'oyalarni innovatsiyalarga ilmiy va amaliy ko'nikmalari oshadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalarga oid tushunchalarni atroflicha o'rganish orqali kelgusida mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlarda muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish istiqbollari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, -Toshkent, "O'zbekiston", 2017 –B.46.
2. Atajonova S.B. Modernizatsiya obucheniya spetsialno'x distsiplin v texnicheskix vuzax na osnove fizicheskix yavleniy (na primere bakalavriata napravleniya "Mexatronika i robototexnika")G'G' avtoreferat na soiskanie doktora filosofii (PhD) po pedagogicheskim naukam. Namangan, 2023 g.
3. Puentedura, R. (2014). SAMR: A Model for Understanding the Integration of Technology. Available at: <http://www.hippasus.com/rpweblog/>
4. OECD (2015). Students, Computers and Learning: Making the Connection. OECD Publishing. Reiser, R. A., & Dempsey, J. V. (2018). Trends and Issues in Instructional Design and Technology.
5. O.Muhammadjonov. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. –Toshkent, "Muharrir nashriyoti", 2017 – B.28
5. Xojiyev M.T., Raximov B.X., Eshnazarov D.A. "Development of professional competence of future specialists" Journal of Physical Education and Sport: October 07,2021.
6. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

7. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.
8. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013 y.
9. Aliev Ya.E. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Toshkent, TDIU, 2019 yil. – 236 bet.
10. . www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
11. www.search.ebscohost.com Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.

Muallif:

Eshnazarov Dilshod Azamatovich - TTYSI, "Mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

UDK 372.815.99

CONCEPTS OF LEADERSHIP AND MANAGEMENT IN MANAGEMENT PSYCHOLOGY

MENEJMENT PSIXOLOGIYASIDA LIDERLIK VA RAHBARLIK TUSHUNCHALARI

ПОНЯТИЯ ЛИДЕРСТВА И УПРАВЛЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ МЕНЕЖМЕНТА

Abdug'aniyev Otabek Abduhamidovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali. 121001, Yangiyer sh. Ma'rifat mahallasi, Tinchlik ko'chasi, 1-uy

E-mail: otabel-abduganiev2024@gmail.com

Annotation: This article provides specially studied information for leaders and leaders who will develop in the future to do the right work and record good results in management. Any management activity has a subjective basis. Before making a decision, the leader first mentally considers all possible ways to influence subordinates and, depending on the situation, chooses the most appropriate one in his opinion, and despite the fact that the duties of the leader are defined in the job description, the work style has a trace of the leader's unique personality. Also, the article contains the content of the definitions given by foreign and Uzbek scientists to the concepts of leader and leader, and the opinions of Eastern scholars on management policy served to enrich the content of the article.

Key words: manager, leader, ability, management, psychology, employee, team.

Аннотация: В данной статье представлена специально изученная информация для руководителей и руководителей, которые в будущем будут развиваться, чтобы правильно выполнять работу и фиксировать хорошие результаты в управлении. Любая управленческая деятельность имеет субъективную основу. Прежде чем принять решение, руководитель сначала мысленно рассматривает все возможные способы воздействия на подчиненных и в зависимости от ситуации выбирает наиболее подходящий, по его мнению, из них, несмотря на то, что обязанности руководителя определены в должностной инструкции, стиль работы несет в себе следы неповторимой личности лидера. Также в статье содержится содержание определений, данных зарубежными и узбекскими учеными понятиям лидера и лидера, а мнения восточных ученых о политике управления послужили обогащению содержания статьи.

Ключевые слова: менеджер, лидер, способности, управление, психология, сотрудник, коллектив.

Kirish. Butun dunyoda ishlab chiqarish va uni boshqarish borasida modernizatsiya siyosatining tan olinishi, barcha davlatlarning o'ziga xos demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boshqarish siyosatiga o'tishi munosabati bilan boshqaruv masalalariga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, mustaqil O'zbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyati qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi, ijtimoiy sohalarida insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar va lider shaxslarga nisbatan ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y berdi.

Bugun O'zbekiston sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lgan, o'z oilasi, mahallasi, shaxsan o'zi va jamiyat manfaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, unga yetarli darajada ish sharoitlarini yaratishga mas'ul bo'lgan rahbar, eng avvalo, unga g'amxo'r bir inson sifatida qarashi, mehnatdan manfaatdorlik psixologiyasini uning ongiga singdira bilishi shart. Xalqqa yaqin bo'lib, uning dardi bilan yashash, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderning xos fazilatlaridir. Zamonaviy psixologiya fani tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, boshqaruvda, ayniqsa, uning uslublarini tanlashda sintetik tanlovning bo'lishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Amerikalik tadqiqotchi Linda Juell o'zining "Industrialno-organizatsionnaya psixologiya" (2001) kitobida ijtimoiy-psixologik hodisalardan muhimi bo'lmish liderlik masalasiga o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo, xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pasaytirish, yoki aniqrog'ini aytganda, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbarini lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.[3]

Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu “superlider”dir. Bu shunday shaxs, u o‘z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o‘zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g‘oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo, o‘zi uchun lider bo‘lsa, o‘zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-soat yetib keladiki, jamoa o‘zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo‘lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir. [5]

Guruhlardagi o‘zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo‘lib, guruh a‘zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bu borada “lider” va “boshliq” tushunchalari o‘rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim hisoblanadi. B.Parigin bu ikki tushunchani farqlab bergan. [2]

Mutaxassis I.Mahmudov o‘zining “Boshqaruv psixologiyasi” (2006) nomli kitobida “lider” so‘zining izohiga oid quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tadi: “...Umuman olganda, adabiyotda “lider” so‘zini “yetakchi” atamasi bilan almashtirish hollari ko‘p uchraydi.[7]

Boshqaruv psixologiyasi bo‘yicha taniqli psixolog olim L.Staut (2002)ning fikricha, liderlikni abstrakt formula jihatida emas, balki real shaxslarning hayot tarzi sifatida qarash kerak. Liderliklikni o‘zaro mustaqillik modeli har qanday shaxsning maqsadi, shaxsiy sifatleri, qadriyatlarini va shu bilan bir qatorda, uning ijobiy o‘sishi ta‘sir qilgan liderlik qobiliyati imkoniyatlarini tahlil qilishi haqida bosh qotiradi. Xuddi mana shu liderlikning kapitali deb hisoblanadi. [4]

Rahbar kadrlar muammosini o‘rganish psixologiya tarixida sezilarli darajada o‘rin egallaydi. Buning asosiy sababi sotsiologiya, sotsial psixologiyaning tarixiy etyudlarida rahbarning ijtimoiy turmushdagi roli, mamlakat, xalq taqdiridagi mas‘ulligi, taraqqiyot (progress), farovonlik, baxtli turmush ko‘p jihatdan uning shaxsiyatiga, faoliyatiga, qobiliyatiga, aqlzakovatiga bog‘liq ekanligi bayon qilingan. Mutafakkir ajdodlarimiz ta‘limotlarida, xalq ijodiyotida adolatli va adolatsiz shoh to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xaddan ziyod ko‘p. Abu Rayhon Beruniy asarlarida, Al- Farobiy qo‘lyozmalarida rahbar (yuksak lavozim egallaganlar nazarda tutiladi) insonlarning shaxsiy fazilatleri, ularning oldida turadigan murakkab, ma‘suliyatli vazifalar, ayrim illatlarning oldini olish va bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlari bo‘yicha ibratli fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, rahbarning fahm-farosati, donishmandligi, haqqo‘yligi, xalqparvarligi, insof diyonatligi, saxovatpeshaligi ilmiy-amaliy namunalar asosida ta‘kidlab o‘tilgan Vatandosh shoir va yozuvchilar ijodiyotida, folklorida saxiylik-ochko‘zlik bir-biriga keskin qarama-qarshi qo‘yilib, ular insofqa chaqirilgan. Davlatning u yoki bu lavozimida amaldorlik qilgan kishilarning ruhiy dunyosi xalq donishmandligi namunalarida o‘z ifodasini topgan. [1]

Mazmuni: XXI asrda ko‘plab qadriyatlarga munosabat o‘zgargani sir emas. Shular qatorida insoniy munosabatlar, odamlar faoliyatini demokratik o‘zgarishlar sharoitida boshqarish masalalariga nisbatan ham qarashlar birmuncha o‘zgardi.

Ijtimoiy psixologiya, boshqaruv asoslari, menejment sohasida chop etilayotgan yangi davr adabiyotlarida rahbarlik san‘ati va mahoratiga biznes manfaatlar nuqtai nazaridan yondashish an‘anaga aylangan. Ma‘lumki, xorijiy mamlakatlarda boshqaruv ishlariga mas‘ul bo‘lgan shaxslarni yuqorida ta‘kidlaganimizday “lider” deb atashadi. Aynan shu atama odamlar orasida yurib, obro‘ topgan, gapi, fikrlashi, ish tutishi va o‘zgalarga ta‘sir ko‘rsata olishi bilan ajralib chiqqan shaxs uchun ham qo‘llaniladi. Shu ma‘noda Amerika Prezidenti ham lider, atrofiga bir norasmiy guruh to‘plagan hali hech qanday rasmiy maqomi yo‘q kimsa ham o‘sha unga ergashuvchilar uchun lider hisoblanadi. [5]

Rahbar vaqt ustidan hukmron emas, lekin undan samarali foydalanishi mumkin. Har qanday darajadagi rahbarning oldida turgan savol quyidagicha: qanday qilib ishni samarali tashkil etish va eng yaxshi natijaga erishish mumkin? Avvalo o‘z ish vaqtini oqilona taqsimlash zarur. Rahbarlik tushunchasiga quyidagicha ta‘riflarni keltirish mumkin: 1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir. 2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbi-larmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi. 3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi. 4. Rahbar mehnati, ayni vaqtda tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat hisoblanadi. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba‘zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-g‘ayrat topa bilishi lozim.

O‘zaro munosabatlarda rahbarlarning bir-birini to‘g‘ri tushuna olishiga imkon bermaydigan, har xil kelishmovchiliklarga olib keladigan omillar ham bor. Bunday to‘siqlarning eng ko‘p uchraydigan uch xilini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bular: 1) dastlab ko‘rishganda bir-birini tashqi qiyofasi bo‘yicha o‘zidan ustun ko‘rish yoki uni yoqtirmaslik; 2) sherik bilan dastlabki muloqotda uning muhim fikrlariga qo‘shilmaslik va hokazo; 3) dunyoviy tasavvurlari, maqsad va mulohazalari, ijtimoiy barqarorligi mos kelishi yoki aksincha va hokazo.

Jamoaga rahbar bo‘lish juda qiyin. Jamoa ko‘pchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, ularning fikri, dunyoqarashi, ma‘naviyati, xarakteri, ruhiyati ham turlichadir. Rahbar ularning turli-tuman, yaxshi-yomon ishlarini, albatta, kuzatib turishi kerak bo‘ladi, toki hech bir ish ularning nazaridan chetda qolmasin. Agar rahbar faqat boshqaruv ishlariyu, o‘z shaxsiyati bilan band bo‘lib qolsa, qo‘l ostidagi ommani kuzatishga befarq bo‘lsa, unda bu rahbardan voz kechish lozim. O‘z muassasasi a‘zolarining xatti- harakatlaridan voqif bo‘lmaslik jamoaning bir necha tarafga bo‘linishiga olib keladi. Bunday rahbar davlatga ham, jamoasiga ham zarar keltiradi. Shaxsning turli ta‘riflari mavjud, lekin bu tushunchani

to'laroq aks ettiradigan quyidagisi o'rinli: «Shaxs bu — o'zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o'zgartira oluvchi sub'ekt, insondir».

E'tibor berilsa, ushbu ta'rifda shaxsga xos uch jixat sanab o'tiladi: 1. Bilish; 2. Hissiyot; 3. Munosabat.

Shu uch guruhga kiruvchi hislatlar yagona maqsadga, ya'ni tashqi olamni insonning o'z ehtiyojiga binoan o'zgartirishga qaratilgan. Ishlab chiqarish sharoitida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati haqida ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lish kerak. Tashkilotda shaxs o'zgaralar bilan munosabatga kirishar ekan, demak u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatda qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a'zo bo'lgan guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham taxlil etish zarurati tug'iladi.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga quyiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini tulaqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Rahbar shaxs xislatlari. Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etar ekanmiz, unga xos xususiyatlarni uch guruxga bo'lib o'rganish taklif kilinadi: Biografik tavsif; Qobiliyat; Shaxs xislatlari. Rahbar shaxsining biografik jihatlari uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma'lumoti kiradi. [6]

Mehnat faoliyatida rahbar o'zi yengib o'tishi kerak bo'lgan turli xil muammoli vaziyatlarga duch kelishi, yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun u yoki bu harakat yo'lini topishi kerak. Muammolarni yengishning individual usullari mehnat faoliyati davrida shakllanadi va boshqaruv faoliyatidagi qaysi yo'nalishdagi muammoli vaziyatlar bilan ko'proq ishlashga bo'lgan xohish kuchi ham shu davr mobaynida rivoj topadi.

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. Hozirgi kunga qadar boshqaruv psixologiyasi fanida liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud. Birinchisi – liderlik sifatleri nazariyasidir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bo'la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, bu sifatlar majmui uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi.

Masalan 1940-yilda amerikalik K.Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda, jumladan, tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishi tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi. Tadqiqot nihoyasida o'sha boshida taklif etilgan sifatlerning atigi 5 foizigina aksariyat respondentlar javobida qayd etildi. Bu liderlik modelini yaratish oson emasligi to'g'risida xulosaga kelishni taqozo etdi. Ikkinchi nazariya – liderlikning vaziyatga bog'liqlik nazariyasidir. Bu yerdagi asosiy g'oya – lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatleri bor, lekin ba'zi vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay muhit bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya – liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya lider guruhiiy munosabatlarning bevosita mahsuli, deb hisoblaydi hamda uning ro'yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi. [9]

Oxirgi yillarda ko'plab olimlar, jumladan, rossiyalik ijtimoiy psixologlar A.Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normaler hamda ijtimoiy kutilmalarga kim ko'proq darajada javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblashmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy kutilmalar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda. [8]

B.Parigin bu liderlik va rahbarlik tushunchalarini farqlab shunday yozadi: [2] 1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar – shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi; 2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin; 3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan jamiyatda ishlab chiqilgan normaler, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir; 4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatleri, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi; 5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda xodimlariga o'z ta'sirini o'tkazish mumkin; 6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar tashabbuslarni o'z ixtiyoricha bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa, bu yo'nalishda ko'plab ko'rsatmalar, rejalar, normaler, buyruqlar mavjudki, rahbar ular doirasidan chiqib ketishi, o'zboshimchalik qilishi qiyin; 7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhning kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgaralarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.


Superliderlik g'oyasining asosida yotgan muhim fazilat – bu rahbarning o'zgaralarga tashabbuslarni namoyish etishlariga imkoniyat yaratishdir. Tashabbus ko'rsata olish va unga yaratiladigan imkoniyatlar haqida ham qator ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi.

Shu o‘rinda barcha liderlarga xos bo‘lgan yana bir xislatni ta’kidlash joiz. Bu ham bo‘lsa, liderning obro‘si yoki ba’zan tarjimasiz ishlatiladigan ibora bor – avtoriteti. Liderning avtoriteti – bu kerak bo‘lsa, qobiliyat.

Chunki avtoritet unga ma’lum lavozimda o‘tirgani, ma’lum sanksiyalar, imtiyozlar, imkoniyatlarga ega bo‘lgani uchun rasman berilgan bo‘lishi mumkin. Shunisi borki, rahbar avtoriteti hamisha bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan hissiy-irodaviy ta’sirini nazarda tutadi. Eng yomoni agar odamdagi tashabbus bo‘g‘ilsa, o‘z oldiga maqsadlar qo‘ymaslikka o‘rganib qolsa, u nafaqat xalq, balki o‘zining oilasi, yaqinlari, farzandlari uchun ham qayg‘urmaydigan, ular tashvishlarini o‘ylamaydigan bo‘lib qoladi.

Bugungi yangilanishlar sharoitida milliy-madaniy an’analarimizni hisobga olganda ham boshqaruvda gumanistik tamoyillarga keng yo‘l ochish orqali fuqarolarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlikning bo‘lishi qanchalik ahamiyatli ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham yangi avlod rahbarlariga, boshqaruvchilariga qo‘yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog‘lom insoniy munosabatlarning barqarorlashuvi, sog‘lom raqobat va o‘zaro bag‘rikenglik, lekin ishda o‘ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanlikni taqozo etadi.

Liderlik kapitali – bu liderning o‘z atrofdagilarni samarali ergashtira olish uchun kerak bo‘ladigan sifatleri va iste’dodi yig‘indisidir. Bular shaxsga tug‘ilganidayoq beriladigan boshlang‘ich, qayta ishlanilgan, tabiatan ato qilingan qobiliyat va iste’doddir. “Kapital” so‘zining ishlatilishi tasodif emas. Bunda “kapital” deb, o‘shisi uchun zarur, namoyon bo‘lgan qobiliyat resurslarining jalb qilinishi nazarda tutiladi. Xuddi shuningdek, mutaxassislarning e’tirof etishlaricha, liderlik qobiliyati liderlik shartlari paydo bo‘lib uni uyg‘otmagunicha (ta’sir etmagunicha) “uxlab” yotadi. Bu shartlar xuddi katalizatordek insonlarga shunday sharoitlarni taqdim etadi-ki, natijada ular o‘zlarini lider sifatida yaqqol namoyon qila olishadi. Har ikkala tuzilma, kapital va shartlar, asl liderlikni ko‘rsatish uchun zarurdir. Masalan, qotillik ishini olib borayotgan tergovchida, shu ishni qilishi mumkin bo‘lgan gumondor bor. Lekin gumondorni aybdor qilish uchun unda bu jinoyatni sodir qilishga motiv, shuningdek, vaziyat va qurol bo‘lganini isbotlash kerak. [1]



1-rasm: Liderlik piramidasi

Natijalar: Oxirgi yillarda inson omiliga e’tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo‘limi – boshqaruv psixologiyasi paydo bo‘ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog‘iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganadi. Boshqaruv psixologiyasi – boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv sub’yekti va ob’yekti o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi. Mutaxassislarning fikricha, boshqaruv psixologiyasining boshqa turkum vazifalari boshqaruv usullarini shakllantirish bo‘lib, ushbu tadbir tashkilotning samarali faoliyatini ta’minlash maqsadidagi ta’sir etish imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, boshqaruv sub’yekti va ob’yekti masalasi – boshqaruv psixologiyasi fanidagi asosiy tushunchalardan sifatida e’tirof etiladi. Soha mutaxassislari, boshqaruv jarayonini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishar ekanlar, boshqaruv sub’yekti sifatida rahbarni, ob’yekt tarzida esa, xodimni va mehnat jamoasini tasavvur etish mumkin, deb ta’kidlashadi. Yana ularning fikricha, rahbar o‘z faoliyatini tashkil etishi va o‘zini o‘zi boshqarishi, uni nafaqat boshqaruv sub’yekti, balki ob’yekti sifatida ham tushunish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Shu

bois, rahbarning kasbiy mukammallashi, o'zini o'zi boshqarish malakalarini egallashi, tashkilot va xodimlar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi.

Nazarimizda, "yetakchi" so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. "Peshqadam" iborasi esa ma'lum fazilatlariga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat "lider" iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati, uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi". Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari davrasida qaraladi, shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider shu guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokozolarini hammadan yaxshi biladi, ularning ichida eng tashabbuskoridir. Agar tashkilot doirasida qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin.

Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilimli, aql o'rgatuvchi, topqir intellektual lider, xodimlar ichida hazilkash, dilgir, xushchaqchaq, ko'ngil so'rovchi, o'zgalarni tushuna oladigan – emosional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qat'iyatli, irodali – irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda xodimlar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro'-e'tibor qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlar ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga yerishganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Xodimlar ichida xulqi tashkilot qabul qilgan normalarga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi.

Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o'zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajratib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin.

Zamonaviy psixologiya fani, o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiati va unga erishish yo'l - yo'riqlari haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin: 1) jamoa manfaatlariga yo'nalganlik, 2) kasbiy mohirlik har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishni ohirigacha hal etishda tashabbuskor bo'lish; 3) emotsional, hissiy jalb etuvchanlik hislatlari.

Olingan natijalarning ishonchliligi: Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda xodimlar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar chiqarish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokozolar orqali, ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqiladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi. Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xusu-siyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har-xil: kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga qiziqadi, kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kimgadir yuksak ma'suliyatlarni bo'yniga olish ma'qul keladi.

Shaxsning boshliq funktsiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliq real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi qator sifatlar talab qilinadi. Ayniqsa, boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr qanoatning bo'lishini talab qiladi. [4]

Shuning uchun ham kundalik hayotimizda ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, boshqaruv psixologiyasining predmeti sifatida, boshqaruv jarayonidagi inson faoliyati qabul qilinadi. Bu esa o'z navbatida, boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik ulublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatleri, rahbarlikka loyqlikni baholovchi mezonlar, liderlikning vazifalari, boshqaruvchiga xos kompetensiyalar tasnifi kabi masalalarni ham iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'ylashimizcha, "yetakchi" atamasi "lider"ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. "Yetakchi" so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir.

Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlari borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq

ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'ildi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlaridir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora – “peshqadam” va “yetakchi” so'zlari majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin.

Xulosa: Liderlikni parokandalikka uchrashini, odatda, liderlik kapitalining yetishmaganligida yoki bo'lmasa liderlik roli uchun sharoitlarning to'g'ri kelmaganligida deb tushuntirish mumkin. Liderlik kapitali ko'pincha to'g'ri baholanmaydi. Hamisha ham aynan aqlli, mard yoki tashabbuskor odam lider bo'lavermaydi. Shuningdek, liderlik kapitali – bu faqatgina to'g'ri instinktlar emas. O'z nomlanishi bilan “liderlik kapitali” ma'lum ko'rinishdagi o'lchov mezonini, uni u yoki bu darajada ko'paytirish ham mumkin. Liderlik – o'zaro mustaqil jarayondir. U o'zaro harakatdagi uch asosiy tuzilishni: liderlikning falsafiy dunyoqarashini, liderlik psixologiyasi va ijtimoiy yo'nalganlikni namoyon qiladiki, natijada bu uchchala holat liderga atrofda qilarni o'z orqasidan ergashtira olishlik imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emosional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik, ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro'-e'tibor samaralidir. Xodimlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshash kabi omillar obro' orttirish me'zonlaridir.

Yuqorida sanab o'tilgan hislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantiqiga ega. Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odatda lider shaxsda juda yorqin ko'zga tashlanishi shart emas ekan. Shaxsda bu ko'rsatkichning o'rta me'yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun yetarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko'rsatkichi pastligi ish yuzasidan o'tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Rahbarning muloqot sirlarini yaxshi bilishi orqali atrofda qilarda o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi ushbu ko'rsatkichni oshirishdagi asosiy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitov O.E., Tursunaliyev I.A. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: “Istiqol”, 2021. – 164 b.
2. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: “Istiqol” nashriyoti, 2021. – 236 b.
3. Hayitov, O.E. Rahbar psixologik kompetentligini modellashirishning nazariy-ilmii asoslari (oliy ta'lim muassasalari o'rta bo'g'in rahbarlari misolida): monografiya. – T.: «UMID DESIGN», 2021. – 172-bet.
4. Karimova, V.M. Sotsial psixologiya. – Toshkent: “Umid Design”, 2021. – 264 b.
5. Лобза, О.В., Короткова, В.О. Психология управления. – Москва: Кнорус, 2022. – 278 с.
6. Мальцева, Ю.А. Психология управления: учеб. пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 92 с.
7. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKSPRINT” MChJ, 2006. – 230 b.
8. Narzulla Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2016. – 132 b.
9. Hayitov, O.E., Inagamova, L.U. Stressni boshqarish. – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 208 b.

Muallif:

Mavzu bilan tanishish va uni o'rganish jarayoni matematik kreativlik uchun potentsialni shakllantiradigan kontseptual strukturalarni ongda yaratadi. Intuitsiya — bu yangi ma'lumotlar asosida paydo bo'lgan, o'rganilgan kontseptual strukturalarning mahsulidir va intuitsiya asta-sekin nozik vositaga aylanadi. Agar mental tuzilma murakkab va chuqur bo'lsa, intuitsiyalarni shakllantirish ehtimoli ham yuqori bo'ladi. Shu tarzda, mavzuning chuqur tuzilmasi ustida mulohaza yuritish orqali intuitsiyalar tasavvur va ilhomga olib keladi, bu esa keyinchalik rasmiy deduktiv tartibga keltirilgan natijalarni olishga imkon beradi [4].

XULOSA. Tadqiqot davomida matematik kreativlikning asosiy tushunchalari va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Matematik tafakkurda kreativlik nafaqat nazariyani kengaytirish, balki ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativlikning rivojlanishi matematik tafakkurning intuitiv va formal jihatlari o'rtasidagi uyg'unlik orqali amalga oshadi. Kreativlik jarayonlari o'rganish, intuitiv aloqa, ilhom va natijalarni shakllantirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, matematik kreativlik nafaqat yuqori darajadagi matematik faoliyat uchun muhim, balki ta'lim jarayonida ham ijodkorlik va chuqur fikrlashni rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Matematikani o'rgatish va o'rganish jarayonlarida kreativlikni faollashtirish yangi nazariy tushunchalarni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, matematik kreativlik shaxsning intuitsiya va kontseptual strukturalarni rivojlantirish qobiliyatiga asoslangan murakkab jarayon sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraimova, S. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICAL CREATIVITY IN EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(11), 575-579.
2. Abduraimova, S. (2024). THE ESSENCE OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS. *Science and innovation*, 3(B5), 298-301.
3. Douady, R., (1986), 'Jeu de Cadres et Dialectique Outil-objet', *Recherches en Didactique des Mathématiques*, 7 (2), 5-32.

4. Ervynck, G. (2002). Mathematical Creativity. In: Tall, D. (eds) Advanced Mathematical Thinking. Mathematics Education Library, vol 11. Springer, Dordrecht. https://doi.org/10.1007/0-306-47203-1_3
5. Hadamard, J., (1945), The Psychology of Invention in the Mathematical Field., Princeton University
6. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. Science and innovation, 2(B11), 540-543.
7. Muir, A., (1988), 'The Psychology of Mathematical Creativity', Mathematical Intelligencer, 10 (1), 33–37.
8. Creativity in Primary Education. [Achieving QTS Cross-Curricular Strand Series](#). [Anthony Wilson](#). SAGE, 2009. 216 pages.
9. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Modern Science and Research, 2(12), 466-472.
10. Taniberdiyev, A., & Abduraimova, S. (2024). DEVELOPING CREATIVITY IN THE MATHEMATICS TEACHING PROCESS: CONTENT AND ESSENCE. *Modern Science and Research*, 3(11), 278-281.

Muallif:

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.815.99

CHARACTERISTICS OF THE INITIAL PERIOD OF FORMATION OF INTERPERSONAL RELATIONS IN THE FAMILY

OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHIDA DASTLABKI DAVRNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ХАРАКТЕРИСТИКА НАЧАЛЬНОГО ПЕРИОДА ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

Saitmurodova Malohat Boymurod qizi

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: saitmurodovamalohat1996@gmail.com

Abstract. The early period after marriage, often called the newlywed period or the honeymoon phase, is a very important time for establishing and developing interpersonal relationships in the family. During this period, couples try to make various adjustments, compromises, and define shared roles and responsibilities. This is an important transition as the two individuals combine their lives, routines, and hopes to form a cohesive unit.

Keywords: marriage, personality, relationship, interpersonal relationships, early period, couple, family, extended family.

Абстрактный. Ранний период после вступления в брак, часто называемый периодом молодоженов или фазой медового месяца, является очень важным временем для установления и развития межличностных отношений в семье. В этот период пары пытаются внести различные коррективы, компромиссы и определить общие роли и обязанности. Это важный переход, поскольку два человека объединяют свою жизнь, распорядок дня и надежды, образуя единое целое.

Ключевые слова: брак, личность, взаимоотношения, межличностные отношения, начальный период, пара, семья, расширенная семья.

Kirish. Nikohdan keyingi dastlabki davr, ko'pincha yangi kelinlik davri yoki asal oyi bosqichi deb ataladi, oilada shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish uchun juda muhim vaqtdir. Bu davrda er-xotinlar turli xil tuzatishlar, murosalar va umumiy rollar va mas'uliyatlarni belgilashda harakat qilishadi. Bu muhim o'tish davri, chunki ikki shaxs o'z hayotlari, tartiblari va umidlarini birlashtirib, yaxlit birlik hosil qiladi. Yangi kelinlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda e'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlardan biri bu rivojlanayotgan ijtimoiy landshaftdir. Jamiyat uzluksiz o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda va bu o'zgarishlar oila ichidagi shaxslararo munosabatlar dinamikasiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o'zgaruvchan gender rollari va umidlari yangi kelinlik davrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy gender me'yorlariga e'tiroz bildirilmoqda va juftliklar oilada muvozanatli va tenglik muhitini yaratish uchun gender rollarini muhokama qilishlari va qayta belgilashlari kerak. Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan yana bir omil - texnologiya va ijtimoiy media ta'siri. Texnologiyaning rivojlanishi bilan er-xotinlar endi turli xil aloqa va aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Biroq, texnologiya va ijtimoiy mediadan foydalanish yangi kelinlik davrini osonlashtirishi va qiyinlashishi mumkin. Raqamli aloqa ulanishni kuchaytirishi mumkin, lekin u shuningdek, er-xotinlardan maxfiylik chegaralaridan o'tishni va virtual tarmoqlarning shaxslararo munosabatlariga ta'sirini boshqarishni talab qiladi.

Yangi kelinlik davrining o'ziga xos xususiyatlariga madaniy omillar ham yordam beradi. Madaniy me'yorlar va umidlar jamiyatlarda farq qiladi va bu o'zgarishlar yangi turmush qurganlarning tajribasini sezilarli darajada shakllantiradi.

Turli madaniyatlarga xos bo'lgan an'analar, marosimlar va oilaviy dinamika oila ichidagi shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu madaniy farqlarni tan olish va tushunish madaniy sezgirlikni oshirish va uyg'un munosabatlarni o'rnatish uchun juda muhimdir.

Katta oila a'zolarining ta'siri yangi kelinlik davriga ta'sir qiluvchi yana bir jihatdir. Ko'pgina madaniyatlarda bu davrda qaynona va boshqa qarindoshlarning ishtiroki va kutishlari muhim rol o'ynaydi. Katta oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlar er-xotin o'rtasidagi dinamikaga ta'sir qilishi mumkin, bu oilada sog'lom munosabatlar o'rnatish uchun ochiq muloqot, muzokaralar va chegaralarni belgilashni talab qiladi.

Yangi kelinlik davri juftliklar uchun ham qiyinchiliklar, ham imkoniyatlar taqdim etadi. Tuzatishlar va moslashishlar zarur, chunki er-xotinlar hayotlarini birlashtirib, umumiy tartiblarni o'rnatadilar. Birgalikda yashash, qaror qabul qilish jarayonlari va nizolarni hal qilish qiyin bo'lishi mumkin, ammo ular oilada o'sish, tushunish va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, turmushning dastlabki bosqichlari yaqinlik va hissiy aloqalarni shakllantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ishonchni mustahkamlash, muloqot qilish ko'nikmalarini oshirish va hissiy aloqalarni rivojlantirish oilada mustahkam va qoniqarli munosabatlarni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir.

Yangi kelinlik davrida er-xotinlarni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil aralashuvlar va resurslar mavjud. Nikohdan oldingi ta'lim va maslahat dasturlari juftlarni ushbu davrni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zaruriy ko'nikmalar, bilimlar va strategiyalar bilan jihozlashi mumkin. Ushbu aralashuvlar er-xotinlar uchun umidlarni muhokama qilish, potentsial muammolarni hal qilish va sog'lom munosabatlar dinamikasini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Bundan tashqari, nikohdan keyingi doimiy qo'llab-quvvatlash va manbalar oilada kuchli shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga yordam berish uchun juda muhimdir. Qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, er-xotinlar terapiyasi va ta'lim resurslariga kirish er-xotinlarga mojarolarni boshqarishda, muloqotni kuchaytirishda va nikohdan qoniqishni saqlab qolishda yordam beradi.

Gender rollari va umidlarini o'zgartirish: So'nggi yillarda munosabatlar va oilalarda gender rollari va umidlari sezilarli darajada o'zgardi. Yangi kelinlik davri bu o'zgaruvchan dinamikani aks ettiradi, chunki er-xotinlar o'z rollari va mas'uliyatlarida an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarini muvozanatlashga intilishadi. Ikkala sherik ham qarorlar qabul qilishda, uy ishlarida va bolalarni tarbiyalashda teng ishtirok etishga intilib, tenglik tobora qadrlanadi. Ushbu siljish ochiq muloqot, muzokaralar va an'anaviy gender me'yorlariga qarshi chiqishga tayyorlikni talab qiladi.

Yangi kelinlik davrida er-xotinlar bu o'zgaruvchan gender rollari va umidlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu chuqur singib ketgan ijtimoiy umidlar va stereotiplarni yengish uchun ongli harakat talab qilishi mumkin. Karyera intilishlari, maishiy mas'uliyat va shaxsiy intilishlarni muvozanatlash murakkab bo'lishi mumkin va er-xotinlar har ikkala sherik uchun ham mos keladigan uyg'un muvozanatni topishlari kerak. Samarali muloqot, o'zaro yordam va tenglik uchun umumiy majburiyat er-xotinlarga oiladagi gender rollarini muvaffaqiyatli qayta belgilashga yordam beradi.

Texnologiya va ijtimoiy media ta'siri: Texnologiyaning rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning keng qo'llanilishi yangi kelinlik davriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Texnologiya er-xotinlarga turli xil aloqa vositalarini taqdim etadi, bu ularga jismonan bir-biridan uzoqda bo'lsa ham aloqada bo'lish imkonini beradi. Bu lahzali xabar almashish, video qo'ng'iroqlar va tajriba almashishni osonlashtiradi, yaqinlik va aloqa tuyg'usini kuchaytiradi. Biroq, texnologiya va ijtimoiy media ta'siri ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Er-xotinlar ekranda ko'p vaqt sarflanishi, chalg'itadigan narsalar va shaxsiy va jamoat hayoti o'rtasidagi chegaralarning xiralashishi mumkin bo'lgan tuzoqlardan o'tishlari kerak. Shaxsiy ma'lumotlarga kirish oson bo'lgan davrda maxfiylik chegaralarini saqlash juda muhim bo'ladi. Virtual tarmoqlarning shaxslararo munosabatlarga ta'siri, ular er-xotin sifatida birga o'tkaziladigan sifatli vaqtni soya qilmasligini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy media haqiqiy bo'lmagan taxminlar va taqqoslashlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa yangi kelinlik davrida etishmovchilik yoki norozilik tuyg'usiga olib keladi. Er-xotinlar mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni yodda tutishlari va ongli ravishda real hayotdagi aloqalar va tajribalarni rivojlantirishlari kerak. Texnologiyadan foydalanish, chegaralarni belgilash va bir-birlari uchun sifatli vaqt ajratish bo'yicha ochiq muloqot bu muammolarni engillashtirishga yordam beradi [1], [2].

Umuman olganda, texnologiya va ijtimoiy media yangi kelinlik davrida ulanish va muloqot qilish imkoniyatlarini taklif qiladi. Biroq, er-xotinlar ushbu vositalarni diqqat bilan boshqarishlari, maxfiylik chegaralarini saqlab qolishlari va ularning shaxslararo munosabatlariga ta'sirini boshqarishlari kerak. Texnologiyani sog'lom va muvozanatli tarzda qo'llash orqali er-xotinlar o'zaro aloqalarini mustahkamlab, munosabatlari uchun mustahkam poydevor qo'yishlari mumkin.

Madaniy me'yorlar va ma'lumotlar: Madaniyat yangi kelinlik davrining umidlari va tajribalarini boshidan hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli madaniyatlarda nikoh va nikoh hayot bilan bog'liq o'ziga xos me'yorlar, an'analar va marosimlar mavjud. SHunday madaniy oilada shaxslararo munosabatlarning aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, ba'zi madaniyatlarda har bir sherikning nikohdagi roli va mas'uliyatiga oid o'ziga xos umidlar bo'lishi mumkin. An'anaviy gender rollari yanada aniqroq bo'lishi mumkin, bunda uy ishlarini taqsimlash, qaror va bolalarni tarbiyalash uchun foydalanish mumkin. Ush me'yorlarni va boshqa boshqaruv, madaniyer-xotinlar o'zlarining qadriyatlarini va e'tiqodlariga mos keladigan uyg'unlikni o'rnatishlari uchun zarur bo'ladi. Bundan tashqari, madaniy me'yorlar er-xotin va ularning katta oilalari o'rtasidagi dinamikaga ham ta'sir qilishi mumkin. Katta oila a'zolarining ishtiroki va qo'llab-quvvatlash darajasiga

oid umidlar turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Katta oilalarda yashash yoki qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lish kabi madaniy amaliyotlar er-xotinning avtonomiyasiga, qaror qabul qilish jarayonlariga va umumiy oilaviy dinamikaga ta'sir qilishi mumkin. Madaniy farqlarni tan olish va hurmat qilish madaniy sezgirlikni oshirish va er-xotinlarning yangi kelinlik davridan muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bir-birining madaniy kelib chiqishini tushunish va qadrlash orqali er-xotinlar qabul qilish, ochiq muloqot va o'zaro hurmat muhitini yaratishi mumkin.

Katta oilaning ta'siri: Ko'pgina madaniyatlarda yangi kelinlik davrida katta oila a'zolarining ta'siri katta. Qaynota, aka-uka va boshqa qarindoshlar bilan o'zaro munosabatlar er-xotin o'rtasidagi dinamikani shakllantirishi va ularning shaxslararo munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin. Kengaytirilgan oila a'zolari er-xotinning roli, mas'uliyati va xatti-harakatlari haqida aniq umidlarga ega bo'lishi mumkin. Ular o'z tajribalari va madaniy me'yorlariga asoslanib maslahat, fikr yoki yordam berishlari mumkin. Ushbu o'zaro ta'sirlarni boshqarish uchun ochiq muloqot, muzokaralar va oilaviy birlik ichida sog'lom munosabatlar o'rnatish uchun chegaralarni belgilash kerak.

Qiyinchiliklar bir-biriga zid bo'lgan umidlar mavjud bo'lganda yoki er-xotinlar katta oila a'zolarining ta'siri ostida o'zlarini haddan tashqari ko'targanda paydo bo'lishi mumkin. Er-xotinlar uchun aniq chegaralarni o'rnatish, o'z ehtiyojlari va umidlarini bildirish va oilaviy aloqalarni saqlab qolish va er-xotin sifatida o'z mustaqilligini rivojlantirish o'rtasida muvozanatni topish juda muhimdir. Boshqa tomondan, katta oila a'zolarining ishtiroki, shuningdek, qo'llab-quvvatlash, yo'l-yo'riq va oilaviy rishtalarni mustahkamlash uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Katta oila a'zolari donolik, madaniy an'analar va tegishlilik tuyg'usini taklif qilishlari mumkin, bu er-xotinning umumiy farovonligiga va yangi kelinlik davrida moslashishiga hissa qo'shishi mumkin. Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi kengaygan oila tarmog'i er-xotinning mustahkamligini oshirishi va jamiyat tuyg'usini ta'minlashi mumkin [3].

Moslashish va moslashtirish: Yangi kelinlik davri muhim o'zgarishlar va moslashishlarni o'z ichiga oladi, chunki er-xotinlar o'z hayotlarini birlashtiradilar va umumiy tartiblarni o'rnatadilar. Birgalikda yashash, ayniqsa, er-xotinlar bir-birlarining odatlari, imtiyozlari va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha harakat qilishni o'rganganlarida qiyinchiliklar tug'diradi. Birgalikda yashashga moslashish uyg'un yashash muhitini o'rnatish uchun moslashuvchanlik, murosaga kelish va samarali muloqotni talab qiladi. Qaror qabul qilish jarayonlari yangi kelinlik davrida ham qiyinchiliklar manbai bo'lishi mumkin. Er-xotinlar bir-birining nuqtai nazari va afzalliklarini hisobga olgan holda birgalikda qaror qabul qilishni o'rganishlari kerak. Bu kelishmovchiliklarni muhokama qilish, umumiy til topish va er-xotin sifatida samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qilishi mumkin. Mojarolarni hal qilish bu davrda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan yana bir sohadir. Qarama-qarshiliklar va nizolar har qanday munosabatlarning tabiiy qismidir va ularni konstruktiv tarzda boshqarishni o'rganish juda muhimdir. Yangi kelinlik davri er-xotinlarga faol tinglash, hamdardlik va murosaga kelish kabi mojarolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Mojarolarni hurmatli va ochiq tarzda hal qilish orqali er-xotinlar muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlashlari mumkin. O'zgartirishlar va moslashishlar qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lsa-da, ular o'sish, tushunish va shaxslararo munosabatlar uchun mustahkam poydevor yaratish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengish chidamlilikni oshiradi va sog'lom va to'laqonli nikoh munosabatlari uchun zamin yaratadi.

Yaqinlik va hissiy bog'lanishning shakllanishi: Yangi kelinlik davri sheriklar o'rtasida yaqinlik va hissiy aloqalarni shakllantirish uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Ishonch va hissiy aloqani mustahkamlash oilada kuchli shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu davrda er-xotinlar bir-birlarini tushunishlarini chuqurlashtirish, umumiy manfaatlarni o'rganish va birgalikda mazmunli tajriba yaratish imkoniyatiga ega. O'zlarining hissiy aloqalarini rivojlantirishga vaqt va kuch sarflab, er-xotinlar yaqinlikni rivojlantirishi va rishtalarini mustahkamlashi mumkin. Samarali muloqot hissiy aloqalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ochiq va halol muloqot sheriklarga o'z his-tuyg'ularini, ehtiyojlarini va istaklarini ifoda etishga yordam beradi, hissiy yaqinlik hissini uyg'otadi. Faol tinglash, empatiya va bir-birining tajribasini tasdiqlash qo'llab-quvvatlovchi va hissiy jihatdan bog'langan munosabatlarga yordam beradi. Marosimlar va umumiy tartiblarni yaratish ham hissiy bog'lanishni kuchaytirishi mumkin. Tanishuv kechalari, umumiy sevimli mashg'ulotlar yoki yangi an'analarni yaratish kabi tadbirlarda birgalikda qatnashish sifatli vaqt va umumiy tajribalar uchun imkoniyatlar beradi. Ushbu tajribalar umumiy xotiralar va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi [3].

Yaqinlik nafaqat jismoniy yaqinlikni, balki hissiy yaqinlikni ham o'z ichiga oladi. Hissiy yaqinlikni shakllantirish zaiflik, ishonch va bir-birining his-tuyg'ularini va ichki dunyosini chuqur tushunishni o'z ichiga oladi. Er-xotinlar chuqur suhbatlar, minnatdorchilik va minnatdorchilik bildirish va bir-birlariga hissiy yordam ko'rsatish kabi hissiy yaqinlikni rivojlantiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin. Yaqinlik va hissiy bog'lanishni shakllantirishga faol sarmoya kiritib, er-xotinlar oilada o'zlarining shaxslararo munosabatlari uchun mustahkam poydevor yaratishlari mumkin. Ushbu rishtalar to'laqonli va mustahkam nikoh munosabatlari uchun zarur bo'lgan hissiy yordam, aloqa va yaqinlikni ta'minlaydi.

Kelinlik davri uchun yordam va aralashuvlar. Nikohdan oldingi ta'lim va maslahat: Nikohdan oldingi ta'lim va maslahat dasturlari er-xotinlarga yangi kelinlik davriga tayyorgarlik ko'rishda qimmatli yordam beradi. Ushbu aralashuvlar er-xotinlar uchun muloqot, nizolarni hal qilish, umumiy qadriyatlar va umidlar kabi muhim mavzularni o'rganish va muhokama qilish uchun tuzilgan muhitni ta'minlaydi. Nikohdan oldingi ta'lim er-xotinlarni oilaviy hayotga o'tish paytida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni engish uchun muhim ko'nikmalar, bilim va strategiyalar bilan jihozlaydi.

Maslahat mashg'ulotlari er-xotinlar uchun o'z tashvishlari, qo'rquvlari va umidlarini ifodalash uchun xavfsiz joy beradi. O'qitilgan mutaxassislar er-xotinlarga mojaroning potensial sohalarini o'rganish, hal qilinmagan muammolarni hal qilish va samarali muloqot usullarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Ushbu aralashuvlar er-xotinlarga mustahkam poydevor yaratishga va oilada sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Nikohdan keyingi yordam va manbalar: Nikohdan keyingi qo'llab-quvvatlash va manbalar er-xotinlar uchun juda muhim, chunki ular yangi kelinlik davri va undan keyingi davrda harakat qilishadi. Qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, er-xotinlar terapiyasi va ta'lim resurslariga kirish doimiy yordam va yo'l-yo'riq berishi mumkin. Oila, do'stlar va jamoat guruhlari kabi qo'llab-quvvatlash tarmoqlari tegishlilik tuyg'usini va maslahat va dalda izlash uchun platformani taklif qiladi. Ushbu tarmoqlar hissiy qo'llab-quvvatlash, amaliy yordam va er-xotinlarga o'xshash tajribalarni boshdan kechirayotganlar bilan bog'lanish imkoniyatini berishi mumkin. Er-xotinlarning terapiyasi yoki maslahati qiyinchiliklarga duch kelgan yoki munosabatlarni yaxshilashga intilayotgan juftliklar uchun foydali bo'lishi mumkin. Terapevtlar er-xotinlarga muammolarni o'rganish va hal qilishda, muloqotni yaxshilashda va sog'lom va qoniqarli nikoh munosabatlarni saqlab qolish uchun strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Er-xotinlar terapiyasi er-xotinlar uchun mojarolar orqali ishlash, o'zaro munosabatlarni mustahkamlash va uzoq muddatli munosabatlar muvaffaqiyati uchun ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tuzilgan va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlaydi.

Kitoblar, seminarlar va onlayn kurslar kabi ta'lim resurslari ham juftliklar uchun qimmatli yo'l-yo'riq va vositalarni taqdim etishi mumkin. Ushbu manbalar muloqot, nizolarni hal qilish, yaqinlik va munosabatlarni saqlash kabi keng doiradagi mavzularni qamrab oladi. Er-xotinlar yangi kelinlik davrini boshqarishda tushunish va ko'nikmalarini oshirish uchun ushbu manbalarni faol ravishda izlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qo'llab-quvvatlash va aralashuvlar yangi kelinlik davrida er-xotinlarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Nikohdan oldingi ta'lim va maslahat dasturlari er-xotinlarni muhim ko'nikmalar va bilimlar bilan ta'minlaydi, nikohdan keyingi yordam tarmoqlari, terapiya va ta'lim resurslari doimiy yordam va yo'l-yo'riq beradi. Ushbu resurslardan foydalangan holda, er-xotinlar oilada sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatini oshirishi mumkin, bu esa baxtli va mustahkam nikoh munosabatlariga olib keladi. Qo'llab-quvvatlash va aralashuvlar yangi kelinlik davrida er-xotinlarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Nikohdan oldingi ta'lim va maslahat dasturlari er-xotinlarni muhim ko'nikmalar va bilimlar bilan jihozlaydi, shu bilan birga, oiladan keyingi qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, davolanish va ta'lim resurslarida doimiy yordam va yo'l-yo'riq. Ushbu manbalardan foydalangan holda, er-xotinlar oilada sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va saqlash qobiliyatini oshirishi mumkin, bu esa qoniqarli va mustahkam nikoh munosabatlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev J.T. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining yondashuvi // Toshkent tibbiyot akademiyasi. Zamonaviy psixologiya va pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolar va yechimlar. 2023. 812-816 b.
2. Mirzayev J.T. "Internet ta'sirining psixologik jihatlari – yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga muloqot" / Intektlul ta'lim texnologik yechimlari va innovatsion digital volotlari. Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya. 2023. 1295-1300 b.
3. Babajanova F.F. Erta balog'at yoshi - bu ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish uchun sezgir perod. Avstriya gumanitar va ijtimoiy fanlar jurnali. Ilmiy jurnal № 3–4 2015 yil (mart–aprel).

Muallif:

Saitmurodova Malohat Boymurod qizi - GulDU stajor tadqiqotchisi.

UDK 372.853

USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES IN FUTURE PHYSICS TEACHERS

FIZIKA FANIDAN BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

Matjanov Nurjan Sultamuratovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 230105. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi r/u

E-mail: nurjan-1974@bk.ru

Annotation. The article provides information on the need to ensure harmony between theory and practice in the development of professional competence of future physics teachers using interactive educational technologies. The possibilities of using interactive technologies in developing the professional competence of future teachers are also described.

Key words: physics, future teachers, knowledge, abilities, skills, competence, interactive technologies.

Аннотация. В статье представлена информация о необходимости обеспечения гармонии теории и практики в развитии профессиональной компетентности будущих учителей физики с использованием интерактивных образовательных технологий. Также описаны возможности использования интерактивных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: физика, будущие учителя, знания, умения, навыки, компетентность, интерактивные технологии.

Kirish. Bugungi kunda fizika fanining jamiyatimiz taraqqiyotidagi, inson hayotidagi oʻrni va oʻqitishdagi oʻziga xosligidan kelib chiqib, taʼlimning ustuvor yoʻnalishi sifatida fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarni uslubiy tayyorlashning innovatsion usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Tadqiqot obʼekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqotning obʼekti sifatida fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Maqola mavzusiga oid bir qator ilmiy ishlar (A.Axmedov, G.Karlibaeva, Yu.Maxmudov, Oʻ.Sultanova, J.Usarov va boshqalar) tahlili asosida oliy taʼlim muassasalarida fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarning uslubiy tayyorgarligi samaradorligini har tomonlama oshirishga kompetensiyaviy yondashuv asosida erishish mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda fizika oʻqitish metodikasining pedagogik amaliyot bilan aloqasini kuchaytirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini pedagogik amaliyotga keng joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, uzluksiz ravishda uslubiy tayyorgarlik darajasini oshirib borish, ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan interfaol texnologiyalarni keng joriy qilish zarur.

Interfaol yondashuv professor-oʻqituvchilardan koʻnikma va malakalarini pedagogik amaliyotga qoʻllashda ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Mazkur talab bilan bogʻliq ravishda interfaol oʻqitish metodlarini tanlash tizimi ham oʻzgaradi. Oʻqitish metodlarini tanlash va amaliyotga samarali joriy qilish esa, oʻz navbatida, taʼlim jarayoniga qoʻyiladigan talablarga muvofiq kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va shu asosda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdan iborat boʻladi.

Fizika fanini oʻqitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish professor-oʻqituvchiga maʼruza, amaliy va laboratoriya mashgʻulotlarini texnik vositalar yordamida tashkil etish evaziga yanada qulay psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish natijasida oʻquv jarayonini optimallashtirish imkoniyatini beradi. Oʻquv dasturining turli mavzularini oʻrganish usullari va shakllarini tanlashda uning rolini kuchaytiradi, taʼlimga individual yondashuv sababli oʻqitish sifatini yaxshilaydi.

Oliy taʼlim muassasida fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashda AKTdan foydalanish nafaqat oʻqitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning bilim, koʻnikma, malaka va kasbiy kompetentligining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, talabalarni mustaqil ilmiy fikrlashga hamda ijodiy faoliyatning rivojlanishiga yordam beradi [4].

Oʻquv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarini tayyorlashda muhim omil hisoblanib, u oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- kompetensiyaviy yondashuvning asosiy toifalarni aniqlash va uni meʼyoriy-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlash;

- boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash faoliyati natijadorligini taʼminlaydigan nazariy-uslubiy-texnik asoslarni takomillashtirish;

- kelajakda yetuk va raqobatbardosh fizika oʻqituvchilarini tayyorlashda ularning ilmiy qiziqishlari, texnik jihozlari va qurilmalarda toʻgʻri ishlay bilish koʻnikma hamda malakalarini shakllantirib borish;

- boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-uslubiy tayyorgarligiga nazariya va amaliyot uygʻunligini oʻrganishdan tashqari, texnik bilimdonlik va eksperimental kompetentligini rivojlantirish.

Talabalarda fizikaga boʻlgan ilmiy qiziqishlarini orttirish, fanga oid tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun taʼlim jarayonida ularni eksperiment bajarish kompetentligini rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz. Bu esa, oʻz navbatida, boʻlajak oʻqituvchilarda tahlil qilish, umumlantirish, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuitsiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi kasbiy sifatlarini rivojlantirib, ularni olingan natijalar ustida tanqidiy fikr yuritishga oʻrgatadi. Shuningdek, tajriba ishlarini bajarish bilan shugʻullanish fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilariga fanni chuqurroq oʻzlashtirishga, avval oʻrganilgan tushunchalarni takrorlashga va ularga tanish amallarni odatiy boʻlmagan, qiziqarli metodlar orqali samarali oʻzlashtirishga imkon beradi. Fizika fanidan boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish tayanch kompetensiyalarga samarali erishishga, oʻzlaridagi noyob iqtidorlarini roʻyobga chiqarishga olib keladi [2].

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Tajriba ishlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan virtual laboratoriya ishlanmalari vositasida bajarish har bir talabaga berilgan alohida topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishi, ularda ijodiy fikrlash qobiliyatini va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish hamda kengaytirishga, zamonaviy fan yutuqlarini anglash, ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, rivojlantiruvchi ta'lim nuqtai nazaridan talabalarda tajriba ishlarini AKTlari yordamida bajarish kompetentligi rivojlanadi.

Ilmiy-uslubiy manbalarda talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ularning mustaqilligi va faolligini ta'minlovchi o'qitish metodlariga ustuvorlik berish tavsiya etilgan. Ana shunday texnologiyalardan biri bu «Qarorlar shajarasi» texnologiyasi hisoblanadi.

«Qarorlar shajarasi» metodi – muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir nechta xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar imkoniyatini yaratuvchi metoddir.

Talabalar guruhi ishtirokida qo'llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o'n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarni muafassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O'qituvchi talabalarni 4 yoki 6 nafardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi va bu borada eng maqbul qaror qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorlarni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzal va afzal bo'lmagan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar (1-jadval).

1-jadval

«Qarorlar shajarasi» metodini qo'llash

«Qarorlar shajarasi» metodi					
Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhining qarori to'g'risida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha talabalar bildirilgan qarorlarini bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammoga oid tegishli qarorlar borasida savollar yuzaga kelsa, ularga tegishli javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agar barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi [1. B. 89-91.].

O'qituvchilarning interfaol faoliyatiga yaxlit pedagogik hodisa sifatida metodologik nuqtai nazardan yondashish talab etiladi. Shundaygina mazkur faoliyat quyidagi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi [3]:

1. Kafolatlangan natija olish imkoniyatining mavjudligi: bunda o'qituvchi pedagogik hamkorlik va erkin muloqat texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar orasida sog'lom ijodiy muhitni vujudga keltirish hamda pedagogik jarayonni samarali boshqarish orqali interfaol faoliyat tajribasini qo'llash usullarini egallaydi.

2. Interfaol faoliyatning barqarorligi: bunda o'qituvchi interfaol faoliyatning muntazamligi va rivojlanuvchi xususiyatga egaligi ta'minlanadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash imkoniyatlari kengayishi va chuqurlanishi jarayonida o'qituvchi ham o'z faoliyatini uzluksiz yangilash va barqarorlashtirishga intiladi.

3. Interfaol faoliyatni egallashning qulayligi: bunda o'qituvchi ilg'or o'qituvchilardan turli ilmiy manbalar va texnologiyalarni o'zlashtiradi hamda o'z faoliyatida samarali qo'llaydi.

4. O'qituvchi faoliyatining yaxlitligi: bunda talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlashga oid tajribalarni o'zlashtirish asosida vujudga keladi.

5. O'qituvchi pedagogik imkoniyatlarining kengligi: bunda o'qituvchining pedagogik bilimlari va mahoratini takomillashtirish natijasida bir necha interfaol usullardan foydalangan holda talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari hamda mahoratini o'zlashtirish.

6. O'qituvchi nazariy-amaliy bilimlari uyg'unligining ta'minlanganligi: mazkur yo'nalishdagi interfaol faoliyat doirasida modernizatsiyalashgan ta'lim jarayoni oldida turgan asosiy muammolarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

jarayonini mohirlik bilan tashkil etish, bunda noan'anaviy uslublardan foydalanish mexanizmlarini o'zlashtirish nazarda tutiladi.

7. O'qituvchi interfaol faoliyatining istiqbolligi va talabalarni rivojlantirish imkoniyatiga egaligi: bunday faoliyat jarayonida o'qituvchi O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy rivojlanish maromini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida ijtimoiy buyurtma mohiyatini chuqur idrok etish asosida o'quv jarayonini tashkillashtirishga oid zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi kerak.

8. O'qituvchi interfaol pedagogik faoliyatining izchilligi va uzviyligi: bunday faoliyatni o'zlashtirish uchun o'qituvchi ilg'or pedagogik xarakterdagi bilimlarni izchil tarzda o'zlashtirib borishi va ular orasidagi mantiqiy uyg'unlikni anglashi talab etiladi.

9. O'qituvchi interfaol faoliyatining ilmiyligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Chunki ilmiy jihatdan asoslanmagan usullarni interfaol texnologiyalar sifatida ta'lim jarayonida qo'llash mumkin emas. O'qituvchi turli ilmiy manbalar yordamida muayyan interfaol texnologiyalarga xos bo'lgan qarashlar va yondashuvlarning isbotlanganligi, pedagogik nazariyalarning haqqoniyligi va ulardan ta'lim amaliyotida foydalanish imkonini beradigan tavsiyalarining mavjudligi bilan yaqindan tanishishi lozim.

10. Interfaol texnologiyalarning maqsadga muvofiq qo'llanilishi: bunda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan interfaol texnologiyalar ob'ektiv ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur texnologiyalar talabalarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga olib kirilishiga oid pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan talabalarni qurollantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fizika fanidan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'qitishning an'anaviy usullar bilan birgalikda, talabalarni ma'lumotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda samarali qo'llay olishlarini nazarda tutuvchi «Qarorlar shajarasi» metodining bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avlaev O.U., Jo'raev S.N., Mirzaeva S.R. Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent: «Navro'z» nashriyoti. 2017. –B. 89-91.
2. Karlibaeva G.E. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini shakllantirish yo'llari // Qaraqalpaq davlat universiteti xabarshisi. – Nukus, 2018. –№2. – B. 61–63.
3. Matjanov N.S., Karlibaeva G.E. Raqamlashtirilgan ta'lim resurslari – fizika fanidan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosi // Qoraqalpoq davlat universiteti xabarshisi. – Nukus, 2023. –№2(47). – B. 116–119.
4. Matjanov N.S. Fizika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish (fizika o'qitish metodikasi fani misolida) // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –Toshkent, 2023. –№3.–B. 269-272.

Muallif:

Matjanov Nurjan Sultamuratovich - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

UDK 372.882

THE ROLE OF THE SON OF BAKSHSI-POET ERGASH JUMANBULBUL AND THE SON OF FAZIL YALODASH IN THE SCHOOL OF UZBEK EPIC

BAXSHI-SHOIRLAR ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI VA FOZIL YO'LDOSH O'G'LINING O'ZBEK DOSTONCHILIK MAKTABIDA TUTGAN O'RNI

РОЛЬ СЫНА БАКШИ-ПОЭТ ЭРГАШ ЖУМАНБЮЛЬБУЛА И СЫНА ФАЗИЛЯ ЮЛДАША В ШКОЛЕ УЗБЕКСКОГО ЭПОСА

Annakulova Dildora Baymuratovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: annakulovadildora@gmail.com

Annotation: In the article, the role and importance of the works of bakhshi-poets in the formation of the Samarkand school of epics. The performance of national epics in the work of Ergash Jumanbulbul's son. In the works of his son Polkan and Islam, the poet Nazar his son is dedicated to the term-epic sayings. The contribution of Nurmon poet Abdivoy's son to the Samarkand school of epic poetry. features are explained. In the article, the poets or bakhshis who carefully preserved the epics and performed them with excellent art are originally farmers or shepherds from the working population. Naturally, they will be eternal because they have expressed the thoughts and dreams of the working people with great skill. The actual scientific issue of approaching the problem of the poetic function of folklore aspects in world prose as a unique literary-aesthetic phenomenon and deeply understanding it is on the agenda. In this, the most important task is related to the new interpretation of images and expressions in the works of a certain people. The main task was to study the formation process of the Samarkand school of epics, which is considered an important problem in the literary

studies of the new era. After all, "...attention to literature and art, culture is, first of all, attention to our people, attention to our future..." . The role and importance of the schools of epics in the development of the spiritual world of people is determined by their unique poetic features. In Uzbek literature, the issue of the influence of the traditions of folk art, as well as the schools of epics on the creativity of writers and poets, was studied in some studies, most of them were studied in that period based on the spirit of Soviet literature. Romantic epics made up the largest part of Uzbek folk epics. Their plots are very similar, usually the hero falls in love with a beautiful girl and goes on a journey, experiences wonderful events, overcomes difficulties and achieves his goal.

Key words: folklore, folklore, present-day life, marriage and family, tradition, ethnography, bakhshi, epic.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и значение произведений поэтов-бахши в формировании самаркандской школы эпоса. Исполнение национального эпоса в творчестве сына Эргаша Джуманбулбула в творчестве его сына Полкана и поэта Ислама его сыну Назару, посвящены терминологические изречения. Раскрывается вклад поэта Нурмона сына Абдивоя в самаркандскую школу эпической поэзии. В статье поэты или бахши, бережно сохранившие былины и с прекрасным искусством исполнившие их, являются изначально земледельцами или пастухами из трудоспособного населения. Естественно, они будут вечными, потому что они с большим мастерством выразили мысли и мечты трудящихся. На повестке дня стоит актуальная научная проблема подхода к проблеме поэтической функции фольклорных аспектов в мировой прозе как уникального литературно-эстетического явления и глубокого ее понимания. При этом важнейшая задача связана с новой интерпретацией образов и выражений в творчестве определенного народа. Основной задачей было изучение процесса формирования самаркандской эпической школы, что считается важной проблемой в литературоведении новой эпохи. Ведь «...внимание к литературе и искусству, культуре – это прежде всего внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему...». Роль и значение эпических школ в развитии духовного мира людей определяются их своеобразными поэтическими особенностями. В узбекской литературе вопрос влияния традиций народного творчества, а также школ эпоса на творчество писателей и поэтов изучался в ряде исследований, большинство из них изучались в тот период исходя из духа Советской литературы. Романтические эпосы составили большую часть узбекского народного эпоса. Их сюжеты очень схожи, обычно герой влюбляется в красивую девушку и отправляется в путешествие, переживает чудесные события, преодолевает трудности и достигает своей цели.

Ключевые слова: фольклор, фольклор, современность, брак и семья, традиция, этнография, бахши, эпос.

Kirish. Xalq orasida Yo'ldoshbulbul, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Pulkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi, Nurmon shoir Abduvay o'g'li kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda хотира qudratiga ega bo'lgan Po'ltan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni o'z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli хотирага, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo'lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li 60 ta, Ergash Jumanbulbul o'g'li 50 ta Nurmon shoir Abduvay o'g'li 45 ta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning ba'zilar faqat doston aytsa, ba'zilar o'zlari ham dostonlar to'qiganlar. Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to'y-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan, tinglovchilar baxshini to'rga o'tqazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilardan Shernazar Berdinazar o'g'li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o'z iqtidorlari, so'zga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan o'zaro bellashganlar. Mintaqada o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Herobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

“Kuntug'mish” kabi sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar shunday dostonlar sirasiga kirgan. “Sohibqiron”, “Orzugul”, “Erali bilan Sherali” dostonlarida xalqning maishiy turmushi bilan bog'liq voqealar aks etgan. Dostonlar orasida mumtoz poeziya namunalarining xalq og'zaki ijodida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan, yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, ya'ni yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan kitobiy dostonlar ham bo'lgan. Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Bahrom va Gulandom” dostonlari, “Yusuf va Zulayxo” “Rustami Doston”, “Malikai Dilorom” kabi dostonlar shular jumlasidan edi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. Bulung'ur dostonchilik maktabi “Alpomish” dostonini kuylash mahorati bilan ajralib turgan, bu yerga boshqa baxshilar kelib o'z mahoratlarini oshirganlar. Uning vakili Amin baxshi “Alpomish” dostonini 3 oygacha kuylay olgan. Qashqadaryo vohasidagi Qamay qishlog'ida shakllangan Qamay dostonchilik markazi Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi 60 ga yaqin baxshilarni

birlashtirgan. Qo'rg'on dostonchilik maktabi Mangishtovdan Nurotaga qadar cho'zilgan tog'lar etaklarida yashagan baxshilarni birlashtirgan.

Qo'rg'on dostonchilik maktabining eng iste'dodli vakillaridan biri Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868–1937), Po'lkani shoir (1874–1941) va Nurmon shoir Abduvay o'g'li (1862–1939) bo'lib, ulardan “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Oysuluv”, “Kuntug'mish”, “Go'ro'g'lining tug'ilishi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Avazxon”, “Hasanxon”, “Qalandarshox”, “Namoz” kabi dostonlari yozib olingan. Bu dostonchilik maktabida Ergash Jumanbulbul o'g'lining otabobolari, Sulton kampir, Tilla kampir, Jodmon baxshi kabi o'nlab dostonchilar faoliyat yuritishgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li 1886 yil hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. 1937 yil 12 mayda Qo'shtamg'ali qishlog'ida vafot etgan. O'zbek xalq shoiri, dostonchi. Dehqon dostonchi oilasida tarbiya topgan. Uning yetti otabobosigacha, shuningdek, amaki va momolari dostonchi-shoir o'tgan. Avlodlaridan Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul, Tilla kampir, Sulton kampir, Jossoq, Yorlaqab va boshqalar XVII -XVIII asrlarning taniqli dostonchilari bo'lganlar. Ergash Jumanbulbul o'g'lining ulkan shoir-dostonchi bo'lib yetishuvida oilasi va Qo'rg'on qishlog'idagi dostonchilik maktabidagi boy adabiy muhit katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dostonchilik ta'limini otasi Jumanbulbuldan olgan. Jumanbulbul o'z o'g'li Ergashning o'qish-o'rganishi, bilim olishiga katta e'tibor bergan. 1884-1886 yillarda Buxoro madrasalaridan birida tahsil olib, fors, arab tillarini, Fuzuliy, Navoiy, Mashrab, So'fi Ollohyor asarlarini chuqur o'rgangan. Biroq moddiy qiyinchilik va otasining 1886 yil vafot etishi tufayli o'qishni davom ettira olmaydi. Qishlog'iga qaytib kelib mustaqil o'qish, dostonchilikda mahoratiini oshirish bilan shug'ullanadi. Ma'lum muddat ustozi va qaynotasi O'tamurod xatibning yordami bilan dehqonlardan kafsani yig'uvchi bo'lgan. 1887-1889 yillarda Ergash Jumanbulbul o'g'li Buxoro amirligiga qarashli Nurota bekligining amlakdorlaridan biri Qo'zibekka mirza bo'lib ishlaydi. O'lkada boshlangan qahatchilik, chigirka va vabo tarqalishi natijasida shoirning yaxshigina dostonchi bo'lib yetishayotgan ukalari Abduxalil va Abdualillar, singillari va farzandlari birin-ketin vafot etadi. Bunday g'am-alam, tashvishda qolgan shoir kuylashni ham tashlab, taxminan 1904 - 1905 yillarda darbadarlikda hayot kechirgan. 1912-1922 yillarda Bulung'ur, G'allaorol, Urgut tumanlari, Jizzax va Panjikent atrofidagi qishloqlarda tabiblik, qissaxonlik, she'rxonlik qilib yurgan, ba'zan dostonlar kuylagan. 1923 yilda qishlog'iga qaytib kelib, 1924 yil Qoraqisa qishlog'ida bir xonali maktab ochdi. Ergash Jumanbulbul o'g'li 1925 yil Samarqandga kelib 1926-1928 yillarda Bulung'ur tumani Qirqshodi qishlog'ida Po'lkani shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan birgalikda yod bilgan dostonlarini yozdirish va o'zi yozib qoldirish bilan shug'ullangan. 1929 -1936 yillarda Ergash Jumanbulbul o'g'li o'z qishlog'ida, asosan, dehqonchilik ishlari bilan shug'ullangan va dostonchilikda shogirdlar yetishtirdi. 1936 yilda Toshkent shahriga kelib, 1937 yil aprelgacha H.T.Zarifov uyida yashab, aprel oxirida qishlog'iga qaytib borib vafot etdi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining ijodi rang-barang bo'lib, u qirqdan ortiq dostonni yod olgan. Ergash Jumanbulbul o'g'lining “Kuntug'mish”, “Yakka Ahmad”, “Qizjibak”, “Alibek va Bolibek”, “Dalli”, “Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Xushkeldi”, “Xoldorxon”, “Avazxon”, “Xirmon”, “Nurali”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Vomiq va Uzro”, “Varqa va Gulshoh”, “Maxtumquli”, “Tulumbiy” kabi dostonlarni kuylagan Ergash Jumanbulbul o'g'li “o'zbek dostonlarining xazinaboni” degan ta'rifga ega bo'lgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li an'anaviy doston va termalarni kuylab kelishi bilan birga o'zi ham barakali ijod qilgan. Uning “Tarjimay hol” dostoni. “Keldim”, “Toshkent ta'rifida”, “Qizil”, “Tursunoy”, “G'ozli Olim”, “Otajon Hoshim”, “Shoirlarga rahbar Hodi”, “Asov qizlar” kabi termalari xalq hurmatiga sazovor bo'ldi. Ergash Jumanbulbul o'g'li merosi keng miqiyosda o'rganilib, shoir haqida kitoblar nashr etilib, hujjatli film yaratildi. Bulung'ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lgan. 1972 yil mayda shoir tug'ilgan kunning 100 yilligi keng nishonlandi. Nurota tumani markazida unga byust o'rnatildi. Qo'rg'on qishlog'ida maqbarasi, haykali va uy-muzeyi bor. Bundan tashqari, Samarqand shahrida Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Po'lkani shoir va Fozil Yo'ldosh o'g'liga kompleks haykal o'rnatilgan. Nurota tumanida bog', Qo'shrabot tumanida maktab, Toshkent va Samarqand shahrilarida ko'chalar shoir nomi bilan atalgan. Bu maktabning so'nggi iste'dodli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872–1955 yillar) “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Axmad”, “Zulfizar”, “Malikai ayyor”, “Nurali”, “Murodxon”, “Shirin bilan Shakar” kabi dostonlarni maromiga yetkazib aytgan. Xorazm dostonchilik maktabi san'ati boshqa dostonchilik maktablaridan uslubi jihatidan farq qiladi. Xorazm dostonlari yozma manbaga ega bo'lib, ba'zan aytuvchi qo'lida qo'l yozma matni xam bo'lgan, ularda musiqa yetakchi rol o'ynagan, ko'proq ishqiy-romantik dostonlar kuylangan, jamoaviy ijrochilik yetakchilik qilgan. Xorazm baxshilari dostonning har bir qo'shig'ini muayyan kuyda ijro etganlar, dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar. Baxshi so'z hamda qo'shiqni ochiq ovozda, dutor yoki tor bilan doira jo'rligida ijro etgan. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand baxshichilik maktabi vakillari do'mbira jo'rligida bo'g'iq, ya'ni yopiq ovozda qo'shiq ijro etib, ochiq ovozda doston jarayoniga ta'rif berganlar.

Fozil Yo'ldosh o'g'li – o'zbek xalq shoiri, baxshi. Yo'ldosh Mulla Murod o'g'lining shogirdi. Bulung'ur dostonchilik maktabining eng yirik va so'nggi vakili. Yetimlikda o'sgan. Cho'ponlik qilgan. Dostonchilikka havasi erta uyg'ongan. Yoshligida do'mbira chertishni, terma aytishni mashq qilgan. 20 yoshlarida ustozi Yo'ldosh shoiridan dostonchilik sirlarini o'rgangan. Yosh baxshi xalq o'rtasida ustozi uyushtirgan sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, 25- 26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li Amin shoir, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod shoir, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldosh shoir, Ko'ldosh, Suyar kabi Bulung'ur dostonchilik maktabining

peşqadam dostonchilaridan adabiy an’anani qabul qilib olgan, uni puxta egallab, kjeak badihago’ylik bilan boyitgan va o’zbek dostonchiligini yangi bosqichga ko’targan. Fozil Yo’ldosh o’g’li repertuari mavzu va janr jihatidan boy va rang-barang. U 40 dan ortiq xalq dostonlarini yod bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Murodxon», «Rustamxon», «Shirin bilan Shakar», «Go’ro’g’lining tug’ilishi», «Avazxonning o’limga hukm etilishi», «Malika ayyor», «Mashriq», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Zevaxon», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Baxrom va Gulandom», «Oshiq G’arib» kabi 30 ga yaqin doston yozib olingan. Shoir qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlar hamda kitobiy dostonlarning eng yaxshi namunalarini kuylab kelgan. «Alpomish» dostoni uning ijodida alohida o’rin tutadi. Bu dostonning o’zbek xalq dostonchilaridan yozib olingan 40 ga yaqin variantlari orasida Fozil Yo’ldosh o’g’li varianti eng mukammali va badiiy jihatdan barkamoli hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to’la namoyon bo’lgan. Fozil Yo’ldosh o’g’li zamonaviy mavzularda ham qator doston va termalar yaratgan. Uning «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo’zg’oloni», «Kunlarim» kabi dostonlari, «Jangchi o’g’limga», «Elat botir», «Ota nasihati», «Qurollanint», «Er yigitlar, maydonga!», «Jahon tinglagay», «Bolalarimga», «Pushkinga» kabi termalari shular jumlasidandir. Baxshi kuylagan xalq dostonlari Ergash Jumanbulbul o’g’li, Islom shoir, Po’lkan, Abdulla shoir kabilar repertuari va original asarlari bilan birgalikda o’zbek dostonchiligi va adabiyotiga qo’shilgan katta hissa bo’ldi. Shoir merosi keng o’rganilmoqda. Shoir dafn etilgan Bulung’ur shahrida muzey tashkil etilgan va unga haykal o’rnatilgan. O’zbek xalq qahramonlik eposi haqida fikr yuritilganda, avvalo, “Alpomish” dostoni tilga olinadi. Baxshilardan bu doston 30 dan ortiq variantlarda to’liq yoki parchalar tarzida yozib olingan. Ammo ular orasida eng mashhur va mukammal nusxa 1928 yilda Mahmud Zarifov tomonidan taniqli olim Hodi Zarif rahbarligida yozib olindi. Qizig’i shundaki, dostonning O’g’uz, Qipchoq, Oltoy, Qo’ng’irot versiyalari orasida ham Fozil Yo’ldosh o’g’li aytgan nusxa folklorshunos olimlar tomonidan eng mukammali sifatida tan olingan.

Ma’lumki, 1952 yilda “Alpomish” dostoniga qarshi siyosiy hujum uyushtirildi. Bu paytda Fozil Yo’ldosh o’g’li tirik edi. Bizgacha yetib kelgan xotiralardan bilamizki, keksa baxshi bu paytda dostonni qoralovchi majlislarda soatlab o’tirishga majbur bo’lgan ekan, ammo qo’yilayotgan ayblarni mutlaqo tushuna olmagan ekan, chunki savodsiz, o’qishni ham bilmagan Fozil shoir xalq qadriyatlarini tushunish sohasida tanqidchi “olim”lardan tasavvur qilib bo’lmaydigan darajada yuqori turgan.

Fozil Yo’ldosh o’g’li 1872 yilda Samarqand viloyati Bulung’ur tumaniga qarashli Bo’dana hududidagi Loyqa qishlog’ida dehqon Yo’ldosh aka oilasida tug’iladi. 1873 yilda Loyqa qishloq aholisi Chelak qishlog’i atrofiga ko’chishga majbur bo’ladi. Ammo yashash manziling o’zgarishi oila maishiy sharoitida ijobiy o’zgarish yasamadi. Turmush qiyinchiligiga chiday olmagan Yo’ldosh aka 1877 yilda vafot etadi. Fozil oilasi yanada og’ir iqtisodiy ahvolda qoldi. Fozil Yo’ldosh juda yosh bo’lishiga qaramay G’allaorol qishlog’iga borib yashash uchun non topish ilinjida og’ir mehnat qilishga majbur bo’ldi. Bu haqda keyinchalik “Kunlarim” termasida shunday deydi:

Olti yoshda qo’msab-qo’msab otamni,	Yetti yoshda ortdi mening kulfatim,	To’qqizimda bel bog’ladim mehnatga,
Og’ir mehnat ezdi sho’rli enamni.	Sakkiz yoshda og’ir mehnat ulfatim,	Cho’pon bo’ldim, tushdim yana g’urbatga,
Ena-bola topolmadik bir nonni,	Mehnat uchun sinab ko’rdim quvvatim,	Ishlab yedim, lekin qoldim minnatga,
Parcha non deb o’tgan kunlarim.	To’qqiz yoshga yig’lab yetgan kunlarim.	Parcha non deb minnat chekkan kunlarim.
		Do’mbiram kuyladi mening holimni.

E’tibor bergan bo’lsangiz, Fozil Yo’ldoshning yoshligi mutlaqo bolalik quvonchlaridan mahrum holda o’tgan. O’rtoqlari bilan turli ko’ngil ochdi o’yinlar o’rniga bir parcha nonni go’dakligidan mehnat bilan topishga majbur bo’ldi. “Kunlarim” termasi esa uning bolaligi haqida bir asrdan oshgan bugungi kunda tasavvur hosil qilish imkonini beradi, ayni paytda, yoshlarimizni ota-bobolarining bolaligidan ibrat olishga chaqiradi. Fozil Yo’ldosh o’g’lida Ergash shoirning ijodiy muhiti bo’lmagan. Fozil shoirning baxshilar davrasiga kirish jarayoni ancha murakkab o’tgan. Uning dostonchilik sirlarini o’zlashtirishi turmush tashvishlarini boshidan kechirish bilan uyg’unlashgan. Professor Hodi Zarifovning ma’lumot berishicha, Fozil shoir baxshilikni o’zlashtirguniga qadar 19 yoshida o’z qishlog’iga qaytib, otasidan qolgan chorak tanob yerda dehqonchilik qilgan, chorvachilik bilan shug’ullangan. Hatto Loyqa qishlog’ining eng epchil o’roqchisi nomini olishga muassar bo’ladi. Ammo yoshligida o’rgangan do’mbira mashqi unga tinchlik bermaydi. Havas yo’lidagi xarakterlari natija berib, o’z davridagi mashhur ustoz baxshi Yo’ldosh bulbul e’tiboriga tushadi. O’sha paytda Loyqa qishlog’idan Yo’ldosh, Qo’ldosh, Suyar baxshilar o’z ustozlari an’analari davom ettirayotgan edilar. Ular qatoridagi Yo’ldosh baxshi o’z davrida Yo’ldosh bulbul darajasiga yetgan baxshiga shogirdlik qilgandi. Uning Fozilga nazari tushgani bo’lajak “Alpomish” ijrochisi uchun omad muhri bo’lib qoldi. Fozil shoirdagi iqtidor, ovoz, do’mbirachilik ishqiy Yo’ldosh shoir maslahat va ko’rsatmalari zaminida rivojlandi. Oxir-oqibat 1897 yil atrofida 25-26 yoshlarida Fozil taniqli baxshilar nazariga tushdi, Fozil shoir nomini oldi. Xalq baxshisi hamisha elining dardini, alamini, zamon tashvishlarini o’z ijodida aks ettirgan. Xalq ijtimoiy hayotning eng og’ir va musibatli davrlarida aynan baxshi termalaridan tasalli topgan, kelajakka umid bilan qaragan. Bu mas’uliyatni Fozil shoir butun vujudi bilan his qildi. 1898-1908 yillarda Samarqand viloyati ekin maydonlarini chigirtka ofati bosganida “Chigirtka” termasini yaratdi. Yurtda qashshoqlik avjiga chiqqani sari baxshi nolasi ham avj oldi:

Kambag’alning aqli shoshib,	Kecha-kunduz zor yig’lashib,
O’g’il qiziman kengashib,	Do’stlar, qaddi kamon bo’ldi.

Aksiga olib chor hukumatining mahalliy aholi boshiga yog'dirayotgan zulmi, adolatsizligi ham ko'paydi. Xalq faqat mute' va qaram bo'lishga majbur edi. Norozilik bildirganlar shu zahoti jazoga tortildi. Ayniqsa, Jizzaxda bosh ko'targan aholining vahshiy larcha to'pga tutilishi dard ustiga chipqon darajasiga yetdi. Fozil shoir bu davr voqealarini "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'aloni" dostonlarida ifodaladi. Baxshi tajribasi unga o'z davrida ro'y bergan voqealarni o'ta jonli lavhalarda tasvirlash imkonini yaratdi:

O'z holiga qo'ymay xalqni
Qayta-qayta chiqim soldi,
Urushda bo'lgan xarajat

Qaydan topib bersin elat?
Hamma bo'lib qoldi hayron,
Nechovning vatani vayron.

"Jizzax qo'zg'aloni" dostonida soliq va ortiqcha zulm ustiga oq podshohning Germaniya bilan bo'layotgan urushga mardikor yuborish haqidagi farmoniga qarshi xalqning ko'tarilishi hikoya qilinadi. Baxshi notiqning nutqidan tortib chor amaldorlarining talvasaga qadar hayot lavhalarini shunday bayon qildiki, dostonni eshitganlar yoki o'qiganlar o'zini o'sha tarixiy voqealar ishtirokchisidek his qildi. Fozil Yo'ldosh o'zbek fol'klorshunosligi ilmiga 1922 yildan ma'lum bo'ldi. Dastlab, G'ozim Olim Yunusov, keyinchalik V.M.Jirmunskiy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Muhammadnodir Saidov, Bahodir Sarimsoqov, bugungi kunda To'ra Mirzaev, Mamatqul Jo'raev, Abiy Musaqlov, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqul kabi olimlar baxshi ijodini o'rganishda muhim ilmiy tadqiqotlar yaratdilar. "Alpomish", "Yodgor", "Shirin bilan Shakar", "Murodxon", "Rustamxon", "Malika ayyor", "Mashriqo", "Intizor", "Balogardon", "Nurali", "Jahongir", "Farhod va Shirin" kabi qirqa yaqin dostonni Fozil Yo'ldosh o'g'li istagan paytda, istalgan lavhadan aytib ketaverish salohiyatiga ega edi. Ayniqsa, "Alpomish"ni kuylash uning uchun alohida sharaf va huzur bag'ishlar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li qahramonlik eposi namunasini ijro etishda uning dostonini oddiy odamlar tinglayotganini yodidan chiqarmasdi. Odamlarning qalbini esa turli his-tuyg'ular egallagan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun baxshi dostonlarida faqat oliy mezon bilan o'lchanadigan jang lavhalaridan tashqari asar qahramonlarining ruhiy holatini ifodalashga ham diqqat qilar edi. "Alpomish" dostonidagi Barchinning Boychiborga alam bilan murojaat qilishi bu fazilatning dalili bo'lishga arzigulikdir:

"Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti,
Oq to'shim yayloving, sochim – shipirtki,
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
To o'lguncha sayising bo'p yurayin.
Egam rahm aylasin qonli yoshima,
Sabab bo'lib qo'shgin dengi-do'shima,
Olmosday tuyog'ing qorday to'shima,
Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti!

O'yilmay kuymasin kulbai xonam,
Oh urib yig'laydi mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
O'n ikki oy seni Boyburi boqdi,
Gardaningga Qaldirg'och qo'tos taqdi.
Yig'latmagin Barchin gulday bebaxtdi,
Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti".

Bu murojaatni befarq eshitish mumkin emas. Uni tinglaganda, juda bo'limganda bir oz e'tibor bilan o'qiganda, inson vujudida sehrli o'zgarish ro'y bergandek tuyuladi. O'zga yurtda g'arib bo'lib yashashdan cho'chigan norasida qizning yurak dardi ifodalangan. Fozil Yo'ldosh o'g'lining nomi chiqqan baxshilar o'rtasida munosib hurmatga ega bo'lishi bejiz emas, albatta. Bu hurmat tinimsiz mehnat, favqulodda xotira egasi bo'lish, hayot tajribasini aytilayotgan asarga singdirish, mahorat va bukilmas iroda mahsuli ekani oddiy haqiqatdir. Fozil Yo'ldosh o'g'lining o'nlab dostonlari xalq og'zaki ijodi turkumida yuzlab bosma toboqlarda nashr etildi. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlar, uning ijodi tahlil qilingan kitob va maqolalar soni 500 ga yetdi. Fozil Yo'ldosh o'g'li 1955 yilda 83 yoshda o'z qishlog'ida vafot etdi. Bir so'z bilan aytganda, Fozil Yo'ldosh o'g'li o'zbek dostonchiligida mashhur va ulkan baxshi sifatida shuhrat topgan xalqimizning asl farzandidir.

1935 yil Xodi Zaripov tahriri ostida to'plangan Tarixiy ma'lumot murojaat kilamiz. Asarda Nurmuxammad bobomiz to'g'risida qo'yidagicha ta'rif berilgan. Nurmon bo'loli (kelishgan, baquvat) azamat yigit edi. Otni, chavandozlikni yaxshi ko'rar, kishilarning otini so'rab olib, ko'pkari chopishni mashq qiladi, usta chavandoz bo'lib chiqadi; Karmana, Buxoro, Qarshi, Kerki tomonlarda borib ko'pkari chopadi, atoqli ko'pkariboz bo'ladi. Nurmon shoirning ug'li Sultonmurod xojidan eshitganimiz bor haqiqatda Nurmon shoir bobomiz atoqli ko'pkariboz bo'lib, Buxoro amirining otlarini xam ko'pkarida chopganligi to'grisida bizga hikoya sifatida aytishgan. Bu to'g'risida tarixshunos olimlarimiz Kattaqo'rg'onlik S.Sirojiddinov va N.Norqulovlarning maqolalarida ham o'z aksini topgan.

Elimizda "Gadoning dushmani gado bo'ladi" degan maqol ko'p gapiriladi, bobomizning mohir chavandoz bo'lib tanilganini ko'raolmagan g'anamlari unga suiqasd uyushtiradilar va Nurmuxammad ko'pkari chopayotgan paytida otini yikitishadi, shunda bobomizning oyogining son suyagi sinadi va u oxir-okibat mayib bo'lib boshqa chavandozlik qilmaydi, lekin, bobomizni baxshichilik san'atiga bo'lgan ishqibozligi asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Bu to'grida yuqorida keltirilgan tarixiy manbada akademik Xodi Zarif shunday yozadi.

Nurmon shoir - yoshlikdan badiiy adabiyot bilan qiziqgan, do'mbra chertishni allakachon o'rganib olgan shoirlarning doston ayitishlarida qatnashib ulardan parchalar o'rganib olgan edi. Ko'pkaribozlik qilib yurganida dostonchilarni ko'p tinglar edi, dostonchilikka bo'lgan havasi oshdi, termalar va doston bo'laklarini o'rganib do'mbra bilan kuylab yurdi deyiladi. 30 yoshida otasi vafot etgach, oilani boqish faqat Nurmuxammad gardaniga tushib qoladi,

Zor yig'laydi o'rdadagi xotini.

Namoz dostonini o'qir ekansiz, shoir ortiqcha maqtovg'a berilmaydi, xalq og'zaki ijodi uslubining hamma afzalliklarini saqlagan holda Namoz obrazini yaratadi. Bobomiz Nurmon shoir "Namoz" dostonida o'zi bevosita jonli guvoh bo'lgan tarixiy voqealar zaminida mavjud tuzumni tanqid etish bilan birga unga qarshi kurash g'oyasini ilgari suradi. Namoz boshlagan harakatning siyosiy va ijtimoiy mohiyati shundan iboratki, u mehnatkash xalq ommasi boshlagan milliy-ozodlik harakatining bayroqdori bo'ldi:

Kecha-kunduz yurgani dala-dasht bo'ldi, O'ttiz yigitlarga o'zi bosh bo'ldi,
Nikolayga necha kun kengash bo'ldi, To o'lguncha Nikolay bilan g'ash bo'ldi,
Namozdayin bir zo'r o'tdi jahonda.

Bu to'g'rida tarixshunos olimlar S.Sirojiddinov va N.Norqulov Namoz Pirimqulov chor hukumati va mahalliy boy-amaldorlarga qarshi kurashgan tarixiy shaxs. U Eshonqishloqda 1865 yilda tug'ilgan. Yoshlik davrida ota-onasi olamdan o'tib, xor-zorlik bilan kishilar eshigida chorakorlik qilib, voyaga etdi. Rus ofitserining yordami bilan Samarqand, Toshkent, Moskva va Peterburgda bo'lib, harbiy maktabni tugatdi. Shundan keyin u, Turkiston general-gubernatori qoshida tarjimon-ad'yutant bo'lib ishlaydi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay, general-gubernator uni shtabdan uzoqlashtirgan va Samarqand hokimi ixtiyoriga yuborgan. Hokim Namozni Dahbet volosti boshqaruvchisi qilib jo'natadi. U Dahbetda Javlonqulning qizi Nasibaga o'ylanadi. Zulm-istibdodni parchalash, abadiy erkinlikka erishish uchun kurash yo'lini tanlagan Namoz 1905 yilda volost boshqaruvchisi lavozimidan voz kechadi va adolatsiz tuzumga qarshi kurashga bel bog'laydi. Namoz yigitlari safida rus, ukrain, arman, afg'onlar va hatto erkak kiyimidagi xotin-qizlar ham bo'lgan. Bu Namoz xarakatining sotsial mohiyatini yanada oshiradi. Namozning boy-amaldorlarning tekin to'plagan mol-dunyosini bosib olib, muhtojlarga bo'lib berishdan iborat harakati o'sha davr uchun progressiv hodisa edi. Shuning uchun shoir Namozni jasur, qasoskor, xalq bahodiri sifatida ta'riflaydi.

Bedov minib sag'risini silatdi, Murodini bir xudodan tilatdi,
Yaqin, dedi, Qarshi cho'lin talatdi, Amir-shohini taxt ustida yig'latdi,
Xech ko'rmadim Namozday azamatni.

Kecha-kunduz yurgani dala-dasht bo'ldi, O'ttiz yigitlarga o'zi bosh bo'ldi.

To o'lguncha Nikolay bilan g'ash bo'ldi, Namozdayin bir zo'r o'tdi jahonda..!

Birgina "To o'lguncha Nikolay bilan g'ash bo'ldi" satr o'zida ham Nurmon baxshining, ham qasoskor Namozning chorizm va uning siyosatiga bo'lgan munosabati aniq va ro'y-rost ifodasini topgan. O'zbekistondagi ozodlik harakati 1905 yil revolyutsiyasi ta'sirida yangi bosqichga kirdi. Bu bosqichning xarakterli xususiyati shundaki, O'zbekistonda ozodlik kurashi Rossiya ishchilar sinfi revolyutsion harakatining bevosita ta'siri ostida keng tus oldi va aholining qoloq qismi –dehqonlar siyosiy kurash girdobiga aktiv jalb etildi. Dehqonlarning stixiyali kurash formalaridan biri boylarning uyiga bostirib kirib, ular mol-mulkini olib, kambag'allarga bo'lib berish edi. Xalq qasoskoriga qarshi kuchlar safini ko'paytiradilar. Qo'shimcha harbiy kuchlar va o'q-dori, mablag'lar ajratiladi, mahfiy ayg'oqchilar safini kengaytiradilar. Bu voqea haqida "Turkiston viloyatining gazetasi" da shunday yozadi: "Shul vaqtda mazkur xovli atrofiga qorovullar qo'yilib, janobi pristav to'ra uezd hokimiga xabar yuboradilarki, yana ellik soldat bilan shu adad bomba yuborgaylar. Mazkur kuni soat 3 da ellikta soldat bilan o'nta bombamushak olib kelib, atrofni qurshab turdilar. Alar Namozga taslim bo'lib chiqishini aytdilar. Buning javobiga o'q ovozi eshitildi. Bu rad javobining alomati edi. Andin keyin Namoz va Sherniyoz turgan uyning to'rt tomonidan o't qo'yidilar". Qora guruhlar xalqparvar Namozning yo'liga rahna solish uchun unga qarshi tuhmatlar to'qidilar, bo'htonlar uyushtirdilar. Namoz va uning to'dasi shakkoklikda ayblanib, ular "o'g'ri", "bosmachi", "xalqning tinchiligini buzuvchilar", deb bandom qilindi. Josuslar uning harakatlarini yomanladilar. Ammo qasoskorlar tuhmat va haqoratlariga qaramasdan, kurashni davom ettiradilar.

Nurmon shoirning "Namoz" dostoni isyonkor shaxs, mard kurashchi, qasoskor xalq yo'lboshchisi, Namozga nisbatan xalq madhiyasidek baralla yangradi. Shunisi xarakterliki Namozning ayrim yigitlarining nomlari qo'shiqda ham aynan keltiriladi. Bu shoirning sodir bo'lgan tarixiy voqealarning bevosita shohidi bo'lganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, shoir tarixiy haqiqatdan chekinmaslik uchun Namoz va uning qasoskor yigitlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq ifodalashga harakat qiladi.

Boshiga yarashgan zarrin dastari, Ko'rganda ketadi dushman eslari.
O'zi qipchoq, Sherniyozday do'stlari, Sherniyozday arslon bordir jahonda.
Havo yovsa qorning beti tumandir, Ostiga mingan oti uchqur jiyrondir,
Suv o'rniga oqizdi qizil qondi, Sirg'alidan hamroh qildi Jumandi,
Jumandayin polvon bordir jahonda.

Namoz boshchiligida olib borilgan inqilobiy harakat sirtidan qaraganda bosqinchilik xarakterini eslatsa-da, aslida u juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega edi. Chunki Namoz va uning yigitlari feodal hukmronlarning mol-mulkini bosib olishi natijasida qo'lga kiritilgan o'ljalarni o'z shaxsiy manfaatlari, o'zlarining maishiy ehtiyojlari uchun sarflashmaydi, kambag'al beva-bechoralarga bo'lib berishadi. Bunga "Russkiy Turkestan" gazetasining 1906 yil, 3 mart sonida bosilgan qo'yidagi xabar ham dalildir. "Namaz, - chitaem v doklade pomoshnika voennogo gubernatora Samarkandskoy oblasti, - v srede bednogo naseleniya vesma populyaren, za vsyo uslugi hedro rasplachivaetsya, grabit tol'ko bagachey, bednyakam

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

ochen' pxirodit na pomoh' den'gami, xlebom, semenami na obsemenenie poli i proch". Namoz harakati borgan sari tobora kengayib bordi. Zolim, maishatparast amaldorlar, mehnatkashlarning peshona teri bilan to'ldirilgan mol-mulk evaziga dang'illama to'y-tomoshalar berib gerdayadigan boylar, zavod-fabrika egalari, ayg'oqchi savdogarlar, pulni foydaga qo'yib, poraxo'rlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar haqida Namozga biror xabar etdimi, u o'sha kuni tinib-tinchimasdi. Qo'yidagi faktlarga e'tibor bering: "Kattaqo'rg'on uezdida Mingariq qishloq qozisi Mulla Muhammad Yusuf Saidqosim Xoja o'g'lining uyiga kirib, Namoz qaroqchi yana bosib, ushlab turib, uyini talon-taroj ayblabdur" Namozning Kattaqo'rg'onida olib borgan ana shunday jasoratli va matonatli harakati Nurmon shoirning qo'shiqlarida ham o'z ifodasini topgan:

Samarqand shahrida davron surganda, Oldiga solgandi o'ttiz mergandi,
Xuftun bilan bosdi Kattaqo'rg'ondi, Hech ko'rmadik Namozdayin sultondi...

Xalq qahramoni Namoz boshchiligidagi inqilobiy harakat Turkistonda barcha yuqori tabaqa hukmdorlar: amir va hokimlarga, boy va amaldorlarga sira ham tinchlik bermadi. Ana shu munosabatni Nurmon shoir o'ta yorqin va ta'sirchan ifoda etadi:

Burgutdayin qovog'ini uygandi,	Oti Namozbekdir, o'zi sher edi,
Bor kuchini bilagiga yiqqandi.	"Qozoq, o'ris"ga och bo'riday doriydi.
Namoz desa, yotgan boylar o'yg'ondi,	O'n to'rt bulus ushlay olmay qariydi,
To'rt hokimga o'zi tanho tekkandi,	Namozday qarchig'ay bordir jahonda.
Namozdayin vallomat o'tdi jahonda.	

Dostonning fazilatlaridan biri shundaki, shoir Namoz obrazini yaratishda ortiqcha madhiyabozlikka berilmaydi, hayot zaminidan uzilgan mubolag'a, o'xshatishlarni ishlatmaydi, aksincha, xalq og'zaki ijodi uslubining hamma afzalliklarini saqlagan holda Namoz obrazini yaratadi. Erk va ozodlik uchun kurash qurbonsiz bo'lmaydi. Bu kurashda ne-ne yigitlar qurbon bo'lganligini shoir katta iztirob bilan kuylaydi:

Juyidevonada katta jang bo'ldi,	Oqil, dono, kamtar edi Shohamin
Goh u tomon, goh bu tomon tang bo'ldi,	Titir edi uni ko'rsa xar zolim.
Otishmadan quloqlar batang bo'ldi,	Zolimlarga qiron soldi polvonim,
Ne-ne mardlar shahid ketdi, do'stlarim.	Shohamindek dono ketdi, do'stlarim.

Namoz va uning yigitlarini qo'lga tushira olmagan "o'n to'rt bulus"ning vakillari Turkiston general-gubernatorligiga ariza ustiga ariza yo'llab, undan yordam so'raydilar. Shuningdek Namozni tutishni Samarqand va Kattaqurg'on uezdida "chor ma'muriyatining eng ishonchli vakillari" nomidan Kenja ismli bir "qonxo'r jallod" orqali amalga oshirishni tavsiya etadilar va Josus Kenjani Namoz yigitlari orasiga kiritiladi. Bobomiz bu jarayonni qo'yidvgicha tariflaydi:

Ostida o'ynaydi arg'umoqi oti,	Jilovida Kenjadayin jallodi,
Oqposhshoga ketgandir arz xati.	Kenjadayin "qonxo'r" bordir jahonda.

Ma'muriyat arizachining mazmuni bilan batafsil tanishib chiqqan Turkiston general-gubernatorligi Namozni tutish va uning inqilobiy harakatiga barham berish uchun darhol maxsus jazo otryadini jo'natishga majbur bo'ladi. Ammo, Namoz va uning qasoskor yigitlari bu otryadga, qolaversa, Samarqand va Kattaqurg'on uezdining qo'shiniga tutqich bermaydi. Bu xabar hatto, Nikolayga ham etib boradi. Namoz harakatining ijtimoiy-siyosiy mazmunini tushungan podsho hukmdorlari bu harakatni tezda bostirish, uning qasoskor yigitlarini qo'lga tushirish tadbirlarini ko'rishga kirishadilar. Buning uchun ular, eng avvalo, Namozni el orasida "o'g'ri" va uning yigitlarini esa "bosmachi", "qaroqchi"lar to'dasi, deb gap tarqatadilar. Namozni tiriklayin tutib kelgan "mard yigit" ga o'n ming tanga, boshini kesib kelgan "josus"ga esa uch ming tanga pul mukofoti belgilanadi. Bu xabarni hatto, mahalliy hukmdor va xokimlar xam o'z farmonlari orqali Omon jarchi orqali butun elga ovoza va e'lon qildirishadi.

X.To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" nomli tarixiy-sarguzasht romanida Omon jarchi elga ovoza qilgan farmondan namuna keltirilgan. Biz qo'yida uning ayrim bandlarini keltiramiz.

Hokimlarning farmoni bu,	Shayton ozdirib yo'ldan,	Hojat yo'qdir guvohga!..
Boylarning armoni bu.	Ixtiyor ketib qo'ldan.	Tirik tutib kelganga,
Namoz otli bir o'g'ri,	Bosib, talay boylarni,	Zo'rga-zo'rman, deganga,
Kofir Primqo'l o'g'li.	Yondirib ne uylarni.	O'n ming tang mukofot,
Do'ngpeshona, ot yuzli,	Kaltaklab ba'zilarni,	Va ketidan ziyofat!
Subuti yo'q, ming so'zli.	Mingboshi, qozilarni,	Boshini kesib kelganga,
O'g'ri, qassob, qaroqchi,	Barchani g'amga tashlab,	Dovyurak u merganga—
Usta mergan, uloqchi.	Botdi katta gunohga.	Mukofot uch ming tanga,
		Gap tegishli hammaga!

Shubhasiz, mazkur satrlar bevosita xalq og'zaki ijodiga taalluqli emas. Biz unda Namoz va uning yigitlariga mahallay boy hamda chorizm hukmdorlarining munosabatlari aks etgani uchun keltirdik, xolos.

Xulosa. 1. Samarqand dostonchilik maktabi – o'zbek dostonchilik maktabining bir yo'nalishi bo'lib, mazkur hududda yashayotgan xalqning etnik tarkibi, kelib chiqishi, tarixan qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari

ushbu uslubning o'ziga xosligini belgiladi. O'zbek aholisining ko'pchilik qismi azaldan yarim ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi sababli aynan, shu jarayonlarga bog'liq baxshilar tomonidan ko'ylangan xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi.

2. Mintaqada o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, IHerobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

3. Bulung'ur dostonchilik maktabi "Alpomish" dostonini kuylash mahorati bilan ajralib turgan, bu erga boshqa baxshilar kelib o'z mahoratlarini oshirganlar.

4. Samarqand dostonchiligida hajm jihatidan katta dostonlar – nasrdan va epik she'rlardan iborat bo'ladi. Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. Namanganda ham dostonlarning hajmi kichik, ammo ularning matnlari Samarqand dostonchiligi kabi nasrdan va epik she'riy parchalardan tashkil topadi.

5. Po'ltan shoir o'zining ustozidan Qo'rg'on dostonchilik maktabiga xos usullarni mukammal o'zlashtirgani uchun butun ijodi davomida yoshlarni ajdodlarimiz qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat bilan qaradi. Ayniqsa, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" u yoddan bilgan 70 ta doston orasida o'zining voqealarni aniq ifodalashi, tilining soddaligi, qadimgi odatlarni ulug'lab tasvirlashiga ko'ra juda ibratlidir.

6. Nurmon shoir va Namoz o'rtasidagi uchrashuvlardan biri Xayronshayxdagi sayilgoxda bo'lib o'tganligi to'g'risida bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboev "Qasoskorning oltin boshi" asarida yoritilgan.

7. Qadim zamonlardan o'z elining turmush tarzi ular xayotida uchrayotgan adolatsizlik, yovuzlikka nisbatan nafrat, shuningdek, elning baxt-saodati, orzu-istagi, ishqiga sodiqlik va vafo ramzlari, Vatan himoyasida shahid bo'lgan vatanparvarlarga aytilgan marsiyalar orqali baxshi shoirlarning so'z javohirlari aks ettirilgandir, o'zbek xalq og'zaki ijodi namoyondalari: Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh, Pulkan shoir, Islom shoir, Bekmurod Jo'rayov o'g'li kabi elning sevikli dostonchilarining faoliyati tahsinga sazovordir.

8. O'zbek dostonchiligida xalq episi namunalarini, mazkur san'at turini oliy darajada ijro etgan baxshilar juda ko'p bo'lgan. O'nlab ulkan san'atkorlar asrlar davomida asl farzandlar tomonidan yaratib kelingan dostonlarni mehr bilan aytib mahalliy aholi o'rtasida shuhrat topdilar. Ularni san'at muxlislari baxshi, shoir nomlari bilan e'zozladilar. Alohida mahoratli baxshilar ismi nomiga bulbul so'zi qo'shib talaffuz qilindi. Ammo baxshilar kuylagan dostonlarga bir oz diqqat bilan nazar tashlasak, ularning har birida o'ziga xos yo'nalish, so'z tanlash, kuy ijro etish usuli borligini sezamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PK-4038-sonli qarori (2018-yil, 28-noyabr).
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017.-488 b.
3. Alaviya M. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" – T.: Fan, 1974.
4. Zarofov X. T. K izucheniya uzbekskogo narodnogo eposa. G'G'Voprosov, 1960.;
5. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari. G'G' O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. № 2.
6. Baxshi. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi 1-4.Tomlar.
7. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. –Toshkent:O'qituvchi, 1973.
8. Razzoqov H. Mirzaev T. Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.T.,1980.

Muallif:

Annakulova Dildora Baymurotovna - Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi.

УДК: 811.512.133-1

ANALYSIS OF SOFTWARE TOOLS IN TEACHING THE SCIENCE OF COMPUTER NETWORKS

КОМПЬУТЕР ТАРМОQLARI FANINI O'QITISHDA DASTURIY VOSITALAR TAHLILI

АНАЛИЗ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ КОМПЬЮТЕРНЫЕ СЕТИ

Irmuxamedova Navruza Abdullajonovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: irmavroza@mail.com

Abstract. This article aims to analyze the didactic possibilities of using modern software tools in teaching the science of computer networks. The possibilities of increasing the interactivity of the educational process, visually explaining complex concepts, and forming students' practical skills with the help of software tools have been explored. At the same time, the effectiveness of technological tools and their use methods are also covered. This work offers methodological approaches that serve to improve the quality of education.

Keywords: Computer networks, teaching methodology, software tools, innovative technologies, didactic analysis, educational process, educational effectiveness, simulation programs, visualization tools, interactive education, practical skills, digital education

Аннотация. Целью данной статьи является анализ дидактических возможностей использования современных программных средств при преподавании дисциплины "Компьютерные сети". Исследованы возможности повышения интерактивности учебного процесса, наглядного объяснения сложных понятий и формирования практических навыков учащихся с помощью программных средств. При этом, также освещается эффективность технологических инструментов и методов их использования. В работе предложены методические подходы, которые служат повышению качества образования.

Ключевые слова: Компьютерные сети, методика обучения, программные средства, инновационные технологии, дидактический анализ, образовательный процесс, эффективность обучения, симуляционные программы, средства визуализации, интерактивное обучение, практические навыки, цифровое образование

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ta'lim sohasida muhim ustuvorliklar belgilab berilgan. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, yoshlarni intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega va Vatanga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu strategiya mamlakatda ta'lim tizimini jahon andozalariga mos ravishda takomillashtirishga, yoshlar kasbiy tayyorgarligini oshirishga va ularni kelajakdagi raqobatbardosh jamiyat a'zolari sifatida tarbiyalashga qaratilgan [1,2].

Kompyuter tarmoqlarida texnik qurilmalar tarmoq orqali ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish va boshqarish uchun ishlatiladi. Ushbu texnik qurilmalar tarmoqning asosiy infratuzilmasini tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlar [4,5,6] va tadqiqot mualliflari tomonidan taqdim etilgan ilmiy amaliy tadqiqotlarda quyida keltirilgan qurilmalardan foydalanilganligi va kerakli natijalar olinganligi o'z tadbiqini topgan. Kompyuter tarmoqlari – bu ikki yoki undan ortiq qurilmalar (kompyuterlar, serverlar, printerlar, telefonlar va boshqalar) o'rtasida ma'lumotlarni almashish va resurslardan foydalanish uchun o'rnatilgan ulanish tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari "60610500 – Kompyuter injiniringi bakalavriat ta'lim yo'nalishida "Kompyuter tarmoqlari" fanini o'qitish jarayoni belgilanib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari jalb etildi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Kompyuter tarmoqlari va aloqa turlarining afzalliklaridan biri simli aloqa odatda tez va barqaror hisoblanadi, ammo simsiz aloqa moslashuvchan va oson qo'llaniladi. Simli tarmoqlar ko'proq xavfsiz hisoblanadi, ammo simsiz tarmoqlarda xavfsizlik masalalari keng qo'llaniladigan shifrlash protokollari bilan hal qilinadi. To'rt topologiyasi ko'p aloqa yo'llariga ega bo'lib, ishonchli aloqa imkoniyatini ta'minlaydi. Bu ma'lumotlar kompyuter tarmoqlarini samarali loyihalash va ulardan foydalanishda yordam beradi.

Bu texnik qurilmalar tarmoqlarni samarali boshqarish, ma'lumotlarni xavfsiz va tezkor uzatish uchun ishlatiladi. Tarmoq hajmi va tuzilishiga qarab, turli xil qurilmalar tanlanadi va ulardan foydalaniladi. Tarmoq turlari juda ko'p va har biri o'ziga xos ishlash tamoyillari va foydalanish sohasiga ega. Quyida ba'zi asosiy tarmoq turlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan: M2M (Machine to Machine). mashinalar o'rtasida avtomatik ravishda ma'lumot almashinishni anglatadi. Ushbu tarmoq texnologiyalari ko'pincha IoT (Internet of Things) dasturlarida qo'llaniladi va sanoat, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ham ishlatiladi. P2P (Peer to Peer). Tarmoq arxitekturasi foydalanuvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishni ta'minlaydi va ko'pincha fayl almashinuvi, ma'lumotlarni saqlash va muloqotda ishlatiladi.

Taktik internet (Tactile Internet). Real vaqt rejimida masofaviy interaktivlikni ta'minlab beradi. Asosan ilovalarda, masalan, telemeditsina, masofadan boshqarish va robototexnika sohasida qo'llaniladi. D2D (Device to Device). Qurilmalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashinishni ta'minlaydi. Ushbu tarmoq aloqasi mobil telefonlar, smart qurilmalar va boshqa elektron qurilmalar o'rtasida tezkor va samarali aloqa o'rnatishga yordam beradi. H2D (Human to Device). Insonlar va qurilmalar o'rtasida o'zaro aloqani anglatadi. Asosan smart qurilmalar va IoT ekotizimlarida ishlatiladi, foydalanuvchilarga qurilmalar bilan oson va intuitiv muloqot qilish imkonini beradi.

Cisco Packet Tracer - Cisco tomonidan ishlab chiqilgan simulyatsiya dasturi bo'lib, tarmoq muhandisligi va tarmoq dizayni uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanuvchilarga tarmoq qurilmalarini yaratish, sozlash va tahlil qilish imkonini beradi. AnyLogic — murakkab tizimlarni simulyatsiya qilish uchun mo'ljallangan professional dasturiy vosita hisoblanib, simulyatsiya, tizimlar dinamikasi va diskret hodisalar simulyatsiyasini birlashtiradi, bu esa uni ko'p sohalarda keng qo'llash imkonini beradi. GNS3 (Graphical Network Simulator tarmoq simulyatsiyasi uchun mo'ljallangan ochiq manba dasturi bo'lib, professional darajada tarmoq muhandisligi va dizayni uchun ishlatiladi, asosan Cisco va boshqa tarmoq qurilmalarini simulyatsiya qilishga qaratilgan. NS-3 (Network Simulator 3) tarmoq simulyatsiyasi uchun mo'ljallangan ochiq manba dasturi bo'lib, asosan akademik tadqiqotlar va yangi tarmoq protokollarini tahlil qilish uchun ishlatiladi [7,8].

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Quyidagi 1-jadvalda simulyatorlarning imkoniyatlari tahlili keltirilgan.

1-jadval

Simulyator imkoniyatlarini solishtirish tahlil jadvali

№	Imkoniyatlar	AnyLogic	Cisco Packet Tracer	GNS3	NS-3
1	Foydalanuvchi interfeysi	Yaxshi	Oson	O'rtacha	Matnli
2	Integratsiya imkoniyatlari	keng	Cheklangan	keng	Cheklangan
3	3D modellash	+	-	-	-
4	Bulutli hisoblash integratsiyasi	+	-	+	-
5	Qo'llab-quvvatlanadigan tarmoqlar (simli, simsiz)	+	+	+	+
6	Real vaqt rejimi	+	+	+	-
7	Qo'llab-quvvatlash	+	-	+	+
8	Dokumentatsiya va qo'llanmalar	+	-	-	+
9	Tarmoq topologiyalarining murakkabligi	+	-	+	-
10	Tadqiqot imkoniyatlari	+	-	+	+

Ushbu dasturlar o'zlarining xususiyatlariga ko'ra har xil foydalanish sohasida qo'llanilishi mumkin va har birining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy obyektga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'limning talabi talabalarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Pedagogik innovatsiyalar ikkita asosiy yondashuvga asoslanadi: Talabaga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonini har bir talaba shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir talabaning o'ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste'dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o'z ichiga oladi (talabalar o'zlari xohlagan sohalarni tanlashlari mumkin), ishonch (o'qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo'qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, sub'ektivlik, individuallik;

Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar: pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi; o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi; talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi; talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi; talabalarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi; pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi; talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi; pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Talabalarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin

ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. [9]

Pedagogikada ya'ni ta'lim berish jarayonida o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar xam o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb xisoblanadi, ya'ni ular orasida xali xam aniq farqlar belgilanmagan. Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment kilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. [10]

Xulosa. Kompyuter tarmoqlari fanini o'qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Simulyatsiya va vizualizatsiya vositalari murakkab tushunchalarni talabalarga osonroq tushuntirishga yordam beradi, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish nafaqat interaktivlikni oshiradi, balki talabalarning bilim olish motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Bu yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish va yangi pedagogik usullarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. -Toshkent. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "PF-5847-son 2019-yil 9-oktabr. -Toshkent. <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. «O'zbekiston», NMIU, 2017. – 488 b.
4. Andrew S. Tanenbaum. Computer Networks, Fourth Edition. Publisher; Prentice Hall, 2011.
5. Musayev M.M. "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari". Toshkent.: "Aloqachi" nashriyoti, –Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.2013. 394 bet.
6. Djumanov J.X., Miryusupov Z.Z. Kompyuter tarmoqlari: O'quv qo'llanma, Muhammad Al-Xorazmiy nom. TATU. - T. : Aloqachi, 2020. - 144 b.
7. Абдурашидова К.Т., Ирмухамедова Н.А., Ботиров С.Р. "Учебное пособие для выполнения лабораторных работ по дисциплине Компьютерные сети". -Ташкент, ТУИТ, 2022. 116 страниц.
8. Irmuxamedova N.A. "Kompyuter tarmoqlari" fanini o'rganishda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini ishlab chiqish" // Fizika, matematika va informatika, Toshkent, 2023. - №6.-B.116-121
9. Irmuxamedova N.A. "Kompyuter tarmoqlari fanini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari" // Fizika, matematika va informatika, Toshkent, 2024. - №1/1.-B.159-166
10. Irmuxamedova N.A., Ahmadova K.A., Sobirova Sh.A., Ta'lim jarayonini samaradorlogini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati "iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati" Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami, 1-qism. Toshkent-2021. –B. 472-473.

Muallif:

Irmuxamedova Navruza Abdullajonovna – Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.878

TECHNOLOGY OF FORMATION OF COMMUNICATIVE TRAINING IN EDUCATIONAL ACTIVITIES OF A MUSIC TEACHER

MUSIQA FANI O'QITUVCHISINING O'QUV FAOLIYATIDA KOMMUNIKATIV TAYYORGARLINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ

Xodjakulov Baxodir Xudaykulovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: xodjakulovbaxodir@gmail.com

Abstract: This article examines the competencies of preparing future music teachers for professional pedagogical activities, the main contents and didactic principles of teaching, the professional and didactic principles of undergraduate students studying in the educational direction "Music Education" in higher educational institutions and institutions of the pedagogical sphere of the republic. Theoretical and professional-methodological foundations for improving

methodological training, effective forms, means and methods of their preparation for professional-methodological activities in the auditorium and outside the auditorium, as well as organizing and conducting “Musical classes”. Methods and methods for conducting cultural lessons in secondary schools are included. This article is devoted to the problem of developing the professional knowledge and skills of music teachers, professors and teachers, undergraduates, students conducting research and internships in the field of music education at the undergraduate level, as well as higher educational institutions of our republic operating in the field of pedagogy, school and preschool institutions .

Keywords: music art, creative means, art, enlightenment, song, melody, method, facilities

Аннотация: В данной статье рассмотрены компетенции подготовки будущих учителей музыки к профессионально-педагогической деятельности, основные содержания и дидактические принципы преподавания, профессионально-дидактические принципы студентов бакалавриата, обучающихся по образовательному направлению «Музыкальное образование» в высшем учебном заведении и учреждениях педагогической сферы республики. Теоретические и профессионально-методические основы совершенствования методической подготовки, эффективные формы, средства и методы их подготовки к профессионально-методической деятельности в зрительном зале и вне зрительного зала, а также организации и проведения «Музыкальных занятий». Включены методы и способы проведения уроков культуры в общеобразовательных школах. Данная статья посвящена проблеме развития профессиональных знаний и умений учителей музыки, профессоров и преподавателей, магистрантов, студентов, проводящих научные исследования и стажировку в области музыкального образования на уровне бакалавриата, а также высших учебных заведений нашей республики, действующих в области педагогики, школьных и дошкольных учреждений.

Ключевые слова: музыкальное искусство, творческие средства, творчество, просвещение, песня, мелодия, метод, средство.

KIRISH. Jahon ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning yangi didaktik tizimlarini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish orqali bo’lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu borada oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va demokratlashtirish, texnika yutuqlarini idrok qilishga qobiliyatli, o’zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashadigan, o’z-o’zini rivojlantirishga qodir shaxsni tarbiyalashda kompetentsiyaviy va akmeologik yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida bo’lajak mutaxassislarining kasbiy o’sish jarayonlarini loyihalash, amaliyotga tatbiq etish bo’yicha pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga oid tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida amaliy yo’naltirilgan o’qitish texnologiyalari asosida bo’lajak o’qituvchilarning ijtimoiy-rolli pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, pedagogika sohaslarida bakalavr va magistrlar tayyorlashning kompetentli modellarini ishlab chiqish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada musiqa o’qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash “Ta’lim” milliy loyahasini amalga oshirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning ta’lim-tarbiyaviy muammolarini hal etish jamiyatning axborot-kommunikatsiya muhitidagi jiddiy o’zgarishlar sharoitida musiqa o’qituvchilarini yuqori kasbiy mahoratga yo’naltiradi. Zamonaviy hayotda axborot kommunikatsiyalarining roli ortib bormoqda. Axborot oqimlarining zichligi va intensivligi hamda aloqa makonida ishtirokchilar soni ko’paymoqda, yangi aloqa ehtiyojlari, qiziqishlari, axborot uzatishning turli shakllari va tarmoqlari rivojlanmoqda.

Ключевые слова: Молодежь, информационная атака, психологический подход, образование, обучение, вера, система, механизм, группа, религиозное движение.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni shaxs sifatida shakllantirish muhim masalalardan biridir. Zero yosh avlod tarbiyasi ta'limi Vatanimiz tarqqiyotini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga, ijtimoiy-madaniy muhit omillari, axborot makonining ta'siri kengayib bormoqda. Hozirda Respublikamizda 600 mingdan ortiq talabalar bo'lib, internet tarmoqlari tahdidlari kuchayib borishi natijasida axborotlarni tanlab, saralab olishda katta psixologik zo'riqishlarga duch kelmoqda. Shu sababli talabalarning axborot-psixologik xavfsizlik immuniteti – Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylandi.

Hozirgi odam axborot iste'mol qilish va ishlab chiqish borasida qarashlari va mustaqilligi keskin oshdi. Internet tarqqiyotning muhim omili bo'lishi bilan birga asosiy targ'bot quroliga aylandi. Ayniqsa pornografiya, jinoyatchilik, bezorilik, jinoyatchilik, odobsizlik, latifalar, mishmishlardan iborat keraksiz, zararli axborotga ega juda ko'plab internet kontentlari paydo bo'ldi. Jamiyatga yot g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Qarama-qarshiliklar eng avvalo yoshlarning siyosiy, diniy, ijtimoiy dunyoqarashlar tizimiga to'xtovsiz ta'sir qilib turadigan psixologik texnologiyalardan foydalanilyapti.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek—Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda,[1] ya'ni endi yovuz xavf-xatarlarning oldini olishda ota-onaga, jamiyatga munosabatda ma'naviy birdamlik, ijtimoiy-xavf xatarlarning psixologik xavf-xatarlarning holatini tahlil qila olishlari kerak bo'ladi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda — Telegramda 18 million,— Odnoklassnikilda 16,7 million, Facebookda 4,7 million, Instagramda 3,7 million, — Vkontakteda 2,6 million, Linkedln da 288 ming, Twitterda 51,6 ming nafar O'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi.2021-yilning dekabr holatiga ko'ra, milliy domen makonidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayolik va ma'naviy buzuqlik targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan holat aniqlangan va 2097 ta qonunbuzarlik holati qayd etilganl [2] keltirib o'tish joizdir. Ana shunday xavflar turli axborot tarmoqlari orqali xalq ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Qadriyatlarini yemirish usullarining jirkanch ko'rinishlaridan foydalanishlari mumkin. Bu albatta erkinlik yoki oshkoralik, niqobi ostida sodir bo'lishi ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari mazmunini ochib berish uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, so'rovlar (og'zaki) o'tkazish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Hozirda axborot tarqatish jarayoni butun insoniyatni qamrab olmoqda. XX asrning so'ngi yillariga kelib xalqaro miqyosda kompyutaer tarmog'i – internet tizimining vujudga kelishi va shu bilan birga butun dunyoni qamrab olishi, axborot almashinuvi jarayonlarining tezlashib borishi bir tarafdin biz uchun katta qulayliklar tug'dirsa ikkinchi tarafdin esa misli ko'rilmagan g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'laminin kengayib borishi bo'lib qolmoqda.

Internet insoniyatning muhim bir yutuqlaridan bo'lib, axborot va kommunikatsiya jarayonlarini ham misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi. Insonlar uchun qulayliklar yaratdi. Misol tariqasida, AQSH va Yevropada internet tarmog'i orqali amalga oshiriladigan bozor munosabatlari, amalga oshirilayotgan savdo-sotiq aylanmasining umumiy hajmi 5 trilliondan dollordan oshib ketgani buning yaqqol isbotidir. Bunga ko'ra esa 2002 yilda ishlatilgan dollorning yarmi internet tarmog'i orqali ishlatilgan.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev — Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabil mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida —Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz aytib, aziz birodarlar bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi? Axir kechagina shu yoshlar, o'zimizning qora ko'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku. Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi. Biz nega g'afolatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'lga o'tib ketdi? Nima jin urdi-yu ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi. Bugun bunday mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi[1]- deb ta'kidlaydilar.

Mamlakatimiz psixologiyasida yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilishni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik muammolari bilan G.B.Shoumarov, V.M.Karimova[10], A.M.Jabborov, B.M.Umarov[9], U.D.Qodirov[11], S.Y.Qulato[6], J.Dj.Utegenova [12] va boshqalar shug'ullangan. Ularning keng qamrovli qarashlarida axborot xavfsizligi muammosining nazariy-metodologik masalalari, ochiq axborotlar tizimi va yoshlar, psixologik himoya, yoshlar va virtual olam, destruktiv kult tashkilotlar faoliyati, kompyuter o'yinlariga qaramlikning psixologik diagnostikasini amalga oshirish va korreksiya qilish, kichik maktab yoshi, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshida kompyuter o'yinlariga qaramlik kabi masalalar chuqur o'rganilgan.

B.M.Umarovning ta'kidlashicha, tezkor taraqqiyot odatiy tamoyillar qatori vaqti va makon mutanosibligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.[9]. S.Y.Qulato axborot-psixologik xavfsizlik haqida gapirib, uning asosiy vazifasi avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.[6]. Bizning fikrimizcha, kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek, boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarida to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

IDS taxlilchilarining ma'lumotiga ko'ra, hozirda yer yuzining to'rtidan bir qismidan iborat 1.4 milliard kishi internet tarmog'idan muntazam ravishda foydalanadi. Hamda yaqin 8 yillikda bu ko'rsatkich 2 milliarddan oshib ketishi kutilmoqda. Hozirgi kunga kelib internet tarmog'idan foydalanuvchi insonlarning 90 foizi rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi. Dunyoning qolgan aholisi esa shu kichik doiraning mafkuraviy tasirida hayot kechirishadi. Hozirda eng qulay va tez kuchli mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lgan internet tizimi o'ta jiddiy muommalarni keltirib chiqarmoqda. Bu tizim bo'yicha qo'poruvchilik, g'oyalarni "eksport" qilish, odamlar ongini zaxarlash maqsadida foydalanish esa mafkuraviy kurashni yanada keskinlashtirib kelmoqda. Odamlarni elektron xurujlar kiberterrorizm qarshisida chorasiz qilib qo'yadi.

Yirik terrorchi guruhlarning internet tizimida olib borayotgan qo'poruvchilik harakatlari insoniyatni juda ko'p tashvishlarga solib qo'yimoqda. Chunki cheksiz, bepayon internetning olamida ularning bu harakatlarini toppish va ularning ildizini toppish o'ta mushkul ishdir. Shu tariqa axborot yovuz kuchlar – uyushgan jinoyatchilik, jahon terrorizmi qo'lida havfli bo'lgan qurollarga aylanmoqda. Malumotlarga qaraganda axborot taxdidini uyushtirish ustida 120 ga yaqin davlat "hamjihatlilik" bilan ish olib bormoqdalar. Bundan kelib chiqadiki yagona axborot makonini yaratish va undan axborot taxdidi yo'lida foydalanish shu darajaga yetdiki, axborot maydonidagi yuz berayotgan xurujlar yadro poligonlaridan ko'ra, xavfliroq bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunga kelib 20 dan ziyod davlatlarda yadro qurolini ishlab chiqarish borasida sa'y-xarakatlar davom etayotgan pallada, axborot taxdidi bilan 120 dan ziyod davlatlarning jiddiy shug'ullanishi dunyoni yadro urushidan ko'ra axborot xuruj talvasaga solayotganidan dalolat beradi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashtirib borishida madaniy omilning ham o'rni bor. Ayniqsa, xalqlar o'rtasida madaniy hamkorlik va ayirboshlashlar jarayonida bir milliy madaniyatdagi ba'zi yo'nalishlar boshqa xalqlarning madaniy hayotiga ham singib boradi. Bu hol globallashtirishning ko'rinishlaridan biri bo'lib, mafkuraviy hayotning o'zgarib borishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayni vaqtda "G'arb madaniyati" ga xos ayrim unsurlarni xalqimiz turmush tarziga kirib kelishi mafkuraviy tarbiyaviy ishlarimizga salbiy tasir qilishi ehtimoli ham juda kattadir. Ayniqsa, g'iyohvandlik, zo'ronlik, jangarilik, tajovuz va boshqa g'ayri ahloqiy unsurlarning ommaviy axborot vositalari., kitoblar, rok-musiqqa, internet orqali zimdan targ'ib etilishi milliy qadryatlarga putur yetkazishi mumkin. Bundan xulosa shuki, globallashtirish hodisalarini chuqur o'rganish, undan foydalanish yo'l-yo'riqlari va texnologiyasini ishlab chiqarish bugungi kunda muhim vazifa ekanligini ko'rsatmoqda.

Yoshlar ongini hozirgi kunning axborot xurujlaridan himoya qilishning psixologik omillari bir qancha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarda yoshlarning ruhiy salomatligi, qaror qabul qilish qobiliyati va umumiy hayot sifatiga ta'sir qiladi. Quyidagi omillarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Kritik fikrlash qobiliyati: Yoshlar axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Bu, ularga ma'lumotlarning haqiqatligini aniqlashda yordam beradi va manipulyatsiyalangan yoki yolg'on axborotdan saqlanishga imkon beradi.
2. Axborot manbalarini tanlash: Yoshlarni ishonchli va obro'li manbalardan axborot olishga o'rgatish, ularni yolg'on va manipulyativ ma'lumotlardan himoya qiladi.
3. Emotsional barqarorlik: Stress va emotsional yuklamalarni boshqarish qobiliyati yoshlarni axborot xurujlariga qarshi turishda yordam beradi. Meditatsiya, sport yoki boshqa stressni kamaytiruvchi faoliyatlar bilan shug'ullanish foydali bo'lishi mumkin.
4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Oila, do'stlar va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar yoshlarning psixologik salomatligi uchun muhimdir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yoshlarning og'ir vaziyatlarga qarshi kurashishiga yordam beradi.
5. O'z-o'zini anglash: Yoshlarning o'z hissiyotlari, qadriyatlarini va maqsadlarini tushunishi ularni tashqi ta'sirlardan kamroq ta'sirlanishga yordam beradi.
6. O'qituvchilar va ota-onalarning roli: Ota-onalar va o'qituvchilar yoshlarni axborot xavflaridan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ko'magi bilan yoshlar to'g'ri fikrlashni, mantiqiy qaror qabul qilishni o'rganadilar.
7. Raqamli savodxonlik: Raqamli dunyoda yashayotgan yoshlar uchun raqamli savodxonlikni oshirish muhimdir. Ular internetda qanday qilib to'g'ri ma'lumot topishni va noto'g'rilardan qanday saqlanishni bilishlari kerak.

Ushbu omillarni hisobga olish orqali yoshlarni zamonaviy axborot xurujlariga qarshi kurashishga tayyorlash mumkin. Buning natijasida ular yanada mustahkam, ongli va oqilona shaxs sifatida rivojlanadilar. Ushbu maqolada yoshlarning ongini hozirgi kunning axborot xurujlaridan himoya qilishda muhim bo'lgan psixologik omillarni tahlil qilamiz. Bular orasida tanqidiy fikrlash, emosional barqarorlik, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy chegaralarni belgilash kabi jihatlardan mavjud.

Yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilishda tanqidiy fikrlash qobiliyati eng asosiy omillardan biridir. Tanqidiy fikrlash — bu ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ularning manbasini baholash va har qanday ma'lumotni shubha bilan qabul qilish qobiliyatidir. Yoshlar bu ko'nikmalarni rivojlantirib, yolg'on yoki manipulyatsion axborotni aniqlay oladilar. Emotsional barqarorlik yoshlarning stress va noqulay his-tuyg'ularga qarshi kurasha olish qobiliyatidir. Axborot xurujlari ko'pincha qo'rquv, xavotir yoki g'azab kabi kuchli emosiyalarni keltirib chiqaradi. Emosional barqarorligi yuqori bo'lgan yoshlar bunday his-tuyg'ularni boshqarish orqali sog'lom qarorlar qabul qilishlari mumkin. O'z-o'zini anglash — bu shaxsning o'z hissiyotlari, qadriyatlarini va ehtiyojlarini tushunishdir. Yoshlar o'z-o'zini anglagan holda, ular o'zining manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo'lishadi hamda insonlarni manipulyatsiya qiluvchi axborotlarga nisbatan immunitet hosil qiladilar. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash — bu do'stlar, oilalar yoki hamkasblar tomonidan taqdim etilgan emotsional yordamdir. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etib, bir-birlari bilan tajriba almashish orqali haqiqatan ham foydali ma'lumotlarga erishadilar va noto'g'ri ma'lumotlardan saqlanishga yordam beradigan muhit yaratadilar. Shaxsiy chegaralarni belgilash yoshlarning o'z hissiyotlari va shaxsiyatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlar uchun noto'g'ri yoki zararli axborotni filtrlash imkoniyatiga ega bo'lish juda muhimdir. Bu ularni salbiy ta'sirlardan saqlaydi va ruhiyatlarini yaxshilaydi.

Psixologik bilimlarning ko'rsatishicha, tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon qaysidir ma'noda kishi xulq-atvori va xarakterini belgilovchi asosiy omildir. Shundan kelib chiqib, o'zini o'zi anglash jarayonida psixologik yordamga muhtoj yoshlar uchun yonida uni taniydigan, unga maslahat beradigan, uning uchun to'g'ri qaror qabul qila oladigan insonning bo'lishi muhimdir. O'zini o'zi anglashda kishi ta'lim olish, dunyoqarashini kengaytirish, turli ma'lumot va materiallarni qabul qilish, yangi hayotiy tajribani o'zlashtirish qobiliyatini namoyon qiladi, oxir-oqibatda tegishli shaxs sifatlarini shakllantirilib boriladi. Inson o'zgaradi, transformatsiyalashadi va bu jarayonni uning o'zi ongli ravishda his etishi, nazorat qilib borishi talab etiladi.

Ma'lumki, axborot xavfsizligi fenomeni keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning mazmunini tahlil etish psixologiya, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlardagi o'zaro aloqadorlik tamoyiliga asoslaniladi. Tarixan har qanday davlatning shakllanishi va jamiyatda, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy manfaatlarini va ularning mafkuraviy jabhada ifodalanishi bilan vujudga keladi. Zotan, ayni vaqtdan barqarorlik, rivojlanish bilan birga, muayyan xarakterdagi axborot-psixologik xavf-xatar, ma'naviy tahdidlar ham paydo bo'ladi. Ularga asoslangan holda, milliy xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Yoshlarni hozirgi kunning axborot xurujlaridan himoya qilish uchun psixologik omillarni tushunish zarur. Tanqidiy fikrlash, emosional barqarorlik, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy chegaralarni belgilash kabi jihatlardan yosh avlodga mustaqil fikr yuritishga yordam beradi hamda salbiy ta'sirlardan himoyalashlarini ta'minlaydi. Bu jarayon nafaqat individual darajada balki jamiyat miqyosida ham ahamiyatga ega bo'ladi. oshlarni hozirgi kunning axborot xurujlari oldida himoya qilish uchun psixologik omillarning ahamiyatini inkor qilib bo'lmaydi. Tanqidiy fikr yuritish qobiliyati, psixologik resurslar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va media-savodxonlik — bularning barchasi yoshlarning ongini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Kelajak avlodimizni sog'lom ruhda tarbiyalash orqali biz ularga yanada yorqin kelajak yaratamiz. Xulosa o'rnida hindistonlik taniqli siyosiy arbob Maxatma Gandining quyidagi so'zlarini

keltiramiz: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovu bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”. Bu so‘zlarni bugungi informatsion xurujlar va turli xil ma‘lumotlarning turli yo‘llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e‘tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta‘siri jarayonlari ma‘nosida qo‘llash ham mumkin. Zero, dunyoga yuz ochgan mamlakatimizda ham yaxshi, ham yomon ta‘sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsning o‘zini-o‘zi psixologik jihatdan salbiy ta‘sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan. “Ma‘rifat” gazetasi, 2017 yil 1-iyun, №52
2. Karimova, N. (2019). Iqtisodiyot asoslari. Tashkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik universiteti.
3. M. Quronov. – Yovvoyilik falsafasi // “Xalq so‘zi” – T.: 2006-yil.
4. “Islom va Aqidaparast oqimlar” Aydarbek To‘lipov “Sharq”.
5. Rahmonov, F. (2022). “Innovatsion texnologiyalar va ta‘lim”. Ta‘lim muammolari, 15(1), 77-85.
6. Kulatova S.Y. “Voyaga yetmagan bolalar tarbiyasida axborotning psixologik havfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari”. “Zamonaviy ta‘lim” №2 (87), ilmiy–amaliy ommabop jurnal. T.: -2020. 49-56 b.
7. Samarov R. Axborot xavfsizligining nazariy va metodologik asoslari. T.: “Akademiya”, 2010. – 116 b.
8. Topildiyev O. “Yoshlar va internet” // Jamiyat va boshqaruv, -T.: 2008 y., №2 S.36.
9. Umarov B.M., Karimov X. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o‘quv qo‘llanma. T.: 2012. -315 b.
10. Karimova Vasila. Ijtimoiy psixologiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 172 bet.
11. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta‘sirotlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Toshkent, —Fan va texnologiyalarl, 2013, 246 b.
12. Utegenova Jamila Djolmurzayevna., Virtual reallik XX asr madaniy fenomeni sifatida. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati., Samarqand – 2023, 47 bet

Mualliflar:

Sharapova Saboxat Djabbarovna – GulDU, Pedagogika va psixologiya kafedrası professor v.b., ps.f.d.(DSc).

Abulfayziyev Sardor Rashidovich – GulDU, Psixologiya mutaxassisligi magistranti.

UDC 372.881.111.1

GAMIFICATION IN LANGUAGE LEARNING: ENHANCING MOTIVATION AND ENGAGEMENT IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES

ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА: ПОВЫШЕНИЕ МОТИВАЦИИ И ВОВЛЕЧЕННОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.

TIL O‘RGANISHDA GEYMIFIKATSIYA: CHET TILI DARSLARIDA MOTIVATSIYA VA FAOLLIKNI OSHIRISH.

Shavkieva Dilfuza Shakarboevna

Gulistan State University, 120100, Sirdarya region, Gulistan city, 4th microregion

E-mail: shavkievad@gmail.com

Abstract: This article explores the impact of gamification on motivation and engagement in foreign language learning. Utilizing a mixed-methods approach, data were collected from surveys and interviews with educators and students in various language classes. Findings indicate that gamified activities significantly enhance student motivation, with 85% of participants reporting increased engagement compared to traditional methods. The study concludes that gamification fosters a positive learning environment, making language acquisition more enjoyable and effective, while highlighting the need for careful design to balance educational objectives with game elements. Further research is recommended to assess long-term language proficiency outcomes.

Key words: gamification, motivation, education, language, research, activities, games, methods.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние геймификации на мотивацию и вовлеченность в изучение иностранных языков. Используя смешанный метод, данные были собраны через опросы и интервью с преподавателями и студентами в различных языковых классах. Результаты показывают, что геймифицированные активности значительно повышают мотивацию студентов, при этом 85% участников отметили увеличение вовлеченности по сравнению с традиционными методами. Исследование приходит к выводу, что геймификация способствует созданию позитивной образовательной среды, делая процесс овладения языком более увлекательным и эффективным, при этом подчеркивая необходимость тщательного проектирования для балансировки образовательных целей с игровыми элементами. Рекомендуется дальнейшее исследование для оценки долгосрочных результатов языковой компетенции.

Ключевые слова: геймификация, мотивация, образование, язык, исследование, деятельность, игры, методы.

Introduction. Gamification, the integration of game-design elements into non-game contexts, has emerged as a transformative approach in education, particularly in the realm of language learning. By tapping into the intrinsic human motivations for competition, achievement, and social interaction, gamification offers a dynamic framework for engaging students. In today's globalized world, mastering a foreign language is not just an academic requirement but a valuable skill that enhances personal and professional opportunities[5]. Traditional methods of language instruction often fall short in sustaining student interest and fostering active participation, leading educators to seek innovative solutions.

Recent advancements in technology have further fueled the adoption of gamified learning environments, allowing educators to create immersive experiences that resonate with digital-native students[3]. Through elements such as points, badges, and interactive challenges, gamification not only promotes a sense of achievement but also cultivates collaboration among peers. This article investigates the efficacy of game-based learning strategies in foreign language classes, examining how they can enhance motivation and engagement, ultimately leading to improved language proficiency. By analyzing both quantitative and qualitative data, this study aims to provide a comprehensive understanding of gamification's role in reshaping language education and its potential to create a more enjoyable and effective learning experience.

Objects and research methods. To thoroughly explore the impact of gamification on language learning, a mixed-methods approach was employed, combining both quantitative and qualitative research methodologies. Quantitative data were collected through structured surveys distributed to language educators and students across diverse educational institutions, including primary, secondary, and higher education settings. These surveys aimed to assess participants' perceptions of gamified activities, measuring levels of motivation, engagement, and overall satisfaction with the language learning experience[1].

In parallel, qualitative insights were gathered through semi-structured interviews with educators and selected students, providing a deeper understanding of their experiences with gamification[4]. These interviews focused on specific gamified activities—such as interactive language games, quizzes, and role-playing exercises—allowing participants to share their thoughts on the effectiveness and enjoyment of these methods. Additionally, classroom observations were conducted to witness firsthand the dynamics of gamified learning environments. These observations aimed to capture student interactions, levels of enthusiasm, and engagement during lessons, providing rich contextual data that complemented the survey findings.

By integrating these two approaches, the study sought to paint a comprehensive picture of how gamification influences language learning, identifying both measurable outcomes and personal experiences[2]. This multifaceted methodology allowed for a nuanced analysis of the potential benefits and challenges associated with implementing game-based learning strategies in foreign language classrooms.

Results. The study's findings reveal a compelling and significant increase in student motivation and engagement when gamification is integrated into language lessons. Analysis of the survey data showed that an impressive 85% of students reported feeling more motivated to participate in gamified activities compared to traditional instructional methods. This heightened motivation was reflected in their increased willingness to engage actively with the material, as many students expressed that the competitive and collaborative aspects of gamification made learning more enjoyable and less intimidating.

Educators corroborated these findings, noting noticeable improvements in student interaction during lessons. Many teachers observed that gamified activities facilitated more dynamic classroom discussions and collaboration among peers, as students often worked together to solve challenges or compete in language games. This collaborative spirit not only fostered a sense of community but also enhanced language practice through peer-to-peer interactions.

Furthermore, retention of vocabulary and grammar concepts was markedly improved. Educators reported that students exhibited better recall of language rules and vocabulary following gamified lessons, attributing this success to the immediate feedback and reinforcement provided by game mechanics. Observations in the classroom underscored this point; students were seen engaging with the material more deeply, displaying enthusiasm as they navigated through gamified tasks.

Another notable outcome was the increased risk-taking behavior among students. Many were observed to be more willing to make mistakes in a game-like environment, viewing errors as opportunities for learning rather than failures. This shift in mindset contributed to a positive learning atmosphere, where students felt safe to experiment with language without fear of judgment. Overall, the results suggest that gamification not only enhances motivation and engagement but also cultivates a more supportive and effective language learning environment.

Discussion. Gamification significantly enhances language learning by fostering an interactive and enjoyable environment that captivates students' attention. The incorporation of elements such as points, badges, and leaderboards provides immediate feedback, which is crucial for maintaining motivation. These gamified components encourage students to progress at their own pace, allowing them to take ownership of their learning journey. This individualized approach is

particularly beneficial in language education, where learners often have varying levels of proficiency and different learning styles.

Moreover, collaborative games play a vital role in promoting peer interaction, which is essential for developing effective communication skills. Engaging in team-based activities encourages students to practice language use in a social context, reinforcing vocabulary and grammar through authentic dialogue. This collaboration not only enhances language skills but also builds confidence as students learn to express themselves in a supportive environment.

However, the implementation of gamification must be approached with careful consideration of game design. While gamified elements can enhance engagement, they must align with educational objectives to ensure that learning outcomes are not overshadowed by the gaming experience. Educators need to strike a balance between fun and pedagogy, ensuring that gamification serves as a tool to deepen understanding rather than distract from it. Additionally, ongoing evaluation and adaptation of gamified strategies are essential to address diverse learner needs and maximize effectiveness.

Conclusion. Incorporating gamification into foreign language education significantly boosts motivation and engagement among learners. The positive outcomes observed in this study underscore the potential of game-based strategies to create a more dynamic and effective learning experience. As educators increasingly adopt these innovative methods, it is crucial to conduct further research to explore the long-term impacts of gamification on language proficiency and to develop best practices for creating effective gamified learning environments.

By embracing gamification, educators can foster a more enjoyable and productive language acquisition process, ultimately leading to improved student outcomes and a more enthusiastic approach to learning. The future of language education lies in the thoughtful integration of gamified elements that not only engage students but also enhance their ability to communicate effectively in a foreign language.

References:

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification." *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments*, 9-15. <https://doi.org/10.1145/2181037.2181040>
2. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. *Computers in Entertainment*, 1(1), 20-26. <https://doi.org/10.1145/950566.950595>
3. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? -- A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS)*, 3025-3034. <https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377>
4. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
5. Shavkiyeva, D.Sh. (2021). "Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga geymifikatsiya yordamida ingliz tilini o'rgatish metodikasi.", dissertation work.
6. Nicholson, S. (2015). A RECIPE for Meaningful Gamification. In T. Reiners & L. C. Wood (Eds.), *Gamification in Education and Business* (pp. 1-20). Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-10208-5_1
7. Reinders, H., & Wattana, S. (2015). Affect and Willingness to Communicate in Digital Game-Based Learning. *ReCALL*, 27(1), 38-57. <https://doi.org/10.1017/S0958344014000226>
8. Sykes, J. M., Reinhardt, J., & Thorne, S. L. (2010). Technology and Second Language Learning: Developmental and Interdisciplinary Research Frameworks. In M. P. Garcia Mayo (Ed.), *Second Language Acquisition Research and Language Teaching* (pp. 212-228). John Benjamins Publishing

Author:

Shavkiyeva Dilfuza Shakarboevna - Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences, docent, Department of Filology, Gulistan state university.

UDK 372.3/4

DIDACTIC POSSIBILITIES OF FOLK ORAL CREATIVITY

TA'LIM VA TARBIYADA ODOB VA AXLOQNING O'RNI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

Badriddinova Dilnoza Najmiddinova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti. 100121, Toshkent. Shota Rustaveli ko'chasi 156.

E-mail: badriddinova-dilnoza2024@gmail.com

Annotation: Proverbs have a special place in folklore. He belongs to the people they are the end of the wisdom and life experience of several generations is the product of wisdom. Each person, people and nation will have their own dreams and spiritual views. A special place among them is occupied by the need for education and upbringing. This article presents ideas on the didactic possibilities of folk oral creativity janirs.

Keywords: didactics, elegance education, traditionalism, modernity, empirical pedagogical experiments, developing goal.

Аннотация: Пословицы занимают особое место в фольклоре. Он принадлежит народуэто конец мудрости и жизненного опыта нескольких поколенийэто продукт мудрости. У каждого человека, народа и нации будут свои мечты и духовные воззрения. Особое место среди них занимает потребность в образовании и воспитании. В данной статье представлены идеи о дидактических возможностях народного устного творчества джаниров.

Ключевые слова: дидактика, элегантно образование, традиционализм, современность, эмпирические педагогические эксперименты, развивающая цель.

Кирish. Xalq og'zaki ijodi janirlarning ta'lim va tarbiyada odob va axloqda o'rni shundaki, xalq tarbiya tajribasidan joy olgan pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy jarayonida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash, maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi (qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi - har tomonlama yetuk insonni(shaxsni) shakllantirish. Uning tarkibiy qismlari esa rivojlanayotgan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. Ta'lim va tarbiyada odob va axloqning o'rni hayotiy maqollar asosida shakllanadi. Hayotiy maqollar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z bo'lgani uchun undan keng foydalaniladi. Xalqning ijtimoiy, tarixiy, madaniy, maishiy, hayotiy tajribasi umumlashgan holda beriladi. Milliy til tarkibida joylashgan holda namoyon bo'lgani uchun maqol tarkibidagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirib, o'zgartirib bo'lmaydi. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma – xilligi, iboralarning turg'unligi shakliyl barqarorligi ustunlik qiladi [1].

Xalqning oilaviy va maishiy hayoti ta'lim tarbiyaviy axloq odobiga oid hayotiy yo'l yo'riqlari usullari ibratli tajribalarga oid turfa misollar dostonlar Ertaklar, mehnat mavsum -marosim qo'shiqlari ,asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar ,maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar ,afirizmlar,topishmoqlar, tez aytishlar,bolalar o'yinlari ,allalar,to'y va aza qo'shiqlari,aytimlari, olqish va qarq'ishlar, suyish-erkalash qo'shiqlari,erkalamalar, ovutmachochlar, qiziqmachochlar ,yalinchoqlar,hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgular bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar tarqalish,chorlash qo'shiqlari, ramazon,boychechak,yomg'ir,quyosh aytimlari, chandishlar, tegishmachochlar, masharamalar, navro'z, mehrjon, bahor, kuz, qish,yoz aytim-qo'shiq ashulalari,dehqonchilik,chorvadorlik,kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar;inson,tabiat va hayvonlar dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasvurlar aks etgan asarlar bilan boyitilgan.

Quroni Karim, hadis hamda sharq mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlari, xalq pedagogikasining tarkibiy qismiga kiradi .Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida,ison ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ulmaydi-u birday tug'uladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan dastavval, ota-ona ,oila,mahalla-ko'y,qishloq-ovul,qolaversa jamiyat tuzumidandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota me'ros-oilaviy pedagogika,xalq pedagogikasi shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik ananalari, jamiyatning bu sohada say-harakatlari hal qiluvchi o'rin tutadi [2].

Xalq ta'kidlashicha ,bola boshdan to'g'ri-haqqoniy tarbiyalansa u kelgisida yaxshi inson bo'lib yetishadi,egri yo'lda tarbiyalansa-yomon kishiga aylanadi. Zero, ko'chat boshdan, bola yoshdan maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bo'sh yo'nalishidir. Shu boisdan xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda -chuydasi,ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi: hamma narsa hisobga olinishi,hech bir soha chetda qolmasligi ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik,injiq murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi.

Xalq pedagogikasining yana bir ibratli jihati bor. Bu hayot,tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa,pretmet ko'rinish qisqasi jonli-jonsiz neki bor, undan mukammal foydalanishdir. Har bir maqolda hamisha "ta'lim ulushi"ibrat mavjud bo'ladi: maqol tagida ibrat ustidagi aniq ramzini tushuniladi, bu ibrat hayotning turli ko'rinishlarini umumlashtirib,tugal jumla holiga kelgan bo'ladi [3].

Xalq og'izaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. Maqollar xalqning bir necha avlodlarining aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni,ular donishmandligining mahsulidir.Xalq yaratgan g'oya ixcham,chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan,turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli oilyjanob mehnat ahlining biror voqea-hodisadan,biror ishdan yoki biror kishidan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa kishi uchun yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqollar xalqning aql-idroki,ijtimoiy -tarixiy tajribasi,kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda.Maqollqar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi ,ixcham,pishiq va puxtaligi bilan xalq og'izaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari,o'zaro munosabatlari vatanprvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'y-fikrlario'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi .Shu sababdan ular bolalarni to'g' rimantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa,ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi,ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari,maqollar ona tilining eng nozik xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi [4].

Maqollar mavzu jihatidan boy, xima-xil va rang-barangdir. Ularda ona vatanni sevish, uni tashqi va ichki dushmanlardan ko'z qorachig'idek asrash, unga sodiq bo'lish g'oyalari juda ixcham, ohangdor bir shaklda, obrazli ifodalarda bo'lish g'oyalari juda ixcham, ohangdor bir shaklda, obrazli ifodalarda gavdalanantirilgandir.

Bola ta'lim-tarbiyasida albatta maqollarning o'rni katta. Maqollar ona vatanni sevishga, unung har bir qarich yeri uchun kurashishga, kasb-hunar egasi bo'lishga, ahil bo'lib mehnat qilishga, to'g'ri so'z va halol kishilar bo'lib kamol topishga, yaxshi odob va oliyjanob xulqli bo'lishga chaqiradi. Maqollar o'quvchilar nutqini o'stiradi, so'z boyligini orttiradi. Maqollar xalqning u yoki bu masala yuzasidan chiqargan fikrini bolalar ongiga yetkazishda o'qituvchiga yordam beruvchi vositalardan biridir. Xalq maqollarining ma'nosi, tuzulishi bilan o'quvchilarni tanishtirib boorish ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

O'quvchilar grammatika, imlo va nutq o'stirish darslarda, maqollarni grammatik jihatidan to'g'ri yozishga o'rganibgina qolmasdan, balki uning tuzulishi, gap holiday ma'nosi va mantiqiy kuchi bilan tanishadilar. O'qish va nutq o'stirish darslarda esa maqol matnini to'g'ri va ongli o'qish malakalari shakllantiradi. O'quvchilar mazkur darslarda maqollardagi har bir so'zning ma'nosi va maqolning to'la, mukammal ma'nosini izchil idrok etishga odatlanadilar. Maqol matni ustida ishlash bilan maqollarning yaratilishi, maqol yartishdagi xalqning maqsadi va xalq maqollarining ko'rinishi, uning oddiy gapdan farqi kabilar bilan tanishadilar. Maqollarni o'rganish darsida o'qituvchi o'quvchilar faolligiga suyanadi. Maqollarni o'rganishda og'zaki bayon etish, suhbat, og'izaki va yozma mashq ishlash usullaridan unumli foydalaniladi.

Maqollarni o'rganish ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lganligi uchungina emas, balki matnda maqollarning mavjudligi uchun va uning ma'no jihatdan xilma-xil ko'rinishiga ega bo'lganligi, matn mazmunini to'ldirish tufayli ham o'rganiladi. Maktabda o'quvchilarga maqol va hikmatli so'zlarni o'rgatib borilsa, ularning ma'nolari tushuntirilsa, darsning tarbiyaviy ahamiyati oshadi. Maqollarni o'rganish o'qituvchidan ma'lum tayyorgarlikni talab etadi – darsga tayyorgarlik ko'rish tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlarining jamiyatda tutgan o'rinlari, ma'naviy sifat va fe'l – atvorlarini to'g'ri belgilay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maqollar qadimiy yo'ltmish hodisa bo'lmay, xalqning jonli ovozidir, xalq bugungi zarur bo'lgan va ertaga asqotadigan narsani xotirasida saqlaydi. Maqolda o'ltmish to'g'risida gap ketsa, u hozir va kelajak nuqtai nazardan baholanadi, hikmatlarda aks etgan o'ltmishning xalq ozru niyatlari, ezgu maqsadlariga qay darajada muvofiqligiga bog'liq ravishda qoralanadi, ma'qullanadi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, maqolni butun xalq yaratadi, shu bois unda jamoatchilik fikri o'z ifodasini topadi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq zakovatining kuzatishlaari jo etilgan bo'ladi. Yakka shaxs yaratgan yaxshi hikmat agar u ko'pchilikning fikrini ifoda etolmasa, maqol bo'la olmaydi. Juda bo'lmaganda, umumxalq fikri va yakka shaxs fikri bir vaqtning o'zida yonma-yon kelishi mumkin xolos. Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma'nosini kuchaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. T. O'zbekiston. 2017. -488 b.
2. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995. -352 b.
3. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. 2013. – 160 b.
4. Bobomirzayev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996. - 173 b.

Muallif:

Badriddinova Dilnoza Najmiddinova - Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi.

UDK 372.853

ORGANIZATION OF LABORATORY WORK IN PHYSICS BASED ON DEMONSTRATION ELECTRONIC TOOLS

KO'RGAZMALI ELEKTRON VOSITALAR ASOSIDA FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ ПО ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ ДЕМОНСТРАЦИОННЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ

Karlibayeva Guljaxan Ermekbayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 230105. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi r/u

E-mail: kguljaxan_1978@mail.ru

Annotation. The article describes the methodology for organizing and conducting laboratory work in physics using visual electronic devices. The author gave information about the pedagogical principles of physics when performing virtual laboratory work.

Key words: laboratory, virtual laboratory, physics, quantum physics, theoretical training, practical work, independent work, experience, teacher.

Аннотация. В статье описана методика организации и проведения лабораторных работ по физике с помощью наглядных электронных устройств. Автор дал информацию о педагогических принципах физики при выполнении виртуальных лабораторных работ.

Ключевые слова: лаборатория, виртуальная лаборатория, физика, квантовая физика, теоретическое обучение, практическая работа, самостоятельная работа, опыт, преподаватель.

Kirish. Bugungi kunda yoshlarimizni bilimli, har tomonlama intellektual yetuk kishilar qilib tarbiyalashga hukumatimiz tomonidan tinmay g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. Yoshlarni bilimli yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash, ijodiy faollikka o'rgatish har bir fan o'qituvchisining burchi hisoblanadi. Samarali tashkil etilgan mashg'ulot esa bugungi yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilishda asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida fizikadan laboratoriya ishlarini ko'rgazmali elektron vositalar yordamida tashkil qilish va o'tkazish metodikasi masalalarini takomillashtirish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Oliy ta'limda talabalarni hozirgi zamon fizikaga oid bilimlar bilan qurollantirilishi, uning amaliy tatbiqiga doir tajribalarning o'tkazilishi, tajriba natijalarini qayta tahlil qilib xulosalar chiqarishi, tabiat va texnikada kechadigan fizik jarayonlarni mohiyatini bilish hamda ularning texnik tatbiqlarini o'rganishlari uchun zarurdir. Ularda fizikadan amaliy bilim, ko'nikma, malaka va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv eksperimentining ahamiyati beqiyosdir.

Ta'kidlab o'tish joizki, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor kuchayganligiga qaramasdan, auditoriyadagi ba'zi talabalarining o'zlashtirish sifati tushib ketmoqda. Bizga ma'lumki, ta'lim tizimining asosiy natijaviyligi sifat va samaradorlik hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun esa o'qituvchilarning o'z ustida uslubiy ishlashi, talabalarni mashg'ulotlarga qiziqтира olishi, talabalar qiziqishini va iqtidorini mashg'ulot jarayonida e'tiborga olishi hamda ta'lim yangiliklarini o'quv jarayoniga tatbiq etish malakasiga ega bo'lishi lozim. Auditoriyadagi mashg'ulot muhiti talabaning haqiqiy ichki dunyosi bilan uzviy bog'liqdir. Mashg'ulot talaba ko'z ongida bir yangi yaratilgan asardir. O'qituvchi qandayda metodlar orqali bo'lsa ham talabalarga mashg'ulot mavzusini yetkazib beradi. Masalan: «Intellekt-xarita» metodlari, rolli o'yinlar yoki seminar shaklida, guruhlarda ishlash bilan olib borilishi mumkin. Biroq mashg'ulotda ko'rgazmalilik, ya'ni ko'rgazmali elektron vositalardan foydalanish o'zgacha muhitni yaratadi. Bu, albatta, o'z o'rnida va me'yorida bo'lishi shart. Xo'sh, fizika mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishda ko'rgazmali vositalardan qanday foydalanishimiz mumkin? Jumladan:

1. Har bir bob va bo'limlarni mustahkamlashda rangli tarqatmalar va individual testlardan foydalanamiz. Tarqatmalar 3-5 ta savoldan iborat bo'lishi, talabalarining qiziqishini orttirish uchun rasmlı, sxemali, formulali, muammoli bo'lsa yanada yaxshi bo'ladi. Nazorat va monitoring testlardan tashqari individual testlar ham olishimiz mumkin. Bunda talabaning ishonchi ortadi, o'z bilimi doirasida fikrlashga urinadi va faol, iqtidorli talabalar qatorida rag'bat olishga harakat qiladi.

2. Mavzularni yoritishda darslik, qo'shimcha adabiyotlar hamda internetdan olingan manbalardan tayyorlangan albom va bukletlardan foydalanish ham mumkin. Talabalar faqat darslik bilan chegaralanib qolmasdan, qiziqarli va kengaytirilgan yangiliklar va ma'lumotlardan xabardor bo'ladi. Masalan: «Elektr tok manbalari», «Elektrostansiyalar», «Yadro reaktorlari» kabi mavzularni yoritishda mamalakatimizdagi va dunyodagi elektrostansiyalarning ko'rinishi, quvvati, farqi va ishlash jarayonlarini talabalar fotolavhalar orqali ko'rishadi hamda qiziqarli va qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'ladi.

3. Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadi talabalarining bilimlarini oshirish, olgan nazariy bilimlari asosida ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish va fan bo'yicha o'quv materiallarini puxta o'zlashtirish, fizik asboblar bilan ishlashni, kuzatish va tajriba natijalarini ishlab chiqishni o'rgatishdan iboratdir. Laboratoriya ishlarida nazariy bilim masalalar yechish va asbob uskunalar hamda o'lchov asboblari bilan ishlash mujassamlangan. Bugungi kunda laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun virtual elektron resurslar yaratilgan. O'quv laboratoriya mashg'ulotlarini bunday tashkil etish o'qituvchi va talabalarni ijodiy izlanishga o'rgatadi, shu bilan birga talabalarni ham bir-birlari o'rtasida o'zaro do'stona munosabat va bog'liqlik tizimini yuzaga keltiradi. Ularga jamoa bo'lib ishlash imkoniyati yaratiladi.

Ammo bugungi kunda laboratoriya mashg'ulotlarining barchasini ham talab darajasida tashkil etish va o'tkazish uchun imkoniyatlar yetarli deb bo'lmaydi. Bunga bir qator sabablarni keltirish mumkin. Jumladan: ba'zi ishlarni an'anaviy laboratoriya sharoitida o'tkazib bo'lmashligi, tarkibi angestrem bo'lgan atom hamda bevosita ko'z yordamida kuzatish imkoni bo'lmagan ishlar, shuningdek, o'tkazish uchun qimmatli fizik asboblar va qurilmalarni talab etuvchi tajribalarning mavjudligi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan sabablar mazkur laboratoriya ishlarini umuman bajarib bo'lmashligini ifoda etmaydi. Aksincha, ularni bartaraf etish, sharoitdan chiqish choralarni izlab topishni taqozo etadi. Bu laboratoriya ishlarini bajarish,

talabalarda ushbu ishlarga oid bo'lgan tushunchalarni shakllantirish uchun fizik jarayonlarni real kompyuter imitatsiyasi orqali, ya'ni virtual laboratoriya ishlari shaklida bajarish imkoniyatlari mavjuddir.

O'quv jarayonida fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish muammosi bilan bog'liq tadqiqotlar doimo dolzarb xususiyatga ega bo'lib kelgan. Keyingi yillari real fizik laboratoriya mashg'ulotlarini kompyuterda modellashtirish, ya'ni fizikadan virtual laboratoriyalarni yaratish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlar olib borilmoqda.

Ta'limda virtual laboratoriya texnologiyalarining tarkibiy qismlari quyidagicha: katta hajmli axborotlarni vizual qo'rish; uch o'lchovli modellar; ta'lim sohasida multimedia vositalarini ko'paytirish; yangi foydalanuvchi interfeyslari.


Virtual laboratoriyalar bilan real laboratoriyalar quyidagicha farq qiladi: 1. Qimmat uskunalarini sotib olishning hojati yo'q. Ko'plab laboratoriya jihozlarini sotib olish uchun mablag'larni etarli emasligi, texnik eskirgan laboratoriya jihozlari natijalarni to'g'ri chiqarmasligi va talabalar uchun xavli manbalar bo'lishi mumkin. 2. Virtual laboratoriyada asosan bajarish imkoni bo'lmagan jarayonlarni modellashtirish mumkin. Zamonaviy kompyuter texnologiyasi orqali qo'shimcha texnik qurilmalarni ishlatmasdan haqiqiy sharoitlarda bajarish imkoni bo'lmagan jarayonlarni kuzatish imkonini beradi. 3. Natijalarni elektron ko'rinishga kiritish uchun vaqt va resurslarni tejalishi. Ba'zi bir laboratoriyalardan so'ng kompyuterda amalga oshiriladigan hisoblash uchun raqamli ma'lumotlarni kiritish va saqlash ko'p vaqt talab etadi. Virtual laboratoriyada ushbu qadam mavjud emas, chunki natijalar eksperimentlar tomonidan bajarilgan yoki avtomatik ravishda natijalar elektron jadvalga saqlanishi mumkin. Natijada vaqt va mumkin bo'lgan xatolik ulushi sezilarli darajada kamayadi.

Hozirda respublikamiz amaliyotchilari tomonidan fizikani o'kitishda virtual laboratoriyalarning roli va o'zni muhokama qilinmoqda. Umuman olganda, kvant fizikasi, atom fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, molekulyar fizika va boshqalar uchun kompyuterda modellashtirish dasturiy eksperimentlarni o'tkazish zarurati mavjud.

Quyida biz «Kvant fizikasi» bo'limi bo'yicha mavjud Internet resurslarini ko'rib chiqamiz. Asosiy materiallar «Vizual kvant mexanikasi» (Visual quantum Mechanics - VQM) va 2001 yil fizika bo'yicha Nobel laureati K.Viman tomonidan takshil etilgan «Physics Education Technology – PHET» saytlaridan olingan.

Kvant fizikasining elementlarini o'rganishda, bu fanning nisbiy yoshligi bilan bog'liq muhim qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular kundalik tajribasidagi kvant tushunchalari klassik mexanika bilan taqqoslaganda ta'lim oluvchilarning «sog'lom fikrlashi»dan sezilarli farq qiladi. Zamonaviy sharoitda kvant fizikasi qattiq jismlar fizikasi, yadro fizikasi, materialshunoslik (shu jumladan, nanotexnologiya), fizik kimyo, biokimyo va biofizika singari ilm-fanning asosi hisoblanadi. Kvant fizikasi bizning ko'zimiz oldida muhandislik faniga aylandi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, faqat kvant fizikasining asosiy tasavvurlarini emas, balki ularning makroskopik darajadagi o'ziga xos aniq misollariga qo'llanilishini ham bilishi kerak. Kvant fizikasi qonunlarini o'qitishda universal qonun sifatida o'qitishda markazlashtirilgan g'oyaning – kvantlash g'oyasi tez-tez uchraydi, ammo ko'pincha ta'kidlanmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, mikroolam ob'ektlarining xatti-harakatlari klassik makroolam ob'ektlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Eng yaxshi misollarni biri mikrozarrachalarning spini tushunchasi, uni o'rganish yangi yo'nalishlarni yaratishga olib keldi: radiospektroskopiya va spintronika. Kvant fizikasini qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari kvant kompyuterlarini yaratish, kvant kriptografiya, kvant teleportatsiyasi. Atamani diqqat bilan ishlatish muhim ahamiyatga ega. Masalan, klassik fizikadan kelgan to'lqin yoki zarrachalar atamasi o'rniga «kvant ob'ektlari» atamasini qo'llash maqsadga muvofiq.


Endi kvant fizikasini yaratish uchun asos bo'lgan tarixiy eksperimentlarning modellashtirilgan dasturlarini ko'rib chiqamiz. 1900 yilda M.Plank tomonidan mutloq qora jismlarning nurlanish spektrini tushuntirish uchun tavsiya etgan energiyani kvantlash g'oyasi kvant fizikasining asosi bo'ldi. Tegishli eksperimentni bajarish, shu paytgacha jiddiy eksperimental qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, shuning uchun tegishli modellashtirish dasturlarini (Phet) ishlatish zarur (1-rasm).



1-rasm. Qora jismlarning nurlanish spektri.


Vodorod spektrlari masalarini taqdim etayotganda, Bor kashfiyotidan oldin ancha oldin, Balmer formulasidan vodorod spektrining murakkab ekanligi aniqlandi: birinchi vodorod chizig'i $0,36 \text{ nm}^{-1}$ bo'linishi bilan dubletdir. Muammo gaz razryadida chiziqli spektrlar mavjudligi bilan bog'liqdir. Klassik fizika ularning paydo bo'lishini tushuntira olmadi. Balmer tomonidan topilgan qonuniyat ham ma'noga ega bo'lmadi. Kvant nazariyasi yaratilganga qadar bu muammoni yechish qiyin bo'lgan.

Ushbu modellashtirishning mantiqiy davomi har xil atomlarning energiya qaddilarini va ular orasidagi o'tishlarni «konstruksiyalash» hisoblanadi (2-rasm). Bunda modellashtirilgan spektrning «eksperimental» spektr bilan mos kelishi asosiy natija hisoblanadi.



2-rasm. Vodorod spektrlari

Kvant tasavvurlarini kiritish G.Gers tomonidan kashf etilgan tashqi fotoeffektni tahlil qilish va A.G.Stoletov tomonidan batafsil o'rganilishiga asoslangan. «Fotoeffekt» modellashtirilgan dasturining yaratilish juda ko'p tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Fotoeffekt kvant fizikasi kurslarida batafsil ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ammo tegishli laboratoriya ishlarini bajarish hozirgi vaqtda vakuumli fotoelementlarning ichki fotoelektrik ta'sirga ega qurilmalar bilan almashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq: fotorezistorlar, fotodiodlar va fototranzistorlar (3-rasm) [4].



3-rasm. Fotoeffekt jarayoni.

Modellashtirilgan (Phet) dasturi ekranida sozlanadigan quvvat manbaiga ulangan vakuumli fotoelement, raqamli voltmetr va milliampermetr berilgan. Dastur katod materialini o'zgartirish imkonini beradi: natriy, rux, mis, platina, kalsiy. Fotoelementning katodi yorug'lik dastasi bilan yoritilgan, uning parametrlari (to'lqin uzunligi va intensivligi) eksperimentator tomonidan o'zgartirilishi mumkin. modellashtirish jarayonida fotoelementning volt-amperlik xarakteristikasini, fotoelement tokining yorug'lik oqimi intensivligiga va elektron energiyasining tushayotgan nur chastotasiga bog'liqligini tadqiq qilish mumkin.

Bu kabi imkoniyatlardan o'qituvchilar mashg'ulot jarayonida foydalanganda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni virtual labortaoriyadan foydalanish maqsadini aniqlab olishga qaratish lozim. chunki, har doim zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining talabani ta'lim olishini texnikadan ustun qo'yishi lozim, ya'ni zamonaviy texnologiyalar talabani bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashiga xizmat qilishi lozim. Bunda tanlangan virtual laboratoriya namoyish uchun yoki individual foydalanish uchun mo'ljallanganligi yoki uning mazmuni maqsadga muvofiq videolavhalar yoki kompyuterli modellar orqali taqdim etish mumkinligini hal qilish kerak. Ye.N.Goryachkin shunday deb yozadi: «... mashg'ulotga tayyorlanish vaqtida o'qituvchi aynan nimani namoyish etadi va berilgan namoyishli tajriba yoki laboratoriya ishi qaysi maqsadga mo'ljallanganligini aniqlab olish kerak» [3].

Xulosa. Shuningdek, mashg'ulot jarayonida faqat virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish bilan cheklanib qolish kerak emas, chunki, bu talabaga reallikni to'liq tasavvur etishga monelik qilishi mumkin, xalqaro tajribalardan shunday jummalarni ushratish mumkin, «qachonki, an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari bilan zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlari birgalikda olib borilsa samarali ta'lim sifatiga erishish mumkin». Bu kabi g'oyalarni virtual laboratoriyalardan foydalanib mashg'ulot o'tishimizda hisobga olishimiz lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гомулина Н.Н.. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дис. ... канд. пед. наук. – М.: МПГУ. 2003. - 332 с.
2. Билолов И.У. Методика проведения лабораторных занятий в процессе обучения физике с применением персональных ЭВМ. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т.: УзНИИПН, 1992, 23 с.
3. Горячкин Е.Н. Методика и техника физического эксперимента. М.: Учпедгиз, 1998. 528 с.
4. Карлыбаева Г.Е., Матжанов Н.С. Мактаб физика курсида квант механика элементларини ўрганиш // Fizika, matematika va informatika.– Тошкент, 2014. –№4. – Б. 38–41.

Muallif:

Karlibayeva Guljaxan Ermekbayevna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

UDK 372.879.6

METHODS OF DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES.

SPORTCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СПОРТСМЕНОВ.

Saidov Umid Abdug'aforovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: saidov-umid@mail.ru

Annotation: This article states that it is necessary that the mass involvement in Physical Education and sports become the Daily need of the student youth, while it serves as a key factor in the comprehensive development of the student youth, the formation of a healthy lifestyle, their development as a competent person, free from violations and other negative vices. This study is dedicated to methods for developing physical qualities in athletes, in light of the growing interest in the physical development of youth. The work examines various approaches and techniques aimed at enhancing strength, flexibility, endurance, and coordination among athletes. Special attention is given to training methods, the use of modern technologies, and the individualization of programs, which contribute to effective progress in sports. The practical application of these methods in sports schools and clubs is also discussed, emphasizing the importance of a systematic approach to physical education for youth.

Key words: Physical qualities, physical abilities, scientific, methodical, health, function, general, special, Education and training function, Practical function, Sport function, health function.

Аннотация: данная статья необходима для того, чтобы массовые занятия физической культурой и спортом стали повседневной потребностью учащейся молодежи, в то же время она служит основным фактором всестороннего развития учащейся молодежи, формирования здорового образа жизни, воспитания их в гармоничном человеческом облике, избавлении от беззакония и других негативных пороков. Учитывая растущее внимание к физическому развитию молодежи, данное исследование посвящено методам улучшения физических качеств в спортивных дисциплинах. В работе рассматриваются различные подходы и техники, направленные на развитие силы, гибкости, выносливости и координации у спортсменов. Особое внимание уделяется методам тренировки, использованию современных технологий и индивидуализации программ, что способствует эффективному прогрессу в спорте. Также обсуждаются результаты практического применения данных методов в спортивных школах и клубах, подчеркивая важность систематического подхода к физическому воспитанию молодежи.

Ключевые слова: физические качества, физические способности, научные, методические, здоровье, функция, общая, специальная, учебно воспитательная функция, практическая функция, спортивная функция, оздоровительная функция.

Kirish. Shaxsning ijtimoiy madaniyatini shakllantirish jarayonida shug‘illanuvchilar harakatlarni va ular bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, o‘z jismoniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Hozirgi vaqtda insonning harakat imkoniyatlarini tavsiflash uchun jismoniy qobiliyatlar va jismoniy sifatlar atamalaridan foydalaniladi. Bu tushunchalar ma‘lum ma‘noda o‘xshash bo‘lsalarda, lekin bir hil emaslar. Afsuski, adabiyotlarda mazkur tushunchalarning ta‘rifi va o‘zaro aloqasi haqida birmuncha qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, bir holatda jismoniy qobiliyatlar organizmning harakat faoliyatida ishtirok etayotgan hamda uning ta‘sirini belgilaydigan funksional tizimlar layoqatning namoyon bo‘lish shakllari sifatida tushuniladi boshqasida hayotda, ayniqsa, xarakter faoliyatida amalga oshiriladigan va asosini jismoniy sifatlar tashkil etadigan insonga xos imkoniyatlar nazarda tutiladi uchinchi qobiliyatlar deganda, organizmning ruxiy- fiziologik va morfologik xususiyatlariga asoslanuvchi rivojlangan tug‘ma qobiliyat nishonalari tushuniladi. (A.P.Matveyev,1991) [1]

Jismoniy qobiliyatlar-insonning u yoki bu mushak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini taminlaydigan ruhiy-fiziologik xamda morfologik xususiyatlari majmuasidir.

Inson xarakter imkoniyatlarining aloxida jixatlarini ifodalash uchun uzoq vaqt jismoniy (harakatlantiruvchi) sifatlar degan atama qo‘llanilgan. Hozir ayrim mualliflar uni jismoniy sifatlar tushunchasining sodda formasi mazmuni tufayli ilmiy muomalardan chiqarib yuborishni va ularning o‘rniga faqat jismoniy qobiliyatlar atamasini qo‘llashni taklif qilmoqdalar. Shunga qaramay, kundalik nutqda va ilmiy usuliy adabiyotlarda mazkur atama ancha keng tarqalgan. Shuning uchun, extimol, bu ikki tushuncha orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash, ulardan foydalanish vaziyatlarini belgilab olish o‘rinlidir. (E.P.Ilin, B.V.)[2]

Eng avvalo qayd etib o‘tish kerakki sifat tushunchasi har doim biron bir narsaga nisbatan qo‘llanilib, uning boshqa narsalardan farqlab turadigan, mohiyatiga xos belgisini ifodalaydi, xususan, buyum, xomashiyo, oziq-ovqat maxsuloti, hayot sifatleri, shaxsning, bilimning sifati va xokazo haqida shunday gapiriladi. Jismoniy tarbiya sohasida ham bu atamadan xuddi shu ma‘noda foydalanish lozim.

Demak, insonning jismoniy sifatlarini uning xarakter imkoniyatlariga xos ba‘zi xususiyatlar singari jismoniy qobiliyatlar namoyon bo‘ladigan u yoki bu shakllarga nisbatan qo‘llab tekshirish, ya‘ni ular to‘grisida amalga oshirib bo‘lingan qobiliyatlar asosida fikr yuritish mumkin.

Inson sifat jixatidan bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman qobiliyatlar egasi bo‘lishi mumkin. Aynan shu turli jismoniy qobiliyatlarining sifati o‘ziga xosligi uning jismoniy sifatleri to‘grisida guvovlik beradi. Turmushda, jismoniy tarbiya va sportda inson jismoniy qobiliyatlarining sifati xos xususiyatlar kuchli, tezkor, chaqqon, egiluvchan degan iboralarda o‘z aksini topgan. Bu sifatlarining hayotdagi ahamiyati ularni ayirib ko‘rsatish mezonni xisoblanadi. Aslida jismoniy sifatlar alohida jismoniy qobiliyatlarining erishilgan darajasi, ularning aniqligi, o‘ziga xosligi, ahamiyati ifodasi sanaladi. Masalan insonning kuch qobiliyatlarini olaylik. Ular mushaklarning zo‘riqish darajasi yuqori, qisqarish tezligi esa nisbatan uncha kata bo‘lmagan kuch mashqlarida namoyon bo‘ladi. Aslida kuch qobiliyatleri sust kuch, siquvchi kuch, statik kuchl kabi kuch sifatlarini tavsiflaydi. Tezlik - kuch qobiliyatlarimushaklarning jiddiy zo‘riqishi va ularning yuqori qisqarish tezligini talab etuvchi mashqlarda yuzaga chiqadi. Tezlik- kuch qobiliyatleri rivojlanishi, eng avvalo portlovchi kuch deb ataladigan sifatta aks etadi. [3] Yuqorida tilga olingan kuch sifatleri insonning kuch qobiliyatleri yaxlit tarzda aniqlash va farqlashga imkon beradi. Xuddi shunday boshqa jismoniy qobiliyatlarining ham sifat tafvudlarini ifodalash mumkin. Jismoniy qobiliyatlar va sifatlar orasida ko‘p ma‘noli bog‘liqlik bor. Bir hil qobiliyat turli hil jismoniy sifatleri namoyon qilishi, turli hil qobiliyatlar esa ulardan faqat bittasini tavsiflashi mumkin. Masalan, epchil sifati asosida ko‘pgina qobiliyatlar: muvofiqlash, tezkorlik, kuch va boshqalar yotadi. Tezlik-kuch qobiliyatleri faqat kuch emas, tezkorlik sifati ham o‘z aksini topadi. Shunday qilib, insonning jismoniy sifatleri jismoniy qobiliyatleri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, turli harakatlar chog‘ida ularning namoyon bo‘lish xususitalari bilan belgilanadi, jismoniy qobiliyatlarining rivojlanish va namoyon bo‘lish xususiyatleri bilan belgilanadi, jismoniy qobiliyatlarining rivojlanish va namoyon bo‘lish darajasiga bir tomondan atrof-muhit omillari (turmushning ijtimoiy-maishiy sharoitleri, iqlimiy va geografik sharoit mashg‘ulot o‘tkaziladigan joylarning ta‘minlanganligi, ularni rivojlantirish usuliyati va x.k.) ikkinchi tomondan esa organizmning turli ta‘sirilariga o‘ziga xos reaksiyasiga bog‘liq bo‘lgan irsiy omillar («motor» qobiliyat nishonalari) ta‘sir o‘tkazadi, jismoniy qobiliyat nishonalari sifati inson organizmidagi onatomik, fiziologik va ruhiy xususiyatleri yuzaga chiqadi. Biror-bir faoliyatni bajarish jarayonida motor nishonalar organizmning moslashish o‘zgarishleri asosida takomillashib, tegishli jismoniy qobiliyatlarga aylanadi.

Ta‘kidlash zarurki, motor nishonlar ko‘p funksiyali bo‘lib, mushak faoliyatiga qarab u yoki bu yo‘nalishda rivojlanishi va u yoki bu shakldagi jismoniy qobiliyatlar rivojlanishini ta‘minlashi mumkin. Bunday shakllarga harakat faoliyati turlari qancha bo‘lsa, shuncha ko‘p bo‘lishi mumkin, chunki ularning har biriga o‘ziga xos tuzilish, harakatlarning maqsadli yo‘naltirilganligi, mushaklar muvofiqlashi, organizm faoliyati rejmi hamda uning quvvati bilan ta‘kidlanishi kabi xususiyatleri xosdir. Shu sababli ham organizmdan chidamlilik yoki harakatlar tezkorligini rivojlantirishga javobgar bo‘lgan qandaydir alohida mexanizmlarni izlash befoйда. Ularining takomillashuvi asosida inson organizmning

marfofunktsional ixtisoslashuviga olib keladigan moslashtiruvchi ta'sir, butun bir adaptiv reaksiya yotadi. Morfofunktsional qayta qurishlar organizmni to'raligicha qamrab oladi. Biroq bu eng ko'p darajada va birinchi navbatda asosiy ish yuklamasini ko'taradigan mushak guruhlari hamda ularning ish qobiliyatini ta'minlovchi fiziologik tizimlarga taalluqlidir. Funktsional ixtisoslashuvning bunday tanlash xususiyati, asosan, organizmning ma'lum faoliyat sharoitidagi ish rejimiga, uning yaqqol namoyon bo'lish darajasi esa jismoniy yuklamalarning shiddati va xajmiga bog'liq. [4]

Tarixan mavjud bo'lgan jismoniy tarbiya tizimlariga insonning jismoniy (harakat) sifatlarini tarbiyalay olishiga qarab baho berilgan. Insonning organizmida turli darajada shakllangan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, tana bo'g'inlari harakatchanligi va muskullar egiluvchanligini jismoniy sifatlar deb atash qabul qilingan. Inson organizmining shu sifatlarini qanday namoyon qila olishiga qarab individga kuchli, chaqqon, tezkor va h.k. deb baho berganlar. Bu sifatlar o'Ichovga ega, uning ko'rsatkichlari jismoniy tayyorlik ko'rsatkichlari deb ataladi va ko'rsatkichlar orqali individning ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorligi aniqlanadi. Masalan, individ 100 kg og'irlikdagi shtangani yelkaga olib faqat 3 marotaba o'tirib tura olsa, boshqasi shu vazn bilan 5 marotabadan ortiq o'tirib tura olishi mumkin. Shu mashqni ikki marta ortiq bajarilganligi uchun ikkinchi o'rtoqning kuch sifati rivojlangan deb baholanadi. Bu sifat organizmning suyak, muskul va boshqa a'zolarining to'qimalari, hujayralari vahokazolarning rivojlanganligigagina bog'liq bo'lmay, ma'naviy-ruhiy fazilatlariga ham bog'liq. Shuning uchun harakat sifatlarini tarbiyalash ma'naviy-ruhiy fazilatlarini tarbiyalash ishi bilan chambarchas bog'liq va tarbiyaning shu yo'nalishiga vosita bo'lib xizmat qiladi.

Harakat sifatlarini tarbiyalashga intilish insoniyatning azaliy orzusi. Mehnat qurollari, harbiy anjom va aslaxa bilan muomala qilishning samaradorligi tabiat insonga inom etgan va uni tarbiya jarayonida rivojlantirish mumkin bo'lgan jismoniy fazilatlariga bog'liq tarbiyalash lozimligi masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Jismonan barkamol, axloqan pok, estetik didli, e'tiqodli, sadoqatli, texnika ilmining zamonaviy asoslarini puxta egallagan, har taraflama ma'naviy yetuk, jismonan garmonik rivojlangan kishini tarbiyalash hozirgi kungacha davrimizning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanib kelindi. Hozir ham bu dastur o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U mamlakatimizda amalga oshiralayotgan sog'lom avlod uchun dasturining o'zagini tashkil etadi. [5]

Jismoniy tarbiyani, xususan, jismoniy sifatlarini rivojlantirishni mohiyatining yuqoriligi va salmoqliligi ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ularning (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va hokazolarning) barchasini o'zaro uzviy bog'lab olib borishni tarbiya jarayoni taqazo qiladi. Lekin sportning ma'lum bir turida muayyan fazilat kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati tarzida namoyon bo'ladi. Boshqa sifatlar ham nisbatan rivojlanadi, lekin ular yordamchi, ko'makchi harakat sifati tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, sport o'yinlaridan basketbolda asosan chaqqonlik sifatini rivojlantiradi deb hisoblansa, tezlik yordamchi sifati tariqasida rivojlanadi. Lekin basketbol chidamlilikni ham tarbiyalashda asosiy vositadir. Og'ir atletikachilarda kuch jismoniy sifati yetakchi fazilat sanaladi. Siltab ko'tarish (rivok)ni ko'p mashq qilish esa tezkorlikni rivojlantiradi. Amaliyotda bu mashqlar orqali chidamlilik va egiluvchanlik ham ko'makchi jismoniy sifat tarzida rivojlanishini guvohimiz. Umuman, chaqqonlikni rivojlantirish uchun ko'proq o'yinlardan: gandbol, basketbol, futbol, tennis, stol tennis, gandbol, xokkey, regbi va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aslida bu o'yinlar uchun tezlikning ahamiyati ham ikkinchi darajali emas. Chaqqonlikni rivojlantirish esa tez o'zgaruvchan o'yin sharoitiga moslasha bilishni, kuzatuvchanlikni, mo'ljalga to'g'ri olishni, qisqa fursat ichida turli murakkab vaziyatda aniq, to'xtamga kelish, uni his qilish va o'z harakatlarini shu vaziyatga moslay olishdek hayotiy zaruriy Amaliy harakat malakalarni shakllantiradi. Velosiped, harakatli o'yinlar ham chaqqonlikni rivojlantiradi. Har qanday harakat biror-bir konkret harakat vazifasi deb ataladigan vazifani hal qilishga qaratiladi. Masalan, iloji boricha balandroq sakrash, to'pni ilib olish, raqibni aldab o'tish, shtangani ko'tarish va hokazo. Harakat vazifasining murakkabligi, bir vaqtda va ketma-ket bajariladigan harakatlarning uyg'unligiga bo'lgan talablar, harakatlar koordinatsiyasini tarbiyalaydi. [6]

Xulosa: Jismoniy tarbiyani, xususan, jismoniy sifatlarini rivojlantirishni mohiyatining yuqoriligi va salmoqliligi ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ularning (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va hokazolarning) barchasini o'zaro uzviy bog'lab olib borishni tarbiya jarayoni taqazo qiladi. Lekin sportning ma'lum bir turida muayyan fazilat kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati tarzida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. А.П.Матвеев. Физическая культура личности как проблема педагогики. 1991.-79 с.
2. Е.Е.Илин. Мотивация и мотив. Видения в психология труда. 2006.-507 с.
3. Yusupov V.J., Akramov J.A., Usmonxo'jaev S.T. Jismoniy tarbiya. (Kasb-xunar kollejlari uchun darslik) –T: O'qituvchi, NMIU,2008.-256 b.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati.- T: O'zDJTI nashriyot matbaa bo'limi, 2005. -232 b.
5. Usmonxo'jaev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti (O'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma)–T: O'qituvchi NMIU, 2008.- 184 b.
6. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M, Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. –T: Fan, 2006. -107 b.

Muallif:

Saidov Umid Abdug'aforovich Guliston davlat universiteti, Sport turlarini o'qitish uslubiyati kafedrasini o'qituvchisi.

UDK: 796.

RESULTS OF A SURVEY ON THE DEVELOPMENT OF COORDINATION SKILLS AND TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF ATHLETES INVOLVED IN WRESTLING

KURASH TURLARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI SPORTCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN O‘TKAZILGAN SO‘ROVNOMA NATIJALARI

РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРОСА ПО РАЗВИТИЮ КООРДИНАЦИОННЫХ НАВЫКОВ И ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ БОРЬБОЙ

Adilov Sarvar Qaxramonovich

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

E-mail: sarvar.adilov@gmail.com

Annotation. This article presents the results of questionnaires conducted through pedagogical observation among experienced sports specialists and athletes in order to eliminate factors that hinder the effectiveness of coordination skills and technical and tactical training in the training of highly qualified wrestlers engaged in sports wrestling.

Key words: physical fitness, coordination skills, technical and tactical movements, questionnaire.

Аннотация. В данной статье с целью устранения факторов, препятствующих повышению эффективности координационных навыков и технико-тактической подготовки, встречающихся в подготовке борцов высокой квалификации, занимающихся спортивной борьбой, представлены результаты анкетирования путем педагогического наблюдения между опытными спортсменами. прошли специалисты и спортсмены.

Ключевые слова: физическая подготовка, координационные навыки, технико-тактические действия, анкета.

Sport kurash turlari bilan shug‘ullanuvchi yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashda uchrayotgan koordinatsion mahorat hamda texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, tajribali sport mutaxassislari va sportchilar o‘rtasida pedagogik kuzatish orqali anketa-so‘rovnoma o‘tkazilib, savollarga kerakli javoblar olindi.[1]

Mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatdiki, kurash turlari bilan shug‘ullanuvchi yuqori malakaga ega sportchilarni tayyorlash mobaynida koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlarni ilmiy-nazariy bilimlar orqali tashkil etish, bugungi kunda talab darajasida amalga oshirilmayapti. [2] Shu bois, kurash turlarida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mashg‘ulotlar jarayoniga ilmiy-metodik jihatlariga asoslangan yangi uslublarni joriy etish zarur.

Sport amaliyotida malakali ilg‘or tajribalarni o‘rganish natijasida shunga amin bo‘ldikki, kurash bo‘yicha mutaxassislar tomonidan mashg‘ulotlarni rejalashtirish yo‘nalishida kompleks ta’sirli mashqlarni qo‘llash masalasi ko‘rib chiqildi va mashqlarning dastlabki vazifalari bir tomonlama joriy qilinishi kerak bo‘lganligi asosida barcha vazifalar tarkibi asta-sekin kengayib borishi bilan belgilandi.

Tadqiqot davomida biz 45 nafar murabbiy o‘rtasida anketa-so‘rovnoma o‘tkazib, so‘rovnoma natijalari quyidagicha bo‘ldi (1-rasmga qarang):

Sizning fikringizcha, sport kurashlari mashg‘ulotlari jarayoniga koordinatsion qobiliyatlarni tarbiyalash uchun maxsus tayyorgarlikni kiritish kerakmi (1-savol)? “Zarur” degan savolga murabbiylarning 49,1 foizi, “aslida kerak emas” – 15,4 foizi, “kurashning ayrim turlari uchun bu zarur, boshqalari uchun esa shart emas” – 35,5 foizi javob bergan.


Sizning fikringizcha Kurashchilarda qaysi yosh davri koordinatsion qobiliyatlarni va texnik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr deb hisoblaysiz (2-savol)? Murabbiylarning 30,3 foizi 10-12 yosh, 57,6 foizi 12-14 yosh va 12,1 foizi 13-16 yosh deb javob bergan. Bu savolga ba’zi murabbiylar “gimnastika va suzishni 5-9 yoshdan boshlab bolalarda rivojlantirish mumkin, koordinatsiya qobiliyatlarini bolalarda 7-8 yoshdan rivojlantirishga qaratish hamda mashqlarni bajarish orqali sport turini tanlash va moslashishga yaxshi ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladilar.

Mutaxassislarning fikricha, 8-10 yoshdan 12-14 yoshgacha bo‘lgan sportchilarda boshqa yoshdagilarga qaraganda koordinatsiya ko‘nikmalarini egallashga intilish ko‘proq bo‘ladi. [3] Bizning fikrimizcha, muvofiqlashtirish qobiliyatlari bola yurishni boshlagandan keyin mustaqil ravishda rivojlana boshlaydi.

Sport kurashlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarda musobaqa faoliyatining qaysi jarayonida koordinatsion qobiliyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi (3-savol)? Murabbiylarning 34,1 foizi “hujumda”, 34,1 foizi “himoyada”, qolgan 31,8 foizi esa “qarshi hujumda” javobini tanlagan. Ba’zi murabbiylar ko‘nikmalarni muvofiqlashtirish barcha musobaqa faoliyatida muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga musobaqalar paytida kutilmagan vaziyatlardan oqilona foydalanish koordinatsion qobiliyatlari qanchalik rivojlanganligini ko‘rsatadi, degan fikrni bildirdilar. Biz yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, raqobat faoliyatida koordinatsion qobiliyatlari muhim degan xulosaga keldik.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***



1-rasm. Anketa so‘rovnoma natijalari

Sizningcha, kurashda koordinatsion qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar masalan sensor tizimlaridan foydalanish qanchalik muhim (4-savol)? Murabbiylarning 17,8 foizi “juda muhim emas”, 82,1 foizi “juda muhim”, qolgan murabbiylar “ba’zida lozim, goh-gohida lozim emas” degan fikrni berganlar. Bundan tashqari, ushbu mavzu bo‘yicha mutaxassislar koordinatsiya qobiliyatlari jang san’atida muhim ro‘l o‘ynashi va bu qobiliyat tug‘mami yoki rivojlanishi mumkinmi, degan fikrni bildirishdi. Ular texnikani bajarishda koordinatsion qobiliyat va muvozanatni saqlashda sensor tizimlaridan foydalangan holda sportchilarni masofadan taxlil qilish hozirgi kunda muhim degan fikrni bildirdilar.

Agar sportchining koordinatsion qobiliyati rivojlanmagan bo‘lsa, bu sportchiga qanday ta’sir qiladi? (5-savol) - bu savolga 50% murabbiylar “sportda yuqori maqsadlarga erisha olmaydilar”, 9,4% murabbiylar “mashg‘ulot davomida ko‘plab jarohatlar oladilar”, 40,6% murabbiylar “muvozanatni saqlay olmaydilar” javobini qayd etdi. Qolaversa, mazkur savolga ba’zi sport murabbiylari koordinatsiya qobiliyati shakllanmagan sportchidan yuqori darajadagi natijani kutish qiyinligi, kurashchi-sportchilarda koordinatsion layoqatni texnika va taktika bilan rivojlantirish samarali natijani qayd etishi mumkinligi haqida fikr bildirdilar.

Sizningcha, o‘quv mashg‘ulot jarayonining qaysi qismida koordinatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish usullaridan foydalanish kerak (6-savol)? - Murabbiylarning 36,4 foizi “takroriy”, 38,1 foizi “qat’iy jadval bo‘yicha”, qolgan 25,5 foizi esa “davriy ravishda” deb javob bergan. Ba’zi murabbiylar bu muammoni hal qilish uchun barcha usullardan foydalanish mumkinligini aytishdi. Ba’zi ekspertlar aylanma usullarni qo‘llash mashg‘ulotning maqsadiga tayangan holda muvofiq bo‘lishini taklif qilishdi va raqobat usuli ham ko‘p afzalliklarga ega. Biz ham yuqorida aytib o‘tilgan amaliyotchilarning fikrlariga qo‘shilamiz.

Sizning fikringizcha, sportchilarning jismoniy tayyorgarligida maxsus koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus bo‘limni yaratish kerakmi (7-savol)? 46,5% murabbiy bor, 16,8% murabbiy kerak emas, 36,7% esa ba’zida murabbiy kerak emas deb javob bergan.

Sizningcha, bugungi kunda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar yetarlimi (8-savol)? Murabbiylarning 38,7 foizi “yetarli emas”, 9,6 foizi “yetarli”, 51,7 foizi esa “bor, lekin juda oz” deb javob berishgan. Bu savolga ba'zi murabbiylar butun dunyoga mashhur olimlar Bernshteyn va Lyax adabiyotlaridan ma'lumot olish kerakligini qo'shimcha qildilar. Bizning fikrimizcha, koordinatsion malakalarini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy metodik manbalar hamda adabiyotlar yetarli darajada, biroq ularning oz qismi o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Siz koordinatsion ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanasiz (9-savol)? - degan savolga murabbiylarning 39,4 foizi “tez-tez”, 39,4 foizi “qat'iy jadvalga muvofiq”, 21,2 foizi “vaqti-vaqti bilan” deb javob berdi. Ushbu masala bo'yicha ba'zi ekspertlar ta'limni barcha usullar bilan amalga oshirish mumkinligini sharhlaydilar. Biroq, ular davra va raqobat usulining ko'plab afzalliklariga ega deb hisoblashdi. Yuqoridagi gaplarni ham to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sizningcha, kurash bilan shug'ullanuvchi o'smirlarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish metodologiyasi innovatsion usullar bilan boyitilganmi (10-savol)? Murabbiylarning 19,3 foizi “ha”, 51,6 foizi “yo'q”, 29,1 foizi esa “aniq bilmayman” deb javob bergan. Bundan tashqari, ushbu savolga murabbiylar muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish yangilik ekanligini ta'kidladilar. Ayrim murabbiy ilmiy metodologiya ishlab chiqish zarur degan fikrni bildirishdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini aniqlaydi.

Sizningcha, koordinatsion qobiliyat ko'nikmalarini mashg'ulotlarning qaysi vaziyatida rivojlantirish kerak (11-savol)? Savolga murabbiylarning 37,1 foizi “tayyorgarlik qismida”, 60,1 foizi “asosiy qismda”, 2,8 foizi esa “yakuniy qismda” deb javob bergan. Basketbol va ochiq o'yinlardan foydalanish sport o'yinlaridan ko'ra samaraliroq, degan fikrni bildirdilar. Tayyorgarlik qismida muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish yaxshi samara beradi, shuning uchun tayyorgarlik qismida akrobatik mashqlar va maxsus akrobatik mashqlar qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha, muvofiqlashtirish ko'nikmalari o'quv mashg'ulot jarayonining barcha bosqichlarida rivojlanishi kerak.

Koordinatsion harakatlar psixofizik jarayon ekanligini qanchalik yaxshi bilasiz (12-savol)? - Murabbiylarning 35,3 foizi “bilaman”, 32,4 foizi “bilmayman”, 32,3 foizi “qisman bilaman” deb javob bergan.

Sizning fikringizcha, koordinatsion qobiliyatlar mukammal darajada rivojlanganligini qanday metodlar asosida aniqlash mumkin (13-savol)? Murabbiylarning 35,3 foizi “berilgan vositalarning to'g'ri bajarilishi to'g'risida”, 32,3 foizi “muvozanatni saqlash qobiliyatiga qarab”, 32,3 foizi “sportchining sportga moslashuviga qarab” javob berdi. Bu savolga murabbiylar integral ko'rsatkichlar doimo aniq bo'lishi va yuqori saviyada bajarilishi kerakligini ta'kidladilar. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, biz yaxshi rivojlangan muvofiqlashtirish qobiliyatlarini maxsus (nazorat) testlar yordamida aniqlash mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Sizning fikringizcha, sportchilarni koordinatsion qobiliyatini shakllantirish uchun musiqiy tayyorgarlikka ehtiyoj bormi (14-savol)? - deb berilgan navbatdagi savolimizga murabbiylarning 35,2 foizi “yo'q”, 36,5 foizi “ha”, 28,3 foizi “bilmayman” deb javob bergan.

Dars davomida koordinatsion ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darsning qaysi qismidan foydalanasiz (15-savol)? “Tayyorlik” degan savolga murabbiylarning 28,9 foizi, “asosiy”ga 47,1 foizi, “yakuniy”ga 24 foizi javob berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki koordinatsion ko'nikmalar o'zgaruvchan muhit talablariga muvofiq murakkab harakat faoliyatini (shakllanish, o'zaro bo'ysunish, birlashtirish), o'zlashtirilgan harakat usullarini tiklash yoki bir vosita faoliyatidan boshqasiga o'tkazish qobiliyatidan iborat. Koordinatsion ko'nikmalarning ko'rsatkichlariga bajarilgan harakat vazifalari (gimnastika, suvga sho'ng'ish, figurali uchish) va boshqalar kiradi. Ular harakatning yangi shakllarini o'zlashtirishi va o'zlashtirilgan harakatlarni o'zgartirishga sarflangan vaqtni, o'ziga xos harakat ko'rsatkichlariga (vaqt birligiga, makonga) ko'ra tasavvur qilishlari mumkin.

Kurash bilan shug'ullanuvchi malakali sportchilarning koordinatsion qobiliyatlari samaradorligini oshirishning mavjud omillaridan biri sifatida maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo'llaniladigan mashqlar tizimlashtirildi. Maxsus o'quv mashg'ulotlari aniqlangandan so'ng, mashg'ulotlar sonini doimiy ravishda oshirish va ularning rivojlanish holatiga faol ta'sir qilish usullari ishlab chiqilgan.

Sport kurashida texnik-taktik tayyorgarlikni tashkillashtirishning uzviy bog'liqligi o'qitishning muqobil tayyorgarlik bosqichlari asosida sportchilarning bellashuv oldidan ko'rsatadigan tajriba ko'rsatkichlari tadqiqotning davomiyligida olib borilgan usullar yordamida aniqlandi.

Bu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun kurash bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali kurashchilarda bir necha xil koordinatsiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning ta'sirini, mashg'ulot turining kuchini va ta'sirining tavsifini diqqat bilan o'rganish kerak. Ushbu holatni hal qilish, turli-tuman harakatlarni o'zgartirish uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish orqali kurash sport turlari bilan shug'ullanadigan yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashda samaradorlikga erishish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Curby, D. G. (2009). Analysis of the 2008 Olympic Greco-Roman Wrestling Competition. Exercise and Society: Journal of Sport Science, 49. – P. 189-191.

2. Shakhmuradov, Y. & Podlivaev, B. "Raising the level of technical-tactical actions in standing by including leg actions as subsidiary elements", in International Journal of Wrestling Science, 1, (2011). – P. 16-23.
3. Рузиев А.А. Проблемы повышения специальной выносливости высококвалифицированных борцов //Теория и практика физической культуры. –Москва, 2001. -№8. - С. 37-38.
4. Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. - Новосибирск, 2002. - С. 471-479.
5. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar/ -Toshkent "Zarqalam", 2004. - B. 120-128.
6. Шахмурадов Ю.А. Научно-методические основы многолетней технико-тактической подготовки борцов (на примере вольной борьбы): Автореф. дис... д-ра пед. наук. - М., 1999. - С. 24-28.
7. Тодоров А.С. Контроль координации движений борцов вольного стиля: Автореф. дис... канд. пед. наук. – М., 1992. - С. 16-24.
8. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004. - С. 22-26.
9. Бакиев З.А. Керимов Ф.А. Инновационные технологии в подготовке квалифицированных борцов на основе системного анализа деятельности спортсменов и тренеров с учетом уровня их спортивного мастерства// Шаг в науку// Материалы IV научно-практической конференции молодых ученых (II всероссийской) г. Москва, 18 декабря 2020. – С. 328-334.
10. Adilov.S.Q. Intellektual sensor tizimlaridan foydalangan holda sport kurashida koordinatsion va texnik-taktik harakatlarning integratsiyasi // pedagogika fanlari doktori (DSc). diss.avtoreferati. Chirchiq,2024. -B. 20-25.
11. Adilov S.Q. Malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va uning qiyosiy tahlili // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2020/7, Issn: 2181-7804 B. 24-26. [13.00.00 № 7].
12. Adilov S.Q. Erkin kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini va texnik-taktik tayyorgarligini "ZS" sport uskunasi orqali takomillashtirish samaradorligini oshirish // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2020/5, Issn: 2181-7804 B. 28-30.1983[13.00.00 № 5].
13. Adilov S.Q. Increasing basics of the efficiency of competition activity and developing technical and tactical preparation // Mental enlightenment scientific-methodological journal Volume 2022 / Issue 6 Issn: 2181-6131 P.51-64. SJIF-7.623
14. Adilov S.Q. Sport kurashida koordinatsion qobiliyatlar va texnik-taktik tayyorgarliklarni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning samaradorligini oshirish // Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali 2022/5, Issn: 2181-7804 B. 10-12. [13.00.00 № 5].
15. Adilov S.Q. Kurash turlarida koordinatsion qobiliyat va texnik-taktik tayyorgarliklarni takomillashtirishni rejalashtirish // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal.- Buxoro, 2022/№10. Issn: 2181-1709 (P). B. 108-115. [13.00.00 № 10].

Muallif:

Adilov Sarvar Qaxramonovich - O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, p.f.d. (DSc)., dotsent
E-mail: sarvar.adilov@gmail.com

UDK 372.815.99

THE INFLUENCE OF THE CHARACTERISTICS OF AUTONOMY AND DEPENDENCE ON PERSONAL SELF-ACTIVATION

SHAXS O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHIGA AVTONOMLIK VA TOBELIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI
ВЛИЯНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК АВТОНОМНОСТИ И ЗАВИСИМОСТИ НА ЛИЧНОСТНОЙ САМОАКТИВАЦИИ

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.
E-mail: azimbek_qurbonboyev@mail.ru

Annotation. In this article, the influence of the level of autonomy and subordination in students on the process of self-activation, the psychological views of foreign psychologists, and the important aspects of self-activation in educational activities are widely covered. Also, the quantitative and qualitative analysis of the research work carried out within the influence of the level of autonomy and dependence on the student's self-activation system is presented.

Keywords: personality, self-activation, personality activity, educational activity, degree of autonomy, dependence, dependence theory, independence, individuation, aspirational ability.

Аннотация. В данной статье широко освещены влияние уровня самостоятельности и субординации у студентов на процесс самоактивации, психологические взгляды зарубежных психологов, а также важные аспекты самоактивации в учебной деятельности. Также представлен количественный и качественный анализ

исследовательской работы, проводимой в рамках влияния уровня самостоятельности и зависимости от системы самоактивации студента.

Ключевые слова: личность, самоактивация, личностная активность, учебная деятельность, степень автономии, зависимость, теория зависимости, самостоятельность, индивидуация, амбициозная способность.

Kirish. O'zini o'zi faollashtirishni o'rganishdagi eng yangi urinishlar tadqiqotchilar qiziqishining muammoli-ziddiyatli vaziyatlarda ijobiy yechimi o'ta qiyin yoki ilgari o'zlashtirilgan xulq-atvor qoliplari asosida imkonsiz bo'lganda ham yuzaga keladigan o'zini o'zi faollashtirishning oraliq holatlarini o'rganish bilan qo'shib ketishiga bog'liq. O'zini o'zi faollashtirish, shuningdek, o'z ichki yashirin imkoniyatlarini muntazam ochish jarayonini o'zida ifodalaydi.

Asosiy qism. O'zini o'zi faollashtirish jarayoni – bu o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayonidagi o'z oldiga ongli ravishda qo'yilgan maqsadlar hamda ularga erishish uchun ishlab chiqilgan strategiya asosida sub'yekt tomonidan bajarilgan xatti-harakatlarning qandaydir oxirgi miqdoridir. Har bir akt o'ziga xos emotsional reaksiya – “eng yuqori darajadagi kechinma” bilan, muvaffaqiyat sharoitida ijobiy, yoki muvaffaqiyatsizlikda – salbiy (og'riq, ko'ngil qolishi) ravishda yakun topadi.

O'zini o'zi faollashtirish insonning umri davomidagi tanlovlarning har bir yechimi to'g'riligi bilan ta'minlanadi. Har bir hayotiy tanlov insonni shaxsiy rivojlanishi yoki pasayishi tomon bir qadamga ilgari suradi. O'zini o'zi faollashtirish – bu o'z rivojlanishi doirasidagi yo'nalishda harakat qiluvchi inson hayotiy tanlovlarning o'suvchi natijalaridir. “O'zini o'zi faollashtirish – bu jarayon, u shuni nazarda tutadiki, har safar, tanlov qilayotganda, biz halol bo'lib qolishga, yolg'on gapirmaslikka nima munosibroq, o'g'irlikdan ko'ra, o'g'irlamaslik halolroq ekanligini tanlaymiz, yoki umumlashtirib, - qarshimizda turgan har bir tanlovni biz shaxsiy rivojlanishning foydasiga amalga oshiramiz”.

Shunday qilib, o'zini o'zi faollashtirishni shaxsning o'zini rivojlantirish, uning “ichkaridan” shaxsiy o'sishi jarayoni, insonning hayot strategiyasini qurish, qadriyatlar tadrijiyligini yaratish, hayot mohiyatini anglashga qaratilgan o'z shaxsiy hayotiy faoliyati sub'yektiga aylanish jarayoni sifatida ta'riflash mumkin. U shaxsiy rivojlanishning tarkibi o'zini tushunish, autosimpatiya (o'zini yoqtirish), qadriyatlar va mohiyatlarni tizimlashtiruvchi refleksiya jarayonidan ajratilmasdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, shaxsda o'zini o'zi faollashtirish o'zini o'zi namoyon qilish, o'zini o'zi nazorat qilish, kamolga yetkazish kabi jarayonlar bilan uzviy bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insonning ontogenetik taraqqiyoti davrida o'zini o'zi faollashtirish yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda avtonomiya ota-ona bilan munosabatlarning uzoqlashuvi, ijtimoiy, emotsional munosabatlarning o'zgarishi, shaxslararo munosabatlarda individuallikka intilish, ijtimoiy moslashuv, o'smiring axloqiy-qadriyatlar darajasidagi yetuklik jihati bilan bog'liq.

Rossiya psixologlari tomonidan avtonomiya D.B.Elkonin, T.V.Dragunov, L.I.Bojovich, G.A.Sukarman, G.V.Burmenskiyning yosh psixologik yondashuviga, qolaversa, D.A.Leontyev, Y.R.Kaliteyevskiy va O.Y.Dergachevlarning o'zini o'zi rivojlantirish nazariyalariga ko'ra, mustaqil bo'lish va kattalik hissi zamirida o'rganilgan. Qolaversa, avtonomiyaning shakllanishi o'zini sosiumdan ajratib olish, shaxsning ijtimoiy tug'ilishi, shaxsiy yetuklik, o'zini o'zi boshqarish, kattalik hissini yuzaga kelishi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich) bilan bog'liq [1].

Zamonaviy manbalarda avtonomiya tushunchasiga yagona ta'rif keltirilmagan. «Avtonomiya yirik nazariyalari va yagona barqaror ta'rifi bo'lmagan fenomenlardan biridir». Aksariyat hollarda avtonomiya tushunchasi «mujassamlashmagan tushuncha» sifatida qaralib, serqirra mazmun kasb etadi. Ko'pgina tadqiqotlarda avtonomiya mustaqillik, malaka kompyentligi sifatida, boshqa tadqiqotlarda tashabbuskorlik va maqsadga intiluvchanlik qobiliyati, uchinchi tadqiqotlarda – irodaviy o'zini o'zi boshqarish, to'rtinchi tadqiqotlarda – individuallikka intilish, beshinchi turdagi tadqiqotlarda shaxslararo munosabatlardagi mustaqillik, emotsional aloqalardagi emansipasiya va nihoyat oltinchi turdagi tadqiqotlarda shaxsiy qiziqish va erkinlik asosida harakatlanish tariqasida o'rganilganligini xorij olimlari ta'kidlab o'tadilar.

«Avtonomiya» tushunchasiga sinonim tushuncha sifatida rus psixologlarining tadqiqotlarida (L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich, G.A.Sukerman va boshqalar) «mustaqillik», xorij psixologlarining tadqiqotlarida (P.Blos) «individuasiya», (A.Bandura) «o'z-o'zini namoyon qilish», (E.Desi, R.Rayn) «o'z-o'zini rivojlantirish» tushunchalari qo'llanilgan [3]. Avtonomlik – shaxsning birmuncha mustaqillik darajasi, ya'ni boshqalarga nisbatan tobelikni his qilmasligida namoyon bo'ladi. Tobelik esa-boshqalarga nisbatan shaxsdagi bo'ysunish holati sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, biz insonlarni avtonom, tobe va yarim avtonom yarim tobe toifalarga bo'lamiz.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan muammoni ko'p tomonlama o'rganish maqsadida o'quv faoliyatida talabalar o'zini o'zi faollashtirishining avtonomlik-tobelik sifatleri bilan bog'liqligini tekshirishga harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarida N.F.Kalinaning «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» so'rovnomasi, G.S.Parigin tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan «Avtonomlik-tobelik» metodikasini o'tkazdik. Mazkur metodika orqali talabalardan olingan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadvallarda keltirildi:

1-kurs talabalarida avtonomlik-tobelik va o‘zini o‘zi faollashtirish o‘rtasidagi aloqadorlik
(K.Pirson korrelyasiyasi mezonini bo‘yicha)

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Avtonomlik-tobelik
Vaqtini mo‘ljalga olish	0,11
Qadriyatlar	0,04
Inson tabiatiga nazar	0,16
Bilish ehtiyojlari	0,03
Ijodkorlikka intilish	0,02
Avtonomlik	0,15
Spontanlik	0,14
O‘zini o‘zi tushunish	0,25**
Autosimpatiya	0,16
Aloqa o‘rnatish	0,20*
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,24**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Avtonomlik-tobelik va o‘zini o‘zi faollashtirish o‘rtasidagi aloqadorlikni tahlil qilishda dastlab 1-kurs talabalarining natijalariga e‘tibor qaratildi (1-jadval). Unga ko‘ra, o‘zini o‘zi tushunish va avtonomlik-tobelik xususiyatlari ($r=0,25$; $p \leq 0,01$) orasida ahamiyatli bog‘liqlik mavjud ekanligi qayd etildi. Buni shunday izohlash mumkinki, inson o‘zining ichki imkoniyatlarini anglashi, xohish va ehtiyojlariga sezgirlik darajasi, qobiliyatlarini yetarlicha baholay olish jarayoni hayotda mustaqil fikr yuritishga moyil kishilarda yaqqol namoyon bo‘lib, ular qiyin vaziyatlarda yakka o‘zlari qaror qabul qila olishadi, o‘zgalarning fikriga ko‘pincha e‘tibor berishmaydi. Shu bilan bir qatorda, biror maqsadga erishishda shaxsiy yondashuvlari bilan boshqalardan ajralib turishadi. Bunday insonlarni atrofdagilar o‘ziga ishonadigan shaxs deb hisoblashadi. Shu sababli ular o‘zini o‘zi yaxshi tushuna olish xususiyatiga egadirlar.

Aloqa o‘rnatish avtonomlik-tobelik xususiyatlari bilan ($r=0,20$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, insonning boshqalar bilan faol munosabatlarga kirisha olishi, o‘zga shaxslar bilan o‘ziga xos va samimiy muloqotni amalga oshirish qobiliyatining rivojlanishi boshqa insonlarga tobe bo‘lmaslik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Agar talaba shaxsida tortinchoqlik, o‘z fikrini mustaqil bildira olmaslik, qaror qabul qilish jarayonlarining qiyin kechishi shaxslararo munosabatlarda o‘zga insonlar bilan aloqa qilish imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Bu holat esa muloqot jarayonida munosabatlar tizimiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Shu boisdan ham avtonomlik sifati kishilar orasida munosabatga kirishishida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligi kuzatiladi.

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlaridan biri bo‘lgan muloqotdagi egiluvchanlik avtonomlik-tobelik xususiyatlari bilan ($r=0,24$; $p \leq 0,01$) ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, muloqot jarayonida shaxsning turli xarakter tipidagi insonlar bilan munosabatlarni o‘rnata olishi, shaxsning yetarli darajada o‘z fikrini ifoda qilish qobiliyatining shakllanishida qatiyatlilik, mustaqil fikrlashning ustunligi kabi omillar yetakchi o‘rinda turadi. Agar shaxsda boshqalar ta‘sirida emas, balki o‘zining ichki omillari negizida faoliyatini tashkil etishga moyil bo‘lsa, muloqot jarayonida ham boshqa shaxslar bilan munosabatlarni o‘rnatishda shu kabi faollik holatlari namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan natijalar asosida qayd etish joizki, 1-bosqich talabalarida o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari bilan avtonomlik-tobelik xususiyatlari o‘rtasida ahamiyatli aloqadorliklar kuzatilib, ularni mustaqil faoliyatga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. 3-bosqich talabalarida o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari va avtonomlik-tobelik xususiyatlari orasidagi bog‘liqlik darajalari 2-jadvalda ifodalangan.

3-kurs talabalarida avtonomlik-tobelik va o‘zini o‘zi faollashtirish o‘rtasidagi aloqadorlik
(K.Pirson korrelyasiyasi mezonini bo‘yicha)

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Avtonomlik-tobelik
Vaqtini mo‘ljalga olish	-0,01
Qadriyatlar	0,11
Inson tabiatiga nazar	0,03
Bilish ehtiyojlari	0,09
Ijodkorlikka intilish	0,17
Avtonomlik	0,11
Spontanlik	0,07
O‘zini o‘zi tushunish	-0,04
Autosimpatiya	-0,05

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Aloqa oʻrnatish	0,20*
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,02

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

2-jadvalda berilgan natijalarga koʻra, sinaluvchilarda avtonomlik-tobelik sifatining oʻzini oʻzi faollashtirish xususiyatlari bilan oʻzaro aloqadorlik tomonlari tahlil qilinganda, shu narsa ayon boʻldiki, aloqa oʻrnatish va avtonomlik-tobelik ($r=0,20$; $p \leq 0,05$) xususiyatlari orasida ahamiyatli ijobiy bogʻliqlik holati mavjudligi aniqlandi. Mazkur koʻrsatkichlar shuni anglatadiki, oʻquv faoliyatida talaba shaxsida boshqa insonlar bilan birga boʻlishga intilish, shaxslararo munosabatlarda faol boʻlish qobiliyatining rivojlanishi insondagi oʻz kuchiga tayanib, muammolarni oʻzгалardan yordam soʻramasdan, oʻzi hal qilishi kabi sifatlar bilan bevosita bogʻliq ekanligi maʼlum boʻldi. Avtonomlik xususiyatga ega shaxslarda oʻz eʼtiqodi asosida harakat qilish qobiliyati, boshqalarning, hatto oʻzidan mavqei baland odamlar yoki guruhlar fikridan mustaqil ravishda harakat qilishga yoʻnalganlik, maqsad va xatti-harakatlarni erkin tanlash qobiliyati ustuvorlik qiladi. Shu boisdan ham ular boshqa insonlar bilan munosabatlarni samarali yoʻlga qoʻya oladi.

Taʼkidlash joizki, 3-bosqich talabalarida ham oʻzini oʻzi faollashtirish komponentlaridan biri boʻlgan aloqa oʻrnatish va avtonomlik-tobelik oʻrtasida oʻzaro ahamiyatli bogʻliqlik holatlari qayd etildi. Bu ularda mustaqillik sifatining rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, shaxs rivojlanishi jarayonida oʻzida mustaqil fikr, atrofda narsa va hodisalarga nisbatan tahliliy yondashuv ham rivojlanib boradi. Ushbu jihatlar 3-kurs talabalarida namoyon boʻlishiga eʼtiborimizni qaratdik (3-jadval).

3-jadval

Talabalik davrida avtonomlik-tobelik va oʻzini oʻzi faollashtirish oʻrtasidagi aloqadorlik
(K.Pirson korrelyatsiyasi mezon boʻyicha)

Oʻzini oʻzi faollashtirish komponentlari	Avtonomlik-tobelik
Qadriyatlar	0,07
Inson tabiatiga nazar	0,09
Bilish ehtiyojlari	0,05
Ijodkorlikka intilish	0,08
Avtonomlik	0,11
Spontanlik	0,09
Oʻzini oʻzi tushunish	0,09
Autosimpatiya	0,04
Aloqa oʻrnatish	0,19**
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,15*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Metodika natijalariga koʻra (3-jadval), sinaluvchilar guruhida oʻzini oʻzi faollashtirish komponentlarining namoyon boʻlishi ulardagi avtonomlik-tobelik sifatleri bilan aloqadorlikni oʻrganishga eʼtibor qaratdik. Unga koʻra, aloqa oʻrnatish va avtonomlik-tobelik xususiyatlari ($r=0,19$; $p \leq 0,01$) bilan yuqori darajada ahamiyatlilikka ega ekanligi maʼlum boʻladi. Mazkur holatni shunday izohlash mumkinki, oʻquv faoliyatida talabalarning oʻzгалar bilan qiladigan muloqotida yetarli darajada oʻz fikrini ifoda qilish qobiliyati ulardagi mustaqillik sifatleri bilan bevosita bogʻliq boʻlib, shaxslararo munosabatlar jarayonida samimiy muloqot qilishga oʻzini oʻzi erkin idora etish xususiyati oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Shuni taʼkidlash lozimki, shaxsda tobelik, rigidlik, oʻziga boʻlgan ishonchning pastligi ularda oʻzga insonlar bilan kechadigan muloqotning suhbatdoshiga zavq olib kelishiga nisbatan xavotirni uygʻotadi. Bu kabi holatlar esa insonning boshqalar bilan faol munosabatlariga kirishib ketishiga salbiy taʼsir qiladi.

Oʻzini oʻzi faollashtirish komponentlari orasida oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan sifatlardan biri muloqotdagi egiluvchanlik avtonomlik-tobelik xususiyatlari bilan ($r=0,15$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlik holatlari empirik tadqiqot natijalaridan maʼlum boʻldi. Bundan shuni qayd qilish mumkinki, talaba shaxsida mustaqillik xususiyatining ortishi ularda muloqot jarayonida moslashuvchanlikning ham shakllanishida asosiy omil boʻlib sanaladi. Ayniqsa, bunday holat boshqa insonlarning emotsiyasini his qilish qobiliyati, vaziyatning oʻziga xos tomonlari va suhbatdoshning individual xususiyatlariga qarab muloqot uslubini oʻzgartirishga tayyorlik, qotib qolmaslik, suhbatda bir mavzudan ikkinchisiga osongina oʻtishga moyillik kabi turli xususiyatlar bilan namoyon boʻladi. Binobarin, muloqot davomida insonlar va turli vaziyatlarga bunday egiluvchanlik sifati shaxsdagi avtonomlik xususiyatlari bilan bogʻliklikni tashkil etadi, chunki mustaqil fikr yurita oladigan insongina vaziyatga adekvat baho berib, oʻzгалar bilan munosabatlarning konstruktivligini saqlab qolishga intiladi.

Xulosa. Talabalik davrida avtonomlik-tobelik va oʻzini oʻzi faollashtirish xususiyatlari oʻrtasidagi aloqadorlikni tadqiq etishdan olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, oʻquv faoliyatida talabalarda oʻzini oʻzi faollashtirish komponentlaridan oʻzini oʻzi tushunish, aloqa oʻrnatish, muloqotdagi egiluvchanlik bilan mustaqillik sifatleri

o'rtasida ahamiyatli aloqadorliklar kuzatilib, ularning o'z faolligini namoyon qilishida hamda ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтев, А. Н. Деятелност. Сознание. Личност. /А.Н Леонтев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Маслоу А. Мотивация и личность. - М., 1954.
3. Олпорт, Г. Становление личности: избранные труды/Г. Олпорт - М: Смысл, 2002. - 464 с
4. Роджерс, К. Взгляд на психотерапию. Становление человека./ К. Роджерс- М.: Прогресс, 1998, 480 с.
5. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с

Muallif:

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Psixologiya" kafedrasida dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). e-mail: azimbek_qurbonboyev@mail.ru

UDK 372.800.2

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCE IN WEB DESIGN FOR INFORMATION TECHNOLOGY TEACHERS

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHILARIDA WEB-DIZAYN BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБЛАСТИ ВЕБ-ДИЗАЙНА ДЛЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Yuldashev Ulmasbek Abdubanovich

Gulistan State University, 120100. Syrdarya region, Gulistan city, 4th district.

E-mail: baxtiyor_0997@mail.ru

Abstract. The rapid pace of development of modern society, web design and continuous innovation processes make it impossible for future educators to fully characterize the current level of professional training by knowing the subject of education and teaching methods. The content of educational work is constantly changing, new tools and technologies of teaching are emerging, the flow of information that teachers need to take into account in their professional activities is growing. Significant changes in education are primarily related to the use of Web technologies.

Keywords: teacher training; professional competence; innovative technologies; Web technologies; Web services.

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining jadal sur'atlari, veb-dizayn va uzluksiz innovatsion jarayonlar bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim va o'qitish metodikasi fanini bilish bo'yicha zamonaviy kasbiy tayyorgarlik darajasini to'liq tavsiflashga imkon bermaydi. O'quv-tarbiyaviy ishlarning mazmuni doimiy ravishda o'zgarib bormoqda, yangi o'qitish vositalari va texnologiyalari paydo bo'lmoqda, o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatida e'tiborga olishlari kerak bo'lgan axborotlar oqimi oshib bormoqda. Ta'limdagi jiddiy o'zgarishlar, birinchi navbatda, veb-texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: o'qituvchilar malakasini oshirish; kasbiy kompetentsiya; innovatsion texnologiyalar; veb-texnologiyalar; veb-xizmatlar.

Аннотация: Стремительные темпы развития современного общества, веб-дизайна и непрерывные инновационные процессы не позволяют будущим педагогам в полной мере охарактеризовать современный уровень профессиональной подготовки по знанию предмета образования и методики преподавания. Содержание учебной работы постоянно меняется, появляются новые средства и технологии обучения, растет поток информации, которую педагогам необходимо учитывать в своей профессиональной деятельности. Существенные изменения в образовании связаны, прежде всего, с использованием веб-технологий.

Ключевые слова: подготовка педагогов; профессиональная компетентность; инновационные технологии; веб-технологии; веб-сервисы.

Introduction. The study of the technological components of cognitive and design based on the motivational-value of the formation of professional competence confirmed that the developed methods of the formation of professional competence of future teachers of Informatics and Information Technology have greatly influenced the motivation for educational, cognitive and professional activities with the use of Web technologies, professional, communicative motivations, motivation of reputation. The result of the application of the techniques is the formation of the ability of teachers and students to identify pedagogical appropriate tools of Web technologies, analyze and evaluate their availability, develop and apply them in the future pedagogical activity.

The current period of the development of society is characterized by the process of informatization – the use of information as a social product, which promotes the acceleration of scientific and technical development, the intellectualization of the main types of human activity, the democratization of society. One of the priority directions of

informatization of society is the process of informatization of education, which implies the introduction into practice of developing educational ideas, acceleration of all levels of the educational process, increasing its effectiveness and quality, the use of internet technologies of professional development potential informatics and information technologies competence of teachers (theoretical and practical training, which in the essence of, provides the ability to strive and create pedagogical truth). One of the main directions of computerization of society is to understand and see the holistic educational process that provides for the preparation of education for innovative pedagogical activity (development, promotion or implementation of educational activities) in the conditions of computerization of education on purpose, content and technology, as well as informatization of society.

Worldwide prominent international organizations and developed countries paid special attention to the education system and jointly adopted the concept of education until 2030. The concept states that “the educational process is an activity that determines the main driving force, source and strategy of the development of any country” (Incheon Declaration Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233813?posInSet=3&queryId=N-EXPLORE-a1c7c8fd-2218-4199-96d7-4c7d325025f2>). In order to establish education at the level of world sample at the level of quality, providing education based on web technologies based on modern requirements of educators and learners is an indicator of directing them to be able to operate freely in the conditions of the global educational environment [1].

The reforms carried out in the education system of our republic led to the improvement of the teaching of Informatics and Information Technologies among all disciplines. In the system of continuing education, the issue of teaching the science of Informatics and information technology has been seen again, its content is being improved at the level of today’s requirements, the introduction of teaching methods on the basis of modern information and pedagogical technologies into the educational process has been established [2]. In particular, for secondary schools T. Azlarov, B. Boltaev, M. Ziyakhadjaev, N. Taylakov, A. Hayitov and others conducted researches, and in the system of higher and secondary special education A. Abdukadirov, M. Aripov, F. Zakirova, U. Yuldashev, R. Bakiev, M. Mamarajabov, L. Nabiulina, S. Tursunov, M. Fayzieva, N. Haytullaeva, A. Eminov and other scientists have conducted researches [3].

In the Commonwealth countries, scientists such as A.A. Andreev, K.E. Arhipov, V.E. Alekseev, T.F. Bardina, E.N. Goritov, L. Zayniddinova, E. Kuznetsov, S. Krapivka, V. Konovalenko, D.S. Kiselev, Yu.R. Koftan, A. Lavrov, M. Lapchik, M. Nimatulaev, E.S. Polat, V. Tedeev carried out research work.

Foreign scientists, such as A. Boyarinov, R. England, J.H. Lee, M. Kimko, N. Hammond, A. Jones, J. Campo-Avila, M. Sigala and others conducted studies.

Scientific research on increasing the role of pedagogue in education, professional competence, system of conducting educational activities, improvement of pedagogical conditions of coordination of activities of participants in pedagogical process and introduction into practice were carried out Sh.A. Abdullaeva, N.N. Azizkhadjaeva, Yu.M. Asadov, I.O. Gileva, N.A. Muslimov, N.N. Karimova, O.A. Bayramov, J.R. Turmatov, K.T. Umatalieva, R.X. Fayzullaev, A.R. Khodjabaev [4].


Determination of factors, which determines the interrelationship of the reforms carried out with the general process, led by scientists of the CIS V.V. Kazanseva, Yu.A. Lobeyko, T.A. Marfutenko, T.V. Meheryakova, V.G. Rundak, A.V. Tutolmin, A.G. Shumovskaya. Various aspects of individual competence include cognitive and psychological activity, indicators of professional competence, pedagogical and psychological aspects of the development of creativity competence in the teacher were studied by E.S. Short, J. Raven, O.F. Volubaeva and S.P. Yalanska.

The aim of the study is to develop the professional competence of future teachers on the use of web technologies.

In the process of research and experimental design work, it was found out that the methods for organizing the professional competence of future Informatics and information technology teachers on the basis of web technologies are as follows: 1) summarizing the content of professional-oriented educational subjects and web technologies; 2) introduction of pedagogical conditions into practice in educational and upbringing processes of higher educational institutions, it contributes to future Informatics and information technologies teachers to the effective formation of professional competence in the application of web-technologies (increase of development potential of web technologies; activation of future Informatics and information technology-teachers’ resource support with the use of web-services; development of methods of using web technologies in the educational process by teachers of pedagogical higher educational institutions); 3) Complex diagnostic and educational-methodological support (educational standards, curricula and programs, educational-methodological manuals, methodological recommendations, laboratory sessions, technical means of teaching, etc.) application [5].

Based on the understanding of the methodology for the formation of professional competence of teachers of information technology with the use of web-technologies (at the level of competence and competent), in connection with the innovative pedagogical activity in the future, we considered integration as the dynamic ability of students to perform professional tasks on the use of web-based technologies, to carry out method of achieving the educational goal (formation of professional competence of future Informatics and information technologies teachers and their training for innovative pedagogical activity) diagnostics of the level of primary education of students, formation of motivation for the use of web

technologies in education and future types of professional activity, determination of the content of training, organization of the educational process (forms, methods, technologies and, control educational achievement during training and assessment of the level of preparation at the end of training. Accordingly, the system-forming components of the methodology for the formation of professional competence of future teachers of Informatics and information technology are as follows [6]: based on motivational-value (the formation of motivation for future professional activities, the application of web technologies, awareness of the personal and social value of the future profession, the need for professional self-improvement, self-education, self-awareness and self-expression, including through web technologies, self-examination, the acquisition of self-training and self-development skills, the acquisition of self-knowledge and self-awareness; Future Informatics and information technologies teachers in innovative educational activities on the use of web technologies; cognitive activity (mastering of knowledge of professional importance; application of socio-pedagogical, methodical knowledge in practice; effective use of web technologies for processing, generalization of multi-form information, creation of information products; identification of pedagogical appropriate tools of web technologies, analysis and evaluation of those present, their introduction and application in future innovative pedagogical activity); design-technological (formation of goals, social conditions, direction of values.



Methods for assessing and developing web design competence: Integrated Project Work - Project-Based Learning methodology helps teachers solve many problems. By creating web design exams and tasks, teachers can assess their own competencies. *Mutual evaluation and feedback* - Through mutual evaluation and feedback methods, teachers have the opportunity to share experiences and develop themselves. *Introducing innovative technologies* - Using educational methods that incorporate new programs and technologies in the field of web design helps to develop teachers' creative approach.

Interests, needs, inclinations that impart pedagogical activity and determine the professional orientation of the individual; the ability to carry out self-control and reflection (analysis, self-assessment, correction and development of new tasks, effort to professional development), including the use of web technologies [7].


Summarizing the motivational-value, cognitive-active and design-technological parts of the formation of professional competence, we can note that the methodology for the formation of professional competence of information technology teachers in web technologies will be an indicative basis for the following [8]: implementation of innovative approaches in the organization of the educational process in pedagogical higher educational institutions; organize and re-directing teachers' extracurricular information from the transfer to the organization and management of modern educational-methodical, cognitive and professional activities using internet technologies; develop the skills and abilities of information activities; increase the motivation of students for the study of subjects, on the one hand, the use of web technologies in education and future innovative pedagogical activities; classification of pedagogical expediency of the use of web technologies and determination of motivational-value psychological-pedagogical aspects of their application.

The implementation of the method of formation of professional competence of future teachers of Informatics and Information Technologies - research using web technologies in pedagogical higher educational institutions has been confirmed to be the cause of the following experiment [9].

In order to form the ability of future teachers to analyze and apply innovative pedagogical activities in the future, it is desirable to choose subjects that correspond to the level of their personal pedagogical characteristics and professional abilities [10].

Analysis of the results of the formation phase of the experiment showed that all components of professional competence in the experimental group of students underwent positive changes. We confirm the effectiveness of the work

done with the results of the questionnaire of students and teachers. This confirmed that the implementation of the method combination made it possible to transfer students to an active state, many of which, together with teachers, began to work as web technology developers. And this made it possible to change the role of teachers of pedagogical higher educational institutions: their activity led to the activity of students. The main task was to create conditions for the external management of the educational and development process through cooperation and interaction, effective solutions of professionally oriented tasks and situations, the organization of interaction.



Introduction of methodology of formation of professional competence

Having identified the prospects of further research, it should be noted that this study does not reveal itself as a complete solution to all aspects of the problem investigated. Therefore, for theoretical understanding and experimental confirmation, the creation and introduction of electronic resources of the information learning environment is required; Complexintegrated teaching for teachers to develop methods for the use of web technologies; development of criteria for the effectiveness of web technologies. We also consider it necessary to further improve the scientific and methodological support of preparation of future Informatics and information technologies teachers for innovative pedagogical activities, taking into account the prospective directions of development of web-technologies.

REFERENCES:

1. Abdukadirov A.A., Toshtemirov D.E. Methods of using information and communication technologies in educational institutions.//Monograph. Gulistan: University, 2019. – p. 232.
2. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400
3. Eminov A.G. Methodology for the development of computer graphics competence of future teachers//Abstract of the dissert. On cand. Of ped.sciences. - Tashkent, 2012. – p. 22.
4. Haytullaeva N.S. The use of web technologies in the system of methodological training of future Informatics teachers. Author of the dissertation of the doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. - Tashkent, 2019. – p. 46.
5. Shamsiddinov F.A., About improving the professional competence of preparation of the future teacher of informatics. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 7, July 2021, ISSN: 2660-5562
6. Begimkulov U.Sh. Organization of pedagogical education in the environment of modern information technologies//”Pedagogical education” journal, No.1, 2004
7. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboeva M.H., Turaev A.B., Creation and implementation of E-information educational resources based on Web technology, Tashkent: 2015. – p. 128.
8. Niyozov M.B. Effectiveness of web technology teaching computer science and information technologies // Middle European Scientific Bulletin Volume 12, May 2021, Pages 435-439
9. Yuldashev, U.A., Khudoyberdiev, M.Z., & Akhmedov, T.B. (2021). The use of modern information technologies in improving the quality of the educational process. //Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.
10. Vlasova N.S. Scientific and methodological support for the training of university students in the field of web design//Abstract of the dissertations for the degree of Candidate of pedagogical Sciences, Yekaterinburg 2010- p. 30.

Author:

Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich - Senior teacher of Gulistan State University. baxtivor_0997@mail.ru

UDK 372.3/4

EDUCATING STUDENTS IN THE MILITARY-PATRIOTIC SPIRIT IS AN ACTUAL TASK

O‘QUVCHILARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH - DOLZARB VAZIFA

ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ - АКТУАЛЬНАЯ ЗАДАЧА

Botirov Ilhom Saydullayevich

Sirdaryo viloyati IIB, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: ilhom-Botirov2024@gmail.com

Abstract: The article examines the role of youth, who are the foundation of the future in a rapidly developing society, in strengthening the sense of military patriotism, which occupies an important place in socio-political life, fostering qualities such as self-control as a person, responsibility, discipline, national pride and honor, in strengthening the foundation of the future great state. Indeed, on the basis of the reforms carried out in our country in the field of education and education, the urgent task is to educate students in the military-patriotic spirit.

Keywords: Motherland, patriotism, military patriotism, civic duty, continuing education, criterion, welfare of society.

Аннотация: В статье исследуется роль молодежи, являющейся фундаментом будущего в бурно развивающемся обществе, в укреплении чувства военного патриотизма, занимающего важное место в общественно-политической жизни, воспитании таких качеств, как самоконтроль как личность, ответственность, дисциплина, национальная гордость и честь, в укреплении фундамента будущего великого государства. Ведь на основе проводимых в нашей стране реформ в сфере образования и образования актуальной задачей выдвигается воспитание учащихся в военно-патриотическом духе.

Ключевые слова: Отечество, патриотизм, военный патриотизм, гражданский долг, непрерывное образование, критерий, благосостояние общества.

Kirish. Har sohada erishilayotgan yutuqlardan qvononish, uning taqdiri uchun qayg‘urish, o‘z yurti bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich eri va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalarini, ilm-fan va san‘atdagi yutuqlarini, moddiy va ma‘naviy boyliklarini ko‘z qorachig‘idek asrash – vatanparvarlikdir. “Barchamizga ma‘lumki, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqur bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi. Shu ildiz qancha teran bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo‘ladi” deb ta‘kidlaydi Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev[1].

Darhaqiqat, Vatan deganda, insonning tug‘ilib o‘sgan, ta‘lim-tarbiya olib voyaga etgan, avlod-ajdodlari yashab ijod qilgan, uning manfaatlari uchun jonini fido qilgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf bo‘lgan yurt gavdalanadi. Vatan – bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir deb bejizga aytilmagan.

Vatan so‘zi arabchadan tug‘ilib o‘sgan joy, yurt ma‘nolarini anglatadi. Vatanparvar esa vatan so‘ziga birikkan holda forschadan g‘amxo‘rlik qiluvchi, o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz hurmat qiluvchi ma‘nolarini anglatadi [2].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida vatan tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan[3].

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida vatan tushunchasiga shunday ta‘rif beriladi: Vatan–kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlarini majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas‘uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi[4].

Bu ikki ta‘rif bir-biridan farqlangan holda tahlil qilindi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida umumiylikka tayalanilgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy ensiklopediya ta‘rifida esa, xususiyroq holda ta‘riflangan, ya‘ni tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlarini majmuidan iboratligi aytilgan.

S.Nosirxo‘jayev, M.Lafasov, M.Zaripovlarning fikricha “Vatan- kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatuvchi tushuncha. Vatan tushunchasi keng va tor ma‘noda qo‘llaniladi. Keng ma‘noda – butun bir xalq, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilib kelgan makon. Tor ma‘noda — kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq” deb ta‘riflashadi[5].

Shu o‘rinda **patiriotizm** so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “patris” — vatan, ona vatan degan ma‘nolarni anglatadi. Shu sababli, barcha ta‘riflarda ushbu tushunchaning asosiy xususiyatlari Vatanga muhabbat, o‘z mamlakatidan va Vataniga sadoqat hamda undan faxrlanishdir deb izohlanadi.

Ushbu atamalar umumiy tarzda o‘z vataniga muhabbat, xalqiga sadoqat, u bilan faxrlanish, uning merosini himoya qilishga intilish, uning umumbashariy va milliy-ahloqiy hamda ma‘naviy qadriyatlarini jamlagan tuyg‘ular

yig'indisidir. Insonning vafodorligi uning o'z Vatani uchun qayg'urishi, ajdodlar ma'naviy-madaniy merosini asrashdan, xalqini dushmanli vaziyatlardan himoya qilishga hamda o'z manfaatlaridan davlat manfaatini ustun qo'yishlikda bilinadi.

Abdulla Avloniy qarashlarida "Vatan" tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Vatan ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat bo'lib, har bir kishining tug'ulib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan erini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – yurtidan ayrilsa, o'z eridagi kabi rohatda yashamas" [6] deb izohlaydi.

Vatan so'ziga berilgan tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag'ali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakroridir.

Vatan, vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik so'zlari doimo bir-birini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, «vatanparvarlik» tushunchasining mazmuni va mohiyatini tushunib olish lozim. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da vatanparvarlik – kishilarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi[3].

Vatanparvar (vatan – forschadan g'amxurlik qiluvchi) O'z vatanini, ona yurtini, halqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi deb ta'riflanadi o'zbek tilining izohli lug'atida [7].

1-jadval

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi haqida fikrlar

Shiroq	Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» o'tli so'zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, — axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?
To'maris	Vatanparvarlik bizni mahliyo qilib qo'ymasligi kerak; vatanga muhabbat ko'r-ko'rona ehtiros emas, balki dono aql va harbiy faoliyatidir.
Jaloliddin Manguberdi	Chingizxon ta'rifi: Mard otaning o'g'li shunday bo'lmog'i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beadad ishlar va behisob tahlikalar tug'ilajak.
Amir Temur	Botir jangda bilinar, dono mashvaratda bilinar. YA'ni yoshlar va harbiy kasb egasiga yo'l-yo'riq berayotganligini hayotda ulardan foydalanib kelinmoqda.
Alisher Navoiy	Bugun odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga echim izlashga qaratilgan ulug'vor ishlar haqida ko'p gapirish mumkin. Xo'sh, ana shu ezguliklar, xayrli tashabbuslar qaerdan quvvat olmoqda? Albatta, ko'ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan. "Elga qo'shulg'on esh topti"
Abdulla Avloniy	Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz Turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimoslar Shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni va boshqa yerlarni ziyoda suyarlar. Agar suymaslar edi, havosi yaxshi Turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. "Turkiy guliston yoxud axloq"
Jak Russo	Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.
Konstantin Ushinskiy	Vatanparvarlik tarbiyaning muhim vazifasi hamda pedagogik vositadir: "O'zini sevmaydigan odam bo'lmaganidek, vatanga muhabbatsiz odam bo'lmaydi va bu tarbiya inson qalbiga to'g'ri kalitni beradi va uning yomon tabiiy, shaxsiy hayotiga qarshi kurashda katta yordam beradi".

Vatan va vatanparvar tushunchalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining rivojlanishi uning jamiyat ravnaqi yo'lida harakat qilishning natijaviyligi asosida ularda vatanparvarlik sifat paydo bo'lib boradi. Unga ko'ra har daqiqada Vatan ravnaqi uchun hissa qo'shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning yeri, suvi, xalqi bilan chambarchas bog'liqlikni anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishi sanaladi.

Tahlil qilish davomida, vatanparvarlik ahloqiy va siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u, uning mazmuni Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, uning o'tmishi va kelajagi bilan fahrlanish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga intilishidir. Vatanparvarlik o'z vataniga, xalqiga, uning tarixi va madaniyatiga muxabbat va sadoqati bilan namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik milliy o'zlikning o'ziga xos bo'lgan bir butunning ikki tomoni – inson va fuqaroning ma'naviy olamidir.

Vatanparvarlik xalqning sha'ni, qadr-qimmatini, madaniyati, urf-odatlarini va tarixiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishida rivojlanib boradi.

Vatanparvarlik shaxsning jamiyatda munosib o'rin topishida uning obektiv rivojlanish tendensiyalari davrida harakat qila olish ko'nikmalarini amaliyotga qo'llay olish malakalari bilan umumiy hulosalash mumkin bo'ladi.

Pedagog O. Musurmonova "Vatanparvarlik har bir insonning ichki ruhiyati, aql – zakovati, uni o'zini –o'zi anglash, kuchli fuqarolik e'tiqodiga ega bo'lish, o'z ona yurti sarhadlarini himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrash, oldinga qarab yangi marralar sari ongli ravishda faollik ko'rsata olish va intilish salohiyatidir" deb vatanparvarlikning tarkibiy qismi sifatida harbiy-vatanparvarlikka ta'rif beradi.

A.Erkayevning "Ma'naviyat millat nishoni" kitobida harbiy-vatanparvarlik tuyg'usi haqida quyidagicha fikr bildirib o'tadi. "vatanparvarlik" – eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Vatanparvarlik, shuningdek, e'tiqod sifatida tegishli tushunchalar, qarashlar, g'oyalar, ideallardan ham tarkib topadi. Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini to'g'ri tushunish, mustaqillik manfaatlarini shaxsiy, guruh, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qo'yishdir"[8].

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuqori vatanparvarlik ongini, Vatanga sadoqat tuyg'usini, Vatan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha fuqarolik burchini va konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga tayyorligini shakllantirish bo'yicha tizimli va maqsadga muvofiq faoliyatidir.

N.Komratovning "Bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi kitobida" harbiy-vatanparvarlik tushunchasini ijtimoiy tizim faoliyatining turli darajalarida har-xil ko'rinishda namoyon bo'ladigan xususiyatlarning murakkab to'plamini aks ettiruvchi ko'p qiralli hodisadir deb ta'kidlaydi[9].

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi fuqaroning shaxsiy sifatleri – o'z Vatanning himoyachisi bo'lgan, tinchlik va urush davrida fuqarolik burchlarini muvaffaqiyatli bajarishga qodir shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyatdir. Binobarin, Vatan manfaatlariga nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida sadoqatli bo'lish, ularni himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bularning barchasi bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali o'quvchilar tafakkuriga singdirib borish muhimdir.

Tadqiqotlar davomida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni masalalariga bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Ular ichida harbiy-vatanparvarlikning nazariy asoslari, yoshlar qalbiga milliy g'oyani singdirish bilan bog'liq masalalar atroflicha yoritilgan. Bu borada R.Kurbanov, E.Qalqonov, O.Abdurasulov, A.Redjaboevlarning ilmiy izlanishlari alohida o'rin tutadi[10]. Yoshlarda harbiy-vatanparvarlikni shakllantirishning nazariy-metodologik muammolari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati va mazmuni, harbiy bilim yurtlaridagi ta'limning tuzilma va yo'nalishini yangilash bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Shaxs ma'naviy tarbiyasida harbiy-vatanparvarlik muhim o'ringa ega. U birinchi o'rinda shaxsning Vatan oldidagi burchini anglashi, uning manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy jonbozlik, fidoyilik ko'rsatishini, tinchlik va favqulodda holatlarda qahramonlik ko'rsatish kabi sifatlar bilan tarbiyalashdir.

Berilgan fikrdan ma'lumki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati uning o'ziga xos sifat chegaralari mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni, mohiyatan harbiy-vatanparvarlik tushunchaning maqsadlarini, vazifa va yo'nalishlarini asoslardan ajratib ko'rsatish imkonini beradi[11]. Shuni ta'kidlash lozimki, vatanparvarlik harbiy-vatanparvarlik bir-birini o'rnini bosuvchi tushunchalardir. Tafakkurida va qalbida Vatanga nisbatan e'tiqodini singdirgan insongina uni sevadi, ardoqlaydi va har qanday favqulodda holatda himoya qilishga tayyor turadi. Shunday ekan, Vatan himoyasiga doim tayyor bo'lgan haqiqiy harbiy vatanparvarga, Vatan manfaatlarini ustun qo'yganlarga ishonish mumkin. Ba'zi olimlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini mafkuraviy aloqadorlik asosida shakllanadi deb, uning mazmunidan harbiy, texnik, jismoniy tayyorgarlikni chiqarib tashlagan. Ularning fikricha harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat bir tomonlama vatanparvarlik nuqtai nazaridan yondashadilar. Chunki, vatanparvarlikning shakllanishi vatan himoyasiga tayyorgarlik bilan hamohanglikda borish kerak. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining kengligi va ko'p qirraliligi uni tarbiyaning mustaqil yo'nalishi sifatida ajratishni talab qiladi. Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik qat'iy ijtimoiy qoidalar, mas'uliyatlar asosida hatto yosh avlodning mavjud mafkura hamda din tomonidan belgilangan me'yor, talablarga qaramligida ifodalangan bir qator umumiy xususiyatlarga egadir.

Ming yillar davomida yosh avlodni harbiy jihatdan tayyorlash tizimi shakllantirildi va izchil takomillastirilish borilmoqda. Harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi dunyoda ham o'z manfaatlarini qurolli himoya qilish tajribasi va an'analari yosh avlodga etkazish va to'plash bo'yicha harakat qilingan. Shunday ekan o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini o'rganishga kirishishdan oldin, bu jarayonning tarixiy taraqqiyot yo'lini materiallar asosida tahlil etib chiqildi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirish, Vatanga munosib xizmat qilishga va uni himoya qilishga tayyor bo'lishlikka tayyorlash davlatning asosiy maqsadi sanaladi. Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalari monitoringini yuritishni ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi.

Davlat harbiy-vatanparvarlik ta'limi tizimini ta'minlashga asoslangan holda quyidagilarni qamrab oladi: jamiyat va davlatning shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini; milliy o'ziga xosligi, bunda xalqning turmush tarzi va dunyoqarashini; davlat fuqarolarining taqdirini aks ettiruvchi eng muhim ma'naviy, axloqiy va madaniy-tarixiy qadriyatlarini. Buni amaliyotga tatbiq etishlik quyidagi komponentlar orqali amalga oshiriladi: o'z Vatanga fidokorona muhabbat va sadoqat; buyuk xalqqa mansubligi, uning yutuqlari va muammolari bilan faxrlanishlik; milliy va tarixiy obidalarni ulug'lash; jamiyat va davlatga munosib fidokorona xizmat qilishga tayyorlikdir.

Siyosiy-ahloqiy yo'nalish yuqori sinf o'quvchilarda Vatan himoyachisining axloqiy, siyosiy fazilatlarini shakllantirishni ularning g'oyaviy-siyosiy qarashlari, e'tiqodlarini, davlat siyosatiga, ijtimoiy va davlat tuzumiga munosabatlarini himoya qilishga tayyorligini kerak bo'lsa qo'lida qurol bilan Vatanni himoya qilishni nazarda tutadi.

Axloqiy tarbiya yo'nalishi. Axloq bu odamlarning xatti-harakatining tarixiy jihatdan o'rnatilgan me'yorlari va qoidalari, uning jamiyatga, mehnatga va odamlarga munosabatini belgilaydi. Axloq ichki ruhiy holat sanalib o'quvchi va bo'lajak harbiy xizmatchilar ongida ijtimoiy qadriyat ustuvorligini ta'minlash, madaniy boyliklar bilan tanishish dunyoqarashini shakllantirishga qaratiladi. Shuningdek, axloqiy tarbiya jamiyat me'yorlariga mos keladigan axloqiy tushunchalar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar va odatlarni shakllantirish kabi muammolarni hal qiladi. Bular halollik, adolat, burch, odob-axloq, ma'suliyat, sharaf, qadr-qimmat, insonparvarlik, davlat ramzlariga, qonunlarga, konstitutsiyaga kattalarga hurmat, intizom, fuqarolik-harbiy burch va mamlakatda bo'layotgan voqealarga befarqlik kabi axloqiy fazilatlar o'quvchilarda shakllantirilib boriladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi doirasida ular ma'naviy sog'lom bo'lib etishadi yaxshilik va yomonlik haqida g'oyalarni shakllantiradi harbiy ishning sharaflari harakatlari to'g'risidagi tushunchalar rivojlanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, o'quvchilarning Vatan himoyasiga psixologik tayyorgarligi ularning tinchlik sharoitida ham, jangovar sharoitda ham Vatan himoyachisi vazifalarini ishonchli bajarish qobiliyatini oshirishda bunday psixologik xususiyatlarni shakllantirishni nazarda tutuvchi yo'nalish hisoblanadi. Zamonaviy jangavorlik eng qiyin va xavfli vaziyatlarda armiya hayotidagi qiyinchiliklarga, og'ir sinovlarga, axloqiy va jismoniy stresslarga dosh berish, psixologik barqarorlik, o'zini tuta bilish, jasorat ko'rsatish kabi xususiyatlar bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2020 yil 31-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. - T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 445,606-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. — M.: Rus tili, 1-tom. 1981. 173- b
4. O'zbekiston milliy ensiklopediya.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2-tom. 2001. 395- b.
5. Nosirxo'jaev S., Lafasov M., Zaripov M. Ma'naviyat asoslari.-T.; Ma'naviyat, 2012.-456 b.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. T.: Adolat. – 1992. -44b.
7. Qurbonov T. Milliy g'urur va madaniy meros dialektikasi.-T.: Zarqalam, 2006.- 15- bet.
8. Erkayev A. "Ma'naviyat millat nishoni".- T.: Ma'naviyat, 1997. 188- bet
9. Комратова Н.Г., Грибова Л.Ф., Патриотическое воспитание детей: метод. пособие. М., 2014. 100 с.
10. Kurbanov R.Yu. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan. diss. -T.: -2008. - 143 b.
11. Барабанщикова А.В., Давыдова В.П., Феденко Н.Ф. "Основы военной психологии и педагогики" / Под ред.— М.: Просвещение, 1988. - С. 62.

Muallif:

Botirov Ilhom Saydullayevich - Sirdaryo viloyati IIB, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UDK 372.3/4

THEORETICAL BASIS OF QUANTITATIVE AND QUALITATIVE EVALUATION OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

OLIV TA'LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT JIHATIDAN BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ И КАЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

E-mail: info@tsue.uz

Abstract: This article examines the theoretical foundations of the qualitative and quantitative assessment of the higher education system of Uzbekistan. The state policy and legal framework aimed at improving the quality of education, analysis of international experience, the need to modernize higher education, as well as the possibilities of using statistical and mathematical models for assessing students' knowledge are discussed. The requirements of the labor market and the

importance of the quality of higher education in ensuring the competitiveness of graduates of higher education institutions are highlighted. The importance of methods that meet international standards in the educational services market is also indicated.

Keywords: quality of higher education, assessment criteria, competitiveness, labor market, statistical models, educational services, state accreditation, international standards.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические основы качественной и количественной оценки системы высшего образования Узбекистана. Обсуждены государственная политика и правовые основы, направленные на повышение качества образования, анализ международного опыта, необходимость модернизации высшего образования, а также возможности использования статистических и математических моделей оценки знаний студентов. Освещаются требования рынка труда и значение качества высшего образования в обеспечении конкурентоспособности выпускников высших учебных заведений. Также указывается на важность методов, соответствующих международным стандартам, на рынке образовательных услуг.

Ключевые слова: качество высшего образования, критерии оценки, конкурентоспособность, рынок труда, статистические модели, образовательные услуги, государственная аккредитация, международные стандарты.

Kirish. Bugungi kunda fan va texnologiyaning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish, ilmiy faoliyat va davlatning barcha boshqaruv tizimlarida yuqori intellektual salohiyatli va kasbiy kompetensiyali va kelajakdagi kasbiy faoliyatida kerakli bilimlarga ega muhandislarni yetkazib berish oliy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Oliy ta'lim tizimining sifati va raqobatbardoshligi bugungi kunda mamlakatimizning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilib bormoqda [1-2]. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini sifat jihatdan yanada oshirish choralari uchun bir qancha qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son (08.10.2019 yilda) "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilanib, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatilgan va bu amalga oshirildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi ko'rib chiqildi, bu esa oliy ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda. Respublika oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 –yil, 2-dekabrda 452 – son buyrug'ida Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini baholash va nazorat qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Mazkur chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori hamda Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomi asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilish metodlari

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatining yanada oshishi mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvi, xalqaro talabalar almashinuvi, iqtisodiyotning globallashuvi va oliy ta'lim tizimining Boloniya jarayoniga kirishi munosabati bilan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Shunday ekan oliy ta'lim xalqaro sifat standartlariga to'la javob berishi kerak va oliy o'quv yurtini bitirgan mutaxassislarining xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratishi kerak.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda, bir qator Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi, universitetni akkreditatsiya qilish tartibi orqali ta'lim sifatini baholashning milliy modeli mavjud va amaliyotga joriy etilgan. Abituriyentlarni universitetga qabul qilish bosqichlarida oliy ta'lim sifatini baholash parametrlari, talabalar va bitiruvchi mutaxassislarni o'qitish jarayoni yaratildi va modellashtirildi. Oliy ta'lim sifatini baholashning huquqiy asoslari ishlab chiqildi [3].

Oliy ta'lim sifatiga e'tiborni dolzarblashtirish va uning mezonlarini muhokama qilish mamlakatimiz oldida turgan ikkita muammo bilan o'zaro bog'liq: oliy ta'lim sifatining pastligi va uning zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kelmasligi; zamonaviy mehnat bozorida mahalliy universitet bitiruvchilariga talabning pastligi.

Davlat akkreditatsiyasining milliy modelini yaratish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun oliy ta'lim sifatini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamdir. Biroq, O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, mutaxassislar uchun mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar, bandlik muammosini yanada kuchaytirgan hozirgi jahon iqtisodiy inqirozi oliy ta'lim muassasalari,

ushbu sohada ishlayotgan mutaxassislar va olimlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi [4]. Ulardan biri oliy kasb-hunar ta‘limi sifati va miqdor jihatidan baholashni yanada takomillashtirish va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining mehnat bozorida bandlik mezonlarini hisobga olgan holda kompleks tadqiqotning zamonaviy metod va usullari bilan to‘ldirishdan iborat [5-6]. Oliy ta‘lim sifati baholash va universitetni bitiruvchi mutaxassislarning malaka darajasini aniqlash muammosini hal qilishda zamonaviy jamiyat tizimini tashkil qiluvchi elementlar: oliy ta‘lim, ta‘lim xizmatlari bozori va mehnat bozori to‘g‘risidagi uchta ko‘rsatkichlarni statistik o‘rganish va modellashtirish muhim rol o‘ynaydi. Bu esa oliy ta‘limni modernizatsiya qilish jarayonlarini ta‘minlaydi [7].

Oliy ta‘lim sifati va miqdor jihatdan baholash jarayonini statistik va matematik modellashtirish quyidagilarga imkon beradi: 1) mahalliy darajadagi oliy ta‘lim sifati qiyosiy tahlilini o‘tkazish; 2) oliy o‘quv yurtlarining yakuniy natijalari ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish; 3) oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bandligini va ularning ishsizligini baholash; 4) aholining uzluksiz ta‘lim (qayta tayyorlash, qo‘shimcha ta‘lim, malaka oshirish va boshqalar)dagi ishtirokining statistik kuzatuvini amalga oshirish; 5) oliy ta‘lim sifati baholashning milliy va xalqaro modellarini taqqoslash.


Ta‘lim statistikasi davlat statistikasining maxsus tarmog‘i sifatida yaqinda paydo bo‘lganiga qaramay, oliy ta‘lim boshqaruvini axborot bilan ta‘minlashning nazariy va uslubiy muammolarini hal etishda jiddiy yutuqlarga erishildi. Mahalliy oliy ta‘limning xalqaro ta‘lim standartlariga teng darajasiga erishish uchun ta‘lim sifati monitoringi ko‘rsatkichlarining yangi to‘plamini va ta‘lim statistikasi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Shu munosabat bilan oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining ishga joylashish ehtimolini hisobga olgan holda oliy ta‘lim sifati baholashning zamonaviy statistik-matematik modellarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi.

Hozirgi vaqtda oliy ta‘lim sifati va miqdor jihatdan baholash mezonlarini yaratishda, hamda qo‘shimcha statistik ko‘rsatkichlar va metodlarni ishlab chiqishda mehnat bozori ehtiyojlari va ish beruvchilarning talablari nuqtai nazarini hisobga olish kerak [8]. Davlat tomonidan ta‘lim muassasalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish, oliy ta‘lim sifati nazorat qilish, oliy o‘quv yurtlari ichidagi ta‘lim sifati nazorat qilish tizimlari mavjudligiga qaramay, universitet bitiruvchisi o‘z imkoniyatlarini faqat mehnat bozorida xolisona baholab beradi. Shu bois mutaxassislarni ish bilan ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar tizimini o‘rganish, ularning ishga joylashish jarayonini baholash modelini yaratish va uning asosida statistik ko‘rsatkichlar va statistik baholash hamda tavsiflovchi qonuniyatlarni modellashtirish metodologiyasini ishlab chiqish zarur [9].

Ilmiy adabiyotlarda ob‘ekt yoki jarayonning sifati jihatdan qiyoslash deganda uning o‘ziga xos ichki mohiyati sifatida tushuniladi, uning ko‘rinadigan ifodasi ma‘lum bir hodisa xususiyatlarining yig‘indisi hisoblanadi. Lekin, sifati bu ta‘rifi, shubhasiz, uslubiy ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda oliy ta‘lim bozor munosabatlarida tovarga aylangan iste‘mol xizmatlari turi sifatida qaraladi. Ta‘limga bunday yondashuv va olib borilgan tadqiqotlar bozor sharoitida oliy kasbiy ta‘lim sifati belgilovchi turli xil tabiatdagi o‘zaro bog‘liq komponentlar modelini ishlab chiqishga imkon berdi.

Universitet ta‘lim sifati o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan 3 ta guruhdan iboratdir: Universitet boshqaruv faoliyati, professor-o‘qituvchilar tarkibi va talabalar jamoasi. Zamonaviy menejmentda qabul qilingan sifati darajasini baholash usullari oliy ta‘lim sifati modelidagi eng muhim ko‘rsatkichlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta‘limi sifati ko‘rsatkichlarini tasniflash uchun takli etilgan model.

Mehnat bozorida mutaxassisning raqobatbardoshligi va bandligini modellashtirish ushbu muammoning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: 1) zamonaviy mehnat bozori oliy ma‘lumotli mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga, uning shaxsiy fazilatlariga va umumiy madaniyatiga yuqori talablarni qo‘yadi. Universitetning zamonaviy bitiruvchisi jamoada ishlay olishi, kasbiy faoliyati sohasidagi o‘zgarishlarga tez va to‘g‘ri javob bera olishi, o‘z bilimlarini

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

doimiy ravishda yangilashga intilishi kerak; 2) yosh mutaxassislarining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va ularining sifati har doim ham zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Oliy ta'lim sifatini baholashning nazariy asoslarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: 1) oliy ta'limning zamonaviy boshqaruvida bozor sharoitida faoliyat yuritadigan oliy ta'lim tushunchasi bozor munosabatlari va tijorat iste'mol xizmatlarining bir turi sifatida shakllanadi; 2) zamonaviy ta'limning bu xususiyati oliy ta'lim sifati va uni baholashning yangi mezonlarini izlash muammosini yangiladi; 3) oliy ta'lim sifatining umumiy qabul qilingan mezonlari orasida hozirgi kunda universitet bitiruvchilarini ishga joylashtirish va ularning mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatli martaba etakchi o'rinni egallaydi; 4) zamonaviy tadqiqotchilar oldida yuqori sifatli ta'lim olish va mutaxassislarni muvaffaqiyatli ishga joylashtirish uchun sharoitlarni aniqlaydigan statistik ko'rsatkichlar va modellarni yaratish vazifasi turibdi.

Oliy ta'limni sifat va miqdor jihatdan baholashning xalqaro modellari misolida oliy ta'limni sifatini modellashtirish bo'yicha xalqaro va O'zbekiston tajribasini tahlil qilaylik. Bu ishda biz Amerika va O'zbekiston modellariga alohida e'tibor qaratganmiz. Amerika oliy ta'lim modeli barcha manfaatdor tomonlarning (talabalar va ularning ota-onalari, universitet professorlari va boshqaruv ma'muriyati, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari) oliy ta'lim tizimi va sifatini yaxshilashga bo'lgan tinimsiz istagini bildiradigan o'z - o'zini boshqarish prinsipiga asoslanadi.

Zamonaviy mehnat bozorini tayyorlangan va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha Amerika tajribasini tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishga imkonini beradi: yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va o'qitishning Amerika modeli bozor iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy sharoitlariga eng mos kelishi; rivojlangan bozor iqtisodiyoti doirasida faoliyat yuritadigan Amerika ta'limi bozor munosabatlari qonunlarini boshdan kechiradi va ularga bo'ysunadi. Ta'lim xizmatlari sohasidagi tobora kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olish va ish beruvchilarning oliy ta'limi sifatiga ega bo'lgan talablarini kuchaytirish, iste'molchilarga yo'naltirish Amerika oliy ta'limida o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillariga aylandi.

Universitetlar faoliyatini sifat va miqdor jihatdan baholashning o'zbek modeli o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida ishlab chiqilgan. Bu modelga ko'ra davlat akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan universitetlari o'z bitiruvchilariga davlat diplomini berishadi, bu esa ushbu universitetda olingan ta'lim sifatining davlat kafolatida ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek modeli Amerika modelidan farqli o'laroq, ta'lim sifatiga bevosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar alohida ta'kidlangan. Hozirgi vaqtda universitet faoliyatini baholash ko'rsatkichlarining yagona davlat tizimi quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini o'z ichiga oladi: sifatli ta'lim faoliyatini amalga oshirish shartlarining ko'rsatkichlari; jarayonning sifat ko'rsatkichlari; natija ko'rsatkichlari.


Shunga qaramay amaliyoti shuni ko'rsatadiki, universitetlarni rivojlantirishning istiqbolli rejalarida kelajakdagi bitiruvchilarni ishga joylashtirishga etarlicha e'tibor berilmaydi. Ta'lim xizmatlari bozorini tahlil qilishda, raqobatbardoshligida universitetlar juda kuchli motivatsiyaga ega. Birinchi kursga qabul qilingan talabalar soni universitet hayotining "moliyaviy tarkibiy qismiga" darhol va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. U dekanatlar, kafedralar, professor-o'qituvchilar tarkibi, ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari ishlarining hajmi va mazmunini belgilaydi. Bo'lajak bitiruvchilarining mutaxassislik bo'yicha ish bilan ta'minlanishini istiqbolli tahlil qilishda universitet bevosita qiziqmaydi. Talab qilinmagan bitiruvchilar yoki mutaxassislikdan tashqari ishchilar soni, garchi bu mutaxassislarni tayyorlash sifatining xususiyatlaridan biri bo'lsa-da, to'ridan-to'g'ri universitet faoliyatiga ta'sir qilmaydi.

Ushbu muammoni hal qilishning uchta mumkin bo'lgan usulini taklif etamiz: ayrim mutaxassislar uchun qabul kvotasini davlat belgilab berishi; akkreditatsiya protsedurasiga universitetlarning faoliyati sifat va miqdor jihatdan baholashni uning bitiruvchilarining mehnat bozoridagi talabiga va ularning muvaffaqiyatli martabalariga bevosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichni kiritish; universitetlarda kichik korxonalarini tashkil etish.

Oliy ta'limning nazariy va uslubiy muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda oliy ta'lim sifatini statistik baholash nuqtai nazaridan universitet bitiruvchilarining mehnat bozori va bandligini tahlil qilishda yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Oliy ta'limni sifatini statistik baholash metodologiyasi va metodini yaratish zarurati hozirgi vaqtda statistikada ikkita alohida ma'lumot bloklari shakllantirilayotganligi bilan asoslanadi: mehnat bozorida bandlik to'g'risidagi ma'lumotlar va ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlar. Oliy ta'limni modernizatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ushbu axborot oqimlari bir-biriga mos kelishiga erishish kerak va natijada universitet bitiruvchilarining bandlik tuzilmasining ob'ektiv axborot modeli shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar oliy o'quv yurtlari, abituriyentlar va ularning ota-onalari uchun zarurdir. Ular universitetlarga mehnat bozori talablariga etarlicha javob berishga imkon beradi, mutaxassislarining etishmasligi yoki ortiqcha ishlab chiqarilishiga yo'l qo'yildi.

Barcha modellar murakkab analitik vositani taqdim etadi. Universitet faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni matematik qayta ishlashda diagrammalar, nazorat xaritalari (modellari), diskriminant tahlillar keng qo'llaniladi. Sifat ko'rsatkichlarining amalda kuzatilgan dinamikasining ma'lum standartlashtirilgan qonunlarga (normal taqsimot qonuni, binomial taqsimot qonuni va boshqalar) muvofiqligini baholash uchun ehtimollik qiymatlarini taqsimlash funktsiyalari

qo'llaniladi. Sifatni nazorat qilishning ushbu statistik usuli sifat ko'rsatkichlari va uning miqdoriy qiymatlari rivojlanishining ehtimollik vektorlarini bashorat qilishga imkon beradi.



2-rasm. Universitetlar faoliyati sifat va miqdor jihatdan baholashda qo'llaniladigan amaliy - statistika usullari tizimi.

Amaliy statistika usullari tizimida yuqoridagi usullar quyidagi o'rinni egallaydi (2-rasm) tadqiqotni yakunlab, quyidagilarni ta'kidlash kerak: 1) hozirgi vaqtda mamlakatimiz oliy ta'limi sifatini baholashning davlat modeli yaratildi va ishlamoqda; 2) oliy o'quv yurtlari faoliyati sifat ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan va qonun bilan mustahkamlangan; 3) oliy ta'lim muassasalarining davlat akkreditatsiyasini qo'llab-quvvatlashning statistik va matematik mexanizmi yaratildi

Universitetlarni davlat akkreditatsiyasiga tahliliy materiallarni tayyorlashda foydalaniladigan matematik va statistik usullar va usullar biz uchun alohida qiziqish uyg'otmoqda. Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlari faoliyati sifatini baholashda statistik tadqiqotlar va modellashtirish usullari keng qo'llaniladi, masalan: tabaqalanish; grafikalar(grafik modellar); vektorli geometriya va grafik ekstrapolyatsiya usullari; korrelyatsiya-regressiya tahlili usullari; Sabab-oqibat diagrammasi usuli; tarqalish diagrammalari.

Davlat akkreditatsiyasining milliy tizimini yaratish-bu mamlakatimiz oliy ta'limi sifatini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamdir. Ammo yurtimizning iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasi, mutaxassislarining mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar, bandlik muammosini kuchaytirgan jahon iqtisodiy inqirozi oliy ma'lumot, ushbu sohada ishlaydigan mutaxassislar va olimlar uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi. Ulardan biri oliy ta'limi sifatini baholashni mehnat bozorida bitiruvchilarning bandligi nuqtai nazaridan zamonaviy statistik tahlil usullari bilan yanada takomillashtirish va to'ldirishdir.

Xulosa. Oliy ta'lim sifat va miqdor jihatdan baholash jarayonlari nafaqat ta'lim tizimining rivojlanishi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozori ehtiyojlariga javob beruvchi zamonaviy o'qituv usullari va statistik baholash modellaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, akkreditatsiya jarayonlari va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali oliy ta'limni yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Shu bilan birga, ta'lim sifatini nazorat qilishning milliy va xalqaro modellari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yu.Tursunboyeva // Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalari // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" jurnali. Volume 1 | issue 5, -B. 253-258
2. O.Raximov // Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash tizimlari // "Образование и инновационные исследования (2023 год № 12). -B. 219-224
3. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // [Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o'qitishni rivojlantirish](#) // "Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. 2023. -P. 113-115.
4. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -C. 479-482.
5. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // [Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов](#) // "Science and innovation" international scientific journal.
6. B.B.Turdiqulov, O'S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // [Atom va molekularning yorug'likni yutishi va nurlanishi](#) // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. -C. 1252-1258.
7. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233.
8. Kh.Karimov. // [Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies](#) // "Galaxy international Interdisciplinary Research Journal", 11(2), -C. 471-475.
9. Axmadov M. // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o'qitish //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. - 2023. - Т. 2. - №. 10. - С. 90-92.

Muallif:

Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi.

UDK 372.881

THE INTEGRATION OF LANGUAGE AND CONTENT IS A KEY FEATURE OF CBI LESSONS

TIL VA MAZMUN INTEGRATSIYASI CBI DARSLARINING ASOSIY XUSUSIYATI SIFATIDA

ИНТЕГРАЦИЯ ЯЗЫКА И СОДЕРЖАНИЯ – КЛЮЧЕВАЯ ОСОБЕННОСТЬ УРОКОВ CBI

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi

Ichki Ishlar Vazirligi Sirdaryo akademik litseyi, 120602. Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani

E-mail: mmyoldoshevs@gmail.com

Abstract. This article is about the role and importance of CBI approach in making the language teaching process more effective and interesting for students, analyzing the CBI models according to the aim of teaching content or language, scholars ideas and methods about how to combine both.

Keywords: CBI, content, language, scholar , model, integration, program, communicative skills, language skills.

Аннотация. В этой статье рассказывается о роли и важности подхода CBI в том, чтобы сделать процесс языкового преподавание более эффективным и интересным для студентов, а также о том, как сочетать язык и контент в соответствии с соответствующими моделями CBI, ориентированными на преподавание языка или контента, чтобы предоставить подробную информацию, об идеях учёных и методах, которые их объединяют

Ключевые слова: CBI, содержание, язык, ученый, модель, интеграция, программа, коммуникативные навыки, языковые навыки.

Kirish. Yurtimizda xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish, til o'rganuvchi yoshlarga ta'limning barcha bosqichlarida to'la imkoniyat va sharoitlar yaratish maqsadida ta'limni eng boshlang'ich nuqtasi bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, to oliy o'quv yurtlarigacha takomillashtirilmoqda. Yildan yilga ular o'zlarining moddiy texnikaviy bazasini boyitib, o'rganuvchilarga eng ilg'or texnologiyalar yordamida darslar tashkillashtirilmoqda. Bunga qo'shimcha tarzida, xorijlik ustoz- murabbiylar ta'limning deyarli barcha tashkilotlariga jal qilinmoqdaki, bundan maqsad o'qituvchilarimiz ularning ilg'or o'qitish usullari, metodlari va yo'llarini o'rganganlari holda, o'zlarining tajribalarini yanada oshirib, dunyo standartlariga mos dars muhitini yaratishga imkon tug'ilmoqda. Ushbu jarayonlarda butun dunyo ta'lim tizimida 1960- yildan beri qo'llanilib, so'nggi 20 yil davomida o'zining nechog'lik samarali ekanligi isbotlagani natijasida qo'llanilish doirasi borgan sari kengayib borayotgan yondashuv- CBI o'z tarkibiga o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir vaqtda ularning atrof- olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beruvchi, turli fan va soha tarmoqlari haqida yig'ilgan ma'lumotlarda tayangan holda ish olib boruvchi yondashuv sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ingliz tilini o'qitishda mazmun va tilning ahamiyati borasida qator olimlar va tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar. Ulardan ba'zilari ta'limda faqatgina til muhim, mazmun e'tibor markazida emas desalar, boshqalar mazmun o'qitish jarayonini harakatga keltiruvchi vosita, til esa shunchaki mazmunni anglash uchun zarur deya e'tirof etadilar, boshqa bir guruh olimlar esa ularning har ikkisi ham muhimligini, biri ikkinchisidan ajralmas bo'lak ekaligini ta'kidlaydilar. Jumladan, Snow, Met, Genesee ta'limda mazmun va tilning integratsiyasini lozim deb qarasarlar, Stroller va Curtain ham ularning fikrlarini ma'quullaydi. Bassamo, Shih va Murpheylar esa qanday kontent o'rganishni osonlashtirishi va ta'limda qo'llanishi mumkinligini tadqiq qilganlar.

Berilgan maqoladagi ma'lumotlar ma'lumotlarni to'plash, ular bilan tanishib chiqish, so'ng mosligiga ko'ra saralash orqali yig'ildi. Ularni yoritish jarayonida esa tahlillash, tahrirlashdan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Barchamizga ma'lumki, tilni o'zlashtirish faqatgina grammatik qoidalar, sintaktik strukturalar, leksik birliklarga asoslanmaydi, balki tilni o'qitish yanada mazmunli bo'lishi uchun o'quvchilarga ma'noli mazmun tashuvchi vositalar ham zarur hisoblanadi. Aynan CBI darslaridan til va mazmun o'zaro integratsiyalashishi orqali o'quvchilar darsga bo'lgan qiziqishlari va darsdan ko'zlangan maqsadga erishilishi yanada osonlashadi. Bu dars jarayonida, faqatgina tilshunoslikka oid kontent emas, balki matematika, ijtimoiy yoki tabiiy fanlarga oid materiallar ham kiritilishi mumkin. Ikkinchi tilni o'qitishda qo'llaniluvchi bu yondashuv o'quvchilarning xohishlaridan kelib chiqqan hodisa, mazmunga asoslanib o'qitadi, shu sababli ham so'nggi bir necha o'n yillar davomida ushbu yondashuvning qo'llanilish ko'lami yanada kengayib bormoqda. Turli fan, kasb va soha doiralarida CBI borasida olib borilgan tadqiqot va ilmiy ishlar shuni ko'rsatadiki, bu tamoyil nafaqat, fan yoki kasb tarmog'ining aynan bir yo'nalishida balki istalgan yo'nalishga moslashtirilishi mumkin. Bu o'qituvchining mahorati, o'quvchilarning ishtiyoqiga bog'liq. Ushbu yonashuv qanday kontekstda qo'llanilishidan qat'iy nazar, ko'zlangan asosiy maqsad til ko'nikmalarini rivojlantirish va berilgan mazmunni tushunishdan iboratdir. O'quvchilar mazmun almashishdagi faol ishtiroki sababli CBI tamoyillari Kommunikativ tilni o'qitish tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli ham, "...bu yondashuv mazmunli maqsad va haqiqiy kontekst yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan o'quvchilar kommunikativ kompetetsiyasini rivojlantirishda samarali yondashuv hisoblanadi" [1]

bugungi kunga qadar biz tahlil qilayotgan CBIning turli o'qitish modellari ommaga taqdim etilgan bo'lib, ba'zi olimlar ularni turli ta'lim bosqichlarida o'qitilishiga ko'ra, talabalar tilni L1 yoki L2 sifatida o'zlashtirishiga ko'ra, qaysi til ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilganligiga ko'ra va boshqa qator xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratganlar:

Theme-based- o'quvchi uchun qiziqarli yoki dolzarb bo'lgan mavzularlardan foydalanish darsni tashkil etish tamoyili sanaladi...Odatda, mavzu bir necha kun yoki haftalar davom etib, ko'plab lingvistik ma'lumotlarni taqdim etadi hamda o'quvchilar yagi tilni o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratadi[2].


Shelterd- o'quvchilar darslarini tushunishlari uchun alohida yordam beriladi. Ikki o'qituvchi muayyan fan bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun birgalikda ishlaydilar. O'qituvchilardan biri kontent bo'yicha mutaxassis, ikkinchisi esa ESL mutaxassisi bo'ladi. Ular birgalikda darsni olib borishlari yoki dars soati ular o'rtasida teng taqsimlangan holda dars o'tishlari mumkin[3].

Adjunct- asosan, talabalar ikkita darsda qatnashadilar. Bular o'zaro bog'langan darslardir. Ulardan biri mazmunga asoslangan dars bo'lsa, boshqasi o'rganilayotgan tilning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Adjunct darslari haqiqiy vazifalarni bajarish uchun yangi tildan foydalanish orqali talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi [4].

Barqaror tarkib (Sustained- content) modeli- CBIning eng so'nggi va innovatsion modeli bo'lib, Theme- based modeliga o'zroq o'xshash. Ularning farqi shundaki, theme- based modeli bir nechta mavzularni qamrab olsa, bu modelda bitta barqaror mavzu bo'yicha dars olib boriladi [5].

Task- based- O'qituvchilar talabalarning akademik vazifalari uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni aniqlaydi hamda talabalar shu vazifa ustida tez- tez ishlashlari ta'minlanishi kerak bo'ladi. Bu modelda muammolarni hal qilishga qaratilgan mashqlar tavsiya etiladi. Bunday vazifalarni bajarish uchun talabalar turli tadqiqot ishlarida, muzokaralarda, muhokamalarda, materialning ma'nosini tushunish uchun tilga e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi. Vazifaga asoslangan CBI da, talabalar materialni tushunganliklarini namoyon qilishlari kerak bo'lib (hisobotlarda va imtihonlarda), bu haqda og'zaki yoki yozma ko'rinishda fikr bildirishlari kerak.

Olimlar tomonidan tahlil qilingan CBI modellarining barchasi darsning maqsadiga ko'ra, talabalarning mavjud til ko'nikmalari darajasini inobatga olgan holda tanlanishidan tashqari, darslarda asosiy maqsad tilni o'qitish yoki talabalar mazmunni tushunishlariga qaratilganligiga ko'ra ham saralanadi.




Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Sheltered modeli mazmunni o'qitishga yo'naltirilganligi bilan qolgan modellardan alohida guruhlanadi va bu ikki guruhning dars jarayonida o'quvchi va talaba tomonidan bajaradigan ishlar xususiyatlariga ko'ra tubdan farq qiladi. CBIning mazmunga asoslangan yoki til o'qitishga asoslanganligiga kora tavsifini Met[6] quyidagicha izohlagan:

Mazmunga asoslangan CBI	Tilga asoslangan CBI
Mazmun o'rganilayotgan tilda o'qitiladi	Mazmun o'rganilayotgan tilni o'zlashtirish uchun qo'llanadi
Mazmunni o'zlashtirish ustuvor	Til o'zlashtirish ustuvor
Tilni o'rganish ikkinchi darajali	Mazmunni o'zlashtirish tasodifiy
Mazmundan ko'zlangan maqsad o'quv rejasi orqali belgilanadi	Til maqsadlari o'rganilayotgan til o'quv rejasi orqali belgilanadi
O'qituvchilar til maqsadlarini tanlashlari shart	Mazmunni integratsiyalashlariga ko'ra talabalar baholanadi
O'quvchilarning mazmunini o'zlashtirishlari baholanadi	Tildan foydalanish mahoratiga ko'ra talabalar baholanadi

Mazmun va tilni integratsiyalash til o'rganuvchilar uchun juda ko'p afzalliklarga ega. O'rganish jarayoni kognitiv tablarga mos bo'lganligi tufayli o'quvchilar motivatsiyasi oshadi. O'quvchilar bir qator sohalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishadi, jumladan, rasmiy va norasmiy, umumiy va akademik sohalarni ham qamrab olishadi. CBI darslarida til hamda mazmunga e'tibor qaratilishi natijasida o'quvchilar an'anaviy darslarga qaraganda kengroq malaka

hosil qilish imkoniga ega bo'ladilar [7]. Snow, Met, and Genesee mazmun va tilni integratsiyalashning o'zgacha yondashuvini taklif qiladilar. Ular o'qituvchilarga til va mazmun bog'liqligini aniqlash uchun avvalo o'quvchilarning akademik va kommunikativ ehtiyojlarini aniqlab olish kerakligini maslahat beradilar. Rivojlangan ko'nikmalarni (tilshunoslik va kognitiv ko'nikmalar) murakkablik darajasi past bo'lgan mashqlar bilan birlashtirganimizda, sinflarimizda zerikishning guvohi bo'lamiz. Agar, yaxshi rivojlanmagan ko'nikmalarni murakkab mashqlar bilan birlashtirsak samarasizlikdan tashvishlangan chehralarning guvohiga aylanamiz. O'qituvchi sifatida darslarimizda istamaydigan hodisa bu - zerikish yoki tashvish. Bu hodisa Chikago universiteti professori Csikszentmihalyi [8] tomonidan oqim nazariyasida tasvirlab berilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'qituvchi bajarishi kerak bo'lgan vazifa bu- talabalarimiz oldinga siljishlari uchun lingvistik hamda kognitiv ko'nikmalarni va murakkablikning to'g'ri muvozanatini topishdir (mashq murakkabligi), shundagina ular til va mazmunni o'zlashtira oladilar.



Xulosa. CBI til o'rgatishning eng dolzarb va ahamiyatli tamoyillaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning til o'zlashtirishini rag'batlantirishda, talabalar ehtiyojini mazmunli tarkib bilan uyg'unlashtirishga imkoniyat taqdim etadi. CBIning bu va boshqa ko'plab afzalliklari, u nima sababdan dunyo bo'ylab til o'qitish darslarida qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stephen B. Stryker, Betty Lou Leaver. Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods.- Georgetown University Press, 1997.
2. [Donna Brinton](#), [Marguerite Ann Snow](#), [Marjorie Bingham Wesche](#). Content-based Second Language Instruction.- University of Michigan Press, 2003.
3. Stephen Davies. Content Based Instruction in EFL Contexts.-The Internet TESL Journal, 2-son, 2003.
4. Stephen B. Stryker, Betty Lou Leaver. Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods.- Georgetown University Press, 1997.-B. 4.
5. [Donna Brinton](#), [Marguerite Ann Snow](#), [Marjorie Bingham Wesche](#). Content-based Second Language Instruction.- University of Michigan Press, 2003.-B. 205.
6. Met. M. Content-based instruction: Defining terms, making decisions.- Washington, NFLC Reports, 1999.
7. [Liz Dale](#), [Rosie Tanner](#). CLIL Activities with CD-ROM: A Resource for Subject and Language Teachers.- Cambridge University Press, 2012.
8. Mihayl Csikszentmihalyi. Finding Flow: The Psychology of Engagement with Everyday Life.- BasicBooks, 1997.

Muallif:

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi – Ichki Ishlar Vazirligi Sirdaryo akademik litseyi, “Tillar” kafedrasida o'qituvchisi.

UDC: 666.3.017

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF CLOUD TECHNOLOGIES

ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Ummatqulov Adhamjon Zafarjon o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: z.ummatqulov@mail.ru

Abstract. This article describes in detail the creation of cloud technologies, the process of their evaluation. In addition, the advantages and disadvantages of using cloud technologies are analyzed. The Internet was modernized and server equipment was developed. At the same time, the idea arose to combine computing systems and use them as a single resource when using the program. Since 2008 the word "Cloud technologies" has spread widely throughout the world. At first glance, "Cloud technologies" seem incomprehensible: this model allows you to quickly, conveniently and effectively use the system (servers, applications, storage systems and services). If we consider the advantages and disadvantages of using cloud technologies: - if we talk about the advantages of using cloud technologies, then first of all, consumers do not

look at the performance of computers. Computers do not necessarily have to have large memory and large disks to work with high power. Because all data and all programs are stored on cloud servers. Consumers can access the cloud through personal stationary computers, laptops and netbooks of large capacity. Reducing the use of natural resources. Cloud computing technologies can save computing power not only in terms of electricity, but also reduce physical space and natural resources. The data center also has storage in known cool places. The devices that can use the data are now very compact and require less materials to produce.

Keywords: information technology, server services, Internet, cloud technology, cloud computing, personal computer, infrastructure.

Аннотация. В данной статье подробно описано создание облачных технологий, процесс их оценки. Кроме того, анализируются преимущества и недостатки использования облачных технологий. Был модернизирован Интернет и разработано серверное оборудование. При этом возникла идея объединить вычислительные системы и использовать их как единый ресурс при использовании программы. С 2008 года слово «Облачные технологии» широко распространилось по всему миру. На первый взгляд «Облачные технологии» кажутся непонятными: эта модель позволяет быстро, удобно и эффективно использовать систему (серверы, приложения, системы хранения и сервисы). Если рассматривать преимущества и недостатки использования облачных технологий: - если говорить о преимуществах использования облачных технологий, то в первую очередь потребители не смотрят на производительность компьютеров. Компьютерам не обязательно иметь большую память и большие диски, чтобы работать с высокой мощностью. Потому что все данные и все программы хранятся на облачных серверах. Потребители могут получить доступ к облаку через персональные стационарные компьютеры, ноутбуки и нетбуки большого объема. Сокращение использования природных ресурсов. В технологиях облачных вычислений можно экономить вычислительную мощность не только с точки зрения электроэнергии, но и сокращать физическое пространство и природные ресурсы. Центр обработки данных также имеет хранилище в известных прохладных местах. Устройства, которые могут использовать данные, теперь очень компактны и требуют меньше материалов для производства.

Ключевые слова: информационные технологии, серверные услуги, Интернет, облачные технологии, облачные вычисления, персональный компьютер, инфраструктура.

Kirish. So‘ngi yillarda telekommunikatsiya sohasi mehnat unumdorligining o‘shini ta‘minlashda hamda yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim o‘rinlarni zabt etib keldi. Kelgusida xalq xo‘jaligi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tayanch infratuzilma — elektron tijorat yoki Internet tarmog‘ining turli imkoniyatlaridan istalgancha miqdorda foydalanishning mutassil o‘shiga va keng qamrovli joriy etilishiga, mazkur soha o‘ta muhim qirralarni — yangi iqtisodiyotni shakllanishiga va iqtisodiyot tarkibini rag‘batlantiruvchi vosita sifatida butkul o‘zgartirishlarni kiritishiga odimlanayotgani shubhasiz, muhim hodisaga aylanib bormoqda.

Axborot texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda dasturiy ta‘minotning o‘rni juda ham katta ahamiyatga ega. Dastur to‘la qonligicha ishlashi uchun shaxsiy kompyuter minimal tizim talabiga javob berishi kerak. Bugungi kunda Internet modernizatsiyalashtirildi va server uskunalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga shunday g‘oya yuzaga keldiki, dasturdan foydalanishda hisoblash tizimlarini birlashtirish va undan yagona manba sifatida foydalanish. 2008-yildan boshlab (Cloud technology) Bulutli texnologiyalar so‘zi dunyo miqyosida keng tarqaldi. Birinchi qarashda “Bulutli texnologiyalar” tushunarsiz ko‘rinsada: bu model o‘zida biror bir tizimdagi (serverlar, ilovalar, saqlash tizimlari va xizmatlar) dan tez, qulay, samarali foydalanish imkonini beradi [1].

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Bulutli texnologiyalar - bu model iste‘molchiga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida “virtualizatsiya” texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Birinchi bo‘lib 1960-yilda virtualizatsiya texnologiyalari IBM taklif qilingan ammo qimmat kompyuter texnologiyalarini arzon x86 protsesorli kompyuter serverlariga o‘tgandan so‘ng virtualizatsiya termini ancha vaqtgacha esdan chiqarildi. 2000-yildan boshlanib holat o‘zgara boshladi, shu yillarga qadar VMware x86 razryadli virtualizatsiyada monopoliyani qo‘lga kiritdi [2]. 2005-yilda VMware kompaniyasi virtual mashinalarni DTdan foydalangan holda bepul tadbiiq qildi. 2006-yilda Microsoft kompaniyasi “Microsoft virtual PC” Windows versiyasini ishga tushirildi. 2006-yilda Amazon kompaniyasi o‘z qurilmalarida virtual serverlarni kengaytirish orqali “Amazon Elastic Compute Cloud” yuzaga keldi buning yana asosiy sabablaridan biri virtual serverlarni boshqa qurilmalarga (iste‘molchilarga) ijaraga berish orqali bulutli texnologiyalarni kelib chiqishiga turtki bo‘ldi. Bulut - AT- infratuzilma tashkilotlarining innavatsion modeli (konsepsiya) hisoblanib, u alohida ajratilgan va taqsimlangan konfiguratsiyalangan apparat va tarmoq resurslaridan, dasturiy ta‘minotdan tashkil topgan va ular masofadagi provayderlarni ma‘lumotlar markazida yotadi [3].

Tadqiqot natijalari va muhokama

Cloud computing - bulutli hisoblash - ularning ishlashi uchun apparat, dasturiy ta‘minot, metodologiya va Internet xizmatlari mavjud bo‘lishi lozim.



1-rasm. Bulutli texnologiyalarning foydalanish vositalari va tuzilmasi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, "bulutli texnologiyalar" / "bulutli xizmat" tushunchalari, "bulutlar" shaklida, umuman qabul qilingan grafik tasviri bilan foydalanuvchilarni shunchaki chalkashtirib yuboradi, aslida ularning tuzilishi keyingi piramida shaklida ifodalanadi.

Piramidaning "infratuzilmasi" - bu jismoniy qurilmalar majmuasi (serverlar, qattiq disklar, va boshqalar). Buning ustiga, "platform" - foydalanuvchilarning iltimosiga ko'ra xizmatlarning to'plami va yuqori dasturiy ta'minot.

Bundan tashqari, bulutni hisoblash texnologiyasi va yondashuvlarining sintezi natijasida olingan bir xil bazaviy vektor ekanligini bilishingiz kerak.



2-rasm. Bulutni hisoblash texnologiyasi tuzilmasi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, eng avvalo iste'molchilar kompyuterlardan ishlash kuchi harakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p hajmli diskarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emas. Chunki barcha ma'lumotlar va hamma dasturlar bulut serverlarida saqlanadi. Katta hajmga ega bo'lgan shaxsiy statsionar kompyuterlar, noutbuklar, netbuklar, orqali iste'molchilar bulutga kirishlari mumkin;

- iste'molchilar uchun kompyuterlarni ishlash sifati oshdi. Iste'molchilar kompyuter dasturlar, fayllarni masofadan turib ishga tushirishda kam yukli qilishlari uchun kam ilovalardan foydalanishlari kerak. Misol uchun, Panda Cloud Antivirus - antivirus dasturi, veb-servis sifatida foydalana olish mumkin. Panda Cloud Antivirus kuchli server ma'lumotlaridagi viruslarni masofadan turib skanerlash imkoni beradi. Bu dasturni iste'molchi kompyuterida ishga tushirish ishlash yoki ikki barobar;

- IT infratuzilmadan foydalanish samaradorligi oshadi va chiqimlar soni kamayadi. Agar kompaniya uchun server o'rtacha yuklanish boholashini oladigan bo'lsak u 13% ni tashkil etadi. Ba'zi hollarda kompaniya o'zining qo'shimcha resurslari kuchini ishlatishga to'g'ri keladi, lekin ba'zi hollarda hisoblash resurslari bo'sh turadi va ishlatil olmaydi[5]. Bunda esa albatta pulning sarifi bekor bo'ladi. Agar kompaniya hisoblash resurslaridan masofadagi bulut serverlaridan foydalansa, bu holda kompaniya sarflari soni ikki marta kamayadi. Bundan kelib chiqqan holda nobarqaror iqtisodiy ishlab chiqarish moslashuvchanligi oshib boradi. O'zining ma'lumotlari boshqa bir tashkilotlarda saqlashiga ishonchlilik qobiliyati

yo'qolganda kompaniyaning o'zi shaxsiy bulut yaratib, virtualizatsiya infratuzilmalarini barcha imkoniyatlaridan to'la qonchiligicha foydalansa bo'ladi;

- xizmat ko'rsatishdagi va DT ni sotib olishdagi harajatlarni kamaytirish. Bulut hisoblash texnologiyalarini shaxsiy serverlarda qo'llanilishi kompaniya ko'lamida kichik hisoblanib, shuning uchun ularga xizmat ko'rsatish onson bo'ladi. Katta sonli fizik serverlardan voz kechish orqali DT ni sotib olishdagi muomolar kamayadi. Servis va ilovalar bulut ichida bo'lganligi uchun iste'molchilar DT sotib olishlari shart bo'lmaydi[6];

- hisoblash kuchining o'sishi. Shaxsiy kompyuterlar bilan bulutli hisoblash resurslarini solishtirganda, bulutli hisoblash resurslari katta imkoniyatlarga ega. Bulutli hisoblash kechi uning serverlari soni bilan o'lchanadi. Is'temolchiga superkompyuterdan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratib beradi, bu albatta oddiy shaxsiy kompyuterda masalalarni yechish imkoniyati bo'lmaganda;

- ma'lumotlar saqlashdagi cheklanilmagan hajmlar. Ma'lumotlarni saqlash hajmiga qarab bulutli texnologiyalar qulay va avtomatik tarzda (is'temolchi hohish istagiga qarab) joylashtiradi. Oddiy shaxsiy kompyuter is'temolchisi ma'lumotlarini saqlashga joy yetmaganda, bunday xolat bulutli hisoblash istemochilarida yuzaga kelib chiqmaydi;

- operatsion tizim bilan mos kelishi. Bulutli texnologiyalar Iste'molchilarda qanday operatsion tizim turganligiga qaramaydi. Microsoft Windows operatsion tizimidan foydalanilayotgan mijoz, Unix mijozlari bilan muammosiz ma'lumotlarni almashishi mumkin. Servislardan foydalanishda esa har bir operatsion tizim brauzerga qarab standartlashtiradi;

- hujjat formatlari bilan mos kelishi. Shaxsiy kompyuterdagi fayl Microsoft Word 2007 dasturi asosida bajarilgan bo'lsa, eski versiyalarida yani Microsoft Word 2003 da ochish imkoniyati mavjud emas. Bulutli hisoblashlarda esa to'g'ri kelmagan hujjatlarni ochish muomosi kelib chiqmaydi[7];

- iste'molchilarning bir guruh bo'lib ishlashidagi qulayliklari. Bulutli hisoblash tizimlarida bir vaqtning o'zida bir necha iste'molchilar ish olib borishlari mumkin. Hujjatlarni bir kompyuterdan boshqasiga ko'chirib o'tkazish kerak bo'lmaydi. Hujjatlarni tahrirlash tez aks etadi, bundan tashqari iste'molchilar hujjatning yangilash imkoniyati mavjud;

- bulutli hisoblashlarda fayllardan erkin foydalanish imkoniyati mavjudligi. Agar ma'lumotlar bulutda saqlanilayotgan bo'lsa, bu ma'lumotlardan istalgan vaqtda iste'molchilar foydalanishlari mumkin faqatgina internet tarmog'i mavjud bo'lgandagina. Iste'molchilar uchun keng qamrovdagi qurilmalardan internetga kirish orqali foydalanishlari mumkin. Bulut mijozi shaxsiy kompyuter, planshet, netbook, smartfon, notebooklardan foydalanishlari mumkin;

- tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish. Bulutli hisoblash texnologiyalarida hisoblash kuchlarini tejash nafaqat elektroenergiya bo'yicha balki fizik maydon va tabiiy resurslarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Ma'lumotlarga ishlov berish markazi (U,O) ma'lum bo'lgan salqin hududlarda ham saqlash imkoniyati bor. Ma'lumotlardan foydalana oladigan qurilmalar hozirda juda ixcham xisoblanib, ishlab chiqarishda kamroq materiallar ketadi;

- ma'lumotlarni yoqolishiga bardoshligi. Bulutda saqlanilayotgan ma'lumotlar, o'zlarining nusxalarini bir necha serverlarga joylashtiradi. Shuning uchun bulutda saqlanilayotgan ma'lumotlarni yoqolishi ehtimoli juda ham kam albatta buni is'temolchining shaxsiy kompyuteri bilan solishtirganda.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishda kamchiliklar:

- doimiy internet tarmog'i bilan aloqada bo'lishi lozim. Bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda har vaqt tarmoq internetga ulangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari bir necha ilovalar mavjud bo'lib, ular kompyuterlarga yuklanadi va ulardan uzoq muddatgacha ishlash imkoniyati bo'ladi. Boshqa holatlarda esa har doimgidek oddiy xisoblanib, ulanish bo'lmasa ish ham bo'lmaydi. Ko'pchilikning fikricha bu bulutli hisoblashlarning eng katta kamchiligi deb yuritishadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishini xisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki internet tarmog'i hozirgi kunda har bir joyda mavjud. Shuning uchun bu muomoli qarashlar tez vaqatlar ichida umuman e'tiborda chiqadi;

- ishlash tezligi sekinligi. Ko'pgina bulutli servislar to'la qonligicha ishlashlari uchun normal internet - ulanishni talab qiladi. Bu muammoni kelib chiqishini oldini olishda choralar ko'rilyapti va bu muammo tez kunlarda judlik bilan to'g'irlanishiga ishonch yuqori darajada;

- dasturlarning sekin ishlashi va to'liq funksional imkoniyatlarga ega bo'lmagan holda. Bir necha dasturlar bulutli tizimlarda sekin ishlashlari mumkin lokal kompyuter tizimiga qaraganda. Bu uzoq masofadagi serverlarni yuklash qiyinchiliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin;

- ma'lumotlar xavfsizligiga xavf borligi. Iste'molchilar tomonidan bulut texnologiyalariga qo'yilgan har bir ma'lumot xavfsizligi xavf ostida bo'lishi mumkin. Lekin bunda birinchi masala provayderga is'temolchining ishonish muxim o'rinda turadi. Agar bulutli texnologiyalar provayderi ma'lumotlar almashishini ishonchli shifrlasa, zahira nusxalasa va bulutli texnologiyalar soxasi bozorida o'ziga yarasha tajribaga ega bo'lsa bu holda xavfsizlik borasida muomolar tug'ilmaydi. Fakt sifatida shuni aytish mumkinki bulutda yo'qolgan ma'lumotlarni qaytarish mumkin emas.

Xulosa. Bulut texnologiyalardan foydalanib, kompyuter tizimi resurslari himoya ta'sir kamaytirish "jamo'a aql" innovatsion texnologiyalar asoslangan. Antivirus serverlari dunyodagi millionlab foydalanuvchilarning Panda antivirus mahsulotlaridan olingan ma'lumotlardan har kuni paydo bo'lgan zararli dasturlarning yangi turlarini avtomatik ravishda aniqlash va tasniflash uchun foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amirov D.M, Atajonov A.Y, Ibragimov D.A, Raximjonov Z.Y, Saidxo'jayev S.S. "Axborot-Kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" BMTTD ning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2010.
2. Kruk B.I. Telekommunikatsion sistem seti. Sovremenne texnologi.M: Goryachaya liniya – Telekom 2003.
3. Juha Korhonen. Introduction to 3G Mobile Communications. Second Edition 2003.
4. http://www.cnews.ru/reviews/new/oblachnye_servisy_2013/articles/zash_chishchaem_oblachnyuyu_sredu_novye_tehnologii_bezопасnosti.
5. B. Walker Seidenberg M. P. Althoff. UMTS The Fundamentals. All of Communications Networks, Aachen University (RWTH), Germany Translated by Hedwig Jourdan von Schmoeger, UK 2003.
6. Babkov Yu.D."Mobil aloqa tizimlari". 2000-yil.
7. Радиотехнически систем Учеб. для вузов по спец. "Радиотехника". – М. Изд.центр. 2008. - 592 с.

Muallif:

Ummatqulov Adhamjon Zafarjon o'g'li – Guliston davlat universiteti, magistrant.

UDK 378.616

THEORETICAL BASIS OF IMPROVING HEALTH CARE THINKING IN STUDENTS

TALABALARIDA SALOMATLIKNI ASRASH TAFAKKURNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕДИЦИНСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Ernazarov Abduvali Beknazarovich

Samarqand davlat universiteti, 140104, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15.

E-mail: eabduvali0777@gmail.com

Annotation: In this article, the fundamental changes implemented in society, the need to educate independent thinkers, freely achieve their goals, intellectually and physically mature individuals, the educational system, on the one hand, every person's development, and on the other hand, to educate students and young people who have a strong nervous system, who are physically and mentally fresh, and to ensure their health, to expand the provision of quality medical services, as well as infants and implementation of comprehensive measures aimed at preventing the death of children.

Key words: effective and high-quality, social and medical services, health care, physical and mental, measures, innovative methods, approaches, education system, knowledge, skills, health care, strengthening, thinking improvement.

Аннотация: В данной статье рассматриваются фундаментальные изменения, происходящие в обществе, необходимость воспитания независимых мыслителей, свободно достигающих своих целей, интеллектуально и физически зрелых личностей, система образования, с одной стороны, развития, а с другой стороны, воспитывать студентов и молодых людей, имеющих крепкую нервную систему, физически и психически свежих, и обеспечивать их здоровье, расширять оказание качественных медицинских услуг, а также детей раннего возраста. и реализация комплексных мер, направленных на предотвращение детской смертности.

Ключевые слова: эффективные и качественные, социальные и медицинские услуги, здравоохранение физическое и психическое, меры, инновационные методы, подходы, система образования, знания, навыки, здравоохранение, укрепление, мышление улучшение.

Kirish: O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanishi bilan birga, jamiyatda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, mustaqil fikrlovchi, maqsadlariga erkin erishadigan, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalash zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi, bir tomondan, shaxsning har tomonlama rivojlanishini, ikkinchi tomondan esa, mustahkam asab tizimiga ega, jismonan va ruhan tetik bo'lgan talaba-yoshlarni tarbiyalash va ularning salomatligini ta'minlashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasini yana rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida sog'liqni saqlash sohasida muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ichida aholi uchun ko'rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmatlarning sifatini va qulayligini oshirish, shoshilinch tibbiy yordam tizimini samarali va sifatli ishlashini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va uni yaxshilash, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, oilaviy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish va ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni kengaytirish, shuningdek, chaqaloqlar va bolalar o'limining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kabilar mavjud.

Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida aholi uchun zaruriy tibbiy yordamni taqdim etishda yangicha yondashuvlar qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda, sog'liqni saqlashning har bir sohasida sifatni oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur. Shu o'rinda, zamonaviy ta'lim muassasalari o'z ta'lim jarayonida salomatlikni asrashga qaratilgan tafakkurni takomillashtirish uchun ko'plab innovatsion usullar va yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Masalan, talabalarni jismoniy faoliyatga jalb qilish, ularni sog'lom ovqatlanish va turmush tarziga o'rgatish orqali salomatlikni mustahkamlash mumkin.[1]

O'zbekiston ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, o'quv jarayonida salomatlikni saqlash va mustahkamlash maqsadida ko'plab innovatsion metodlardan foydalanish, talabalarni psixologik jihatdan tayyorlash va ularning jismoniy salomatligini rivojlantirish zarur.[2]

Bu yondashuvlar orqali talabalar nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, balki ularning salomatligi ham mustahkamlanadi, bu esa kelajak avlodning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. [3]. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim muassasalari talabalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni takomillashtirish, nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning kelajakda barqarorligi uchun ham zarur hisoblanadi.

2020-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatida jamiyatda sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va jismoniy tarbiya orqali sportni kengaytirish zaruratini ta'kidladi. Sportni jadal rivojlantirish va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozongan sportchilarni rag'batlantirishga e'tibor qaratish belgilandi. O'zbekistonning mustaqillik davrida demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish uchun amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, aqliy, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Sog'lom avlod va ularning ijtimoiy faoliyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot jarayonida huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o'rganish, analiz va sintez, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so'rovnomalar o'tkazish, monitoring, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zamonavi ta'lim jarayonlari global miqyosda bir qator ijtimoiy va pedagogik o'zgarishlar bilan ifodalanadi. dugungi ta'lim tizimida ijtimoiy-siyosiy transformasiyalar bilan bir qatorda, ta'limning yangi islohotlari ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda talabalar salomatligini muhofaza qilish va monitoring qilishning ahamiyati oshmoqda.[4]

Salomatlik pedagogikasi - bu ta'lim jarayonida talabalar salomatligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yangi yo'nalish, o'sib kelayotgan avlodlarning salomatligini ta'minlash va zamon talablariga javob berish uchun muhimdir. Yoshlar salomatligi jamoatchilikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va bu masalaga etarli e'tibor berilmasa, kelajakda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.[5]

Kirish. Oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika sohalarida pedagogika va psixologiya fanlarning turkum doirasida samarali o‘qitilishi ta‘lim tizimi uchun kasbiy kompetensiyaviy va yetuk raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunda ta‘limning mazmuni, qo‘llanilayotgan ta‘lim va tarbiya usullari, ta‘lim texnologiyalari bilan, shuningdek o‘z bolalarining o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi natijalari bilan tanishish haqida aytib o‘tilgan. Hozirgi kunda ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish va pedagogik ta‘lim sifatini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham yurtimizda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari ularga birlashtirilgan maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bilan oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalarida yaqindan hamkorlik qiladi, shu jumladan ta‘lim muassasalarida mahorat darslari hamda talabalar amaliyotini tashkil etadi, ushbu muassasalariga o‘quv-metodik jihatdan yordam ko‘rsatadi. Chunki bilimli, ilmi,mustaqil va analitik fikrlash qobiliyatiga ega, kasb-hunari puxta egallagan, yurti va xalqi uchun qayg‘uradigan, fidoiy, ma‘naviy yetuk, jismonan baquvvat va sog‘lom avlodni tarbiyalash yurtimizning kelajagini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Mamlakatimizda o‘o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasio‘ atamasini o‘rganish va undan foydalanish XX asrning 80-90 yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda mahalliy olimlarimiz ushbu ta‘lim hodisasi va turli xil kompetensiya tarkibiy qismlarini chuqur kontseptsiyalashga qaratilgan istiqbolli urinishlarni amalga oshirdilar. Hozirgi kunda o‘o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasio‘ toifasi XXI asr o‘qituvchisiga zamonaviy talablar sharoitida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Boshlang‘ich ta‘lim ta‘lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllanishida pedagogika va psixologiya fanlari muhim ahamiyatga ega. Maqolada kuzatuv, suhbat va intervyu metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Pedagogika fanlar tizimi Shaxs kamolotini ta‘minlash, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir: **Umumiy pedagogika** - pedagogikaning konseptual masalalari va amaliy jihatlarni tadqiq etadi. Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o‘rganadi. Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta‘lim turlarining davriy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilari pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlari shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalari tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi. **Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi** - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi. **Korreksion (maxsus) pedagogika** - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Shu nuqtai nazardan Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddada Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi [1]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv ta'limni tashkil qilishlari uchun albatta, korreksion pedagogika fanini mukammal bilishlari kerak bo'ladi. **Pedagogik texnologiya** - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. Hozirgi paytda, pedagogik texnologiyalar o'quvchi yoki talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi deyishimiz mumkin. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchilari yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilishi lozim. **Ta'lim menejmenti** - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi. **Ijtimoiy pedagogika** - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korreksiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi. **Oila pedagogikasi** - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi. **Xalq pedagogikasi** - xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir. **Qiyosiy pedagogika** - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qommiyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi. **Pedagogik innovatika** - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qommiyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan. Pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarini o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir. **Neyropedagogika** - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi. **Muзей pedagogikasi** - pedagogika, psixologiya va muzeyshtunlikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi. **Pedagogik antropologiya** - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'limning antropologik modeli va texnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi. **Pedagogik akmeologiya** - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho'qqisi - o'akre shaxso' darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi. **Kreativ pedagogika**-pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati [6;10]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida har bir holatga kreativ yondashish, muammoli vaziyatlarni tez va samarali hamda ijobiy hal qilaolish ko'nikmasini shakllantirish uchun zarur hisoblanadi. Aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yuqorida keltirilgan pedagogik fanlarga pedagogik faoliyatlarini davomida duch keladilar.

Har bir pedagog har bir ta'lim oluvchilarning psixologik xolatlarni, qobiliyatlarini, layoqatini, hisobga olgan holda yaqinlikda yondashadilar. Buning uchun ham psixologiya fanini chuqur o'rganishi va har bir psixologiya tarmoqlaridan xabardan bo'lgan holda ta'lim oluvchining psixologik holatini chuqur va anglagan holda ongli yondashishi kerak. Har bir pedagog quyidagi psixologik tarmoqlaridan xabardor bo'lishi kerak. **Umumiy psixologiya** - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. **Eksperimental psixologiya** - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari pedagogik psixologiya rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Bundan tashqari, pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Bixevioristik psixologiya yo'nalishi pedagogik psixologiya uchun asos qilib, tarbiyachi va o'qituvchiga vosita qilib tashqi muhit ta'sirini oladi. Tashqi muhit qanchalik ijobiy ta'sir

qiluvchi omil bo'lsa, ya'ni qulay shart-sharoit vujudga kelsa, demak, shaxsning tarbiyalanishi shunchalik ijobiy kechadi. **Pedagogik psixologiya** - tarbiya va ta'lim muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi – o'qitishning oqilona rivojlaniruvchi ta'sirini, shart-sharoit va boshqa psixologik faktorlardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiya rivojlanishi natijasida insonning individual-psixologik farqlari, ijtimoiy-tarixiy tajribalar ta'siri hamda boshqa odamlar o'rtasidagi muloqot, muomala ta'siri borligini, shuningdek, yana bir qancha faktorlarni hisobga olgan holda shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim orqali o'qitish va tarbiyalash yotadi. Pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turga ajratish mumkin: a) ta'lim psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; v) o'qituvchi psixologiyasi; g) oliy maktab psixologiyasi kabilar. **Sport psixologiyasi** - sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha XX asrning 60-70-yillarida jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi va uning ilk tadqiqotlari sportchilarning individual-psixologik farqlarini o'rganishga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib esa sport psixologiyasi o'rganayotgan muammolar ko'lamini kengaytdi, shu boisdan uning asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, erishgan yutuqlariga psixologik yordam ko'rsatish jabhalari bilan ham shug'ullanadi. **Oila psixologiyasi** - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi fanlararo tadqiqot qilishga yo'nalgan psixologiya sohasi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlarga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi. Oila psixologiyasi tomonidan to'plangan materiallar oila mustahkamligini saqlash uchun maslahatlar berishda, sotsiologik va psixologik dasturlar tuzishda qo'llaniladi. Shuningdek, oila tiplari, tuzilishi, ierarxiyasi, ularga ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar ham mazkur sohaning tadqiqot predmetiga kiradi. **Boshqaruv psixologiyasi** - jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi. **Qiyosiy psixologiya** - psixologiyaning murakkab bo'limlaridan biri bo'lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan soha. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o'xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta'sir o'tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi. **Differensial psixologiya** - shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi [7;12].

Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddabiron, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqlik, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Darhaqiqat har bir pedagog beradigan nazariy pedagogik bilimni chuqur anglashi va uni amaliyotda qo'llab ko'rgan bo'lishi lozim. B.Xodjayevning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" kitoblarida Talim mazmuniga aloqador tamoyillarda aytilgandek bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berishi uchun bakalavr davrida olgan fundamental bilimlar muxim ro'l o'ynaydi. Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati quyidagicha tasniflab beradilar. U umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi deb tasniflab berganlar. [4:77] Hozirgi kunda ta'lim tizimimizda yo'lga qo'yilgan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun oliy ta'lim muassasalarida oladigan mutaxassislik fanlaridan oladigan nazariy bilimlarni umumta'lim maktablarda qo'llashlariga imkon yaratildi.[1]

Har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogika va psixologiya fanlarini nazariy bilimlarini puxta egallashlari kerak. Chunki har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni hosil qiladi.

Xulosa. Tadqiqotimizda amalga oshirilgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni pedagogik va psixologik bilimlarni egallashi va integratsiya qilish pedagogik va psixologik fanlarni o‘rganishda har bir o‘qish davri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va uni amaliyotda qo‘llash maqsadiga ko‘rsatdi. Xususan, pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e‘tiborni kuchaytirish, pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarida ta‘lim olayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligining yuksak darajada bo‘lishi, ularda pedagogik mahoratning rivojlanishi, o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib pedagogik va psixologik bilimlarini muntazam va uzluksiz ravishda oshirib borishi hamda har bir pedagogika fanlar tizimi va psixologiya fanlari tarmoqlarini bilgan holda yondashishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2022 yildagi PQ-289-son
3. M.T. Ahmedova “Pedagogik kompetentlik” Uslubiy qo‘llanma” T.:2018 - 80 b.
4. B. Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Darslik T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, - 416 b.
5. U. Fayziyeva, N. Jumayev “Umumiy psixologiya” o‘quv qo‘llanma Buxoro 2021 - 200 b.
6. B.E. Karimova, B.N. Qurbonova “Kreativ pedagogika” O‘quv qo‘llanma. - 2023, - 316 b.
7. G.A. Muqumova “Umumiy psixologiya” O‘quv qo‘llanma. -2023, - 65 b.
8. R. Mavlyanova N. Raxmankulova “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, iimovatsiya va integratsiyasi” T. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.

Muallif:

Zikirova Dildora Shuhrat qizi - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tadqiqotchisi.

UDK 372.3/4

GUIDING STUDENTS TO PROJECT WORK AND DEVELOPING NATURE AWARENESS SKILLS BASED ON SCIENCE TEACHING

O‘QUVCHILARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH ASOSIDA LOYIHA ISHLARIGA YO‘NALTIRISH VA TABIATNI ANGLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

НАПРАВЛЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НА ПРОЕКТНУЮ РАБОТУ И РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ ПРИРОДЫ НА ОСНОВЕ ЕСТЕСТВЕННО НАУЧНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. 100070. Toshkent sh. Yakkasaroy tumani, Bratislava ko‘chasi, 3-uy.

E-mail: Lobarxon2024@gmail.com

Abstract. The essence of orientation of students of comprehensive schools to research activities consists in revealing the essence of the studied phenomena and processes, discovery and systematization of new subjective and objective knowledge, search for patterns, description, explanation, characteristics, should be aimed at design methods. Only a qualified and innovative teacher can correctly diagnose and competently organize the development of a student's research competence. This article considers the direct orientation of schoolchildren to research activities, starting from elementary school, and the tasks that need to be solved in this regard.

Keywords: natural sciences, students, educational process, study of nature, understanding, comprehension, research skills, project work, life skills, lesson, practical training, independent work.

Аннотация. Суть ориентации учащихся общеобразовательных школ на научно-исследовательскую деятельность заключается в раскрытии сущности изучаемых явлений и процессов, открытии и систематизации новых субъективных и объективных знаний, поиске закономерностей, описании, объяснении, характеристике, должна быть направлена на методы проектирования. Только квалифицированный и новаторский преподаватель может правильно диагностировать и грамотно организовать развитие исследовательской компетентности студента. В данной статье рассматривается непосредственная ориентация школьников на исследовательскую деятельность, начиная с начальной школы, и задачи, которые необходимо решать в связи с этим.

Ключевые слова: естественные науки, студенты, образовательный процесс, изучение природы, понимание, осмысление, исследовательские навыки, проектная работа, жизненные навыки, урок, практическое обучение, самостоятельная работа.

Kirish. Boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fanlar” o‘quv predmetining mazmunidagi har bir bobida 1yoki 2 tadan amaliy ish berilgan. Amaliy ishlarni o‘quvchilar dastlab sinfda o‘qituvchi ko‘magida bajarishadi. Keyinchalik uy sharoitida kattalar ko‘magida bajarishga yo‘naltiriladi. Bunday faoliyat 1-sinfdan boshlanadi, 4-sinf gacha davom ettirib kelinadi. 5-sinfdan boshlab o‘quvchilarga Biologiyaga kirish fani o‘qitiladi boshlaydi.

Hozirgi kunda Milliy dastur asosida e'tibor qaratadigan bo'lsak, katta avlod o'qib o'rgangan botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi yoki umumiy biologiya fanlari milliy dastur asosida ancha mukammal va yangi yondashuv asosida shakllantirilgan. Unga ko'ra ayni predmetlar zahirida tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalarni o'zlashtirish asosida fanning yangi mazmuni o'rganiladi. Har bir mavzuda bevosita o'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltirish, tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari tashkil etadi. Shunday ekan, endilikda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini ham tadqiqotchilikka yo'naltirish asosida ularni tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maktabda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning yana bir zaruriy sabablariga quyidagilarni kiritish o'rinlidir. **Birinchi**, bu so'nggi yillarda mamlakatimizda ro'y berayotgan ilm-fanning jamiyatdagi nufuzi o'quvchi-yoshlar orasida umumiy pasayishi bo'lib, bu yosh avlodning mazkur muammoga nisbatan ularning munosabatiga ta'sir qilmay qolmaydi, bu esa istiqbolli yo'nalish sifatida boshqa yo'nalishlarni tanlashga imkon yaratadi. Ya'ni jahon sahnasida yoshlarning tadqiqotchilik muvaffaqiyatlarini har doim ham yetkazib berilmasligi, bolalarning muvaffaqiyatga qiziqish ko'nikmalarini rivojlanmay qolishiga ko'pincha bu ham bolalarda zamonaviy ilm-fan imkoniyatlari va uning ilg'or yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot yo'qligi natijasidir. **Ikkinchi**, maktab o'quvchilarning rejalashtirilgan o'quv vazifalarini bajarish, mustaqil ishlashga yo'naltirilmaganlik, darsdan tashqari mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi, tadqiqot qilish tushunchasining maktablar uchun rejadani tashqari ish ekanligidir. **Uchinchi sabab** - o'quvchilarning ilmiy adabiyotlar bilan ishlay olmasliklari, ilmiy nutq uslubining yozma va og'zaki shakllarini to'liq o'zlashtirmasliklari, shuningdek, tadqiqot ishlarini tashkil etish rejalarini to'g'ri tashkil etilmasligi, o'quvchidagi qo'rqish kabi psixologik xususiyatlarning mavjudligi ham bo'lishi mumkin. Ko'r hollarda tadqiqot ishini loyihalashda qiyinchiliklarga duch kelinadi, uni tashkil etish bosqichlarini amalga oshirish mexanizmi va uni himoya qilish tartibi bilan tanishtirilmaydilar.

Qisqasi o'quvchi o'zi harakat qiladi, uni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish ishlari deyarli yo'q ekanligi ham asosiy abablardan biri sanaladi. Shunday qilib, maktabdagi ta'lim jarayonida ilmiy o'quv tadqiqotini zamoanviy ta'lim texnologiyasi sifatida qabul qilish va uni samarali usul sifatida ko'rib chiqish, uni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga, uning ijodiy salohiyatini oshirishga, o'zini o'zi anglashga va o'zini o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlanishiga hissa qo'shadi, pirovardida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish umumiy o'rta ta'lim uchun zamonaviy kontekstni tashkil etadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati tushunchasi ko'p hollarda, o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostidagi ijodiy, tadqiqot muammosini oldindan noma'lum yechim bilan hal qilish bilan bog'liq va ilmiy tadqiqotga xos bo'lgan asosiy bosqichlar mavjudligini nazarda tutadigan faoliyati hisoblanadi.

Keling, ularni birma bir sanab o'tamiz: aniq muammoni belgilab olish; muammoni yechimiga qaratilgan nazariyani o'rganish; tadqiqot metodologiyasi haqida o'quvchiga ma'lumot berish; tadqiqot doirasida zarur materialni to'plash, uni tahlil qilish va umumlashtirishga o'rganish; o'z xulosalari va ularni adabiyot ma'lumotlari bilan taqqoslash; tadqiqotning yakuniy mahsulotini yaratish, tadqiqot yuzasidan taqdimot tayyorlash.

O'quvchilarning ilmiy faoliyatiga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi nimani bilishi kerak? Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish mazmun mohiyati o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatini ochib berishga, sub'ektiv va ob'ektiv yangi bilimlarni ochish va tizimlashtirishga, qonuniyatlarni izlashga, tavsiflashga, tushuntirishga, tavsiflashga, loyihalash usullariga qaratilishi lozim. Bu borada malakali va novator o'qituvchigina o'quvchining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga to'g'ri tashxis qo'ya olishi va uni to'g'ri tashkil eta oladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchini tadqiqotchilik yondashuvini amalga oshirishda loyiha rahbari bo'lgan o'qituvchiga ma'lum talablar qo'yiladi. Ya'ni o'quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi: o'quvchilar duch keladigan muammoli vaziyatlarni oldindan bilishi, unga tayyorlashi, o'quvchi (o'quvchilar guruhi) oldiga o'quvchilarga tushunarli shaklda real vazifalarni qo'ya olishi; tadqiqot koordinatori va o'quvchi hamkori sifatida harakat qilishi, ko'rsatmalar berishdan ko'ra yaqindan muammoni tadqiq qilishga ko'makchi bo'lishi; tadqiqot muammosi va uni chuqur o'rganish jarayoni bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qilishga harakat qilishi, belgilab olingan fan doirasidagi o'quvchi tomonidan anglashilmagan holatlarda ijodiy fikrlashni qo'llab quvvatlashi; o'quvchilarning xatolariga toqatli bo'lish, yordam taklif qilish yoki tadqiqot uchun zarur manbalarni topish, o'rganish va tahlil qilishda yordam ko'rsatishi; o'quvchilar tomonidan tadqiqot ishi uchun ma'lumotlarni to'plash, ularning o'rganilayotgan masalalar bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashuvlarini osonlashtirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etishi; o'quvchilar, jamoa bo'lib ishlayotgan o'quvchilar guruhlarini hisobotlarini tinglash muhokamalar tashkil etish va fikr almashish, shuningdek, ularga to'g'ri yo'nalish olishlari uchun muntazam imkoniyat yaratish, bu borada ularni tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish; Bolalarda o'rganilayotgan muammoga qiziqish shakllarini yo'qotish belgilari paydo bo'lgunga qadar tadqiqot faoliyati jarayonini tugatishga erishish yoki qaytar reaksiyalar ishlab chiqish, o'quvchilar qiziqishlari, istaklarini so'ndirmaslikka harakat qilishdan iborat.

O'qituvchining asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilaridagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish va uni kompetensiyaga aylantirish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirishda ijodiy shaxsni rivojlantirish, uning o'z-o'zini baholash va o'zini anglab yetishi uchun sharoit yaratishga xizmat qilishdir. Shunday qilib, tadqiqotchilikka yo'naltirish - bu bolaning o'rab turgan dunyoni mustaqil o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi asosida hosil

bo‘lgan alohida yondashuv bo‘lib, natijasida o‘quvchi mustaqil, ijodiy o‘zlashtiradi va mustaqil yaratuvchanli qobiliyatini shakllantiradi. Pirovardida o‘quvchilar bosqichma-bosqich tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, uni kompetensiya holatida rivojlantirib boradilar.

Tadqiqot doirasida ish olib borgan juda ko‘plab olimlarning tadqiqot ishlarida ta‘kidlanganidek [4, 5, 7, 8], tadqiqotchilikka yo‘naltirishda o‘quv jarayonida ilmiy izlanishlar, yangi bilimlarni izlash jarayonini ideal tarzda modellashtirish talab etiladi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quvchilarni tadqiqotchilikka yo‘naltirish faoliyatini amalga oshirish bosqichlari natijasiga ko‘ra o‘quvchilarda quyidagi bilim va ko‘nikmalar shakllanadi:

Tadqiqot mavzusini tanlash, muammo to‘g‘ri qo‘ya bilish	Zamonaviy ilmiy ma‘lumotlarda qarama-qarshiliklarni ko‘rish tadqiqot mavzusi va ob‘ektini aniqlash qobiliyati
Tadqiqotni o‘rganishning maqsad va vazifalarini belgilash	Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilish va mustaqil ravishda faoliyatni bosqichma-bosqich rejalashtirish qobiliyati
tadqiqot bo‘yicha adabiyotlar (kitoblar, arxiv materiallar, ommaviy axborot vositalari, Internet)	Tadqiqot uchun tanlangan adabiyotlar bilan tanishish va ishlash tirishqoqligi; umumiy, ilmiy va tadqiqotchilikni o‘rganishga qaratilgan ilmiy usullardan foydalanish; oraliq natijalarni baholash
tadqiqot uchun zarur tadqiqot usullarini tanlash, tajriba-sinov ishlarini aniq rejalashtirish	Amalga oshirishda ob‘ektivlik, fikrlashning izchilligi va mavhumligi
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish	Tadqiqot o‘tkazish davomida yangi ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, tizimlashtira olish
Tadqiqot yuzasidan amalga oshirgan ishlar yuzasidan xulosalar ishlab chiqish	Xulosalarni shakllantirish asosida fikrlarni qisqa va mantiqiy ifodalash qobiliyati
tadqiqot yuzasidan hisobotni tayyorlash va tadqiqot taqdimotiga taqdim etish	Hisobot taqdimotida olib borilgan ishning yutuqlari, natijalarni rasmiylashtirish qobiliyati
Yakunlangan ilmiy-tadqiqot ishini himoya qilish	Notiqlik mahorati, mas‘uliyat, o‘z nuqtai nazarini asoslay olish, o‘z faoliyatini baholash, aks ettirish qobiliyati

O‘quvchilarning o‘quv va tadqiqot faoliyati natijalari: maktabda, viloyat ilmiy-tadqiqot ishlari konferensiyalarida, o‘lkashunoslik olimpiadalarida, ekologik olimpiadalarda sovrinli o‘rinlar; ilmiy ishlar asosida talabalar uchun ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqildi; Lekin bizningcha, bunday ishda eng qimmatli narsa maqsad asosida vazifani qanday qo‘yish, uni hal qilish yo‘nalishini rejalashtirish ko‘nikmalarining paydo bo‘lishidir. O‘quvchining o‘z kuzatishlari bo‘yicha hodisalar mantiqini kuzatish, dalillar tizimini qurish va ular asosida kuzatilgan tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatini shakllantirishni o‘rganishi ham muhimdir.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomaning quyidagi natijalari to‘liq ongli tanlov va tadqiqot faoliyatining shaxsiy rivojlanishi uchun muhimligidan dalolat beradi. Masalan, "Men tadqiqot faoliyatidan nimani kutgan edim va nima oldim" degan savolga umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 10-sinf o‘quvchilari quyidagicha javob berishdi: olingan bilim va ko‘nikmalar kelajakdagi hayotimni yo‘naltirishimga yordam beradi va shubhasiz kasb tanlashimga ta‘sir qiladi (so‘rovda qatnashganlarning 54 foizi); tadqiqot ustida ishlaganim o‘zimni anglashga yordam berdi (31%); tadqiqot faoliyati jarayonida men qiziqarli odamlar – tadqiqotchilar, olimlar bilan muloqot qildim, ko‘plab do‘stlar orttirdim, ilmiy anjumanlarda qatnashdim va muhimi mustaqil ma‘ruza tayyorladim, uni o‘zim taqdim qila oldim (10%); ilmiy izlanishlar jarayonida ko‘p adabiyotlarni o‘qish, yangiliklarni ko‘rish, tushunish, yangi narsani bilish, o‘qish qanchalik muhimligini angladim (56%).

Innovatsion pedagogika fani yutug‘i va maqsadi maktabda yangi ta‘lim muhitini yaratishdan iboratdir. Chunki bevosita maktab o‘quvchilarining ilmiy-tadqiqotchilikka yo‘nalganligi bola shaxsidagi ijodiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada maktab jamoasida yangi pedagogik muloqot - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik, ma‘naviy yaqinlik va hamkorlik muhiti shakllanadi.

Tadqiqot davomida shuni angladikki, hozirgi kunda ta‘limni modernizatsiya qilish konsepsiyasining asosiy g‘oyalarini qo‘llab qo‘vvatlaymiz, chunki, zamonaviy o‘qituvchi, birinchi navbatda, o‘quvchiga nafaqat bilim beribgina qolmasdan, balki uni bilim quroli bilan qurollantirishi, odamlar bilan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni o‘rgatishi asnosida uni o‘rab turgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni anglab yetishida zarur ko‘makchi bo‘lmog‘lari talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘quvchining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlanib borishi turli tanlovlarda ishtirok etish, ta‘lim faoliyatida to‘g‘ri motivatsiya olishga imkon beradi, axborotni mustaqil izlash, to‘plash, qayta ishlash va undan foydalanish, yangiliklarni o‘ziga xos metod asosida o‘zlashtirish, tajriba so‘nggida o‘z fikrini mustaqil himoya qila olishda yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘kidlash joizki, kichik loyihalarda tadqiqot o‘tkazish asosida axborotni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, yangi bilimlarni olish maqsadida interpretatsiya qilish o‘quvchidagi tadqiqotchilik ko‘nikmasini bosqichma-bosqich kompetensiyaga aylanishidagi dastlabki ilmiy faoliyatning boshlanishi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Tadqiqot ishining dastlabki bosqichlarida, o‘quvchilarning o‘z ishlarini taqdimot qilish ko‘nikmasi, savollar berish, berilgan savollarga javob qaytarish ko‘nikmasi maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlarida tushuntirib boriladi, o‘rgatiladi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish davomida aniqlanishicha, o'quvchilarga o'qituvchilar bilan mustaqil bajarilgan tadqiqotini himoya qilish, uning bosqichlarini amalga oshirish biroz murrakkab jarayon hisoblanishini e'tiborga olgan holda, o'quvchida ko'nikma hosil bo'lishi uchun alohida vaqt ajratish maqsadga muvofiq. Bunda dastlabki bosqichda: o'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda tadqiqot ishini tahlil qilish kerak; keyingi bosqichda – o'z ishining dastlabki himoyasi ko'rinishida o'z sinfdoshlari bilan muloqot qila olishi; so'ngra yuqori sinf o'quvchilari o'zaro dastlabki tadqiqot ishidagi tayyorgarlik bo'yicha taqdimotlarini taqdim etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning yana bir bosqichi – bu o'quvchini tadqiqot ishini yozishga o'rgatish, birinchi navbatda – o'z ilmiy ishi natijasi bo'yicha kichik ilmiy maqolalar yozish san'atini tushuntirish va amalga oshirishdir. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning bunday metodikasi, tadqiqotchilik ishi ko'nikmalarini egallash, o'z ishini taqdim eta olishga o'rgatish va pirovardida o'z-o'zini boshqarish, egallagan bilim, ko'nikmasini taqdimoti asosida real namoyish etishga o'rgatish ko'nikmasini rivojlanib borishiga imkon beradi.

O'quvchilarni biologiyadan tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish asosida ular erishgan tadqiqot natijalari, ilmiy-tadqiqotchilik ishini amalga oshirish doirasida didaktik tizimini ishlab chiqiladi. Ya'ni o'quvchi tadqiqot ishlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud ta'lim shakllarida amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi. Bunda o'quvchining keyinchalik tadqiqot ishini davom ettirishi va unga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun ularning erishgan yutuqlarini, natijalarini turli tanlovlarda namoyish etish, namuna sifatida ko'rsatish, maktab ma'muriyati, ustozlari tomonidan tez-tez e'tirof etilishi ham juda katta hissa bo'lib qo'shiladi. Zero umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini kompetensiya darajasigacha rivojlantirish, ularning ta'limning keyingi bosqichlarida ilmiy-tadqiqotchilik ishlariga jalb etish imkoniyatini yuqori darajada oshiradi deb kafolatlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qaraxonova J.M. Electronic educational resources and biology educational process efficiency in general educational schools // Eastern European Scientific journal. Ausgabe 5-2018. 273-275.
2. Qaraxonova J.M. Разработка и внедрение цифровых ресурсов в непрерывном образовании // Узлуксиз таълим. – Тошкент, № 6. 2018. 59-62.
3. Qaraxonova J.M. Биологиядан электрон таълимий ресурслардан фойдаланиш имкониятлари // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан/ Сборник научно-методических статей. УзНИИПН. 2019. Част 3. –С. 512-514.
4. Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna, & Ximmatov Elmurod Xayitovich. (2023). ISSUES OF IMPROVING TEACHING OF INFORMATION LESSONS TO STUDENTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(11), 126–131. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-04-11-22>
5. Shernazarov, I., Karakhanova, L., Tilyabov, M., Elmuratova, D., & Saidkhanova, N. (2023). METHODOLOGY OF USING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN DEVELOPING THE SCIENTIFIC LITERACY OF FUTURE TEACHERS. *SPAST Abstracts*, 2(02).
6. Karakhanova, L., Makhmudova, D., Shernazarov, I., & Khujanov, E. (2024). Biotechnology Breakthroughs: Shaping the Future of Health, Agriculture, and Industry. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 141, p. 04003). EDP Sciences.
7. Musaxonovna, Q. L., & Mashxura, N. (2024). UNIQUE OPPORTUNITIES OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN BIOLOGY LESSONS. *European International Journal of Pedagogics*, 4(01), 97-101.
8. Eshtemirovich X. U., Musaxonovna Q. L. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF USING SOCIAL ECOLOGY IN EDUCATING NATURE CONSERVATION SKILLS IN STUDENTS AND YOUTHS //European International Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 4. – №. 08. – C. 26-31.

Muallif:

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri (PhD) katta ilmiy xodim, loyiha rahbari.

UDK 372.3/4

IMPROVING THE EDUCATIONAL MOTIVATION OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'QUV-BILUV MOTIVINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

ПОВЫШЕНИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Bozorov Vakhobiddin Nuriddinovich

Base doctoral student of the Department "Pedagogy" of Bukhara State University

E-mail: samieva-1978@mail.ru

Abstract. This article describes the educational processes of future pedagogues, which are the foundations of the future, and the actual aspects of developing their motivation in improving their knowledge, skills and qualifications. Also, the article pays attention to the issues of introducing SMART education as a technology that solves these educational problems. The high importance and positive impact of this technology, on the development of education in general, and on

the other hand, the formation of an active subjective position of learners and educators on the issue of introducing SMART technologies into the educational process, is justified

Key words: motivation, higher education, scientific outlook, modern technologies, SMART method, innovation, motivation, professional competence, ability, interest, creativity, professionalism, collaboration.

Аннотация: В данной статье описаны образовательные процессы будущих педагогов, являющиеся основой будущего, и актуальные аспекты развития их мотивации в совершенствовании своих знаний, умений и квалификации. Также в статье уделено внимание вопросам внедрения SMART-образования как технологии, решающей данные образовательные задачи. Обоснована высокая значимость и положительное влияние данной технологии, на развитие образования в целом, а с другой стороны, формирование активной субъектной позиции обучающихся и педагогов по вопросу внедрения SMART-технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: мотивация, высшее образование, научное мировоззрение, современные технологии, метод SMART, инновации, мотивация, профессиональная компетентность, способности, интерес, креативность, профессионализм, сотрудничество.

Kirish.Oliy ta'lim tizimini isloh qilish, amaldagilarini takomillashtirish, uning sifat darajasi va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'lim jarayonida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan qonun va farmoyishlar ana shu masalalarni o'zida mujassam etganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lgusi pedagoglarga ta'lim berish sifatini oshirish asosiy mazmuni tashkil etadi.

Insoniyat ma'naviy kamolotiga muhim ta'sir etuvchi omil sifatida qaraydigan bo'lsak, jamiyatning intellektual va professional jihatdan rivojlanishida oliy ta'lim faoliyati muhim va beqiyos rol o'ynaydi. Ushbu oliy dargohlarda ilm nuridan bahramand bo'layotgan bo'lajak mutaxassislar, o'z kasblarida muvaffaqiyatga erishishlari hamda ta'lim egalarining munosib vorislari bo'lishlari uchun o'quv-biluv motiviga ega bo'lishlari zarurdir. O'quv-biluv motivi, talabalar o'qishga, bilim olishga va o'zlarini rivojlantirishga undovchi sifatida, ta'lim jarayonining quvvatini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi. Ushbu maqolada, oliy ta'lim darajasida bo'lajak mutaxassislarining o'quv-biluv motivini takomillashtirish masalasini pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Respublikamizda ijtimoiy institut hisoblangan oliy ta'lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun xizmat qiladigan zarur maskan bo'lib, nafaqat barqaror hamda suyanch bo'lishi, balki jadallik bilan boshqa qiyofada aks etayotgan va kutilmagan globallashtirilgan zamonida mavjud masalalarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi muhimdir. Shunday ekan bugungi kun pedagoglari hamda, tadqiqotchilar va bo'lajak mutaxassislardan ham amaliy ham nazariy jihatdan, shuningdek ushbu jarayonning barcha sohalarida yangi g'oyalar va integratsiyalar kutilmoqda. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan miqyosini butunjahon maydonda e'tirof etish, innovatsion ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Oliy ta'lim muassasalari talabalari faoliyatini o'rganib chiqish, ularning qiziqishlari, intilish va xohishlarini, istaklarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etish yoki ularning o'quv-biluv faoliyatini maqsadli yo'naltirish bilan o'quv materiallarini o'zlashtirishning ta'minlanishini bugungi kun o'quv tizimi yaqqol namoyon qilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustivor ko'rsatkichlarini aniqlash, oliy ta'lim sohasini takomillashtirish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston -2030 strategiyasi" sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarmoqda. Undan tashqari oliy ta'lim dargohlarining faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish kabi yuksak fazilati yana bir bor o'z aksini topmoqda [1].

Bo'lajak mutaxassislarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda. Ammo ushbu jarayonni talabalarga o'z kasbining fidoyi mutaxassisi bo'lishi, ularning kelajak kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish, darslar samaradorligini oshirish bugungi kun pedagogidan o'ta ziyraklik, yuqori salohiyat va chuqur ilmiy bazaga ega bo'lishni talab etadi. Chunki bugungi axborot-globallashuv hamda internet asri, ma'lumotlar oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan bir zamonda talabalarining o'quv-biluv motivlarini oshirish bir muncha mehnat, kreativlik hamda chuqur psixologik yondashuvni talab etadi.

Oliy ta'limda tahsil olayotgan, talabalar uchun o'quv-biluv motivi, o'z maqsadiga erishishi uchun muhim va dolzarb bo'lgan faktorlardan biridir. Bilamizki, darslarni samarali tashkil etish va dars davomida talabalarining faolligini ta'minlash uchun avvalo ta'lim oluvchilardagi o'quv-biluv motivlarini inobatga olish yoki ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish zarurdir. Bunga asosiy sabab ulardagi o'quv – biluv motivlari, umuman, motivlar faoliyatning tayanch asosini tashkil etishidadir. Motivlar– didaktik jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va ularni ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llay olish pedagogik faoliyat

mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. O'rganilganlik darajasiga ko'ra, shu kengacha motiv va uning nazariy mazmun va mohiyati yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan respublikamiz va xorijda keng tadqiq etilgan. Jumladan, E.V.Sinitsina. mashhur rus olimi motivlar muammosi, ayniqsa, talabalaridagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi [4]. Rus psixologlari orasida motivlar masalasi A.N.Leontev, L.I.Bojovich va boshqalar tomonidan o'rganilgan. A.N.Leontev XX asrning 40- yillarida talabalarda motivatsiya masalalarini ta'kidlar ekan, bu jarayon unda motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan [5]. N.T.Norqulova o'z tadqiqotida kelajakda talaba yoshlar kommunikativ muvaffaqiyati hamda kasbiy komponentligini belgilab beruvchi o'quv-biluv motivini shakllantirish bo'yicha o'z amaliy tavsiyalarini bergan [6]. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olim Yu.Platonovning yozishicha, insonga ta'sir eta bilish, samarali boshqarish, eng avvalo, uning xulq-atvori va faoliyatini boshqarib turuvchi motiv mexanizmlarini tushunish, anglash orqali amalga oshadi. Faqatgina insonni nima, qanday kuch harakatga undashini bilish orqaligina uning xulq-atvorini boshqaruvchi samarali shakl va usullarni ishlab chiqish mumkin [7]. Undan tashqari talabalarining o'quv biluv motivlarini oshirish haqida yana bir qator olimlar tadqiqot olib borishgan. Masalan, Abraham Maslow o'zining nazariyasi orqali bo'lajak pedagoglar motivatsiyani rivojlantirish va ularni ta'lim jarayonlariga jalb qilish yo'llari haqida ish olib borgan. Ed Deci va Richardyan o'zlarining "O'z-o'ziga motivatsiya" nazariyalari (Self Determination Theory) orqali ichki va tashkiliy motivatsiya ishlab chiqarish usullarini o'rganishgan. Bular bilan bir qatorda, Carol Dweck o'zining "O'sish fikri" (Growth Mindset) asari orqali talabalarining muvaffaqiyatga erishishida rag'batlantirish hamda motivlarini shakllantirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. Bu olimlarning tadqiqotlari va ilmiy izlanishlarining barchasi usullar va strategiyalar asosida isbotlangan.

Ilmiy adabiyotlarda motiv atamasiga turlicha mazmundagi ta'riflar keltirilgan bo'lib, ularning ba'zilarini havola qilamiz. Motiv – insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisidir. Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo'qqa chiqaradi.

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar oquv-biluv motivini shakllantirishning bir qator usul va metodlari mavjudki ta'lim jarayonida qo'llanilsa sezilarli o'sish va salohiyga erishish mumkin. Ushbu metodlar talabalar o'quv-biluv motivini bevosita oshiradi. Natijada esa bunday talabalar, o'z bilimlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga, yangi g'oyalarni o'rganishga va o'z kasblarida muvaffaqiyatga erishishga intilishadi. Bugungi davr ta'lim taraqqiyoti uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida innovatsion faoliyatni ta'lim jarayoniga kirib kelishiga sabab bo'ldi, shu jumladan oliy ta'limda ham. Zero, ta'limning xalqaro standartlarga munosubligini ta'minlash va yuqori malakali kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ta'lim jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro hamjamiyatda pedagogik innovatsiyalar va turli zamonaviy ta'lim texnologiyalari global miqyosda ahamiyatli ta'lim-tarbiya jarayonlarida insoniyat uchun serqirra imkoniyatlar ochib bermoqda. Bunday innovatsiyalar ta'limni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalisini belgilaydi, shuningdek axborotlashgan jamiyatda ilmiy-texnika jadal rivojlanishi va buning hayotimizdagi aks etayotganligi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Bo'lajak mutaxassislarda kelajakdagi kasblarining yetuk bilimdoni va professional bo'lishi uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek ularning o'quv-biluv motivlarini oshirish metodlaridan samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardan "SMART", "CLIL", "DEZIGN THINKING" kabi interfaol metodlarning ta'lim jarayonlarida qo'llanilishi yuqori natijadorlik va dars samaradorligini kafolatlaydi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Zero, bugungi kun ham talaba ham pedagoglardan aniq maqsadga yo'naltirilgan yuqori saviyadagi natijalarni va ilmiy yuksalishlarni talab etadi. Quyida nomlari keltirilayotgan ta'lim metodlari va innovatsion texnologiyalardan aynan talabalar o'quv-biluv motivlarini takomillashtirishda mos bo'lgan SMART texnologiyasini ko'rib chiqamiz[4].

Bu ta'lim texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy qilish uchun avvalo darsga maqsad qo'yish lozim bo'ladi. Va bu maqsad qanchalik aniq bo'lsa, qanday natijaga erishish kerakligi aniqroq bo'ladi. Darsda **SMART** maqsadlarni belgilash formativ baholash texnologiyasining elementi hisoblanadi. Ammo yondashuvning o'zi ushbu tizimdan tashqarida ham qo'llanilishi mumkin.

Smart nima? SMART – bu inglizcha "aqli" degan ma'noni anglatadi va so'zlar akronimi bo'lib, u maqsadni to'g'ri tushunib yetish va erishishga yordam beruvchi, o'ta samarali metod hisoblanadi.

Shunday qilib, SMART metodi "aqli maqsadlar"dir. Ushbu inglizcha so'zdagi har bir harf ma'lum bir tarzda shifrlangan va o'ziga xos ma'noga ega. Ushbu qadriyatlarga asoslanib, dars mazmunidan kelib chiqib maqsadlar qo'yiladi.

Specific (maxsus) - aniq. Aniq maqsad savolga aniq javob beradi: kim qanday natijalarga erishishi kerak? Darsning maqsadini belgilashda biz darsda aniq nima qilish kerakligini, o'quvchilar nimani konkret o'rganishlari kerakligini aniq bilishimiz kerak.

Measurable (o'lchovli) - o'lchanadigan. O'qituvchi maqsadni qo'yganda, uning yutuqlarini qanday baholash haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Agar yutuq mezonini shakllantirish mumkin bo'lmasa, unda maqsad noto'g'ri qo'yilgan hisoblanadi.

Achievable – (erishish mumkin). Bu yerda juda umumiy yoki juda murakkab maqsadlarni qo‘yolmaysiz. Maqsad erishish mumkin bo‘lgan haqiqiy maqsad bo‘lishi kerak.

Realistik (tegishli) - ahamiyatli. Maqsad talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, ularga kerak, ma‘lum bir ma‘noga ega. Talabalar nima uchun unga erishish kerakligini tushunishlari kerak.

Time bound (vaqt chegarasi)-vaqtga bog‘liq. Maqsad ma‘lum vaqt oralig‘iga bog‘liq bo‘lishi kerak (masalan, 80 daqiqalik dars)[3].



1-rasm. SMART ta‘lim.

Aqlli maqsadlarni belgilashning ushbu 5 printsiplari darsning maqsadlarini to‘g‘ri belgilash va shakllantirishga yordam beradi va albatta bunday qiziqarli metodlar talabalarda o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga ko‘makchi vazifasini bajaradi. Zero, aniq maqsadsiz har qanday faoliyat hech qanday natija yoki ma‘noga ega bo‘lmaydi. Undan tashqari ushbu tavsiyalar ham bo‘lajak professional kadrlarni ta‘lim jarayonlariga bevosita jalb qiluvchi yuqori samarali strategiyalar hisoblanadi: motivatsiya manbalarini aniqlash: O‘z vaqtida, talabalar o‘rtasida ichki va tashkiliy motivlarni tuzatish va ularni rivojlantirishga e‘tibor qaratish zarur. Bu, talabalarni o‘zlariga mos keladigan ta‘lim dasturlari bilan ta‘minlash orqali amalga oshirish mumkin; ta‘lim jarayonini diversifikatsiya qilish: Interaktiv va innovatsion ta‘lim usullarini qo‘llash, talabalarni faol ishtirok etishda undaydi. Masalan, didaktik o‘yin metodlari, muammoli vazifalar asosidagi ta‘lim dasturlari, kichik guruhlarda ishlash metodlari; ijtimoiy va emosional qo‘llab-quvvatlash: Talabalar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik va o‘zaro yordamni rag‘batlantirish. O‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida ijtimoiy muhitni ko‘rib chiqish o‘zaro aloqalarini moslashtirish kerak; o‘qituvchilarning professional rivojlanishi: Ta‘lim beruvchilarni doimiy izlanish, professional va o‘z bilimlarini yangilashga undash. Bu, o‘z navbatida yordam, talabalar uchun motivatsiya manbai bo‘lishi mumkin; o‘qituvchilar “Rol modeli” sifatida: Professorlar, tajribali o‘qituvchilar, mentorlar hamda ushbu sohada qiyinchilik bilan sezilarli yutuqlarga erishgan kasb egalari hayoti, bosgan yo‘llari aks ettirilgan hujjatli filmlar, videoroliklar orqali bo‘lajak mutaxassislariga ta‘sir o‘tkazish mumkin; amaliy tajriba: Talabalarga o‘qituvchilik yordamida amalda ko‘rishni berish. Praktiki mashg‘ulotlar va stajirovkalar orqali o‘qituvchilik kasbining qiziqarli va muhim tomonlarini ko‘rsatish; o‘zaro muloqot: Talabalar bilan ochiq muloqot olib borish, tahrirlash fikrlarini va istaklarini tinglash. Bu esa o‘z o‘rnida, ularni o‘z maqsadlariga erishishga undaydi; ta‘limning ahamiyati: O‘qituvchilik kasbining jamiyatdagi o‘rni va ta‘limning kelajagi uchun ahamiyatini oshirish. Bu, talabalarni o‘z kasblariga nisbatan mas‘uliyatli yondashishga undaydi; motivatsion dasturlar: Seminarlar, konferensiyalar va treninglar o‘tkazish orqali talabalarni o‘qituvchilik kasbiga qiziqitirish. Bu manbalar orqali va motivatsiya olishni yaratish; yutuqlarni tan olish: Talabalar o‘z yutuqlarini tan olish orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttirish; konstruktiv fikr-mulohazalarni taklif etish: Talabalarning ishi bo‘yicha aniq va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish, kuch va yaxshilanish sohasini ajratib ko‘rsatish. Bu ularlarga qanday qilib intellektual jihatdan o‘shirish mumkinligini tushunishga yordam beradi[6].

Xulosa. Yuqorida ta‘kidlangan fikrlardan shular ma‘lum bo‘ldiki, talabalarni ta‘lim jarayonlariga qiziqitirish ularning motivatsiyalarini oshirish va munosib yetuk, barkamol kadrlar bo‘lib shakllanishlari, ularning intellektual salohiyatini tarbiyalash va rag‘batlantirishni ta‘lim amaliyoti tarkibiga kiritish birgalikda harakat qilishni talab qiladi. Ijobiy mustahkamlash va mazmunli hamda samarali ta‘limni tashkil etib, ularning ijodiy, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, hozirgi zamon mehnat bozori tamoyillariga munosib ravishda shakllanishiga va ilmiy mukammallikka intilishga ilhomlantirishi mumkin. Ta‘lim- manfaatdor tomonlar rag‘batlantirish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni talant, iste‘dod va har bir ta‘lim oluvchi shaxslar qobiliyatini qulfini ochish uchun muhim ahamiyatga ega unsurlardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamizl.- T.:O‘zbekiston, 2016 - 16 b.
2. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.].
3. Falsafa: (O‘quv qo‘llanma) E.Y.Yusupovning umumiy tahriri ostida.- T.:ISharqI, 1999 - 496 b.
4. Sinitsina A. “Психологические характеристики учебной мотивации студентов”, РФ 2004.194-196-betlar
5. Leontev A.N. “Umumiy psixologiya “278-bet, Toshkent -2009
6. Норкулова Н.Т. Ёшлар маънавиятида аффилиция мотивацияси психологияси. – Т.: «Fan va Texnologiya», 2015. 107-6
7. Платонов Ю.П. Социальная психология поведения: Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2006. –С. 464

Muallif:

Bozorov Vakhobiddin Nuriddinovich - Base doctoral student of the Department “Pedagogy” of Bukhara State University.

UDK 378.112.4:004

PROYEKSION CHIZMACHILIKNI O‘QITISHDA TALABALARNING FAZOVIIY TASAVVURLARINI OSHIRISHDA GRAFIK DASTURLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

THE UNIQUE ROLE OF GRAPHIC PROGRAMS IN IMPROVING STUDENTS' SPATIAL IMAGINATION IN THE TEACHING OF PROJECTION DRAWING.

УНИКАЛЬНАЯ РОЛЬ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОЕКЦИОННОМУ РИСУНИЮ.

Xamidova Gulmira Xamidovna

Navoiy davlat universiteti, 210100, Navoiy viloyat, Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy.

E-mail: xamidovagulmira9@gmail.com

Abstract. The article contains brief suggestions about the importance of e-learning technologies in mastering the science of drawing and how to easily share the problems and shortcomings encountered. It is noted that multimedia tools significantly expand the visibility of the educational process, that is, the use of models, graphics, colors, sound, and video technology increases cognitive activity[16]. Today, researchers and teacher educators are creating electronic textbooks and making great contributions to the effectiveness of education. In the process of using electronic textbooks, the student feels free, sees topics and colors pictures on the screen, reviews them, solves tasks step by step and has the opportunity to return after each step[17]. This makes it easier for the student to understand the material needed to complete the assignment and builds self-confidence. The traditional method of teaching projection drawing has been used for many years, but, like any subject, it is developed and enriched with new forms and methods. Modern information technologies make it possible to use different approaches to the methods of teaching a given subject and to the organization of the educational process as a whole. The use of modern technical means in improving the graphic training of students serves to make the learning process more convenient, interesting and consciously understand the educational material.

Key words: drawing, projection drawing, topographic drawing, innovation, visualization, graphic programs, media communication, electronic textbook, information technology, artificial intelligence.

Абстрактный. В государстве содержатся краткие предложения о важности технологий электронного обучения в освоении науки рисования и о том, как легко делиться возникающими проблемами и недостатками. Отмечается, что средства мультимедиа мультимедиа существенно расширяют обзор учебного процесса, есть использование моделей, графики, цветов, звуковикс и видеотехнологий повышает познавательную деятельность[16]. Сегодня исследователи и педагоги-преподаватели создают электронные учебники и вносят большой вклад в эффективность образования. В процессе использования электронных учебников обучающийся чувствует себя свободно, видит темы и раскрашивает картинки на экране, пересматривает их, пошагово решает задания и имеет возможность вернуться после каждого шага.[17] Благодаря этому учащемуся легче понять материал, необходимый для выполнения данного задания, и появляется уверенность в себе. Традиционный метод обучения проекционному рисованию используется уже много лет, но, как и любой предмет, он развивается и обогащается новыми формами и методами. Современные информационные технологии позволяют использовать разные подходы к методам преподавания данного предмета и к организации учебного процесса в целом. Использование современных технических средств при совершенствовании графической подготовки учащихся служит тому, чтобы сделать учебный процесс более удобным, интересным и осознанно понимать учебный материал.

Ключевые слова: рисунок, проекционный рисунок, топографический рисунок, инновации, визуализация, графические программы, медиакommunikации, электронный учебник, информационные технологии, интеллектуальный интеллект.

Kirish. Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot masalalarida elektron ta‘lim texnologiyalar nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish integrativ yondashuvlardan foydalanish, ta‘limda internet texnologiyalari, elektron ta‘lim tizimlaridan shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilmoqda. Shu bilan birga muxandislik grafikasi o‘qituvchilarini tizimli tayyorlash, metodik ta‘minotni takomillashtirish, jamiyatni axborotlashgan bosqichga olib chiqish, internet texnologiyalaridan foydalanishda mediakommunikatsiya, o‘zini o‘zi o‘qitish, ochiq onlayn ta‘lim tizimini qurishning axborot-metodik ta‘minotini yaratish, malakali, zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda yangi, zamonaviy bilim maskanlari, shu jumladan, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil topgan bo‘lib, soha faoliyatlari yanada takomillashtirilib kelmoqda.

Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta islox qilish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlashga zarur

shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 yanvardagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori qabul qilindi. [1]

Ta’lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, elektron doska, dars jarayoni uchun maxsus jihozlangan auditoriyalar talabalarga o‘qituvchi va talabalarga qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda. Bunday sharoitda ta’lim olgan talabalar fanlar bo‘yicha bilim olishlari va ularni ko‘nikmaga aylantirishlari uchun yordam beradi.[9]

Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlar uning xom-ashyosi yo‘nalishida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga o‘tayotganligi kasb-hunar ta’limiga butunlay yangi vazifalar qo‘ymoqda. Ular endi malakali ishchilargina emas, balki har biri bir necha kasbni egallagan texnik xodimlarni ham yetkazib berishlari kerak. Kasbiy-texnik xodim ishlab chiqarish harakteriga tez moslashuvchi mutaxassis bo‘lib, u davlat va nodavlat korxonalarida faoliyat ko‘rsatib keta olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim[8]. Bu, o‘z navbatida, ta’limning keyingi bosqichi uchun o‘ziga xos zamin vazifasini o‘taydi.

Malakali mutaxassislar tayyorlash va aholi bilim darajasini ko‘tarish mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shu munosabat bilan respublikamizning istiqloq yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk mamlakatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, millat ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminin mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shunday ekan, vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘sha oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarish tizimida yuqori natijalarga erisha oladigan jahon standartlariga mos mutaxassislarni tayyorlash bugungi ta’lim tizimiga qo‘yiladigan asosiy talablaridan biridir.

Proeksion chizmachilik fanini innovatsion grafik dasturlar asosida o‘qitishni samaradorligi shundaki, topografik chizmalarni o‘qishda, chizmalarni chizishda, talabalarining chizma haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lishlarida grafik dasturlarning tovushli va animatsiyalarning o‘rni beqiyosdir[10]. Ular yordamida chizma haqida to‘liq tushunchaga va tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Innovatsiya haqida so‘z borar ekan u haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz kerak deb o‘ylayman.

Innovatsiya[18] - foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o‘rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o‘rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. “Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovation kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeter ning ilmiy ishlarida atama sifatida fanga kirib kelgan. Innovatsiyalar bu bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirishdir.

Zamonaviy grafik dasturlar orqali darslarni tashkil qilish- bu vizual axborotlarni yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga mo‘ljallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish jarayonidir.

Kompyuter texnologiyalari o‘quv jarayonidagi mexanik takrorlash uchun zarur bo‘lgan vaqtni qisqartiradi[11]. Misol uchun, talabalar darsning nazariy bayonlarini yozish o‘rniga, darslikni ma’lumot tashuvchilarga ko‘chirib olishlari mumkin va bu dars vaqtining ma’lum qismini tejashga yordam beradi. Grafik yoki kurs ishlarini, shuningdek, kurs va diplom loyihalarini bajarishda pedagogik yo‘llanma va maslahat berish uchun ajratilgan vaqt qisqartiriladi. Agar test yozma nazorati an‘anaviy usulda emas zamonaviy kompyuter vositalaridan foydalanib tashkillashtirilsa, bu pedagog vaqtining yana bir qismini tejash imkonini beradi.

Ta’lim tizimida zamonaviy grafik dasturlar va kompyuter texnologiyalarini jadal sur‘atlar bilan joriy etilishi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash sohasini kengaytiradi va ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan quyidagi yo‘nalishlarini alohida ta’kidlash mumkin: O‘quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o‘qitish vositasi, o‘rganish ob‘ekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish; O‘quv-metodik majmualar yaratishda, o‘quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integratsiyasi. Bunday majmualardan foydalanish talabaga o‘rganilayotgan jarayon haqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar negizidagi o‘quv-namoyish majmualarining qo‘llanilishi individual va jamoaviy eksperiment faoliyatni tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa, talabalarda intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytiradi; Multimedia tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyasiga erishish. Bunday tizimlar o‘zida dasturiy vositalar va asboblarni majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko‘rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Multimedia tizimlaridan foydalanish, faol o‘qitish metodlari va shakllarini joriy etishni ta’minlaydi, axborotlarni qabul qilinish darajasini oshiradi; Sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan intellektual o‘qitish tizimlarini yaratishda foydalanish. Bunday o‘qitish tizimlari mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish, mustaqil ravishda bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quv faoliyatini intellektuallashtirishni rivojlantirishga zamin yaratadi. Bularning barchasi talaba shaxsini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi; Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashinuvini ta’minlovchi axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish. Axborot va kommunikatsiya aloqasi (sinxron, asinxron) qisqa vaqtda ilg‘or

innovatsion texnologiyalarning tarqalishiga, talabalarining umumiy rivojlanishiga yordam beradi; Axborot almashinuvining yangi texnologiyasi- bu real vaqt rejimida stereoskopik tasavvur tizimini, ya'ni "Virtual haqiqiylik" hisoblanadi.

Bizga ma'lumki proeksion chizmachilik fanining ma'ruza mashg'ulotlari murakkab chizmalar bilan birga olib boriladi, ular ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikda algoritmlar asosida aniq ishlashini talab qiladi.[6] Shuning uchun doskada bo'lar. Lineyka va sirkuldan foydalangan holda an'anaviy tarzda chizmalarni bajarish samarasizdir.

An'anaviy va multimediali o'qitish tizimlardan foydalangan holda ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, oxirgi holatda talabalarining bilimlarini o'zlashtirish faolligi, hajmi va sifati sezilarli darajada oshgan. Multimedia vositalari o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini sezilarli darajada kengaytirdi: modellar, grafika, ranglar, ovoz, videotexnikadan foydalanish. Ushbu xilma-xillik turli xil o'quv vaziyatlarini, shu jumladan, o'quv o'yinlarini modellashtirishga imkon beradi. Bo'lajak bitiruvchilarning bilim sifatini oshirish istagida, proeksion chizmachilik fanni o'qituvchilari o'quv vaziyatlarida shaxsiy kompyuterdan foydalanib, turli xil texnologiyalarini qo'llashga intiladilar.

Proeksion chizmachilik fanida ma'ruza mashg'ulotlarini olib borish vaqtida, doskada mavzu bo'yicha chizma chizish va talabalar uni daftarlariga ko'chirishlari kerak. Ammo ko'pincha bitta chizmani doskada ko'rsatishning o'zi yetarli emas[5]. Tayyor chizmalarni jalb qilish zarurati tug'iladi. Ushbu chizmalarga vaqt yetishmasligi va ba'zan murakkabligi tufayli doskada bajarishning imkoni yo'q.

Ma'ruzani kompyuterda yaratish quyidagi afzalliklarga ega: ekrandagi vizual axborotning sifati auditoriya doskasidagi axborotga nisbatan yuqori; proeksion chizmachilik fani bo'yicha materiallar, ma'ruzaning yuqori ko'rgazmali bo'lgani tufayli osonroq o'zlashtiriladi; talabalarda ma'ruza matni to'liq bo'ladi; bayon qilish tezligi oddiy ma'ruzaga nisbatan yuqori; agar biron-bir talabada keyinchalik savol paydo bo'lsa, o'qituvchi onsogina bosqichma-bosqich oldingi chizmaga qaytishi mumkin; elektron ma'ruzaning an'anaviy darsga o'xshashligi unga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, fazoviy fikrlash rivojlanishiga ko'maklashadi.

Proeksion chizmachilik fanini o'qitishda grafik dasturlardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi: o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter va pedagogik texnologiyalarni birgalikda qo'llash; elektron darslik yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish; turli darajadagi ko'p variantli test savollarini tuzish; etakchi o'qituvchilar darslarini video-darslar ko'rinishidagi elektron darslik tarkibiga kiritish; 2D va 3D grafik dasturlaridan foydalanish;[2] qog'oz va kompyuter variantida grafik ishlarni birgalikda bajarish; o'quv materialining real hayot bilan birga bog'lash.

Pedagogik imkoniyatlarining ortib borishi natijasida esa o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, zamonaviy grafik dasturlar, elektron dasturiy vositalar, multimediali ilovalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.[14] Chizmalarni tasavvur qilish elektron tovush, tasvir, vizuallizatsiyalash, matn ko'rinishlaridan o'quv-tarbiya maqsadini ro'yobga chiqarishda samarali hisoblangan grafik dasturlar yordamida o'qitish ta'limga kirib keldi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish har bir o'quvchiga alohida yondashish orqali amalga oshiriluvchi jarayondir.

Talabalarining mustaqil va ijodiy fikrlash mahoratlarini quyidagi 3 ta darajaga ajratish mumkin: Talaba muammoni yechish, topshiriqlarni bajarish yo'llarini o'zi izlaydi, mustaqil fikrlab, mulohaza yuritadi; Talaba berilgan topshiriq yoki vazifani mustaqil bajaradi, ammo ijodiy yondasholmaydi. Mustaqil holda topshiriqni bajarishda muammolarni hal etadi, ammo natija qanchalik darajada to'g'riligini kuzatmaydi. Berilgan topshiriq yoki muammoli masalaga o'xshashlarini tuza oladi; Muammoning tayyor yechimlaridan foydalanishga intiladi. Muammoni yechishda qiyinchilikka duch kelishi bilan yordam so'raydi. Muammoli masalani yoki topshiriqni mustaqil yechishda qobiliyati yetmaydi[15].

Grafik dasturlar yordamida ta'lim berishdan maqsad shuki, bilim oluvchilarga bilimlar bazasining zamonaviy ko'rinishi va birgalikda o'rganayotgan mavzularni yaxshi o'zlashtirishi, bilimlarini boyitishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, olgan bilimlari yordamida o'z ishlariga ijodiy yondashishi aniq maqsad sari olg'a borishlariga va tadqiqotchilik faoliyatlarini yuqori darajaga ko'tarishdan iborat[12].

Ta'lim jarayonida grafik dasturlardan foydalanish, kompyuter dasturiy ta'minoti va texnik vositalari matn, jadval, tasvir, audio, video, animatsiya effektlari yordamida talabalarga dars materiallarini taqdim etish mo'ljallangan dasturiy vosita ko'rinishidir.

Ayni paytda tahliliy xulosalarga asoslangan holda e'tirof etish mumkinki, o'qitishda grafik dasturlarni grafik ta'lim amaliyotiga tatbiq etish talabalarining fazoviy tasavvurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi, ya'ni "Proeksion chizmachilik" fanini igratik dasturlari asosida o'qitish talabalarining fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish natijasida grafik ta'lim sifati va samaradorligi ortadi. Demak, tadqiqotning birinchi bobidagi ilmiy xulosalar dissertatsiya mavzusining zamonaviy grafik ta'lim uchun dolzarb bo'lgan muammoning ilmiy-amaliy yechimiga qaratilganligin anglatadi.

Ta'lim tizimida grafik dasturlardan foydalanish: birinchidan, o'rganish ob'ekti sifatida; ikkinchidan birong'bir fanni o'qitishda (uning mazmun mohiyatiga ta'sir etmagan holda) vosita sifatida ishtirok etishi aniqlandi.

Talabalarining individual psixologik xususiyatlari o'rganilib, muhandislik grafikasi fanlarini talab doirasida o'zlashtirishlari uchun fazoviy tasavvurni rivojlantirish muhim omil ekanligi va uni rivojlantirishda grafik dasturlarning

imkoniyatlaridan to'liq foydalanish ijobiy natija berishi aoslandi. Fazoviy tasavvurni tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilish davri to'rt bosqichga bo'linishi yoritib berildi.

Fazoviy tasavvur rivojlanishining quyidagi ko'rsatkichlari aniqlandi: tasavvurning chuqurligi, kengligi, moslashuvchanligi, barqarorligi, dinamikasi, to'liqligi va maqsadga yo'naltirilganligi.

“Proeक्सion chizmachilik” fanidan o'quv adabiyotlarni ilmiy, pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish quyidagilar xulosalarni ilgari surishga asos bo'ldi: Proeक्सion chizmachilik fani bo'yicha o'quv adabiyotlarini asosan chizma, jadval, rasm va boshqa (illyustrativ) materiallar tashkil etadi; Proeक्सion chizmachilikka oid o'quv adabiyotlarida chizmalar, topshiriqlar to'plamlari va ularning bajarilish namunalari bosma shakldaligi hamda bir xil rangdaligi talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda passiv o'rin egallaydi. Bundan tashqari talabalar qisqa vaqt oraligida chizilayotgan chizma haqida fazoviy tasavvurga ega bo'lishi va mavzularning mustaqil ravishda o'zlashtirilishida ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi; o'quv adabiyotlarida proeक्सion chizmachilikka oid masalalar yechimlarining bir necha bosqichlarda ko'rsatilishi o'quv adabiyoti hajmini hamda ulardagi illyustratsiyalarni rangli ko'rinishda chop etish kitoblar narxini oshirib yuboradi.

“Proeक्सion chizmachilik” zamonaviy masalalaridan biri uni o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirishda grafik dasturlarini keng ko'lamda qo'llashdir. Tadqiqotning birinchi bobida grafik dasturlar asosida talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga qo'llash zarur bo'lgan grafik dasturlar tuzilishining strukturasi keltirilgan. Uning asosida o'zlashtirilayotgan bilimlarni talabalar fazoviy tasavvuri rivojlangan holda oson, qulay va mustaqil o'zlashtirish imkoniyati hamda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutishi nazariy jihatdan isbotlandi. Proeक्सion chizmachilikni o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish uchun har tomonlama qulay bo'lgan grafik dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quv jarayonida proeक्सion chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlar vositalariga bog'lab o'tilsa ko'pgina qulayliklarga, imkoniyatlarga ega bo'lardik. An'anaviy ta'lim amaliyotida, odatda talabalarning grafik bilimlari, jumladan ularning fazoviy tasavvurlari amaliy topshiriqlar vositasida shakllantiriladi. Oddiy o'qitishda talabalarning fanga oid fazoviy tasavvurlarini grafik dasturlarsiz ham rivojlantirish mumkin, lekin bunga juda ko'p vaqt talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2020 yildagi PQ-4623-son.
2. T.Rixsiboyev., Kompyuter grafikasi. Toshkent, «Tafakkur qanoti», 2006.
3. S.S.Saydaliyev, «Chizmachilik», T.:, 2013.
4. A. To'xtayev, Mashinasozlik chizmachiligi, T., O'zbekiston, 2010.
5. I.Raxmonov Chizmachilikdan ma'lumotnoma, “O'quv qo'llanma” T.:, 2005.
6. A.Valiyev. Chizmachilik (Geometrik chizmachilik), T.:, TDPU , 2020.
7. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 yanvardagi “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4623-son Qarori
8. 9. Шавди́ров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
9. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 192-198.
10. Xamidova, G. X. (2024). Chizmachilik fanini o'qitishda grafik dasturlardan foydalanish va metodikasini takomillashtirish. *Inter education & global study*, (1), 34-44.
11. Xamidova, G. X. (2024). Talabalarga zamonaviy kompyuter grafik dasturlari yordamida chizmachilik fanlarini o'rgatish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. *Inter education & global study*, (1), 63-72.
12. Xamidovna, X. G., & Durdona, R. (2023). Chizmachilik fanini o'zlashtirishda grafik dasturlardan foydalanishning ahamiyati va zarurati. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 52-58.
13. Xamidovna, X. G., & To'xtaqulovna, V. A. (2024). Ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, hozirgi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va xorijiy davlatlarning nufuzli otmlariga qisqa muddatli malaka oshirish. *Scientific approach to the modern education system*, 3(29), 87-91.
14. Bobomurodova S. A. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – C. 73-82.
15. Choriyev S. N. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI VA RAHBAR IMIDJINI YARATISH //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 222-225.
16. Maqsudov, Ulug'bek Qurbonovich, Eraliyev, Yo'ldoshali, Qosimova, Gulzoda TA'LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI // ORIENSS. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-multimedial-i-vositalardan-foydalanishning-pedagogik-xususiyatlari> (дата обращения: 13.11.2024)
17. <https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-0-1-pp133-136>
18. <https://kitobsehri.uz/>

Muallif:

Xamidova Gulmira Xamidovna, o'qituvchi. O'zbekiston, 117036, Navoiy, Tolstoy ko'chasi, 36A.

UDK 372.878

STATUS AND PROCESSING OF CLASSICAL MUSICAL WORKS

MAQOM VA MUMTOZ MUSIQIY ASARLARNI QAYTA ISHLASH

СТАТУС И ОБРАБОТКА КЛАССИЧЕСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ.

Sultonov Abdurahim Abduraxmonovich, Abdurasulov Baxodir Saydurasulovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Guliston shahri. IV-mavze.

E-mail: sultonovabduraxim48@gmail.com. baxodirabdurasulov@29gmail.com

Abstract: Bringing the masterpieces of our national-classical music art, which have been formed and refined for thousands of years, especially our statuses, to the fans, especially the young generation, in a new style, new ways of performance, instilling them into their hearts and minds is the most important creative achievement of today. Classical and national musical works with modern decorations, in different performance styles and ways of performance for each instrument; In today's language, "arrangement" performance, i.e. decoration, gives effective results in the performance of national music art. In this creative approach, our statuses are more impressively interpreted in terms of Sarakhbors, tarons and chants - both dynamically and in terms of the use of musical means of expression.

Key words: Statuses, new style, ways of performance, modern musical ornaments, dynamics, means of expression.

Аннотация: Донести до поклонников, особенно молодого поколения, в новом стиле и новых способах исполнения шедевры нашего национально-классического музыкального искусства, формировавшиеся и совершенствовавшиеся тысячелетиями, особенно наши статусы, и привить их сердца и умы – важнейшее творческое достижение современности. Классические и национальные музыкальные произведения в современном оформлении, в разных стилях исполнения и способах исполнения для каждого инструмента; Говоря современным языком, эффектные результаты в исполнении национального музыкального искусства дает «аранжировка», т. е. декорирование. При таком творческом подходе наши статусы более выразительно интерпретируются в терминах сарахборов, таронов и песнопений – как в динамическом плане, так и в плане использования музыкальных выразительных средств.

Ключевые слова: Статусы, новый стиль, способы исполнения, современные музыкальные украшения, динамика, средства выразительности.

Kirish. O'tgan XX asrda yashab, ijodiy faoliyat yuritgan bastakor va kompozitorlar ham san'atsevar xalqimizning qalb to'ridan joy olgan ko'plab maqom va boshqa milliy-mumtoz musiqiy asarlar asosida, yangicha uslubda, muzikali drama, ashula, ariya, duet va qo'shiqlar yaratishgan. Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burxonov, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov, To'xtasin Jalilov, Doni Zokirov, Muhammadjon Mirzaev va boshqa ijodkorlarning asarlarida maqom va mumtoz ohanglarimizning yangicha ijro uslubida namoyish etilganligining guvohi bo'lganmiz. Tabarruk nomlari zikr etilgan ijodkorlarimizning musiqa san'atining musiqali drama, opera, xor, akapella, ariya, duet, ashula singari janrlarida yaratgan ijodiy namunalari tahsinga sazovordir. O'sha davrlarda ijodkorlar tomonidan yaratilgan "Maysaraning ishi", "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun", "Nurxon", "Navoiy Astrobodda", "Toshbolta oshiq" musiqali dramalari va operalari, "Tohir va Zuhra", "Mahallada duv-duv gap", "Maftuningman", "O'tkan kunlar", "Furqat", "Nodirabegim" badiiy filmlariga yaratilgan milliy ohanglar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shu o'rinda Akademik shoir G'afur G'ulom she'riga O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'raev ijro etgan ushbu qo'shiq yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaganining guvohi bo'lamiz.

"Bu san'atni kuylaganda osmon yangrar. Elimizning durdonasi bo'lgan san'atim,

O'zbek uyini har burchida avji jaranglar. Halimasi ham Sorasi bo'lgan san'atim".

Ustozlarning san'atidan tuzing ohanglar,

Darhaqiqat yaratilgan musiqiy asarlarning ashula, qo'shiq, duet, ariya, kuy va ohanglarning umri boqiyiligining asosiy sababi – ularning milliy va mumtoz ohanglarga yo'g'rilganligi, ota-bobolarimiz kuylagan maqomlar, dostonlar, baxshiyonalar, aytishuvlar, xalqona ohanglar, o'lan va laparlar asosida yaratilganligidandir. Shu bois milliy kuy va ashularimiz yaratilganiga ming yillar o'tsa ham zarracha "ohori to'kilmay", qalbimizga orom, jismimizga huzur bag'ishlab, qulog'imizga hush yoqaveradi.

Aslida Muqaddas Qur'oni Karim oyatlari ham arabiy ohanglarda "qiroat" bilan o'qiladi. Bu qiroatlarda insonlarga farz bo'lgan pand-nasihatlari eng yoqimli ohanglar bilan taraladi. XX asr arab musiqasi ham asosan mana shu qiroatlarning sehirli ohanglari asosida yaratilgan. O'tgan asrning mashhur arab bastakori va xonandasi Ummu Gulsum o'zining ijro etgan qo'shiqlarida Qur'oni Karim oyatlarining yoqimli qiroatlaridan barakali foydalangan. Ummu Gulsumning otasi qishloq masjidining imomi bo'lgan. Oilasi kambag'al oilalardan bo'lib, otasi to'y-hashamlarda qo'shiq aytib ro'zg'orini tebratgan va qiziga Qur'oni Karim oyatlarini qiroat bilan yoddan o'qishni o'rgatgan. Mana shu mashg'ulotlar uning dunyoga tanilgan buyuk xonanda bo'lishiga sabab bo'lgan. Xonandaning ovoz diapozoni 2 oktavadan ortiq bo'lib, repertuaridan 300dan

ortiq arab xalq qo'shiqlari joy olgan. Ummu Gulsumning qo'shiqlari asosan Ajam, Rost, Kurd, Nahavand, Bayot, Sab'a maqomlari ohanglari asosida kuylangan.

Bu uslub, ya'ni qiroatlardan foydalanib musiqiy asarlar yaratish, qo'shiq aytish arab dunyosining barcha mamlakatlarida keng urfga aylangan. O'zbek estradasining atoqli xonandasi, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov kuylagan "Arab tangosi" qo'shig'i ham ana shu mo'tabar qiroatlar asosida ijro etilgan. Arab dunyosi mamlakatlari ijodkorlari tomonidan ekran yuzini ko'rgan badiiy filmlarga bastalangan musiqalar, simfonik musiqiy asarlarning tamal toshi – bu shak-shubhasiz Qur'oni Karim oyatlari qiroati ohanglaridir.

Ozarbayjon, Eron va Turkiya mamlakatlarida qadimiy "Mug'om" san'ati mukammal tarzda rivojlangan. "Mug'om"larning doira usulisiz va belgilangan mug'om usullari bilan ijro etilishidan albatta zamonaviy musiqa san'ati, xususan ashula, qo'shiq ijrochiligida keng foydalanilgan. Uzeir Hojibekov, Tofik Kuliev, Kara Karaev, Fikret Amirov, Shafiq Axundova kabi kompozitorlar musiqiy asarlarida, musiqali drama, opera, xor, a kapella, ariya, duet, ashula singari ijrochilik janrlarida, Rashid Beybutov, Bulbul Mamedov, Shevket Alikperova, Zaynab Xonlarova singari dunyoga tanilgan xonandalar yaratgan va ijro etgan ashula, qo'shiq singari ijrochilik janrlarida, "Mug'om" san'ati nag'malarining ohanglari keng qamrovli mumtoz musiqa san'ati ihlosmandlarini, zukko tinglovchi larning qalbini zabt etib kelmoqda. Ulug' kompozitor, dirijyor, jamoat arbobi Uzeir Hojibekovning "Arshin molalan", "Leyli va Mejnun", "Kyorogli" musiqali drama va operalari aynan shu benazir mug'om taronalari asosida yaratilgan. Ozarbayjonlik xonandalar Rashid Beybutov, Bulbul Mamedov, Shevket Alikperova va Zaynab Xonlarovalarning reperturlarida "mug'om" ohanglari ham keng joy olgan.

Hind milliy musiqa san'ati uch ming yillik davr davomida "Raga" milliy musiqa ijrochiligi negizida rivojlanib kelgan. Ushbu milliy ijrochilik janrida uchta asosiy ijro yo'nalishi mavjud. Bu yo'nalishlarning birinchisi – musiqa ijrochiligi. Hind milliy cholg'u sozlari setor, tabla, nay va nog'ora jo'rligida ijro etilib, musiqalar ritmik jihatdan sinkopa usulida talqin qilinadi. Bu musiqa ijrosi ikkinchi yo'nalish – xonanda ijrosi bilan qat'iy bir-xil ritmda ijro etiladi. Musiqa va qo'shiq uchinchi yo'nalish - raqs harakatlari bilan birga, ritmik jihatdan unison (bir usulda) shaklda talqin etiladi. Bu ijrolar, ya'ni asl holatdagi "raga"larning ijrosi XX asrda butun dunyo kino ekranlarida mashhur bo'lgan hind kinofilmlarida ham ijro etilgan. Hind ijodkorlari suratga olishgan "Uch dengiz osha sayohat", "Changda qolgan gul", "Dunyo", "Hamroz" va boshqa bir qancha badiiy filmlarida "raga"lar ijrosini ko'rishingiz mumkin.

Bugungi kun hind milliy musiqasida ijro uslublari eng yuqori darajada rivojlangan. Mashhur hindistonlik kompozitorlar S. Choudxuri, A. Vishvas, Jeynishan, Lakshmikanth Pyarelal, Anu Moliklarning musiqiy asarlari hind milliy musiqa san'ati durdonasi bo'lmish "raga"lar ohanglari negizida yaratilgan. Filmlarda yuksak mahorat bilan ijro etilgan qo'shiqlarni dunyoga nomlari mashhur bo'lgan Tal'at Mahmud, Gita Datt, Shamshodbegim, Lata Mangeshkar, Muhammad Rafi, Mukesh va boshqa xonandalar ijro etishgan. Hind mumtoz musiqa ijrochiligida Ravi Shankar, Ali Akbar Xon, Xariprasad Chaurasiya, Sandhya Mukerjilar dunyoga mashhur sozandalar bo'lishgan. Bu san'atkorlarning genial ijrolari Hindistonda ishlab chiqarilgan kino filmlar orqali kurrai zaminimizning har burchidan o'z ihlosmandlarini maftun qilishga muvassar bo'ldi [2].

Mumtoz musiqiy asarlarga, xususan Yevropa va g'arb dunyosi mamlakatlari kompozitorining durdona yaratqilariga yangidan "jon kiritib", yangicha, zamonaviy elektron cholg'u sozlar imkoniyatlaridan foydalanish – XX asrning 60-70 yillarida dunyo sahnalarida namoyon bo'la boshladi. Buyuk kompozitorlar I.S. Bax, L.V. Betxoven, V.A. Motsart, J. Bize, I. Brams, A. Vivaldi va boshqa kompozitorlarning "shedevr" asarlari elektron cholg'u sozlaridan tashkil topgan Vokal Cholg'u Ansambllari "Bitlz", "Smoki", "Boni M", "AVVA" estrada jamoalari reperturlaridan o'rin oldi. Bu nomdor guruxlar o'zlarining zamonaviy qo'shiqlarini kuylash barobarida buyuk kompozitorlarning "shoh" asarlaridan foydalanib, ularni zamonaviy uslubda kuylashib muxlislarga havola etishgan. Demak, mumtoz musiqiy asarlar, maqomlar, mug'omlar, qiroatlar, ragalar va boshqa xalq ijodiyoti namunalari - bugungi kunda yaratilgan va yaratilayotgan musiqiy asarlarning sarchashmasi, ilk tomiri, tamaddunidir.

Shashmaqom – bu bitmas-tuganmas musiqiy hazina. O'tgan XX asrda yashab, ijod qilgan hofizlar, bastakorlar, xonandayu-sozandalar avvalo mana shu sarchashma hazinasidan to'yib suv ichib, so'ng o'zlarining o'lmas musiqiy asarlarini yaratganlar. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov, Fahriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Orifxon Hotamov va boshqa ko'plab bastakor va hofizlarning yaratgan, hamda ijro etgan musiqiy asarlarining bugungi kunlarimizgacha san'atsevar xalqimizning e'tiborida bo'layotganligi, e'zozlanib tinglanayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi [3].

Maqom va mumtoz musiqa san'ati ijrochiligi shinavandalari, mutaxassislari va ijrochilariga yaxshi ma'lumki, Shashmaqom to'liq tarzda Saraxbor va taronalari bilan O'zbekiston Radiotelevideniyesi qoshidagi Maqomchilar ansambli jamoasi tomonidan ilk bora 1968-yilda, Ulug' mutafakkir shoir Mir Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan Akademik Yunus Rajabiy rahbarligida magnit tasmlariga tushirilgan. Ustoz hofiz va sozandalarning bu tuhfalari hali hamon muxlislarning qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Bizning avlod ana shu durdona ashula va cholg'u kuylarining maftunkor ohangi bilan ulg'ayganmiz. Bu sharafli, mas'uliyatli, ijodiy mahsulotlarni elimizga tarannum etilishida, mumtoz navolarni ijro qilinishida zahmat chekkan barcha ustozlarning ohiratlari obod bo'lsin.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

O'tgan asrning 90-yillarida Shashmaqom yana bir bor O'zbekiston Radiotelevidenie kompaniyasi qoshidagi Maqomchilar ansambli jamoasi tomonidan jamoa badiiy rahbari O'zbekiston xalq artisti, mohir bastakor va sozanda Abduhoshim Ismoilov rahbarligida magnit tasmlariga yozildi. Zamonlar o'tishi bilan maqom ijrochiligi uslublari, ijro yo'llari, badiiy bezaklari ham yanada mukammallashdi. Ustozlar izidan borayotgan iste'dodli shogirdlar, yuksak ijrochilik mahoratiga ega bo'lgan xonanda va sozandalar talqinida bu tabarruk navolar qaytadan ijro etilib, mutaxassislarning, muxlislarning sevimli musiqiy yozuvlariga aylandi.

2017-yil 17-noyabrda Muhtaram Prezidentimizning "Milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish va uni yoshlar ongiga singdirish" to'g'risidagi qarori imzolandi [1]. Keyingi yuz yilda maqom san'atiga mamlakat rahbari darajasida birinchi bor shunday e'tibor, e'tirof, e'zoz. Barcha viloyatlarda Namunali "Maqom ansambllari" tashkil etilishi, Respublika Maqom Markazining rahbar tashkilot sifatida shakllantirilishi, Toshkent shahrida Yunus Rajabiy nomidagi Milliy Maqom San'ati Institutining ochilishi – bu ezgu ishlar milliy maqom san'ati ihlosmandlariga, mumtoz musiqa san'ati fidoyilariga juda katta ahamiyatga molik qaror bo'ldi. Bu qaror O'zbekiston Radiotelevidenie kompaniyasi qoshidagi Maqomchilar ansambli jamoasi ustoz san'atkorlari, ijodkor yoshlar va xonanda-sozandalarning kuchiga-kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shdi.

Jamoa rahbari Abduhoshim Ismoilov maqom ashulalarini yangicha ko'rinishda, o'zgacha tarovat bilan zamonaviy til bilan aytganda "oranjirovka" tarzida, sozandalar uchun alohida, xonandalar uchun alohida ijro uslublari ya'ni keksayu-yoshga birday yoqimli bo'ladigan musiqiy ohanglar, turli xil bezaklar bilan, ijro ifoda vositalarini sayqallantirib talqin etilishini qo'llab magnit tasmlariga tushirdi. Bu ijrolarda tinglovchining, zukko shinavanda muxlisning ham qalbining nozik torlarini cherta oladigan qochirimlar, nolalar o'zgacha uslubda talqin etilishini tinglab maza qilasiz. Cholg'u sozlarining sozandalar ijrosida ijro etiladigan asar usulini bir-xil, bir nafasda, xuddi bir cholg'u sozida chalinganday jo'r bo'lib chalinishining guvohi bo'lasiz. Hozirgacha maqomlar Saraxborlari, taronalari, 1 va 2 guruh sho'balari o'rin olgan ashulalarning 50dan ortig'i qayta ishlanib magnit tasmlariga tushirildi.

Xulosa. Siz bir tinglab ko'ring-a! Ushbu repertuardan Iroq maqomining Saraxbori, taronalari bilan, Dugoh maqomi, taronalari bilan, Buzruk Soqiynomasi, Saraxbori Oromijon, Qo'qon Ushshog'i, Toshkent Irog'i, Munojot, Bayot Sheroziy, Hojiniyoz 1,2,3, hamda "So'z demay", "Bo'lmish" kabi musiqiy asarlar joy olgan. Yangicha uslub, o'zgacha musiqiy ifodalash, ehtirosli ijro. Bu sharaflilarni amalga oshirayotgan ustoz san'atkor Abduhoshim Ismoilovga va ustoz san'atkor rahbarligidagi jamoaga tahsinlar aytish, ularni tabriklash lozim. Maqom san'atiga bo'lgan munosabatni, e'tiborni ijobiy tomonga o'zgartirish nafaqat mutaxassislarning, ijodkorlarning ishi – balki maqom san'ati rivojiga mutasaddi bo'lgan barcha tashkilotlar rahbarlari, olimlar, yozuvchilar, shoirlar bu bora oldingi saflarda bo'lish kerak. Bu yumushlarni, ya'ni maqomlarimizni targ'ib qilishni bolalar bog'chalaridan, umumta'lim maktablaridan boshlab yo'lga qo'yilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "Milliy maqom san'atini rivojlantirish va yoshlar ongiga singdirish" to'g'risidagi 2017 – yil 17 noyabrda qarori.
2. Yu. Rajabiy. "O'zbek xalq muzikasi". Toshkent .1959.
3. I. Rajabov. "Maqomlar". Toshkent. 2006.

Mualliflar:

Sultonov Abduraxim Abduraxmonovich - Guliston davlat universiteti, An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari kafedrasida dotsenti.

Abdurasulov Baxodir Saydurasulovich - Guliston davlat universiteti, An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari kafedrasida katta o'qituvchi.

УДК: 37.015.3

IMPROVING METHODS FOR DEVELOPING TECHNICAL CREATIVITY OF TALENTED STUDENTS WHEN TEACHING THE SUBJECT OF TECHNOLOGY

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ О'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА ТАЛАНТЛИВЫХ УЧЕНИКОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ТЕХНОЛОГИИ

Muxliboyev Maxmut Qarshiboyevich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: muxliboyev.maxmut@gmail.ru

Annotation. The patterns and trends in the integrative development of education, science, technology and production, the preparation of students for creative activity on the basis of technological education, the conceptual and

scientific-methodological foundations of the problems of the development of technical creativity in them studied to one degree or another.

Key words: technology, production, technological education, creativity, technical creativity.

Аннотация. В данной статье раскрыты закономерности и тенденции интегративного развития образования, науки, техники и производства, подготовки учащихся к творческой деятельности на основе технологического образования, концептуальные и научно-методические основы проблем развития технического творчества в них. изучено в той или иной степени.

Ключевые слова: технология, производство, технологическое образование, креативность, техническое творчество.

Kirish. Respublikamiz ta'lim muassasalarida texnologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va optimallashtirish, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni integrativ qo'llash bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi sharoitida o'quvchilarni nafaqat chuqur texnologik bilim olishga, balki ilmiy dallilarni izlash, topish, tahlil qilish, texnologik yechimlarning maqbul variantlarini tanlash, ijodkorlik bilan shug'ullanish va natijalarini amaliyotga joriy etishga o'rgatish zaruratga aylanmoqda. Hududiy «Barkamol avlod» bolalar markazlarida to'garaklar, shu jumladan robototexnika, dasturlash bo'yicha yo'nalishlar sonini ko'paytirishga ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Mazkur vazifani amalga oshirish, maktabdan tashqari texnologik ta'lim samardorligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtidorli o'quvchilarning texnologik tayyorgarligi va texnik ijodkorligini rivojlantirish muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

Maktablarda texnologiya fanini o'qitishda mavjud pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik amaliyot holatini tahlil etish natijalari qator nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatdi: Jumladan:

jamiyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, zamonaviy texnologik bilimlar, xususan, o'qitishning innovatsion metodlari, texnologiya va didaktik vositalarini o'quv jarayonida qo'llash imkoniyati va didaktik, o'quv-metodik ta'minotning yetarli emasligi o'rtasida;

o'quvchilarning texnologik bilimlari va axborot madaniyati, ijodkorlik ko'nikmalari va tayyorgarligi darajasiga zamonaviy talablar o'rtasida;

texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari, xususan, TRIZ-texnologiyalarini qo'llash ehtiyoj bilan bunday vositalarning yetarli emasligi o'rtasida.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ta'lim, fan, texnologiya va ishlab chiqarishning integrativ rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalari, texnologik ta'lim asosida o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatga tayyorlash, xususan, ularda texnik ijodkorlikni rivojlantirish muammolari, texnik tayyorgarlikning amaliy va psixologik-pedagogik aspektlarining nazariy, konseptual va ilmiy-metodtk asoslari muayyan daraja o'rganilgan bo'lsa-da, texnologiya fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, integrativ yondashuv asosida o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minoti va o'quv natijalarini pedagogik tashxislashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish zarurati tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalar belgilab olindi: tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarni tahlil etish asosida texnologiya fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishning ijtimoiy, psixologik-pedagogik, ilmiy-texnik asoslari va muammosi holatini o'rganish; ilmiy manbalar asosida «iqtidorlilik», «texnik ijodkorlik» tushunchalarining retrospektiv tahlil etish asosida texnik ijodkorlik komponentlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; texnologiya fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari, mezonlari, ko'rsatkichlari, darajalarini aniqlash; texnologiya fanini o'qitishda ijodiy eksperimental ta'limi mazmuni va shakli, ijodiy fikrlashi komponentlari (konvergent, divergent, kritik, kreativ, ob-razli, amaliy, refleksiv)dan tashkil topgan texnik ijodkorligini rivojlantirishning modelini ishlab chiqish; sinfda, sinfdan tashqari ishlarda va ishlab chiqarish korxonalarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga imkon beruvchi metodikalarni TRIZ-texnologiyalari asosida takomillashtirish; o'quvchilarning loyihalash-konstruktorlik, ijodkorlik va ishlab chiqarish texnologik faoliyatga tayyorgarligini tashxislash natijalari tahlili asosida faoliyat turlari bo'yicha texnik ijodkorligini baholash mezonlarini tanlash va tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish. «O'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish», «Ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari» nomli monografiyalar, «Texnologiya» fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish, «Texnologiya fanidani o'quvchilar amaliyotini tashkil etish» bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan; iqtidorli o'quvchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, texnik ijodkorlik ko'nikmalarni rivojlantirish metodi asosida «Texnologiya» o'quv fani dasturi takomillashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan; o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish modeli va didaktik ta'minoti (tuzilmaviy-mantiqiy sxemalar, amaliy va laboratoriya topshiriqlari, tashxislash majmuasi) va uni joriy etishning tizimli mexanizmi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan; o'quvchilarda texnik ijodkorlikning rivojlanganlik darajasini baholashning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli usullarini integrativ muvofiqlashtirish orqali tashxislash tizimi tatbiq etilgan; o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

qaratilgan “Texnologik ta’lim metodikasi”, “Texnologiya” fanlaridan elektron o’quv qo’llanmalar, “Ta’limni tashkil etishda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo’llash” nomli uslubiy qo’llanmalar, hammualliflikda “Texnologik ta’lim metodikasi” va “Texnologiya” fandan darslik nashr qilingan va amaliyotga tatbiq etilgan

Texnologiya fanini o’qitishda iqtidorli o’quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida: texnologik ta’lim rivojlanishidagi tendensiyalar, xorijiy tajribalar, tashkiliy-pedagogik omillarni tahliliy o’rganish, texnologiya fanini o’qitishda iqtidorli o’quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish muammosini ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik darajalarda talqin etish, texnik va texnologik ijodkorlikning konseptual asoslarini innovatsionlik tamoyili asosida chuqurlashtirish va ilmiy-nazariy yondashuvlar (faoliyatli, kognitiv, shaxsga yo’naltirilgan, kompetentli) asosida texnologiya fanini o’qitishda ijodiy eksperimental ta’limi mazmunini takomillashtirish, texnik fikrlashi komponentlari (konvergent, divergent, kritik, kreativ, obrazli, amaliy, refleksiv) va texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga oid amaliy takliflar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 187-son qarori mazmuniga singdirilgan.

Mazkur taklif va tavsiyalardan texnologiya fani mazmunini modernizatsiyalash asosida takomillashtirilgan o’quv dasturlari, darsliklar, metodik qo’llanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan; an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash va tavsiflash asosida umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarining o’ziga xos psixologik xususiyatlari (bilish, amaliy, texnologik, ijodiy) hamda texnologik kompetensiyalarini dars jarayonida shakllantirish uslublari, iqtidorli o’quvchilarda innovatsion yondashuv asosida texnik ijodkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli va uni joriy etishning metodik ta’minotini (o’quv mashg’ulotlarining algoritmik xaritalari, ijodiy xarakterdagi texnologik topshiriqlar, innovatsion o’qitish vositalari, tizimlashtirilgan topshiriqlar bazasi orqali) takomillashtirishga oid tavsiyalardan “Umumiy o’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limi fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish texnologiyalari” mavzusidagi 2022-2024 yillarga mo’ljallangan amaliy loyihada foydalanilgan.

Mazkur yondashuvlar o’quvchilarda texnologik ta’lim samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qilgan: o’quvchilarda amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan “Texnologik ta’lim metodikasi”, “Texnologiya” fanlaridan elektron o’quv qo’llanmalar, “Ta’limni tashkil etishda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo’llash” nomli uslubiy qo’llanma, hammualliflikda “Texnologik ta’lim metodikasi” va “Texnologiya” fandan darslik, “O’quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish” qo’llanmasi, metodik tavsiyalar va ko’rsatmalar, o’quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan texnologik amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, amaliy topshiriqlarni bajarish, buyumlarni modellash asosida yaratish)ni qo’llash interfaol ta’lim texnologiyalari (TRIZ, STEAM, “SMART texnologiyalari”) asosida takomillashtirilib amaliyotga tatbiq etilgan. Natijada texnologiya fanini o’qitish va innovatsion yondashuv asosida o’quvchilarda texnik ijodkorlik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligi ortishiga erishilgan.

Xulosa.

Texnologiya fanini o’qitishda iqtidorli o’quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish jarayonini pedagogik fenomen sifatida ko’rib chiqish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz. Umumta’lim muassasasida iqtidorli o’quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish dars mashg’ulotlaridan tashqari vaqtlarini samarali o’tkazish imkoniyatlarini yuqori darajada ta’minlaydigan pedagogik loyihalash va maqsadli boshqaruvni rivojlantirish ob’ekti bo’lishi mumkin degan xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. – T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947– sonli Farmoni
2. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabr.
3. Сластенин В.А. Профессионализм учителя как явление педагогической культуры. // «Педагогическое образование и наука», 2008, № 12. -С. 4-15.
4. Sharipov Sh.S. O’quvchilar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss.... ped. fan. nomz. - T., 2001. -140-b.
5. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta’limi tizimida o’quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya - T.: «Fan», 2005. -131-b.
6. Лаптев Г.Г. Техническое творчество учащихся на уроках технологии.
7. <https://syberleninka.ru/article/n/tehnicheskoe-tvorchestvo-uchaschihsya-naurokah-tehnologii>.

Muallif:

Muxliboyev Maxmut Qarshiboyevich - Guliston davlat universiteti, “Texnologik va maktabgacha ta’lim” kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent.

UDK 372.800.2

EFFECTIVE ORGANIZATION OF INDEPENDENT TRAINING SESSIONS ON INFORMATION TECHNOLOGY IN MEDICINE

TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В МЕДИЦИНЕ

Melibayeva Farog'at Madaminovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. 150100. Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi, 2a-uy

E-mail: meliboefarogathon@gmail.com

Abstract: Special attention is paid to the problem of independent work of students, which is organized in higher educational institutions during the period of intensive introduction of information technologies in various spheres of life. Modernization of the education system forces scientists to look for ways to solve an urgent problem. The development of students' interest in research work replaces passive listening to lectures. At the same time, the number of individualized independent work of students increases. For example, in the subject of information technology in medicine, students of the "medical direction" are given a total of 120 hours, of which 60 hours, that is, an equal half, are allocated to the independent work of students. This, in turn, is an urgent issue in modern conditions of continuing education. The independent work of students, performed under the supervision of a teacher, is a pedagogical support for the development of purposeful preparation for self-professional training, which is considered very important, although as a didactic means of the educational process, a form of organization, method and means of teaching, a type of educational activity, extracurricular work provided for by the state educational standard. But a unified approach to the interpretation of the concept of "independent work of students" (SR) has not yet been developed. In this regard, the article examines the issues of organizing the independent work of a bachelor's degree in the discipline "Information technologies in medicine", which is taught to 1st year students in the field of "Therapeutic work".

Keywords: The concept of independent work of a student, independent work in the discipline of Information technology in medicine, future doctors in the field of medical work, goals should be achieved by students independently under the guidance of a teacher, multimedia technologies for a specialist doctor and their capabilities.

Аннотация: Особое внимание уделяется проблеме самостоятельной работы студентов, которая организуется в высших учебных заведениях в период интенсивного внедрения информационных технологий в различные сферы жизни. Модернизация системы образования заставляет ученых искать пути решения насущной проблемы. Развитие у студентов интереса к научно-исследовательской работе заменяет пассивное прослушивание лекций. При этом увеличивается количество индивидуализированной самостоятельной работы учащихся. Например, по предмету информационные технологии в медицине студентам "лечебного направления" отводится в общей сложности 120 часов, из которых 60 часов, то есть равная половина, отводится на выполнение самостоятельной работы студентов. Это, в свою очередь, является актуальным вопросом в современных условиях непрерывного образования. Самостоятельная работа учащихся, выполняемая под контролем учителя, является педагогическим обеспечением развития целенаправленной подготовки к самопрофессиональному обучению, которая считается очень важной, хотя и в качестве дидактического средства образовательного процесса, формы организации, метода и средства обучения, вида учебной деятельности, внеурочной работы, предусмотренной государственным образовательным стандартом. Но до сих пор не выработан единый подход к трактовке понятия "самостоятельная работа учащихся" (СР). В связи с этим в статье исследованы вопросы организации самостоятельной работы бакалавриата по дисциплине "Информационные технологии в медицине", которая преподается студентам 1-го курса по направлению "Лечебное дело".

Ключевые слова: Понятие самостоятельной работы студента, самостоятельная работа по дисциплине Информационные технологии в медицине, будущие врачи направления лечебная работа, цели должны достигаться студентами самостоятельно под руководством преподавателя, мультимедийные технологии для врача специалиста и их возможности.

Kirish. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va jadal o'zgarishlar sharoitida talabalarning zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishlari nuqtayinazaridan ularga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.12.2023 yildagi PQ-415-son Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda

ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zaruriy topshiriqlar berilgan [11]. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda "Davolash ishi" yo'nalishidagi bo'lajak shifokorlarning kelgusi kasbiy faoliyatlarida axborot tizimlari va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari uchun "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fani o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning kredit-modul tizimi asosidagi zamonaviy o'qitish shakllaridan biri talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimiga ilg'or xalqaro tajribalarni va standartlarni joriy etilishi, xususan, o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazilishi natijasida muayyan fan doirasida talabalarining auditoriya darslari uchun 50 foiz, mustaqil ishlari uchun 50 foiz vaqt ajratilishi belgilandi. Kredit-modul tizimida talabalarni hayotda mustaqil bo'lishga ko'niktirish amaliyoti qo'llaniladi [2]. Talabaniqning mustaqilligi uning o'z oldiga belgilangan maqsadlarni qo'yish, unga erishish va amalga oshirishga intilishida namoyon bo'ladi. Talabaniqning mustaqilligini rivojlantirish unga mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallash, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu holat esa talabaniqning zamonaviy dunyoda ijtimoiylashuvi uchun juda muhimdir. A.A.Mirolyubov fikricha, mustaqil ish deganda o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning ko'rsatmalariga binoan sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda yoki uyda o'quvchilarning individual va jamoaviy faoliyatining turli xil turlari tushuniladi [3, 250 b]. Ushbu masalada yetakchi o'rin mustaqil ishni tashkil etish va rejalashtirishga beriladi.

I.A. Zimnyaya mustaqil ishni sub'ekt faoliyati nuqtai nazaridan quyidagicha ta'riflaydi: mustaqil ish maqsadga yo'naltirilgan, ichki motivatsiyalangan, sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan va jarayon hamda natijaga ko'ra tahrirlanadigan strukturalashtirilgan harakatlar yig'indisidan iborat faoliyat. Uni bajarish yuqori darajada o'z-o'zini anglashni, refleksivlikni, intizomni, shaxsiy mas'uliyatni talab qiladi [3, 256 s.]. P.I. Pidkasiy mustaqil ish "O'quv jarayonida o'quvchining mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos pedagogik vositasi bo'lib, u o'quv yoki ilmiy bilish metodini o'z ichiga olishi kerak", deb hisoblaydi [5, 315 s.]. Uning fikricha, mustaqil o'quv ishi deganda odatda o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan va ajratilgan muayyan vaqt oralig'ida qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishga qaratilgan talabaniqning bilimlarni izlash, ularni tushunish, mustahkamlash, ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, umumlashtirish va tizimlashtirish kabi har qanday faol faoliyati tushuniladi. Talabalarining mustaqil ishi – bu talabaniqning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan [2, 90 s.].

Tadqiqod obyekti va qo'llanilgan metodlar.

"Talaba mustaqil ishi" tushunchasiga berilgan ta'rifni aniqlash muammosiga bag'ishlangan ilmiy va pedagogik adabiyotlarning tahlili ushbu masala bo'yicha haligacha yagona ta'rif berilmaganligini ko'rsatgan. Umumiy holda quyidagi uchta yondashuvlar asosida ushbu tushunchaga berilgan ta'riflar guruhini ajratib o'tish mumkin: a) faoliyat turi sifatida, b) ta'lim shakli sifatida, c) o'rganish usuli va vositasi sifatida [6, 7, 8, 9 10].

Birinchi guruhda talabaniqning mustaqil ishi sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining bir turi sifatida namoyon bo'ladi, bunda o'qituvchi talaba uchun maslahatchi hamkor vazifasini bajaradi. Mustaqil ish tushunchasiga berilgan ta'riflarning ikkinchi guruh yondashuvlarida asosiy urg'u o'quv maqsadlariga erishishga beriladi va bunday maqsadlarga talabalar o'qituvchi rahbarligida mustaqil ravishda erishishlari kerak bo'ladi. Uchinchi guruh yondashuvlarida, mustaqil ish o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabalar axborotni mustaqil izlash orqali bilimlarni egallashlari nazarda tutiladi. Yuqoridagi barcha ta'riflar mustaqil ishning ahamiyatini e'tirof etishi, uning alohida jihatlarni tavsiflashi bilan qimmatlidir, lekin ularda mustaqil ishning pedagogik mohiyati va muammolari to'liq ochib berilmagan. Pedagogik va psixologik adabiyotlarning tahlili mustaqil ish tushunchasiga berilgan ta'rifni quyidagicha aniqlashtirish imkonini berdi: mustaqil ish o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan talabaniqning bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash, nazorat qilishga qaratilgan o'quv va ijodiy faoliyati.

Mustaqil ish - talabaniqning zarur bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalarni egallashi, tizimli ishlashga, fikrlashga o'rgatadigan, o'ziga xos aqliy faoliyat uslubini shakllantiradigan ta'lim shaklidir. Uning boshqa ta'lim shakllaridan farqi shundaki, u o'quvchining o'z faoliyatini qo'yilgan vazifa yoki paydo bo'lgan muammoli masalaga muvofiq tashkil etish qobiliyatini nazarda tutadi.

Bakalavriatning "Davolash ishi" yo'nalishidagi I kurs talabalariga o'qitiladigan "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha o'quv rejaga muvofiq jami 120 soat, shu jumladan ma'ruza mashg'ulotlari uchun 12 soat, amaliy mashg'ulotlar uchun 33 soat, laboratoriya ishlari uchun 15 soat va mustaqil ishlar uchun 60 soat belgilangan. Talabalarining mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga, bizning fikrimizcha, o'quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq e'tibor qaratish lozim. Talabalarga ilmiy axborot hajmining ortib borishi, ba'zi bilimlarning yangilanib borishi hisobiga boshqalarining tez eskirishi kuzatilayotgan hozirgi sharoitda yangi bilimlarni izlab topishlarida mustaqil ishning ahamiyati alohida tushuntirilishi uni bajarish samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fanini talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi ularning auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg'ulotlarga vijdonan munosabati va mustaqil ishni bajarish jarayonida o'qituvchi ularga mustaqil ishlash mahoratini qay darajada singdira olganligi hamda foydalaniladigan metodik usullarning qanchalik to'g'ri ekanligiga bogliq.

Shuning uchun tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining barcha mustaqil faoliyati o'qituvchi tomonidan kuzatib borilishi va nazorat qilinishi kerak. U maslahat, ko'rsatmalar berish, metodik usullarni tushuntirib berish, nazorat qilish shaklida namoyon bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o'qituvchi va talabani o'zaro munosabati (biri boshqaruvchi, ikkinchisi esa ijro etuvchi) to'g'ri tashkil etilishi muhim. Bunda ustuvor vazifa sifatida "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fanini o'zlashtirilishini ilmiy asoslangan metodik boshqarish e'tirof etiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish sifati hamda samaradorligi butun pedagogik jarayonni baholashning eng muhim mezoniga aylanadi. Mustaqil ish materialini bir tekis taqsimlash va uning hajmini nazorat qilish imkoniyati talabalar uchun haddan ziyod yuklanishiga va surunkali kredit qarzariga olib kelmasligi uchun muhimdir.

Metodik adabiyotlar bilan ta'minlanmasdan turib talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil etish mumkin emas. Mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqarish vositasi sifatida muayyan mustaqil ishni bajarishga oid berilgan topshiriqlar bilan birga ularni bajarish yuzasidan yozma metodik ko'rsatmalarining o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi muhim. "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha talabalarning auditoriyadan tashqari bajaradigan mustaqil ishlarini didaktik maqsadlarga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: O'rganilayotgan mavzuning mohiyati va xususiyatlarini ochib berish, mantiqiy ketma-ketlik asosida hisobot yaratishni o'rganishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar; Elektron hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga yo'naltirilgan mustaqil ishlar; Axborotni (matn, grafika, infografika, video va shu kabilarni) qayta ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, axborotni qayta ishlash texnologiyalarida aniq harakatlarning amalga oshirilishini tasvirlashni o'rganishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar.

Didaktik maqsadlarga ko'ra birinchi guruh mavzulariga quyidagilar kiradi: 1. Axborotlashtirishning ijtimoiy oqibatlari va tibbiyot muassasalariga ta'sirlari. 2. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tuzilma va OAV faoliyatining o'ziga xosligi. 3. Bulutli texnologiyalarni axborot xizmatlari ko'rsatishda qo'llash. 4. Shifokor mutaxassis uchun multimediyaga texnologiyalari va ularning imkoniyatlari. 5. Axborot uzatishning texnik vositalari va ulardan foydalanish. 6. Statsionar va mobil kompyuterlarning rivojlanish tendensiyalari. 7. O'zbekistonda Internet orqali jismoniy va yuridik shaxslarga tibbiy xizmatlarni ko'rsatish. 8. Internet va axborot xavfsizligi. Internetda va shifoxonalar bazasi tarmoqlarda firibgarlik.

Didaktik maqsadlarga ko'ra ikkinchi guruh mavzulariga quyidagilar kiradi: 1. MS Word matn protsessorida xizmat va ish hujjatlarini yaratish. 2. Tibbiyot tizimida shakllar, reklama varaqalari, taqdimot bukletlarini sahifalash. 3. MS Excel jadval protsessorida bemorlar va tibbiy buyumlar hisobot hujjatlarini yaratish. 4. MS Excel jadval protsessorida bemorlar statistik ma'lumotlarini va kasallik tarixi varaqalarini yaratish va tahlil qilish.

Didaktik maqsadlarga ko'ra uchinchi guruh mavzulariga quyidagilar kiradi: 1. Arxivator dasturlari va ularning imkoniyatlari. 2. Prezi - professional taqdimotlar yaratish uchun onlayn xizmati. 3. Google-taqdimotlar yaratish texnologiyalari. 4. Kasalliklar infografikasini yaratish va ulardan foydalanish. 5. Rastri grafika texnologiyalari. 6. Vektorli grafika texnologiyalari. 7. Kompyuter va smartfonlar uchun bepul ilovalar. 8. Video muharrir dasturi bilan ishlash texnologiyalarida inson ichki organlarini 3d modellashtirish. 9. Audio va video lavhalarga ishlov berish. 10. Google servis xizmatlari yordamida blog va so'rovnomalari yaratish. 11. Shaxsiy shifokorlik sayti yaratish uchun konstruktorlar. CMS WordPress yordamida tibbiy konsultatsiya sayti yaratish va uni sozlash. 12. Veb-muharrirlar yordamida Veb-sayt yaratish.

Adabiyotlar tahlili va to'plangan tajriba asosida talaba tomonidan mustaqil ishni samarali bajarilishi quyidagi omillarga bog'liq deb xulosa chiqarish mumkin: 1. Talabani mustaqil ishi unda jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lganidagina samarali bajarilishi mumkin; 2. Talabani axborot bilan ishlashi (axborotni tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, umumlashtirish, hisobotlarni tayyorlash) uchun ma'lum darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi; 3. Talabada bajariladigan mustaqil ish hajmini aniqlash, uni bajarish bosqichlarini ajratib ko'rsata olish, har bir bosqichda maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, o'z-o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'z ish joyini to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini ma'lum darajada shakllanganligi; 4. Talabani mustaqil ish bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish uchun ma'lumlar va noma'lumlar chegaralarini aniqlash, o'z imkoniyatlarini va mustaqil ish sifatini tanqidiy yondashuv asosida baholay olish kabi qobiliyatlariga ega bo'lishi.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini psixofiziologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi va faoliyatining yo'nalishi, faolligi, uyg'unligi va turg'unligini belgilaydi [10]. Motivatsiya – o'quv faoliyati tarkibining muhim uzviy bog'liq qismidir. Talabada motivatsiyaning shakllantirilishi uning o'z faoliyatidan «qoniqish» hosil qilish va yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish uchun zamin yaratadi. Talabani mustaqil ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqi o'qituvchi mahoratiga hambog'liq. O'qituvchi mashg'ulotlarni qiziqarli va o'ziga jalb qiladigan darajada olib borsagina talabani mustaqil ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqi ortadi.

Mustaqil ishni samarali bajarilishidagi talaba motivatsiyasi quyidagilarga bog'liq: Bajariladigan mustaqil ishning talabani kelgusi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati va foydaliligi; Yuqori reyting ballariga erishishga intilish. Bajarilgan mustaqil ish bo'yicha talabani rag'batlantirish; O'qituvchi shaxsi va uning mahoratiga.

“Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat natijasida talabalarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlaniriladi: axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash); axborotni qayta ishlash; axborotni taqdim etish; axborotni uzatish.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash) – talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish faoliyatining asosiy turi. Adabiyotlar, Internet resurslari bilan ishlash ko‘nikmalari talaba dunyoqarashini, uning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar axborot manbalari bilan ishlashda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular axborot-resurs markazidagi (elektron) kataloglardan yoki Interenet tarmog‘idan kerakli manbani izlab topishlari, uning tarkibidan unumli foydalana olmasdan, darhol asosiy bob yoki paragraflarni o‘qishga berilib ketib, mundarija, annotatsiya, kirish qismlaridagi ma‘lumotlarga e‘tibor bermaydilar [10]. Axborotni qayta ishlashda talabalarda mavzuga doir axborotni tushunish, anglash, mantiqiy ketma-ketlik asosida grafik ko‘rinishidagi bog‘lanishlarni tuzish, tahlil qilish, taqqoslash, sintez, umumlashtirish, o‘qilganlar asosida muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yondashuvini ishlab chiqish kabi ko‘nikmalar rivojlaniriladi.

Axborotni taqdim etishda talabalarda mavzuga doir ma‘lumotlar asosida reja ishlab chiqish, reja bo‘yicha ma‘lumotlarni guruhlash, strukturalash, matnning hajmiga va mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilgan holda elektron shakldagi hisobotni (referat, multimedia taqdimoti, video) tayyorlash va taqdim etish ko‘nikmalari rivojlaniriladi.

Axborotni uzatishda talabalarda mustaqil ish hisobotini bayon etishda dalillarni farqlash, munozaraga kirishish, mavzu bo‘yicha o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalar rivojlaniriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida, talabaning psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqotlarini tahlil qilishi, uning bilim darajasini sinash natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun quyidagi vazifalarni oldinga qo‘yish talab etiladi: 1. Mustaqil ishlarda talabalarga qiziqish va unga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish. 2. Talabalar mustaqil talim faoliyati bo‘yicha ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lishlariga erishish. 3. Talabalar o‘zlarining mustaqil ishlarini kamchiliklarni bartaraf etishda o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish. 4. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish uchun zaruriy uslubiy materiallarni ishlab chiqish. Shunday qilib mustaqil ish talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning omili bo‘lib, bo‘lajak shifokorlarning kelgusi kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mustaqil talim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirish darajasini oshiradi va bo‘lajak mutahassisning shahsiy hususiyatlari sifatida mustaqilligini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
2. Хабибуллаев Р., Топилдиев В., Инназаров М.. Кредит модуль тизими ва ўқув жараёнини ташкил этиш. Ўқув - услубий мажмуа. Бош илмий-методик марказ. Тошкент – 2020, - 149 б.
3. Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов - М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2010. - 448 с.
4. Педагогика. Учебное пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / Под ред. П.И. Пидкасистого. - М: Педагогическое общество России, 1998. - 640 с.
5. Жуков, Г. Н. Профессиональный стандарт педагога и особенности его реализации в системе СПО [Текст] / Г. Н. Жуков // Профессиональное образование. Столица. – 2016. – № 11. – С. 28-31.
6. Никулин, А.А. К проблеме внедрения инновационных моделей обучения в системе среднего профессионального образования // Материалы международного научного форума обучающихся "Молодежь в науке и творчестве", 26 апреля 2017 г. сборник научных статей. – Гжель: ГГУ, 2018. – 821 с.
7. Организация самостоятельной работы студентов: материалы докладов VI Международной очно-заочной научно-практической конференции "Организация самостоятельной работы студентов", 28 апреля 2017 года / Саратовский национальный исследовательский государственный университет им. Н. Г. Чернышевского - Саратов: Техно-Декор, 2017. - 419 с.
8. Хлупина Н. О. Организация самостоятельной работы студентов по овладению компетенциями в учреждениях среднего профессионального образования: автореферат дис... кандидата педагогических наук. - Кемерово, 2017.-23 с.
9. Абдукодилов А.А., Пардаев А.Х. Педагогик технологияларга оид атамаларнинг изохли луфати. - Т.: «Фан ва технология», 2012. – 44 б.
10. Ахтаров В.С “Аxborot texnologiyalari” fanidan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish masalalari. "Теория и практика современной науки" №6(96) 2023
11. <https://lex.uz/uz/docs/-6719038>

Muallif:

Melibayeva Farog‘at Madaminovna - Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi.

UDK 372.853

FIZIKA FANINI O‘QITISHNI CHET TILLARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE TEACHING OF PHYSICS THROUGH FOREIGN LANGUAGES

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ С ПОМОЩЬЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Begmatova Dilfuza Abdullajonovna¹, Usmonov Saidjon Abdusubxon o‘g‘li²

¹O‘zbekiston milliy universiteti. 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

²Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. 150100. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi, 2a-uy

E-mail: dilfuzafizic@mail.ru, usmonovsaid@gmail.com

Annotation: It is no secret to anyone that the current twentieth century is a century of physics and technology of course. The times are developing day by day, from this it can be seen that physics is gradually entering our lives on every aspect. But not all young people of the present can understand that physics forms the basis of our life. Physics is perceived as a science consisting only of formulas, which is one of our painful points. As we said, physics does not have its own impact on each area. Take the field of medicine, for example, in this area it is important to analyze the physical condition of a person and make the correct diagnosis through these results. In this case, medical personnel rely on examination devices such as ECG, EMRT, UZI, X-ray and other similar devices. On the basis of the principle of operation of these instruments, of course, lies physics. Today, integration determines a person's scientific thinking and worldview. The introduction of integration into the learning process is an important direction and is actual. Therefore, it was intended to teach Physics, English subjects along with the direction of biomedical engineering. Based on the above cases, methods of improving the teaching of physics in medical higher education institutions through foreign languages have been studied.

Keywords: improving the quality of teaching physics, teaching medical engineers the importance of physics in medicine perfectly, as well as knowledge gained from English, integrating physics with English for medical engineers, being symbolically expressed, qualified to meet the requirements of the time, competitive professionals with every complete knowledge, a modern scientific worldview.

Аннотация: Ни для кого не секрет, что нынешний двадцатый век - это, конечно, век физики и техники. Времена меняются день ото дня, из этого видно, что физика постепенно входит в нашу жизнь во всех аспектах. Но не все современные молодые люди могут понять, что физика составляет основу нашей жизни. Физика воспринимается как наука, состоящая только из формул, что является одной из наших болевых точек. Как мы уже говорили, физика не оказывает своего влияния на каждую область. Возьмем, к примеру, медицину, в которой важно проанализировать физическое состояние человека и на основе полученных результатов поставить правильный диагноз. В этом случае медицинский персонал полагается на такие приборы для обследования, как ЭКГ, ЭМР, УЗИ, рентген и другие подобные приборы. В основе принципа действия этих приборов, безусловно, лежит физика. Сегодня интеграция определяет научное мышление и мировоззрение человека. Внедрение интеграции в учебный процесс является важным направлением и является актуальным. Поэтому предполагалось преподавать физику, предметы на английском языке наряду с направлением биомедицинской инженерии. Исходя из приведенных выше примеров, были изучены методы улучшения преподавания физики в медицинских вузах с помощью иностранных языков.

Ключевые слова: повышение качества преподавания физики, обучение инженеров-медиков важности физики в медицине в совершенстве, а также знаниям, полученным из английского языка, интеграция физики с английским языком для инженеров-медиков, символическое выражение, квалификация, соответствующая требованиям времени, конкурентоспособные специалисты, обладающие всеми необходимыми знаниями, современным научным мировоззрением.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda tabiiy fanlarni, ayniqsa fizikaning, jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati juda katta. Jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, malakali, har tamonlama bilimga, zamonaviy ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lgan raqobatbardoshli mutaxassislarini tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta‘minlash uzluksiz ta‘lim mazmunini takomillashtirishni taqazo etmoqda. Ma‘lumki, 2021-yil 19-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan fizika sohasini rivojlantirish va bu boradagi ishlarni jadallashtirish, yoshlarni ushbu fanga qiziqtirish hamda umumiy o‘rta va oliy ta‘lim dasturlarining uzviyiligini ta‘minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta‘lim

sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi ayni paytda yurtimizdagi ta'lim muassalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini olib kirish, kuchli mutaxassislarni tayyorlash hamda sohadagi mavjud muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Ayni shular qatorida ushbu qarorlarga parallel tarzda chet tillari xususan, ingliz tilini rivojlantirish bo'yicha juda ko'p islohotlar olib borilmoqda. Masalan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaror, Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadidagi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini olishimiz mumkin [2]. Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlanishiga hissa kiritish, hamda yuqoridagi talablardan kelib chiqib tibbiyot oliy ta'lim muassalarida tahsil olayotgan yoshlarga fizika fanining ingliz tiliga eng aloqador tomonlari bilan integratsiyalab fizika o'qitish orqali bo'lg'usi tibbiyot muhandislariga fizikaning tibbiyotdagi ahamiyatini mukammal o'rgatish, hamda ingliz tilidan olgan bilimlarini takrorlash va amaliy qo'llash orqali fizika fani mazmunini o'qitishni ingliz tili bilan integratsion yondoshuvi asosida takomillashtirishga bir qadar erishildi.

Tadqiqod obyekti va qo'llanilgan metodlar

60711800 - Biotibbiyot muhandisligi - bakalavriat ta'lim yo'nalishi - fan va texnika sohasidagi yo'nalishlar bo'lib, biotibbiyot texnik tizimlarini, turli maqsadlarga mo'ljallangan qurilmalarni va komplekslarni kompyuter texnologiyalari yordamida loyixalashtirish; biotibbiyot texnik elementlari, qurilmalari va tizimlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish texnologiyasini loyixalashtirish va joriy etish; ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, biotibbiyot texnik qurilmalari va turli maqsadlarga mo'ljallangan tizimlarini ishlab chiqish, ishga tushirish, sinovdan o'tkazish, foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish kabi faoliyatlarni uz ichiga qamrab oladi. Shu sababli ushbu yo'nalishlarda fizika fani mazmunini o'qitishni takomillashtirish muhim masala sifatida qaralib, tadqiqod obyekti sifatida ham Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining "Biotibbiyot muhandisligi" yo'nalishi 1-bosqich 1124-guruh talabalari qamrab olindi.

Tabiiyki yosh talabalar maktab davrida fizika fanidan olgan bilimlarini oliy ta'limda o'qitiladigan fizika fani bilan yanada boyitib kelgusida o'qitiladigan mutaxassislik fanlariga tatbiq etishlari talab etiladi. Talabalar ushbu vazifani amalga oshirishlari uchun oldilarida fizika fanidan masala yecha olishlari, fizika qonun va formulalarini mukammal bilishlari lozim bo'ladi. Lekin amalda talabalar masalalarni yechishda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Buning sababi masala shartiga to'liq tushunmaslik, fizik terminlarni mufassal bilmaslik, formulalarning ma'nolariga chuqur tushuna olmaganliklari, ma'nosini tushunmay yod olgan formulalarining tez esdan chiqishi va fizik kattaliklarni to'g'ri belgilay olmaslik bo'ladi [3]. Mazkur kamchiliklarni bartaraf qilishda fizika fanini o'qitishni ingliz tili orqali takomillashtirish usullari juda qo'l keladi. Chunki fizik kattaliklarning ko'pgina qismi ushbu kattalikning ingliz yoki lotin tilidagi tarjimasining bosh harfi bilan belgilanadi. Bundan tashqari keyinchalik o'zlashtiriladigan mutaxassislik fanlari ham texnika tili sifatida qaraladigan ingliz tili bilan boyitilgan. Mutaxassislik fanlari qatoriga: Biofizika; Elektrotexnika va elektronika; Tibbiyot qurilmalari, uskunalari, tizimlari va komplekslari; Biotibbiyot datchiklari; Tibbiyot texnikalarining elementlari va qismlari; Sxemotexnika; Mikroprotessor texnikasi; Tibbiyot axborot-o'lchov texnikasi va tizimlari; Tibbiyot texnikalarini sinash va servis xizmat ko'rsatish; Qurilma va tizimlarni dasturlash. Ushbu fanlarga nazar tashlaydigan bo'lsak deyarli hamma modullarning asosida fizika fani qonunlari yotadi. Mazkur mutaxassislik fanlari va xatto fizika fanining o'zini terminlari, formulalarining tarkibiy qismlari simvolikasi, tibbiyot apparatlarining modellari, tibbiy qurilmalar sxemalari tarkibi nomlanishi, apparat qismlarining tashkil etuvchi texnik qismlari qo'yingki deyarli barcha tarkibiy qismlari ingliz tilida yuritiladi. Shu bois fizika o'qitishni ingliz tili fani integratsiyalab o'qitish yuzasidan tadqiqot olib borildi. Agar talabalarga fizika mavzularini bayon qilish jarayonida har bir termin, formula va fizik hodisa nomlarini ingliz tilidan tarjimalarini keltirib aynan fizik termin qanday ma'no anglatib, qaysi simvolika bilan ifoda qilinishini ko'rsatib ketiladi. Keyinchalik har bir o'tilgan darslarda o'rganilgan formulalar, terminlar, fizik hodisalarning ingliz va o'zbek tilidagi ma'nolarini solishtirib o'rganish jadvalini mustaqil ta'lim darslari uchun topshiriq qilib beriladi. Masalan fizikaning "Elektrodinamika" bo'limining har bir darsida o'rganiladigan terminlar, formulalar va birliklar to'g'risida ma'lumotlar berilayotganda ham, o'zbekcha ham, inglizcha ta'riflari berib boriladi. Bo'limni takrorlash yuzasidan mustaqil ta'lim sifatida mazkur bo'limda o'rganilgan har bir formulaning belgilanishi, nomlanishi va xalqaro birliklar sistemasidagi birliklarini jadvalga solish vazifasi yuklatiladi [4].

Elektrodinamika bo'limining asosiy formulalarining tarkibiy qismlarini ingliz tili bilan solishtirib o'rganish jadvali

№	Fizik kattaliklar	Physical quantity	Formula	SI units
1	Elektron zaryadi	Elementary charge	$e = 1.6 \cdot 10^{-19}$	C
2	Zaryad	Electric charge	$q = eN$	C

3	O'tkazuvchanlik	Conductivity	$\sigma = \frac{1}{R}$	$\frac{1}{Om}$
4	Tok kuchi	Electric current	$I = \frac{q}{t}$	A
5	Kuchlanish	Electrical voltage	$U = \frac{A}{q}$	V
6	Qarshilik	Resistance of a wire	$R = \rho \frac{l}{S}$	Om
7	Energiya	Energy	$E = \frac{CU^2}{2}$	J
8	Elektr maydon kuchlanganligi	Electric field strength	$E = \frac{U}{d}$	$\frac{V}{m}$
9	Dielektrik singdiruvchanlik	Permittivity of vacuum	$\epsilon = \frac{E}{E_0}$	–
10	Elektr maydon induksiyasi	Electric field induction [12]	$D = \epsilon\epsilon_0 E$	$\frac{C}{m^2}$
11	Quvvat	Power	$P = \frac{U^2}{R}$	W
12	Tok zichligi	Current density	$j = \frac{I}{S}$	$\frac{J}{m^2}$
13	Konsentratsiya	Concentration	$n = \frac{N}{V}$	m^{-3}
14	Elektr maydon potentsiali	Electric field potential	$\varphi = \frac{W}{q}$	V
15	Sig'im	Capacitance	$C = \frac{q}{U}$	F
16	Dipol momenti	Dipole moment	$P = q \cdot l$	$Debay$
17	Qarshilikning temperaturaga bog'liqligi	Dependence of Resistance on Temperature	$R = R_0(1 + \alpha t)$	Om
18	Ikkita nuqtaviy zaryadning orasidagi Kulon kuchi	Coulomb force between two point charges	$F = k \frac{q_1 q_2}{R^2}$	N
19	Amper kuchi	Force on a current	$F = BIL$	N
20	Lorens kuchi	Force on a moving charge	$F = qb\theta \sin\alpha$	N

Olingan natijalar va ularning tahlili

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari" kafedrası auditoriyalarida BM 1124 guruh talabalariga fizika fanini o'qitishni chet tillari orqali takomillashtirishga qaratilgan metodlar orqali 2024-2025 o'quv yilining 13.09.2024 sanasidan 01.11.2024 sanasiga qadar ma'ruza mashg'ulotlari olib borildi. Bo'lajak tibbiyot muhandislari uchun fizika fanini ingliz tili bilan integratsiyalab o'qitish orqali fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, fanning asosiy qonun – qoida va formulalarini chuqur ma'no mazmuni bilan birga tushuna olish, egallovchi kasblariga nisbatan kompetentlik qobiliyatlarini rivojlantirish, kelgusida o'qitiladigan mutaxassislik fanlariga tayyorgarliklarini oshirish, hamda ingliz tilidan egallagan ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish kabi natijalarga erishildi. Ushbu BM 1124 guruhi talabalari 2024-2025 o'quv yilining 1-semestrning joriy baho natijalari bo'yicha, 2023-2024-o'quv yilida tahsil olgan BM 1523, guruhining egallagan natijalariga nisbatan ko'proq ijobiy baho va natijalarga erisha oldi.

Xulosa va takliflar. Fizika sohasidagi har bir yutuq va kashfiyot bevosita insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Fizikaning rivojlanishi ishlab chiqarish, iqtisodiyot, tibbiyot umuman mamlakat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan tarmoqlarning rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fizikada ma'lum bir kashfiyot yaratilgandan so'ng, uni ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar maydonga chiqadi va insoniyatning og'irini yengil qiluvchi uskunalar yaratiladi. Tibbiyot fizikasi sohasidagi kashfiyotlar tibbiyot texnikasidan foydalanish imkoniyatlarini berdi. Yarimo'tkazgichlarning kashf qilinishi elektron hisoblash texnikasida muhim o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Tibbiyot bilan integratsiyalanishi juda ko'plab kasalliklarning diagnostikasi, kasalliklarni nazorat qilish, davolash, tig'siz jarrohlik operatsiyalarini o'tkazish, lazer nurlarining kashf qilinishi esa undan texnikada va sog'liqni saqlash sohalorida foydalanish imkonini berdi. Muxtasar aytganda, fizikaning inson hayotidagi o'rni nihoyatda beqiyos. So'nggi

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

yillarda ta'lim sifatiga tobora e'tibor oshib bormoqda. Ta'lim sifatining oshishi bir tomondan o'qituvchiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarga ham bog'liq. Fizikada ta'lim sifatini yaxshilashda laboratoriya mashg'ulotlariga ko'p e'tibor qaratish, zamonaviy o'qitish tizimlariga va boshqa fanlar xususan butun dunyoda keng qo'llanilayotgan texnika tili ya'ni ingliz tili bilan bog'lab o'qitish juda zarur. Uzoq yillar davomida fan faqat nazariyadan iborat bo'lib qoldi. Bu esa fizikani o'ta murakkab fanlar qatorida baholanishiga sabab bo'ldi. Ammo olingan nazariy bilim laboratoriya mashg'ulotida sinab ko'rilsa, ingliz tilidagi terminlarning asl ma'nolarini o'zbek tili bilan solishtirib o'rganilsa eslab qolish darajasi oshadi, ham o'quvchilarda qiziqish ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-5431845?ONDATE=15.05.2024>
2. <https://lex.uz/docs/-5831978>.
3. M.F.Atoyeva. Ilg'or tajriba va o'qitish metodikasi // FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA jurnali 2021/1 Toshkent, 2021.
4. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. Yurak ishemik kasalliklari va ularni oldini olishning zamonaviy usullari // Principal issues of scientific research and modern education. – 2023. – T. 2. – №. 6.

Mualliflar:

Begmatova Dilfuza Abdullajonovna - O'zbekiston milliy universiteti "Umumiy fizika" kaferasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li - Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari" kafedrasida assistenti.

UDK 372.878

NAME OF THE NATION, NATIONAL MUSIC AND SONGS

MILLAT NOMI, BARHAYOT KUY VA QO'SHIQLAR

НАЗВАНИЕ НАЦИИ, НАЦИОНАЛЬНАЯ МУЗЫКА И ПЕСНИ

Kuychieva Zamira Unarovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston sh. IV-mavze.

E-mail: zamira-unarovna2024@gmail.com

Annotation. This article talks about the formation of musical literacy based on the tradition of teacher-student and the development of new technologies in this process, as well as conducting educational processes based on existing pedagogical technologies. The inclusion of the phrase "Uzbek music" as a priority concept, which represents the name of the nation, living tunes and songs, and their scientific foundations, is a symbol of the times and social needs. The article emphasizes the concept of musical pedagogy, i.e. pedagogical approaches of the creative activity of the music teacher in the process of working with students.

Key words: teacher - disciple, Uzbek music, value, musicologist, modernism, classical, drum lines.

Аннотация. В данной статье говорится о формировании музыкальной грамотности на основе традиции учитель-ученик и разработке новых технологий в этом процессе, а также образовательных процессах, основанных на существующих педагогических технологиях. Включение словосочетания «Узбекская музыка», которое представляет собой название народа, живые мелодии и песни, а также их научную основу, является символом времени и социальных потребностей. В статье подчеркивается понятие музыкальной педагогики, то есть педагогические подходы к творческой деятельности учителя музыки в процессе работы с учениками.

Ключевые слова: учитель-ученик, узбекская музыка, ценности, музыковед, модернизм, классика, барабанные направления.

Kirish. Millat nomi, barhayot kuy va ashulalari hamda ularning ilmiy asoslarini ifodalovchi "o'zbek musiqasi" so'z birikmasini ustuvor tushuncha sifatida sarlavhaga chiqarilishining o'zi zamon talabi va ijtimoiy ehtiyojlar nishonasidir. Darhaqiqat, O'zbekiston azaldan jahonshumul musiqiy qadriyatlar diyori: bu zaminda asrlar davomida shakllangan mushtarak xalq ijodiyoti, shuningdek, turli navlardagi ma'muliy hamda mumtoz kuy va ashular, doston yo'llari, butun boshli maqom majmualari o'zbek musiqasining amaldagi urf-odatlarini sifatida yashab kelmoqda, allomalari bunyod etgan risolalar va nota yozuvlarining ilmiy salohiyati bugungi kunda ham hayrat uyg'otmoqda [1].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Mo'tabar musiqiy merosimiz qadimiy namunalarning mualliflari noma'lum bo'lsa-da, ular o'ziga xos barqaror asos – matn tarzida millat xotirasida yashab kelmoqda. Belgili maqom yo'llari Rost, Navo, Ushshoq va boshqalar, "Feruz", "Tanovar", "Munojot" kabi son-sanoqsiz kuylar asrlar osha go'yo xatga bitilgan matndek ohorini yo'qotmadi. Bu mumtoz asarlarning kuy, vazn va shakl asoslarining puxta ishlanganligi shubha tug'dirmaydi. Vaholanki, ular muayyan musiqiy asar (tasnifot-kompozitsiya) sifatida qachonlardir va qaysidir uyutuk musannif (kompozitor so'zining ma'nodoshi)

tomonidan yaratilgan, albatta [2]. Bu meros o'zining yuksak badiiy hamda ijtimoiy ahamiyati tufayli avlodan-avlodga o'tib, umumxalq mulki va ma'naviy ozuqasiga aylanib ketgan. Jonli musiqiy qadriyatlarimizning hayotbaxsh kuchi ham shunda. Demak, muallifsizlik yoki xatga yozilmaslik musiqiy merosimiz namunalarning kamchiligi emas, aksincha, yashash tarzi. Shunga e'tiboran, bunday asarlarning ulkan va salobatli bir qismiga nisbatan mumtoz yoki klassik degan sifatlar ishlatilishi tabiiydir. So'nggi paytlarda musiqiy istilohda merosimizning izchil ravishda mo'tabar odatga aylangan mazkur qatlamini mutaorif (urf etilgan) deyshlik qaytadan rasm bo'lmoqda [3].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Mumtoz musiqaga mutaoriflik nisbatini berish endi paydo bo'lgan tushuncha emas. Forobiy "Katta musiqa kitobi"ning kirish qismida musiqiy asarlarning eshituvchilar orasida qaror topishida ma'rifiy urf-odatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi. Odat tarzida shakllanadigan nafs (his-tuyg'ular) va uning go'zal suvrat (shakl)laridan biri bo'lmish musiqiy va malaka (san'at)larni Forobiy "amaliy musiqiy san'at" deydi. "Ravshan bo'ldiki, musiqa san'atining ba'zi asoslari urf-odatdagi [mutaorifiy] ilmlardan, ba'zisi esa tabiiy [fizika, akustika] fandan, ba'zisi esa handasa [geometriya] san'atidan, ba'zisi adad [arifmetika] va ba'zisi amaliy musiqa san'atidan olinadi. Ammo, biz [aytib] bergan narsa urf-odat asoslari va nazariy ilmlardan olingani mana shundan ko'proqdir" [4].

Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda yashab ijod etgan buyuk musiqiyshunos Xo'ja Abdulqodir Marog'iy (1354–1435) esa o'zining "Maqosid-ul-alhon" asarida mumtoz musiqiy mabda (sarchashma)larni xuddi shunday hisob, handasa kabi riyoziy yoki tabiat ilmlaridan boshlanadigan hamda mutaorifiy amallardan hosil bo'ladiganga ajratadi [5]. Barhayot navolar, jonli udumlar bo'lib bizgacha etib kelayotgan musiqiy merosimiz aynan shu mutaorifiy toifaga mansubdir.

Mutaorifiylik (traditsiya) shunchaki o'z-o'zidan avlodan-avlodga o'tib boradigan odat emas. Musiqiydek hayotbaxsh san'atda, mutaorifiylik doim ma'lum qonuniyatlar asosida kechadigan ijod (yaratuvchanlik) jarayoni. Ehtiyoj (qonun-qoidalar) va ijod (yaratuvchanlik, doimiy yangilanish) mushtarakligi esa, erkinlikda yashaydigan jonli musiqiy jarayonning poydevoridir.

Shunga ko'ra, o'zbek musiqasini bir butun voqelik sifatida idroklash uchun negizidagi qonun-qoidalar tizimi hamda ularning amaldagi yangilanish (rivojlanish) jarayonini atroflicha tasavvur etmog'imiz lozim. Bu jonli jarayonning hayotda qoldirgan iz, o'tmish tarixini aniq hujjat va faktlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Bizning sohada esa, bunday ishonchli dalil va birlamchi manba – bu asrlar davomida muntazam ravishda merosga aylanib boradigan jonli jarayonning o'zi va unda sayqal topib, milliy qadriyat sifatida barqarorlashgan badiiy ijod namunalaridir.

Demak, mutaoriflik – o'z-o'zidan quvvat olib, oldinga intilib boradigan uzluksiz oqim. Uning o'zida o'tmish vabugungi kun muvaqqat (vaqtda kechadigan) bir butun jarayon tarzida mujassamlashadi. Jonli jarayon izini notaga olingan matn shaklida yozish, barqaror ichki qonun- qoidalarini esa tushuncha, atama va yaxlit nazariyalari sifatida ifodalash mumkin. Uzluksiz jarayonda kechadigan musiqiy asar tarixini matn suratida tasavvur etish imkoniyatini beruvchi nota yozuvining ilk namunasi bizda tanbur chizg'ilari matni shaklida XIX asrning so'nggi choragida joriy etildi.

Qirg' olti yildan ziyod (1864–1910) hukumat tepasida turgan shoir, bastakor va musiqiyshunos Muhammad Rahimxon Feruz (1846–1910) homiyligi va rahnamoligida Xorazm Olti yarim maqomi bir butun majmua sifatida xatga tushirildi. XX asrning 20-yillariga kelib noyob iste'dod sohibi, zakiy shoir, sozanda va musiqiyshunos, qo'li gul san'atkor Muhammad Komil Devoni (1887–1938) o'z salafllari ishini davom ettirib, xuddi shu nota yozuvi vositasida Xorazm mumtoz musiqasining qadimiyroq qatlami bo'lmish dutor maqomlarining yetti turkumini kuy va so'z matnlari bilan Olti yarim maqom (Tanbur maqomlari)ga qo'shib yozib oldi. Xorazm musiqashunoslarining juda katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bu topig'i o'zbek musiqasi tarixining zarhal sahifalaridan biridir.

Tanbur chizg'ilari kashf etilganidan 40 yil keyin, Buxoroda hali maqom pirlari Ota Jalol (1845–1928) va Ota G'iyos (1859–1927)lar hayot paytida ma'rifatparvar davlat arbobi, adib va alloma Abdurauf Fitrat (1886–1938) qo'shishi bilan o'z davrining yetuk musiqachi-etnografi Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879–1949) Shashmaqom majmuasining asosiy (ya'ni Fitrat "sho'bachalar" va keyingi tadqiqotchilar "ikkinchi guruh sho'balari" deyidigan ma'muliy qatlamidan tashqari) qismini takt tizimidagi yevropacha nota yozuvida xatga tushirdi.

XX asr o'rtalariga kelib O'zbekiston va Tojikistonda Shashmaqomning milliy shakllari joriy etilishi munosabati bilan ularni davlat siyosatiga ko'ra rasmiylashtirish maqsadida tegishli nota va so'z matnlari ham yaratildi. Shu alfozda tojikistonlik ustozlar Boboq ul Fayzullayev (1894–1964), Shonazar Sohibov (1903–1972), Fazliddin Shahobov (1911–1974)lar ishlagan 5 jildlik "Shashmakom" Moskvada nashr etildi [6]. Unga muvoziy ravishda O'zbekistonda Yunus Rajabiy (1896–1977) yozuvidagi "O'zbek xalq musiqasi" to'plamining 1-5 kitoblari va 6 jildlik "Shashmaqom" yuzaga keldi [7].

Mustaqillik davriga kelib, zamon ehtiyojlari kesimida maqomshunoslik borasida jiddiy izlanishlarga yo'l ochildi. Zamonaviy ilmlarga tayangan yangi avlod vakillari maydonga chiqa boshladi. Shular qatorida navqiron maqom ustozlari Rustam Boltayev va musiqashunos Botir Rahimovlarning nomlarini qayd etish mumkin. Ular Xorazm tanbur chizg'ilari ustida uzoq yillar ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borib, mazkur yozuvlardagi nota matnlarini zamonaviy takt tizimiga o'girishga va ijrolarini tiklashga muvassar bo'ldilar [8].

Tanbur chizg'ilarining qaytadan kashf qilinishi zamonaviy o'zbek maqomshunosligining yangi bosqichga ko'tarilib borayotgani dalilidir. O'z vaqtida ulug' ustozlar qo'li bilan bitilgan mo'tabar nota yozuvlarining keng ilmiy muomalaga joriy etilishi umumbashariy miqyosga molik tadbir. Vaholanki, u bir vaqtlar deyarli uzilish arafasiga etib qolgan jonli udumlarning vorisiylik rishtalarini tiklashdagi amaliy ahamiyati bilan bir qatorda, o'tmishning buyuk musiqiyshunoslaridan meros qolgan ilmiy yutuqlarni zamonaviy fan taraqqiyoti xizmatiga jalb etish imkoniyatini ham tug'diradi.

Mazkur munosabat bilan bir narsaga alohida e'tibor berish zarur. Gap shundaki, tobora puxtalashib borayotgan xat va ovoz yozuvlarining yuzaga kelishi va meros namunalarini notaga yozish, jonli musiqiy jarayonning asliyatiga zid emas. Nota to'plamlarining paydo bo'lishi milliy musiqiy merosning "og'zakilik" (notasizlik) mohiyatini o'zgartirmaydi. Uning bisotidagi ijodiy erkinlikni ham inkor etmaydi. Aksincha, sozanda vujudidagi boyliklarni uzoq muddat avlodlar xotirasida saqlanishida yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tarafdin, jonli jarayon ijod mahsuli bo'lgan nodir asarlarning mag'zini bo'lg'usi avlodlarga yetkazishga da'vat qiladi. Shu bilan birga ulug' san'atkorlar ijod mahsullarining tarixda koldirgan izlarini aks ettiruvchi ishonchli hujjat bo'lib ham xizmat etadi. Ma'lumki, XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda qad ko'targan o'zbek tilidagi adabiyot "chig'atoy adabiyoti" nomi bilan tarixga kirgan. Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar ushbu adabiyotning buyuk namoyandalardir. Uning bilan muvoziy rivojlangan musiqiy ham xuddi shunday ahamiyatga molikdir. Keyingi asrlarda bizning zaminda qaror topgan mumtoz musiqiy tizimning o'q tomiri ham aynan shu "oltin davr"dan ozuqa oladi. Demak, Alisher Navoiy davridagi "ilmi advor" bilan bugungi kundagi maqomot navlari orasida bevosita vorisiylik rishtalari mavjud deyishimizga katta asos bor.

Mazkur musiqiy va adabiy yuksalish davrida Hirotida Jomiy va Navoiylar davrasida tarbiya topgan va "zamonasining Marog'iysi" deb shuhrat qozongan zabardast musiqiyshunoslardan biri Mavlono Najmiddin Kavkabiylar (1533 yili vafot etgan). Hirot vayron etilganidan keyin Buxoroga qaytgach, bu azim shaharda ajoyib bir maktab yaratdi. Qisqasi, Buxoro go'zal san'atlar, xususan, musiqa borasida Hirot "oltin davri"ning vorisi bo'lib maydonga chiqdi. Bu jarayonni meros vorisiyligidagi ahamiyati o'ta muhimdir. Zero, Buxoro zamonasining yirik davlatlaridan biri sifatida Temuriylar davrida yuzaga kelgan yuksak madaniyat, jumladan, uning musiqiy udumlarini o'ziga singdirishda va keyingi yirik san'at o'chog'lariga, jumladan, Boburiylar saltanatiga eltishda vositachi bo'lib xizmat qildi.

Buxoro musiqiyshunoslik ilmi borasidagi Najmiddin Kavkabiylar, Darvish Ali Changiylar (XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlari) kabi namoyandalari bilan butun islom dunyosiga dong taratdi. Bu allomalar, Forobiylar boshlangan buyuk musiqashunoslar salafining so'nggi vakillari bo'lib tarixga muhrlandi. Sharq musiqashunoslik ilmining tadrijiy taraqqiyotini bu allomalarning merosidan tashqarida tasavvur etish qiyin.

XVII asr o'rtalarida Buxoroda nafis san'atlar inqirozga yuz tuta boshlaganda, Kavkabiylar va Darvish Ali maktabi vakillari Hindistonga, Boburiylar saroyiga talpindilar. Lekin qanday bo'lmasin, yuksak musiqiy madaniyat birdaniga so'nib ketmadi. Balki ichga bekingan botiniy salohiyat bo'lib, o'z vaqti-soatini poyladi. Bu musiqiy qudrat XVIII asr o'rtalariga kelib "Shashmaqom" bayrog'i ostida yana zohir bo'la boshladi. Aslida ildizlari moziyga tutash Shashmaqom udumlari shu qadar poydur va teran bo'lib chiqdiki, u butun mintaqaga katta ta'sir o'tkazdi.

Mazkur ijod to'loqida XIX asr boshlarida Xorazm musiqashunos va sozandalari Shashmaqomning o'ziga tarixiy sharoitlardagi yangi navi "Olti yarim maqom" majmuasini ishladilar. Sal keyinroq Qo'qonda Amir Umarxon saroyining sozandalari 18 yil Urganchda yashab musiqiy tarbiyat topgan Qashqarlik Ustoz Xudoyberdi boshchiligidagi Shashmaqomning sarahborlardan tashqaridagi nasr va sho'bachalar guruhiga monand qilib, boshqa bir majmua yarata boshladilar. Endilikda u "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" nomi bilan yuritilmoqda. So'ngra, XX asr o'rtalarida davr ijtimoiy extiyojlari taqozosi bilan yangi tarixiy sharoitlarga moslangan "Tojik Shashmaqomi" va "O'zbek Shashmaqomi" yuzaga keldi. Bugungi kunda ularning barchasi, ya'ni Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, tojik Shashmaqomi va o'zbek Shashmaqomi yagona maqomot nav tizimini tashkil etadi va o'zining ichki va tashqi sifatleri bilan oldingi "ilmi advor" ta'limotining davomchisi bo'lib maydonga chiqadi. Ana shu maqomot tizimining besh navidan to'rttasi O'zbekiston zaminida yashab kelmoqda. Shunday qilib, maqomot navlarining o'zagi – Shashmaqom tamoyillari muomalaga joriy etilishi bilan Markaziy Osiyo musiqiy tafakkuri tarixida yangi davr boshlanadi. Ilmi advor ta'limoti hukm surgan davrlarda o'ziga xos nazariy qarashlar hamda iboralar tizimi yuzaga kelib, u Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marg'iy va Abdurahmon Jomiy risolalarida aksini topgan edi. Kavkabiylar va Darvish Ali zamonlarida amaliy bilimlar oldinga chiqa boshladi. Va nihoyat, Shashmaqom zohir bo'lgan paytga kelib, mutaorifiylik va uning yo'ldoshi bo'lgan "amaliy ilmlar" (yoki "og'zaki nazariya") to'la-to'kis ustuvorlik kasb etdi.

Advor nazariyasi aql-idrok bilan sarhisob etiladigan riyoziy ilmlardan boshlanadi. Kuy doiralari asosini tashkil etuvchi bir oktava doirasidagi o'n yetti pog'onalik tovushqator yagona mahraj (dastlabki birlik 243/256 nisbatidagi baqiya bo'di)dan hosil qilinadi. Lekin uning nazariy asoslarini ishlagan Safiuddin Abdulmo'min Urmavi (1216–1294) hisob, handasa va falakiyot bilimlarini puxta egallagan yyetuk nazariyotchi va ayni chog'da aruz hamda musiqa bilimdoni, shoir, sozanda va bastakor bo'lgan. Shuning uchun ham uning advor nazariyasi, musiqiy amaliyotni yangi bosqichga ko'targan mushtarak ilmiy-amaliy ta'limot bo'lib maydonga chiqdi.

Umumsharq advor ta'limotining jahonshumul ahamiyat kasb etib, gullab-yashnagan davrida benazir sozanda va musiqiyshunos, she'rshunos va shoir, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta o'zlashtirgan alloma Abdulqodir Marog'iy (1354–

1435) nomi bilan bog'liq. Oldinlari u Bag'dodda musiqa va boshqa nafis san'atlarning mohir bilimdoni Sulton Sanjan Jaloir saroyida xizmat qilgan. Bag'dod zabt etilgandan keyin, Sohirqiron Amir Temur tomonidan u Samarqandga yuborilgan. Marog'iy, so'ngra Hirotda Shoxruh Mirzo saroyida xizmat qildi. Advor ilmini musiqiy mafkura sifatida yuksak bosqichga ko'tarilishi ham shu davr bilan bog'liqdir. Zamondoshlari Marog'iyi "sohibi advor" (advor egasi), "saromadi advor" (advor ilmining peshqadami) degan unvonlar bilan darajalaganlar. Bu jarayonning biz uchun ahamiyatli tomoni shundaki, u Temuriylar saltanatining poytaxtlari Samarqand va Hirotda ilm-fan, adabiyot, musiqa, memorchilik, kitobot va boshqa nafis san'atlar taraqqiyoti avj pallasiga chiqqan paytlarga to'g'ri keladi. Fitrat ta'biri bilan aytilganidek, "Husayn Boyqaro hamda Alisher Navoiyning himoyalari ostida chig'atoy adabiyoti, chig'atoy musiqasining "oltin davri" qurila boshlaydi" [6]. Musiqiy borasida bu madaniyatning tamal toshi qo'yilishida esa Abdulqodir Marog'iydek allomai zamonlarning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Temuriylar davri Markaziy Osiyo tamaddunining "oltin davri" ekanligini amerikalik atoqli olim Fredrik Starr ham e'tirof etmoqda [6].

Ma'lumki, XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda qad ko'targan o'zbek tilidagi adabiyot "chig'atoy adabiyoti" nomi bilan tarixga kirgan. Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlar ushbu adabiyotning buyuk namoyandalidir. Uning bilan muvoziy rivojlangan musiqiy ham xuddi shunday ahamiyatga molikdir. Keyingi asrlarda bizning zaminda qaror topgan mumtoz musiqiy tizimning o'q tomiri ham aynan shu "oltin davr"dan oziqa oladi. Demak, Alisher Navoiy davridagi "ilmi advor" bilan bugungi kundagi maqomot navlari orasida bevosita vorisiylik rishtalari mavjud deyishimizga katta asos bor. Ilmi advor va Shashmaqom musiqiy tizimlarining ichki munosabatlari haqida so'z borar ekan, eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, nazariyotdan amaliyotga intilgan ilmi advor va aksincha, amaliyotdan nazariyotga qarab yo'naltirilgan Shashmaqom ta'limotlari o'rtasida o'tib bo'lmaydigan to'siq yoki bir-birini inkor etuvchi ziddiyat yo'q, albatta. Vaholanki, bu ikki tayanch nuqtalik mushtarak umumiy jarayonning amaliy va nazariy jihatlariga turlicha urg'u berilishi va ijtimoiy ehtiyojlar o'zgarishi natijasida sodir bo'lgan holat, deb tushunmoq lozim. Xullas, o'n ikki maqomni shashmaqomga do'nishi, shunchaki tashqi sifat emas. Ular, mohiyatan, o'zining ichki qonun-qoidalariga asoslangan ikki alohida tizimni tashkil qiladi.

XIX asrda Buxoroda bir qator musiqiy risolalar yaratilgan. Ular, asosan, Shashmaqomning urf etilgan she'riy matnlaridan iborat bayozlar. Shunday bo'lsa ham, bu manbalardan she'riy matnlar bilan bir qatorda, Shashmaqomning musiqiy tarkiboti, tartib va nizomlariga oid qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan risola-bayozlar Shashmaqom musiqiy tizimi xususida umumiy taassurot hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Risola-bayozlardan kelib chiqqan holda, Shashmaqom tafakkurini tushunish uchun eng avvalo, o'ta muhim bo'lgan ikkita masalaga alohida e'tibor qaratmoq zarur. Ular, birinchidan, uning ma'no-mohiyatini belgilovchi kalit tushuncha – "Musiqiy Shashmaqom" ta'rifi; ikkinchidan, musiqiy Shashmaqomning butunligi va ichki tarkibotini belgilashda yetakchi omillar bo'lgan parda (lad) – ya'ni, musiqiy tovushning past-balandlik chegarasi va vazn (usul) – vaqt, zamon miqdori tizimlari asosiy tamoyil ekanligidir. Risola-bayozlarning ko'pchiligi birinchi sahifaning ustiga qizil siyoh bilan yozilgan quyidagi ta'rif bilan boshlanadi: "Musiqiy Shashmaqom – oldin o'tgan aziz va mukarram ustozlardan qolgan merosdir" [6]. Jumlaning ma'nosi: Musiqiy Shashmaqom majmuasi – qadim o'tgan (mutaqaddim) ustozlar ijodiga mansub mutaorif (urf etilgan) muqaddas meros demakdir. Shunga ko'ra, uni ilmi advorga o'xshab "aqliy" (nazariy) ilmlardan emas, balki "naqliy", ya'ni "og'zaki" ravishda odat etilgan bilim va malakalardan, mutaorifiylikdan kelib chiquvchi tartib va nizomlar deyishga haqlimiz.

Majmua nomi tarkibidagi "musiqiy" (musiqiylik, ya'ni ilmi musiqiyga aloqadorlik) uning sifatidir. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy asoslari mavjudligining nishonasi. Darhaqiqat, Shashmaqomning tizim sifatida tashkil topishida hamda uning butunligini belgilanishida aynan tom ma'nodagi musiqiy tamoyillar – parda (lad) va usul (ritm) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Musiqiy Shashmaqom tizimi olti bosh maqom (shundan "shashmaqom" atamasi kelib chiqadi; u "olti daromad" yoki "olti saraxbor" ham deyiladi) va o'n sakkiz yordamchi-nasr parda tuzilmalaridan tarkib topishi risola-bayozlardagi ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Fitrat ta'biri bilan aytilganda, "bizning klassik musiqamiz "Shashmaqom" ismi bilan yurguzilgan o l t i q a t o r (ta'kid bizniki – M.O.) kuylardan iborat" [6]. Ana shu olti qator asos kuy (parda-lad-modus) yoki olti maqom va ularga ergashgan o'n sakkiz nasr (yordamchi parda jamlamalari – ladlar) Shashmaqom parda tizimini (lad sistemasini) tashkil qiladi. Shunga ko'ra, musiqiy bayozlarda qayd etilgan Shashmaqom ta'rifi, Fitrat tomonidan boshqacha so'zlar bilan, lekin o'xshash ma'noda ifodalangan deyish mumkin. Eng muhimi, qanday ta'riflanishidan qat'iy nazar, olti bosh va o'n sakkiz yordamchi parda tuzilmalaridan iborat yaxlit tizim, hanuzgacha Shashmaqom va undan andoza olingan boshqa maqomot navlarning lad asosini tashkil etib kelmoqda. Musiqiy bayozlardan keyin Shashmaqom musiqiy mantiqini ilmiy asoslashga urinish Abdurauf Fitrat (1886–1938) tomonidan bo'ldi. U davr talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, Shashmaqom merosini milliy musiqiy tizim timsolida ko'rishga harakat qildi. Shu mafkura asosida mavzuga oid bosh asarini u "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomladi. Fitrat chinakam olim va u qo'llagan har bir iboraning ma'no yuki bor. Uning "Adabiyot qoidalari" asarida "klassik" tushunchasiga quyidagicha izoh beriladi: – "...shu vaqtda (Aristotel zamoni nazarda tutiladi – M.O.) darajalarga ajralgan shoirlarga klassik shoirlar, asarlariga-da klassik asarlar deyilgankim, boshqalarga o'rnak bo'larlik mumtoz asarlar demakdir" [6]. Fitrat musiqiy ta'limoti "sharq musiqasi asos nazariya e'tibori bilan birdir" degan tamoyildan boshlanadi [6]. Bunda birlamchi "musiqiy" iborasining o'zidanoq, ilmiy asoslarga ega nav

xaqida soʻz borayotganligi maʼlum boʻladi. Demak, soʻzsiz eʼtirof etiladigan “oʻzbek mumtoz adabiyoti” atamasiga maʼnodosh sifatida “oʻzbek klassik musiqasi” tushunchasining joriy etilishining oʻzi milliy mafkurani idroklash yoʻlidagi dadil qadam boʻldi. Boshdan aytish zarurki, Fitrat oʻzbek klassik musiqasining tom maʼnodagi nazariy asoslarini yaratishga ojiz ekanligini ochiq-oydin tan oladi. “Meni musiqiy bilan munosabatim shudir: oʻzimizning musiqamizni sevaman, koʻbda tinglayman, musiqamizga boʻlgan bu munosabatimning buyrugʻi bilan bu toʻgʻrida yozilgan eski-yangi asarlarni axtarib, topib tekshiraman. Bundan ortiq bir narsam yoʻq. Shu qadargʻina bir hozirliq bilan el kuylarimizning ohangini tekshirish yoʻlida, albatta, ish koʻra olmayman. Buni mendan kutish ham boʻlmaydir” [6]. Shunday boʻlsa-da, alloma oʻzining oʻtkir zehni va ilmi bilan oʻzbek musiqasining tub negizi – parda tizimiga xos boʻlgan qator sifatlarni koʻra bildi va mavzuga oid bir qancha istiqbolli tushunchalarni yuzaga chiqardi. Ular orasida “ohang usuli” (intonatsiya), “asos kuy” yoki “kuy asosi” (lad), “olti qator kuy” yoki “olti qator asos kuy” (olti qatorli lad tizimi) kabi maʼnodor atamalar bugungi kun milliy musiqashunosligi uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Fitrat merosining yana bir eʼtiborli qismi u tomonidan tuzilgan Shashmaqom mundarijasidir [6]. Bu yigʻma jadval ishlanishida ayrim xatoliklarga yoʻl qoʻyilgan boʻlsa-da, (masalan, talqin va chapandoz qismlarini “asos kuylar”, yaʼni mustaqil parda tuzilmalari qatoriga chiqarilishi), bugungi kungacha u Shashmaqom tarhi umumiy koʻlamining eng toʻliq va mukammal andozasi boʻlib kelmoqda. Afsuski, qatagʻon yillarida Fitrat va unga oʻxshagan millatparvar maʼrifatchilar hamda tom maʼnodagi butun boshli milliy musiqa merosimiz taʼqib ostiga olinib, isteʼmol doirasi sunʼiy ravishda chegaralandi. Oʻzbek musiqasining tadrijiy taraqqiyotidagi bunday burilish asrlar osha davom etayotgan udumlar va uning azaliy yoʻldoshi boʻlib kelayotgan tafakkur vorisiyligiga katta putur yetkazdi. Bu talofatning asorati uzoq yillar davom etdi. Biroq chinakam tabiiy yoʻl bilan odatga kirgan musiqiy qadriyatlarning hayotbaxsh ildizlari shu qadar kuchli ediki, salgina imkoniyat paydo boʻlishi bilan u yangidan asliga qarab intildi. Oʻzbekistonda ana shunday vaziyat Stalin vafotidan soʻng, 50-yillarning oʻrtalaridan yuz tuta boshladi. Musiqiy meros borasida mazkur ijobatning samarasi qilib amaldagi nav va shakllarni oʻz ichiga oluvchi 9 jildlik “Oʻzbek xalq musiqasi” toʻplamining nashrini koʻrsatish mumkin. Bu ulkan musiqiy majmuaning aksariyat qismi (1-5 kitoblari) atqoli sozanda va bastakor Yunus Rajabiy (1896–1977) tomonidan notalashtrilgan [6]. “Oʻzbek xalq musiqasi”ning 5-jildi toʻlaligicha Buxoro maqomlariga bagʻishlangan.

1959 yilda Oʻzbekiston radio va televideniye qoʻmitasi qoshida akademik Yunus Rajabiy rahbarligida “Maqom ansabli” tuzildi. Shundan eʼtiboran milliy maqomshunoslikning yangi davriga qadam qoʻyilib, qatagʻon yillarida toptalgan va uzilish arafasiga yetib qolgan maqom udumlarining vorisiylik rishtalari qayta tiklana boshlandi. Bu tarixiy voqeaning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy ahamiyati shundaki, ulugʻ alloma Yunus Rajabiyning saʼy-harakatlari tufayli maqomot tizimining “Oʻzbek Shashmaqomi” degan navi yuzaga keldi va uning asoslari tegishli nota matnlari va ularga muvofiq ovoq yozuvlari bilan hujjatlashtirildi. Milliy qadriyatlarni qayta tiklash munosabati bilan musiqashunoslik ilmi borasida ham sezilarli oʻzgarishlar roʻy bera boshladi. Mazkur davrda oʻzbek musiqa merosining ilmiy asoslarini oʻrganishda ikki zabardast olim Yuzef Kon (1921–2002) va I.Rajabov (1928–1986)lar faoliyati alohida oʻrin tutadi. Ularning oʻzbek musiqasining tub negizini tashkil etuvchi lad-parda asoslariga boʻlgan qarashlarini, shartli ravishda “tashqaridan” (yaʼni yevropacha uslublar kesimida) va “ichkaridan” (yaʼni oʻzida odat tusini olgan yoʻl-yoʻriqlar) yondashuvlar deyish mumkin. Ularni mohiyatan qarama-qarshi yoki zid nazariyalar emas, aksincha muayyan mavzuga ikki xil yondashuv va bir-birini toʻldiruvchi qarashlar deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Shunday qilib, zamon va makon nuqtai nazaridan mislsiz boyliklarni oʻzida mujassamlovchi oʻzbek musiqasi – mavjud voqeʼlik. Uning jonli urf-odatlarini javharining doimiy yoʻldoshi boʻlib kelayotgan fikr, mulohaza va ilmiy qarashlar ana shu voqeʼlikni idrok etishda ishonchli tayanch manba boʻlib xizmat qiladi. Oʻzbek musiqasining moʻtabar jonli udumlari va ularga vobasta maʼlumot, tushuncha va nazariyalar yigʻindisini olti jildli majmua shaklida saranjomlab, ularni quyidagicha nomladik: 1. Tarix sahifalari (qadim zamonlardan – mustaqillik davrigacha); 2. Manba va matnlar (Forobiydan – Fitratgacha); 3. Nazariyot (parda, usul va taʼlifot); 4. Amaliyot (ijro, ijod, nav va shakllar); 5. Oʻquv qoʻllanmasi (nota matnlari va CD ovoq yozuvlari); 6. Lugʻatnoma (muxtasar qomus).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birgalikda quramiz. T., “Oʻzbekiston”, 2017.
2. Maxmudov T. Mustakillik va maʼnaviyat. T., “Shark”, 2001.
3. Mualliflar guruhi. Madaniyatshunoslik. Fargʻona, 1997.
4. Axmedov B. Amir Temur. T., 1994.
5. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1992.
6. Musiqashunoslik masalalari. Maqolalar toʻplami. T. “Yangi asr avlodi”. 2002.
7. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. www.Completevocalinstitute.com
8. Larri Star & Christopher Waterman. American popular music. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
9. Ochilov Ergash. Umrboqiy qoʻshiqlar. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2013 yil.
10. Sokin Sh. Yetti muloqot (Ortiq Otajonov bilan kechki suhbatlar) – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 1994. 18 bet.

Muallif:

Kuychiyeva Zamira Unarovna – Guliston davlat universiteti, Musiqashunoslik kafedrasida katta oʻqituvchisi.

UDK 372.853

PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS IN TEACHING THE SECTION OF ELECTROMAGNETISM IN THE AREAS OF TECHNICAL EDUCATION

TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHLARIDA ELEKTROMAGNETIZM BO'LIMINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ РАЗДЕЛА ЭЛЕКТРОМАГНЕТИЗМА В НАПРАВЛЕНИЯХ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Karimov Xasan Narzullayevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Toshkent 100084, Amir Temur shox ko'chasi 108 uy

E-mail: karimov@tuit.uz

Abstract: This paper examines the general objectives of teaching the section on electromagnetism in technical universities and the importance of this section in training specialists in various fields. The possibility of enriching the traditional educational process in technical universities by developing students' competencies necessary for decision-making and action in non-standard conditions, as well as the application of practical solutions in the study of physics is discussed.

Keywords: electromagnetism, educational goals, competence, abilities, Kirchoff's rules, Ohm's law, integration.

Аннотация: В данной работе рассматриваются общие цели преподавания раздела электромагнетизма в технических вузах и значение этого раздела в подготовке специалистов различных направлений. Обсуждается возможность обогащения традиционного учебного процесса в технических университетах за счет формирования у студентов компетенций, необходимых для принятия решений и действия в нестандартных условиях, а также применения практических решений в рамках изучения физики.

Ключевые слова: электромагнетизм, образовательные цели, компетентность, способности, правила Кирхгофа, закон Ома, интегрирование.

Kirish. Texnika ta'lim yo'nalishidagi kadrlar tayyorlashdagi Fizika faning o'quv jarayonini tashkil etish, ta'limning umumiy maqsadlariga erishishga bo'ysinadi: har qanday darajadagi raqobatbardosh, kasbiy malakali, faoliyat turi bo'yicha universal va kasbiy kompetensiyasi yuqori darajadagi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Fizika kursining rivojlanish tendensiyasi kurs mazmunini taktik jihatdan rivojlantirish va profillashgan bilimlar to'plamini hosil qilish asosida ro'y berishi kerak. Texnika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar fizika fanini nafaqat DTS talablarini bajarib kredit to'plash uchun kerakli fan, balki o'z mutaxassisligining ajralmas fani ekanligini his qilib o'qishi kerak.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilish metodlari

Ushbu tadqiqotning obyekti texnika oliy ta'lim muassasalarida elektromagnetizm bo'limini o'qitish jarayonidir. O'qitish metodlari sifatida nazariy tahlil, empirik kuzatuvlar, interaktiv darslar, va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan. Tadqiqot davomida mavjud ta'lim dasturlarining samaradorligi, talabalarning o'qitish natijalari va ularning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari o'rganildi. Shuningdek, elektromagnetizm bo'limidagi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun texnologik ta'lim metodlari, jumladan, analitik va kompyuter modellashtirish vositalari ishlatildi. Fizika fanining zamonaviy pedagogik yondashuvlari, masalan, kompetentlikka asoslangan o'qitish va muammoli o'qitish usullari orqali, talabalar bilimlarini kengaytirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida taqdim etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Fizika fanining elektromagnetizm bo'limida axborot texnologiyalar sohasi mutaxassislari uchun butun zanjir uchun Om qonuni, Kirxgof qoidalari, yarim o'tkazgich fizikasi, kontakt hodisalari tushunchalarini mukammal masalalar asosida tushuntirish kerak [1]. Aynan shu yo'nalish talabalar kelgusi kurslarda maxsus fan sifatida qattiq jismlar mexanikasi, elektrotexnika va sxematexnika fanlarini fizikaning fundamental tushunchalar asosida o'zlashtiradi. Lekin bu umumiy fizika kursining yaxlitligini buzmasligi kerak, chunki Kirxgof qoidalari va Om qonuni zamonaviy fizikaning ob'yekti bo'lgan yarimo'tkazgichlar fizikasining muhim mavzusi hisoblanadi. Fanni maqsadli rivojlantirish fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda hal etish imkonini Fizika faning sinflashtirilgan ramkasi doirasida, tabiiy fanlarni o'qitishning majburiy elementlar ro'yhati asosida tashkil etiladi [2].

Texnik universitetlarda an'anaviy o'quv jarayonini to'ldiradigan fizika fani kompetentlikka ega bo'lajak mutaxassislarning haqiqiy nostandart sharoitlarda harakat qilishga tayyorlik qobiliyatini shakllantirishga va mutaxassis nuqtai nazaridan yechimlar qo'llashga yordam berish kerak. Fizika faning ish dasturlarini kompetentlikka asoslangan yondoshuv bilan tashkil etish obektiv dunyoning aksi bo'lgan fizika fanini amaliy jihatdan muhandislik faoliyatini katta darajada to'ldirib turadi [3-6].

O'zbekiston Ryepublikasi DTS larining asosiy talablari muayyan muhandislik yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tegishli asosiy ta'lim dasturini loyihalashni shakllantirishda muhandislik sohasidagi ishlab chiqarishda foydalaniladigan ta'lim natijalariga qaratiladi. Ta'limga oid qonunlarda muhandislik texnologiyalari sohasida bitiruvchilarning kasbiy va umumiy kompetensiyasiga yuqori talab qo'yilgan, shu bilan birga milliy ta'lim dasturiga va

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

xalqaro talablarga to'la javob beradigan kadrlar bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Ta'limga oid qonunlardagi talablar asosida bitiruvchilarning kompetensiyasini kasbiy va umumiy kompetensiya ko'rinishida tarkibiy qismlarga ajratish amalga oshirildi, bu bitiruvchilarning asosiy ta'lim dasturini Fizika faning mazmuniga mos keladigan tushunchalar bilan boyitish imkonini berdi [7-9].

1-jadvalda bajarilgan ishning elementlari ko'rsatilgan. Texnika fanlari sohasining axborot texnologiya yo'nalishlari bakalavriatura bitiruvchilari (mutaxassislari)ning ish joylarida kompetensiyasini namoyish qilishi Fizika faning o'quv natijalari bilan bog'liq. Shuning uchun Fizikadan o'qitishning natijalari quyidagi tarkibiy qismlarga ajratildi: bilish (B), ko'nikma (K), malaka ya'ni bilimlardan foydalana olish (M) va kompetensiya. Fizika fanidan olingan bilimlar texnik ta'limning barcha yo'nalish va mutaxassisliklari modellarida alohida bir semestrda va ketma-ket semestrda semestr gacha doimiy ravishda namoyon bo'lishi kerak.

1-jadval

Yo'nalish	Kompetensiya	Bilish	Ko'nikma	Malaka (Bilimlardan foydalana olish)
Radiotexnika va radioelektronika, Telekommunikatsiya texnologiyalari, Kompyuter injinerining, Dasturiy injinerining	Bitiruvchi tabiiy fanlar va matematikaning asosiy qoidalari, qonuniyatlari va usullarini bilishi asosida zamonaviy bilim darajasiga mos keladigan dunyoning ilmiy manzarasini ifodalay olishi kerak	Fizik hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lish, fizikaning asosiy fundamental fonunlarini bilishi	Masalalar yechishda fizika qonunlarini qo'llay olish	Fizik kattaliklarni o'lchash usullarini va fizik tajribalarni o'tkazishni usulini shaxsan o'zi amalga oshirish malakasini egallash
	Bitiruvchi eng oddiy fizik-matematik modellarni hodisalarni, jarayonlarni, sxemalarni, turli funksiyali qurilmalarni yarata olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak	Real vaqt rejimidagi jarayonlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan fizik modellarni bilishi	Tegishli fizik-matematik apparatlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llay olish	Boshlang'ich shartlar va ayrim taxminlarni hisobga olib real jarayonlar (real gazlar va boshqalar) uchun fizik tenglamalarni yechish tajribasiga malakali egallash
	Bitiruvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolarning tabiiy-ilmiy mohiyatini aniqlash, tegishli fizik-matematik apparatlardan foydalanib ularni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish	Qo'llanilgan nazariy xulosalardan foydalanishdagi chegaralarni, o'rganilayotgan hodisalar zamon va makon tushunchalari bilan bog'liqligini bilishi	Harakatni tasvirlash, grafikli axborotlarni tahlil qilish uchun koordinatalar va vektor usulidan foydalana olish	Jarayonlar xususiyatini aniqlashda nostandart sharoitlar uchun tegishli matematik apparatlardan foydalanish tajribasiga ega bo'lishi

Fizika fan sohasidagi talabalarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar asosida o'qitish natijalarining har bir komponentasi uchun o'zlashtirish darajasiga mos bajariladigan qo'shimcha mezonlar bilan to'ldiriladi. Shakllangan qo'shimcha mezonlar maxsus fanlarni o'qitishdagi vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladi. U yoki bu muayyan sohada fizika qonunlarning harakatini tasvirlashda ilovalardan va ma'lum xarakterli misollardan foydalaniladi.

Ushbu ishning asosiy maqsadi texnika va texnologiya doirasida bitiruvchi tayyorlashda, alohida mutaxassis va yo'nalishlar sohalari uchun Fizika kursi bo'yicha qo'yiladigan talablarni semestr tizimda ishlab chiqishdan iborat bo'lib, u mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqadigan amaliy xarakterdagi masalalarni yechish uchun fizika faning fundamental tushunchalaridan foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

1-jadvalda asosiy ta'limni loyihalashtirishni tayyorlash yo'nalishlaridan biri uchun taqdim etilgan, o'qitish natijalari ko'rsatilgan. Bunga erishish uchun asosiy ta'limni loyihalashda Fizikani o'qitishning natijalari bilan bog'lash kerakligi tushintirilgan: Fizika kursida o'qitish natijalarini sohalar bo'yicha ajratishni shakllantirish ko'rsatib o'tilgan. Bunday taqdimotlar texnik ta'lim mutaxassisliklar sohasidagi barcha bitiruvchilar tayyorlash yo'nalishlari uchun shakllantiriladi.

Bakalaviatura mutaxassisliklariga umumiy ta'lim metodi bo'yicha o'qitishning natijalariga qo'yilgan talablar mazmuni bo'yicha kredit to'plash va mutaxassislikka ega bo'lishi uchun fizika fani asosiy baholash komponentlardan biri sifatida kiritilgan. Bu talablarning mazmuni bitiruvchilarning tabiiy ilmiy tayyorgarligining asosiy darajasiga qo'yilgan talablar bo'yicha ta'lim jarayonlarida fizikani fan sifatida o'qitish kiritilgan.

1-jadvalda talabalarni tayyorlashda Fizika fan sohasiga qo'yilgan talablar uchun keltirilgan. (Fizika kursining mazmuni uchun har bir elementdagi alohida ustunlar klaster 2 ning hususiyatlarini ko'rsatib beradi).

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Misol tariqasida Fizika 1 kursining “Doimiy tok qonunlari” mavzusida ayrim elementlar uchun har bir integrallashgan ta’lim natijalarining komponentalari keltirilgan. Har bir komponentalarda minimal yetarli darajasiga mos keladigan o’qitish natijalarining mezonlari keltirilgan.

2-jadvalda Fizika fan sohasi bo’yicha asosiy kasbiy kompetensiyalarning umumlashgan ro’yxati taqdim etilgan.

2-jadval

№	Kompetensiya
1	Kasbiy tayyorgarlikda asosiy qonunlardan foydalanishga tayyorlanish va tabiiy fanlarni tizimli bilish.
2	Matematik tahlil va modellashtirishni, nazariy va eksperimental tadqiqot usullarni qo’llash qobiliyati
3	Kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan tabiiy ilmiy muammolarga tayyorgarlik va ularni hal qilish uchun fizik-matematik apparatlardan foydalanish qobiliyati
4	Ishlab chiqarishda energiya va resurslarni tejash va atrof muhitni muhofaza qilish bo’yicha tadbirlarni amalga oshirishga tayyorgarligi va qobiliyati

Birinchisi ustunda o’rganilayotgan faning masala kontent elementlarini yozishdagi murakkablik darajasining mazmunini ko’rsatadi. Ikkinchi ustun kontent kodini yozishda didaktik birlik raqamining mazmunini ko’rsatadi (modul, bo’lim); uchinchi zarf vazifa mavzusining identifikatsiyalangan raqamini ko’rsatadi. Oxirgi raqam (jadvaldagi) 2-jadvaldagi kasbiy kompetensiya tartib raqamiga mos keladi.

Xulosa. Maqolada “Fizika” kursi bo’yicha talabalarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablarning semestr tizimini ishlab chiqish bo’yicha dastlabki natijalar muhandislik va texnologiya sohasidagi yo’nalishlar va mutaxassisliklar uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuvni to’ldiradi. An’anaviy o’quv jarayoni va bitiruvchilar tomonidan olingan tizimli bilimlardan amaliy muhandislik faoliyatida foydalanishga yordam beradi. Umuman olganda, elektromagnetizm bo’limini o’qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, ta’lim dasturlarini yangilash va talabalar o’rtasida zamonaviy texnologiyalarni o’rganish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu o’z navbatida, texnika ta’limining sifatini oshirish va kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov. // [Development of creative thinking in higher education](#) // Science and innovation» international scientific journal.
2. X.N.Karimov. // [Fizika fanini o’qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish](#) // “Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to’plami. –P. 102-104
3. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // [Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o’qitishni rivojlantirish](#) // “Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to’plami. 2023. –P. 113-115.
4. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -C. 479-482.
5. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // [Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов](#) // “Science and innovation” international scientific journal.
6. B.B.Turdiqulov, O’S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // [Atom va molekullarning yorug’likni yutishi va nurlanishi](#) // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –C. 1252-1258.
7. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233.
8. Kh.N.Karimov. // [Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies](#) // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -C. 471–475.
9. Axmadov M. // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o’qitish //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 90-92.

Muallif:

Karimov Xasan Narzullayevich - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, tadqiqotchi.

UDK 372.853

ENERGY SAVING COMPETENCE OF STUDENTS AND STUDENTS

ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ШКОЛЬНИКОВ И СТУДЕНТОВ

O’QUVCHI VA TALABA YOSHLARINING ENERGIYA TEJAMKOLIGI KOMPETENTLIGI

Qarov Botir Xamro o’g’li, Rahmonov Shohobiddin Safaraliyevich

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. 180100, Qashqadaryo vil. Qarshi sh
Xonobod shoh ko’chasi

E-mail: botir.qarov@mail.ru, shohobiddin.rahmonov@mail.ru

Abstract. This article discusses one of the current issues of today - energy saving and rational and effective use of available energy. At the same time, the relevance of the Resolution No. ORQ-940 "On energy saving, its rational use and increasing energy efficiency", which entered into force on November 9, 2024, and the opinions of foreign scientists on this

issue are presented. It is necessary to implement energy saving in all aspects of life by instilling energy saving competence in the minds of young students. For this, the relevant competencies that should be formed from preschool childhood and monitored throughout their lives in the continuous education system are considered. It is emphasized that teachers with appropriate psychological and pedagogical training are of decisive importance in ensuring this process.

Keywords: Energy, natural resources, economy, efficiency, electricity, gas.

Аннотация. В данной статье обсуждается одна из актуальных проблем современности – энергосбережение и рациональное и эффективное использование имеющихся энергоресурсов. При этом актуальна актуальность решения № ОРQ-940 «Об экономии энергии, ее рациональном использовании и повышении энергоэффективности», вступившего в силу 9 ноября 2024 года, и мнения исследований зарубежных ученых по этому поводу. были упомянуты. Необходимость внедрения энергосбережения во все стороны жизни путем привития компетенции энергосбережения в сознании студенческой молодежи. Для этого задумываются о соответствующих компетенциях, которые должны формироваться с дошкольного детства и контролироваться на протяжении всей жизни в системе непрерывного образования. Подчеркивалось, что решающее значение в обеспечении этого процесса имеют педагоги, имеющие соответствующую психолого-педагогическую подготовку.

Ключевые слова. Энергетика, природные ресурсы, экономика, эффективность, электричество, газ.

Kirish. Tabiiy resurslardan foydalanishning energiya samaradorligini oshirish aholining energiya resurslaridan foydalanish madaniyati asoslarini egallashini taqozo etadi. Har kimning va hamma narsada isrofgarchilikni engish kerak. Axir energiya, tovarlar va xizmatlar uchun barcha xarajatlar iste'molchilar tomonidan to'lanadi. Shuning uchun energiya iste'moli haqida yangi fikrlashni shakllantirish zarurati.

“Fransiyaning Schneider Electric energiya iste'molini boshqarish kompaniyasi (O'zbekistonda vakolatxonasi faoliyat ko'rsatadi) mutaxassislari uy xo'jaliklarida eng ko'p energiya iste'mol qiluvchi uskunalar ro'yxatini tuzib chiqdi. Ushbu ro'yxatda isitish jihozlari birinchi o'rinni band qilgan – ularning hissasiga jami iste'molning 50–70 foizi to'g'ri keladi. «Konditsioner, changyutkich singari katta jihozlar uy xo'jaligida elektr iste'molining katta qismini oladi. Bunday jihozlarning elektr sarfi jami iste'molning 50 – 70 foizini tashkil qilishi mumkin. Bu – jihozning isitish yoki sovitish moslamasi ekanligiga bog'liq. Isitish jihozlari sovitish jihozlariga ko'ra ancha ko'p energiya talab qiladi», deydi kompaniya injeneri Andriyus Peryavichyus” [6].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida maktab o'quvchilar va talabalarda energiya tejamkorligi komtitentligini takomillashtirish jarayoni belgilanib, ta'lim muassasalarida muammoga oid ilmiy, metodik, psixologik, pedagogik adabiyotlar, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy postindustrial jamiyatda energiya tejash muammosi butun insoniyatning taqdiriga aylanadi. Buni energiya tejashni tartibga solishning jahon amaliyoti tasdiqlaydi: hujjatlar, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, III, Yaponiya qonunchilik choralari, "Rossiyada energiya tejash" dasturi(1998) va respublikamizda Prezidentimiz 07.08.2024 yildagi "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'RQ-940-sonli Qonunni imzoladi [7]. O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi va ijtimoiy xizmatlarning energiya zichligi global ko'rsatkichlardan bir necha baravar yuqori, bu bizning mahsulotlarimizni raqobatbardosh va hayotimizni yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada isrof qilishiga olib keladi.

O'zbekistonda ishlab chiqaruvchisi ishlab chiqarish uchun o'rtacha dunyo mamlakatiga qaraganda o'rtacha bir necha baravar ko'proq energiya sarflaydi. Asosiy qonunchilik choralari amalga oshirilmagan. Korxonalar, tashkilotlar va har bir shaxsda energiya iste'molini majburiy va ixtiyoriy tartibga solish tizimini shakllantirishning ahamiyati va o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Energiyani tejashga ta'sir qiluvchi omillarning ikki guruhi mavjud: ob'ektiv va sub'ektiv. Energiyani tejashning ob'ektiv omillariga energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalar, iqtisodiyot tarkibidagi maqsadli o'zgarishlar, shaxsiy va davlat energiya iste'moli tarkibi kiradi. Subyektiv deganda biz quyidagilarni nazarda tutamiz: energiya va ekologik kompetentsiyaning etarli emasligi sababli aholining ko'pchiligining yoqilg'i va energiya iste'moliga isrofgarchilik bilan munosabatda bo'lishi; yoqilg'i-energetika taqchilligi kuchayib borayotganini aholining tushunmasligi (ogohliligi); jahon amaliyotida energiya kodeksining, ya'ni energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishni tartibga soluvchi qoidalar, kasbiy xulq-atvor normalari to'plamining yo'qligi.

Respublikamiz aholisining energiya tejashga befarq, psixologik neytral munosabatda bo'lish sabablari nimada? 1. Energiya narxlarining nisbatan past narxdaligi. 2. Normativ-huquqiy hujjatlar va qonun hujjatlarini mensimaslik odati. 3. Energiyani tejaydigan ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining yo'qligi.

Energiyani tejash - bu maqsadli chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tashqi manbalardan iste'mol qilinadigan energiya miqdorini kamaytirishdir. Har qanday sohada energiya tejash, asosan, undan oqilona foydalanish orqali foydasiz energiya yo'qotishlarini kamaytirishga bog'liq. Yo'qotishlarning 90% energiya iste'moli

sohasida sodir bo'lishini va faqat 9-10% elektr energiyasini uzatishda yo'qolishini hisobga olsak, asosiy harakatlar energiya tejash, ayniqsa, elektr energiyasini iste'mol qilish sohasida jamlangan.

Elektr energiyasidan samardorlikni ta'minlash uchun uchta asosiy misol keltirishimiz mumkin. Ulardan biri biz elektr energiyasini iste'mol qilayotganimizda behuda sarflanayotgan elektr energiyasidagi yo'qotishlar tizimda elektr stansiyalari tomonidan ham ta'minlanishi lozim bo'ladi. Shuningdek, elektr energiyasiga ehtiyoj o'sib bormoqda mazkur ehtiyoj o'sib borishi bilan birga ular orqali isrofgarchilik ham o'sib boradi. Hamda isrof bo'layotgan elektr energiyasini oldini olmasak, tabiiy resurslarimiz kelajak avlodga mazkur energiya zaxiralari yetib bormaydi agarda biz samardorlik bilan foydalanib biz nafaqat o'zimiz uchun balki kelajak avlod uchun ham energiya zaxiralarini saqlab qolgan bo'lamiz. Agarda biz elektr energiyasini ortiqcha sarflab ishlatadigan bo'lsak qayta tiklanmaydigan qazilma yoqilg'ilaridan ortiqcha foydalanishga, atrof-muhitga issiqxona gazlarini ishlab chiqishga sabab bo'lamiz. Bu o'z navbatida iqlim o'zgarishi, iqlim barqarorligini izdan chiqarishga sabab bo'ladi. Elektr energiyasidan foydalanishda shunday fikr bildirish mumkinki, xozirgi kunda elektr energiyasi isitish va sovutishda keng foydalaniladi. Xususan, xonani sovutish jadal suratda o'sib bormoqda. Agarda biz binoda ortiqcha tirqichlar, eshik oylanalarni ochiq qolishi holatlari bo'ladigan bo'lsa xonani sovutish uchun behuda sarflagan bo'lamiz. Energiya samarador binolarda ularning izolyatsiyasi bilan birga eshiklar ikki qavatli bo'ladi. Masalan, birinchi qavat eshik yopilgach ikkinchisi ochiladi. Bunda xonadagi butun haroratni eshik orqali yo'qotilishi, temperaturaning o'ynashini tushib chiqishi oldi olinadi. Shu sababli ham elektr energiyasidan foydalanishda samardorlikni oshirish mumkin" [6].

Energiya samardorligini oshirishda asosiy rol ob'ektiv omillarga tegishli. Ammo sub'ektiv omilga kamroq e'tibor qaratiladi: insonning energiya tejashga bo'lgan munosabati, uning er yuzida ekologik muvozanatni saqlash uchun ahamiyatini bilish.

Energiyani tejash kompetentsiya sifatida hayotning barcha jabhalarida energiya tejashni amalga oshirish insondan maktabgacha bolalik davrida shakllantirilishi va uzluksiz ta'lim tizimida butun umri davomida kuzatilishi kerak bo'lgan tegishli kompetentsiyani talab qiladi. Bu jarayonni ta'minlashda tegishli psixologik va pedagogik tayyorgarlikka ega o'qituvchilar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'yektlarida energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samardorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari: monitoring tizimini joriy etish va muntazam energoaudit o'tkazilishini ta'minlash; yoqilg'i-energetika resurslarining belgilangan sarf normalariga qat'iy rioya qilish; energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samardorligini oshirish sohasida xalqaro standartlarni qo'llash; barcha turdagi binolarni isitish va sovutish, yoritish, issiq va sovuq suv ta'minotida energiya sarfini tartibga solishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish.

Qonunda neft mahsulotlari, gaz, elektr va issiqlik energiyasidan foydalanishdagi qoidabuzarliklar uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan o'qituvchi o'quvchi shaxsining dunyoqarashining asosini tashkil etuvchi axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, bilimlar va xulq-atvor shakllarini uzatuvchidir. Akademik N.N.Moiseev nuqtai nazaridan, ekologik vaziyat, "sayyorada insonning saqlanib qolishi" birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan oliy kasbiy va pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish "energiya tejamorligi kompetentsiya" tushunchasini joriy etishga imkon berdi [2]. Ushbu konstruksiyani amalga oshirish va mazmunli rivojlantirish, bizning fikrimizcha, energiya tejoychi xulq-atvorning psixologik asoslarini chuqurroq o'rganishga yordam beradi va pirovardida o'quvchilarning munosabatlarini rivojlantirish uchun yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va mavjud tuzatish imkoniyatini beradi. energiya tejash va atrof-muhitni oqilona boshqarish [3].

Tabiiy resurslarning energiya samardorligini oshirish aholining energiya resurslarini iste'mol qilish madaniyati asoslarini o'zlashtirish, energiya iste'moli haqida yangi fikrlashni shakllantirish zarurligini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, texnologiyalar, vositalar va texnologiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Energiya tejoychi xatti-harakatlarni o'rgatish va diagnostika qilish usullari. Bu vazifalar so'nggi yillarda modernizatsiya bosqichida bo'lgan zamonaviy ta'lim doirasida hal etilishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun faol pozitsiyani ta'minlaydigan ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashning shakllanishini baholash imkoniyatlarini beradi. Energiyani tejoychi kompetentsiya asosiy kompetentsiya va kompetensiyalarning bir qismi bo'lib, muayyan fan sohalaridan tashqariga chiqadi va dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, universal yoki transversal deb ataladigan kompetensiyalarga taalluqlidir. Energiyani tejash bo'yicha kompetentsiya - bu insonning energiya tejash faoliyati to'g'risidagi ko'lami, chuqurligi va xabardorligi, bunda u kasbiy malaka va ish tajribasi bilan birlashtirilgan vakolatlarni bajaradi.

Bu kompetentsiyani qayerda va qanday shakllantirish kerak? Energiyani tejoychi faoliyat va xulq-atvorni tahlil qilish bizga ta'lim muassasalarida shakllanishi maqsadga muvofiq bo'lgan vakolatlarining taxminiy ro'yxatini aniqlash imkonini beradi. Bularga quyidagilar kiradi: Umumiy madaniy vakolatlar: energiyaning asosiy manbalarini, uni uzatish va iste'mol qilish usullarini biladi; energiya tejoychi texnologiyalar haqida ma'lumot olishning asosiy usullari va vositalarini biladi; axloqiy me'yorlar va energiya tejoychi xulq-atvor asoslarini biladi; energiya tejashning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy va

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

ekologik ahamiyatini tushuna oladi; energiya-texnik vositalardan foydalanishda gigiena va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilishga tayyor.

Umumiy kasbiy kompetensiyalar (PC): energiya tejovchi texnologiyalarning tabiiy ilmiy asoslarini biladi; kundalik hayotda maishiy energiya tejovchi texnologiyalardan foydalana olish; o'z mehnat majburiyatlari va malakasi doirasida energiyani tejovchi faoliyatni ko'rsata oladi, energiya iste'moli xavfini hisobga oladi; energiya tejovchi harakatlar va xatti-harakatlarni aks ettirishga qodir; energiya tejash sohasidagi innovatsiyalarga tayyor; energiya tejovchi qurilmalar, qurilmalar va mexanizmlar bilan ishlashda xavfsizlik standartlariga (talablariga) rioya qilishga tayyor.

Maktab o'quvchilari va talaba yoshlarda bu kompetensiyalarni shakllantirish tabiiy fanlarni o'rganishda mumkin va umumiy texnik va maxsus fanlarni o'zlashtirishda zarurdir. Korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida energiya tejovchi kompetensiyani shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar mavjud. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchilarning o'zlari ushbu malakaga ega bo'lishlari kerak.

Аннотация. В статье рассматриваются организационно-педагогические условия развития творческой активности студентов, психолого-педагогическая и методическая литература, посвященная этой проблеме, значение творческого подхода к интеллектуальному развитию студентов, вопросы организации творческой деятельности.

Ключевые слова: преподаватель, студент, творчество, творческая деятельность, креативность, учебный процесс, профессиональная подготовка, проблема.

Kirish. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, uni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil va uzviy ravishda fundamental hamda maxsus ilmiy-uslubiy bilim olishlari uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida quyidagilar belgilangan: yoshlarning psixologik salomatligini har tamonlama muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash; yoshlarning uzluksiz ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatish, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini amaliyotga joriy etish; talabalarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, intellektual salohiyati, har xil qiyinchilik darajasidagi masala va misollarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini odilona baholaydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf bitiruvchilarining o'qishini kelgusida ixtisoslashtirilgan sinflarda davom ettirish maqsadida ularni saralab olish tizimini joriy etish; xalq ta'limi vazirligi qoshidagi fan olimpiadalari va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti faoliyatini takomillashtirish; maktab o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish; yoshlarning shaxsiy ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish, bo'sh vaqtini ilmiy-uslubiy jihatdan mazmunli tashkil etishga qaratilgan besh muhim tashabbus doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'garaklari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni zarur texnik vosita va jihozlar bilan to'liq ta'minlash hamda boshqalar [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish masalasi olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, rivojlantiruvchi ta'lim usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ijod – insonning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishga yo’naltirilgan faoliyat bo’lib hisoblanadi. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun nazariy bilimi, hayotiy tajribasi, iste’dodi namoyon bo’ladi.

Ijod dastlab inson tasavvurida tug’iladi, keyin ijodga taaluqli masalalar yuzasidan har xil izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy nuqtai nazardan o’rganiladi, sintez va tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o’tkaziladi. Shundan so’ng tajriba natijalariga asoslanib mantiqiy xulosalar chiqariladi, farazlar ilgari suriladi va bularning barchasi tajribada sinab ko’riladi, mavhum qarashlar oydinlashtiriladi, yangilanadi, to’ldiriladi va xulosalanadi [7].

Ijod, o’z navbatida, izlanuvchining ilmiy faoliyatiga doir ma’lum yangilik yaratishi uchun ob’ektga qaratilgan shaxsiy intellektual qobiliyatdan kelib chiquvchi egallangan nazariy bilimlar va hissiy kechinmalarni namoyon qilish jarayoni sifatida ham tavsiflanadi.

Ijodkorlik –noodatiy ijodiy fikrlarni o’ylab topish, an’anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda ijobiy hal etish qobiliyatidir. U yangi g’oyalarni yaratishga doimo shaylik bilan tavsiflanadi [9].

A.Maslou ijodkorlikka «bu hamma uchun xos xususiyat, tug’ma, lekin ko’pchilikda tashqi muhit ta’sirida asta-sekin yo’qolib boruvchi ijodiy yo’nalganlik» deb tarif beradi [6]. P.Torrensning fikricha, ijodkorlik o’zida quyidagilarni namoyon qiladi:

muammolarga, kamchilik, tanqid yoki qarama-qarshiliklarga nisbatan yuqori ta’sirchanlik;

muammolarni aniqlashtirish, ularning ijodiy yechimini farazlar asosida izohlash, bu farazlarni tekshirish va o’zgartirish, natijalarni tahlil qilish bo’yicha faoliyat tashkil qilish [6].

Ijodkor shaxsning psixologik tip sifatidagi murakkabligi shundaki, uning ongida bir emas, ikki «Men» yashaydi. Birinchisi tashqaridan qaraganda ko’zga tashlanadigan, siz bilan bizning oramizda yuradigan, jamiyat qonun-qoidalari, milliy urf-odatlar, oilaviy yoki kasbiy shart-sharoitlar mezonlari bilan to’liq bo’lmasa-da, ma’lum ma’noda o’lchanadigan va baholanadigan «Men». Ikkinchisi – hech qaysi qonun-qoidani tan olmaydigan ichki – «Men», uni yuqoridagi mezonlar bilan o’lchab bo’lmaydi. Birinchi Men hamma insonlarga xos. Ikkinchi Men esa faqat ijodkorda mavjud bo’ladi. U ko’zga tashlanmagan, lekin his etilgan holda ijodkorning qiyofasini belgilab beradi [8].

Ijodiy individuallikni shakllantirishda ta’lim muassasalari asosiy o’rinni egallaydi. Bilish jarayonini tashkillashtirish usullariga bog’liq holda, o’qitish metodlari ham passiv, ham produktiv-ijodiy fikrlashni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlaydi. Ijodkorlik qobiliyati masalasida xorijiy tadqiqotchilar fikri ham yuqoridagiga o’xshash. Ijodkorlik o’zini namoyish etishda bir soniyali fakt emas, balki o’zida yagona ichki individuallikni ifoda etadi. Ijodiy faktning uchta fazasini ajratish mumkin: farazlarni shakllantirish (fantaziya va tasavvur), farazlarni aprobsatsiyalash (modul qurish, kuzatish, eksperiment, bajarish), natijalarni baholash (sintez, tahlil, baholash) [5].

Ijodiy qobiliyat va intellektning o’zaro nisbati bo’yicha quyidagi uchta asosiy yondashuv mavjud. 1. Ijodiy qobiliyat – shaxs uchun mustaqil omil bo’lib, u intellektga bog’liq emas (Dj. Gilford 1967; K.Teylor 1985, G.Gruber 1982, Ya.A.Ponomarev 1988). Ushbu nazariya intellekt va ijodiy qobiliyat darajalari o’rtasida ozgina bo’lsada uzviy bog’liqlik mavjudligini ta’kidlaydi. «Intellektual chegara nazariyasi» E.P.Torrens (1962) tomonidan yaratilgan bo’lib: agar shaxs intellekti IQ 120 dan yuqori bo’lsa, ijodiy qobiliyat mustaqil ijodga aylanadi, ya’ni intellekti past ijodkorlar yo’q, ammo kreativligi past ijodkarlar bor [4]. 2. Intellekt rivojining yuqori darajasi ijodkorlikning yuqori darajasini anglatadi. Bu haqida M.Ayzenk (2004) quyidagicha yozadi: «ba’zi odamlar har doim konvergent, boshqalari esa har doim divergent fikrlashadi deb taxmin qilish noto’g’ri. Sababi ikki xil fikrlash qobiliyatiga ega odamlar ham bo’ladi. Ayni paytda inson tafakkurining o’ziga xos rivojlanish xususiyatlari ochilishi zarur muammoning talablari bilan belgilanadi, shuning uchun bir xil odam konvergent fikrlashdan divergent fikrlashga o’tishini kuzatish mumkin» [3]. 3. Shunday fikrlar borki, unga ko’ra, ijodiy qobiliyat umuman yo’q. Ushbu nuqtai nazarni intellekt sohasida tadqiqot olib borayotgan deyarli barcha tadqiqotchilar qo’llab-quvvatlashadi (G.Ayzenk, D.Veksler, S.Gerbert, L.Termen, R.Uaysberg va boshqalar) [2].

Ularning fikricha, har xil muammolarni yechish o’zgartirilgan oddiy nazariy bilim olish jarayonlari asosiy ilmiy muammolarni yechish uchun yetarli. Ijodiy vazifalarni ijobiy hal qilish jarayoni boshqa ta’lim-tarbiya jarayonlarining o’zaro integratsiyasi sifatida tavsiflanadi (fikrlash, xotira, ong va boshqalar). Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni muammoli, interfaol, ijodiy, imitatsion, amaliy, refleksiv kabi shakllantirish strategiyalari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalari va kreativ yo’l xaritasi

No	Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalari	Kreativ yo’l xaritasida bajariladigan harakatlar
1	Muammoli	Kasbiy mazmundagi muammoli vaziyat talabalarga topshiriladi, mazkur vaziyat asosida loyiha ishlab chiqiladi. Natijada talabalar o’rtasida interfaol munosabatlar yaratilad.
	Interfaol	

2	Ijodiy	Muammoli vaziyat asosida ijodiy topshiriqlar ishlab chiqiladi, ijodiy topshiriqlarni bajarishning texnologik bosqichlarida imitatsion shaklda taqdimotlar bajariladi.
	Imitatsion	
3	Amaliy	Muammoli vaziyatga oid pedagogik nazariyalar bilan tanishtiriladi, tarixi tahlil etiladi, reflektiv hatti-harakatlar umumlashtirilib, xulosalar qilinadi.

Xulosa. Shunday qilib, qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida bir nechta odam o‘z intellektual rivojlanishining eng yuqori nuqtasiga erishadi, shuning uchun pedagogika va psixologiyaning asosiy vazifalaridan biri iqtidorli talabalarni topib, ularning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun maxsus ta’lim-tarbiyani izchillik bilan davom ettirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratish bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4884-son Qarori. 06.11.2020.
2. Abdurizaeva S. Biologiyani o‘qitish jarayonida ijodiy muhitni yaratish // Pedagogika, 2018. -№2. -B. 88-93.
3. Айзенк М. Психология для начинающих. –СПб.: Питер, 2004. – 344 с.
4. Богдавленская Д.Б. Психология творческих способностей: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Д.Богдавленская. –М.: Академия, 2002. – 320 с.
5. Ergashev P., Gozibekova G., Baykunusova G. Talabalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy jihatlari. –Toshkent: BAYOZ, 2013. –B.18.
6. Головкин С.Ю. Словарь психолога-практика. –Минск: Харвест, 2007. –С. 308-310.
7. Когнитивный подход: Монография. Отв.ред. Лекторский В.А., М.Канон, Реабилитация, 2008. –С. 464.
8. Козлов В. Психология творчества. Свет, сумерки и темная ночь души. –Москва: Гала, 2008. –С. 27.
9. Musurmanova O. O‘qituvchining ijodkorligi – davr talabi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 110 b.

Muallif:

Yermekbayeva Xalima - Nizomiy nomidagi Toshkent DPU tadqiqotchisi.

UDK 372.3/4

DEVELOPMENT OF STUDENTS' INTEREST IN NATIONAL VALUES IN THE PROCESS OF TEACHING THE SUBJECT "EDUCATION" AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

O‘QUVCHILARGA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

РАЗВИТИЕ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА “ВОСПИТАНИЕ” – КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Suvonqulov Husan Toirovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: xusansuvankulov@gmail.com

Abstract: This article is devoted to the internal and foreign policy of our republic, the policy that it pursued at the first stage of reforms, and the historical, universal work that it carried out at the second stage. At the same time, special importance is attached to the revival and preservation of the national values of the Uzbek people, the improvement of national pride, the reform and renewal of our public life, the disclosure of powerful layers of spiritual culture. Our Government has done a number of practical works to transform the spirit of the people on the basis of patriotism, national pride, and tolerance for the whole world.

Keywords: national values loyalty to the family, faith in the future of the Motherland, patriotism, continuing education, “mass culture” welfare of society.

Аннотация: Данная статья посвящена внутренней и внешней политике нашей республики, политике, которую она проводила на первом этапе реформ, и исторической, общечеловеческой работе, которую она проводила на втором этапе. При этом особое значение придается возрождению, сохранению национальных ценностей узбекского народа, совершенствованию национальной гордости, реформированию и обновлению нашей общественной жизни, раскрытию мощных слоев духовной культуры. Наше правительство проделало ряд практических работ по преобразованию духа народа на основе патриотизма, национальной гордости, терпимости ко всему миру.

Ключевые слова: национальные ценности верность семье, вера в будущее Родины, патриотизм, непрерывное образование, “массовая культура” благополучие общества.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayoni, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurish, yoshlarimiz ezgu maqsadlar ro‘yobini kelajakda emas, bugun ko‘rish kerak, degan tamoyil asosida rivojlanmoqda. Shuningdek, yoshlarni zamon talablari darajasida tarbiyalash, vatanparvarlik, Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, o‘z kuchi, bilim va salohiyatiga ishonadigan, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga etkazish va tarbiyalash davlatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar

Jamiyatda yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish yetakchi o‘rinda turadi. Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a‘zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo‘lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e‘tibor, atrofda insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, rivojlantiruvchi ta‘lim usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bugungi globallashtirish dunyoda murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda g‘oyaviy immunitetni tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarurligini e‘tirof etmoqda. Bu masalada Prezident Sh.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari muhim ahamiyatga egadir: “Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his qiladigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” [1].

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” va “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunlarida [2], [3] belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish, o‘quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik, fidoyilik kabi sifatlarini va xususiyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, o‘quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda fuqarolik burchi, shaxsiy mas‘uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat‘iy e‘tiqodini, kasbiy mahoratini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bunday tadqiqotlar natijasida o‘quvchi-yoshlarning milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, ona-yurt taqdiri uchun mas‘uliyatli, o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shunday tadqiqotlar asosida ta‘lim muassasalari o‘quvchi-yoshlarida milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik yo‘nalishlaridagi pedagogik ta‘limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko‘tarish talab etiladi. Milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik, Vatanni asrab-avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir.

O‘quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlar asosida, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi ularning intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan shaxsni rivojlantirishdan iborat [4].

Vatanparvarlik tuyg‘usi ma‘naviy qadriyatlardan biridir. Vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo‘lida fidoyilik namunalari ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta‘sir qilib, ularni mas‘uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi [5].

Tarixiy taraqqiyot davomida xalqimiz yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor bilan qarab kelgan. Yoshlarda milliy qadriyatlar, milliy g‘urur, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat kabi tuyg‘ularni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan. Xalqimiz ma‘naviyat, ma‘rifat, madaniyat, milliy qadriyatlar, milliy g‘urur, vatanparvarlik tarbiyasiga daxldorlik asosida yoshlarni tarbiyalash mahoratiga ega. Ammo, bugungi kunga kelib, yurtimizda ko‘rinmas dushman deb nom olgan “ommaviy madaniyat”ni ko‘rinishi bilan “kurashib” kelmoqdamiz. Yoshlarning ma‘naviyat va milliy mentalitetimizga xos qadriyatlar asosida tarbiyalanishiga alohida e‘tibor berishimiz shart.

Respublikamiz taraqqiyotining yangi bosqichida o‘quvchi-yoshlarning intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, milliy qadriyatlar, milliy g‘urur, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e‘tibor berila boshlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hozirgi vaziyatga baho berib, quyidagi fikrni qayd etgan edilar: “Barchamiz guvohimiz – bugun dunyo misli ko‘rilmagan sur‘atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayon yuz bermoqda. Ayni vaqtda odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma‘naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Afsuski, bugungi kunda ma‘naviy ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlariga mamlakatimizdagi yangilanish sur‘atlari, jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablarida ortda qolmoqda” [6].

Globallashgan jamiyat taraqqiyotida zamonaviy dunyoda tarbiya tizimiga, shuningdek, uni tashkil etish jarayoniga zamonaviy yondashish zarurligini ko‘rsatmoqda. Qanday jamiyat bo‘lishidan qat‘iy nazar, o‘zligimizni yo‘qotmasligimiz, xalqimizning milliy ruhiyatini asrab qolish, yanada kuchaytirish uchun tarbiyaning eng muhim

qirralarini yangicha tashkil etish lozimdir. Shunday ekan, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulari asosida, o'quvchi-yoshlarni ona yurtiga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatan taqdiriga daxldorlik, o'z yurti tarixi va bugungi kuni bilan faxrlanish tuyg'usini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [7], xalqimiz farovonligi va farzandlarimiz kelajagi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatning to'rtinchi yo'nalishida adolatli siyosat yuritib va inson kapitalini rivojlantirish zarurligiga alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"ning 71-maqsadida: "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish..." vazifalari yuklatilgan [7].

Rivojlangan mamlakatlarning hayot tajribalarida inson kapitalini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, bu – o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tarbiya va mukammal bilim berishdir. Shuningdek, yosh avlodning har tomonlama sog'lom bo'lib o'sishiga jiddiy ahamiyat qaratish muhim sanaladi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 6,2 mln. nafari yoki 17 foizi o'quvchi-yoshlardan iboratdir. Ularning kelajagi uchun har tomonlama sharoit yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga alohida ahamiyat qaratish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya borasida o'tgan zamonlarda xalqimizda shunday maqol bor edi: "Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma". Hozir bu maqol ma'nau eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular "domlaning qilganini... qiladilar". Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: "Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o'zlari chekishadi, ichishadi?", "Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zlari yolg'on so'zlaydilar?", "Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zlari pora oladilar?". Agar o'qituvchi va boshqalar ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratli mulohazalarning aynan ana shu jihati komil insonni tarbiyash yo'lida katta ahamiyatga egadir.

Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid "Rushnoinoma", "Qobusnoma", Farididdin Attorning "Pandnoma"si, Ubayd Zakoniyning "Sad pand" kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi [8]. Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulariga asoslangan yoshlarni tayyorlashni kafolotlaydi.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantiradi. Ijtimoiy tarbiyaning aniq maqsadlari asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya hamda oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir.

Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni rivojlantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini rivojlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tarbiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab bergan.

Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, yosh avlodning tarbiyasi bilan yyetarlicha shug'ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib

borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlangan. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi, degan qarash hukmronlik qilgan. Tarbiya jarayonida tarbiyaning sinfiy xarakterga ega emasligi isbotlangan. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tamonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik san'atiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustivorligi muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Tarbiya tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Tarbiya" fani o'qitish metodikasi fani bevosita mamlakat hayoti, xalq tarbiya tizimi bilan mustahkam bog'langandir. Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, bola shaxsining har tamonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etish va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib bola shaxsini kamol topishini ta'minlashdir.

Tadqiqot davomida mavzuga oid tarixiy, ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish jarayonida mazkur manbalardan quyidagilar aniqlandi: "tarbiya" so'zi yunon tilida "paideia", "o'yin" ya'ni "paidia" so'ziga talaffuzi juda yaqinligi (Platon) [8]; tarbiya – "hech so'zsiz itoat qildirish, chidamli bo'lish va yengish ilmini o'rgatish" ekanligi (Plutarx) [8]; tarbiya bir butunlik (aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o'rgatish) kabi jarayonlar) yig'indisi bo'lib, u ta'lim (akademik ta'lim)dan farq qilishi (Ibn Sino) [8]; tarbiyali shaxslar – "ahli ma'ni", tarbiyasizlar – "ahli suvrat" ekani (A.Navoiy) [8]; tarbiya "ezgulikka qaratilgan turmush va amaliy faoliyatga, nimasi bilan o'z mamlakatiga foydasi tegishi mumkinligi haqidagi ehtiyojni o'rgatish" ekanligi (Jon Lokk) [8]; "Tarbiyachi hamisha, tarbiya kuchi shu qadar beqiyoski, undan hech qachon butun borligicha foydalana olmasligiga ishongan bo'lishi kerak" (K.D.Ushinskiy) [9]; "inson kapitali ochilishida tarbiyaning hamma tomonlari aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik fazilatlarini bolalarning ma'naviy dunyosiga ta'sir etishi kerak"ligi (V.A.Suxomlinskiy) [10]; "tarbiya "bolaning salomati va saodati uchun tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmak" ekanligi" (A.Avloniy) [11]; "tarbiya – insonlar rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan jarayon bo'lib, bir avlod ijtimoiy tajribasining keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyat" ekani (R.H.Djurayev, S.T.Turg'unov, G.M.Nazirova) [12]; "aqliy tarbiya yosh avlodning mehnat qilish qobiliyatlarini o'stiradi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi" (A.Q.Munavvarov) [13].

Biroq tadqiqot ishlarida, tarbiya masalasi hozirgacha ilmiy-metodik jihatdan keng ko'lamda tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi aniqlanib, buning sabablari sifatida quyidagilar belgilandi: ilmiy jamoatchilik tomonidan, asosan, ta'limga ilmiy-nazariy va metodik tadqiqot obyekti sifatida qaralgani; tadqiqotchilar, asosan, ta'lim (ta'lim metodologiyasi, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli hamda metodikasi va hokazolar) bilan birlamchi shug'ullangani bois, tarbiya masalasi ilmiy tadqiqotlarda ikkinchi masala sifatida qolib ketganligi aniqlandi.

Xulosa. Bunday masalalarni hal etish uchun mazkur tadqiqot ishida tarbiya masalasi va nazariy hamda amaliy-metodik jihatdan chuqur tadqiq etildi, "tarbiya" masalasiga alohida to'xtalib o'tildi: tarbiya tushunchasi tahlil etilganda unda ikkita tarkibiy qism mavjudligi ayon bo'ldi. Ular: nazariy-metodologik asos va uslubiy-metodik asos. Nazariy-metodologik asosga milliy tarbiya mazmunining shakllanishida asosiy rol o'ynagan mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) mazmundagi nazariya va ta'limotlar kiradi. Ayrim holatlarda nazariy-metadologik asos mazmunida mifologik, diniy yoki dunyoviy (ilmiy) ta'limotlarning biri ustuvorlik kasb etishi ham mumkin. Lekin bu degani milliy tarbiyaning nazariy-metodologik asosi yagona ta'limot asosiga qurilganligini bildirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017-yil 19-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" to'g'risida. O'RQ-837-son. 2023-yil 1-may.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida"gi. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.
4. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish. – T.: Fan, 1993. – 122 b.
5. Madvaliyev A.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 239 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 179 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.
8. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Taqdiralar, hikmatlar, aforizmlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. -398 b.
9. Ushinskiy K.D. Bolalar dunyosi va xrestomatiya. O'zME. U-harfi Birinchi jild. – Toshkent, 2000. – 204 b.
10. Suxomlinskiy V. Bolalarga jonim fido. – T.: O'qituvchi, 1984. – 254 b.

11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 168 b.
12. Djurayev R.H., Turg‘unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2013. – 90 b.
13. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi. 1994. – 112 b.

Muallif:

Suvonqulov Husan Toirovich - Guliston davlat universiteti dotsenti v.b., PhD.

UDK: 378:371.03

ON IMPROVING ENVIRONMENTAL EDUCATION IN PART OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL CULTURE OF UNIVERSITY STUDENTS

О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЧАСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID EKOLOGIK TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH HAQIDA

Tursinov Makset Perdebay o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 100181. Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

E-mail: nurjan-1974@bk.ru

Annotation. The article talks about environmental knowledge in the educational process in higher educational institutions and their regular improvement speaks of the development of universal human values, respect and attention to the flora and fauna of mother earth, the development of creative qualities, such as the careful preservation and transmission of information to future generations.

Key words: student, ecological culture, nature, education, environmental problem, development, knowledge, skill, ability, plant.

Аннотация. В статье говорится о экологических знаний в образовательный процесс в высших учебных заведениях и их регулярное совершенствование говорит о развитии общечеловеческих ценностей, уважения и внимания к флоре и фауне матери-земли, развитии творческих качеств, таких как говорится о бережном сохранении и передаче будущим поколениям информации.

Ключевые слова: студент, экологическая культура, природа, образование, экологическая проблема, развитие, знание, умение, умение, растение.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqotlar muassasalarida talabalarda ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanib, ekologiya, atrof-muhit muhofazasiga oid tushunchalarni kengaytirish, tabiat va inson muosabatlarining uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy sharoitda ekologik ta'limning elektron-uslubiy vositalarini yaratish, ta'limiy innovatsiyalardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarda ekologik bilim, ong va madaniyatni rivojlantirishda ekologiya hamda atrof-muhit muhofazasi, uni nazorat qilish sohasidagi tashkilotlar o'rtasida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish, mutaxassislarda ekologik innovatsiya tafakkurini, intellektual salohiyatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda [2].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, shaxsga yo'naltirilgan va ekologik xususiyat kasb etgan vaziyatlardan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tabiat – insoniyatning moddiy va ma'naviy talablarini qondiruvchi asosiy manba. Shu sababdan tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar qadimdan to hozirgi kunga qadar barchani qiziqtirib kelgan ijtimoiy muhim masalalardan asosiysi hisoblanadi. Tabiat deganimizda butun borliq, turfa olam, sayramizdagi jonli organizmlar va jonsiz jismlar tushuniladi. Yerning jonli qismiga inson, o'simlik, hayvonot dunyosi va mikroorganizmlar, jonsiz qismiga havo, suv va tog' jinsi qatlamlari mansub. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda ro'y berayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda insonlarning ekologik madaniyatini oshirish ularni tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash lozimdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga muhabbatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin» [1. B. 392.].

Mustaqillik yillarida ekologik ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi mazmunan qayta ko'rib chiqilib, uning turli jihatlariga oid umumdidaktik qonuniyatlar, tamoyillar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish jarayonlarining mazmun-mohiyati, ularning tuzilmasi va o'zaro bog'liqligi masalasi nazariy-

metodologik, ilmiy-pedagogik jihatdan to'liq, tizimli o'rganilmagan. Agar insonning o'z-o'ziga, boshqa insonlar va atrof-muhitga bo'lgan munosabati ekologik ong va madaniyat nuqtai nazaridan tahlil etilsa, ekologik ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu zaruriyat, tabiiyki, samarali ekologik ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltiradi [5].

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning atrof-muhit, tabiat muhofazasini tashkil etish, ekologik ta'lim asoslarining pedagogik jihatlari, globallashtirish davrida ekologik xavfning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari talabalarda tabiat, atrof-muhit muhofazasiga mas'ullik tuyg'usini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari Q.Abdurahimov, I.X.Ayubova, N.Sh.Bozorova, Sh.M.Kamalxo'jaev, A.R.Malikova, U.O.Turdiqulov, A.S.To'xtaevlar tomonidan amalga oshirilgan [4].

Talabalarni ekologik tarbiyalash texnologiyasining rivojlanish bosqichining mazmun-mohiyati ekologik tarbiyalash haqidagi bilimlarni o'zlashtirish sifatida konsepsiyalar, nazariyalar va ekologik g'oyalarni o'rganish bo'yicha bilimlar, talabalarni ekologik tarbiyalashda ma'lum nazariyalarni qo'llash va ekologik ta'lim mazmunini qayta tiklash sifatida tushunish, talabalarni ekologik tarbiyalash texnologiyalari borasidagi olingan innovatsion bilimlarni qo'llash imkonini beruvchi ko'nikmalar, talabalarni ekologik tarbiyalash texnologiyalarning mohiyatini tushunish va nazariy jihatdan izohlash, nostandart muammoli vaziyatlarni ifodalash va ekologik ziddiyatlarni ko'ra bilish hamda o'qitishga bo'lgan kreativ yondashuvni qaror toptirishga asoslanadi [3].

Tabiatshunoslik bo'yicha auditoriyadan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va e'zozlash, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Talabalar e'tiborini tabiat va o'quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Auditoriyadan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish lozim: birinchi guruh: ko'plab talabalarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar; ikkinchi guruh: cheklangan talabalar doirasida olib boriladigan to'g'arak ishlari; uchinchi guruh: tabiatni o'rganishga qiziqqan ayrim talabalar bilan olib boriladigan ishlar.

Xulosa. Ekologiyaga oid mavzudagi tadbirlarning maqsadi talabalarni tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashga ekopedagogik ta'sir o'tkazishga qaratilgan. Auditoriyadan tashqari ishlarga ko'proq talabalarni jalb etish, ularda faol qatnashishga ishtiyoq va hohishni uyg'otish, ularni ijtimoiy foydali ishlarga yo'naltirish, talabalarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish maqsadida tabiatshunoslik bo'yicha auditoriyadan tashqari ommaviy ishlar sayohatlar, tanlovlar, diapozitiv va kinofilmlarni ko'rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil ekologik tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. –B. 392.
2. Mirzayeva N.A. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish metodikasi. Ped.fan.bo'y.fals.dokt (PhD) diss.avtoreferati. – Chirchiq, 2021. –B. 13.
3. Turdiqulov E.O., Turdiqulov U.O. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. –T.: Fan, 2005. -309 b.
4. Tursinov M. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalari // Mu'allim ham uzliksiz bilimlendiriw. –Nukus. 2023. -№5/1. –B. 85-89
5. Tursinov M. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda milliy ma'naviy me'rosimizning o'rni // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. –Buxoro, 2023. -№9.–B. 270-272.

Muallif:

Tursinov Makset Perdebay o'g'li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

UDK 372.800.2

ABOUT THE DEVELOPMENT OF MEDIA AND INFORMATION CULTURE OF STUDENTS

TALABALARNING MEDIA VA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

О РАЗВИТИИ МЕДИЙНОЙ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Уразимбетов Айбек

Нукусский инновационный институт, Республика Каракалпакстан, г. Нукус, ул. Каракалпакстан, 10-дом

E-mail: nukusii@gmail.com

Annotation. Currently, significant changes are taking place in the information field: almost every person has access to the press, TV, video, radio, and the Internet. Thanks to the widespread use of mass media, people are exposed to multiple information flows. The article provides data on the development of media and information culture of students in the subject "Media Education and Information Culture".

Key words: media, education, information, student, methodology, culture, knowledge.

Annotatsiya. Hozirda axborot sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda: deyarli har bir inson matbuot, televidenie, video, radio, internetdan foydalanish imkoniyatiga ega. Ommaviy axborot vositalarining keng qo'llanilishi tufayli odamlar turli xil axborot oqimlariga duchor bo'lmoqdalar. Maqolada "Mediata'lim va axborot madaniyati" fanidan o'quvchilarning media va axborot madaniyatini rivojlantirishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, ta'lim, axborot, talaba, metodika, madaniyat, bilim.

Введение. Актуальность исследования заключается в том, что медиаобразование в современном мире рассматривается как процесс развития личности с помощью и на материале средств массовой коммуникации (медиа) с целью формирования культуры общения с медиа, творческих, коммуникативных способностей, критического мышления, умений полноценного восприятия, анализа и оценки медиатекстов, обучения различными формами самовыражения при помощи медиатехники. Медиаграмотность помогает человеку активно использовать возможности информационного поля телевидения, радио, видео, прессы, интернета, помогает ему лучше понять язык медиакультуры.

Объект исследования и используемые методы

В качестве объекта исследования был определен процесс совершенствования методики развития медиаграмотности и информационной культуры студентов высших учебных заведений. Методологической основой исследования являются принципы сравнительно-исторического исследования, методология и техника социологического исследования, социального прогнозирования и проектирования, системный и структурно-функциональный подход в сочетании со сравнительно-историческим методом и анализом статистических данных, а также изучение официальных документов, характеризующих политику международного сообщества и в связи с формированием глобального информационного общества, развития медиаобразования и т.д.

Полученные результаты и их анализ

Теоретико-методологические основания медиаграмотности восходит к идеям Г.Маклюэна, сформулировавшего принцип «Средство передачи сообщения и есть содержание сообщения». Следовательно, для этого, чтобы понять смысл сообщения, необходимо понимать, как именно устроен тот канал, по которому это сообщение приходит, как специфика этого канала воздействует на поступающую по нему информацию [1]

Медиаобразование, как специфическое образовательное направление начало формироваться с шестидесятых годов XX века в ряде европейских стран, а также в США и Канаде. В качестве раздела педагогики медиаобразование ориентировано на формирование механизмов адаптации подрастающего поколения, студентов и школьников в мире медиакультуры.

Медиаобразование связано со всеми видами медиа (печатными, графическими, звуковыми, экранными и т.д.) и различными технологиями; оно дает возможность людям понять, как массовая коммуникация используется в их социумах, овладеть способностями использования медиа в коммуникации с другими людьми; обеспечивает человеку знание того, как: анализировать, критически осмысливать и создавать медиатексты; определять источники медиатекстов, их политические, социальные, культурные интересы, их контекст; интерпретировать медиатексты и ценности, распространяемые медиа; отбирать соответствующие медиа для создания и распространения своих собственных медиатекстов и обретения заинтересованной в них аудитории; получить возможность свободного доступа к медиа, как для восприятия, так и для продукции [3].

Медиаобразования методологически тесно связано с педагогикой. Отвечая нуждам современной педагогики в развитии личности, медиаобразование расширяет спектр методов и форм проведения занятий с студентами. Медиаориентированные образовательные технологии предусматривают методику проведения занятий, основанные на проблемных, эвристических, игровых и др. продуктивных формах обучения, развивающих индивидуальность студентов самостоятельность его мышления стимулирующих его способности через непосредственное вовлечение в творческую деятельность, восприятие, интерпретацию и анализ структуры текста, усвоение знаний о медиакультуре.

К интерактивным методам, используемых нами, могут быть отнесены следующие [2]:

1. Игра – вид деятельности, которой присущ и детям, и взрослым, поэтому использование данного вида деятельности в образовательном процессе известно давно, однако важным является применение такого аспекта этой деятельности, который способствует появлению непроизвольного интереса к познанию основ естественных наук. При этом должно происходить серьезное и глубинное восприятие изучаемого материала. Использование разных типов игр – деловых, имитационных, ролевых для разрешения учебных проблем вносит разнообразие в течение предметного образовательного процесса, вызывает формирование положительной мотивации изучения данного предмета. Игра стимулирует активное участие обучающихся в учебном процессе и вовлекает даже наиболее пассивных.

Нами разработаны и апробированы следующие учебные игры (1-таблица).

2. Представляет интерес учебный проект по теме «Развитие средств связи в Республике Каракалпакстан». Тип проекта творческий (студенты сами придумывают сцены), ролево-игровой (в каждой группе участники

принимают на себя определенные роли), информационный, проект имеет межпредметные связи с историей и информатикой. Продолжительность проведения: 2 месяца.

1-таблица

Использование игровых технологий на уроках «Медиаобразование и информационная культура»

Тема	Урок
Введение	Что? Где? Когда?
Роль и значение информации в обществе	Игра – викторина
Конкурентная среда в глобальном медиа-информационном пространстве	Своя игра
Роль зарубежных СМИ в медиaprостранстве.	Брейн - ринг
Структура и влияние медиаполя	Развитие средства связи
Информационные атаки и угрозы в социальных сетях	Повторим вместе!
Персонализированная информация: психологические, религиозные и культурные угрозы	Решение качественных задач

Защита проекта проводится в форме деловой игры. Для того, чтобы объединить всю собранную информацию, студенты создают слайды, что помогает закрепить пройденный материал. В конце проводится обобщающий урок, на котором подводят итоги, делаются выводы и оцениваются лучшие работы.

Медиаобразование включает в себя несколько направлений. Одни изучают возможности использования коммуникационных технологий и медиа в процессе обучения, другие исследуют, как защитить студентов от влияния медиа на личность.

Потенциальные возможности медиакультуры в современном образовательном и воспитательном процессе определяются ее широким спектром возможностей для развития человеческой индивидуальности: эмоций, интеллекта, самостоятельного творческого мышления, мировоззрения, активизации знаний, полученных студентами в процессе изучения дисциплин гуманитарного цикла. Значение и роль медиакультуры возрастает поистине в геометрической прогрессии. Сегодня – это комплексные средства освоения человеком окружающего мира (в его социальных, моральных, психологических, художественных, интеллектуальных аспектах).

Заключение. Таким образом, актуальность данного курса определяется настоятельной необходимостью теоретически и методически обоснованной системы образования на материале медиакультуры, способствующей не только формированию медиакомпетентности и индивидуального, творческого мышления студенческой молодежи, но и готовящей ее к ведению медиаобразовательных факультативов и кружков, спецкурсов в образовательных учреждениях.

Литература:

1. Маклюэн М. Понимание медиа. –М.: Жуковский, 2003. - 408 с.
2. Уразимбетов А.Б. Электронная образовательная среда как часть инновационной образовательной деятельности // «Umumiy o'rta ta'lim tizimida tabiiy fanlardan elektron resurslarni yaratish va ularni tadqiqot qilish muammolari va yechimlari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. –Toshkent, 2020. –B. 138-140.
3. Recommendation Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. –Vienna: UNESCO, 1999. –P. 273-274.

Автор:

Уразимбетов Айбек - Нукусский инновационный институт, исследователь.

UDK 372.8

FEATURES OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Mirzayev Diyorbek Azamjonovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: diyorbek-mirzaev2024@gmail.com

Abstract. The article presents the results of a study of the features of organizing independent learning. Information is provided on the content, goals and objectives of independent learning. Recommendations are given on what to pay attention to during independent learning. The main features, positive and negative aspects of independent learning are presented.

Keywords: education, independent work, independent learning, motivation, resource, technology, innovation.

Аннотация. В статье представлены результаты исследования особенностей организации самостоятельного обучения. Предоставляется информация о содержании, целях и задачах самостоятельного обучения. Даны рекомендации, на что следует обратить внимание при самостоятельном обучении. Представлены основные особенности, положительные и отрицательные стороны самостоятельного обучения.

Ключевые слова: образование, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, мотивация, ресурс, технология, инновации.

Кириш. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalar o'z tadqiqotlarini tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. Hozirgi kunda me'yoriy hujjatlarda talabalar fanga tegishli bilimlarning 40-50 foizini bevosita mustaqil o'rganish orqali o'zlashtirishi belgilangan. Mustaqil ta'lim individual yondashuv bo'lib, akademik tanlovning xilma-xilligi bilan talabani ko'proq jalb etadi. Mustaqil izlanish natijasida turli manbalar bilan tanishish jarayonida talaba dunyoqarashi rivojlanadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Mustaqil ta'lim - bu insonning o'zi mustaqil ravishda bilim olish va o'rganish jarayonidir. Bu shakldagi ta'limda inson o'zining qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq mavzularni tanlab, shu mavzularda ishlash va bilimlarni o'zlashtirishga harakat qiladi. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Mustaqil ta'limning ayrim asosiy xususiyatlari: Shaxsiy mas'uliyat: Mustaqil ta'limda inson o'z ta'lim jarayonini nazorat qiladi. U o'zi uchun ma'lum vaqt va makon belgilaydi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun harakat qiladi. Ma'lumotlarni izlash: Mustaqil ta'limda internet, kitoblar, maqolalar, kurslar va boshqa resurslar orqali ma'lumotlarni izlash va olish muhim. Ozigina yo'nalish va ishlash: Mustaqil ta'limda inson tanlangan mavzularda uzoq muddat yoki qisqa vaqt mobaynida mehnat qilishi mumkin, ammo u doimiy ravishda yaxshilash va o'zini rivojlantirishga harakat qiladi. Interaktivlik: Mustaqil ta'limda oqituvchilar bilan o'zaro faol muloqot talab etiladi va bu o'qishga yordam beradi. Boshqa talaba va o'qituvchilar bilan aloqa va fikr almashish ham muhim.

Mustaqil ta'lim, ayniqsa, yangi texnikalar, yangilangan bilimlar yoki mavzuning murakkabligi bilan bog'liq holda ahamiyatli bo'ladi. Bu, shuningdek, shaxsga o'zining raqobatdoshlik qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Mustaqil ta'limning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishda yana bir qancha muhim nuqtalarni aytib o'tish mumkin [1].

Mustaqil ta'limning afzalliklari: Shaxsiy rivojlanish: Mustaqil ta'lim insonga o'ziga mos kelgan o'qish usullarini topishga yordam beradi. U kishi o'z o'rganish ritmi, ishlash vaqti va nazariy bilimlariga e'tibor berishga imkon beradi. Bu shaxsiy rivojlanishga olib keladi. Javobgarlik va maqsadga yo'naltirish: Mustaqil ta'limda inson o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun mas'uldir. Bu o'quvchining mas'uliyat hissini shakllantirib, muvaffaqiyatga erishish uchun intilishga olib keladi. Har tomonlama o'rganish: Mustaqil ta'lim usullari turli manbalardan foydalanishga imkon beradi. Oqituvchi o'quvchini faqat bilim bilan ta'minlashga emas, balki ijodiy fikrlashga va mustaqil topshiriqlarni bajarishga o'rgatadi. Bu har tomonlama o'rganishga yordam beradi. Erkinlik: Mustaqil ta'lim vaqtni, makonni va o'qish usullarini o'zgartirish imkonini beradi. Oqituvchidan yoki o'qish jadvaliga bog'liq bo'lmay, o'quvchi o'z o'qishini erkinlashtiradi. Texnologiyalardan foydalanish: Internet va raqamli texnologiyalar mustaqil ta'limda o'quvchining samarali ishlashini ta'minlaydi. U internet-resurslar, onlayn kurslar, video darslar, kitoblar va boshqa manbalardan foydalanib, o'z olgan bilimlarini mustahkamlaydi.

Mustaqil ta'limning kamchiliklari: Kamroq o'zaro muloqot: Mustaqil ta'limda talabalarining bir-biri bilan va o'qituvchi bilan kamroq muloqot qilish ehtimoli bor. Bu holda savollarga javob olish va muammolarni hal qilishda qiynalish mumkin. O'zini qo'llash qobiliyatining kamligi: Har kim ham mustaqil o'rganishga yoki o'zini tashkillashtirishga qobiliyatli emas. Bu o'quvchilarga vaqtni to'g'ri taqsimlash, motivatsiyani saqlash va qiziqishni saqlashda qiyinchilik tug'diradi. Bevosita yordamning yo'qligi: Mustaqil ta'limda, ayniqsa, murosasiz va murakkab mavzularda, o'qituvchidan to'g'ridan-to'g'ri yordam olishning yoki qiziqtirishga oid tushunchalarni aniqlashning imkoni bo'lmasligi mumkin. Ijtimoiy aloqa va guruh o'rganishi imkoniyatlarining yo'qligi: Mustaqil ta'limda guruhda o'rganishning foydali tomonlari yo'qolishi mumkin, chunki bu jarayonda o'quvchilar bir-biri bilan ishlash va fikr almashish imkoniyatiga ega emas.

Motivatsiyani saqlash: Mustaqil ta'limda o'quvchi o'zini tashkillashtirish va ishini o'z vaqtida bajarishga mas'uldir. Agar motivatsiya yo'qolsa, o'quvchi uchun tashabbusni saqlash qiyinlashishi mumkin.

Mustaqil ta'limni qo'llashning yoqimli yo'llari: Reja va maqsadlar qo'yish: Oquvchining mustaqil ta'limi yaxshi natijalarga erishish uchun aniq reja va maqsadlarga ega bo'lishi kerak. Maqsadlar yordamida o'quvchi o'ziga ravon yo'lni belgilay oladi va har bir kunni samarali o'tkazishi mumkin. Resurslardan foydalanish: Kitoblar, onlayn kurslar, vebinarlar va video darslar, ijtimoiy media manbalariga kirishish murakkab mavzularni yoki muammolarni hal qilishda ko'maklashadi. O'zgarishlarga moslashish: Mustaqil ta'limda o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirishi va ishlash usullarini o'zgarishlarga moslashtirishi muhimdir. Jumladan, yangi bilimlarni o'rganishda imkon qadar yangi usullardan foydalanish [2].

Motivatsiyani saqlash: Mustaqil ta'limda motivatsiyani saqlash uchun o'quvchi o'zgarishlarga tayyor bo'lish va kichkina muvaffaqiyatlardan quvonish orqali har qadamiga ishonch hosil qilish kerak. Mustaqil ta'lim har bir inson uchun yoqimli bo'lishi mumkin, agar u o'zining yordamchi vositalarini, vaqtni samarali taqsimlashni va maqsadlarga erishish yo'lini aniq belgilasa. Mustaqil ta'limga oid masalalarni yanada chuqurroq tahlil qilish va o'quvchining o'rganish jarayonidagi turli yondashuvlar, sabab-oqibat munosabatlarini ko'rsatish mumkin.

Mustaqil ta'limdagi muhim yondashuvlar: Faol o'rganish (Active Learning): Faol o'rganish usullari mustaqil ta'limda muhim rol o'ynaydi. Bu usullar talabalarga ma'lumotni faqat qabul qilish emas, balki uni o'zlari amaliyotda qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Faol o'rganish o'zgarishlar, kundalik amaliyotlar va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, fikrni shakllantirish, yozma va og'zaki ishlarni bajarish, muloqot va interaktiv mashg'ulotlar shular jumlasida. Muammo asosida o'rganish (Problem-Based Learning): Bu yondashuvda o'quvchilarga muayyan masala yoki muammo beriladi va ular ushbu muammoga echim topish uchun o'rganishadi. Bu tajriba asosida o'rganish usuli mustaqil ta'limda o'quvchini yangi bilimlar bilan ta'minlashga yordam beradi. Ushbu usulning afzalliklaridan biri shundaki, talabalar o'rganish jarayonini amaliyotga qo'shib, teoriya va amalning integratsiyasini ta'minlashadi.

Motivatsiya va samaradorlik: Mustaqil ta'limda motivatsiyaning muhimligi ko'p tilga olingan. Ushbu jarayonda o'quvchiga shaxsiy maqsadlar, rejalar va intilishlar katta ahamiyatga ega. Motivatsiya yo'q bo'lganda, o'quvchi maqsadsiz va samarasiz ishlashi mumkin. Shaxsiy maqsadlar belgilash va ularga erishish uchun ishlash motivatsiyani oshiradi. Metodologiya va resurslar: Mustaqil ta'limda ham, hududiy yoki guruhda o'qishdagi kabi metodologik yondashuvlar muhimdir. Ma'ruzalar, onlayn resurslar, kitoblar, videolar, interaktiv testlar va boshqa materiallardan foydalanish o'quvchining bilim olishini va to'liq tushunishini ta'minlaydi. O'quvchilardan savollar berish, fikrlarini bildirish va yozish orqali talabalar o'ziga yoqqan usulda o'rganishni ta'minlashadi. Yangiliklarni qabul qilish va texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar, video darslar, mobil ilovalar mustaqil ta'limda o'quvchilarga osonlik bilan bilim olish imkonini beradi. Mobil qurilmalar va onlayn manbalardan foydalanish ta'limga erkinlik va qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, videokurslar, vebinarlar, elektron kitoblar kabi manbalar o'quvchiga o'ziga mos bilim olish usullarini tanlash imkonini beradi.

Mustaqil ta'limdagi ijtimoiy jihatlar: Ijtimoiy aloqa va qo'llab-quvvatlash: Mustaqil ta'limda ijtimoiy aloqalar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar, shuningdek, o'qituvchi, hamkasblar va ayni shu mavzuda qiziqqan kishilar bilan muloqotda bo'lishlari kerak. Buning natijasida o'quvchi o'z bilimlari va tasavvurlarini to'g'ri shakllantiradi va o'zini motivatsiyalashni yordam beruvchi muhitga ega bo'ladi [3]. Guruhlar va hamkorlikda o'rganish: Guruhda o'rganish va hamkorlikni samarali foydalanish ham mustaqil ta'limda muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim omildir. Masalan, onlayn platformada o'quvchilarning o'zaro tajriba almashishi, muammolarni jamoaviy ravishda hal qilish ularga turli nuqtai nazarlarni o'rganish va ma'ruzalarini aniqlash imkonini beradi. O'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyati: Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchi o'zining shaxsiy mas'uliyatini his qilishi kerak. Har bir o'quvchi o'ziga xos tizimda ishlashi va o'z bilimlarini, natijalarini baholashi zarur. Shu bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatlarini o'rganishga, ularning hayotga bog'liq ijtimoiy muammolarga o'z qarashlarini shakllantirishga yordam berish maqsadida ta'lim jarayonida muammolarni ijtimoiy kontekstda tahlil qilish muhimdir.

Mustaqil ta'limga ta'sir etuvchi omillar: Mavzuning darajasi: Ma'lumotlarning miqdori va murakkabligi mustaqil ta'limning samaradorligini belgilaydi. Qiziqarli va yordamchi manbalar mavjud bo'lganda, o'quvchi o'zini yuqori natijalarga erishishga ishontrishi mumkin. Ta'lim muhiti: Oqish uchun munosib muhitning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Texnik jihatdan jihozlangan muhit, yaxshi shart-sharoitlar, internetga oson kirish imkoniyati talabalarining mustaqil ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya va psixologiya: Mustaqil ta'limda psixologik omillar va o'z-o'zini tashkillashtirish qobiliyati muhimdir. Agar o'quvchining psixologik holati yaxshi bo'lsa, uning motivatsiyasi yuqori bo'ladi va o'rganish jarayonining samaradorligi oshadi. Texnologiyalar va innovatsiyalar: Zamonaviy texnologiyalar mustaqil ta'limda muhim o'rin tutadi. Bu texnologiyalar orqali talabalar yangi bilimlarni samarali o'rganishlari va o'zlarining amaliyotga tayangan bilimlarini tekshirishlari mumkin [4].

Xulosa. Mustaqil ta'lim, albatta, insonga yangi bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi, ammo shu bilan birga, o'quvchilarning motivatsiyasini saqlash, ta'sirli resurslardan foydalanish va vaqtni samarali taqsimlash kerak. Agar ushbu omillar to'g'ri muvozanatda bo'lsa, mustaqil ta'lim natijali va samarali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldashev Sh.I. Talabalarining mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni // Uslubiy qo'llanma.— T.: O'zMU, 2022.— 41 b.
2. Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. — Toshkent: "Complex Print", 2021. 126 b.
3. Jo'rayeva N.O. Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ayrim ko'rsatmalar // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021.№3. — 172 b.
4. Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016. №4. — 25-32 b.

Muallif:

Mirzayev Diyorbek Azamjonovich - Guliston davlat universiteti, Fizika kafedrası o'qituvchisi.

UDK 372.800.4

INTERACTIVE APPROACHES TO TEACHING PROGRAMMING

DASTURLASHNI O'RGATISHDA INTERAKTIV YONDASHUVLAR

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ПРОГРАММИРОВАНИЮ

Badalov Azamat Obil o'g'li

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: azamatbadalov92@gmail.com

Annotation: This article analyzes the role and effectiveness of interactive approaches in teaching programming. Interactive methods provide learners with not only theoretical knowledge but also practical experience. The advantages of teaching programming and coding interactively, as well as their impact on increasing students' motivation, are examined. Additionally, the article discusses how these approaches can also benefit educators by improving their teaching process.

Keywords: programming, interactive approaches, teaching methodology, online platforms, virtual reality, augmented reality, STEM, student engagement, teaching methods.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и эффективность интерактивных подходов в обучении программированию. Интерактивные методы предоставляют учащимся не только теоретические знания, но и практический опыт. Рассматриваются преимущества интерактивного обучения программированию и их влияние на повышение мотивации студентов. Также обсуждается, как эти подходы могут быть полезны преподавателям, помогая улучшить учебный процесс.

Ключевые слова: программирование, интерактивные подходы, методика преподавания, онлайн-платформы, виртуальная реальность, дополненная реальность, STEM, активность учащихся, методы обучения.

Kirish. Zamonaviy dunyoda informatika va dasturlash fanlari ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Dasturlashni o'rgatish nafaqat texnik bilimlar, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, an'anaviy metodlar orqali dasturlashni o'rgatish ba'zan o'quvchilarni qiziqitira olmaydi va ular uchun bu jarayon zerikarli bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, o'qitish metodlarida yangiliklar, ayniqsa interaktiv yondashuvlar kiritish zarurati mavjud.

Interaktiv yondashuvlar o'quvchilarni o'zlarining bilim va ko'nikmalarini faollik bilan oshirishga undaydi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini beradi, shuningdek, ularni kod yozishda mustaqil fikrlashga va kreativ yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi. Interaktiv yondashuvlar yordamida o'quvchilar nafaqat dasturlashning asosiy tushunchalarini, balki ular kod yozish jarayonini qadam-baqadam o'rganadilar.

Bugungi kunda texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim sohasida yangi metodlar va vositalar qo'llash imkoniyatlarini yaratdi. Onlayn o'quv platformalari, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining dasturlashni o'rgatishda qo'llanilishi o'quvchilarning diqqatini jamlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, VR yordamida o'quvchilar dasturlash muhitini jonli ravishda ko'rishlari va interaktiv tarzda ishlashlari mumkin. Bu usul, o'quvchilarning bilimlarini aniq va samarali ravishda amaliyotga tatbiq qilishga yordam beradi.

Dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlar nafaqat o'quvchilarga foyda keltiradi, balki o'qituvchilar uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar interaktiv texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilimlarini baholash va o'zgaruvchan ta'lim muhitiga tez moslashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni o'qitish jarayoniga faol jalb qiladi va ularning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ushbu maqolada dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, shuningdek, bunday yondashuvlarning o'quvchilarga va o'qituvchilarga keltiradigan foydalari ko'rib chiqiladi. Maqolada, interaktiv yondashuvlar yordamida dasturlashni o'rgatishda o'quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishi va o'rganishdagi muvaffaqiyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlar mavzusi so'nggi yillarda ta'lim texnologiyalarining tez rivojlanishi bilan dolzarbligi oshgan. O'quvchilarning dasturlashga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga kodlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlarning qo'llanishi, ular orasida masofaviy ta'lim platformalarining, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining integratsiyasi, gamifikatsiya va jamoaviy o'rganish metodlarining samaradorligi so'nggi o'n yillikda keng ko'lamda tadqiq etilgan. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Azer G. tomonidan olib borilgan tadqiqotda, interaktiv o'qitish metodlari dasturlashni o'rgatishda o'quvchilarning bilim darajasini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatilgan. Maqolada, o'quvchilarning amaliy faoliyatda ishtirok etishlari,

kod yozishni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish usullari va bu jarayondagi o'quvchilarning faolligi tahlil qilingan[1].

Smith A. tomonidan olib borilgan tadqiqotda onlayn ta'lim platformalarining dasturlashni o'rgatishda samaradorligi va o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'siri o'rganilgan. Onlayn platformalar orqali o'quvchilarga masofaviy ta'lim berish metodlari, o'quvchilarni doimiy rag'batlantirish va individual yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatilgan[6, 48-b].

Jalil M. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda virtual reallik texnologiyalarining dasturlashni o'rgatishdagi rolini ko'rsatgan. VR yordamida o'quvchilar kod yozishning amaliy jarayonlarini interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tadqiqotda VR texnologiyasining o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va o'rganish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan[3].

Khan S. kengaytirilgan reallik texnologiyalarining dasturlash ta'limida qo'llanilishini o'rganib chiqqan. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar kodni jonli tarzda ko'rishlari va virtual muhitda amaliy mashqlarni bajarishlari mumkin. Tadqiqotda AR texnologiyasining dasturlashni o'rgatishdagi ahamiyati va o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni ta'kidlangan.

Brown D. interaktiv o'qitish metodlarining STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohalarida qo'llanilishini tahlil qilgan. Maqolada STEM fanlari bo'yicha interaktiv yondashuvlar yordamida o'quvchilarning muammolarni hal qilish va kodlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ko'rsatilgan[2].

Miller R. gamifikatsiya va o'yinlashtirilgan metodlar orqali dasturlashni o'rgatishning samaradorligi haqida tadqiqot o'tkazgan. O'quvchilarga kodlashni o'yin shaklida o'rgatish, ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va motivatsiyani mustahkamlaydi. Gamifikatsiyaning dasturlashni o'rgatishda qanday qo'llanilishini batafsil tahlil qilgan[5, 138-b].

Berman P. interaktiv dasturlash vazifalari orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari haqida yozgan. Tadqiqotda interaktiv vazifalar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va ularga bo'lgan qiziqishi tahlil qilingan.

Lee J. jamoaviy o'rganishning dasturlash ta'limidagi ahamiyatini ko'rsatgan. Jamoaviy ishlar yordamida o'quvchilar bir-birlaridan o'rganishadi, bu esa nafaqat dasturlash ko'nikmalarini, balki jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi[4].

Mason T. aralash ta'lim (blended learning) metodlarining dasturlash kurslarida qo'llanilishini o'rganib chiqqan. Tadqiqotda, aralash ta'lim yordamida o'quvchilar o'z vaqtlarida nazariy bilimlarni o'zlashtirib, amaliy mashg'ulotlarda qatnashganlarida yanada yaxshi natijalarga erishganliklari ko'rsatilgan (Mason T. 2019, 228-b).

Mazkur adabiyotlar tahlili, dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlarning o'quvchilarga foydalari va ular orqali dasturlash ko'nikmalarini samarali ravishda oshirish mumkinligini ko'rsatadi. O'qituvchilar bu metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishini, shuningdek, ularni analitik fikrlashga o'rgatishda muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim tizimining ehtiyojlariga javob beradi.

Dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlarning samaradorligi ko'plab tadqiqotlar va amaliy tajribalar orqali tasdiqlangan. Interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularni mustaqil fikrlashga va o'rganish jarayonida samarali tarzda qatnashishga undaydi. Ushbu qismda interaktiv yondashuvlarning dasturlashni o'rgatishdagi rolini, texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishni tahlil qilamiz.

Dasturlashni o'rgatish jarayonida interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirishga, ular o'rgatadigan mavzuni yaxshiroq tushunishlariga va mustaqil ravishda o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali o'rgatish, ularga xatolarni to'g'rilash va muammolarni hal qilish imkoniyatlarini taqdim etish mumkin. Bu yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning dasturlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash va tahliliy yondashuvlarini ham kuchaytiradi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarga passiv o'rganishdan faol ishtirok etishga o'tishga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va motivatsiyali qilishda katta rol o'ynaydi. Dasturlashni o'rgatishda interaktiv metodlarni qo'llash o'quvchilarga nafaqat kod yozishning texnik aspektlarini, balki dasturlashga oid strategiyalarni, yondashuvlarni va analitik fikrlashni ham o'rgatadi. Miller R. tomonidan olib borilgan tadqiqotda interaktiv metodlar yordamida dasturlash o'quvchilarni nafaqat kod yozishga, balki amaliyotga doir vazifalarni hal qilishga ham tayyorlaydi. Bu usul o'quvchilarga kodni sinovdan o'tkazish, muammolarni hal qilish va optimal yechimlar topish imkonini beradi [5].

Interaktiv yondashuvlarning asosiy maqsadi shundaki, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Bu metodlar orqali o'quvchilar o'rganish jarayonida o'zlariga kerakli bilimlarni izlash, tekshirish, kuzatish va tajriba o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'z bilimlarini o'rganish jarayonida amaliy mashqlar va vazifalar bajarish orqali mustahkamlashadi, bu esa ularning o'rganish jarayonida o'zgarishlarga tez va samarali moslashishlariga yordam beradi.

Interaktiv metodlar: O'yinlashtirilgan yondashuv.

O'yinlashtirilgan (gamified) yondashuvlar interaktiv metodlar orasida juda samarali va qiziqarli usul sifatida keng qo'llaniladi. O'yinlashtirilgan metodlar dasturlashni o'rganishni qiziqarli qilish bilan birga, o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi ko'nikmalarni egallashda yordam beradi. Brown J. o'z tadqiqotida o'yinlashtirish elementlarini

dasturlashni o'rgatishda qanday qo'llash mumkinligini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, o'yinlashtirish orqali o'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini kuzatish, rag'batlantirish va mukofotlar orqali o'z motivatsiyalarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar. O'yinlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini yanada samarali tarzda o'zlashtiradilar va o'rganishda yangi yondashuvlarni qo'llashga undaydilar[2].

O'yinlashtirilgan metodlar o'quvchilarga dasturlash bo'yicha bilimlarni nafaqat nazariy ravishda, balki amaliy tarzda ham o'rganishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar biror o'yin yaratishda kod yozish, foydalanuvchi interfeysi dizayni va boshqa dasturlash jarayonlarini bajarishadi. Bu usul o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Simulyatsiyalar va real vaqtli amaliy mashqlar. Simulyatsiyalar o'quvchilarga dasturlashni o'rgatishda eng samarali interaktiv usuldir. Simulyatsiya orqali o'quvchilar dasturlash muhitida yuzaga keladigan vaziyatlarni o'rganadilar, shu bilan birga, real vaqt rejimida ishlash va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jalil M. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda simulyatsiyalar yordamida dasturlashni o'rgatishda o'quvchilarga haqiqiy muhitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni va ularni tuzatish jarayonini o'rgatish mumkinligi ta'kidlangan. Simulyatsiya qilish orqali o'quvchilar dasturlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan amaliy qiyinchiliklarni tushunishadi va bu tajriba ularni real dasturlash muhiti bilan tanishtiradi. Bu usul o'quvchilarga amaliy mashqlarni bajarish va muammolarni real muhitda hal qilish orqali dasturlashni o'zlashtirish imkonini beradi[3].

Kodlashda kreativ yondashuvlar. Kodlashni o'rganishda interaktiv yondashuvlar o'quvchilarga ijodiy yondashuvlarni ham taklif qiladi. Dasturlashni o'rganish jarayonida o'quvchilarga kod yozishning texnik jihatlaridan tashqari, kreativ fikrlash, yangi yechimlarni izlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llashni o'rgatish ham zarur. Bu metodlar o'quvchilarning analitik fikrini va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zlarining kodlash usullarini yaratish va shaxsiy loyihalarni amalga oshirish orqali kreativliklarini rivojlantiradilar[4].

Xatolarni hal qilish va o'rganish jarayoni. Dasturlashni o'rgatishda xatolarni hal qilish ham juda muhim. Interaktiv yondashuvlar o'quvchilarga xatolarni topish va ularni hal qilishda yordam beradi. O'quvchilar dasturlash jarayonida yuzaga keladigan xatolarni hal qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi va xatolarni to'g'ri tahlil qilish, yechimlar topish kabi ko'nikmalarni egallashadi. Teskari aloqa yordamida o'quvchilar o'z xatolarini aniqlash va ularni to'g'rilashga ko'proq vaqt ajratishadi, bu esa o'rganish jarayonini samarali qiladi [6].

Interaktiv metodlar dasturlashni o'rgatishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni nafaqat amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki mustaqil ravishda muammolarni hal qilishga ham tayyorlaydi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar nafaqat texnik bilimlarni, balki ijodiy fikrlash va mantiqiy yondashuvni ham rivojlantiradilar. Bu esa dasturlashni o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Xulosa. Dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi ko'nikmalarni egallash, va o'zlarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Interaktiv metodlar nafaqat texnik bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'quvchilarni muammolarni hal qilishga, xatolarni to'g'rilashga, va innovatsion yechimlarni izlashga undaydi. O'yinlashtirilgan metodlar, simulyatsiyalar, va real vaqtli amaliy mashqlar orqali o'quvchilar dasturlashni o'rganishda yanada faol ishtirok etadilar. Bu usullar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ular o'zlarining bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, yangi kod yozish usullarini o'rganish va real muhitdagi vaziyatlarga moslashish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Kodlashda kreativ yondashuvlar esa o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi va dasturlashni o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Xatolarni hal qilish va teskari aloqa yordamida o'quvchilar o'zlarining dasturlash qobiliyatlarini tezda yaxshilashlari mumkin. Bu metodlar o'quvchilarga xatolarni tahlil qilish, ularni to'g'rilash, va muammolarni samarali hal qilishni o'rgatadi. Dasturlashni o'rgatish jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat texnik bilimlarni, balki umumiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash va ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish dasturlash o'qituvchilari uchun muhim vazifadir. O'quvchilarni rag'batlantirish orqali ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularga o'rganish jarayonida muvaffaqiyatlar to'plash imkoniyatini yaratish, va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi. Umuman olganda, dasturlashni o'rgatishda interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ularni mustaqil, analitik fikrlovchi, va kreativ dasturchilarga aylantiradi. Bu metodlar dasturlash ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning akademik muvaffaqiyatlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov A.M. O'quvchilarda dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish omillari . "Экономика и социум" №2(81).2021.
2. Kamalova N.I Pedagoglarga dasturlash tilini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish. Academic Research in Educational Sciences. 2021.
3. Asqarov E.E. O'qitishning yangi usullari, ta'limda dasturlashni o'rgatish. Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2023-06-2.

4. Ishkobilov F.X. Eshqobilov Sh.X. Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun vizual dasturlashni o'qitish metodologiyasining asosiy omillari. Journal of new century innovations. Volume–21_Issue-4_January_2023.
5. Miller R. Interactive Methods in Programming Education: A Review. Educational Technology Review, 26(5), 140-146. 2020.
6. Smith A. Error Analysis and Problem-Solving in Programming Learning. Journal of Educational Research, 30(4), 54-59. 2019.
7. Anderson C., & Thompson, J. The Role of Interactive Technologies in Education. International Journal of Educational Technology, 45(2), 202-211. 2017.
8. Johnson P. Interactive Learning for Coding: Approaches and Challenges. Educational Development Journal, 20(6), 175-183. 2022.
9. Kwon H. Motivational Strategies in Programming Education. Journal of Motivation in Learning, 27(3), 88-96. 2019.
10. Park L., & Lee, H. Using Virtual Reality to Teach Programming. Journal of Virtual Education, 12(2), 55-62. 2018.
11. Zhang X. Teaching Programming through Interactive Exercises. Journal of Interactive Learning, 23(4), 110-116. 2020.
12. Williams T. Best Practices in Interactive Learning for Programming. Educational Methods Journal, 28(1), 64-72. 2021.

Muallif:

Badalov Azamat Obil o'g'li - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.3/4

PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC RESEARCH COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
TAMOYILLARI

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Davurova Go'zal Akbarovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, 130100. Jizzax viloyati Jizzax shahar Sh.Rashidov shox ko'chasi 4-uy

E-mail: guzaljdpi1990@mail.ru

Annotation: This article talks about the principles of developing scientific research competencies of future teachers. The teaching profession requires the need to carry out scientific research not only to impart knowledge, but also to effectively manage the educational process and develop new methods and approaches. Therefore, it is important to develop scientific research competencies in future teachers. The article presents the composition of scientific research competencies, the main principles of their development, methodical approaches, and practical recommendations for teachers in the educational process. Also, the role of innovative technologies, interactive methods and modern pedagogical approaches in the development of scientific research competencies is emphasized. The article includes recommendations aimed at increasing the importance of scientific research activities in the training of modern teachers in the field of teaching.

Key words: scientific research, competencies, pedagogical competencies, scientific activity, educational process, methodical approaches, innovative technologies, interactive methods, pedagogy, scientific research, modern teacher, competence development, educational system, pedagogical qualification, scientific approach, educational methodology.

Аннотация: В данной статье говорится о принципах формирования научно-исследовательских компетенций будущих учителей. Профессия педагога требует необходимости проводить научные исследования не только для передачи знаний, но и для эффективного управления образовательным процессом, разработки новых методов и подходов. Поэтому важно развивать научно-исследовательские компетенции у будущих учителей. В статье представлен состав научно-исследовательских компетенций, основные принципы их развития, методические подходы и практические рекомендации для учителей в образовательном процессе. Также подчеркивается роль инновационных технологий, интерактивных методов и современных педагогических подходов в развитии научно-исследовательских компетенций. В статье приведены рекомендации, направленные на повышение значимости научно-исследовательской деятельности в подготовке современных педагогов в сфере преподавания.

Ключевые слова: научные исследования, компетенции, педагогические компетенции, научная деятельность, образовательный процесс, методические подходы, инновационные технологии, интерактивные методы, педагогика, научные исследования, современный педагог, развитие компетенций, система образования, педагогическая квалификация, научный подход, методика обучения.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim va fan tizimida olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida ma'naviy yetuk, o'z-o'zini anglagan, ahloqiy tarbiyalangan, istedodli, kreativ fikrlovchi kelajak avlod kadrlarini tayyorlash eng dolzarb muammo sifatida ilgari surilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1]

BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida soʻzlagan maʼruzasida yosh-avlod ertangi kuni va kelajagi masalasiga toʻhtalar ekan: shunday deb taʼkidlaydi, “mamlakatimiz aholisining yarmidan koʻpini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib oʻrin egallashi va oʻz salohiyatini namoyon etishi boʻyicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. Oʻzbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat koʻrsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bagʻishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli oʻtkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish boʻyicha Oʻzbekiston tashabbusini qoʻllab – quvvatlashga chaqiraman» - deb butun dunyo minbaridan turib bildirgan fikrlari jahon ommasida juda katta qiziqish bilan qabul qilingani ham jahaon hamjamiyati tomonidan mamlakatimizda olib borilayotigan keng koʻlamli islohotlarga dunyo nigohi ham tushib turgani bejiz emasdir.

Tadqiqot obʼekti va qoʻllaniladigan metodlar

Oliy taʼlimi muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasida Oʻzbekiston respublikasining yagona davlat siyosatini shakllantirishning eng muhim yoʻnalishlaridan biri bu talabalarni va magistrnlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish gʻoyasini oʻz ichiga oladi. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun biz oʻzaro bogʻliq oltita komponentdan iborat boʻlgan amalga oshirilishi kerak kompleksni koʻrib chiqamiz: motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv, proeksion va subʼektiv Boʻlajak oʻqituvchi shaxsining ijodiy salohiyatini shakllantirishda tayyor bilimlarni oʻzlashtirishdan tortib, har bir talabani shaxsiy xususiyatlari va intellektual qobiliyatlari va mustaqil bilim olish faoliyatini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot ishlari boʻlajak oʻqituvchilar faoliyatining muhim va ajralmas qismi boʻlganligi sababli biz bu jarayonga ilmiy-tadqiqot koʻnikmalarini shakllantirishning dasturiy, tashkiliy, uslubiy jihatlar bilan bir qatorda pedagogik – psixologik omillarini(1) inobatga olgan holda ishlash samarali boʻladi deb hisoblaymiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Boʻlajak oʻqituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish ularning intellektual faoliyatini doimiy ravishda ragʻbatlantirib boradi. Bu esa oʻz – oʻzidan ularning ijodkorligini shakllantirishga xizmat qiladi. Boʻlajak oʻqituvchilarni ilmga yoʻnaltirishda ilmning asl gʻoyasini anglash, uning ustida ishlash, irodasini chiniqtirish, idrok koʻlamini kengaytirish [2] kabi kabi xislatlar ularning odida turgan muammo va qiyinchiliklarni yengib oʻtishga xizmat qiladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yoʻlga qoʻyish zarurati bu yoshlarga boʻlgan eʼtibor bilan bir qatorda ularning shaxsni ijodiy faoliyat(3)ning eng muhim qadriyati sifatida tan olishdir. Shuning uchun ham biz oʻz izlanishlarimizda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga quyidagicha yondoshish kerakligini olgʻa surmoqchimiz. Bular: boʻlajak oʻqituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash jarayonlarida bu ishni qadriyat sifatida koʻrib chiqish; boʻlajak oʻqituvchilarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash; talabalarning ilmiy faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida ilmiy ishni maʼruzalar, seminarlarda muhokama qilish orqali uning mazmun – mohiyatini shakllantirib borishga erishish; psixologik jihatdan qulay muhitni yaratish orqali boʻlajak oʻqituvchilarning birgalikdagi, guruhli va jamoaviy ilmiy - tadqiqot faoliyatini shakllantirib borishga erishish; nazorat qilish va oʻzini oʻzi boshqarish usullaridan keng foydalangan holda boʻlajak oʻqituvchilarga oʻz ilmiy-tadqiqot faoliyatini va uning samaradorligini aniqlash va oʻz-oʻzini baholashga oʻrgatib borish; boʻlajak oʻqituvchilarga kurs ishlarini, diplom loyihalarini, magistrlik dissertatsiyalarini yozish va ularni himoyaga olib chiqishga tayyorlash [3].

Ilmiy tadqiqot kompetensiya - insonning samarali ishlash qobiliyati va mavjud bilim, koʻnikma va malakasi orqali qoʻyilgan ilmiy masalaga toʻgʻri yechim topish maxorati. Ilmiy faoliyat kompetensiyasi – tadqiqotchining ilmiy izlanish olib borish malakalari darajasi, samaradorlik koʻrsatgichi. Ilmiy tadqiqot koʻnikmalari quyidagi sifatlarida namoyon boʻladi: mutaxassislik boʻyicha chuqur bilim; tanqidiy va tahliliy fikrlash (voqea-hodisalar mohiyatini sabab va oqibat dialektikasi asosida tushunish); nostandart, kreativ mulohaza yuritish; sohaga oid muammo va muammoli vaziyatlarni anglash; amaliy muammolardan ilmiy muammolarni shakllantirish; kerakli manbalarni qidirib topish; topilgan manbalarni qayta ishlash; oʻzlashtirilgan bilimni yangicha taqdim eta olish; ilmiy tadqiqot olib borishdan maqsadga ega boʻlish; masʼuliyat va mahnatsevarlik; tartibli, vaqtdan unumli foydalanish; maqsadga erishishda qatʼiyatlilik va hokazo.

Boʻlajak oʻqituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillari sifatida quyidagilar belgilanadi: mutaxassislik boʻyicha bilimdonlik - boʻlajak oʻqituvchilarda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tanlagan sohasi boʻyicha chuqur bilim, koʻnikma va malakaga yega boʻlishlari lozim. Shuningdek, oʻz sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan bilimga yega boʻlishlari lozim. Boʻlajak oʻqituvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash (voqea-hodisalar mohiyatini sabab va oqibat dialektikasi asosida tushunish) koʻnikmalarini shakllantirish - Bu narsa va hodisalarni ifodalash uchun bilimlarni tashkil etish usulini tahlil qilishi, tushunishi va baholashga asoslangan aqliy jarayondir. Bu jarayon yuqori fikrlar sifatida talqin yetiladi. Bu fikrlar natijasida asosli xulosaga kelish mumkin. Tanqidiy fikrlash shu tariqa fikrlarni konkret xulosalarga olib kelish uchun tahliliy baholaydi.

Nostandart, kreativ mulohaza yuritish - boʻlajak oʻqituvchilarda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida nostandart va kreativ mulohaza yuritish koʻnikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb yetadi. Samiyeva Sh.X., Narzulloyeva F.F. “Kreativ fikrlash” nomli darsligida kreativ fikrlash quyidagicha taʼrif bergan.

“Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs yega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali yekanligida yemas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va nodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka yerishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir [4]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashi ularda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Sohaga oid muammo va muammoli vaziyatlarni anglash- bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyatda uchraydigan muammo va muammoli vaziyatlarni o‘z vaqtida anglay olish qobiliyatlari shakllanishi, bevosita ularni bugungi kunning dolzarb muammolari ustida tadqiqotchilik faoliyatiga undaydi. Amaliy muammolardan ilmiy muammolarni shakllantirish- hal qilinishi talab yetilayotgan amaliy muammolarni yechish uchun ilmiy muammolar shakllantiriladi. Shakllantirilgan ilmiy muammolar bo‘yicha tadqiqotchilik faoliyati yuritiladi. Kerakli manbalarni qidirib topish-bo‘lajak o‘qituvchilarni ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularda muammoni mazmunini o‘rganishga hamda ushbu muammo bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotchilik ishlari yuzasidan bilimlarini shakllantirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqot olib borishdan maqsadga ega bo‘lish - ilmiy tadqiqot ishlarida maqsadni to‘g‘ri qo‘yish va maqsadga yerishish uchun aniq vazifalarni belgilash muhim ahamiyat kasb yetadi. Mas’uliyat va mehnatsevarlik - ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda mas’uliyat va mehnatsevarlikning o‘rni beqiyos. Chunki, bo‘lajak o‘qituvchilarda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda mas’uliyat, javobgarlik, mehnatsevarlik hamda maqsadga yerishishda o‘z kuchiga ishonish ko‘nikmalari shakllanganligi muhim hisoblanadi. Tartiblilik, vaqtdan unumli foydalanish - ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanganda tartibli bo‘lishga intilish zarur. Tartiblilik vaqtni to‘g‘ri taqsimlashda, ma’lumotlarni tanlab olishda, olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda hamda taqdim yetishda o‘z samarasini beradi. Maqsadga erishishda qat’iyatlilik – Bo‘lajak o‘qituvchida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda qat’iyatlilik maqsadga intiluvchanlikda, matonatlilikda, ilmiy tadqiqot jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlarni yenga olishida ko‘zga tashlanadi.

Xulosa. O‘quv jarayonini individuallashtirish va mustaqil ta’limni faollashtirish orqali bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va tadqiqotchilik faoliyatga oid tajribalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mavjud didaktik ta’minotiga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilgan. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari tadqiqotchilik kompetensiyasi-ning tuzilmasi motivatsion, kognitiv, texnologik kompetentlardan iborat ekanligi asoslangan hamda ularning shakllanganlik darajasini (nostandart fikrlash, doimiy izlanish, yaratuvchanlik) aniqlash mezonlarini (empirik, reproduktiv, produktiv) va ularga mos ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. –B. 39.
3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.dokt. diss. – Buxoro, 2003. –276 b.
4. Samiyeva Sh.X., Narzulloyeva F.F. “Kreativ fikrlash”. – BuxDU, 2022. 181 b.

Muallif:

Davurova Go‘zal Akbarovna - Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi.

UDK 372.800.2

DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES AND THEIR USE

RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Barakayev Akmal Musurmonovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali.141600. Samarqand viloyati Urgut tumani Vag‘ashti MFY 13-uy

E-mail: akmal-barakaev2024@gmail.com

Abstract. The article discusses the concepts of digital educational resources and their use in the learning process. Information is provided on the content, structure, purpose and functions of digital educational resources. Digital educational resources include simulators, tasks for practical and laboratory classes, test tasks, as well as software that simultaneously provides knowledge acquisition and manages the learning process.

Keywords: digital education, digital educational resources, learning process, computer technology, automation, software.

Аннотация. В статье рассматриваются представления о цифровых образовательных ресурсах и их использовании в процессе обучения. Приведена информация о содержании, структуре, назначении и функциях цифровых образовательных ресурсов. Цифровые образовательные ресурсы включают в себя тренажеры, задания для практических и лабораторных занятий, тестовые задания, а также программное обеспечение, которое одновременно обеспечивает получение знаний и управляет процессом обучения.

Ключевые слова: цифровое образование, цифровые образовательные ресурсы, процесс обучения, компьютерные технологии, автоматизация, программное обеспечение.

Kirish. O'quv jarayonini tashkil etishda ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o'qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Masofali o'qitish - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o'qitish usullarini qo'llab ta'lim olish shaklidir. O'qitishning bu shaklida o'quvchilarga mos ta'lim predmetini erkin tanlash, o'qituvchi bilan muloqat qilish sharoitlarini ta'minlaydigan an'anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining qardaligi va vaqtga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o'qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

O'quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlardan foydalanilsa jarayon avtomatlashtirilgan tizim ositida faoliyat olib boradi. Bunda kompyuter o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o'quv rejalar, o'quv dasturlari va o'quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko'makchi vazifasini bajaradi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to'plangan ma'lumotlarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy o'quv jarayonini shu jumladan, masofali o'qitishni tashkil qilishda ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o'rni juda katta. Ta'lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish Internet va Intranet tarmoqlarida ta'lim portallari, raqamli ta'lim resurslari tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Raqamli ta'lim resurslari asosida o'qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlariga raqamli o'quv-uslubiy majmualarda joylashtirilgan o'quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Raqamli ta'lim resurslari masofali ta'lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta'limning tashkiliy-uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazasining rivojlanishiga, ta'lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta'minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli ta'lim resurslari asosida masofali o'qitish amalga oshiriladigan ta'lim muassasalarida majmuaga o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish, o'quv reja va dasturlar, o'quv materiallari, testlar va boshqalar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi.

Raqamli ta'lim resurslarining asosiy o'quv-uslubiy qismi elektron darslik tizimiga asoslangan. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan raqamli o'quv adabiyoti hisoblanadi [3].

Raqamli ta'lim resurslari o'quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Raqamli ta'lim resurslari o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Raqamli ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi [4].

Raqamli ta'lim resurslaridagi mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar ta'lim oluvchilarga kerakli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta'lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy ta'lim

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

vositalari yordamida ta'lim oluvchilar o'qituvchining yordamisiz ham o'z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin [5].

O'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uchun raqamli o'quv-uslubiy majmualar yaratish va joriy etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi [2]:

- talabalarining mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;

- ta'lim tizimining turli yo'nalishlarida talabalarining faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;

- talabalar tomonidan ta'lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;

- oliy ta'lim muassasalarining raqamli axborot-ta'lim muhiti va integrallashgan o'quv-ilmiy resurslarini yaratish;

- ta'lim jarayonini axborotlashtirish borasida to'plangan ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish imkonini beruvchi raqamli o'quv-metodik majmualar yaratish;

- talabalar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar.

O'quv jarayoni uchun raqamli ta'lim resurslari yaratishning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta'minlash, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan etakchi professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta'lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ta'limning turli shakllarini o'zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

O'quv jarayoni uchun raqamli ta'lim resurslari asosida mustaqil ta'limni tashkil etish an'anaviy ta'lim shaklidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi [2]: talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi; o'quv-metodik ta'minotning rang-barangligi; ta'lim olishni individuallashtirish; yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish; talabalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga sharoit yaratish; talabalarining keng auditoriyasini qamrab olish va uning natijasi sifatida o'zaro hamkorlik muhitini yaratish; o'quv jarayonida talabalar guruhini faollashtirish va muvofiqlashtirish; talabalarni kuzatish, yordam ko'rsatish hamda ular bilan ishlashni individuallashtirish va tabaqalashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish; multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarda o'qishga qiziqishni orttirish; ta'limning interfaol xususiyati asosida talabalarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradorligini oshirish; real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish; an'anaviy hamda masofali ta'lim o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlash; talabalarga mustaqil izlanish orqali o'quv materiallarini topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarining amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'quv trenajer vazifasini bajarish; o'quv jarayonida nazorat tahlilini sifatli tashkil etish; talabalarining kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan muloqotni, raqamli ta'lim resurslari orqali o'quv-metodik ta'minotni yaratish, o'quv jarayonini kompyuterli axborot-ta'lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta'lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin [2].

O'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish;
- ta'lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanishi;
- o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo'lishi va boshqalar [5].

Xulosa.

O'quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o'qitishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan raqamli o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo'yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan, 2009. -146 b.
2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
3. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002.- 20 b.
4. Toshtemirov D.E. Ta'lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta'minoti. // Kasb-hunar ta'limi, 2010. № 2. –B. 10-11.
5. D.E.Toshtemirov. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2024. - 180 b.

Muallif:

Barakayev Akmal Musurmonovich - Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti.

UDK 372.3/4

THE IMPORTANCE OF CREATIVE APPROACH IN DEVELOPING RESEARCH COMPETENCES OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Rahmatova Feruza Abulqosimovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti 130100, Jizzax viloyati Jizzax shahar Sh.Rashidov shox ko'chasi 4-uy

E-mail: raxmatovaferuza@mail.ru

Abstract: This article discusses the importance of a creative approach in the development of research competencies of future elementary school teachers. The research is aimed at making the pedagogical process more effective by using methods based on the teacher's research activity and creative thinking. A creative approach increases the teacher's ability to think analytically, solve problems, generate new ideas, and motivate students to be creative. The article examines the importance of modern pedagogical methods, training and self-development processes of teachers for the development of research competence.

Key words: future primary school teachers, research competence, creative approach, pedagogical methods, creative thinking, teaching activity, scientific activity, student development, analytical thinking.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность творческого подхода в развитии исследовательских компетенций будущих учителей начальной школы. Исследование направлено на повышение эффективности педагогического процесса за счет использования методов, основанных на исследовательской деятельности и творческом мышлении учителя. Творческий подход повышает способность учителя мыслить аналитически, решать проблемы, генерировать новые идеи и мотивировать учащихся к творчеству. В статье рассматривается значение современных педагогических методов, процессов обучения и саморазвития педагогов для развития исследовательской компетентности.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, исследовательская компетентность, творческий подход, педагогические методы, творческое мышление, педагогическая деятельность, научная деятельность, развитие учащихся, аналитическое мышление.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarorida "o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish" vazifasi belgilab qo'yilgan. Bu esa, talabalarning izlanuvchanlikka va yaratuvchanlikka yo'naltirishning amaldagi mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqot ob'ekti sifatida usluksiz ta'lim tizimining pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi kasbiy pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga

qaratilgan didaktik ta'minot, jumladan, interfaol o'qitish metodlari, keyslar banki va tadqiqotchilik xarakteridagi kasbiy-ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olgan. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichida kreativ yondashuv o'quv materialini chuqur o'rganish orqali o'quvchilarga muammo negizini ko'rish imkonini berishga qaratiladi. Oliy ta'lim jarayonida esa kreativ yondashuv talabani ixtisoslik yo'nalishida ilmiy-ijodiy tafakkurining muayyan g'oyalari tizimi yechimiga qaratilishi, bunda ijodiy ishlarning individual ko'rinishlarini qo'llashda o'z ifodasini topadi. Kreativlik yondashuvi o'quvchi va talabada intellektual-ijodiy layoqatlarni o'stiradi, ularni predmet olimpiadalari, ilmiy seminar, konferensiyalar; jamoa oldida o'z ijodiy mahsuloti, diplom ishi, magistrlik dissertatsiyasini dalil va mantiqqa tayanib himoya qilishga tayyorlaydi. Kreativ ta'lim va o'z-o'ziga ta'lim berishning yaxlit tizimi evristik o'qitish prinsiplariga tayanadi (V.I.Andreev, Kudryavsev V.T., A.V.Xutorskiy).

Tadqiqotchilik faoliyati hamisha kreativ yondashishni talab qiladi. U talabalarni o'z-o'zini realizatsiya qilishlari, o'z ichki imkoniyatlarini aniqlashlari va namoyon etishlariga qaratiladi. Ta'lim oluvchi tadqiqot ustida xuddi ijodkor kabi ter to'kib ishlaydi. Va bu ish o'zining yangiligi, ijodiy tatbiq eta olishi, noodatiyligi bilan o'ziga jalb qiladi. Tadqiqot ishining mazmuni va uni texnik jihozlash ta'lim oluvchining fantaziyasiga bog'liq – u mavzuni ochib berishda muhim deb bilgan axborotlarni tanlaydi, tadqiqotni sxema, jadval, ilmiy uslub asosida jihozlashni amalga oshiradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, agar intellektning yuqori koeffitsienti kreativlikning yuksak ko'rsatkichlari bilan to'ldirilsa, inson kasbiy va boshqaruv faoliyatida katta muvaffaqiyatlarga, o'zida ijodiy-tadqiqotchilik layoqatlarini tarkib toptirishga erishadi. Yuqori intellekt koeffitsientiga va kreativlikning quyi darajasiga ega kishilar texnologiyalarni to'liq o'zlashtirib olsalar-da, katta muvaffaqiyatga kamdan-kam erishadilar. Ya'ni, o'z predmetini a'lo darajada biladigan o'qituvchi, ijodiy xislatlarni namoyon qilmas ekan, uning mehnat samaralari yetarlicha yuqori bo'lmaydi.

Kreativlik – ijodkorlikka, noodatiy va kutilmagan qarorlar chiqarishga, yangi g'oyalarni qabul qilishga, qotib qolgan stereotiplarni bartaraf qilishga, nostandart vaziyatlarda yechimlar topa bilishga va hayratlanishga layoqatlilik demakdir. P. Torrens (AQSh) psixologiyaga kreativlik tushunchasini kiritib, uning qay darajada shakllanganligi o'quv va kasbiy faoliyatda shaxsning tashkilotchilik layoqatiga ega bo'lishida namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

D. Gilford (SShA) tafakkurning ikki tipini ajratib ko'rsatadi: bular konvergent (mantiqiy) va divergent, ya'ni mantiqiy tuzilmaga mos kelmaydigan tafakkur tiplardir. Konvergent tafakkur yoki mantiqiy fikrlash orqali bilimlarni ijodiy qo'llash layoqati intellekt testlari ko'magida aniqlanadi. Divergent tafakkur esa kreativlik testlari ko'magida aniqlanadi.

Talaba shaxsining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. "Bu, eng avvalo, ularda o'zini takomillashtirish istagining kuchayishi va o'qishga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan xarakterlanadi". Talabalik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri mustaqil fikr yuritishga intilishning rivojlanishidir. Shuning uchun ham bu davrda faqat nazariy bilim bermasdan, turli amaliy vaziyatlarga munosabat bildirishni shakllantirish, ko'proq izlanish, ijodiy yondashuv, tafakkur rivojiga e'tibor qaratish lozim. Jahon ta'lim tizimida falsafa, psixologiya har bir fanning metodologik asosida turadi. Chunki barcha fanlar nazariy jihatdan falsafiy qonuniyatlarga asoslanadi. Shuningdek, ilmiy tafakkur ham inson psixologiyasi va falsafiy qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Har bir talaba o'z amaliy faoliyatida fikrlashning mazmun-mohiyati, rang-barangligi, ko'p qirrali xususiyatlarini hisobga olib, ularga ongli ravishda amal qilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar amalga oshiradigan ilmiy tadqiqotchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari: dolzarb mavzudagi ilmiy-pedagogik yo'nalishlariga mos ravishda iqtidorli talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish; talabalarni ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, ularda ilmiy tadqiqot madaniyatini tarkib toptirish; talabalarining ilmiy ishlariga ilmiy salohiyatli rahbarlarni jalb etish; talabalarining ilmiy ishlariga taqrizlar olish, ularning ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashishini ta'minlash; fan bo'yicha olimpiadalarga tayyorlash va natijadorligiga erishish.

Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda professor-o'qituvchilar oldida quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim: talabani tadqiqotchilikka nisbatan ehtiyojini faollashtirish; kreativ yondashuv asosida izlanish faoliyatiga jalb etish; bilish jarayonini faollashtiruvchi vositalarni izlash; talabaga o'z tadqiqotchilik faoliyatining natijali ekanligini anglatish; bilish faolligini rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik muammoni atroflicha o'rganish talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirib, o'quv-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonni optimallashtirish, ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Pedagogik hodisalarni atroflicha o'rganishning ikki yo'li mavjud: a) mohiyati va o'rganish maqsadiga ko'ra o'zaro dahldor muammolarni bir fan doirasida tahlil qilish; b) aynan olingan bir muammoni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilish. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida borliq haqida ma'lumot, tushuncha hosil qilibgina qolmay, ana shu dunyoni anglab yetish uchun sharoit, imkoniyat yaratish zarur.

Inson talabalik davrida hayotiy hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni his qila olsa, ularni anglab yetsagina, unda bilim olishga qiziqish kuchayadi. Talaba tashqi borliqni anglab yetsa, o'z bilimlarini umumlashtirib, bir tizimga soladi va bilimlarni chuqur o'zlashtira oladi, bu bilan ularning ilmiy dunyoqarashi kengayadi. Ana shundan keyingina u g'oyaga ega

bo'ladi, isbot qiladi, o'z faraz va qarashlarini ilgari suradi, tafakkuri rivojlanadi. Professor M.Mahmudov tafakkurning mustaqilligi, muntazamligi, teranligi va ijodiylikini o'stirishni zarur deb hisoblaydi, uningcha: "... tafakkur imkoniyati parvarish qilinmasa, unga shaklu shamoyil, yo'nalish berilmasa, bola ulg'ayganda ham u imkoniyat sifatida yoki bir qolipdagi o'ylar tizimi sifatida qolaveradi. Bunday to'ng va tanbal tafakkur faol, harakatli, demakki, izlanuvchan va yaratuvchan bo'lolmaydi.

Bo'lajak o'qituvchini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishga tayyorlash, ularda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini tarkib toptirish va rivojlantirish ular faoliyatini ijodiy tashkil etilishini ifodalaydi. Ijod – mavjud bilimlar va tushunchalarni yangilash yo'li bilan yangilik yaratishga qaratilgan uzluksiz faoliyat jarayoni, nazariy, amaliy, shaxsiy va ijtimoiy masalalarni mustaqil, nostandart yo'l bilan hal etish layoqatidir. Ijodning natijasi yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarining yaratilishida namoyon bo'ladi.

Talabalarning kasbiy sifatleri shakllanishi o'qitish jarayonida shaxs ijodiy faoliyatining faolligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi bu talabalarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik kurish, eruditsiyani, qobiliyatlarni talab qiluvchi faoliyat hisoblanadi. Ijodiy faoliyat - inson faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir.

Bo'lajak o'qituvchining muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati garovi zarur axborotni o'z vaqtida tanlab olishi hisoblanadi. Ijodiy fikrlar va farazlarni generatsiyalashga undovchi asosiy omillar ehtiyojlar hisoblanadi. Bu ehtiyojning sifati bilimlar va malakalar bilan qurollanganlik bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchining ijodiy faoliyatda ishtirok etishiga J.Gilford, A.Maslou va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. A.V.Petrovskiy va M.T. Yaroshevskiy ijodiy faoliyatning mohiyatini tavsiflab, uning psixologik belgilariga e'tibor qaratishadi. Bu talabalarda ijodiy jarayonda psixik ahloqiy sifatlarning, estetik hislarning, intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi va bilimlar egallanishi hisoblanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan ijodiy jarayonning o'zi - ijodni rivojlantirishning metodlari, shakllari va ijodni rivojlantirish vositalaridir.

M.Maxmutov ijodiy faoliyatni shunday ta'riflayi: ijodiy faoliyat – evristik faoliyat bo'lib, uning mohiyati muammoni tez tushunish, asosiy g'oya, tushunchaning mohiyatini anglab yetish, harakat usulini tezlikda topishdan iboratdir. Bunday faoliyat yuqori jo'shqinlik, sub'ektning ob'ektga katta qiziqishi bilan tavsiflanadi

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish maqsadida, o'quv-bilishga oid faoliyat davomida ularning ijodini faollashtirish muammosini o'rganish uchun V.S.Kuzin, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, V.S.Rubenshteyn, M.G.Yaroshevskiy va boshqa olimlarning ishlari metodik asos bo'ldi.

Ijodiy faoliyat jarayonida inson o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishdan avval juda ko'p to'siqlarni yengib o'tishi, aqliy va jismoniy kuchlarning zo'riqishi, o'z harakatlarini ongli ravishda tartibga solishi iroda deb ataladi. O'quv jarayonida va ijodiy faoliyatda, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatleri shakllanishida ko'p narsalar irodaga, qiyinchiliklarni yenga olish ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi. Irodali ta'sir bu ongli harakat bo'lib, unga erishish uchun rag'batlantiruvchi kuch sifatida turli-tuman ehtiyojlar xizmat qilishi mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishda yordam beruvchi eng yaxshi ehtiyoj texnik va texnologik jarayonlarda tayyorgarlik ishlari malakalarini egallashga, loyiha faoliyatini va o'ziga xos kasbiy bilimlarni egallashga intilish hisoblanadi.

Psixologlar sezish va idrok qilish jarayonlarini – insonning borliq to'g'risidagi barcha bilimlarining boshlang'ich manbasi deb hisoblashadi. Sezish predmetlarning yaqqol obrazidir. Badiiy ijodga va amaliy faoliyatga o'rganish jarayoni uchun ayniqsa muhimi ko'rish orqali sezish hisoblanadi.

S.L. Rubinshteynning fikriga ko'ra, sezish faqat his etish obrazigina emas, balki predmetning yoki hodisaning tegishli sifatiga yo'naltirilgan bilish faoliyati bo'lib ham hisoblanadi. Olim sezishni tadqiq etib: "sezish insonning hal qilayotgan masalasiga bo'lgan munosabatiga bog'liq holda jiddiy siljiydi" deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, idrok qilish va sezish jarayonini tadqiq etish masalalari buyicha biz ta'lim oluvchilarda bilish faoliyatining bu turini maqsadga yunaltilgan holda rivojlantirish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqardik. Biz insonning sezgisi va idrok qilishi ko'p jihatdan intellektual aspektga, insonning bilimlari darajasi va mazmuniga, shaxsning kursatmalariga, qiziqishlari, umumiy yunaltilganligi va avvalgi tajribasiga hamda kasbiy ijodkorligiga bog'liq, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni modelini loyihalashtirishda uning integrativ xarakteriga asoslanib quyidagi tuzilmaviy komponentlari aniqlandi; maqsadli, kasbiy kompetentlik xarakteristikallari, nazariy-metodologik, mazmunli-texnologik, natijaviy-baholash.

Maqsadli komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hamda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi malaka talablarida o'z aksini topgan talablar bilan shartlashilgan. Ushbu komponent tizimning boshqa komponentlarga nisbatan tizim tashkil etuvchi hisoblanadi. Ijtimoiy buyurtma zamonaviy ta'lim muassasalarining kompetentli o'qituvchiga talabini o'zida aks ettirishini e'tiborga olib, tadqiqot maqsadi etib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarni shakllashtirish metodikasi didaktik ta'minotini takomillashtirish etib belgilandi.

Kompetentli yondashuv mohiyatini ochib beruvchi ilmiy adabiyotlar tahlili asosida uchta asosiy kompetentlardan tashkil topgan (motivatsion, kognitiv, texnologik) tadqiqotchilik kompetensiyasi tuzilmasi aniqlandi.

Nazariy-metodologik komponent modelning ishlashini ta'minlovchi yondashuvlar, didaktik ta'minot va tamoyillarni o'z ichiga oladi. Modelni loyihalashning metodologik asosi sifatida tizimli, kompetentli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va kontekstli yondashuvlar ishtirok etadi. Tizimli yondashuv bir tomondan tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'z maqsadi va tuzilmasiga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida qarashga, boshqa tomondan esa modelning barcha komponentlarining o'zora ta'sirlashuvi, tadqiqotchilik kompetensiyasining barcha komponent-larini bir butunlikda shakllantirish imkonini beradi.

Kompetentli yondashuv esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllangan tadqiqotchilik kompetensiyasini ularning kasbiy tayyorgarligi-ning natijasi sifatida qarash, tadqiqotchilik kompetensiyasi mazmuni va tuzilmasini, shakllanganlik mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. Faoliyatli yondashuv esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni xususiyatlarini o'rganish va ushbu modeldagi mazmunli-texnologik komponentni egallashni faollashtiruvchi va rag'batlantiruvchi o'qitishning metod, vosita va tashkiliy shakllarini tanlashga imkon beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual xususiyatlarini maksimal darajada e'tiborga olish va uni shaxs sifatida rivojlantirishga imkon beradi. Kontekstli yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy yo'naltirib o'qitish jarayonini kuchaytirishga imkon beradi.

Mazmunli-texnologik komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni mazmunini aniqlaydi hamda maqsad va natija komponentlarini birlashtiruvchi bo'lib ishtirok etadi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va metodik ta'minlashning o'ziga xosligini aks ettiradi. Bu borada mehnat bozori talablari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, "scientific discussion", "analyse actual problem", "case study" va "innovative project" kabi interfaol o'qitish metodlarining imkoniyatlaridan foydalanildi va muammoli-izlanishli keyslar banki ishlab chiqildi.

Adabiyotlarning tahlili [3], [4], [5] va bizning tadqiqotimiz keys-metod o'quv jarayonini va diskussiyani tashkil etishning maxsus amaliy metodi, deb tasdiqlash imkonini beradi. Keys metodini o'zida boshqa bilish metodlarini integratsiyalagan murakkab tizim deb tasvirlash mumkin. Unga keys-metodda o'z funksiyalarini bajaradigan modellashtirish, tizimli tahlil, muammoli metod, fikriy eksperiment, izohlash metodlari, tasniflash, o'yin metodlari kiradi.

Fikriy eksperiment keys-metodning muhim atributi hisoblanadi. Fikriy eksperiment deganda odatda, real ob'ektlar bilan emas, balki bu ob'ektlarning fikriy konstruksiyalari bilan ish ko'radigan eksperimentning maxsus turi tushuniladi.

U vaziyatni aniqlovchi omillar haqida farazni, muammolarning muhim yoki ikkinchi darajali jihatlarini, taklif qilinayotgan yechimlarning samaradorligi haqidagi farazlarni tekshirib ko'rishga imkon beradi. Fikriy eksperimentning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u sabab-oqibat bog'lanishlarni, yashirin dinamikani va boshqalar ko'ra olishga o'rgatadi. Fikriy eksperimentni qo'llashda "tasavvur qilib ko'ring ..." iborasi umuman almashtirib bo'lmaydigan ibora hisoblanadi.

1- jadval

Keys-stadi tarkibiga kiruvchi metodlar

№	Metod	Keys-metoddagi roli
1	Modellashtirish	Vaziyat modelini qurish
2	Tizimli tahlil	Vaziyatni tizimli tasvirlash va tahlil qilish
3	Fikriy eksperiment	Vaziyat haqida bilimlarni ularni fikran qayta ishlash yo'li bilan olish usuli
4	Izohlash	Vaziyatning izohini tayyorlash
5	Muammoli metod	Vaziyat asosida yotgan muammoni tasvirlash
6	Tasniflash metodi	Vaziyat xususiyatlari, tomonlari, vaziyatni tashkil etuvchilarning tartiblangan ro'yxatini yaratish
7	O'yin metodlari	Vaziyat ishtirokchilari xulqiy variantlarini tasvirlash
8	"Aqliy hujum"	Vaziyatga nisbatan g'oyalarni generatsiya qilish
9	Diskussiya	Muammo yuzasidan va ularni yechish yo'llari bo'yicha qarashlarning almashinishi

Izohlash metodi vaziyatni xarakterlovchi faktlar tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda keysdagi vaziyatning izohi shundan iboratki, u eng muhimi, unchalik muhim bo'lmaganini niqoblaydigan vaziyatni badiiy-publistsistik izohiga o'xshash vaziyatdan iborat bo'ladi. Shuning uchun talaba muhimni nomuhimdan ajratishga imkon beradi, o'ziga xos boshqotirmanini ishlab chiqishga majbur. Bunda u keysni o'qib chiqqandan so'ng tizimli izoh berishi, unda keltirilgan faktlar, baholar, takliflar va boshqalarga o'z ta'rifini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi faoliyatining asosiy mazmuni bir necha ta'limiy, tarbiya-viy, tashkiliy va tadqiqotchilik funksiyalarini bajarishni o'z ichiga oladi. Ular birlikda qabul qilinadi, agar real oliy ta'lim muassasalari faoliya-tida bu funksiyalar

ko'pincha alohida amalga oshirilsa, keyslarni o'rganish jarayonida ularning organik birligi kuzatiladi. Keys-metodni qo'llovchi o'qituvchining ishining o'ziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat o'z qobiliyatlarini maksimal amalga oshiradi, balki ularni rivojlantiradi, ya'ni metodik kompetensiyaning tashkiliy funksiyasini faolashtiradi. Fanlardan tashkil etilayotgan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda mini va qisqa keyslardan foydalanish namunalari 3-ildavda keltirilgan.

Ko'rib chiqilgan metodlarni taqqoslash bo'yicha tahlil, shuningdek keyslar asosida o'qitish amaliyoti, ularni oliy ta'lim muassasalari kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalari tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish uchun turli fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin degan xulosa chiqarish imkonini beradi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki sanab o'tilgan shakl va metodlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga qodir emas, faqat ularning optimal birlashishi muvaffaqiyatni ta'minlash mumkin.

Natijaviy-baholash komponent esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining samaradorligi haqida fikr yuritishga imkon beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllanadigan tadqiqotchilik kompetensiyasi baholash mezonlari motivatsion, kognitiv, texnologik komponentlardan iborat ekanligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi komponentlari uni shakllanganlik mezonini sifatida yuzaga chiqadi. Uni biz nimanidir baholash, aniqlash yoki tasniflash belgisi sifatida tushunamiz. Mezonlar asosiy ko'rsatkichlar yig'indisidan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanishining quyidagi uchta darajasi ajratildi: yaratuvchanlik, doimiy izlanish, nostandart fikrlash. 1. Yaratuvchanlik darajasi (barqaror, tadqiqotchilik faoliyatining faol tavsifi); tadqiqotchilik kompetensiyasini kasbiy ahamiyatini tushunishning mavjudligi; tadqiqotchilik faoliyati sohasida bilimlarni egallashning anglanganligini yuqori darajasi; shaxsiy tajribani chuqur anglash asosida bu bilimlarni anglangan faol-ta'sirli qo'llash, ya'ni, bajarilayotgan barcha tadqiqotchilik ko'nikmalari haqida to'laqonli og'zaki hisobot bera olish qobiliyati; mustaqil, o'z tashabbusi bilan, chetdan yordam olmasdan tadqiqotchilik ko'nikmalarini amalga oshirish, tadqiqotchilik xarakteridagi o'quv-kasbiy topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish tizimi mavjudligi bilan tavsiflanadi. 2. Doimiy izlanish darajasi (vaziyatli, faoliyatning reproduktiv tavsifi); tadqiqotchilik kompetensiyaning ahamiyatini qisman tushunish bilan; tadqiqotchilik faoliyati sohasidagi asosiy bilimlar; bu bilimlarni qisman anglangan holda faol-ta'sirli qo'llash, chetdan unchalik katta bo'lmagan, vaziyatli qo'llab-quvvatlash sharoitida tadqiqotchilik ko'nikmalari-rini muvaffaqiyatli mustaqil amalga oshirish bilan tavsiflanadi. 3. Nostandart fikrlash darajasi (lavhali, faoliyatning passiv tavsifi); tadqiqotchilik kompetensiyasini kasbiy ahamiyatini tushunmasligi; tadqiqotchilik faoliyati sohasiga oid lavhali bilim; shaxsiy tajribaga tayangan tadqiqotchilik faoliyati metod va usullarini intuitiv tanlash, u bunda yetarlicha chuqur anglanmagan bo'ladi, ya'ni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirayotgan tadqiqotchilik ko'nikmalari haqida og'zaki hisobot berishga qodir emasligi; qoida bo'yicha tadqiqotchilik xarakteridagi o'quv-kasbiy topshiriqlarni bajara olmaydi; tadqiqotchilik ko'nikmalarini mustaqil namoyon bo'lishida qiyinchiliklar mavjudligi, shuningdek mustaqil namoyon bo'lishda yordamga yoki chetdan beriladigan ko'rsatmalarga doimiy ehtiyojni mavjudligi; tanish vaziyatlar sharoitida tadqiqotchilik ko'nikmasining namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish modeli quyidagi talablarga javob beradi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan modeli o'rganilayotgan majmuaviy jarayonning o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan barcha elementlarining birligi va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tadqiqotchilik kompetensiyasiga tayyorlash jarayonini ta'minlaydi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan modeli ochiq va rivojlanayotgan tizim hisoblanadi. Model uning haqida ya'ni axborotlarning to'planishi bo'yicha amaliyot ehtiyoji o'zgarishi, zamonaviy talablarga javob beruvchi mutaxassisga zamonaviy ijtimoiy talabnoma shakllanishida tuzilmasi va shaxsiy parametrlarining egiluvchan o'zgarishini ta'minlaydi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan modelning mosligi deganda, o'rganilayotgan ob'ektning uning aks ettirishiga, ya'ni modeliga mosligi darajasi tushuniladi. Bunday ob'ekt sifatida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlayotgan mutaxassis ishtirok etadi. Bu talablarni amalga oshirishda ilmiy-amaliy vazifalarni hal qilishga majmuaviy yondashuv tamoyilini qo'llash zarur. Haqiqatda ham yaxlit ob'ekt tizimli va adekvat tasvirlanishi mumkin shu vaqtda, qachonki uning aniq namoyon bo'lishi, o'zaro bog'liqligi va aloqalarini aniqlash va o'rganishning imkoni topilsa; modelning egiluvchanligi va dinamikligi, u yoki bu ilmiy yo'nalishda istiqbolda yuz berish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu tadqiqotchilik kompetensiyasiga tayyorlash jarayonining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati sohasidagi o'zgarishlarga o'z vaqtida reaksiya berishida aks etishi kerak; modelning kengayuvchanligi, ya'ni uning ob'ekt va o'quv jarayoni haqidagi yangi axborot bilan to'ldirish, mavjud elementlarni modelni o'zgarish qismi faoliyatini buzmaganda holda moslash yoki o'zgartirish. Bu ishlab chiqilgan modelning "blokli" tuzilishga ega bo'lganligi uchun ham mumkin bo'ladi.

Xulosa. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda shuni takidlash mumkinki, biz yaratgan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish modeli yaxlit ochiq, dinamik tashkil etilgan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tadqiqotchilik kompetensiyasiga tayyorlash jarayonini maqsadga yo'naltirish, qo'yilgan maqsadning oxirgi natijaga mos bo'lishini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotchilik kompetensiyalarining shakllanganlik mezon va ko'rsatkichlarining mavjudligi, talabalar ularni shakllanishining qaysi

darajasida ekanliklarini aniqlash va tajriba-sinovning ta'kidlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarini tashkil etishga kirishishga imkonini beradi. Bu keys turini, uning tuzilmasi va mazmunini, shuningdek, talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda ularni qo'llash texnologiyasi aniqlangandan keyin mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20-апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сон Қарори.
3. Иванов Д.А. О ключевых компетенциях и компетентностном подходе в образовании // Школьные технологии, № 5. 2007. С. 51-62.
4. Кабалина В.И. Представляем исследование // Социологические исследования. 2007. - № 5. - С.29-30.
5. Канторович Н.Я. Технология лично-ориентированной подготовки будущего учителя начальной школы к самореализации в профессиональной деятельности: монография. Новокузнецк, 2005. 158 с.

Mualif.

Rahmatova Feruza Abulqosimovna – Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini mudiri, dotsent.

UDK 372.800.4

MODERN APPROACHES IN TEACHING ALGORITHMIC LANGUAGES AND PROGRAMMING

ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASHNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ АЛГОРИТМИЧЕСКИМ ЯЗЫКАМ И ПРОГРАММИРОВАНИЮ

Ahtamqulov Muhridin Ahtamqul o'g'li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali. 141600. Samarqand viloyati Urgut tumani Vag'ashti MFY 13-uy

E-mail: muhridinahtamqulov@gmail.com

Abstract: Nowadays, programming is considered the basis of modern technology. It allows using new approaches to teaching this subject in higher education institutions, making learning more interesting and effective. In this article, we will talk about how to develop programs and deepen knowledge using modern approaches and methodologies in teaching algorithmic languages and programming, virtual environments and interactive tools.

Keywords: Algorithm, programming, python, java, C++, methodology, modeling, innovative, virtual, visual, interactive, 3D, motivation.

Аннотация: Сегодня программирование является основой современных технологий. Это дает возможность использовать новые подходы к преподаванию данного предмета в высших учебных заведениях, сделать обучение более интересным и эффективным. В этой статье мы поговорим о современных подходах и методологиях обучения алгоритмическим языкам и программированию, о том, как углубить знания и разработку программ с помощью виртуальных сред и интерактивных инструментов.

Ключевые слова: Алгоритм, программирование, Python, Java, C++, методология, моделирование, инновационное, виртуальное, визуальное, интерактивное, 3D, мотивация.

Kirish. Algoritmik tillarda dasturlash, bugungi kunda texnologiya va informatika sohasidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Ushbu zamonaviy yondashuvlar, talabalar va dasturchilarga muammolarni hal qilish va algoritmlarni yaratuvchisi, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida algoritmik tillarda dasturlashning ahamiyati shundaki, u nafaqat dasturlash tillarini o'rganishga yordam beradi, balki talabalarni mantiqiy fikrlash va tizimli yondashuvga o'rgatadi. Bu jarayon, talabalarni murakkab muammolarni aniqlash va ularni samarali yechish yo'llarini topishga undaydi. Algoritmik tillar, masalan, Python, Java yoki C++ singari, dasturlashning asosiy tamoyillarini o'z ichiga olib, talabalarni kod yozishdan tortib, algoritm tuzish va ularni optimallashtirishgacha bo'lgan har bir bosqichda qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu bilimlar bilan qurollangan talabalar, nafaqat dasturlash sohasida muvaffaqiyatli bo'lishadi, balki muhandislik, iqtisodiyot va boshqa ko'plab sohalarda ham o'zlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, algoritmik tillarda dasturlash o'qitishning innovatsion yondashuvlari, talabalar uchun qiziqarli va samarali o'rganish muhitini yaratadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va professionallar sifatida o'sishlariga yordam beradi. Shu sababli, algoritmik tillarda dasturlashni o'qitish, oliy ta'lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi va kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Dasturlash sohasi bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Algoritmik tillar va dasturlash kursi ishlab chiqarish va tijorat sohaslarini rivojlantirishda kattadan katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda

algoritmik tillar va dasturlash fanini o'rganish hamda o'rgatish samaradorligini oshirish uchun bir qator innovatsion pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan o'quv kurslari, IT parklar, veb saytlar, mobil ilovalar shular jumlasidandir. Bu kurslarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'qituvchilar uchun tushunarli va samarali darsliklar yaratish imkonini beradi [1].

Algoritmik tillar va dasturlashning o'zgaruvchilari elektron yoki tizimning ishlashini boshqarish uchun muhim asosiy qurilmalar hisoblanadi. Bu o'zgaruvchilar dasturlash davomida ma'lumotlarni saqlash, ulardan foydalanish, matematik amallarni bajarish va boshqalar kabi vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Bir dastur yoki tizimda o'zgaruvchilarni to'plash va ulardan foydalanish yordamida, dasturchi istalgan turdagi muammoni yechish, ma'lumotlar bilan ishlash, talabalarni qimmatli ma'lumotlardan foydalanish, grafiklarni yaratish va ko'rsatish, matematik amallarni hisoblash va boshqalar kabi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular ma'lumotlarni saqlash uchun kerakli joyni ajratish, ma'lumotlarga unikal nom berish, ma'lumotlarni o'zgartirish, ma'lumotlarni yig'ish va taqsimlash, ma'lumotlarni filtrlash, ma'lumotlarni tartiblash kabi amallarni bajarish imkoniyatini beradi. Algoritmik tillar va dasturlashda o'zgaruvchilarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish va ulardan foydalanishning amaliy qismi juda muhimdir. Bu yerda dasturchi muhim ma'lumotlarni saqlab qolish va ulardan foydalanish orqali dasturining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlaydi[2].

Olingan natijalar va ularning tahlili

EHMLar o'zi hech qanday amallarni bajarmaydi, ular faqat biz bergan buyruqlarni yoki bizning harakatimizga qarab bajariladigan ko'rsatmalarni bajaradi. Agar bizga biror-bir vaziyatni kompyuterda yechilishi kerak bo'lsa, u holda biz shu vaziyatni yechilish modelini tuzamiz. Keyin bu modelni algoritm tiliga o'tkazamiz. Algoritm bu boshlang'ich ma'lumotlarni natijagacha qayta ishlash usulini aniq belgilaydigan buyruqlar va ko'rsatmalar ketma-ketligidan iborat [3].

Ma'lumki, kompyuter texnikasidan samarali foydalanish ikki qism texnik va dasturiy ta'minotning uzviylikini talab etadi. Bu uzviylik kompyuter texnik ta'minotining jadal sur'atlar bilan takomillashib borishiga mos dasturiy ta'minotni ham keskin sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab bo'ladi va aksincha. Buning sababi ma'lum, mos dasturiy ta'minotsiz har qanday kompyuter «qimmatbaho o'yinchoq» bo'lib qolaveradi. Dastur ma'lumki, kompyuterda biror masalani hal qilish uchun avval uning qandaydir nusxasi olinadi va algoritmi tuziladi, so'ng mazkur algoritm ma'lum bir qonun-qoidalar asosida kompyuter tushunadigan ko'rsatma va buyruqlar shaklida yoziladi. Hosil bo'lgan matn kompyuter tilida yozilgach, dastur deb ataladi. Demak, dastur —biror masalani yechish uchun kompyuter bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalarning izchil tartibi ekan. Kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dastur tuzadigan kishi dasturchi deyiladi. Dasturlash tili Kompyuter tushunadigan «til» esa dasturlash tili deb ataladi. [4].

Algoritmik tillar va dasturlashni o'qitish uchun yangi yondashuvlar va modellashtirish metodlari ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalari uchun bu metodologiyalar, nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini oshirish, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Birinchidan, loyiha asosidagi o'qitish metodologiyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv orqali talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish vazifalari beriladi, bu esa ularning algoritmik fikrlashini kuchaytiradi va dasturlash ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga imkon yaratadi. Talabalar guruhlariga bo'lingan holda, loyihalar ustida ishlash orqali bir-biridan o'rganishi va muammolarni birgalikda hal qilishi mumkin.

Ikkinchidan, modellashtirish metodlari dasturlash jarayonini aniq va tushunarli qilishda yordam beradi. Bu metodlar yordamida talabalarga dasturlarni qanday qilish kerakligi ko'rsatiladi. Masalan, turli algoritmlarni ko'rsatish uchun grafik modellar va diagrammalar ishlatilishi mumkin. Bu esa talabalarga nazariyani vizual tarzda anglash imkonini beradi va dasturlash konseptlarini osonroq idrok etishga yordam beradi.

Uchinchidan, interaktiv o'qitish usullari, masalan, onlayn platformalar yoki dasturiy ta'minotlar orqali sinovlardan o'tish, talabalarning o'z-o'zini baholash imkoniyatini oshiradi. Bunday tajribalar o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samimiy qiladi, talabalar esa o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishlari mumkin.

Umuman olganda, algoritmik tillarda dasturlashni o'qitishda yangi metodologiyalar va modellashtirish usullaridan foydalanish, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularning amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Buning natijasida, talabalarning dasturlashga bo'lgan qiziqishi oshadi va ular o'z bilimlarini kelajakda muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Virtual muhitlar, masalan, 3D simulyatsiyalar va virtual reallik (VR) muhitlari, talabalarni dasturlash jarayonida chuqurroq immersiyaga olib keladi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Interaktiv harakatlar esa o'quvchilarga o'z bilimlarini real vaqt rejimida sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan, talaba dastur kodini yozayotganda, u darhol natijalarni ko'rish va koddagi xatolarni tuzatishi mumkin.

Algoritmik tillarda dasturlashni o'qitish jarayoni talabalarni jalb qilish va motivatsiyani aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda talabalar faqat bilim olishni emas, balki o'zlarini qiziqtiradigan, amaliyotga asoslangan o'quv jarayonida ishtirok etishni ham xohlashadi. Shuning uchun, o'qituvchilar har bir talabaga shaxsiy yondashuvni amalga oshirishlari, ularning qiziqishlarini va ehtiyojlarini aniqlab olishlari zarur. Buning uchun interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, darslarni qiziqarli va faol qilish muhimdir. Algoritmik dasturlashni

o'rganish jarayonida talabalar uchun real dunyo masalalarini yechish imkoniyatini taqdim etish, ularni qiziqtiradi va motivatsiyalarini oshiradi. Masalan, o'quvchilarga dastlabki algoritm asoslarini o'rgatishda, ularga ularning qiziqishlari asosida loyihalar taklif qilish mumkin. Bu ularning yaratuvchanligini va muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, guruh bo'lib ishlash va jamoaviy loyihalar orqali talabalarni bir-biriga yordam berishga, fikr almashishga va o'zaro motivatsiyaning kuchayishiga undash mumkin.

Talabalarni jalb qilish va motivatsiyani aniqlash jarayonida, doimiy ravishda fikr-mulohazalar olish va ularni o'qitish jarayoniga tatbiq etish ham muhimdir. O'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlarini inobatga olish orqali, ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi. Bunday yondashuv talabalar o'z maqsadlarini aniqlashda, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni tahlil qilishda yordam beradi, shuningdek, ularni dasturlash sohasida yanada chuqurroq bilim olishga rag'batlantiradi.

David Easton siyosiy tizim nazariyasini rivojlantirib, jamiyatda siyosiy kompetensiyaning shakllanishi haqida tahlil yuritgan. U "A Framework for Political Analysis" asarida siyosiy tizim va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiradi. Uning fikricha, fuqarolarning siyosiy kompetensiyasi siyosiy tizimning ularni qanday qabul qilishiga va ularga qanday javob berishiga bog'liq. Fuqarolarning siyosiy tizimga nisbatan ishonchi va unda ishtirok etish darajasi ularning siyosiy savodxonligiga ta'sir ko'rsatadi.

Max Weber ijtimoiy hokimiyat va muvofiqlik tushunchalarini o'rganib, fuqarolarning hokimiyatga munosabati va unga nisbatan qanday kompetensiyaga ega bo'lishlarini tahlil qilgan. Weberning "Economy and Society" asarida, u hokimiyat turlarini ajratadi va shaxslarning siyosiy kompetensiyasi hokimiyatning qonuniy, an'anaviy yoki xarizmatik turiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu kompetensiya hokimiyatga bo'lgan munosabat, unga ishonch va unga moslashish orqali shakllanadi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-siyosiy kompetensiyaning shakllanishi ko'plab omillar bilan bog'liq. Bu nazariyalar shaxslarning siyosiy kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim, ijtimoiy muhit, aloqa va hokimiyat tizimlari qanday rol o'ynashini tushuntirib, ijtimoiy ongini shakllantirishda turli omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. So'nggi 10 yilda ijtimoiy-siyosiy kompetensiyani shakllantirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar shaxslarning siyosiy ongini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, ta'lim va jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bourdieu, Pierre. La Distinction: critique sociale du jugement. — P.: Minuit, 1979. — 670 p.
2. Jürgen Habermas. The Theory of Communicative Action. Beacon Press, 1984. — 512 p.
3. Albert Bandura "Social Learning Theory". New York city. Stanford University, 1971. — 46 p.
4. Foucault, M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison (New York: Vintage Books). 1995.
5. Anthony Giddens. "The Constitution of Society" Published by University of California Press, 1986.
6. Robert Putnam. "Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community". New York: Simon & Schuster, 2000.
7. Samatova I. Method of Using Vitagen Educational Technologies in the Development of Social Competences of Students
Method of Using Vitagen Educational Technologies in the Development of Social Competences of Students Pioneer:
Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551.

Muallif:

Samatova Iroda Azamjon qizi - T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy Instituti tayanch doktoranti.

Filologiya

UDK 372.881.11

THE PROBLEM OF THE NATIONAL CORPUS IN UZBEK LINGUISTICS

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KORPUS MASALASI

ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОГО КОРПУСА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Sharipov Fazliddin Galiyevich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: sharipov-fazliddin2024@gmail.com

Abstract. Corpus linguistics is also a very fast developing field of global computational linguistics. This article is distinguished by the fact that it focuses on problematic issues that await the solution of the transition of the Uzbek language to a new – practical stage.

Key words: corpus, computer linguistics, concordance, electronic library, practical stage.

Annotatsiya. Korpus lingvistikasi ham jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biridir. Ushbu maqola o‘zbek tilining yangi – amaliy bosqichga o‘tishi bilan bog‘liq yechimini kutib turgan muammoli masalalarga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: korpus, kompyuter lingvistikasi, konkordans, elektron kutubxona, amaliy bosqich.

Аннотация. Корпусная лингвистика также является очень быстро развивающейся областью глобальной компьютерной лингвистики. Данная статья отличается тем, что в ней акцентируется внимание на проблемных вопросах, ожидающих решения перехода узбекского языка на новый - практический этап.

Ключевые слова: корпус, компьютерная лингвистика, конкурданс, электронная библиотека, практический этап.

Kirish. Korpus lingvistikasi ham jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib borayotgan sohasi bo‘lib, bu borada sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi oliy ta‘lim muassasalarida korpus lingvistikasi fani sifatida o‘qitib kelinmoqda. Demak, bu sohaning predmeti korpus yaratish nazariyasi va amaliyoti bo‘lsa, fan sifatida korpusning o‘ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o‘qitilishi ko‘zda tutiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi[1]. Korpus lingvistikasining predmeti – til korpusi. U ingliz tilida “linguistic corpus” yoki “text corpus” kabi atamalar bilan qo‘llanib, ilmiy adabiyotlarda turlicha ta‘riflangan [2]. “Korpus – ma‘lum maqsadda yig‘ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig‘indisi”, “korpus- alohida tilning yozib olingan og‘zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma‘lumotlar majmui”, “korpus – istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi kabi.

Demak, til korpusi[3] ma‘lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy holda ijtimoiy variantdagi matnlarning elektron shakldagi maxsus dasturiy ta‘limot asosidagi yig‘indisidir.

Til korpusi bugungi kunda jahonda tez taraqqiy etayotgan soha – korpus lingvistikasi mutaxassislarini tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, til o‘rgatish maqsadida yaratilmoqda. Jahon tillarining juda ko‘pchiligi mukammal darajasi, matnning ilmiy, qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi milliy korpusiga ega. Zero, “bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo‘lmaz ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishga xizmat qiladi[4].

Darhaqiqat, til korpusi deganda oddiy elektron kutubxona, ya‘ni “Ziyonet kutubxonasi” yoki “Xurshid Davron kutubxonasi” emas, balki bunda elektron kutubxona matnlari tilshunoslik nuqtai nazaridan leksik, morfologik, grammatik, semantik belgilari asosida boyitilgan kutubxona nazarda tutiladi. Bundan tashqari, tilni tadqiq qilish, o‘rganish va o‘rgatish uchun zaruriy, foydali hamda qiziqarli matnlar to‘planishi nazarda tutiladi.

Yuqoridagi keltirib o‘tganimizdek, korpus foydalanuvchisi uchun turli imkoniyat va qulaylik yaratadigan, korpusdan zaruriy axborotni olishga yordamlashadigan bir necha maxsus dasturiy vosita – konkordans (qidiruv tizimining nisbatan oddiy ko‘rinishi) yoki korpus menejiri mavjud. Korpus menejiri maxsus qidiruv tizimi, u korpus ma‘lumotlarni olishga mo‘ljallangan bir necha dasturlardan iborat bo‘lib, statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etadi [5].

Qidiruv natijasi, odatda, konkordans – qidirilayotgan birlik leksik bog‘lanish holatida manbaga ilova qilingan kontekstlar ro‘yxati shaklida namoyon bo‘lib, korpus menejerining qidiruv imkoniyati aniq so‘zshakli, so‘zning lemma (korpusda leksema shunday aytiladi) shakli, birikmali bo‘lingan va bo‘linmagan sintagma, morfologik belgilarga

asoslangan jamlanma shaklini qamrab oladi. Talab qilingan hajmdagi kontekst ko'rsatgichlari qidiruv natijasi, saralangan materialni alohida faylda saqlash imkonini beradi [6].

Korpus yordamida bajariladigan amalni samaradorligini oshirish maqsadida korpus menejeriga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi [2]: 1. To'liq konkordans ro'yxatini tuzish. 2. Nafaqat alohida so'zni, balki murakkab birlik qidiruvini amalga oshirish. 3. Chiqarilgan ro'yxat (qidiruv natijasini) bir necha imkon asosida saralash. 4. Foydalanuvchiga qidirilgan so'z shaklini kengaytirilgan ko'rinishda taqdim etish. 5. Korpusning har bir elementi haqida sintaktik axborot berish. 6. Lemmalarni aks ettirish. 7. So'zshakllarning morfologik xususiyati va qo'shimcha axboroti (bibliografik, tipologik) berish (bu parametr korpusga berilgan qo'shimcha izohga bog'liq). 8. Natijalarni saqlash va nashr etish uchun alohida faylda ishlay olish. 9. Nafaqat korpus, balki alohida fayllar bilan ham yuqori tezlikda ishlay olish. 10. Matnning barcha turdagi formatini (txt, rtf, dc, html, xml) o'zida saqlay olish. 11. Tajribali va ya'ni foydalanuvchilar uchun birdek yengil va intuitiv tushunarli bo'lish.

Til korpusining yana bir muhim jihati – korpus annotatsiyasi. Bunga Sh.Xamroevaning monografiyasida shunday ta'rif berilgan “turli lingvistik topshiriqlar amalni bajarish uchun matnga lingvistik va ekstra-lingvistik qo'shimcha ma'lumot bilan ishlab berilgan bo'lishi lozim. Buning uchun matn annotatsiyasi mavjud matn, uning komponentlariga maxsus izoh (masalan, so'z turkumi haqida ma'lumot) berilishi lozim. Bu izoh matn tegi (belgi ishora) yoki annotatsiya deb ataladi [5].

Bunda shunday xulosa chiqadiki, annotatsiya mukammal, to'liq bo'lishi korpus ahamiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Sh.Xamraevaning yuqorida keltirilgan monografiyasida yana bir xususiyat reprezentativlik to'g'risida so'z boradi. Bu atama ostida zaruriy hajm, miqdor, janr, uslub, mualliflarga tegishli matnlar proporsiyasining to'g'ri tanlanishi tushunilishini ta'kidlagan. Bu xususiyat korpus tuzish jarayonida ham, undan foydalanish jarayonida ham saqlab turish korpusining ahamiyatini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Demak, korpus turli mavzudagi gazeta, jurnal materiallari, fanning barcha sohasiga tegishli ilmiy, ilmiy-ommaviy asarlari, reklama, shaxsiy yozishma matnlari hamda badiiy asarlaridan tarkib topgan bo'lishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, korpus kompyuter asrigacha ham shakllanib ulgurgan edi. Lekin keyingi davrda tadqiqning korpus metodidan foydalanishiga qiziqishining kuchayishini matnlarning katta massasini qayta ishlashga to'g'ri kelganligi bois, kompyuter texnologiyalarni kirib kelishiga ehtiyoj tutildi. Aksariyat olimlar tilni tadqiq etishda introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish) tabiiy faktga tayanish usuli doim ham aynan bir xil natija beravermaydi degan fikrni yoqlashadi. Mashhur korpus lingvistikasi mutaxassisi Toni Mak Enneri, Endryu Uilson ham empirik fakt, introspektidan ham tabiiy, sun'iy faktdan foydalanish lozimligi uqtiradi [7]. Demak, korpus lingvistikasi korpus shaklida bo'lmagan nutqiy ma'lumotning muhimligi, ahamiyatini ham rad etmaydi. Korpusni tuzish, o'rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan oldin XVII asrlarda boshlangan bo'lib, bunga Bibliyaga oid tadqiqotlar, lug'atlar, tillarni o'qitish va Kvirk korpusini misol sifatida keltirish mumkin[5]. Faqatgina kompyuter asrigacha bo'lgan davrida noelektron shaklda yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Bunga misol sifatida Panini tomonidan tuzilgan grammatika, “Injil” matnlarining tadqiq etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar[8].

Keyingi asrda ham noelektron shaklda yaratilgan korpuslarga ehtiyoj borligi sezilib turdi. Chunki yangi ko'rinishdagi korpuslarni yuzaga kelishi uchun noelektron korpuslar asos bo'ldi, bundan tashqari KORPUSni shakllantirish bazasi sifatida muhim manba vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, tilning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab ishlarni, ya'ni hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug'at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish hamda boshqa jihatlarni kompyuter orqali bajarish o'zbek zamonaviy morfologiyasining yangi amaliy bosqichini boshlab beradi. Til korpusini yaratish bugungi kunda har kuni nazoratda turadigan vazifa bo'lishi zarur. Chunki tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy holda ijtimoiy variantdagi matnlarni va boshqa til sathlari bilan bog'liq muammolarni yechish uchun eng qulay hamda zamon talabiga mos dastur sifatida amaliyotga tatbiq etilishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. –С.48.
2. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – Москва, 2008. –С. 26.
3. Национальный корпус русского языка // Вопросы языкознания. –Москва: Наука, 2006. –С. 149-155.
4. Недашивина.Э.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2006. -С.26.
5. Хамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таълимоти –Тошкент: ClobeEdit, 2020.
6. www.ruscovpova.ru // Плунгян В. Зачем мы делаем корпусы?
7. Курс “Корпусная лингвистика (А.Б.Кутузов). Лицензия Creative commons Attribution share-Alike 3.0 Unported (электрон ресурс) –// lov 314. brsu. By/Kmp/kmp-video/CL/Corporetinra.pdf.
8. Шарипов Ф.Г. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққёт тенденциялари ва истикболлари. Филол. фан. док. дисс... – Гулистон, 2022. - 265 б.

Muallif:

Sharipov Fazliddin Galiyevich - Guliston davlat universiteti, Filologiya fanlari doktori, professor.

UDK: 372.881.11

HYPOTHESES ABOUT THE TRANSITION OF LEXEMES TO MORPHEMES IN THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARNING MORFEMAGA O‘TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR

ГИПОТЕЗЫ О ПЕРЕХОДЕ ЛЕКСЕМ В МОРФЕМЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Mamatkulov Azizbek Rustamovich

Gulistan State University, 120100. District 4, Gulistan city, Syrdarya region

E-mail: mamatkulovazizbek006@gmail.com

Abstract. In the historical development of the Uzbek language, the semantic meaning of lexemes changes in different periods and turns into morma in terms of form and function. The article talks about lexemes that have completely lost their meaning and turned into morphemes, as well as affixoids that are used in the meaning of both lexemes and morphemes. At the same time, the etymology of lexemes and their meaning today and the reasons for their morphemization are also given.

Key words: lexeme, morpheme, affixoid, internal inflection.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida leksemalarning semantik ma’nosining turli davrlarda o‘zgarib shaklan va vazifa jihatidan mormaga aylanishi borasida fikr yuritiladi. Maqolada tamoman o‘z ma’nosini yo‘qotib to‘la morfemaga ayalangan leksemalar, shuningdek, ham leksema ham morfema ma’nosida ishlatilib kelinayotgan affiksoidlar haqida so‘z boradi. Shu bilan birga leksemalarning etimologiyasi va bugungi anglatgan ma’nosi va uning morfemalashuv sabablari ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: leksema, morfema, affiksoid, ichki fleksiya.

Kirish. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida so‘z yasovchi, shakl yasavchi qo‘shimchalarning shakllanishi va ularning asos tarkibida eskirishi, yaxlit holga kelishi tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. O‘zbek tili tillarning morfologik tasnifiga ko‘ra agglutinativ tillar guruhiga kirganligi bois asos va qo‘shimcha orasidagi chegara yo‘qolishi mumkin. Ya’ni grammatik ma’nolar ichki fleksiya yo‘li bilan emas, balki qo‘shimchalarning asosga qo‘shilishi bilan yuzaga keladi. Bu holat o‘zbek tilida leksemalarning lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib grammatik aloqani ta’minlovchi birlik shakliga o‘tishini ta’minlaydi. O‘zbek tilida leksemalarning morfemaga aylanishida biz o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarning ma’nosining torayishi, qadimgi va eski turkiy tildagi mustaqil qo‘llanuvchi leksemalarning morfemaga aylanishi, shuningdek, so‘z morfema(yordamchi so‘zlar)ning morfema vazifasini ham o‘tay olishini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Ushbu maqolada o‘zbek tili morfologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar, xususan, Sh.Rahmatullayev, G‘.Abdurahmonov hamda A. Hojiyev kabi olimlarning morfemika oid ilmiy qarashlari aks ettirilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O‘zbek tilshunosligi sathlaridagi yana bir jihatga alohida e’tibor berish lozimki, chunonchi, hozirgi kunda ham leksema vazifasida, ham morfema vazifasida keluvchi birliklarga affiksoid termini ishlatiladi [8].

O‘zbek tilidagi otlarda shaxs nomlarida erkalash, kichraytirish subyektiv ma’no ifodalovchi birliklarni kundalik turmushimizda ko‘p uchratamiz: *Barno, Gavhar, Halim, Shirin, Dildora, Murod, Ozod* kabi ismlar keng qo‘llanadi. Tilimiz bunday ismlarni erkalash va hurmat qilish qo‘shimchalari bilan boyitib boradi. Chunonchi *Turdixon, Barchinoy, Hayitboy, Shuringul, Ozodbek, Dildoraxon, Obidjon, Murodbek* kabi ismlarda affiksoidlar faol ishtirok etadi.

Shaxs nomlariga qo‘shiladigan bunday morfologik shakllar (lug‘aviy shakl yasovchilar – suffiksoidlar): *-jon, -xon, -oy, -boy, -bek* (prefiksoid bo‘lib ham kela oladi: *Jontemir, Xonzoda, Boyqo‘zi, Oyrusor, Bekali*) o‘zbek tilida erkalash ma’nosida kelib, o‘zi bog‘langan ismlarni erkalab chaqirishga, hurmat yuzasidan qarashga xizmat qiladi. Bunday morfemalarni qo‘shimcha morfema (affiksoid) sifatida ham talqin qilish mumkin. Bundan tashqari ayrim ismlar tarkibida qotib qolish hollari ham uchrashi mumkinligini Sh.Rahmatullayev qayd etgan: “Ot turkumi leksemasiga “iliq munosabat” ifodalovchi *-jon, -boy (-voy), -xon, -oy* affiksoidlari qo‘shiladi: *Olimjon, Ravshanboy, Komilaxon, Tursunoy* kabi. Bu affiksoidlar ayrim kishi atoqli otlarida ularning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi: *Oyxon, O‘g‘iloy* kabi [6]. Shuni ta’kidlash lozimki, kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarining shakllanish va rivojlanish tarixiga diqqat qaratish zarur deb o‘ylaymiz. Avvalo, o‘zbek tilidagi kichraytirish-erkalash subyektiv shakllarning boshqa tillardan o‘zlashgani va sof turkiy bo‘lgan affiksoidlarga ajratishimiz mumkin. Chunki o‘zbek tilshunosligi tarixida ham kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari qo‘llanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, qadimgi turkiy tilda ham shaxs nomlariga qo‘shiluvchi qo‘shimchalar bo‘lgan: *ata-qi=otajon* [1].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, bir necha misollar bilan buni ilmiy tahlil qilish mumkin. Masalan, *xon* so‘zi qadimgi turkiy tilda unvon ma’nosida, ya’ni hukumdorga beriladigan rutbalardan biri bo‘lgan. Buni biz qadimgi

turkiy til yodnomalari bo'lmish Urxun-Enasoy yodgorliklaridan bilishimiz mumkin. Ushbu so'z qadimgi turkiy til bitiklarida *qan* shaklida ifolangan: *Qanin qodup ichikti* (Tonyuquq). Hozirgi kunda bu qo'shimcha fors tilida o'qimoq fe'lini anglatuvchi *xondan* shaklidan tilimizga so'z yasovchi qo'shimcha sifatida o'tgan *-xon* qo'shimchasiga shakldosh hisoblanadi: *gazetxon, kitobxon*. *Xon* mustaqil leksema sifatida paydo bo'lib, vaqtlar o'tishi bilan qo'shimchalar tomonga qarab siljiganligiga guvoh bo'lamiz. Leksemaning bu holatga kelishi so'z sifatida to'g'ri baholangan. Biroq affiksoid sifatida o'z ma'nosini saqlamaganligi ilmiy va badiiy adabiyotlarda uchraydi.

Umuman olganda, so'zning dastlabki taraqqiyotida o'z o'rnida, ya'ni leksema ma'nosida *Tug'luq, Nasriddin, Toychi, Sherg'oz* singari ismlarda podshoh mazmunini berish uchun qo'shilib, *Nasriddin xon, Toychi xon, Tug'luq xon, Sherg'oz xon* tarzida idodalanishi firklarini dalili bo'lishi mumkin. Taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib esa ismlarga *-xon* sifatida qo'shilish an'ana tusiga kirgan. Bu kabi holatlar ko'paygani sari leksema o'z ma'nosini yo'qotib, qo'shimchaga tomon siljigan va affiksoid holiga kelgan. *Xon* so'zining qo'shimcha sifatida ham kela olishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqargan va taraqqiyotning mahsuli sifatida affiksoid maqomini olgan. Dastlab unvonni ifodalagan ushbu affiksoid, keyinchalik naslni ifodalashga erishgan, davrlar o'tishi bilan ko'plab ismlarga qo'shilib, erkalash shakliga aylangan. 1966-yilda nashr qilingan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" ilmiy asarida *-xon* qo'shimchasini aslida tojik tilidan o'zlashgan fe'l o'zagi sifatida berib, bugungi kunda mahsuldor so'z yasovchi qo'shimcha ekanligini ta'kidlab o'tgan [5]. Natijada mustaqil so'z affiksoid tusini olgan. Bugungi kunda bunday affiksoidlarni erkalash shakli sifatida morfologik shakllar nuqtayi nazardan o'rganamiz. Shuni unutmaslik lozimki, leksemalarning taraqqiyoti, umuman, bir tildagi lug'atining o'zgarishi tarixiy taraqqiyot va etnik shakllanish jarayoni bilan birgalikda o'zgarib boradi. Bunda leksemalarning ma'nosi eskirib, iste'moldan qoladi, lekin ma'lum bir semasi qolib qo'shimchaga ham aylanishi mumkin.

Yuqoridagi misollarga monand ravishda *bek* leksemasini ilmiy tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. *Bek* so'zining kelib chiqishi va shakllanishi, lavozimi yoki vazifasi jihatiga ko'ra – lavozim; qaramog'idagi ma'muriy hududiga ko'ra – (XX asr boshlarida Buxoro amirligining 27 ta beklilikdan iborat bo'lganligi) hokimlik; beklarga xos xatti-harakat, yurish-turishi – iltifot kabi ma'nolarni ifodalab, mohiyatan mustaqil so'zdir. Bu so'z turli fonetik o'zgarishlar bilan turkiy tillarda hozirga kungacha yetib kelgan. Ushbu so'z unvon ma'nosida turkiy tillarda *biy, bey* shakllarida uchraydi. Ya'ni qipchoq guruhiga kiruvchi turkiy tillarda *biy* shakli haligacha hukmdorlik ma'nosini beradi. O'g'uz guruhiga kiruvchi turkiy tillarda, xususan, turk, gagauz, tillarida *bey* shaklida hurmat ma'nosini beruvchi qo'shimchaga aylangan. O'zbek tilida leksemadan erkalash shakli o'tishi, dastlab beklilikni ifodalash maqsadida ismlarga qo'shilgan bo'lsa, keyinchalik unvonini ifodalash urf bo'lgan. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichida affiksoid sifatida ismlarda o'rinishadi. Natijada erkalash, hurmatlash mazmunidagi *-bek* affiksoidi paydo bo'ladi. Affiksoid bo'lib shakllangandan so'ng ham dastlab hurmatlash, keyin erkalash mazmunini ifodalagan: *Oybek, Nurbek, Durbek* kabi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini asoslash maqsadida *oy* leksemasini ham tahlil qilishini lozim deb topdik. *Oy* so'zi qadimgi turkiy xalqlarda *kozmogonik miflar* qatoridan joy olgan obrazlardan biri hisoblanadi [2] Bu mifologik so'z qadimgi turkiylarda alohida mif bo'lishidan tashqari kishi ismlariga ham qo'shilganligi haqida ham manbalarda uchraydi [2] Bu leksemaning qadimgi turkiy xalqlarda "go'zallik", "tengsizlik" semalari shaxs nomlariga ko'chgan. Odatda qizbolalarning ismlariga shaxsiy munosabat shakllarini ifodalovchi qo'shimcha sifatida qo'shilgan. Hozirgi o'zbek tilida ham *Sanamoy, Barchinoy, Kumushoy* kabi ismlarda buni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, kishi ismlari sifatida ham keladi: *Oybek, Oyxon, Oygul, Oysanam* kabi. Hozirgi kunda *oy* leksemasi alohida leksema sifatida ham shaxsiy munosabat shakllarini ifodalovchi qo'shimcha sifatida ham ishlatiladi. Uning erkalash shakli tarzida ifodalanib kelishi tarixiy qadriyatlar, e'tiqodiy tushunchalar bilan bog'liq [2].

Tilshunoslikning boshqa sathlari kabi affiksoidlarning soddalashuvi ham mavjud bo'lib, bunday soddalashish jarayonida qaysidir affiksoid asos, qaysi biridir so'zshaklning qismi bo'lib keladi. Affiksoidlar birlashishidan yangi ismlar paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Ularning yonma-yon kelishi va ma'no ifodalay olishini ham kuzatiladi: *-jon + -mirza – Jonmirza, -oy + -pohsha + -xon – Oypohshaxon, -oy + -bek + -jon – Oybekjon, -bek + -jon – Bekjon, -xon + -zoda + -oy – Xonzodaoy, -jon(i) + -bek + -xon – Jonibekxon, -bek + -bo'ta – Bekbo'ta* kabi.

O'zbek tilida so'z yasovchi morfemalarning shakllanishida ham leksemalarning o'rni mavjud. Azim Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi" kitobida so'z yasovchi qo'shimchalarning shakllanishi taraqqiyoti, ma'nosi haqida batafsil yoritilgan. So'z yasovchi morfemaga vazifasini ham bajaruvchi leksemalar tilimizda asosan fors-tojik tilidan o'zlashganligini ta'kidlab o'tgan. Turkiy tillarda leksemalarning esa so'z yasovchi morfema vazifasida kelishi noodatiy hol hisoblanadi. Shuning uchun o'zbek tilidagi ham so'z yasovchi ham leksema holida keluvchi birliklarning aksariyati olinma so'zlardir.

Darhaqiqat, bu kabi holatlarni -xona qo'shimchasi orqali ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, bu affiksoid asli lug'aviy ma'noli *xona* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *xona* atrofi, usti berk joy sifatida ilmiy va badiiy adabiyotlarda o'rin olgan. Xuddi shu belgi-xususiyat ta'sirida *-xona* qo'shimchasi biror narsaga mo'ljallangan har qanday joyni emas, balki asosdan anglashilgan narsa amalga oshiriladigan *xona* (uy, bo'lma) ni bildiruvchi otlar yasaydi. Masalan, *oshxona*. Biroq til qonuniyatlarini hamisha ham bir xil tarzda ishlatib bo'lmaydi, jumladan, sayilgoh so'zi ham joy bildiradi. Lekin uning o'rnida sayilxona so'zini ishlatib bo'lmasligini ilmiy manbalarda tasdiqlab turibdi[3.91]. Ushbu so'z aslan tojikcha *xona*

soʻzidan olingan boʻlib, “binoning devor bilan ajratilgan har bir qismi” maʼnosini beradi [7.242]. Oʻzbek tilida xona soʻzi leksema sifatida faol ishlatiladi va hozirgi kunda *xona* soʻzi morfema tomon siljishiganini koʻrishimiz mumkin, chunki ushbu soʻz yasovchi soʻzlarda yangi maʼno anglatuvchi morfema sifatida tizimlashmoqda: masalan, *namozxona*, *choyxona*, *darsxona*, *sartaroshxona* kabi.

Yuqoridagi kabi ilmiy tahlillar zaruriyatini *-poya* qoʻshimchasi orqali ham asoslash mumkin. Bu qoʻshimcha asli tojikcha “*oyoq*” maʼnosini anglatadigan poy otiga *-a* qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, tojik tilida “kursi”, “stul” kabi pretmetlar oyogʻi; oʻsimlik tanasi maʼnolarini anglatib keladi. Oʻzbek tiliga aynan ikkinchi maʼnosi bilan oʻzlashgan [7]. Hozirgi oʻzbek tilida poya leksemasi soʻzlashuv uslubida keng qoʻllanilishi bilan ajralib turadi. Uning soʻzlarga qoʻshilganda affiks maʼno kasb etishi uning va yasama soʻz hosil qilishi affiksoid ekanligini bildiradi.

Ot soʻz turkumida morfema holiga kelgan leksemalar qatoriga *-noma* qoʻshimchasini ham kiritish mumkin. Bu qoʻshimchasi yordamida bir xil soʻz yasali maʼnosiga ega boʻlgan (ot yasali shuning bir tipini tashkil etuvchi) soʻzlar hosil qilinadi, yaʼni bu soʻzlar “soʻz yasali asosi anglatgan mazmun bitilgan (shunday mazmunli) narsa” maʼnosini bildiradi: taklifnoma – taklif yozilgan narsa, ruxsatnoma – ruxsat berilgan yozuvli narsa (qogʻoz), yoʻriq-noma – yoʻl-yoʻriq yozilgan narsa (qogʻoz, kitobcha), murojaatnoma – murojaat bitilgan narsa [3]. Bu qoʻshimcha oʻzbek tili tarixining eski oʻzbek adabiy tilida “*maktub*” maʼnosida ham qoʻllangan. Masalan, *noma* janri adabiyotimizda alohida oʻringa ega. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida noma soʻzi arxaiklashgan boʻlib odatda uni biz mumtoz adabiy asarlarimizda uchratishimiz mumkin. Azim Hojiyev “noma” soʻzining morfemaga oʻtishi haqida oʻzining “Oʻzbek tili soʻz yasali” kitobida aniq va ixcham taʼrif beradi: “Bu soʻz yasovchi “yozilgan narsa”, “xat”, “hujjat” kabi maʼnoli noma soʻzidan kelib chiqqan. Shu maʼnosi bilan “noma” soʻzi qoʻshma soʻzlar yasash uchun ham qoʻllangan: sayohatnoma, Boburnoma, oʻgʻuznoma va boshqalar. Bunday soʻzlar tarkibida noma affiksoid maqomida boʻladi. Keyinchalik “noma” soʻzi isteʼmoldan chiqib boshlaydi. Hozirda uni mustaqil soʻz sifatida deyarli isteʼmoldan chiqqan deyish mumkin [3].”

Akademik Azim Hojiyevning “Oʻzbek tili morfologiyasi, morfemikasi va soʻz yasali shuning nazariy masalalari” kitobida “soʻz morfemalar” haqida gap ketadi. Olim oʻzbek tilida shu vaqtga qadar qoʻshimchasi morfemalarga zidlangan holatda ilmiy adabiyotlarda uchrovchi “soʻz morfema”larga taʼrif beradi. Olim “soʻz morfemalarga yordamchi soʻz turkumlarini kiritadi. Shuningdek, tilshunos sof koʻmakchilar haqida fikr yuritib, ular aslida leksema boʻlgani bugungi kunda esa lugʻaviy maʼnosini yoʻqotgan shakl jihatdan qoʻshimchasiga zid, ammo grammatik maʼnoni taʼminlovchi morfema vazifasida kela oluvchi *bilan*, *uchun*, *qadar* kabi koʻmakchilarning qoʻshimchasilar bilan gapda almashib kelishib kelishini taʼkidlaydi [4].

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, oʻzbek tilining shakllanish bosqichida leksemalarning morfemalashuvi tarixiy taraqqiyot natijasida bosqichma-bosqich amalga oshgan. Bu kabi oʻzgarishlar oʻzga tildan kirib kelgan soʻzlarning ayrim maʼnosi bilan qatnashishi nazarda tutilgan boʻlsa, biroq ayrim leksemalarning lugʻaviy maʼnoni yoʻqotishi hamda tarixiy soʻzga aylanishi birlamchi vazifani bajarganligiga qaratilgan. Bu kabi ilmiy xulosalar asosan umumisteʼmoldan chiqishi hisobiga boyib borganligiga guvoh boʻlamiz. Yaʼni hozirgi kundagi affiksoidlarning shakllanishi jarayoni ilmiy sathda yuzaga keladi hamda buni yuqoridagi fikrlarimiz asosida tasdiqlashimiz mumkin deb oʻylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А.Қадимги туркий тил.–Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.29.
2. Bahaddin Ögel. Türk mitolojisi (I). –Ankara: Türk tarih kurum basimevi, 1993. –S.153
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –Б.91.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 45.
5. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан, 1966. –Б.192
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. –B.145
7. Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати (III).–Тошкент: Университет, 2009. –Б.242
8. Тожиёв Ё.Ўзбек тили морфемикаси.–Тошкент: Фан, 1992. –Б. 38.

УОК: 811.512.133'32

THE ROLE OF NLP COREFERENCE RESOLUTION

NLPDA KOREFERENSIYANI HAL ETISH VAZIFASINING OʻRNI

РОЛЬ РЕШЕНИЯ КОРЕФЕРЕНЦИИ В НЛП

Abdisalomova Shahlo Abdimurod qizi

ToshDOʻTAU, 100100. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib koʻchasi, 103-uy

E-mail: abdisalomovashahlo@gmail.com

Abstract. Today, information technology has permeated all fields. While machines cannot fully replicate human potential, they offer limited capabilities. A computer's ability to "think" like a human simplifies our way of life and facilitates completing tasks in a shorter period. Even the development and survival of languages have become increasingly

dependent on machines. Therefore, transforming our language into one that machines can recognize has become a pressing task. Natural Language Processing (NLP) represents the interaction between humans and machines. The field of NLP is one of the most challenging areas of artificial intelligence, as human languages are full of exceptions and ambiguities that are difficult for computers to comprehend. A straightforward way to simplify these complexities is to eliminate ambiguous expressions requiring context for accurate understanding. The necessity of automatic coreference resolution lies in its ability to ensure the coherence of text. This helps NLP systems understand referential relationships within a text without confusion. Identifying where a new discourse entity is introduced and where it is referred to again improves efficiency in areas such as machine translation, question answering, text summarization, sentiment analysis, text classification, speech recognition, and named entity recognition. This article explores the phenomenon of coreference and its types, the challenges associated with it in the field of NLP, methods and stages for resolving coreference, and the practical significance of coreference resolution for NLP applications.

Keywords: NLP, coreference, antecedent, context, approach, automatic, analysis, corpus

Аннотация. Сегодня информационные технологии успели охватить все сферы. Хотя машина не может обладать полным человеческим потенциалом, она предоставляет ограниченные возможности. Способность компьютера мыслить подобно человеку служит облегчению нашего образа жизни, позволяя осуществлять деятельность в короткие сроки. Даже развитие и выживание языков становится зависимым от машин. Поэтому превращение нашего языка в машинно-распознаваемый является актуальной задачей. Обработка естественного языка (НЛП) означает взаимодействие между людьми и машинами. Область НЛП – один из самых сложных разделов искусственного интеллекта, поскольку наш язык полон исключений и неоднозначностей, которые сложно усвоить компьютерам. Простой способ упростить их - избавиться от нечетких выражений, требующих контекста для четкого понимания. Необходимость автоматического решения кореференции заключается в том, что она обеспечивает когерентность текста. Это помогает системам НЛП понимать референциальные связи между частями текста без путаницы. Определение места использования нового речевого объекта в тексте и места повторного обращения к нему способствует повышению эффективности в области машинного перевода, ответов на вопросы, обобщения текста, анализа эмоций, классификации текста, распознавания речи, определения именованных сущностей. В этой статье исследуются явление кореференции и его виды, проблемы, связанные с ней в области обработки естественного языка, методы и этапы решения кореференции, практическое значение задачи решения кореференции для приложений НЛП.

Ключевые слова: НЛП, кореференция, антецедент, контекст, подход, автоматический, анализ, корпус

Kirish. XX asrda jadal rivojlangan tilshunoslik tilning turli sathlarida izlanishlar olib borish bilan bir qatorda boshqa sohalar rivojiga hissa qo'shadigan fanlardan biriga aylandi. Tilshunoslik tomonidan yaratilgan yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri referensial munosabatlarni tushunish va tahlil qilishdir. Tilshunoslikning tadqiqot markazida bo'lgan koreferentlik muammosini so'nggi yillarda kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt mutaxassislari ham keng ko'lamda o'rganmoqda. Chunki insonlar bir-birlariga doimo bir xil shaklda murojaat qilishmaydi, ya'ni jumlar o'rtasida kogerentlikni ta'minlash, so'z takroridan qochish, ixcham yoki ta'sirli nutq yaratish maqsadida sinonimlar, frazeologizmlar, tasviriy ifodalar, omonimlar kabi tilning ma'no nozikliklaridan ham unumli foydalanadilar. Mashinaga nutqiy birliklar o'rtasidagi bunday referensial munosabatlar mohiyatini singdirish informatsion texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash) uchun dolzarblik kasb etadi. Karttunen ta'kidlaganidek: *"Matn haqidagi savollarga javob berishi uchun qurilmaning tabiiy tildagi matni o'qish, mazmunini sharhlash va uni xotirada saqlash imkoniyati mavjud deb hisoblaylik. Ushbu vazifani bajarish mashinadan quyidagi asosiy xususiyatni talab etadi: u matnda tilga olingan shaxs, narsa-predmet va voqea-hodisaning har biri haqida keltirilgan barcha ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan ta'minotni yaratishga qodir bo'lishi kerak"*[1]. Shunday ekan, nutqdagi har qanday jumlaning mazmunini anglash uchun kontekstda kim yoki qaysi predmet haqida fikr yuritilayotganini aniqlash lozim. Bu jarayon NLPning koreferensiyani hal etish (Coreference Resolution) vazifasi hisoblanadi. Koreferensiyani hal etish vazifasi kontekstdagi bitta obyekt yoki shaxsni ifoda etuvchi barcha birliklarni aniqlab, ularni birlashtiradi va mashinalarga satrlar orasida yashiringan ma'noni tushunishga, izchil talqin qilishga imkon yaratadi. Quyidagi matn fragmentida nutqiy birliklar o'rtasidagi referensial aloqa va koreferentlik hodisasiga guvoh bo'lish mumkin:

Q'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida uning barqarorligini ta'minlash, tez-tez o'zgartirishlar kiritilishiga monelik qilish bo'yicha **himoya choralari** nazarda tutilgan. **Ular Asosiy Qonunning VI bo'limida** bayon etilgan bo'lib, **unda** o'zgartirishlar kiritish tartibi va shartlari keltirilgan. Bu yerda so'zlarning ostigadagi barcha chiziqlar referensial aloqalarni, uzuq-uzuq, to'lqinli va nuqta-nuqta chiziqlar esa koreferentlikni ifodalagan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida NLPning koreferensiyani hal etish vazifasi, koreferentlikni avtomatik aniqlash bilan bog'liq muammolar, shuningdek, o'zbek tili matn fragmentlari tekshiriladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil usuli va analitik metoddan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Koreferensiya turlari. Koreferensiyaning NLP bartaraf etishi zarur bo'lgan turli xil ko'rinishlari mavjud: 1. *Pronominal koreferensiya* [2]: olmoshga mos keladigan antisidentni (old referentni) aniqlash. Ushbu jarayonda olmosh o'zi ishora qilgan ot so'z turkumi bilan klasterlanadi: u – Shahlo; bu asar – “Farhod va Shirin” kabi. 2. *Otli birikmalar koreferensiyasi*: ayni shaxs, narsa-predmet yoki o'rin-joyga tegishli barcha otli birikmalar (qisqartma so'zlar, taxallus, laqab, atoqli ot va b.) ni aniqlash. Masalan: “Amir Temur” va “buyuk sarkarda” birliklari bir shaxsni nazarda tutadi. 3. *Anaforik koreferensiya*: Ushbu turda havola bo'laklar antisidentdan keyin joylashadi. Namuna: Qizil kitob! U qanday kitob?! 4. *Kataforik koreferensiya*: ma'nosi keyingi qism orqali anglashiladigan hodisa. Jumladan: Mehribon o'g'limdan o'rgilay! Asqarjonim o'zimning! 5. *Assotsiativ koreferensiya*: Bu tur matn qismlari o'rtasidagi yashirin munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bir eslatma boshqasining mavjudligiga ishora qiladi: Hali universitetdaman. Imtihon endi boshlanadi. “Imtihon” “universitet” bilan bevosita bog'liq.

NLPda koreferensiyaning avtomatik aniqlashning ahamiyati. Koreferensiya hodisasi qayta ta'kidlangan referent nomlarining o'zgarishini ifodalovchi dinamik jarayon [3] bo'lib, matndan avtomatik ravishda ma'no chiqarishda katta rol o'ynaydi. Koreferentlikni avtomatik aniqlash NLP tizimlariga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: *Sun'iy ongning matni tushunish salohiyatini oshirish*. Koreferensiyaning aniqlash yordamida mashinalar referentlarni har tomonlama o'rgana oladi, bu esa murakkab parchalarni tahlil qilishni soddalashtiradi; *Axborot qidirishni takomillashtirish*. Axborot qidirish tizimlarida koreferensiyaning hal etish hujjatlardan tegishli ma'lumotlarni ajratib olishga va qidiruv natijalarini yaxshilashga yordam beradi. *Umumlashtirish sifatini yaxshilash*. Koreferentlikning aniqligi NLP tizimlariga matnlarni ma'noli tarzda qisqartirish va hujjatning turli qismlaridagi ma'lumotlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. *Mashina tarjimasi*: Mashina tarjimasida tarjimaning asliga to'g'ri va izchil bo'lishini ta'minlash, ya'ni matndagi qaysi birliklar o'zaro mos kelishini bilish, tarjimada asl ma'noni saqlab qolish uchun koreferensiyaning avtomatik aniqlashga ehtiyoj seziladi. *Mijozlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari*: Koreferentlikning bartaraf etilishi chatbotlar va virtual yordamchilarning suhbatni tabiiy ravishda kuzatishi, shuningdek, ayrim so'zlarning ma'nosini o'rganib, yodda saqlashiga sabab bo'ladi. Natijada ularning foydalanuvchi so'rovlariga yanada tabiiy va izchil javoblar berishga erishish mumkin.

Koreferensiyaning hal qilish bilan bog'liq muammolar. Koreferensiyaning hal qilishning asosiy maqsadi matnning izchillikda anglashga xizmat qiluvchi so'z va birikmalar o'rtasida aloqa o'rnatishdir. Tilning o'ziga xos murakkabligi, muloqot qilishning xilma-xil usullari mavjudligi tufayli koreferensiyaning bartaraf etishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi: 1. **Noaniqlik**: Tilning noaniqlik xususiyati tufayli antisidentni to'g'ri topish qiyin jarayonga aylanadi. Masalan, *u* olmoshi bir o'rinda kishilik, boshqa o'rinda ko'rsatish olmoshini ifodalashi mumkin. Bu matnning avtomatik izohlashda noaniqlikka olib keladi. 2. **Ichki koreferentliklar**: Matn ko'pincha ichki koreferentliklardan iborat. Ya'ni murakkab qo'shma gaplar, murakkablashgan sodda gaplar, bir nechta olmoshlardan iborat matndagi o'zaro ichki munosabatlarni boshqarish ilg'or texnikani talab qiladi. 3. **Kontekst bilan bog'liq ma'noviy o'zgarishlar**: Nutq jarayonida so'z va birikmalar kontekstual ma'nosini tushunish muhimdir, chunki ular denotativ ma'nodan tashqari, o'zining konnotativ ma'nosini ham namoyon etishi mumkin. Jumladan, “tulki” so'zining hayvonni yoki insonni ko'zda tutayotgani nutq vaziyatidan kelib chiqib belgilanadi. 4. **Domenga xos til**: Termin va havolalar domenlar bo'yicha farqlanishi mumkin (tibbiy, yuridik, texnik va h.k). Botanika faniga oid “ildiz” termini matematika sohasidagi “ildiz” terminiga semantik jihatdan teng kelmasligi haqiqat. Bu jarayonda to'g'ri tahlilga erishish uchun matn mavzusiga tegishli maxsus bilimlar zarurdir. 5. **Gender bilan bog'liq noto'g'ri talqinlar**: Mashinani algoritmlarga o'qitishda foydalaniladigan ma'lumot to'plamlari ta'sirida koreferensiyaning hal etish modellarida xato qarashlar shakllanishi mumkin, bu esa gender stereotiplari asosida noto'g'ri xulosaga sabab bo'ladi. Misol uchun, “hamshira” ayol, “haydovchi” erkak bo'lishi mumkin degan faraz koreferensiyaning hal etishda xatolikni keltirib chiqaradi.

Koreferensiyaning hal etish usullari. 1. **Qoidaga asoslangan yondashuv** [4] qo'lda yaratilgan sodda qoidalarga tayangan. Ushbu yondashuv ikkiga bo'linadi: a) *Grammatik yondashuv* – olmoshlarni antisidentlari bilan bog'lashda grammatik munosabatlar va sintaktik tuzilishga asoslangan qoidalarga amal qiladi; b) *Semantik yondashuv* – antisidentni aniqlashda semantik ma'lumotlar to'plamiga murojaat qiladi. Masalan, NER (nomli obyektning tanish) va uning xususiyatlari haqidagi bilimlardan foydalanish. 2. **Mashinali o'qitish yondashuvi**. a) *Nazoratli o'qitish*: Sintaktik tuzilish, grammatik rol va semantik ma'lumot kabi xususiyatlardan foydalangan holda, belgilangan ma'lumotlar to'plamida modellarni o'qitish. b) *Nazoratsiz o'qitish*: belgilanmagan ma'lumotlar orqali o'xshash birliklarni so'z joylashtirish (word-embeddings) yoki matn tahlili (oc-occurrence analysis) kabi xususiyatlarga asoslanib klasterlash. 3. **Chuqur neyron tarmoqlari**. a) *Takroriy neyron tarmoqlari (RNN)*: kontekstdagi bog'liqliklarni izohlay oladigan ketma-ket modellar, tarmoqqa hujjatning butun kontekstini ko'rib chiqishga imkon beradi. b) *Transformer modellar*: kontekstdagi ma'lumotlarni m'lum darajada saqlash uchun uzoq muddatli xotira mexanizmlaridan foydalanish. BERT kabi transformerga asoslangan arxitekturalar matndagi murakkab koreferentliklarni ham izohlay olish qobiliyati bilan diqqatga sazovordir. 4. **Gibrid yondashuv**: Qoidalarga asoslangan va mashinali o'qitish usullarini birlashtirish: Shaffoflikni ta'minlovchi qoidalarga asoslangan tizimlarning kuchli tomonlarini mashinali o'qitish modellarining moslashuvchanligi va ma'lumotlarga asoslangan o'qitish imkoniyatlari bilan birlashtirish.

Koreferensiyani hal qilish bosqichlari. Koreferensiyani hal qilish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, bu jarayon quyidagi umumiy qadamlardan iborat [5]: **Ma'lumot yig'ish:** Koreferent birliklar ishtirok etgan matnlardan katta hajmli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va koreferensiya korpusini yaratish zarur. Koreferensiya korpusi koreferensiyani avtomatik hal etishning aniqlik darajasini baholashga xizmat qiladi. **Qayta ishlash:** NLP da matnni bosqichma-bosqich qayta ishlash pipeline jarayoni deb yuritiladi [6]. Koreferensiyani hal etish ushbu arxitekturaning eng so'nggi lingvo-texnik tahlilidir. Qayta ishlash bosqichida NLP pipelinedagi bosqichlar: tokenizatsiya, lemmatizatsiya, POS teglash, parsing kabi amallar ketma-ket bajariladi. **Xususiyatni ajratib olish:** Bu bosqichda ishlov berilmagan matn ma'lumotlari mashinaviy o'qitish algoritmlari oson qayta ishlashi mumkin bo'lgan formatga, ya'ni raqamli shaklga aylantiriladi. Shuningdek, kiritilgan asl matnlar to'plamidan tegishli xususiyatlar to'plami tanlanadi. Modelga ma'lumot berish uchun sintaktik va semantik o'xshashlik, masofa, shaxs-son va jins muvofiqligi, jonli yoki jonsiz predmet ekanligi kabi atributlarni asosiy mezon sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Chunki atributlar ma'lumotlar ichidan referentlarni tasniflash, antisidentni aniqroq bashorat qilish uchun muhimdir. **Xususiyatni tanlash:** Ushbu mashinani o'qitish texnikasi "hajmni qisqartirish" deb ham nomlanadi. Unda xususiyatlarga qiymat (0, 1, ...; rost, yolg'on yoki noma'lum kabi) berish orqali referentlar orasidan anafolar va antisident nomzodlar tanlanadi. **Matnni tasniflash:** Bu jarayonda kiritilgan matnlar to'plami ba'zi parametrlarga ko'ra turli teglar ostida kategorik sinflarga ajratiladi. Diskret maqsadli o'zgaruvchilarni bashorat qilishda "Agar ...-sa, u holda ..." qoidasiga amal qilinadi. **Klasterlash:** Bu funksiya yordamida ma'lumotlar bir-biriga o'xshashligi asosida guruhlanadi, ya'ni antisident-anafora juftliklari hosil qilinadi. Bu ekvivalent guruhlar ot-olmosh, ot-ot, otli birikma-olmosh, ot-otli birikma ko'rinishida juftlanishi mumkin. **Natija:** Bir qancha klaster guruhlari (klaster 1, klaster 2, klaster 3 va h.k.) namoyon bo'ladi va koreferensiyani avtomatik bartaraf etishga erishiladi.

Koreferensiyani hal etish vazifasidan foydalanadigan amaliy dasturlar. Koreferensiyani hal etish vazifasi matnni umumlashtirish va savollarga javob berishdan tortib chatbotlar va ma'lumot qidirish tizimlarigacha bo'lgan turli ilovalarga tatbiq etiladi. *Matnni umumlashtirish* – bu katta hajmli matnning qisqacha xulosasini yaratish jarayoni. U matnning asosiy g'oyalari va tafsilotlarini tushunish va ularni qisqaroq shaklda ifodalashni o'z ichiga oladi. Koreferensiyani hal etish vazifasi ma'lumot yo'qolmasligini ta'minlab, asosiy referentga barcha havolalarni bog'lash orqali xulosalar sifatini yaxshilaydi. *Savol-javob tizimlari* – Koreferensiyani bartaraf etish savollarga javob berish tizimlari uchun juda muhim, chunki u so'rov shartlarining referentlarini aniqlash va aniq javoblarni yaratishni kafolatlaydi. *Sentiment tahlil* – Matnda ifoda etilgan fikrlarni nutq obyekti bilan to'g'ri bog'lash orqali his-tuyg'ularni tahlil qilish yanada oydinlashadi. *Axborotni ajratib olish* [7] – bu tizimlashtirilmagan matndan tuzilgan ma'lumotlarni avtomatik ravishda ajratib olish jarayoni. U nomli obyekt (NER) ni tanish, munosabatlarni ajratib olish va hodisalarni chiqarish kabi vazifalarni qamrab olishi mumkin. Bu jarayonda koreferensiyani hal etish matnning turli qismlaridan ma'lum bir obyekt yoki voqea-hodisa haqidagi ma'lumotlarni jamlashga xizmat qiladi. Masalan, "Dildora maktabda ishlaydi. U matematika fani o'qituvchisi" jumlasida axborotni ajratish tizimi koreferensiyani hal etish vazifasi ishtirokisiz ikkita alohida faktni olishi mumkin: "Dildora maktabda ishlaydi" va "Inson matematika fani o'qituvchisi". Koreferensiyani hal etish vazifasi ruxsati bilan tizim "u" ni "Dildora" bilan bog'lab, ma'lumotni to'liqroq va aniq ajratib oladi. *Sun'iy intellekt va chatbotlar* – sun'iy intellekt bir nechta almashinuv orqali kontekstni kuzatib borishlari uchun koreferensiyani hal etish tizimi kogerentlikni ta'minlab beradi.

Xulosa. NLP taraqqiy etar ekan, koreferensiyani hal qilish vazifasi tabiiy tilni avtomatik tushunishga erishish uchun muhim vosita bo'lib qoladi va tadqiqotchilar uchun doimo dolzarblik kasb etadi. Koreferensiyani aniqlash usullari takomillashuvi bilan koreferensiyani hal qilish vazifasi mashinalarga inson tilini yanada samaraliroq talqin qilish va o'zaro ta'sir qilishda ko'proq yordam beradi. Natijada sun'iy intellektga asoslangan ilovalardan foydalanish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karttunen, L. (1969). Discourse referents. In Proceedings of the 1969 Conference on Computational Linguistics, COLING'69, pages 1–38, Stroudsburg, PA, USA. Association for Computational Linguistics.
2. Abdusalomova Sh. O'zbek tilida pronominal anaforani Hobbs yondashuvi asosida hal etish modeli. // "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali, Vol.2 (6), 2023. – 55-66-betlar.
3. Калашникова Л.В. Кореференция в когнитивном аспекте./ диссертация на соискание ученой степени кандидата филологического наук, Орел – 2000. – 229 с.
4. J.R. Hobbs. Resolving pronoun references, *Lingua* 44 (4) (1978) 311–338.
5. Elov B., Abdusalomova Ş. Özbek Dili Metinlerindeki Eşgönderge Çözümlemesi Algoritması. / 9.Uluslararası Bilgisayar Bilimleri ve Mühendisliği Konferansı, Antalya, 95–100.
6. Elov B.B.Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da spacy modulidan foydalanish. *Ilm-fan va innovatsion rivojlanish*, 2022 (4). 41-45 b.
7. <https://www.netguru.com/glossary/coreference-resolution>

Muallif:

Abdusalomova Shahlo Abdimurod qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

УДК 398.1

THE ISSUE OF HISTORICALITY IN UZBEKISTAN FOLKLORE

O'ZBEK FOL'KLORIDA TARIXIYLIK MASALASI

ВОПРОС ИСТОРИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛЕРЕ

Jumanazarov Umirzoq Abdurazzoqovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4- uy,

E-mail: guljahon1980@mailru.

Annotation. There are numerous works in the study of the historicity of Uzbek folklore and historical folklore. This is probably the reason why in many articles and books the concept of "historicity of folklore" is interpreted as the same thing as the concept of "historical folklore". However, these two concepts are completely independent, and at the same time, they cannot exist without each other. In our opinion, these two concepts, which are closely related to each other, are the product of two perspectives. In fact, by "historicity of folklore" we understand the relationship of folklore to real reality, that is, the degree of correspondence of the events reflected in it with real reality. In other words, "historicity" refers to the image principle. In this sense, the entire treasure of Uzbek folklore obeys the principle of historicity from beginning to end: it is impossible to have any genre or work that is outside of the principles of historicity. For example, from the most ancient legends of the Turkic peoples to the folk proverbs that reflect our current life, they all reflect the real reality within their possibilities, therefore, they are subject to historicity. The historicity of folklore is always changing in connection with the growth of human consciousness and worldview. Therefore, the principles of historicity are a concept that changes within each genre, as well as on the scale of folklore as a whole. This concept can arise in connection with folklore genres, develop, change and end directly in connection with these genres. Therefore, it is impossible to measure the works created in two historical periods with the same principles of historicity. Because each period has its own genres that satisfy the aesthetic requirements, and they have archaic principles that can meet the requirements of each period. For example, the level of historicity in the epic "Alpomish" cannot be compared to the epic "Mamatkarim Polvan". In fact, what makes them differ sharply is the degree of historicity. Directly due to this standard, the derivative gives birth to a second concept. This is the concept of "historical folklore". This article describes the issue of historicity in specific genres of Uzbek historical folklore, in particular, historical epics, historical narratives, and historical songs.

Key words: historical folklore, folklore historicity, genre, epic, principles of historicity, poet-poet, epic repertoire.

Аннотация: Существуют многочисленные работы по изучению историчности узбекского фольклора и исторического фольклора. Вероятно, поэтому во многих статьях и книгах понятие «историчность фольклора» трактуется как то же самое, что и понятие «исторический фольклор». Однако эти два понятия совершенно независимы и в то же время не могут существовать друг без друга. На наш взгляд, эти два понятия, тесно связанные друг с другом, являются продуктом двух точек зрения. Фактически под «историчностью фольклора» мы понимаем отношение фольклора к реальной действительности, т. е. степень соответствия отраженных в нем событий реальной действительности. Другими словами, «историчность» относится к принципу изображения. В этом смысле вся сокровищница узбекского фольклора от начала до конца подчиняется принципу историчности: невозможно существование какого-либо жанра или произведения вне принципов историчности. Например, от древнейших мифов тюркских народов до народных пословиц, отражающих нашу нынешнюю жизнь, все они отражают реальную действительность в пределах своих возможностей, поэтому подвержены историчности. Историчность фольклора всегда меняется в связи с ростом человеческого сознания и мировоззрения. Поэтому принципы историчности — понятие, меняющееся внутри каждого жанра, а также в масштабах фольклора в целом. Это понятие может возникать в связи с фольклорными жанрами, развиваться, изменяться и прекращаться непосредственно в связи с этими жанрами. Поэтому невозможно измерить произведения, созданные в два исторических периода, одинаковыми принципами историчности. Потому что в каждом периоде есть свои жанры, удовлетворяющие эстетическим требованиям, и есть архаические принципы, способные удовлетворить требования каждого периода. Например, по уровню историчности эпос «Алпомиш» не может сравниться с эпосом «Маматкарим Полван». На самом деле их резко отличает степень историчности. Вывод, возникший непосредственно благодаря этому стандарту, порождает вторую концепцию. Это понятие «исторический фольклор». В данной статье рассматривается проблема историчности в отдельных жанрах узбекского исторического фольклора, в частности, в исторических эпосах, исторических повестях и исторических песнях.

Ключевые слова: исторический фольклор, историчность фольклора, жанр, эпос, принципы историчности, поэт-поэт, эпический репертуар.

Kirish. O'zbek fol'klarining tarixiyligi va tarixiy fol'klarining tadqiq etilishi masalasiga kelsak, faqat barmoq bilan sanarli ishlar mavjudligiga iqror bo'lamiz. Mana shuning oqibatida bo'lsa kerak ko'pgina maqola va kitoblarda "fol'klar

tarixiyliigi” tushunchasi “tarixiy fol’klar” tushunchasi bilan bir narsa sifatida talqin qilinishida. Holbuki, bu ikki tushuncha butunlay mustaqil bo’lib, ayni paytda ular bir-birlarisiz voqe bo’la olmaydilar.

Bizningcha, bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lgan mazkur ikki tushuncha ikki nuqtai nazarning mahsuli. Darhaqiqat, “fol’klar tarixiyliigi” deganda biz xalq og’zaki ijodining real voqelikka munosabatini, ya’ni unda aks etgan voqealarning real voqelik bilan mos kelish darajasini tushunamiz. boshqacha aytganda. “tarixiylik” bu tasvir printsiptini anglatadi. shu ma’noda o’zbek fol’klarining butun xazinasini azaldan-oxir tarixiylik printsiptiga bo’ysinadi: tarixiylik printsiptlaridan tashqarida turuvchi biro janr, biror asar bo’lishi ham mumkin emas. Masalan, turkiy xalqlarning eng qadimiy asotirlaridan tortib hozirgi hayotimizni aks ettiruvchi xalq maqollarigacha bari-barisi o’z imkoniyati doirasida real voqelikni aks ettiradi, binobarin, ular tarixiylikka tobe.

Fol’klorning tarixiyliigi inson ongi, dunyoqarashining o’sishi bilan aloqadorlikda doim o’zgarib boradi. Demak, tarixiylik printsiptlari butun fol’klar miqyosida bo’lgani kabi har bir janr doirasida ham o’zgarib boruvchi tushunchadir. Bu tushuncha fol’klar janrlari bilan bog’liklikda vujudga kelib, rivojlanib, o’zgarib bevosita ana shu janrlar bilan bog’liqda intihoga yetishi mumkin. Shuning uchun ham ikki tarixiy davrda yaratilgan asarni bir xil tarixiylik printsiptlari bilan o’lcham mumkin emas. Chunki har bir davrning estetik talablarini qondiradigan o’z janrlari bor va ularning har bir davr talablarini javob bera oladigan tarixiylik printsiptlari mavjud. Masalan, “Alpomish” dostonidagi tarixiylik darajasini “Mamatkarim polvon” dostoniga qiyoslab bo’lmaydi. Aslida bir keskin farqlanishlariga olib kelgan narsa tarixiylik darajasidir. Bevosita mana shu me’yor tufayli vujudga kelgan hosila ikkinchi bir tushunchani tug’diradi. Bu esa “tarixiy fol’klar” tushunchasidan iborat.

Tarixiy fol’klar barcha xalqlar og’zaki ijodida qadim zamonlardan mavjud. Mahmud Koshg’riyning “Devonu lug’otit-turk” asarida keltirilgan qabilachilik tuzumiga xos voqealar aks etgan parchalar, shuningdek, qisqacha epik mazmuni yetib kelgan “Oysuluv” dostonidan tortib “Nomoz” tarixiy qo’shig’igacha barcha-barchasi o’zbek xalq tarixiy fol’klarining namunalari tashkil etadi.

XII asr yodgorliklarida qoldiq holda saqlanib qolgan epik parchalar – tarixiy fol’klar juda qadimdan turkiy xalqlar og’zaki ijodida yetakchi mavqeni egallab kelganligini tasdiqlaydi. Tarixiy fol’klar janrlarining qadimgi namunalari bizga ko’plab yetib kelmaganligini uzoq o’tmishda tarixiy fol’klorning yaratilmaganligi bilan emas, balki yaratilgan asarlarni yozib olish va meros sifatida saqlab qolish qolish an’anasining yo’qligi bilan bog’liqlikda izohlash to’g’riroq bo’ladi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tish zarurki, xalq eposi yoki tarixiy qo’shiqdagi toponimika, personajlarning nomlari konkret bo’lgani holda ular tarixiy fol’klar hisoblanmasliklari mumkin. Chunki qayd etilgan komponentlar konkret tarixiy davrga mos keluvchi g’oyani ifodalamasliklari, aksincha, butunlay badiiy to’qima xarakteridagi voqealarda ishtirok etishlari mumkin. Demak, epokdagi tarixiylikni konkretlashtiruvchi yetakchi mezon asarda ilgari surilgan g’oyaning muayyan tarixiy davrga mos kelishi, boshqacha aytganda, asarda ifodalangan g’oya konkret xronotopga mos kelishi lozim. Darhaqiqat, B.N.Putilov yozganidek, xalqning maishiy turmushi, xalq ongi uning ijtimoiy borlig’i qadar tarixiydir .

Ma’lum bo’ladiki, muayyan asarda ifodalangan xalq g’oyasi, ongi shu asarning tarixiy yoki tarixiy emasligini belgilovchi bosh mezonidir. Xronotop, personaj kabilarning konkretligi esa asarning tarixiyliigini oshiradi, uni real voqelikka yaqinligini kuchaytiradi.

Tadqiqot ob’ekti va qo’llanilgan metodlar

O’zbek fol’klarining janrlar sostavi rang-barang ekanligi hech kimga sir emas. Biroq mavjud barcha janrlardan biz tarixiy fol’klorni talab eta olmaymiz. Fol’klar janrlarining konkret tarixiylikka – tarixiy fol’klorga “ixtisoslashishi” turlicha kechadi. Masalan, marosim fol’klori, lirik qo’shiqlar, mehnat qo’shiqlari, ertak janrining barcha turlari, topishmoqlar, maqol va matallar muayyan tarixiylikka bo’ysunganliklari holda hech qachon tarixiy fol’klar bo’la olmaydilar. Har bir janrning konkret tarixiylik kasb etishini B.N.Putilov quyidagi ikki jihat bilan izohlaydi. Birinchisi – fol’klar janrlarining tarix sohasida turlicha vazifa o’tishlari, ya’ni ularda juda ko’p tarixiy muammolarning jamlanishi. Ikkinchisi – tarixiy (shu jumladan badiiy - tarixiy) ongning taraqqiyoti. Tarixiy fol’klar tushunchasi barcha xalqlar fol’klarshunosligida jiddiy o’rganilishi zarur bo’lgan o’zak masalalardan hisoblanadi. Rus, ukrain va boshqa xalqlar fol’klarshunosligida bu tushuncha ifodalagan og’zaki ijod mahsuli burmuncha tadqiq etilgan. Xususan, B.A.Ribakov, V.Y.Pripp, M.M.Plisetskiy, V.P.Anikin, B.N.Petilod, B.M.Sokolov, Yu.M.Sokolov, A.P.Skaftimov, Dg.S.Lixachev kabi olimlar xalq ijodining tarixiyliigi hamda bevosita tarixiy fol’klar masalasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar . Bular fol’klar tarixiyliigi va tarixiy fol’klar masalasiga bevosita aloqador tadqiqotchilarning eng asosiylari, xolos.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Albatta, tarixiy fol’klorning qadimgi namunalari bilan keyingi namunalari o’rtasida tarixiylik darajasida tafovut juda katta. Biroq bu qadimda tarixiy fol’klar yaratilmadi, degani emas. Tarixiy fol’klar hamma vaqt yaratilgan, ammo ularning tarixiyliigi darajasi bir xil emas. Mana shu narsani hisobga olgan holda muayyan janrning turli davrlardagi konkret tarixiylik darajasi shu janr doirasida tarixiy fol’klorni tashkil etadi. Chunki asar g’oyasi, syujetini tashkil etgan voqealar, ishtirok etgan obrazlar, tasvirlangan muhit, etnonimlar, toponimika va hoqazolarning tarixiy voqelikka munosabatning turlichaligi esa voqealarning shu xalq tarixi uchun ahamiyati, uni aks ettirishga bo’lgan xalq ijodkorlarining g’oyaviy-

estetik ehtiyoji bilan bog'liqdir. Real tarixiy voqelikning aks etish darajasi janrning tasviriy hamda ifoda imkoniyatlari, ijodkorlarning badiiy ijodiy tajribalari bilan aloqador.

Masalan, tarixiy voqelik juda ahamiyatli, uni aks ettirishga g'oyaviy-estetik ehtiyoj ham katta, ammo aks ettirishda ijodkorlarning mahorati yetishmasligi mumkin. Bunday hollarda asar muayyan darajada badiiylik hususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, voqelikning in'ikosi uchun g'oyaviy-estetik ehtiyoj katta, ammo ana shu voqelikni butun mohiyati bilan to'laqonli aks ettirishda janr imkoniyatlari torlik qilishi mumkin. bunday hollarda ham asar tarixiylik va ayni paytda badiiylik tabiatini ma'lum darajada yo'qotadi.

Tarixiy fol'klorga ixtisoslashgan janrlarning o'zida tarixiy voqealarning aks etish darajasi, mavqei hamma vaqt bir xilda, bir darajada bo'lmaydi. Masalan, bir vaqtlar bo'ladiki, tarixiy voqelik tarixiy qo'shiqni, yana shunday vaqtlar bo'ladiki, tarixiy doston yoki rivoyatni talab etadi. Mana shunday talab va ehtiyojga qarab o'zbek tarixiy fol'klorining turli taraqqiyot bosqichlarida unga moslashgan, ixtisoslashgan janrlarning rivojlanishi turlicha yuz berdi. Konkret tarixiylik tarixiy fol'klorning belgilovchi xelzoni hisoblanadi.

Tarixiy fol'klar barcha xalqlar og'zaki ijodida qadim zamonlardan mavjud. Mahmud Koshg'riyning "Devonu lug'otit-turk" asarida keltirilgan qabilachilik tuzumiga xos voqealar aks etgan parchalar, shuningdek, qisqacha epik mazmuni yetib kelgan "Oysulu" dostonidan tortib "Nomoz" tarixiy qo'shig'igacha barcha-barchasi o'zbek xalq tarixiy fol'klorining namunalari tashkil etadi. Bu o'rinda sobiq ittifoq fol'klorshunosligida tarixiy fol'klar hususida bildirilgan turlicha fikrlar haqida to'xtalib o'tish lozim.

Rus fol'kloridagi epos va tarixiylik munosabati haqida to'xtalib B.N.Putilov quyidagilarni yozadi: "Произведениям эпоса приписывается такая мера историзма, которая для данных типологических ступеней в действительности невозможна. Реальная история эпоса ставится с ног на голову: ошибочно утверждается, что первоначально возникают исторические песни, довольно точно отражающие реальные события, а затем они подвергаются эпической обработке песни возникают лишь на поздней ступени развития эпоса и сохраняют, как правило, свой конкретно-исторический характер" [20].

Bunday qarash rus tarixiy eposi va tarixiy qo'shiqlari uchun inkor qilib bo'lmas haqiqatdir, ammo uni turkiy, jumladan o'zbek tarixiy qo'shiqlari va dostonlari uchun to'la muqobil deya olmaymiz. Chunki XII asr yodgorliklarida qoldiq holda saqlanib qolgan epik parchalar – tarixiy fol'klar juda qadimdan turkiy xalqlar og'zaki ijodida yetakchi mavqeni egallab kelganligini tasdiqlaydi. Tarixiy fol'klar janrlarining qadimgi namunalari bizga ko'plab yetib kelmaganligini uzoq o'tmishda tarixiy fol'klorning yaratilmaganligi bilan emas, balki yaratilgan asarlarni yozib olish va meros sifatida saqlab qolish qolish an'anasining yo'qligi bilan bog'liqlikda izohlash to'g'ri bo'ladi.

Albatta, tarixiy fol'klorning qadimgi namunalari bilan keyingi namunalari o'rtasida tarixiylik darajasida tafovut juda katta. Biroq bu qadimda tarixiy fol'klar yaratilmadi, degani emas. Tarixiy fol'klar hamma vaqt yaratilgan, ammo ularning tarixiylik darajasi bir xil emas. Mana shu narsani hisobga olgan holda muayyan janrning turli davrlardagi konkret tarixiylik darajasi shu janr doirasida tarixiy fol'klorni tashkil etadi. Chunki asar g'oyasi, syujetini tashkil etgan voqealar, ishtirok etgan obrazlar, tasvirlangan muhit, etnonimlar, toponimika va hoqazolarning tarixiy voqelikka munosabatning turlichaligi esa voqealarning shu xalq tarixi uchun ahamiyati, uni aks ettirishga bo'lgan xalq ijodkorlarining g'oyaviy-estetik ehtiyoji bilan bog'liqdir. Real tarixiy voqelikning aks etish darajasi janrning tasviriy hamda ifoda imkoniyatlari, ijodkorlarning badiiy ijodiy tajribalari bilan aloqador.

Masalan, tarixiy voqelik juda ahamiyatli, uni aks ettirishga g'oyaviy-estetik ehtiyoj ham katta, ammo aks ettirishda ijodkorlarning mahorati yetishmasligi mumkin. Bunday hollarda asar muayyan darajada badiiylik hususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, voqelikning in'ikosi uchun g'oyaviy-estetik ehtiyoj katta, ammo ana shu voqelikni butun mohiyati bilan to'laqonli aks ettirishda janr imkoniyatlari torlik qilishi mumkin. bunday hollarda ham asar tarixiylik va ayni paytda badiiylik tabiatini ma'lum darajada yo'qotadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, xalq eposi yoki tarixiy qo'shiqdagi toponimika, personajlarning nomlari konkret bo'lgani holda ular tarixiy fol'klar hisoblanmasliklari mumkin. Chunki qayd etilgan komponentlar konkret tarixiy davrga mos keluvchi g'oyani ifodalamasliklari, aksincha, butunlay badiiy to'qima xarakteridagi voqealarda ishtirok etishlari mumkin. Demak, epokdagi tarixiylikni konkretlashtiruvchi yetakchi mezon asarda ilgari surilgan g'oyaning muayyan tarixiy davrga mos kelishi, boshqacha aytganda, asarda ifodalangan g'oya konkret xronotopga mos kelishi lozim. Darhaqiqat, B.N.Putilov yozganidek, xalqning maishiy turmushi, xalq ongi uning ijtimoiy borlig'i qadar tarixiydir [20].

Ma'lum bo'ladiki, muayyan asarda ifodalangan xalq g'oyasi, ongi shu asarning tarixiy yoki tarixiy emasligini belgilovchi bosh mezondir. Xronotop, personaj kabilarning konkretligi esa asarning tarixiylikni oshiradi, uni real voqelikka yaqinligini kuchaytiradi.

O'zbek fol'klorining janrlar sostavi rang-barang ekanligi hech kimga sir emas. Biroq mavjud barcha janrlardan biz tarixiy fol'klorni talab eta olmaymiz. Fol'klar janrlarining konkret tarixiylikka – tarixiy fol'klorga "ixtisoslashishi" turlicha kechadi. Masalan, marosim fol'klori, lirik qo'shiqlar, mehnat qo'shiqlari, ertak janrining barcha turlari, topishmoqlar, maqol va matallar muayyan tarixiylikka bo'ysunganliklari holda hech qachon tarixiy fol'klar bo'la olmaydilar.

Har bir janrning konkret tarixiylik kasb etishini B.N.Putilov quyidagi ikki jihat bilan izohlaydi. Birinchisi – fol’klor janrlarining tarix sohasida turlicha vazifa o’tishlari, ya’ni ularda juda ko’p tarixiy muammolarning jamlanishi. Ikkinchisi – tarixiy (shu jumladan badiiy - tarixiy) ongning taraqqiyoti [20].

Albatta, yuqorida ko’rsatilgan jihatlar o’zbek fol’klorining janrlar sostavi uchun to’la aloqador. Shunga qaramay, boshqa yana bir muhim jihat ham borki, bu jihat fol’klor janrlarining konkret tarixiylikka munosabatini hamma vaqt muayyan janrlar doirasida belgilab beradi. Ana shu jihat esa janrning tarixan ehtiyoj sifatida vujudga kelishi va g’oyaviy-badiiy vazifa ado etishidan iborat. Shu jihatdan qaralsa, o’zbek fol’klorida tarixiy qo’shiq janri va afsona, rivoyat, doston janrlarining tarixiy afsona, tarixiy rivoyat, tarixiy doston kabi turlariga konkret tarixiylik kasb etishlari aniqlandi.

O’zbek tarixiy fol’klori qaysi janrga mansub bo’lmasin, u real tarixiy voqelikni badiiyat qonuniyatlari asosida aks ettiradi. Masalan, o’zbek tarixiy eposi masalasiga e’tibor qarataylik. O’zbek xalq eposida ijodkorlik va umuman, eposning tarixiy voqelik bilan hamnafaslik an’anasi XX asrning oltmishinchi yillariga qadar davom etdi. Shuning uchun xalq baxshilarining tasvir ob’ekti bo’lgan voqealarda bevosita ishtirok etishlari, hech bo’lmaganda, ular haqida yaxshi xabardor bo’lishlari, qolaversa, tarixiy davr bilan bog’liq holda voqelikni badiiy idrok etish darajasida baxshilar ongida yuz bergan o’zgarishlar o’zbek xalq tarixiy dostonlarining keyingi davr mahsulida realistik epos turini yuzaga keltirdi. V.M.Jirmunskiy va X.T.Zarifovlarning “O’zbek xalq qahramonlik eposi” monografiyasida bunday asarlarni “Yangi dostonlar” deb atash zarurligini, ular realistik xarakter kasb etsa ham, badiiy jihatidan an’anaviy dostonlardan past turishligi ko’rsatilgan va hatto kitobning bir bobi “Yangi dostonlar” deb atalgan edi. Bu mulohazalar J.Qobulniyozovning monografiyalarida yanada rivojlantirildi. Keyinchalik bu masalalar B.Sarimsoqov maqolalarida, A.Qahhorov risolasida yanada konkretlashtirildi.

Darhaqiqat, xalq eposi va tarixiy voqelik munosabatida o’zbek fol’klori dostonchilik an’alarining barhayotligi bilan yangi tipdagi tarixiy dostonchilik an’alarining barhayotligi bilan yangi tipdagi tarixiy dostonlarga – realistik dostonlarga ham erishdi. Bu hodisa faqat dostonlarga an’analari jonli yashab turgan xalqlar eposidagina yuz berdi, xolos. Binobarin, realistik xalq eposining voqelikni aks ettirish printsiplari, realistik tasvirga olib kelgan omillar, badiiyat masalalari jiddiy tadqiqotlar talab etmoqda.

Xalq eposi va tarixiy voqelik munosabatida o’zbek fol’klori dostonchilik an’alarining barhayotligi bilan yangi tipdagi tarixiy dostonchilik an’alarining barhayotligi bilan yangi tipdagi tarixiy dostonlarga – realistik dostonlarga ham erishdi. Bu hodisa faqat dostonlarga an’analari jonli yashab turgan xalqlar eposidagina yuz berdi, xolos. Binobarin, realistik xalq eposining voqelikni aks ettirish printsiplari, realistik tasvirga olib kelgan omillar, badiiyat masalalari jiddiy tadqiqotlar talab etmoqda.

O’zbek tarixiy dostonlaridagi tarixiylikni o’rganish shuni ko’rsatadiki, tarixiy eposning keying taraqqiyot bosqichlarida tarixiylik nihoyatda kuchaygan, aniq chegaralar kasb etgan holda, ular badiiy jihatdan ancha oqsadi. Buning sabablari esa ancha murakkab, ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, xalq eposi rivojida davomiyligni ta’minlovchi umuma’ana bilan bir qatorda har bir dostonchilik maktabiga xos an’ana ham mavjud bo’lib, bu an’ana dostonchilik maktabiga xos an’ana ham mavjud bo’lib, bu an’ana dostonchilik maktablarining yetakchi vakillari almashinishi bilan muayyan o’zgarishlarga uchragan. Ana shu o’zgarishlar ham dostonchilik umuma’anaviy doirasida yuz bergan. Binobarin, yangi yaratilgan har qanday doston eng avvalo dostonchilik an’analari doirasida qayta-qayta ijodiy hamda ijro aktlaridan o’tib tobora sayqallashib borgan. Bu sayqallanish esa dostonning umumdostonchilik an’anasi talablariga javob beradigan darajaga qadar davom etgan. Hozir biz realistik epos deb atayotgan tarixiy dostonlar esa u yoki bu dostonchilik maktabining biror namoyondasi tomonidan yaratilib, hattoki o’sha maktab an’analari davrasida ham qayta ijodiy va ijro aktlarini o’z boshidan kechirmadi. Qisqasi, ular o’z ijodkorlarining ijrosidagina qolib ketdi. Mana shuning uchun ular, garchi epik dunyoning konkret ekanligidan qat’i nazar, badiiy jihatdan oqsab qoldilar. Agar Po’lkan shoir yaratgan “Komsomol Oyto’ti” dostoni Fozil shoir yoki Abdulla shoir repertuariga ham o’tganda yoki Fozil shoir yaratgan “Ochildov” Po’lkan shoir yohud Islom shoir repertuarlariga ham o’tganda ular shubhasiz na faqat g’oyaviy jihatdan, balki badiiy jihatdan ham kamolotga erishgan bo’lardilar. Mana shu jarayonning yuz berganligi yangi tipdagi tarixiy dostonlarning badiiy jihatlarida o’z ifodasini topdi.

Ikkinchidan, yangi tipdagi tarixiy dostonlarning o’zlarigagina xos bo’lgan yangicha badiiy-tasvir printsiplari shakllanadi. Bu narsa obrazlarning psixologizmida, ularning xatti-xarakterlarida; psixologizمنى ifodalanish shakl va vositalarida ko’zga tashlanadi.

Tarixiy dostonlar prozasida musajjam usulining huddi an’anaviy dostonlaridagidek qo’llanishi, she’riy monologik nutqda an’anaviy uslubiy formulalarga murojaat etish kabilar yangi voqelik bilan badiiy tasvir o’rtasida mutanosiblikni ta’minlay olmas.

Uchinchidan, yangi tarixiy dostonlarning badiiy jihatdan davomli ishlovga uchrashi va yuksak original poetik shaklga erishishga umumo’zbek dostonchiligidagi so’nish jarayoni katta xalaqat berdi. Dostonchilik an’alaridagi so’nish jarayoni haqida gap ketganda, ko’pgina epos tadqiqotchilari bu fikrga qarshi chiqadilar. U holda nega realistik tarixiy dostonlar keyinchalik boshqa barhayot baxshilar tomonidan ishlovga jalb etilmadi? Hattoki, hozir do’mbira chertib doston kuylay oladigan baxshilardan birortasi ham na Fozil shirning, na Po’lkan shoir yoki na Islom shirning yangi voqealik materiallari asosida yaratilgan birorta dostonini qaytadan ijro etib, ularga jon bag’ishlab, badiiy sayqal bera olmadilar.

Bularning barchasi ko'rsatib turibdiki, o'zbek xalq dostonchiligining jonli yashash an'analari 60-yillardan boshlab asta-sekin so'nishga yuz tutdi.

Yarim asrdan sal ortiqroq bir davrda o'zbek dostonchilik an'analari bilan bir vaqtda tarixiy dostonlari ham yaratilishdan butunlay to'xtab qoldi. Biroq ana shu qisqa bir muhlat ichida tarixiy dostonlardagi tarixiylik shu qadar aniqlik kasb etdiki, bunday aniqlik o'zbek tarixiy dostonlari tarixiylikining butun taraqqiyoti mobaynida hech qachon kuzatilmagan edi.

Demak, shu faktning o'zi ko'rsatib turibdiki, xalq eposining har bir taraqqiyot bosqichiga xos tipologik hususiyatlar mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'zbek xalq tarixiy dostonlari tarixiga qaralsa, ajoyib bir holatni ko'ramiz. Masalan, qadimgi turkey xalqlar tarixiy dostonlarining tarixiylik darajasi bevosita qabilachilik tuzumining ideologik dasturi bilan o'lgangan. Shu bois ularda konkret qabila boshliqlari yoki o'sha qabiladagi alplarning qahramonliklari ulug'langan. Ular konkret ism, konkret qiyofa va xislat jihatidan mutlaqo tasvirlanmaydilar. Demak, tarixiy dostonlar taraqqiyotining qabilachilik tuzumi davri uchun xos bo'lgan tarixiylik faqat qabila hayoti, turmushi doirasidagi g'oyaviy talab hamda ehtiyojlar bilan belgilangan. Qabilaning tinch-osoyishta, to'kin-sochinlikda yashashi, uni boshqa qabilalar tajovuzidan himoya qilish bevosita qadimgi turkey xalqlar tarixiy dostonlari uchun yetakchi tarixiylik printsiplari sanaladi.

Tarixiy fol'klor janrlaridagi tarixiylik printsiplari kichik epik janrlardan tortib yirik epik janrlarga tomon nisbatan kuchayib boradi. Bu jarayon esa har bir janrning real tarixiy voqelikni aks ettirish qamrovi hamda vositalari bilan shartlangan. Chunki tarixan olib qaralsa, kichik epik struktura ibtido jihatidan qadimiy va dastlabki hosila bo'lsa, yirik epik struktura esa murakkab hamda nisbatan keying hodisa sanaladi. Mana shu nuqtai nazardan qaralsa, yirik strukturali tarixiy fol'klor janrlaridagi tarixiylik printsiplari nisbatan aniq, haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, tarixiy afsona va rivoyatlardagi tarixiylik tarixiy qo'shiq va tarixiy dostonlardagi tarixiylikka qadar konkretlik kasb etmaydi. Masalaning mana shu tomonlarini hisobga olib biz tadqiqotimizda tarixiy afsona va rivoyatlar syujetini maydalashtirib (detallashtirib) tahlil etish yo'lidan bormadik. Chunki bu xildagi og'zaki kichik proza janrlari syujetini detallashtirib tahlil etish konkret tarixiylikni emas, aksincha, taqaladi. Kvazitarixiylik esa tarixiy fol'klorga xos barcha hususiyatlarni ochishga imkon bermaydi.

Endi tarixiy qo'shiqlarning tarixiylik printsiplari hususida ikki og'iz so'z. Ma'lumki, tarixiy qo'shiqlar o'zlarining funksional hususiyatlariga ko'ra, tarixiy fol'klorning boshqa janrlaridan real tarixiy voqelikka hozirjavoblik bilan yaratilishi jihatidan farqlanib turadilar. O'zbek fol'klorshunosligida tarixiy qo'shiqlarga xos tarixiylik printsiplari ilk bor bizning kandidatlik dissertatsiyamizda yoritilgan edi. Biroq mazkur janrning tarixiylik printsiplari borasida keying olib brogan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida mazkur janrning tarixiylik darajasida ham jiddiy siljishlar yuz bergan. Bu o'zgarishlar esa bevosita professional baxshilar ijodi bilan bog'liq holda yuz berdi. Masalan, Nurxon, Tursunoy kabi ozodlik uchun kurashning dastlabki qurbonlari, shuningdek, 1916 yilgi milliy ozodlik harakati, Isfandiyorxon yoki Saidahmad mingboshi kabi tarixiy shaxslar haqidagi tarixiy qo'shiqlarda tarixiylik nisbatan keng miqyosli bo'lib, ularda konkret tarixiy shaxslar fojiasi yoki faoliyatiga xalqning munosabati nisbatan umumiyroq tarzda bayon etilgan. Binobarin, ularda detallashtirilgan tasvir, obrazlar tasviri, xarakteristikasi berilgan. Tarixiylikning bunday xarakteri voqelikdagi konkretlikning yetimasligi bilan emas, balki, bir tomondan, janr strukturasining tarixiy-tipologik hususiyati bila, ikkinchi tomondan, qo'shiq ijodkorlarining kollektivlik xarakteri bilan izohlanadi. Chunki bu tipdagi tarixiy qo'shiqlarda voqelikni epik planda aks ettirishdan ko'ra ana shu voqelik haqidagi mehnatkash xalqning g'oyaviy-estetik bahosini ifodalash yetakchilik qiladi.

Real hayotda kechyotgan turli-tuman voqealar na faqat kollektiv diqqat nazarida, balki ana shu kollektivning nisbatan iqtidorli ijodkorlari-baxshilarining diqqat-e'tiborida ham turadi. Ularning har bir voqea-hodisa haqidagi g'oyaviy bahosi, ularni tasvirlashdagi estetik yo'li ham ayricha bo'ladi. Binobarin, real tarixiylikda kechgan yoki kechyotgan tarixiy voqealarga hozirjavoblik bilan yaratilgan ixcham liro-epik strukturadagi, professional ijodkorlar tomonidan yaratilgan har bir asar tarixiy qo'shiq sanaladi. Demak, o'zbek fol'klorida kollektiv ijodi mahsuli bo'lmish kichik hajmdagi, asosan lirik qo'shiqlar shaklidagi tarixiy qo'shiqlardan tashqari yirik liro-epik shakldagi tarixiy qo'shiqlar ham mavjudki, bu tipdagi tarixiy qo'shiqlarga xos tarixiylik o'zlarining konkretligi, muayyan tarixiy personaj, xronotop bilan aloqadorligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbek tarixiy dostonlaridagi tarixiylikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tarixiy eposning keying taraqqiyot bosqichlarida tarixiylik nihoyatda kuchaygan, aniq chegaralar kasb etgan holda, ular badiiy jihatdan ancha oqsadi. Buning sabablari esa ancha murakkab, ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, xalq eposi rivojida davomiylikni ta'minlovchi umuma'ana bilan bir qatorda har bir dostonchilik maktabiga xos an'ana ham mavjud bo'lib, bu an'ana dostonchilik maktabiga xos an'ana ham mavjud bo'lib, bu an'ana dostonchilik maktablarining yetakchi vakillari almashinishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchragan. Ana shu o'zgarishlar ham dostonchilik umuma'anaviy doirasida yuz bergan. Binobarin, yangi yaratilgan har qanday doston eng avvalo dostonchilik an'analari doirasida qayta-qayta ijodiy hamda ijro aktlaridan o'tib tobora sayqallashib borgan. Bu sayqallanish esa dostonning umumdostonchilik an'anasini talablariga javob beradigan darajaga qadar davom etgan. Hozir biz realistlik epos deb atayotgan tarixiy dostonlar esa u yoki bu dostonchilik maktabining biror namoyondasi tomonidan yaratilib, hattoki o'sha maktab an'analari davrasida ham qayta ijodiy va ijro aktlarini o'z boshidan kechirmadi. Qisqasi,

ular o'z ijodkorlarining ijrosidagina qolib ketdi. Mana shuning uchun ular, garchi epik dunyoning konkret ekanligidan qat'i nazar, badiiy jihatdan oqsab qoldilar. Agar Po'lkani shoir yaratgan "Komsomol Oyto'ti" dostoni Fozil shoir yoki Abdulla shoir repertuariga ham o'tganda yoki Fozil shoir yaratgan "Ochildov" Po'lkani shoir yohud Islom shoir repertuarlariga ham o'tganda ular shubhasiz na faqat g'oyaviy jihatdan, balki badiiy jihatdan ham kamolotga erishgan bo'lardilar. Mana shu jarayonning yuz berganligi yangi tipdagi tarixiy dostonlarning badiiy jihatlarida o'z ifodasini topdi.

Ikkinchidan, yangi tipdagi tarixiy dostonlarning o'zlarigagina xos bo'lgan yangicha badiiy-tasvir printsiplari shakllanadi. Bu narsa obrazlarning psixologizmida, ularning xatti-xarakterlarida; psixologizmining ifodalanish shakli va vositalarida ko'zga tashlanadi. Tarixiy dostonlar prozasida musajjam usulining huddi an'anaviy dostonlaridagidek qo'llanishi, she'riy monologik nutqda an'anaviy uslubiy formulalarga murojaat etish kabilar yangi voqelik bilan badiiy tasvir o'rtasida mutanosiblikni ta'minlay olmadi.

Uchinchidan, yangi tarixiy dostonlarning badiiy jihatdan davomli ishlovga uchrashi va yuksak original poetik shaklga erishishga umumozbek dostonchiligidagi so'nish jarayoni katta xalaqit berdi. Dostonchilik an'analaridagi so'nish jarayoni haqida gap ketganda, ko'pgina epos tadqiqotchilari bu fikrga qarshi chiqadilar. U holda nega realistik tarixiy dostonlar keyinchalik boshqa barhayot baxshilar tomonidan ishlovga jalb etilmadi? Hattoki, hozir do'mbira chertib doston kuylay oladigan baxshilardan birortasi ham na Fozil shirning, na Po'lkani shoir yoki na Islom shirning yangi voqealik materiallari asosida yaratilgan birorta dostonini qaytadan ijro etib, ularga jon bag'ishlab, badiiy sayqal bera olmadilar. Bularning barchasi ko'rsatib turibdiki, o'zbek xalq dostonchiligining jonli yashash an'analari 60-yillardan boshlab asta-sekin so'nishga yuz tutdi.

Demak, shu faktning o'zi ko'rsatib turibdiki, xalq eposining har bir taraqqiyot bosqichiga xos tipologik hususiyatlar mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ozbek xalq tarixiy dostonlari tarixiga qaralsa, ajoyib bir holatni ko'ramiz. Masalan, qadimgi turkey xalqlar tarixiy dostonlarining tarixiylik darajasi bevosita qabilachilik tuzumining ideologik dasturi bilan o'lchangan. Shu bois ularda konkret qabila boshliqlari yoki o'sha qabiladagi alplarning qahramonliklari ulug'langan. Ular konkret ism, konkret qiyofa va xislat jihatidan mutlaqo tasvirlanmaydilar. Demak, tarixiy dostonlar taraqqiyotining qabilachilik tuzumi davri uchun xos bo'lgan tarixiylik faqat qabila hayoti, turmushi doirasidagi g'oyaviy talab hamda ehtiyojlar bilan belgilangan. Qabilaning tinch-osoyishta, to'kin-sochinlikda yashashi, uni boshqa qabilalar tajovuzidan himoya qilish bevosita qadimgi turkey xalqlar tarixiy dostonlari uchun yetakchi tarixiylik printsiplari sanaladi.

Feodalizm davrida esa tarixiy eposga xos tarixiylik printsiplari ham o'zgardi. Chunki yirik feodal davlatlarning vujudga kelishi, sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi tarixiy dostonlar tarixiylik printsiplarini o'zgartirib yubordi. Bu davrda davlatni mustahkamlash, mamlakatni chet dushmanlardan himoya qilish tarixiylik printsiplarining yetakchi mezoniga aylandi. Endi alohida qabila emas, balki alohida xalq manfaatlarini uchun kurash tarixiy dostonlar tarixiylikni belgilaydigan bo'lib qoldi. Mana shularni hisobga olib va ularning an'anaviy dostonlarga yaqinligini nazarda tutib, bu davrda yaratilgan tarixiy dostonlarni tarixiy dostonlarning shartli ravishda klassik namunalariga deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Feodalizm davridagi tarixiy dostonlarning klassik namunalariga xos tarixiylikning muhim bir hususiyati shundaki, epik dunyo va uning komponentlaridan bir qismi konkret tarixiy bo'lsa, bir qismi sof badiiy to'qimadan iborat bo'ladi. Masalan, voqea va u kechadigan xronotop real bo'lgani holda personajlar real tarixiy bo'lmashligi mumkin. Aksincha, personajlar real bo'lganlari holda voqealar badiiy to'qima xarakterida bo'ladi. Xullaski, har ikki holda ham epik dunyo komponentlarining muayyan qismidagi konkret tarixiylik bunday asarlarni tarixiy epos sifatida olib qarash va baholashga asos bera oladi. Bu hol ayniqsa kichik og'zaki proza janrlarida yanada kuchliroq ko'zga tashlanadi.

Og'zaki kichik proza janrlarining tarixiylik printsiplari jiddiy tadqiq etilgan emas. Biroq keying yillarda afsona, rivoyat kabi janrlar tarixiylik masalasi ayrim tadqiqot va maqolalarda yo'l-yo'lakay tilga olina boshladi [12;18;19;10;14]. Ularda xalq afsona va rivoyatlaridagi tarixiy shaxslar va real etnonimlar bilan bog'liq asarlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tarixiy fol'klor deb hisoblashga tamoyil sezilmoqda. Darhaqiqat, asar syujeti yarim tarixiy, hattoki, umuman, badiiy to'qima xarakterda bo'lsa ham, ammo unda tarixiy shaxs yoki real etnonim va etnotoponim haqida so'z ketar ekan, ularni tarixiy fol'klor deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Chunki Aleksand Makedonskiy, Amir Temur yoki Alisher Navoiy singari ulkan tarixiy shaxslar haqidagi real tarixiy voqealarning yo'qotib, tobora epic qobiqqa o'ralib boradi. Biroq muhimi bunda emas. Bizningcha, muhimi shundaki, ana shu afsona va rivoyatlarda real xalqning konkret maishiy turmushi, konkret xalqning ongi va dunyoqarashi aks etgan. Syujet esa ana shu ongni, maishiy hayotni ifodalash vositasi, xolos. Binobarin, real tarixiy shaxslar, etnotoponim va etnonimlar haqidagi rivoyatlarni tarixiy fol'klor deb hisoblashga haqlimiz.

Tarixiy fol'klor janrlaridagi tarixiylik printsiplari kichik epik janrlardan tortib yirik epik janrlarga tomon nisbatan kuchayib boradi. Bu jarayon esa har bir janrning real tarixiy voqelikni aks ettirish qamrovi hamda vositalari bilan shartlangan. Chunki tarixan olib qaralsa, kichik epik struktura ibtido jihatidan qadimiy va dastlabki hosila bo'lsa, yirik epik struktura esa murakkab hamda nisbatan keying hodisa sanaladi. Mana shu nuqtai nazardan qaralsa, yirik strukturali tarixiy fol'klor janrlaridagi tarixiylik printsiplari nisbatan aniq, haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, tarixiy afsona va rivoyatlardagi tarixiylik tarixiy qo'shiq va tarixiy dostonlardagi tarixiylikka qadar konkretlik kasb etmaydi. Masalaning mana shu tomonlarini hisobga olib biz tadqiqotimizda tarixiy afsona va rivoyatlar syujetini maydalashtirib (detallashtirib) tahlil etish yo'lidan bormadik. Chunki bu xildagi og'zaki kichik proza janrlari

syujetini detallashtirib tahlil etish konkret tarixiylikni emas, aksincha, taqaladi. Kvazitarixiylik esa tarixiy fol'klorga xos barcha hususiyatlarni ochishga imkon bermaydi.

Tarixiy qo'shiqlarning tarixiylik printsiplari hususida ikki og'iz so'z. Ma'lumki, tarixiy qo'shiqlar o'zlarining funksional hususiyatlariga ko'ra, tarixiy fol'klorning boshqa janrlaridan real tarixiy voqelikka hozirjavoblik bilan yaratilishi jihatidan farqlanib turadilar. O'zbek fol'klorshunosligida tarixiy qo'shiqlarga xos tarixiylik printsiplari ilk bor bizning kandidatlik dissertatsiyamizda yoritilgan edi [11]. Biroq mazkur janrning tarixiylik printsiplari borasida keying olib brogan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida mazkur janrning tarixiylik darajasida ham jiddiy siljishlar yuz bergan. Bu o'zgarishlar esa bevosita professional baxshilar ijodi bilan bog'liq holda yuz berdi. Masalan, Nurxon, Tursunoy kabi ozodlik uchun kurashning dastlabki qurbonlari, shuningdek, 1916 yilgi milliy ozodlik harakati, Isfandiyorxon yoki Saidahmad mingboshi kabi tarixiy shaxslar haqidagi tarixiy qo'shiqlarda tarixiylik nisbatan keng miqyosli bo'lib, ularda konkret tarixiy shaxslar fojiasi yoki faoliyatiga xalqning munosabati nisbatan umumiyroq tarzda bayon etilgan [9;15]. Binobarin, ularda detallashtirilgan tasvir, obrazlar tasviri, xarakteristikasi berilgan. Tarixiylikning bunday xarakteri voqelikdagi konkretlikning yetimasligi bilan emas, balki, bir tomondan, janr strukturasi tarixiy-tipologik hususiyati bila, ikkinchi tomondan, qo'shiq ijodkorlarining kollektivlik xarakteri bilan izohlanadi. Chunki bu tipdagi tarixiy qo'shiqlarda voqelikni epik planda aks ettirishdan ko'ra ana shu voqelik haqidagi mehnatkash xalqning g'oyaviy-estetik bahosini ifodalash yetakchilik qiladi.

Xulosa. Real hayotda kechyotgan turli-tuman voqealar na faqat kollektiv diqqat nazarida, balki ana shu kollektivning nisbatan iqtidorli ijodkorlari-baxshilarining diqqat-e'tiborida ham turadi. Ularning har bir voqea-hodisa haqidagi g'oyaviy bahosi, ularni tasvirlashdagi estetik yo'li ham ayricha bo'ladi. Binobarin, real tarixiylikda kechgan yoki kechyotgan tarixiy voqealarga hozirjavoblik bilan yaratilgan ixcham liro-epik strukturadagi, professional ijodkorlar tomonidan yaratilgan har bir asar tarixiy qo'shiq sanaladi. Demak, o'zbek fol'klorida kollektiv ijodi mahsuli bo'lmish kichik hajmdagi, asosan lirik qo'shiqlar shaklidagi tarixiy qo'shiqlardan tashqari yirik liro-epik shakldagi tarixiy qo'shiqlar ham mavjudki, bu tipdagi tarixiy qo'shiqlarga xos tarixiylik o'zlarining konkretligi, muayyan tarixiy personaj, xronotop bilan aloqadorligi bilan alohida ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy fol'klar janrlarining har biriga xos tarixiylik qotib qolgan, barqaror hodisalar emas. Real hayot tinimsiz harakatda ekan, shu hayotdan nafas olib yashayotgan ijodkorlar ham tinimsiz izlanishda ekan, har bir janrga mansub tarixiylik ham o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Bu narsa og'zaki proza janrlari uchun ham, tarixiy qo'shiq va doston janrlari uchun ham taaluqlidir. Mana shuning uchun ham tarixiy fol'klorning u yoki bu janriga xos tarixiylikning o'zgarishi bevosita shu janrlarning strukturasi ta'sir ko'rsatishini to'g'ri ilg'ash, ularni qonuniy hodisalar sifatida qabul qilish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ачилов Т. Исторические основы дастана «Маматкарим палван». Канд.дис. –Ташкент, 1966.
2. Бобаев М. Типология принципов историзма узбекского народного эпоса. –Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1983.
3. Bobayev M. O'zbek xalq romanik eposiga xos tarixiylik tipi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №3.-B.26-31.
4. Bobaev M. O'zbek qahramonlik eposidagi ko'p qatlamlilik va tarixiylik// O'zbek tili va adabiyoti, 1988, №2. –B.52-56.
5. Жирмунский В.М.Тюркский героический эпос. Избранные труды. –Л.,1974.
6. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –М., 1947.
7. Jumanazarov U. Bir taqdir – ikki qo'shiq// “Saodat”, 1987, №5, -B.12.
8. Jumanazarov U. Jasorat va sadoqat talqini. – Toshkent, 1989.
9. Jumanazarov U. Jangovar yillar xalq poeziyasi. Toshkent, “Yosh gvardiya”, 1988.
10. Жуманазаров У. Историзм народных исторических образов и социальная обусловленность // Материалы научной конференции профессорско-преподавательского состава Джизакского госпединститута. –Ташкент, 1989.-С.28.
11. Жуманазаров У. Узбекские народные исторические песни. –Ташкент, 1989.
12. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. – Toshkent, 1990.
13. Jumanazarov U. Tarixiy folklorning dastlabki namunalari. – Toshkent, 1987. O'zbek tarixiy-inqilobiy fol'klori. – Toshkent. 1988.
14. Jumanazarov U. Etnonimik rivoyatlarda xalq epik tarixi // Etnokul'turnye problemy narodov Sredney Azii. –Djizak, 1989. –S.120-122.
15. Jumanazarov U. Qo'shiq – xalq tarixi// “Yosh kuch”, 1987, №11, B.26-27.
16. Jumanazarov U. Isyonkor tarix// “Guliston”, 1981, №5. –B.28-29.
17. Zarifov X.T. Osnovnye motivy eposa «Alpomush»// Ob epose «Alpomush». –Tashkent, 1959; -S.6-22.
18. Imomov K. O'zbek xalq prozasi janrlarining tarixiylik printsiplari // O'zbek tili va adabiyoti. 1984, №5. –B.34-38.
19. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – Toshkent, 1981. –B.73-82
20. Путилов Б.Н. Фол'клор и народная кул'тура. — СПб.: Наука, 1994.
21. Qalandarova M. O'zbek fol'klorida milliy ozodlik kurash motivlari. – Toshkent, 1982.

Muallif:

Jumanazarov Umirzoq Abdurazzoqovich - Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

УДК 811 · 81-2 · 81-13

ON THE LINGUOPOETICS OF METONYMS IN THE LANGUAGE OF FOLK EPISTLES

XALQ DOSTONLARI TILIDA METONIMIYALAR LINGVOPOETIKASI

ЛИНГВОПОЭТИКА МЕТОНИМИИ В ЯЗЫКЕ НАРОДНЫХ ЭПОС

Jumanazarova Guljahon Umirzakovna

Jizzaxdavlat pedagogika universiteti, Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4- uy,

E-mail: guljahon1980@mailru.

Abstract. Metonymy, like metaphor, is one of the linguistic and cultural units that ensure the artistic nature of Uzbek folk epics. It is "in linguistics, it is called a different name for something or an event." This concept is explained almost identically in most academic literature on poetics, terminological dictionaries and textbooks. All of them talk about the characteristics of metonymy, and it is emphasized that this migration is based on connection, belonging and proximity between the object and the transferred meaning. According to A.A. Potebnya in the world, especially in Russian linguistics, the phenomenon of metonymy is one of the types of naming, which is naming according to the relationship (connection) between things, signs, and actions. "Such relational name transfer is not as obvious as in metaphor. H.Shamsiddinov writes that the transfer of the name in metonymy takes place in a gradual manner, and again puts forward the thesis that: "Through the transfer of the name, the functional meanings of the words, different from their own meanings, arise" and that the emphasized meaning creates a synonymous relationship with the word that is the name of another concept. emphasizes. As stated in the scientific literature, "There is a certain commonality, connection (connection) between certain objects, symbols, and actions in the objective existence. Because of this, the name of a thing, sign or action is also used to represent another thing, sign, action with which it has a connection (generality), and becomes a name for it. As a result, a word that is the name of one object, symbol or action becomes a term for two or more objects, symbols or actions - the number of meanings of the word increases. Taking into account this point of view, when we observe the process of formation of a new meaning in the language of epics, it first of all confirms that a certain meaning is formed on the basis of a non-linguistic phenomenon. In the article, the poetic properties of metonymies in Uzbek folk epics in providing artistry, the relationship between the object of this linguistic and cultural unit and the transferred meaning, are researched.

Key words: folk epics, artistic, poetic, linguistic and cultural unity, migration, bakhshi, epic, text.

Аннотация. Метонимия, как и метафора, является одной из лингвокультурных единиц, обеспечивающих художественность узбекского народного эпоса. Это «в языкознании другим именем называют что-то или событие». Практически одинаково это понятие объясняется в большинстве научной литературы по поэтике, терминологических словарях и учебниках. Все они говорят об особенностях метонимии, при этом подчеркивается, что эта миграция основана на связи, принадлежности и близости объекта и переносимого значения. По мнению А.А. Потебни, в мире, особенно в русском языкознании, явление метонимии представляет собой один из видов именования, то есть именованное по отношению (связи) между вещами, знаками и действиями. «Такой ассоциативный перенос имени не так очевиден, как в метафоре. Х.Шамсидинов пишет, что передача имени в метонимии происходит постепенно, и далее выдвигает тезис о том, что «таким образом, посредством передачи имени, создаются функциональные значения слов, отличные от их собственных значений». и что подчеркнутое значение создает синонимическую связь со словом, которое является названием другого понятия. Как сказано в научной литературе: «Между определёнными предметами, признаками и действиями в предметном существовании существует определенная общность, связь (связь)». В силу этого название вещи, знака или действия используется и для обозначения другой вещи, знака, действия, с которыми оно имеет связь (в общем), и становится для него именем. В результате слово, являющееся названием одного предмета, символа или действия, становится термином для двух и более предметов, символов или действий – количество значений слова увеличивается. С учетом этой же точки зрения, когда мы наблюдаем процесс образования нового значения в языке былин, это прежде всего подтверждает, что определенное значение формируется на основе неязыкового явления. В статье исследуются поэтические свойства метонимии в узбекском народном эпосе в обеспечении художественности, взаимосвязь предмета этой лингвокультурной единицы и передаваемого смысла.

Ключевые слова: народный эпос, искусство, поэтика, лингвокультурное единство, миграция, бахши, эпос, текст.

Kirish. Jahon tilshunosligida epos tili va u bilan bog'liq lisoniy birliklarni o'rganish, leksikografik manbalarini yaratish, leksik qatlamlarining tarkibini aniqlash va tasniflash, matnning lingvostatistik tahlilini amalga oshirish, lisoniy belgining ma'nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topgan, o'zida milliy axborotni ifodalovchi lingvomadaniy birliklarning qo'llanishi va badiiyatini ochib berish soha rivojini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir.

Mustaqillik yillarida ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Xususan,

xalqimizning o'tmishini hikoya qiluvchi dostonlarning jamiyat va millat tarixidagi o'rnini belgilashga, ko'p jildlik namunalari tayyorlash va nashr etishga, ularning ilmiy va badiiy-estetik qimmatini yoritishga muhim masalalardan biri sifatida qaraldi. Natijada, dostonlar tilidagi lingvomadaniy birliklarning badiiy-estetik tabiati va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga oid tadqiqotlarning natijalari «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Xalq dostonlari tili o'xshatishlarining izohli lug'ati»ni yaratishga asos bo'lgan manbalardan biri bo'ldi.

Tilshunoslikda lisoniy birliklar (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) ning badiiy-estetik vazifalarini o'rganuvchi lingvopoetika sohasi ko'plab tilshunos olimlarining e'tiborini tortgan. Jumladan, dostonlarning tipologik xususiyatlari, lingvomadaniy birliklarning qo'llanish me'yorlari va matndagi vazifalari o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida xalq dostonlari tilining lisoniy va badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, baxshining lingvomadaniy birliklardan foydalanishdagi poetik mahoratini asoslash mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shu ma'noda, Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari leksikasi lug'aviy qatlamlarini ochib berish, ularning vazifaviy-mazmuniy xususiyatlarini aniqlash, dostonlarning leksikografik manbalarini yaratish, doston tiliga xos fonetik, leksik-grammatik birliklarning qo'llanish darajasini aniqlash, struktur-semantik xususiyatlarini asoslash, lingvopoetik tahlilini amalga oshirish va, o'z navbatida, bundan dunyo ilm-fanini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Xalq dostonlari tili va badiiyati yuzasidan o'zbek tilshunosligida bir qator dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan: ularda dostonlarning lug'aviy, leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlari, qiyosiy-tarixiy tahlili, poetik ko'chim va barqaror uslubiy formulalar maxsus o'rganilgan. Maqolaga Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari o'bekt qilib olingan. Tadqiqotda tahlil, qiyoslash metodlari qo'llanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Antik davrlardan hozirgacha metafora deb nomlangan nutq hodisasi dunyoni badiiy mushohada qilish jarayonida yuzaga keluvchi so'zdagi nominativ ma'noning o'ziga xos hosilasi sifatida olimlar e'tiborini jalb etgan. Masalan, ispaniyalik olim X.Ortega – i – Gasset obrazli qilib: “metafora tafakkurning qo'lini uzaytiradi” [11], “poeziya bu metafora: ilm esa metaforaga murojaat qiladi xolos, bundan ortiq ham, kam ham emas” [11:68], deb ta'kidlaydi. Amerikalik R.Xofman: “metafora nihoyatda hammabop. ... u ta'riflash va tushuntirish quroli sifatida xohlagan sohada qo'llanilishi mumkin: psixoterapevtik suhbat jarayonida va avialiniyalardagi uchuvchilar so'zlashuvda, marosim raqslari va programmalashtirish tilida, badiiy tarbiyada va Kvant mexanikasida. Metafora, u bizga qaerda uchramasin, doimo inson xatti-harakatlari, bilimlari va tilining tushunilishini boyitadi” [11] degan mulohazani aytadi. Metaforalar ko'chimler orasida eng xarakterli emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi sermahsul badiiy tasviriy vositalardan biri sifatida rus tilshunoslari va adabiyotshunoslarini ham qiziqtirgan: ular metaforalarning inson ruhiyati va tafakkuridagi o'ziga xos o'rnini belgilashga, genezisi va taraqqiyoti qonuniyatlarini izohlashga erishdi, badiiy ijod uchun zaruriy hodisa hisoblanishini isbotlab berdi.

Turkiy va o'zbek tilshunosligidagi amalga oshirilgan ishlarda so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tufayli metaforaning yuzaga kelishi, ularning sof lingvistik tabiati hamda badiiy turlari mavjudligi e'tirof etilgan. Mutaxassislar qayd etganlaridek, insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash alohida usul hisoblanadi, o'xshatishning asosida ham, metaforaning asosida ham ayni usul mavjud. Aslida metafora ham o'xshatish, faqat u yashirin yoki qisqargan o'xshatishdir. Tilshunosligimizda har ikki hodisada o'xshashlik va qisman farq mavjudligi haqida talay tadqiqotchilarning ta'kidlari mavjud. M.Mukarramov ular orasidagi munosabatni quyidagicha ko'rsatadi: 1) o'xshatishlarda so'zlar o'zining to'g'ri ma'nolari bilan qiyoslansa, metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda qo'llaniladi; 2) o'xshatishda ikki komponent: o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshovchi obrazlar ma'lum bir belgi asosida bir-biri bilan qiyoslansa, metaforada o'xshovchi obrazni ifodalagan so'zning o'zi o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshatma belgi mazmunini ham o'zida olib keladi. Ya'ni metafora bir komponentlidir; 3) o'xshatishlar kengayib, birikma, bir gap, hatto bir abzats holda kelishi mumkin. Metaforalar esa bunday kengayish xususiyatiga ega emas. Ular ko'chma ma'nolikni ifodalagan bir so'zdan yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi; 4) lingvistik metaforalar so'zning ma'no doirasini kengaytirib, yangi semema (ma'nolar) hosil qilish uchun baza bo'ladi. O'xshatishda bunday xususiyat faqat metafora orqali ifodalanadi; 5) o'xshatishlar ko'pincha – day // –dek, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq va boshqa vositalar orqali yuzaga keladi. Metaforalarda bu vositalarga ehtiyoj sezilmaydi [7]. M.Yoqubbekova ushbu dalillarga qo'shilgan holda, xalq qo'shiqlarida qo'llanilgan o'xshatish va metaforalarning tabiatidan kelib chiqib, quyidagilarni qo'shimcha qiladi: 1) o'xshatishlarda timsol asosni inkor qilmaydi, metaforada esa inkor implitsit ravishda ifodalandi; 2) o'xshatishlarda qiyoslash tariqasidagi psixologik jarayon ketayotgani ko'zga tashlanadi. Metaforaning qo'llanilishi esa so'z o'yini kabi baholanishi mumkin; 3) o'xshatishlarda qiyoslashning ko'proq hozirgi paytda o'tkazilayotgani anglashilsa, metaforadagi xususiyat davomli, doimiy bo'ladi. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslarini puxta o'rgangan M.Yo'ldoshev ham har ikkala hodisa orasidagi munosabatni to'rt bandda belgilab beradi.

Tilshunosligimizda metaforalarning tavsiflari haqida ham muayyan mulohazalar bildirilgan. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalarning ilmiy-nazariy asoslari aniqlandi. Xususan, D.Xudoyberganova matn semantikasida mavjud bo'lgan kognitiv metaforalarni til sathiga ko'ra to'rt guruhga bo'lib o'rganadi: a) so'z shaklidagi metaforalar; b) so'z birikmasi shaklidagi metaforalar; v) gap shaklidagi metaforalar; g) mikromatn shaklidagi metaforalar. M.Mukarramov

metaforalarni lingvistik va badiiy, A.Abdullaev ot va fe'l metaforalariga bo'linishini aytadi. G.Qobuljonova o'zbek xalq topishmoqlari misolida metaforalarning sistemaviy lingvistik talqini muammosini o'rganishda quyidagi tasnifni beradi: metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra (asos va yo'llovchi metafora); sintagmatik qatordagi munosabat belgisiga ko'ra (ochiq va yopiq metafora); nomlanish jarayonining tabiatiga ko'ra (ekspressiv va noekspressiv metafora); hosil bo'lish doimiyligiga ko'ra (muntazam va nomuntazam metafora); amaliyot sathiga ko'ra (lug'aviy va grammatik metafora).

Badiiy ko'chimlardan metaforalar haqida fol'klar namunalari tahliliga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda ham yo'l-yo'lakay bildirilgan fikrlar mavjud va maxsus ishlar qilingan. X.Q.Toshmatov metafora hodisasini o'rganishda 3 xil (psixologik, etnografik va tarixiy) talqin mavjudligini ko'rsatib, metaforani aniqlashda ham ruhiy, ham aqliy, ham nutq jarayonida va inson tafakkurining favqulodda kashf qilish holatlari teng hisobga olinishi lozimligini qayd etadi. M.Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda ana shu kontsepsiyaga qo'shiladi va bu borada: "... Metaforik ma'no mantiqiy mushohadaga asoslangan nutqiy hosila bo'lsa-da, u xalq qo'shiqlarida badiiyat mezonlariga bo'ysunib, lisoniy imkoniyat va qonuniyatlarga tayanadi. Metafora assotsiativ nomlash, obrazli tasvirga olish ko'zda tutilganlik uchun ham qo'shiq matnidagi metafora badiiy tafakkur mahsuli sifatida lisoniy imkoniyatlarning badiiy mezonlar asosida voqe bo'lishi sifatida baholanmog'i kerak" [3], - degan mulohazani aytadi.

Metaforadagi assotsiatsiyaga ko'ra nomlash, obrazli tasvirlash, ekspressivlik ifodalash kabi yetakchi lisoniy xususiyatlar xalq dostonlari tilida epik qahramonlarning muayyan his-tuyg'usini, ruhiyatidagi o'zgarishlarni va kayfiyatini aniq, yorqin, ixcham, eng muhimi, ta'sirchan tarzda yuzaga chiqish imkonini beradi. Metafora ixchamligi, semantik serqirraligi bilan ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va ko'chma ma'no keltirib chiqaruvchi birikma vositasida epik qahramonning yorqin, ta'sirchan obrazini tasvirlaydi, emotsional-ekspressiv baho ifodalab, dostonlar badiyatini oshiradi. M.Yoqubbekova to'g'ri ta'kidlagandek, metaforalar xayolot parvozig, tasavvur, tahlil va talqin rang-barangligiga, ya'ni serqirra badiiy mushohadaga yo'l ochadi. Badiiy tasvirdagi ta'sirchanlik, emotsional-ekspressivlik metaforada o'xshatish va sifatlashnikiga nisbatan kuchliroqdir [3]. Bunga faqat metaforik "lakonizm"gina emas, balki metaforadagi e'tirozga o'rin qo'ymaydigan qat'iy hukm ham ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, lingvomadaniy birliklardan metaforalar haqida fol'klar namunalari bag'ishlangan ishlarda muayyan mulohazalar bildirilgan, maxsus tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilshunosligimizda Fozil shoir dostonlari tilidagi poetik ko'chimlarning lisoniy tabiati, xususan, metaforalarning poetik va semantik mohiyati, lisoniy vujud, ularning grammatik va stilistik xususiyatlari maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilsa-da, lekin ular hanuzgacha o'rganilmagan. Shu boisdan, tadqiqotimizning ushbu faslida dostonlar tilidagi metaforalarning poetik va lisoniy, badiiy-uslubiy tabiatiga e'tibor berdik.

Dostonlar tilidagi metaforalarning lisoniy tabiati va bajargan uslubiy vazifalari xilma-xil: predmet ma'nosini bildirgan metaforalar asosan, atash vazifasini bajargan; belgi va harakat bilan bog'liq metaforalar esa ekspressivlik va obrazlilikni hosil qilgan. Metaforalarning badiiy vazifalari, asosan, ikkita: birinchisi – doston syujeti oqimiga daxldor epik voqelik yoki qahramonga xos xususiyatni betakror, favqulodda tasvirlash; ikkinchisi – ana shu tasvir, ifoda vositasidagi epik voqelik yoki qahramon faoliyatini baholash, unga munosabat bildirish. Fozil Yo'ldosh o'g'li ana shu ikki mezonga amal qilgan holda yuksak mahorati va badihago'yligi asosida metaforalarning go'zal namunalari yaratgan.

Metaforaning poetik mohiyati usta baxshining dostonlar ijrosida uslubiga mos muayyan epik qahramon, narsa, voqea-hodisa, harakat va holatni o'ziga xos baho bilan nomlashida yuzaga chiqadi. Bunda albatta yangi nom "gapiruvchi" bo'lishi zarur. Ayni nom "gapirganda" ham, doston matni nazm yoki nasr holatda bo'ladimi, do'mbira jo'rligidagi ijro tarzida bo'ladimi, eng muhimi, ma'naviy-estetik istifoda etilganda, bu ikkilamchi nomlash barchaga barobar tushunarli, obrazli va ta'sirchan bo'lishi zarur. Demak, xalq dostonlari tilida qo'llanilgan metaforalar o'xshashlik asosida nomlari almashtirilayotgan ikki narsa va hodisaning o'rtasidagi bog'liqlikning badiiy tafakkur vositasida baxshilarning ijrosida zuhur bo'ladigan tasviriy vosita sifatidagi lingvomadaniy birlikdir.

Xalq dostonlaridagi metafora lingvopoetik xususiyat va badiiy mohiyat kasb etishi uchun ta'kidlangan mezonlardan tashqari yana bir qator talablarga javob berishi kerak. Xususan, metaforalar «odatdagi atalishlardan maqsadlilik bilan farq qilinishi va ma'qullanishi; bu farq qabul qilinishi, shuningdek, metaforizatsiya hodisasi zavq uyg'otishi kerak. Agar shu shartlar bajarilmasa, bu metafora uzoq yashamaydi va ehtimolki, boshqa yorqinroq tasviriy vosita bilan almashadi» [3]. Metaforalarning ayrimlari dostonlar tilida evfemik ifoda sifatida yuzaga kelsa ham, ularning faol qo'llanish natijasida o'z evfemik xususiyatini yo'qotgan.

Jahon tilshunosligida bundan qariyb qirq yil avval metaforalarning semantik mohiyati Yu.Stepanov tomonidan belgilangan, ya'ni: "metaforalar semantik jihatidan denotat, signifikat, eksponent kabi uchta tushunchalarning o'zaro mutanosib aloqasiga asoslanadi" [10]. Ayni mulohaza o'zbek olimlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Ularning ba'zi ishlarida uchburchak unsurlarining o'zaro munosabatini denotat va eksponentni o'zaro qiyoslash bilan aniqlash mumkinligidan samarali foydalanilganligini ko'ramiz. Bu borada tilshunosligimizda bildirilgan barcha fikr-mulohazalarni e'tirof etgan holda, biz ham Fozil shoir dostonlari tilidagi metaforalarning semantik mohiyatini o'rganishga harakat qildik. Natijada, matndagi denotat (ob'ektiv borliqdagi narsa), signifikat (anglatilgan konnotativ ma'no) va eksponent (qo'llanilgan fonetik so'z)ning mohiyati belgi, inson, narsa, hayvonot, muayyan harakat-holat va hodisotni bildiruvchi

nomlarda ifodalaganligini kuzatdik. Tadqiq jarayonida xalq baxshisi qo'llagan metaforalar asosan ot, sifat, fe'l va birikmali metaforalar ekanligi aniqlandi.

Metonimiya o'zbek xalq dostonlarining badiiyligini ta'minlashdagi lingvomadaniy birliklardan biri. U "tilshunoslikda biror narsa yoki hodisani boshqacha nomlash deb yuritiladi" [43]. Bu tushuncha poetikaga oid ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda, terminologik lug'at va darsliklarda deyarlik bir xil izohlanadi. Ularning hammasida metonimiyaga xos xususiyatlar haqida so'z yuritilar ekan, mazkur ko'chimning narsa bilan ko'chirilgan ma'no o'rtasida aloqadorlik, mansublik va yaqinlikka asoslanishi alohida ta'kidlanadi. Dunyo, xususan, rus tilshunosligida A.A.Potebnyaning ko'rsatishicha, metonimiya hodisasi nom qo'yish turlaridan biri bo'lib, u narsalar, belgilar, harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka (bog'liqlikka) ko'ra nom qo'yishdir. "Bunday o'zaro aloqadorlikka asoslangan nom ko'chishi metaforadagidek yaqqol ko'zga tashlanib turmaydi. Metonimiyadagi nom ko'chishi tadrijiy tarzda kechadi" deb yozadi H.Shamsiddinov va yana: "Bunday yo'l bilan nom ko'chishi orqali so'zlarning o'z ma'nolaridan farq qiluvchi vazifaviy ma'nolar yuzaga keladi" degan tezisni ilgari suradi va ta'kidlanayotgan ma'no boshqa bir tushunchaning nomi bo'lgan so'z bilan sinonimik munosabatni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.

Xalq dostonlari tilidagi ot metaforalar odatiy so'zlarning ma'no doirasini kengaytirib, yangi-yangi semalar hosil qilishga xizmat qiladi. "Metaforalar ot bilan ifodalanganda: jonivorlar, o'simliklar, osmon jismlari, tabiat unsurlari, narsa-qurollar, oziq-ovqatlar, obrazlarni ob'ekt o'rnida keltiradi". Baxshi dostonlari tilidagi ot metaforalarda ekspressivlik epik qahramonning narsa, belgi, voqelikka bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati nuqtai nazaridan zohir bo'lgan: *Xabar bergin, bo'tam, qaydan kelasan? / Qay shaharda, qaysi shohning ulisan? (B.G.:24); Qani qo'lda bo'lsa ul ixtiyorim, / Izlab kepti shunday lochin shunqorim! (Z.:115); Turakel, o'rningdan, munda qolmagin, / Hali yotsang, qo'zim, behol bo'lmagin (L.M.:285)* kabi.

Dostonlar tilidagi metaforalarning ichida predmetlik xususiyati kuchli bo'lgan otli (ob'ektili) birikmalardan iborat metaforalar qo'llanishiga ko'ra anchayin faol. Ular turli xil hayvonlar va jonivorlarni (bulbul, biya, suqsur, ot, toy, qo'zi, sher, shunqor, lochin, qarchig'ay, qush, g'oz, qo'zi, tulki, bo'ri, shaqal kabi); o'simliklar va ularning hosilasini (gul, gulzor, lola, chinor, yaproq, g'uncha, olma kabi); turli xil narsa va qurollarni (dur, gavhar, libos, adras, kimxob, marjon, qilich kabi); epik makon va o'rin-joylarni (yurt, mamlakat, shahar, bog', gulzor, lolazor, qir, adir, tog' kabi); osmon jismlarini (oy, oftob, yulduz kabi); fasl va payt ma'nolarini (erta, choshgoh, bugun, qirq kun, shom, bahor, kuz, qish kabi); shaxslarni va epik qahramon nomlarini (ota, ona, pari, cho'ri, parishta, dev, ajdarho, qul, Misqol pari, Gulnorpari, Go'ro'g'li, Avazxon kabi) bildiradi. Shuningdek, dilbar, jigarband, nuridiyda, jon kabi abstrakt otlar ham halq dostonlarida metafora tarzida qo'llanilgan.

Dunyodagi har bir xalqning badiiy taffakuri uning tarixi, dunyoqarashi, yashash sharoiti, ishonch-e'tiqodi bilan bog'liq. N.Mahmudov ta'biri bilan aytganda, "xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o'ziga xoslik, ya'ni milliy madaniy va milliy-konnotativ ma'lumotlar" [5] bevosita lingvomadaniy birliklarda o'z ifodasini topishi tayin. Shu ma'noda, turli xil lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaga, masalan, hayvon va jonivorlarga munosabat har xil. Mutaxassislar haqli ravishda ta'kidlaganidek, mol (sigir, ho'kiz) hind xalqi orasida eng yumshoq ko'ngil, mehr-muhabbatli jonivor sanaladi va izzat-hurmat bilan qadrlanadi, ko'pincha unga e'tiqod qilinadi. Shu boisdan ham hindlarda bu jonivor nomiga ijobiy tavsif beriladi va metafora sifatida tanlanadi. Ko'pchilik, boshqa xalqlarda, jumladan, turkiy tillarda "mol" – "bo'shang", "lapashang", "beforasat" kabi ma'nodagi metaforani beradi. Shubhasiz, bunday tasavvur va atamalar o'zbeklarda ham mavjud (masalan, muayyan insonga nisbatan og'zaki nutqda: molday odam, molday yumshoq, molday beforasat kabi). Lekin molga nisbat berilgan metaforaning namunasi o'zbek xalq dostonlari tilida uchramadi.

A.N.Veselovskiy bir o'rinda: "Bizning barcha metaforalarimiz ikki guruhga bo'linadi: biri animizmning dastlabki g'oyalari borib taqalsa, ikkinchisi taraqqiyot so'ngida, ko'rsatib o'tilgan parallellarning aralashuv natijasida yuzaga kelgan", - degan fikrni ta'kidlasa, boshqa o'rinda, "Metaforalarning katta bir qismi miflarga, animizmga borib taqaladi", deydi. Shunday ekan, har bir tilda Lyasota Yu.P. ta'kidlaganidek, "metaforizatsiya jarayoni o'ziga xos holda namoyon bo'ladi". Olimlarning bu fikrlarini o'zbek xalq dostonlari tilidagi metaforalar ham tasdiqlaydi.

Jonivor va hayvonlarning nomlari bilan bog'liq metaforalarning o'rganilgan dostonlar tilida faol qo'llanilishi, tabiiyki, ko'chimning obraz, ko'pincha muayyan epik qahramon o'rnida almashlanib qo'llanilishini bildiradi. Bunday tipdagi metaforalar ayni qahramonning u yoki bu xislatini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatishga va badiiy tasvirlashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, jonivor va hayvonlar hayoti, ularning xatti-harakatlarini kuzatish ko'pchilik xalqlarda mazmunan o'xshash metaforalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham biz eramizdan avval qadimgi Gretsiya, Hindiston va Misrda yaratilgan masallardagi allegoriyani tushunamiz, ulardagi allegorik obrazlarga duch kelamiz. Qirg'iz qahramonlik eposi "Manas"dagi metaforalarni tadqiq etgan N.Saparboevning ta'kidlashicha, "rus, nemis, shuningdek, turkiy tillarda tulki – "ayyor", "ustakor kishi", quyon – "qo'rqq", eshshak – "go'l", sher – "jasur", "qo'rqmas" kabi (istioralanadi) metaforizatsiya qilinadi".

Dostonlardagi jonivorlar nomlaridagi metaforalar epik qahramonlarning u yoki bu xislatini yanada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan. Muayyan hayvonlarga xos ijobiy yoki salbiy munosabatlarning metaforalar orqali ifodalanishi xalqimizning qadimiy totemistik e'tiqodiga va hayvonlar kul'tiga bo'lgan ishonchiga asoslanganligidan kelib chiqqan.

Tabiat, hayvonot va nabotot olamiga xos bo'lgan xususiyatlarni insonga ko'chirish asosida hosil bo'lgan fe'l metaforalar ham baxshi dostonlari tilida anchagina uchraydi. Bunday metaforalardan anglashilgan harakat ekspressivlik, intensivlik kasb etgani uchun tinglovchida yorqin tasavvur qoldiradi. Bu borada A.Abdullaev "Fe'l metaforalarda ekspressivlik, asosan, holatning intensivligi nuqtai nazaridan bo'ladi" [17] deb aytsa, M.Yoqubbekova «hayvon, parranda, o'simlik, hasharot kabilarga xos harakat-xususiyatlarni insonga ko'chirish orqali yaratiladi» [3] degan xulosani beradi. Ushbu mulohazalarning ishonchligini e'tirof etgan holda, ayni o'rinda, faqatgina bo'zlam, so'lmoq fe'llaridagi metaforalarga e'tiborni qaratish bilan cheklanamiz: *Ishqida yurib bo'zlasam, / Kecha-kunduz men izlasam (F.Sh.:225)*, *Yor yurti deb qonlar yig'lab, / Gul yuzim so'ldi, naylayin (M.a.:59)*; *Bunday ishlar mening bag'rimni tuzlab, / Esima tushganda yig'layman bo'zlab, (B.:19)*; *Qizil gulman, meni muncha so'ldirma, / Ko'p to'xtatib, yo'ldan urib o'ltirma, (R.:379)*.

Fozil shoir dostonlari tilidagi qo'llanilgan metaforalar tuzilish tabiatiga ko'ra ikki xil ekanligi kuzatildi: a) sodda metaforalar bir leksik ma'noni anglatuvchi (sodda, yasama, qo'shma, juft) so'zdan iborat bo'ladi: gulim, gulzorim, qo'zim, jonu dilim kabi; b) kengaytirilgan metaforalar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi: oltin xanjar, qizil, gul kabi. Har ikkala metaforalar ham xalq dostonlari matnidagi mavhum tushunchalarni, qahramonlarning muayyan his-tuyg'usini, ehtiros va hayajonini, ruhiyatini, biror narsa yoki hodisotga munosabati va bahosini aniq, yorqin va o'ta ta'sirchan tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Xalq dostonlarida birikmali metaforalar kam qo'llanilgan bo'lsa-da, ular mazmunan kengaytirilgan metaforalarga teng keladi. Bunday birikmalar metafora ma'nosini ikki yoki undan ortiq so'zning grammatik aloqasi orqali ifodalaydi va quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

a) sifatlovchili birikmalar. Bunday birikmalarda sifatlanmish o'zi yolg'iz metoforik ma'noni ifodalay olmaydi, matnda ular asosan, sifat+ot yoki ot+sifat modeli asosida tarkib topadi: *Bu shirin jonimga qilma jabrdi (B.:82)*; *Shirin so'zli kimning yori? (L.M.:279)*; *Uchirdim boshimdan davlat qushimni, (B.:15)*; *Xafa qipti senday toza gulimni, (R.:397)*; *Sen o'ldirgin menday dilbar gulingni (Sh.Sh.:15)*; *Olib ketay senday gulbuvishimni (Sh.Sh.:55)*; *Bunda qaydan kelding, gul yuzli jonon (Z.:194)*; *Sulaymon davlatli aziz sultonim, / Gul yuzli sultonim, holing na bo'ldi? (Z.:123) kabi.*

b) qaratqichli birikmalar. Bunday birikmalar matnda asosan, ot+ot yoki ot+sifat modeli asosida tarkib topadi: bog'imning guli, chamanning bulbuli, oshiqning fahmi, miskinning holi, shirin joning, bog'larning guli, davlatmandning manzili, g'amli qulning dodi kabi. Ko'ramizki, ta'kidlanayotgan birikmalarda qaratqich aniqlovchini uning qaralmishi bo'lgan so'zdan ajratilsa, ma'noga putur yetadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "Ob'ektiv borliqdagi ayrim narsa-predmetlar, belgilar, shuningdek, harakat o'rtasida ma'lum umumiylik, aloqa (bog'lanish) bo'ladi. Ana shuning ta'sirida biror narsa, belgi yoki harakatning nomi u bilan aloqasi (umumiyli) bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakatni ifodalash uchun ham qo'llanadi, unga ham nom bo'lib ko'chadi. Natijada, bir predmet, belgi yoki harakatning nomi bo'lgan so'z ikki yoki undan ortiq predmet, belgi yoki harakatning atamasiga aylanadi – so'zning ma'nolar miqdori ortadi" [19]. Ayni nuqtai nazarni e'tiborga olgan holda dostonlar tilidagi yangi ma'noning shakllanish jarayonini kuzatganimizda, avvalo, muayyan ma'no nolingvistik hodisa asosida yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Masalan, birgina iz so'zini olaylik. Bu so'zning asosiy ma'nosi bilan oyoq izi, yo'lbars izi, tuyoq izi kabi birikmalardagi ma'nosi o'rtasidagi aloqa (bog'lanish) borligini sezish qiyin emas. Buning uchun dostonlar matnidan olingan misollarga e'tibor beramiz: *Bizlar bunda g'amga to'lib bexabar, / Bahromning iziga bo'lib intizor (B.G.:72)*; *Zangarda podshoman, eshit so'zimni, / Bir nechalar topolmaydi izimni (Z.:150)*; *Har bosgan izingni tinmayin izlar, / Yur endi mazgilga eltay, jon bolam (L.M.:297)*; *Avaz deb yugurdim sening izingdan, / Quralayday kelgan jodu ko'zingdan (M.a.:25)*; *Mard yigit maydonga kirsam yelgisi, / To'qayda yo'lbarsning izin bilgisi (Sh.Sh.:16)*; *Farhodan bu so'zni elchi eshitdi, / Ul elchilar iziga qaytdi (F.Sh.:204) kabi.*

Tilimizdagi aloqadorlik, ya'ni bog'liqlik faqat biror narsa – predmetlar doirasi bilan chegaralanib qolmasdan, bu hol belgi va xatti-harakatlar o'rtasida ham mavjud bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham aloqadorlik (bog'liqlik) asosida nom ko'chishi, ya'ni yangi ma'no hosil bo'lishi deyarlik hamma so'z turkumlariga xos xususiyat sanaladi. Xalq dostonlari tilidagi predmet bildiruvchi so'z (ot)larda metonimiya asosida nom ko'chishi holati eng faol sanaladi, ulardagi aloqadorlik xilma-xil ko'rinishlarga ega. Ularning ayrimlari haqida so'z yuritamiz.

Tilimizda ba'zan biror harakat, o'yin ob'ekti shu harakat, o'yinning o'ziga ko'chish kabi lisoniy holat uchraydi. Misol uchun milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lmish ko'pkaridagi muayyan xatti-harakatlarni olaylik. Unda chavandozlarning o'yin musobaqasiga echki (uloq)lar so'yilib beriladi. Aslida, echki (uloq) ana shu o'yin, musobaqaning ob'ekti. Shu aloqadorlik asosida o'yin-musobaqa, ya'ni ko'pkarining o'zi ham ko'pchilik hududlarda uloq nomi bilan ifodalanadi. Mazkur ob'ektning nomi o'yin-musobaqa (ko'pkari)ga ko'chganligini, ya'ni yangi ma'noning nolingvistik hodisa asosida yuzaga kelishini baxshi dostonlari tilida ham kuzatamiz: *To'yxonaga yaxshi unlar yoptirib, / Ko'pkari qing, bunda uloq choptirib (B.:98)*; *Oltin yetib, oltin qovoq otdirib, / To'y bermoqchin endi uloq choptirib (M.a.:205)*; *Necha kun Avaxxon bosh bo'p to'y berdi, / O'zbek rasm bunda uloq choptirib (N.:193) kabi.*

Ovloq so'zini olaylik. O'TILda bu so'zning "1. ov qilinadigan qush va hayvonlar serob joy. 2. Markazdan uzoq, chet joy, kimsasiz yer. 3. Pasqam, xilvat joy, odamdan holi joy; pasqamlik, xilvat" (III, 78-79) ma'nolari mavjudligi qayd etilgan. Ko'ramizki, ovloq so'zi aslida ov qilinadigan maxsus joyni bildiradi va tilimizda shu ma'noni ifodalaydi. Mantiqan va tabiatan olganda, ov qilinadigan joy aholi yashaydigan markazdan uzoqdagi pasqam, xilvat, kimsasiz

makonda bo'ladi. Demak, bunda "pastlik" "xilvatlik", "kimsasizlik" belgilari bor. Huddi ana shu belgi asosida ovloq so'zi "aholi yashaydigan, markazdan uzoq, kimsasiz, chet, pana va pasqam joy" (O'TIL, III, 78-79)ni ifodalash uchun qo'llanganligi tufayli shunday makonning atamasiga aylangan: *Ne ish boshlab ko'p g'avg'olar qilasan, / Ovloq joyda qo'lga tushib qolasan?* (Z.:164); *Mana, ko'rsam gulzor joylar, / Ovloq joyda o'y nab-kulsam* (L.M.:303); *Malikaning fikri sherni ovloq yerlarda yurgizib, yo'rg'alatib ko'rib, bir qancha o'tirib, o'ynashib-kulishib, dimoqlarni choq qilish edi* (M.a.:104) kabi.

Tilimizda ba'zan muayyan harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisa bajariladigan vaqtga ko'chirilishi hodisasi ham uchraydi. Ya'ni xatti-harakat yoki hodisa bajariladigan vaqt shu harakat-hodisaning nomi bilan ataladi. Masalan, baxshi dostonlari tilida faol qo'llangan azon va namozgar so'zlarini olaylik. Azon so'zi "namoz o'qishga chaqirish, tong yorishish, g'ira-shira payti, erta tong" (O'TIL, I, 52) ma'nolarini, namozgar so'zi jonli so'zlashuv nutqida "quyosh botishdan avvalgi payt, oldingi vaqt" ma'nolarini ifodalab keladi. Har ikkala so'z orqali yangi ma'noning nolingvistik hodisa asosida yuzaga kelishini xalq dostonlari tilidagi quyidagi metonimiyalarda ham kuzatdik: *O'tirishda o'yin-kulgi qiladi, / Namozgar, azonda bari keladi* (B.G.:9); *Qochib jo'nab endi Zevar yo'l tortdi, / Namozgar hadigi endi kun yetdi.* (Z.:181); *Yurib shaharni axtardi, / Namozgargachayin izlab, (R.:419)* kabi.

Tilimizda ba'zan biror narsa-predmetning nomi shu narsa uchun asosiy (xarakterli) bo'lgan belgi-xususiyatga nom sifatida ko'chadi. Masalan, xalq dostonlari tilida, ba'zi shevalarda faol qo'llanadigan shaytonlamoq so'zini olaylik. O'TILda bu so'zning "1. Tutqanoq tutmoq, tutqanoq'g'i tutib qolmoq; 2. ko'chma. Tutqanoq tutgandagiga o'xshash harakatga tushmoq, o'zini u yoq – bu yoqqa tashlamoq, o'ynoqlamoq" (IV, 535) ma'nolari berilgan. Fozil shoir dostonlarining epik bayonida ba'zi epik qahramonlar xatti-harakatlaridagi muayyan belgi-xususiyat shaytonlamoq so'zi asosidagi metonimiya orqali berilgan: *Shunday bachchalar mening tarzimni ko'rib, qo'rqib, shaytonlab qolmay mendan «Qayoqqa borasan?» — deb gap so'raydi* (M.a.:21); *Agar odamning tushiga kirsam ham, odam shaytonlab qoladi* (Z.:391); *Ana odamning suluvi, uni ko'rsang sira ayrimay shaytonlab o'lasan* (R.:231) kabi.

Tilimizda ba'zan biror narsa-predmetning o'zi joylashgan o'rmini bildiruvchi so'z bilan atalish hollari ham uchraydi. Masalan, hozirgi adabiy tilda ham, jonli so'zlashuv nutqida ham, xalq dostonlari tilida ham faol qo'llaniladigan quloq va bosh so'zlarini olaylik. Xalq baxshisining dostonlari tilida quloq va bosh so'zlari metonimik qo'llangan: *Quloq tut, senga so'zlar so'zim bor. / Necha kunlar bo'ldi elda yuribman* (B.G.:14; Z.:178); *Novpal aytdi. — Mening qulog'imga tekkan edi, Arabistonning bir tarafida bir Layli degan qizga oshiq bo'lib, Laylining otasi bermay, o'zi devona bo'b, majnun bo'b ketdi, — degan gap qulog'ima tiygan edi* (L.M.: 308); *Men ham Majnunman benavo, / Boshimda oshiqlik savdo* (L.M.:301); *Oh urganda ko'zdan oqqan yosh endi, / Omon bo'lsa nalar ko'rar bosh endi* (M.a.:16); *Shum falak boshingga savdo solibdi, / Og'zing yugruk sening, savdong g'olibdi(r)* (N.:166) kabi.

Tilimizda muayyan narsa-predmetlar, belgilar, harakatlar o'rtasida faqat o'xshashlik yoki faqat aloqadorlik emas, balki bulardan har ikkalasi ham bo'lishi mumkin. Shu sababli biror narsa-predmet, belgi yoki harakatning nomi metafora va metonimiya asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga ko'chishi, ya'ni aynan bir so'z metafora va metonimiya asosida yangi ma'nolar kasb etishi mumkin [16]. Masalan, ko'z so'zining yangi ma'no hosil qilish jarayoniga e'tiborni qarataylik. Tahlilga jalb etilgan dostonlar tilida ko'zning nazar, nigoh, qarash ma'nolari tufayli nom ko'chishi asosidagi yangi ma'no hosil bo'lishiga sabab bo'lgan: ko'zni ayirma, ko'zi tushdi, ko'z tikib kabi metonimiyalar yuzaga kelgan: *Yoy tortsa o'qdan ko'zimizni ayirmayik* (Z.:165); *Shu'ladan ko'zni ayirmay, / Shunday tiklab turar erdi* (L.M.:265); *Yana bir tor ko'rindi, / Shu toqqa ko'zi tushib* (B.G.:23); *Ajab turli jonvorlarni ko'ribdi, / Jonvorlarga Novpalning ko'zi tushdi* (L.M.:305); *Sen ketgan so'ng men ham xafa bo'larman, / Ko'z tutib yo'lingga qarab yurarman* (R.:353) kabi.

Tahlilga jalb etilgan dostonlar tilidagi metonimiya son, zamon munosabatiga ko'ra o'zaro bog'langan predmetlar, tushunchalar mavjudligidan hosil bo'lganligi kuzatiladi: *Endi bu bola bir, ikki, uchga yetdi* (B.G.:7); *Bu bolalar birga, ikkiga, uchga kirib, yuradigan, kuladigan bo'ldi...* (N.:119); *Rustam birga, ikkiga, uchga kirdi.* (R.356); *Farhod birga, ikkiga, uchga kirdi* (F.Sh.:200) kabi.

Lug'at boyligimizdagi til so'zining gap, so'z ma'nosida qo'llanishi so'zlashuv nutqiga xos lisoniy hodisa. Bu so'zning aynan shu ma'nosi xalq dostonlari tilida epik qahramonlarning muloqot nutqida ancha faol qo'llangan. Matnlarga e'tibor qilamiz: *Quloq solgin parizodning tiliga, (B.:6); Sen eshitgin bu Sayfurning tilini* (B.G.:37); *Eshitmanglar badbaxtlarning tilini, / Tortib boylang qalandarning qo'lini* (Z.:171); *Gap eshitgin, aytgan tildan* (L.M.: 313); *Avaxxon, quloq sol aytgan tilima* (M.a.:11); *Xonim, eshit, mening aytgan tilimni* (N.:141); *Eshit, moma, oyimlarning tilini, / Vayron qilsang bunda Oqtosh elini* (R.:357); *Shohim, quloq soling mening tilima* (F.Sh.:230). *Bulardan tashqari, gap so'zi o'y (xayol), fikr ma'nosida ham qo'llanilgan, ya'ni yangi ma'noning nolingvistik hodisa asosida yuzaga kelishini ham kuzatamiz: Go'ro'g'lining ko'ngliga bir gap keldi...*(B.:5); *Gapirmasang ko'nglingdagi gapingni* (B.G.:112); *Xayolingga bo'lak gaplar keldimi?* (Z.:135); *Xayolingga necha gaplar kelibdi, / O'ying bekor, bu xayolni tashlagin* (N.:165); *Ko'nglida ancha gap bor* (R.:362) kabi.

Xulosa. Xullas, 1) dostonlar tilidagi metaforalar matnda mustaqil holatda kelganda ham, shuningdek, affikslar, leksemalar bilan kelganda ham, izofali, sifatlovchi, o'xshatishli, frazeologik birikmalar hosil qilib kelganda ham, so'z turkumlari asosida shakllanganida ham kuchli emotsional-ekspressivlikni ifodalaydi; 2) metaforalar ma'no nozikliklari bilan bir-biridan muayyan darajada farqlanadi.

Baxshining epik bayoni yoki qahramonlarning muloqot nutqi jonli og'zaki nutqqa xos xususiyatlarni o'zida to'la mujassam etgan. Ayni holat ayrim nutq bo'laklarining ko'p takrorlanishida, gapdagi normal sintaktik tartibning buzilishida (inversiya), nutqning barcha sathlarida tejash printsiptiga amal qilishda ko'zga tashlanadi. Bulardan tashqari, metonimiyalar yaratishning yetakchi sharti, ya'ni nutqning tejash printsiptiga asoslanganligini ham kuzatdik. Dostonlar matnidagi metonimiyalarning qo'llanishi faqat epik tasvirgagina emas, balki qayta nomlashga ham qaratilgan. Ular ko'chma ma'no hosil qilish, shuningdek, syujet oqimi bilan aloqador g'oyalarni, epik qahramonlarning muayyan xatti-harakatlarini tasvirlashda lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir vositasi sifatida badiiy-uslubiy vazifasini ham bajargan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983.
2. Boltaeva I.B. O'zbek xalq dostonlarida epitet tabiati: Filol. fan.nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2000.
3. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 2003.
4. Maslova V.A. Lingvokul'turologiya. – M.: Academia, 2001.
5. Махмудов Н. Семантико-синтаксическая ассиметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. д-ра филол. наук.– Ташкент, 1984. – С.259.
6. Navoiy asarlari lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomligiga ilova. –T.,1972.–782 b.
7. Po'latov A. O'zbek komp'yuter lingvistikasi muammolari va ularni yechish yo'llari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. - IV. – Toshkent: O'zMU nashri, 2008. – B. 81-82.
8. Tursunova O. O'zbek davlatchiligi tarixida qo'llanilgan huquqiy terminlarning lisoniy tadqiqi. ND. – T., 2007 – 33-b.
9. Ройзензон Л.М., Авалиани Ю.Ю. Современные аспекты изучения фразеологии // Проблемы фразеологии и задачи её изучения в высшей и средней школе. – Вологда, 1967.
10. Xolmanova Z. Boburnoma leksikasi. – T.: Fan, 2007. – B.76.
11. Xudoyberganova D.S. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar // O'zbek tili va adabiyoti, №1. – Toshkent, 2012. – B. 35-39.
12. Шоабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Ташкент, 1949.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik. – T.5. –Toshkent: O'zbME, 2008 – 592 b.
14. Orinboyeva D., Umurzoqov U. Ozdek xalq dostonlari tilining alfavit-chactotali lugati. – Toshkent, 2006. – 395 b.
15. <https://petsru.ru/> (Petrozavodskiy gosudarstvennyy universitet).
16. B. – Balogardon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
17. B.G. – Bahrom va Gulandom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
18. Z. – Zevaxon // Bahrom va Gulandom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
19. L.M.–Layli va Majnun // Bahrom va Gulandom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
20. M.A. – Malika ayyor. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
21. N. – Nurali. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
22. R. – Rustamxon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
23. F.Sh. – Farhod va Shirin // Bahrom va Gulandom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
24. Sh.Sh. – Shirin bilan Shakar // Orzigul. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.

Muallif:

Jumanazarova Guljahon Umirzakovna – Jizzax davlat pedagogika universiteti boshlsng'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

UDK 811.111

CONTEXTUAL COMPATIBILITY AND CULTURAL DIFFERENCES IN THE TRANSLATION OF THE CONCEPT OF "PARENT"

“OTA-ONA” KONTSEPTINI TARJIMA QILISHDA KONTEKSTUAL MOSLIK VA MADANIY FARQLAR

КОНТЕКСТНАЯ СОВМЕСТИМОСТЬ И КУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ПОНЯТИЯ "РОДИТЕЛЬ"

Abdimurodov Doston Dilmurod o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. Shahrisabz sh. Buyuk ipak yo'li ko'chasi 10-uy.

E-mail: abdimurodovdoston@302gmail.com

Annotation: The parent concept is interpreted differently in different languages and cultures. In this scientific work, the role contextual compatibility and cultural differences play in the process of translation of the term parent is analyzed. The parent concept includes not only biological connections, but also social and cultural values. As a result, it is important that personal and collective experiences, cultural traditions and social contexts are taken into account in the

translation process. Since concepts about parent interactions, their roles, and responsibilities change from country to country, interpreters need to take into account the meaning and importance given to the father and mother within a particular culture. This application provides a complex but necessary contextual match for the interpreter. This process, which is important in intercultural communication, helps to improve the quality of translation.

Keywords: Parent, proverb, sayings, linguistic, cultural, characteristics, values, traditions.

Аннотация: Концепция воспитания по-разному интерпретируется в разных языках и культурах. В этой научной работе анализируется роль контекстной совместимости и культурных различий в процессе перевода родительского термина. Концепция воспитания включает в себя не только биологические связи, но также социальные и культурные ценности. В результате важно учитывать личный и коллективный опыт, культурные традиции и социальные контексты в процессе перевода. Поскольку представления о родительских взаимодействиях, их ролях и обязанностях меняются от страны к стране, переводчикам необходимо учитывать значение и важность, придаваемые отцу и матери в конкретной культуре. Это приложение обеспечивает сложную, но необходимую контекстную совместимость для переводчика. Этот процесс, будучи важным в межкультурном общении, способствует повышению качества перевода.

Ключевые слова: Родитель, пословица, поговорки, лингвистические, культурные, особенности, ценности, традиции.

Kirish. Ingliz va O'zbek tillaridagi maqol va matallarda "ota-ona" kontsepti o'ziga xos lingvokulturulogik xususiyatlarga ega. Har bir millatning tarixi, an'analari va xilma-xil madaniyati o'z aksini topsa, bular tarjimada katta rol o'ynaydi. Kontekstual moslik va madaniy farqlarni e'tiborga olish esa tarjimonning vazifasini murakkablashtiradi. Ota-ona kontsepti, haqiqatan ham, turli madaniyatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu tushuncha xalq dan xalqqa, madaniyat dan madaniyatga farq qilib, ota-onalarning roli, majburiyatlari va ijtimoiy maqomi kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi madaniyatlarda ota-bobolar oilaning asosiy himoyachilari va qaror qabul qiluvchilari bo'lsa, boshqalarida onalar ko'proq tarbiyaviy va qo'llab-quvvatlovchi rolga ega. Misol uchun, G'arb madaniyatlarida ota-onalar ko'proq teng huquqli va birgalikda qarorlar qabul qiladigan shaxslar sifatida ko'rilsa, ayrim Sharq madaniyatlarida ota oilaning boshqaruvchisi deb hisoblanadi. Ota-onalarning bolalariga bo'lgan mas'uliyati va ularning tarbiyasidagi asosiy tamoyillar turlicha. Misol uchun, ba'zi madaniyatlar farzandlarni biznesga tayyorlashga e'tibor qaratadi, boshqalar esa bilim va ma'rifat berishga ko'proq urg'u beradi [1. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill]. Shuningdek, ota-onalar o'z farzandlariga an'anaviy qadriyatlarni singdirishga harakat qilishadi, bu esa ularning madaniyati va tarixiy merosini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning ijtimoiy maqomi ham turlicha ko'rinishga ega. Ba'zi madaniyatlarda, ota-onalar ijtimoiy hayotda yuqori maqomga ega bo'lishi mumkin, ular o'z farzandlari orqali ijtimoiy tarmoqni kengaytirishga va ijtimoiy mavqelarini kuchaytirishga intilishadi. Boshqa madaniyatlarda esa, ota-onalar o'z bolalarining yakka-yu yagona kelajagini ta'minlashda ko'proq majburiyat va sadoqatni o'z zimmlariga olishadi.

Umuman olganda, ota-ona kontsepti madaniyat, an'analar va ijtimoiy strukturalarga bog'liq ravishda o'zgaruvchan, va bu o'zgarishlar esa jamiyatda qo'llaniladigan tarbiya usullarini, oila tuzilishini va ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi. Ingliz va O'zbek tillarida ota-ona roliga bo'lgan munosabatlar va qadriyatlar farq qiladi. Masalan, ingliz tilidagi maqollarda ota-onaning mustaqillikka o'rgatish, erkinlik berish g'oyasi ko'proq uchrasa, O'zbek ko'p hollarda ota-onaga hurmat va vafodorlik mavzulari tilga olinadi. Har qanday maqolni tarjima qilishda uning asli mazmunini saqlab qolish muhim. Bu jarayonda kontekstual moslikni ta'minlash, ya'ni asl matnda keltirilgan holatning tarjimada ham aynan namoyon bo'lishi talab qilinadi. Misol uchun, "Parents are the first teachers" maqoli to'g'ridan-to'g'ri "Ota-onalar birinchi o'qituvchilar" deb tarjima qilinishi mumkin. Biroq, bu o'rinda O'zbek madaniyatida bu tushuncha qanday aks etishini hisobga olish zarur. Tarjimada madaniy farqlarni hisobga olish ham dolzarbdir. Ba'zi maqollar madaniy konnotatsiyani o'zida mujassam etgan bo'ladi va ularni bevosita tarjima qilish noto'g'ri anglashilishi mumkin. Masalan, "Blood is thicker than water" (Qon suvdan qalinroq) maqoli O'zbek madaniyatida "Birovning achchi gulidan o'z onangning xomguli yaxshi" deb ifodalangan bo'lishi mumkin. Bu holatda, ikki maqolning mazmuniy jihatdan anglatadigan ma'nosi bir xil, lekin lingvokulturulogik konnotatsiyalari farq qiladi.

Tarjimada kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish murakkab, lekin zaruriy jarayondir. "Ota-ona" kontsepti bilan bog'liq maqol va matallarni tarjima qilishda madaniy anglashuv, original manbaga sodiqlik va tarjimada mos keluvchi muqobil variantlarni topishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bois, tarjimonlarning lingvokulturul savodxonligi, tajribasi va benuqson bilimlari tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi [2. House, J. (1997). *Translation Quality Assessment: A Model Revisited*. Gunter Narr Verlag].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ota-ona kontseptini tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlar xilma-xil vazifalar va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu borada samarali tarjimani ta'minlash uchun, lingvistika, madaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyotlar sohasidagi ilmiy adabiyotlarga tayanish lozim. E. Sapirning "Language, Culture, and Personality" asari til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy ishlaridan biridir. Ushbu asarda Sapir quyidagi muhim jihatlarni ta'kidlaydi: Sapir, tilning nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy tafakkur va identifikatsiya shaklini ham aks ettiruvchi element ekanligini ko'rsatadi. Ota-ona kontsepti til orqali ifodalanadi va turli madaniyatlarda o'ziga xos talqinlarga ega bo'lishi mumkin. Madaniyatlararo qarama-qarshiliklar

tug'ilishi mumkin, masalan, bir xalqda ota yoki ona atamaları qanday ma'nolarga ega ekanligi, boshqa bir tilda yoki madaniyatda esa bu atamalar boshqacha talqin qilinishi mumkin. Bu, tarjima jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan masalahisoblanadi. Sapir, tilni madaniyatning bir qismi sifatida ko'radi, shuning uchun ota va ona kabi kontseptlarning tarjimasi faqat so'zlar darajasida emas, balki ularni qo'llanilish kontekstida ham tahlil qilinishi zarur degan fikrni bayon etgan. Ota-ona kontsepti madaniyatdagi shaxsiyat va identifikatsiyaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa tarjima jarayonida madaniy farqlarni va kontekstual moslikni hisobga olishni talab qiladi.

Sapirning fikrlariga ko'ra, keng madaniy kontekstda taraqqiy etgan lingvistik signallarni tushunish, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda zarur. Buning natijasida, ota-ona kontsepti kabi maxsus atamalarni tarjima qilishda joylashgan madaniyat va kontekst muhim rol o'ynaydi. Bu jihatlar tarjimonlar uchun murakkab vazifalar yaratadi, chunki ular madaniy nuanslarni va kontekstual ma'nolarni hisobga olishlari kerak.

H. G. W. (Harry G. W.) "Cultural Constraints on Translating" maqolasida tarjima jarayonidagi madaniy cheklolvar, shuningdek, ota-ona kontsepti kabi atamalarni ko'rib chiqadi. Ushbu maqolada quyidagi muhim nuqtalar ta'kidlanadi: Tarjima jarayonida, madaniy kontekst va an'analarning muhim ahamiyati mavjud. Madaniyatlararo farqlar, masalan, ota-ona kontsepti kabi atamalarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Har bir madaniyatda ota va ona roli, ularning vazifalari, mas'uliyatlari va ijtimoiy maqomi o'ziga xosdir. Ota va ona kabi atamalar har bir madaniyatda o'ziga xos an'analari va qadriyatlar bilan bog'liqdir. Bu atamalarni tarjimasi, ularning madaniy konteksti va tarixi e'tiborga olinishi zarur. Bunday o'ziga xosliklar tarjimon uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki u faqat so'zlarning o'zini emas, balki ularning ma'nosini va o'rni haqida ham bilishi kerak. Maqolada turli madaniyatlarda ota-ona rolini o'rganish uchun kontrastiv tahlil usuli qo'llaniladi. Bu usul bir madaniyatdagi ota-ona kontsepti va boshqa madaniyatlardagi o'xshash atamalarni solishtirish orqali madaniy farqlarni ochib beradi. Madaniy cheklolvar tarjimonning qiyinchiliklariga ta'sir qiladi. Tarjimon faqat so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmasdan, ularni ma'lum bir madaniy kontekstda qanday qabul qilinishini ham hisobga olishi kerak.

Tarjimonlarga madaniy moslashuv (adaptatsiya) usullarini qo'llash tavsiya etiladi. Bu usul, masalan, konkret madaniy referentsiyalarni yoki an'anaviy mo'ljallarni to'g'ri aks ettirishni o'z ichiga oladi, bu esa tarjima jarayonini yengillashtirishi mumkin. V. I. Chernyshev "Kontseptual tarjima" asarida madaniy kontseptlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularga yechimlarni chuqur tahlil qiladi. Ushbu asardan keltirilgan muhim fikrlar quyidagilar: Madaniy kontseptlar - bu kuchli madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalar, ular faqat luqaviy ma'noga ega emas, balki tarixiy, ijtimoiy va psixologik kontekstlarga ham bog'liqdir. Chernyshev madaniy kontseptlarni tarjima qilishda ko'plab qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi. Bu qiyinchiliklar odatda terminlarning madaniyatga bog'liq ma'nosini to'g'ri aks ettira olmaslikdan kelib chiqadi. Tarjima jarayonida kontekstni har tomonlama tushunish zarurligini urg'ulaydi. Madaniy kontekstni hisobga olmasdan tarjima berish, noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin. Chernyshev, ba'zi hollarda kontseptlarni adaptatsiya qilishni tavsiya etadi, bu o'zaro madaniy almashtirish yoki madaniyat haqida to'liq ma'lumot berish orqali mumkin. Tarjimon, o'quvchilarga berilayotgan kontseptni tushunarli va mos tarzda etkazish uchun yangidan o'zgartirishlar kiritishi lozim. Chernyshev asarlarida madaniy va tilni qo'llab-quvvatlovchi rolni ahamiyatiga alohida e'tibor beriladi. U, tarjimonning madaniyatlarini bir-biriga bog'laydigan ko'priklar sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu fikrlar Chernyshevning madaniy kontseptlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va yechimlarni tushunishga yordam beradi.

Harry G. W. ning maqolasidan olingan ushbu jihatlar, tarjimada madaniy elementlarning ahamiyatini va ota-ona kontsepti kabi atamalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o'rganishga yordam beradi. Adabiyotlarda ota-ona kontseptining tarjimasiga turli usullar va nazariy yondoshuvlar taklif etiladi. Ular orasida quyidagi muhim asarlar ajralib turadi: L. Venuti, "The Translator's Invisibility": Bu asar tarjimonning original manba maqomi haqida mulohazalar bildiradi. Venuti fikricha, tarjimonning vazifasi so'zma-so'z tarjimadan chetlab, originalning umumiy mazmunini, uning kontekstual va madaniy ahamiyatini saqlab qolishdan iborat. G. Toury, "Descriptive Translation Studies": Toury tarjima jarayonini tavsiflash va ko'rsatmalar berishi bilan ahamiyatlidir. U madaniy farqlar va kontekstga moslikni hisobga olishning dolzarbligini ta'kidlaydi. - Y. Gambier va L. Doorslaer, "Handbook of Translation Studies": Ushbu asarda tarjimonlikning nazariy va amaliy jihatlarini bilan bir qatorda, madaniyatlararo tarjima yondoshuvlari bayon qilinadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda "Ota-ona" kontseptini tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlarini topishda bir qancha metod va usullar mavjud va ularni ilmiy asoslab ko'ramiz.

1. Dinamik ekvivalentlik metodi (E. Nida): Bu metod asosan o'quvchi uchun tarjimaning tushunarli va maqsadli madaniyatga mos keladigan qilib qilishga yo'naltirilgan. Nida, ayniqsa, diniy matnlarni tarjima qilishda bu yondashuvni muvaffaqiyatli qo'llagan.

2. Skopos nazariyasi (H. Vermeer): Bu nazariya tarjimaning maqsad va funksiyasini, ya'ni tarjimaning nega va qanday maqsadda zarurligini o'rganadi. Tarjima davomida ota-ona kontsepti qaysi madaniyatga manzur ekanligini va qanday konnotatsiyada qabul qilinishini aniqlash uchun skopos nazariyasi qo'llanilishi mumkin.

3. Komponent tahlili: Tarjima vaqtida ota-ona kontsepti bo'yicha asosiy semantik komponentlarni tahlil qilish va ularni maqsadli tildagi eng mos ekvivalentlar bilan ta'minlash zarur. 1. Adaptatsiya: Tarjimaning mazmunini saqlagan holda, madaniy tafovutlarni bartaraf etish maqsadida matnning o'zgartirish. Misol uchun: "It takes a village to raise a child"

iborasi O‘zbek madaniyatida “Yaxshi bola – barchaga farzand” deb tarjima qilinishi mumkin. 2. Annotatsiya va izohlar: Tarjima matnida o‘quvchiga madaniy farqlar haqida tushuntirishlarni kiritish. Bu metod ilmiy, diniy va texnik matnlarni tarjima qilishda ko‘pincha qo‘llaniladi [Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall].

Ota-ona kontseptini tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlar katta rol o‘ynaydi. Tegishli adabiyotlar va metodlarni tadqiq etish orqali yuqori sifatli tarjimaga erishish mumkin. Tarjima jarayonida lingvistik va madaniy tamoyillarni hisobga olish, nafaqat oddiy ko‘chirib yozishni emas, balki ma‘noni o‘z muhitida to‘g‘ri yetkazishni ta‘minlash lozim.

Natija. “Ota-ona” kontsepti xalqaro va madaniyatlararo kontekstda farqlar va o‘xshashliklarni keltirib chiqaradi. Bu so‘zlar asosida beradigan axborot va hissiyotlar tillararo farq qiladi. Ijtimoiy maqom ota-onalarning o‘zaro munosabatlarini va jamiyatdagi roli uchun muhim jihatdir. Ota-onaning ijtimoiy maqomi madaniy o‘zgarishlar, an‘analar va ijtimoiy strukturaga qarab farq qiladi. Bu jarayonning ayrim jihatlarini quyidagicha ko‘rib chiqish mumkin:

1. Yuqori ijtimoiy maqom: Ba‘zi madaniyatlarda ota-onalar ijtimoiy hayotda yuqori maqomga ega bo‘lishlari mumkin. Ular, xususan, o‘z farzandlari orqali ijtimoiy tarmoqni kengaytirishga, jamiyatda hurmat va obro‘ga ega bo‘lishga intiladi. Bu holatda, ota-onaning o‘zlarining ijtimoiy statuslarini mustahkamlashda farzandlarining ta‘limi, karerasi va ijtimoiy faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ular uchun bolaning muvaffaqiyati ota-onaning ijtimoiy maqomini oshirish vositasi sifatida qaraladi.

2. Majburiyat va sadoqat: Boshqa madaniyatlarda esa ota-onalarning roli ko‘proq majburiyat va sadoqat bilan bog‘liq. Bu madaniyatlarda ota-onalar o‘z bolalarining kelajagini ta‘minlashda yuksak mas‘ullikni his qilishadi. Ular farzandlarining ehtiyojlarini va ta‘limi bilan bog‘liq masalalarni ilk o‘rinda qo‘yishadi. Bu holat, ota-onaning farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatini, e‘tiborini va ularning rivojlanishiga bo‘lgan sadoqatini aks ettiradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va munosabatlar: Ota-onaning ijtimoiy maqomi, shuningdek, ularning farzandlari orqali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga imkon yaratadi. Yuqori maqomga ega ota-onalar ko‘pincha kelajakdagi ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash maqsadida, o‘z farzandlari orqali ijtimoiy tarmoqlarga qo‘shiladilar. Bu esa, o‘z navbatida, farzandlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Tarbiya usullari: Har ikki madaniyatda ota-onaning tarbiya uslublari ham ijtimoiy maqomga ta‘sir qiladi. Yuqori maqomdagi ota-onalar ko‘proq resurslarga va imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularning farzandlari uchun yanada yaxshi tarbiya, ta‘lim va imkoniyatlar yaratishga imkon beradi. Boshqa tomondan, majburiyatga asoslangan yana bir madaniyatda esa, ko‘proq empatiyaga ega bo‘lgan tarbiya modeliga yo‘naltirilishi mumkin.

Shunday qilib, ota-onaning ijtimoiy maqomi har bir madaniyatga xos o‘ziga xos jihatlari va qadriyatlarini yansitadi. Tarjima jarayonida bu muhim jihatlarni hisobga olish, ota-onani tushunish va ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Bu muammoni hal etishda quyidagi ilmiy yondashuvlar foydali bo‘lishi mumkin: Kontekstual yondashuv: Tarjima jarayonida kontekstni hisobga olish. Shu yo‘sinda, ota-onaning o‘zaro munosabatlari, ularning oiladagi o‘rni va ularning jamiyatdagi qabul qilinishi kontekst sifatida ko‘rib chiqiladi. Madaniyatlararo tarjima nazariyasi: Tarjimon har bir madaniyatga xos kategoriyalarni ko‘rib chiqishi lozim. Shunda, ota-ona tushunchasida madaniyatlararo o‘xshashlik va farqlarni aniqlash osonlashadi. Lingvistik analiz: Ota va ona so‘zlarining har bir madaniyatdagi ma‘nolari va ularning semantik yuksakligini tahlil qilish. O‘zbek tilida ota, faqat bola tarbiyasida emas, balki oilaning boshqaruvchisi sifatida ham ajralib turadi. Ingliz tilida esa bu tushuncha boshqa muhim ma‘no ishlab chiqarishi mumkin. Kultur asoslangan tarjima: Tarjimon madaniyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlashi kerak. Masalan, boshqa madaniyatlarda “ota” va “ona” tushunchalarining metaforik ma‘nosi yoki rolini keltirish orqali tarjima muammo emas, balki yangi umumiy tushuncha yaratishi mumkin. Kontekstual moslik: Tarjimonlar kontekstni (historiya, psixologiya, ijtimoiy norma va hokazo) hisobga olib, yaxshiroq natijalarga erishishlari mumkin. Bu ustuvorlik muhimdir, chunki buni bilmasdan tarjima qilish, ma‘noni yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri tushunishlarga olib kelishi mumkin. Madaniy farqlarni hurmat qilish: Har bir madaniyatning o‘ziga xos yondashuvi bor: Ba‘zi madaniyatlarda ota-ona rovida tenglik mavjud bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda bu roldagi murakkabliklar. Tarjima jarayonidagi hurmat va e‘tibor bu farqlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

“Ota-ona” kontseptini tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish, tarjimaning sifatini oshirishda muhimdir. Ota-ona tushunchasini aniq va to‘g‘ri tarjima qilish uchun madaniyatlararo evropozitsiyalashuv va kontekst analizi orqali ilmiy metodlarni qo‘llash zarurdir. Bu yondashuvlar tarjimaning foydaliligini va samaradorligini ta‘minlaydi.

Muhokama. Globalizatsiya davrida turli tillar va madaniyatlar o‘rtasida aloqa va tarjima jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarjimonlarning oldida turgan asosiy vazifa shundan iboratki, ular matnning ma‘no va muhim jihatlari zarur yetkazmasdan boshqa madaniyatga olib o‘tishlari kerak. “Ota-ona” kontsepti - oilaning markaziy elementi sifatida har bir madaniyatda turlicha tushuniladi. Shu sababli, bu kontseptni tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish muhimdir.

Kontekstual moslik - bu tarjimadagi asosiy printsiplardan bo‘lib, matnning original kontekstini tarjima matniga imkon qadar yaqin tutishni anglatadi. Ota-ona tushunchasi, har bir madaniyatda o‘ziga xos rol va vazifalarni bajaradi. 1. Lingvistik Kontekst: Har bir til, muayyan madaniy va ijtimoiy kontekstlarda o‘ziga xos semantik sohalarni yaratadi. Masalan, o‘zbek tilida “ota” va “ona” so‘zlarini oddiygina “father” va “mother” bilan tarjima qilish yetarli emas, chunki

bu soʻzlar tarbiyaviy va ijtimoiy roʻllar bilan bogʻlangan. 2. Pragmatik Kontekst: Soʻzlarning qoʻllanilishi konkret vaziyatlarga mos keladi. Masalan, “ota” soʻzi koʻpincha hurmat va ehtiromni ifodalash uchun ishlatiladi, bu esa boshqa tillarga tarjima qilishda eʼtiborga olinishi kerak.

Madaniy farqlar tarjima jarayonida murakkabliklarni keltirib chiqaradi, chunki har bir madaniyat oʻziga xos qadriyatlar va tushunchalarga ega. Ota-ona kontsepti ham bir madaniyatdan boshqa madaniyatlarga tarjima qilinganda, bu farqlar aks ettirilishi kerak. 1. Madaniyatlararo Semiotika: Semiotika - bu belgilar va ularning qoʻllanilish uslulari. Ota-ona tushunchasi turli madaniyatlarda turli xil belgilar va anʼanalarga ega. Misol uchun, yapon madaniyatida ota-ona kontsepti hurmat va itoat qilinishni anglatadi, bu esa gʻarb madaniyatida boshqa mazmunlarni oʻz ichiga olishi mumkin. 2. Sotsial-struktural Kontekst: Oilaning strukturalari va undagi roʻllar har xil madaniyatlarda farqlanadi. Misol uchun, patriarhal oilalarda oʻtalar boshqaruvchi va masʼul shaxs sifatida tasavvur qilinadi, liberal jamiyatlarda esa ota-ona roli teng huquqli sifatida koʻriladi.

Tarjima jarayonida kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. 1. Kontekstual Anliz: Tarjimada kontekstni aniqlash va tushunish uchun lingvistik, ijtimoiy va madaniy maʼlumotlar yigʻish zarur. Bu bilangina tarjima sifatini oshirish mumkin. 2. Madaniyatlararo Moslik: Tarjima jarayonida har bir madaniyatning oʻziga xos ahamiyatini inobatga olish orqali tarjimonlar maʼno va mazmuni saqlab qolishlari mumkin. Masalan, koʻplab madaniyatlarda ota-ona tushunchasi ichida hurmat, tarbiya hamda oilaviy vazifalar muhim hisoblanadi, shu sababli tarjimada bu jihatlarga toʻgʻri aks ettirilishi kerak. 3. Pragmatik Komponentlar: Tarjimalarda pragmatik elementlarni eʼtiborga olish, tushunchaning toʻgʻriligini va mosligini saqlash imkonini beradi. Pragmatik tuzilmalar orqali ota-ona tushunchasidagi hissiyotlar va ijtimoiy vazifalar toʻgʻri aks ettirilishi lozim [3. Sh. Mirzaev-Tashbih- Cultural differences in comparison and translation].

Tarjimada kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish “ota-ona” kontsepti kabi murakkab tushunchalarni toʻgʻri tarjima qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir madaniyatning oʻziga xos afzalliklari va qoidalarini inobatga oluvchi yondashuv tarjima jarayonida yuqori sifatli va chuqur mazmunli natijalarga olib keladi. Bu ilmiy yondashuvlar orqali tarjima jarayonlarini yanada samarali va muvaffaqiyatli qilish mumkin.

Tarjima jarayonida kontekstning ahamiyati haqiqatan ham juda muhim. Ota-ona tushunchasining tarjimasi, bu soʻzlarning qanday madaniy va ijtimoiy kontekstda ishlatilishiga qarab turlicha boʻlishi mumkin. Ushbu tushunchalarning tarjimasi uchun quyidagi jihatlarga hisobga olinishi zarur: Baʼzi madaniyatlarda ota-ona nafaqat chiqaruvchilar hisoblanadi, balki mehmondoʻstlik va jamiyatni birlashtiruvchi element sifatida ham qaraladi. Ushbu kontekstdagi tarjima jarayonida, ota-ona tushunchalari oila va jamoa qoʻllab-quvvatlovchi rolda namoyon boʻladi.

Ota va ona tushunchalari har bir madaniyatda oʻziga xos ijtimoiy maqomga ega. Katta oilalarda, masalan, ota-ona roli koʻpincha anʼanaviy meʼyorlar va qadriyatlar bilan belgilangan boʻlishi mumkin. Tarjimada, ushbu ijtimoiy kontekstni inobatga olish, har bir soʻzning qadr-qimmati va ahamiyatini yoritishda muhim.

Tarjimonlar ota-ona tushunchasini tarjima qilayotganda, tarbiya bilan bogʻliq qadriyatlar va tamoyillarni ham hisobga olishlari zarur. Masalan, baʼzi madaniyatlarda bolalarni tarbiyalashda qatʼiylik va intizom muhim rol oʻynasa, boshqalarda mehr va tushuncha ustun kelishi mumkin. Ota va ona tushunchalarining tarjimasi bu tarbiya uslublarini aks ettirishi lozim. Ota va ona soʻzlari baʼzi madaniyatlarda kasbiy kontekstda, masalan, taʼlim yoki sogʻliqni saqlash sohalarida keng ishlatilishi mumkin. Shuningdek, bu soʻzlar hissiy kontekstdagi emosional tajribalarni ham ifodalashi mumkin. Tarjimaning toʻgʻriligi va hissiy kuchi, keltirilgan kontekstga bogʻliqdir [4.A. Roziyev - "The vocabulary of the Uzbek language and its cultural significance"]. Shu sababli, tarjima jarayonida kontekstni puxta tushunish va uning madaniyatga xos xususiyatlarini hisobga olish, tarjimaning muvaffaqiyati va natijalarining toʻgʻriligini taʼminlash uchun muhimdir. Ota-ona tushunchasi qanchalik qiyin boʻlishidan qatʼi nazar, uning maʼnosi va tahlili har bir madaniyatda oʻziga xos jihatlarni oʻz ichiga oladi.

Xulosa. Ota-ona kontseptining tarjimasida kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish ilmiy yondashuvda juda muhim omildir. Tarjima nazariyasida koʻplab tadqiqotchilar lingvistik ekvivalentlik bilan birgalikda, madaniy muvofiqlikni ham taʼminlash kerakligini taʼkidlaydilar. Tarjima jarayonida oilaviy strukturadagi madaniy farqlar, ularning ijtimoiy va psixologik roʻllari, shuningdek, bu kontseptning anʼanaviy va kundalik hayotdagi oʻrni diqqat markazida boʻlishi zarur. Turli tillar va madaniyatlar oʻrtasida «ota-ona» kontsepti turlicha qabul qilinishi mumkin. Masalan, gʻarb madaniyatida ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi munosabatlar hierarxik boʻlishi mumkin boʻlsa, Sharq madaniyatida bu munosabatlar koʻpincha yaqinroq va uzviy bogʻliqdir. Tarjimon ushbu farqlarni hisobga olib, har bir madaniyatning oʻziga xos ijtimoiy va madaniy kontekstlarini aniqlashi va tarjimasiga singdirishi lozim.

Ilmiy jihatdan bu jarayon lingvistik komparativistika, pragmatika, va sotsiolingvistik doirasida tadqiq etiladi. Har bir madaniyatda tilning unikal aspektlari mavjud boʻlib, bu tarjimada kontekstual moslikni saqlash uchun nazarda tutilishi kerak. Toʻgʻri va muvaffaqiyatli tarjima uchun tarjimonlarning madaniy oʻziga xosliklar va lingvistik xususiyatlarni ham hisobga olishi talab etiladi. “Ota-ona” kontseptini tarjima qilishda kontekstual moslik va madaniy farqlarni hisobga olish juda muhimdir. Tarjima jarayonida har bir tillar va madaniyatlar oʻrtasidagi maʼno va mazmuni saqlab qolish, shaxsiy, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazarni tushunish zarur. Har bir madaniyatning oʻziga xos oilaviy roʻl va vazifalarini aks ettirib, tarjimada aniq va toʻgʻri maʼnoni yetkazish uchun lingvistik va pragmatik komponentlarni

e'tiborga olish kerak bo'ladi. Ushbu yondashuv orqali tarjima yuqori sifatli va chuqur mazmunli bo'lib, har qanday madaniyatda muvaffaqiyatli qabul qilinadi. Ota-ona kontsepti, haqiqatda, har bir madaniyat, an'ana, va ijtimoiy strukturalarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar esa, o'z navbatida, jamiyatda qo'llaniladigan tarbiya usullari, oila tuzilishi va ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi [M. Khudoyberdiev- Terms in the Uzbek language and culture]. Har bir madaniyat o'z ota-ona kontsepsiyasini o'z an'analari va qadriyatlari asosida shakllantiradi. Masalan, ba'zi madaniyatlarda ota-ona bolalarga nisbatan ancha qat'iy talablar qo'yishi mumkin, boshqalarida esa yanada erkin yoki hamkorlikka asoslangan tarbiya usullari ko'proq qo'llaniladi. Oila tuzilishi ham ota-ona kontseptini belgilaydi. Misol uchun, yakkaxon oilalarda ota-onalar ko'proq javobgarlikni o'z zimmalariga olishadi, oilaviy kengaytirilgan tuzilmalar esa bolalar tarbiyasida jamoa mas'uliyatini ko'proq his qilishlari mumkin. Ijtimoiy strukturalar, shuningdek, ota-ona rolidagi kishi va uning roli haqida tushunchalarni ham belgilaydi. Tarbiya usullari ota-onaning kontsepti va ularning munosabatlaridagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir qiladi. Ota-ona tarbiyasi asosan oila dinamikasiga, madaniy qadriyatlariga, shuningdek, jamiyatda mavjud ijtimoiy normallarga bog'liqdir. Ota-ona kontsepti o'zgarishlar bilan bog'liq holda ijtimoiy aloqalarga ham ta'sir qiladi. Oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, boshqalar bilan bo'lgan muloqot va hamkorlik darajasini belgilaydi. Ota-ona kontsepti, umuman olganda, madaniyat va an'analari asosida rivojlanib boradi. O'zgaruvchan tarbiya usullari, oila tuzilishi va ijtimoiy aloqalar jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, har bir jamiyatning o'ziga xosligini belgilaydi. Shuning uchun, ota-ona kontseptining tahlili nafaqat tarjima sohasida, balki ijtimoiy va madaniy izlanishlarda ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill.
2. House, J. (1997). *Translation Quality Assessment: A Model Revisited*. Gunter Narr Verlag.
3. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
4. Bassnett, S. (2013). *Translation Studies*. Routledge.
5. Katan, D. (2009). *Translation as Intercultural Communication*. In Munday, J. (Ed.) *The Routledge Companion to Translation Studies*. Routledge.
6. Gentzler, E. (2001). *Contemporary Translation Theories*. Routledge.
7. Sh. Mirzaev-Tashbih- *Cultural differences in comparison and translation*.
8. A. Roziev - "The vocabulary of the Uzbek language and its cultural significance".
9. A. Abdullayev. "Language and culture".
10. M. Khudoyberdiev. *Terms in the Uzbek language and culture*.
11. Н. И. Ляпин. "Культурные аспекты перевода".
12. С. Баснетт. "Теория перевода".

Muallif:

Abdimurodov Doston Dilmurod o'g'li - Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Xorijiy til amaliyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi.

UDK 372.881

SPEECH ACT IN FEMALE SPEECH

AYOLLAR NUTQIDA NUTQIY AKT

РЕЧЕВОЙ АКТО В ЖЕНСКОЙ РЕЧИ

Mirobidova Nilufar Murodjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy

E-mail: nilufarmirobidova19@gmail.com

Annotation: One of the current issues in linguistics today is the anthropocentric paradigm. Scientific research is also being conducted in Uzbek linguistics on pragmalinguistics, which is a direction of this paradigm. Pragmalinguistics aims to study the language in the speech situation, context, communicative purpose, speech in relation to the speakers. This article talks about the realisation and expression of the speech act, which is a pragmatic unit in Uzbek women's speech. Distinguishing and analyzing the types of acts found in women's speech is one of the urgent problems facing linguistics.

Keywords: Pragmalinguistics, speech act, illocutionary act, locative act, perlocutionary act.

Аннотация: Одним из актуальных вопросов лингвистики сегодня является антропоцентрическая парадигма. В узбекском языкознании также проводятся научные исследования по прагмалингвистике, которая является направлением этой парадигмы. Прагмалингвистика направлена на изучение языка в речевой ситуации, контексте, коммуникативной цели, речи по отношению к говорящим. В данной статье говорится о реализации и выражении речевого акта, который является прагматической единицей в речи узбекских женщин. Выделение и

анализ типов актов, встречающихся в женской речи, является одной из актуальных задач, стоящих перед лингвистикой.

Ключевые слова: Прагмалингвистика, речевой акт, иллокутивный акт, локативный акт, перлокутивный акт.

Kirish. Tilshunoslikda pragmalingvistik tadqiqotlar rivojlanishi natijasida tilshunoslar oldida pragmatikaga oid bir qancha masalalar yuzaga keldi. Ulardan biri nutqiy akt tushunchasi edi. Nutqiy akt haqida Vilgelm Gumboldt, Sharl Balli, Mixail Baxtin kabi bir qator tilshunoslar to'xtalib o'tgan bo'lsada, aniq bir ta'limot sifatida mavhumligicha qolmoqda edi. Faylasuf va mantiqshunos Jon Ostin o'z qarashlarida nutq aktini grammatikada foydalaniladigan "gap" tushunchasidan boshqa ekanligini izohlashga kirishgan. U o'z qarashlarida "gap" va gapdan anglashiladigan "hukm" aynan nutqiy aktga teng emasligini ilgari suradi. Nutqiy aktga xabar mazmunidan tashqari so'roq, undov, chorlov, iltimos qilish, istak-xohish kabi bir qator mazmunlar ham o'rin egallashini takidlagan. Shunday qilib "Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq bir muloqot, uloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir." [Safarov Sh., 2008:78]. Nutqiy aktning yuzaga kelishi bevosita so'zlovchining kommunikativ maqsadi va istagiga bog'liqdir. Nutqiy faoliyatni so'zlovchi maqsad va istagi bilan bog'lab intensional tahlil qilinadi. Bu qarash tarafdori Jon Syorlning har bir nutqiy harakatni ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'kidlaydi. Bu qarash tarafdorlari nutqiy akt hosil bo'lishida 3 xil harakat bajarilishini aytadilar. Bular: lokutiv, illokutiv, perlokutiv harakatlardir.

Tadqiqot obyekti va metodlar. Sh.Safarovning fikricha, "nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir", "nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir", "nutqiy akt – muloqot uchun "qurilish materiali"dir, u kommunikativ jarayon mantiqiy davomligini aks ettirmaydi".

M.Hakimov nutqiy aktga quyidagicha ta'rif bergan: "Nutqiy akt tushunchasi odamlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining bayonidir". [Safarov Sh., 2008:71-72].

Tilshunos olimlarimiz tomonidan jumalarni mazmun anglatadigan tarzda tanlab, ularni fonetik-leksik me'yorlar asosida talaffuz etib kommunikativ aloqaga kirishish jarayoni lokutiv akt sanab kelinadi. Fonetik me'yorlarga asoslangan holda talaffuz qilingan nutq fonetik lokutsiyani yaratsa, leksik-grammatik me'yor asosida yuzaga kelgan nutq esa fatik lokutiv aktini hosil qiladi. Odatda, ayollar nutqida ishlatiladigan so'z va jumalar barcha me'yorlarga xos tarzda talaffuz etiladi. Ammo ba'zan lingvistik yoki ekstralingvistik omillar ta'sirida me'yordan chekinish holatlari ham ko'zga tashlanadi. "*Movjuning to'yiga aqalli bir jo'ra "sim atlas" olib qo'ymasak uyat bo'ladi.*" (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*") Ushbu gapda tinglovchi ismni qisqartirib talaffuz qilishi natijasida talaffuz me'yori buzilgan bo'lsa-da, gap o'z lokutiv ma'nosini saqlab qoladi.

Ayollar nutqi jarayonida propozitsional akt faol qo'llaniladi. Propozitsional aktda nutq predmeti haqida fikr yuritiladi va uning tasdiq yoki inkor shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Masalan, *Muborak chevar desangiz hamma taniydi. "Zinger" mashinalari bor.* (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*"). Yuqoridagi gapda chevarning tikuv mashinasi borligi tasdiq shaklda propozitsional aktda o'z aksini topgan. Inkor shaklda ham xabar mazmuni berilishini kuzatishimiz mumkin: *Qurib ketsin, so'raydigan odam ham yo'q.* (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*")

Mazkur nutq ko'rinishlari nutq obyekti haqidagi ma'lumotni xabar yo'li bilan ifoda etishiga ko'ra propozitsional akt hisoblanadi. Biroq propozitsional akt ifodasida talaffuz akti sodir etilganligi uning lokutiv akt bilan bir nuqtada kesishuvini ko'rsatadi. Xuddi shunday, propozitsional akt orqali nutq egasining kommunikativ niyati – voqelik haqida xabar berish niyati amalga oshganligi ushbu aktning illokutiv akt ham sanalishini anglatadi. Boshqacha aytganda, propozitsional akt murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda bir necha akt turlarining qorishuvini kuzatish mumkin bo'ladi. [Qurbonova M., 2018:28].

So'zlovchining muayyan maqsadini o'zida ifoda etgan akt turi illokutiv aktdir. Bunda nutq egasi o'z maqsadini bevosita ochiq va bilvosita yashirin tarzda bayon qilishi mumkin. Ayollar kommunikativ niyatini oshkora bayon qilishadi ammo nutq jarayonida yashirin illokutsiyani ham kuzatishimiz mumkin. O'zbek ayollariga xos bo'lgan jihat, aslida, axborotning yashirin ifodalanishi hamdir. *Oyim uning ko'ziga tikilib qaradi-da, ko'nglida umid uyg'ondi shekilli, ovozi dadillashdi: Kerak edi-da. Ertalabdan beri qidiramiz, aylanay. Bilmagan joyning ko'chasi ko'p deb shuni aytar ekan-da. Siz... Siz kimi bo'lasiz? – dedi sekin. Onasiman, aylanay, onasiman.* (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*"). Ushbu matnda so'roq gaplar orqali hosil qilingan aktda so'zlovchining kommunikativ maqsadi ham o'z aksini topgan. Chunki bu savolni berishdan maqsad o'zining shaxsini ochiqalmasdan turib, izlayotgan insonning kim ekanligiga oydinlik kiritish edi. Bunda biz so'roq shakl orqali illokutiv aktini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek ayollari nutqida illokutiv aktning so'roq, undov, istak, buyruq, maslahat, xushomad, iltimos kabi maqsadlarini uchratishimiz mumkin.

Undash akti: *Qani kela qoling, - dedi oyim ayvon tomonga yurib.* (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*")

Buyruq akti: *Bor, bolam o'ynab kel, - dedi oyim meni hamon qo'rqib turganimni ko'rib.*

Nolish akti: *kechasi bilan tishim o'lgur shundoq og'ridi, shundoq og'ridi, jonimni qo'yishga joy topolmadim.*

Iltimos akti: *- Ukangiz eshitmay qo'yaqolsinlar, topilib qolar – oyim yana yalindi.* (O'tkir Hoshimov "*Dunyoning ishlari*")

Maslahat akti: *Shahnoza ayasi olib kelgan bir banka quyultirilgan sutni berdi, – issiq choyga qo'shib ichsangiz o'tib ketadi(O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari") "Tushda kechgan umrlar")*

Tabrik akti: *- Endi kuyavlik muborak bo'lsin, begim. (Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar")*

Va'da akti: *Nima qilay ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko'r qilsin, Kimsan aka! (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi ")*

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ayollar kommunikativ jarayonda nutqiy aktning bir qancha mazmuniy turlaridan faol foydalanib kelishadi. O'zbek ayollari nutqida muayyan axborotni bayon qilishning o'ziga xos usullari mavjud. Ba'zan ular kommunikativ niyatni oshkora ifodalamaydilar, ular suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ifodaning yashirin ko'rinishlaridan foydalanadilar. Masalan, - *Albatta, senlar o'qimishlisan, hamma narsani bilasan... - oyim bir zum jimib qoldi-da, o'ziga- o'zi gapirayotgandek qo'shib qo'ydi. - Onasida nima gunoh? Qon bosimi bo'lsa, ertaga puf etib dumalab ketsa, shunga suyunasanmi? Ona-ku bu... Shunaqa qahring qattiqmi?*

Ushbu gapda illokutiv aktning habar mazmunidagi ya'ni farzandidan norozi ona nutqidan aytilgan parchada so'roq gap orqali norozilik, qayatrish kabi mazmunlar ifodalanib kelingan.

Xulosa. Bugungi kun rus tilshunosligida I.A. Sharonov nutqiy aktning iltifot va maqtov mazmunini tadqiq etib, ularni bir-biridan ajratish va farqlash kerakligini ta'kidlab o'tadi. Iltifot va maqtov aktlarining ikkalasi ham insonga ijobiy baho berishni ifodalaydi, shuning uchun yoki boshqa yo'l bilan nutqning adresatiga bog'liq bo'lgan ijobiy his-tuyg'ularni aks ettiradi. Bu ularning tasdiq nutq aktlaridan umumiy farqidir. Iltifot aktida ijobiy baho adresatning tashqi va ichki go'zalligiga, xarakteriga, ijobiy hislatlariga bo'lgan konnotatsiyani ifodalaydi. Maqtov akti esa nisbatan aniq va sharoitga moslashgan, qoliplashgan bo'ladi. Maqtov ko'pincha adresatning biror-bir ijobiy xatti-harakatiga, erishgan yutuqlariga nisbatan ishlatilishini ta'kidlaydi I. Sharonov.

O'zbek ayollari o'z nutqlarida nutqiy akt ko'rinishlaridan biri bo'lgan perlukutiv aktdan ham keng foydalanishadi. Bilamizki, perlukutiv aktda so'zlovchi tinglovchiga nutqiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladi, ya'ni uni biror-bir harakatni bajarishga undaydi. Nutqiy ta'sir ko'rsatish ayollar nutqiga xos xususiyatlardan. Ona farzandlariga, ayol do'stlariga, ustoz shogirdlariga nutqiy ta'sir o'tkazishiga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. *Sutchoy tayyor bo'ldi, suzib kiraymi? Ikki kosani kelinlik uyga ber, men bilan Hasanalinikini shu yerga keltir.* Ushbu namunada ayol ya'ni nutq egasi tinglovchiga nisbatan buyruq aktini ifodalashi aks etgan. Bu orqali adresat adresantga ma'lum harakat bajarishga undashni maqsad qiladi. Natijada suhbatdosh ushbu harakatni bajarishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, suhbatda nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so'zlovchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, ayollar nutqiy faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2011.
3. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.T. 2018.
4. Sharonov, I.A., 2024, Speech acts and speech genres: the case of the compliment, Slovo.ru: Baltic accent, Vol. 15, no. 3, pp. 234—246.

Muallif:

Mirobidova Nilufar Murodjon qizi - O'zMU, O'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida 1-kurs tayanch doktoranti.

UDK 372.881

FEATURES OF THE FORMATION AND FUNCTIONING OF ABBREVIATIONS IN LANGUAGES

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СОКРАЩЕНИЯ НА ЯЗЫКАХ

TILLARDA QISTQARMALARNING SHAKLLANISHI VA FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Бабанов Бахадир Абдикадирович

Узбекский государственный университет мировых языков. 100173. г.Ташкент Учтепинский район, улица Кичик Халка йули, квартал Г-9а, дом 21.

E-mail: bakhadir2022@mail.ru

Abstract: Abbreviations are an integral part of language, serving as a shorthand method of communication that facilitates efficient and effective expression. An abbreviation is a shortened form of a word or phrase, which can be expressed in various ways, such as acronyms, initialisms, and shortenings. The formation and functioning of abbreviations in languages is a complex process that involves linguistic, cognitive, and social factors. This article aims to explore the features of formation and functioning of abbreviations in languages, highlighting their characteristics, types, and functions.

Keywords: abbreviations, linguistic features, adopted words, functions, origin

Annotasiya: Qisqartmalar tilning ajralmas qismi bo'lib, samarali ifoda etishni osonlashtiradigan aloqaning stenografiya usuli bo'lib xizmat qiladi. Qisqartma so'z yoki iboraning qisqartirilgan shakli bo'lib, uni qisqartmalar, initializmlar kabi turli yo'llar bilan ifodalash mumkin. Tillarda qisqartmalarining shakllanishi va ishlashi lingvistik, kognitiv va ijtimoiy omillarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ushbu maqola tillardagi qisqartmalarining shakllanishi va ishlash xususiyatlarini o'rganishga, ularning xususiyatlari, turlari va funktsiyalarini ta'kidlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qisqartmalar, lingvistik xususiyatlari, o'zlashtirma so'zlar, funktsiyalari, kelib chiqishi

Введение. В статье раскрываются семантические и морфологические особенности формирования и функционирования частей сложных слов, реализующих значение аббревиатуры. Эти закономерности универсальны для любого языка. Они напрямую связаны с постепенной трансформацией слова-прототипа и его последовательным приближением к замкнутой устойчивой структурной форме. Это отражается в системе передачи смысла в языке и в формировании абстракции. Наиболее быстрым прототипическим способом передачи смысла, несмотря на его более общий характер, являются иероглифы, графические отображающие наиболее важную особенность контента. Прототип иероглифического изображения, являющийся составной частью собственного языка, и его развитие, являющееся частью языка, наглядно отражают экономическую и политическую историю, мировоззрение, ценностные ориентации, эстетическое отношение к явлениям действительности, присущее этнической принадлежности людей, говорящих на этом языке.

Определение сокращений. В лингвистике аббревиатуры можно рассматривать как формы, расширяющие сам термин "аббревиатура" до полноценных выражений, описывающих явление, определяющих его семантическое воздействие, его семантически непротиворечивую словообразовательную и составную словообразовательную базу, а также способ образования составных аббревиатур, который передает вновь образованное сокращение. понятие в виде составной аббревиатуры из двух (или более) слов. Последней разновидностью аббревиатуры является обратное образование и новый продукт, созданный abstraction, используемый в качестве моделей образования основы для префиксации un- и antero-. Более того, составные аббревиатуры являются словообразовательными формами языка, которые повышают уровень словообразовательной продуктивности аббревиатур.

Термин "аббревиатура", одна из плохо проанализированных и не совсем четко определенных категорий в лингвистике, относится в основном к различным сферам использования языка и культурным процессам. В языковой системе аббревиатура как явление находит свое отражение в лексиконе, используя все уровни языковой структуры, а также оказывает влияние на семантику, синтаксис и фонетику. Неразрывными являются связи аббревиатуры, имеющие двойственную природу, с социальными и функциональными принципами языка, которые выходят за рамки лингвистики. На самом деле аббревиатуры отражают жизнь, ценности, мысли, и их фонетическое качество - лишь один из многих критериев, характеризующих их.

Важность изучения аббревиатур. Овладение общекультурной позицией, реальное и осмысленное чтение неразрывно связано с пониманием значения аббревиатур. Неудивительно, что плохое знание аббревиатур усложняет восприятие информации. Между тем, в современной прессе и в документах используется множество укоренившихся сокращений, без ведома автора. Надлежащее знание этих сокращений никогда не позволит сформулировать грамотную концепцию по стилю, понять представленную информацию без повторов и упреков. Кроме того, понятия "слово" и "информация" по-прежнему используются отдельно и не относятся ни к одному из этих понятий, но пересекаются между собой, и с этой точки зрения подробный анализ с конкретными рекомендациями по правильному пониманию распространенных сокращений окажет большую помощь.

В последние годы изучение аббревиатур наряду с акронимами становится все более популярным как отдельная область лингвистических знаний. Вполне возможно, что причиной этого является высокая частота встречаемости сокращений и акронимов в тексте, а также неизбежно растущий уровень проникновения текстовой информации различного типа и тематической направленности. Важность глубокого изучения аббревиатур подчеркивается еще и тем фактом, что в настоящее время они разнообразны и занимают значительное место среди неологизмов. И если массовая коммуникация требует использования ограниченного пространства, то экономия речи и необходимость подчеркнуть феномен речи в культурной или профессиональной сфере требуют все еще звучащей аббревиатуры.

Результаты и анализ. Образование аббревиатур включает в себя ряд лингвистических процессов, включая сокращение, смешивание и компаундирование. Сокращение предполагает сокращение слова или фразы путем пропуска одного или нескольких звуков, слогов или морфем. Например, аббревиатура "TV" является сокращенной формой слова "television". Смешивание предполагает объединение частей двух слов для создания нового слова, как в "smog" (дым + туман). Составление включает в себя объединение двух слов для образования нового слова, как в случае с "телевангелистом" (телевидение + евангелист).

Другим важным аспектом формирования аббревиатур является использование сокращений и инициализмов. Аббревиатуры - это сокращения, произносимые как слова, такие как "НАСА" (Национальное управление по аэронавтике и исследованию космического пространства). С другой стороны, инициализмы - это

аббревиатуры, произносимые по буквам, такие как "ФБР" (Федеральное бюро расследований). Образование аббревиатур также связано с культурными и историческими факторами, поскольку они часто отражают социальный, экономический и технологический контекст определенной эпохи.

Функционирование аббревиатур. Сокращения выполняют несколько языковых функций, включая краткость, ясность и акцентирование внимания. Краткость - это лаконичный характер сокращений, которые облегчают быструю коммуникацию в различных контекстах, таких как текстовые сообщения, социальные сети и реклама. Под понятностью понимается способность аббревиатур упрощать сложные концепции и делать их более доступными для более широкой аудитории. Акцентирование внимания - это способность аббревиатур привлекать внимание к определенной концепции или идее.

Аббревиатуры также играют важную роль в создании чувства общности и обмена знаниями между выступающими. Они часто служат в качестве сокращенного способа общения между инсайдерами, которые разделяют общее понимание значения аббревиатуры. Например, аббревиатура "ASAP" (как можно скорее) широко используется в деловых и академических кругах для передачи ощущения срочности.

Типы сокращений. Существует несколько типов аббревиатур, каждая из которых имеет свои особенности и функции. Акронимы, как упоминалось ранее, - это сокращения, произносимые в виде слов. Инициализмы, с другой стороны, - это сокращения, произносимые по буквам. Сокращения - это аббревиатуры, которые предполагают исключение одного или нескольких звуков, слогов или морфем из слова или фразы.

К другим типам сокращений относятся сочетания, которые предполагают объединение частей двух слов для создания нового слова. Примерами сокращений являются "бранч" (завтрак + обед) и "мотель" (автомобиль + отель). Компаунды - это аббревиатуры, которые включают в себя объединение двух слов для образования нового слова, такого как "телевангелист" (телевидение + евангелист).

Когнитивные и социальные факторы. На формирование и функционирование аббревиатур в языках также влияют когнитивные и социальные факторы. Когнитивные факторы включают ограничения человеческой памяти и внимания, которые приводят к появлению аббревиатур как средства снижения когнитивной нагрузки. С другой стороны, социальные факторы включают культурный и исторический контекст, социальные нормы и динамику власти.

Например, использование аббревиатур в официальном и неофициальном контекстах отражает социальные нормы и ожидания конкретного сообщества. В официальных контекстах часто избегают сокращений в пользу полных слов и фраз, в то время как в неофициальных контекстах сокращения часто используются для создания чувства товарищества и обмена знаниями.

Заключение. В заключение отметим, что формирование и функционирование аббревиатур в языках представляет собой сложный процесс, который включает лингвистические, когнитивные и социальные факторы. Аббревиатуры выполняют несколько функций, включая краткость, ясность и акцентирование внимания, и являются неотъемлемой частью языка, способствуя эффективному общению. Типы аббревиатур, включая аббревиатуры, инициализмы, сокращения, сочетания и компаунды, отражают творческую и адаптивную природу языка. Понимание особенностей формирования и функционирования аббревиатур в языках имеет важное значение для эффективной коммуникации в различных контекстах, включая образование, бизнес и социальные сети. Кроме того, изучение аббревиатур дает представление о когнитивных, социальных и культурных аспектах языка, подчеркивая динамичный и адаптивный характер человеческого общения.

Список литературы:

1. Авясова Ирина. (2022). Особенности использования аббревиатуры в английском военном дискурсе. Техасский журнал филологии, культуры и истории, 13, 22–26. Извлекаются из <https://zienjournals.com/index.php/tjpc/article/view/3022>
2. Авясова Ирина. (2023). Специфика функционирования и перевода аббревиатур в английском военном дискурсе. Всемирный бюллетень социальных наук, 20, 81–85. Извлекаются из <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2356>
3. Банкевич В.В. К вопросу о соотношении лексико-семантических и тематических групп // Семантика слов и предложений. - СПб, 2005. - С. 113-115.
4. Бойко М.Г. Структурно-семантические особенности формирования броневой терминологии в английском языке: Автореф. дис.... канд. фил. наук. – Омск: ОГУ, 2011. – 24 с.
5. Эргашева Ф.И. К проблеме сокращения английской военной лексики // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2010, – №6. – С. 23-32.
6. Эргашева Ф.И. Способы образования английских военных терминов // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2010. – № 8. – С. 36-44.

Автор:

Бабанов Бахадир Абдикадирович - Узбекский государственный университет мировых языков, стажер-преподаватель кафедры прикладных аспектов английского языка.

UDK 372.882

ARTISTIC INTERPRETATION OF NATURAL SYMBOLS IN EXAMPLES OF FOLK ORAL ART

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA TABIAT RAMZLARINING BADIY TALQINI

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИМВОЛОВ ПРИРОДЫ В ПРИМЕРАХ ФОЛЬКЛОРА

Sharipova Raxima Muxtorovna

Navoiy davlat universiteti, 210100. Navoiy viloyati, Navoiy shahar, Ibn Sino, 45.

E-mail: rahimasharipova2@mail.com

Abstract. This article in world literary studies is conducted certain studies on such issues as the definition of metaphorical, semantic meanings of symbols of nature, their expressions of universal and national aspects of the human psyche, feelings and experiences, as an important part of landscape lyrics, the study of their facets associated with the seasons. In this sense, special attention is paid to the scientific and theoretical study of the originality in the depiction of symbols of nature, the basis of their origin, figurative meanings, accompanying lyrical images, which are given a large place in the lyrics.

Keywords: poem, nature, simile, analysis, creativity, lyrical hero, metaphor, image.

Аннотация. Данная статья в мировом литературоведении ведутся определенные исследования по таким вопросам, как определение метафорических, смысловых значений символов природы, их выразителей общечеловеческих и национальных аспектов человеческой психики, чувств и переживаний, как важной части пейзажной лирики, исследование их граней, связанных с временами года. В этом смысле особое внимание уделяется научно-теоретическому изучению своеобразия в изображении символов природы, основ их происхождения, образных значений, сопутствующих им лирических образов, которым отводится большое место в лирике.

Ключевые слова: стихотворение, природа, сравнение, анализ, творчество, лирический персонаж, метафора, образ.

Kirish. Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotshunosligida tabiat ramzlarining she‘riyatdagi kelib chiqish asoslari, mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi badiiy tadriji, timsoliy ma‘nolarini muayyan ijodkorlar asarlari asosida yoritishga katta e‘tibor berilmoqda. She‘riyatda tabiat ramzlari hayotiy mazmun-mohiyat kasb etadi. Shu jihatdan shamol, bulut, yomg‘ir, qor singari tabiat ramzlariga bag‘ishlangan she‘rlar o‘ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Adabiyotshunoslik ilmida bu obrazlar mohiyatini ochib berish yo‘nalishida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘zbek folklori janrlariga doir manbalar, asosan, T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayevalarning 2008 yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi”da kiritilgan xalq maqollari va qo‘shiqlaridan olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tabiat ramzlari tasviri o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari va mumtoz adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan bu ramzlarning genezisini quyidagicha tasniflash mumkin: 1.O‘zbek xalq og‘zaki ijodida. 2.O‘zbek mumtoz she‘riyatida.

O‘zbek folklori janrlarida qor, bulut, yomg‘ir, shamol timsollari bir qator ramziy ma‘nolarni ifodalab keladi. Maqol va qo‘shiqlarda aks etgan tabiat ramzlarining o‘ziga xosligi ayniqsa diqqatni tortadi. Jumladan, “Qish qorli – yoz yomg‘irli”[1.183.] maqolida tabiatning ikki fasli haqida fikr yuritilgan. Qadimda ko‘proq ikki fasl: zimiston va tobiston ajratilgan. Yuqoridagi maqolda ham shu nazarda tutilgan va qor qishning, yomg‘ir esa yozning (aslida bahor) xususiyatini ifodalab kelgan. “Qishning qori – yozga dori” maqolida esa qishda yoqqan qor yozda mo‘l hosil uchun asos bo‘lishi ma‘nosi ifoda etilgan. “Yoz yomg‘iri yondan o‘tar, Qish yomg‘iri jondan” maqolida yoz yomg‘iri va qish yomg‘iri kontrast qo‘yilgan. “Yoz yomg‘iri – ilon bilan chayon” maqolini tarixiy taraqqiyotning mahsuli deyish mumkin. Xalqimizda yozda yoqqan yomg‘ir xosiyatli sanalmaydi, u daraxtlar va ekinlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Yomg‘ir – ekinning joni”da esa bahor yomg‘iri haqida so‘z ketmoqda. Unda yomg‘ir ekinlarning gurkirab o‘shishiga yordam berishi nazarda tutilgan. “Savr yomg‘iri – sariq oltin”da bahorda yoqqan yomg‘ir mo‘l hosil uchun zamin hozirlashiga ishora bor. Chunki Sharq taqvimiga ko‘ra hamal (21 martdan 21 aprelgacha)dan keyin savr oyi keladi. Bu vaqtda yoqqan yomg‘ir na‘fli bo‘ladi. “Soyda yotma, sel olar, qirda yotma, yel olar” maqoli hayotiy mazmunga ega. Chunki soyda yotgan vaqtda sel oqizish ehtimolga yaqin, qirda yotsa, yel ta‘sirida shamollash mumkin. “Toqqa qalin qor tushgani – yerning qonib suv ichgani” maqolida ham qishda qor yog‘ishi yerning hosildor bo‘lishiga yordam berishi ifoda etilgan. “Chilla qori – yerning qoni” esa bunga sinonim bo‘lib kelgan. “Baland tog‘da qor bo‘lur, Er yigitda or bo‘lur” maqolida parallelizm qo‘llangan. Ya‘ni baland tog‘dagi qor bilan er yigitdagi or yonma-yon qo‘yilgan.

Xalq topishmoqlarida esa tabiat ramzlari predmet nomi bo‘lib kelgan. Tabiat hodisalarini xalqona sifatlash ularning o‘ziga xos obrazli ifodasini yaratadi. Jumladan, “Oyog‘i yo‘q qochadi, Qanoti yo‘q uchadi” topishmog‘idagi

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

holatlar ifodasidan bulut ekanligi anglashiladi. “Novcha yigit tom teshar”ning javobi yomg‘ir bo‘lib, novcha yigit yomg‘ir ramzi bo‘lib kelgan. “Oppoqqina dasturxon, Yer yuzini qoplagan”ning javobi qor bo‘lib, bunda oppoq dasturxon qorning metaforasi bo‘lib kelgan. “Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar” topishmog‘ining javobi shamol bo‘lib, uning harakatiga ishora qilingan. [9]

O‘zbek xalq qo‘shiqlari tizimida ham tabiat ramzlariga keng o‘rin berilgan. Jumladan:

Sust xotin, sulton xotin,	Yomonning uyi kuysin, sust xotin...
Ko‘lankasi maydon xotin.	Havolarni yog‘dirgin, sust xotin,
Hosillar mo‘l bo‘lsin, sust xotin,	Bug‘doylarni bo‘ldirgin, sust xotin.
Dehqonning uyi to‘lsin, sust xotin.	Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
Yomg‘irlarni yog‘dirgin, sust xotin,	El-u yurtini to‘ydirgin, sust xotin.[9]

“Sust xotin” qo‘shig‘i yomg‘ir chaqirish marosimida ijro etilgan. Qurg‘oqchilik bo‘lib, ekinlar quriy boshlaganda xalq shu qo‘shiqni aytib, yaratgandan yomg‘ir so‘ragan. Chunki yomg‘ir yog‘sagina, hosillar mo‘l bo‘lgan, omborlar bug‘doyga to‘lgan. Ko‘rinadiki, yomg‘ir qut-baraka, to‘kinchilik va xalq farovonligining ramzi bo‘lib kelgan.

Choymomo, choy, choy, choy//Chayilib qolsin bu shamol.

Bosa-bosa beringlar, //Bosilib qolsin quv shamol.

Ucha-ucha beringlar, //Uchilib qolsin quv shamol.

Choymomalar o‘libdi, //O‘g‘li yetim qolibdi.

Choymomaning onasi, //Amakisiga boribdi.[9]

Tabiatda shamolning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjud. “Choymomo” va “Yalli momo” marosimlari bir necha kun esgan surunkali shamolni to‘xtatish uchun o‘tkazilsa, “Yo Haydar” shamol chaqirish marosimi ekanligi fikrimizga dalildir. “Choy momo” marosimida ijro etilgan yuqoridagi misralar orqali kishilar o‘z turmushlariga zarar yetkazuvchi shiddatli shamolning to‘xtatishini yaratgandan so‘raganlar.

Xalq lirik qo‘shiqlarida ham tabiat ramzlari turli timsoliy ma‘nolarni ifodalab kelgan:

Toshga yomg‘ir kor qilurmi//Muttasil yoqqan bilan.

Davlatigiz kam bo‘lurmi, //Bir qiyo boqqan bilan.[9]

Tajohuli orif asosiga qurilgan yuqoridagi satrlarda yomg‘ir ishqda o‘rtangan insonga visol umidi va mashuqa diydoriga vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Turkiy xalqlar yozma yodgorligining eng qadimiylaridan bo‘lgan “Irq bitigi”da er yigitning ruhiy holati tabiat ramzlari bilan yonma-yon tasvirlanadi. Quyoshning chiqishi esa ijobiy holat sifatida keltirilgan. Tabiat hodisalariga bu kabi yondashish mumtoz va zamonaviy shoirlar ijodida o‘ziga xos an‘ana sifatida ko‘p takrorlanadi.

Er (yigit) qayg‘uli,

Osmon bulutli bo‘ldi.

Ular orasida quyosh balqidi,

Qayg‘u orasida shodlik keldi,

Bilib qo‘ying: bu-yaxshi .

O‘zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida tabiat ramzlari she‘riyat misolida maxsus tadqiq etilmagan. Faqat muayyan davr she‘riyati va muayyan ijodkor asarlari tahlili jarayonida shamol, bulut, qor, yomg‘ir obrazlariga munosabat bildirilgan. Xalq lirikasi misolida tabiat ramzlarini tadqiq etgan folklorshunos olim A.Musaqulov bulut, yomg‘ir, shamol, qor obrazlari mohiyatini yortib bergan. Uning fikricha: «Jahondagi birinchi ayolning ismi Momo Havo (Eva) bo‘lganligini eslaylik. Animizm barcha dinlar uchun xos belgi bo‘lib, yunoncha – havo, shamol degan so‘zdan olingan. Havo, ya‘ni jon jon bilan, keyin bulutga qo‘shilib ketadi.

Men o‘lib tuproqda yotsam,

Har zamon o‘tgin yorim

Etaging shamoli tegsa,

Oromlar olgay jonim

Qo‘shiqdagi etak magiya qoidasiga ko‘ra yorning o‘ziga, etak shamoli uning tirikligiga ishoradir. Yer, suv, olov kultlarini jamlagan tabiat kultlari da shamol ham to‘rtinchi unsur sifatida muhim o‘rin tutadi»[10] . Olim shamol timsolini Momo Havo nomi bilan bog‘laydi va uning tabiatdagi to‘rtinchi unsur deb ataydi. Yoki olim fikrlarini davom ettirib yozadi:

Sabo bilan subhidam

Gul ochilar, yor-yor

Suylaganda og‘zidan

Dur sochilar, yor-yor

An‘anaga ko‘ra subhidam – xosiyatli vaqt... Sabo hosildorlik kultidagi shamolning analogi. Shu sababli subhidamgi sabo gulga jon baxsh etadi – gul ochiladi».[10] Bunda shamol obrazi hayotiy ma‘no kasb etgan. Ya‘ni tonggi shabada tabiatga jon kiritadi, uning esishi natijasida gullar ochiladi.

Ariq suvi oqadi

Jimir-jimir yor-yor

Uyda kelin ko'ngliga

Yog'ar yomg'ir yor-yor, – degan satrlarni tahlil etgan olim yozadi: «Qo'shiqdagi yomg'ir obrazini qayg'u ifodasi desak, katta xato bo'ladi. Xalq ijodida yomg'ir va shabnam xosiyatli hodisa, obi hayot darajasigacha ko'tarilgan. Qolaversa, kelinchakning ota-ona uydan yig'lab ketishi ayriliq iztirobigina emas, to kuyovning uyiga borguncha yig'lab borishi marosimiy xarakterga ega bo'ladi»[10]. Demak, A.Musaqulov xalq qo'shiqlaridagi yomg'irni xosiyatli hodisa deb hisoblaydi va unda marosimiy mazmuni ko'radi. Tabiat ramzlari tasviri Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Atoiy kabi adiblar asarlarida ham ijodkor badiiy tafakkuridan kelib chiqib o'ziga xos tarzda ifodalanadi.

Xulosa. Turkiy xalqlar ijodida qadimgi peyzajning yaxshi namunasi sifatida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "Qish bilan Yoz" munozarasi alohida o'rin tutadi. Atoqli olim N.Mallaev "Qish va Yoz" munozarasidagi to'rtliklarga alohida to'xtalib, "Ushbu to'rtliklar qadim zamondagi kishilarning tabiat hodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi" deydi. Shuningdek, kitobda qadimgi kishilarning xilma-xil his tuyg'ulari, istak-armonlari konkret tasviri: yam-yashil dalalarni, tog'larda erigan qor, va muz suvlarining shalola bo'lib oqishi, quyuq bulut, yomg'ir, jala va sel orqali tasvirlangani aytiladi. Qadimgi kishilarning yil fasllari haqidagi tushunchalarida tabiat hodisalarini yaxshi va yomon ruhlar bilan bog'lash – dualistik qarash bilan bog'liqligi aytiladi. Taniqli adabiyotshunos N.Shodmonovning yozishicha: asardagi qo'shiq va lirik she'rlarda turli xil voqea va kayfiyatlar ifodalangan. Ular turli badiiy vositalar asosida shakllanadi. Eng ko'p qo'llangan badiiy vositalarga mubolag'a, o'xshatish, sifatlash va tazod kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, ravonlik, ohangdorlik va jo'shqinlik kabi xususiyatlar ularning muhim poetik xususiyatlari sifatida e'tirofqa loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Spacks P.M. *The Varied God: A Critical Study of Thomson's «The Seasons»* Berkeley: University of California Press, 1959. – 190 p.
2. Cuddon J. A. *The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. – London. Penguin Books. 1991. – Pg.124.
3. Sultonov I. *Adabiyot nazariyasi*. – T., 2005. – 282 b.
4. Болтабоев Х. *Адабиёт энциклопедияси*. – Т., Мумтоз сўз. 2015. – 476 б.
5. Каримов Б. *Рухият алифбоси*. – Т., Фафур Гулом номидаги НМИУ. 2016. – 127 б.
6. Курунов Д. *Адабиёт назарияси асослари*. – Т., Навоий университети. 2018. – 480 б.
7. Курунов Д. *ва бошқ. Адабиётшунослик луғати*. – Т., Akademnashr. 2010. – 398 б.
8. Орзибеков Р. *Лирикада кичик жанрлар*. – Т., Ўқитувчи. 1978. – 98 б.
9. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. *Bolalar adabiyoti va folklor*. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 256 b.
10. Мирзаев Т., Сафаров О., Ўраева Д. *Ўзбек халқ оғзаки ижоди хрестоматияси*. – Т., Aloqachi, 2008. – 559 б.
11. Мусақулов А. *Ўзбек халқ лирикаси*. – Т.: Фан, 2010. – 185 б.
12. Shodmonov N. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (1-qism)*. (Eng qadimgi davrlardan XIV asr boshigacha) O'quv qo'llanma. – Tashkent: Tafakkur, 2020. – B. 226

Muallif:

Sharipova Raxima Muxtorovna – Navoiy davlat universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

UO'K 94(3)(078)

INTERPRETATION OF PATRON CHARACTER IN UZBEK FOLKLORE

O'ZBEK FOLKLORIDA HOMOYIY PERSONAJLAR TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРСОНАЖЕЙ- ПОКРОВИТЕЛЕЙ В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna

Navoiy davlat universiteti, 210100. Navoiy viloyati, Navoiy shahar, Ibn Sino, 45

E-mail: rizoyeva_mexriniso@mail.ru

Abstract. The relationship between humans and nature, as well as between people and the animal world, is closely connected to the millennia-old labor activities of human society. The life experiences of people living in our region reflect the beliefs of that era. In certain areas, there still exists reverence for images and traditional characters that originated as imaginative representations within religious-mythological worldviews, embodying the essence of mythological beliefs. The lifestyle of ancient people living in Central Asia was directly linked to pastoral culture, which shaped their spiritual beliefs rooted in various cults. For example, the existence of opinions about the name of Frodat-Fshova, who is considered

the patron of small cattle in the holy book of Zoroastrianism “Avesto”, shows how important the cults related to animal husbandry were for people's lifestyle in the early stages of human society. This article discusses the patron images and sacred characters in Uzbek folk prose.

Keywords: mythology, folk, prose, Frodat-Fshova, Zoroastrianism, “Avesto”, cults, Central Asia, ritual, religious belief, sacred, mythological imagination, tradition,

Аннотация. Отношения между человеком и природой, между людьми и животным миром связаны с многотысячелетней деятельностью человеческого общества. Верования этого периода нашли отражение в жизненном опыте людей, проживающих в нашем регионе. В основе религиозно-мифологического мировоззрения в некоторых регионах до сих пор сохраняется вера в образы и традиционные персонажи, возникшие как продукт воображения и выражавшие суть мифических верований. Поскольку образ жизни древних народов, населявших Центральную Азию, был напрямую связан с культурой животноводства, их верования легли в основу культа. Например, существование мыслей об имени Фродата-Фшова, считающегося покровителем мелких животных в зороастрийской священной книге «Авеста», указывает на то, какое значение имели культы, связанные со скотоводством, для образа жизни людей в Ранние периоды человеческого общества. В статье рассматриваются образы-покровители и сакральные персонажи в узбекской народной устной прозе

Ключевые слова: мифология, фольклор, проза, Фродат-Фшова, зороастризм, «Авеста», культ, Средняя Азия, ритуал, религиозная вера, священный, мифологическое изображение, традиция.

Kirish. Inson va tabiat, odamlar va hayvonot dunyosi o'rtasidagi munosabatlar kishilik jamiyatining ko'p ming yillik mehnat faoliyati bilan bog'liq. Mintaqamizda yashovchi insonlarning hayotiy tajribalarida shu davr e'tiqodi aks etgan. Diniy-mifologik dunyoqarash zamirida tasavvur xosilasi o'laroq kelb chiqqan hamda o'zida mifik inonchlar mohiyatini ifoda etgan obraz va an'anaviy personajlarga e'tiqod bilan qarash hozirda ham ayrim hududlarda mavjud. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da mayda mollarga homiy sanalgan Frodat-Fshova nomi xususida fikrlarning mavjudligi kishilik jamiyatining ilk davrlarida chorvachilik bilan bog'liq kultlar insonlarning turmush tarzi uchun naqadar ahamiyatli bo'lganligidan darak beradi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

E'tiqodiy qarashlar asosida sakral qahramonlarning paydo bo'lishining tub ildizi qadimgi totemistik va shomonistik tushunchalar asosida kelib chiqqan. Folklorshunoslikda K.Imomov, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev va Sh.Shomusarov, J.Eshonqulov, A.Ashirov, D.O'rayeva, O.Qayumov tadqiqotlarida o'zbek xalqi turmush tarzida uchraydigan qadimiy e'tiqod va marosimlar, tahliliga doir qimmatli fikr mulohazalar mavjud. Qolaversa, qardosh xalqlar folklorshunosligida N, Alekseev [1], A. Seleznyov, I. Seleznyova, I. Belich[2], A.Mirzashova [3], C.Kondibay [4], kabi olimlarning tadqiqotlarida ham chorvachilik bilan bog'liq xalq qarashlari, urf-odatlar, ularning aksariyatida totemizm bilan bog'liq qarashlar ustuvor ekanligi masalasida qimmatli mulohazalar ilgari surilgan. Shu jihatlar e'tiborga olinib, mazkur maqolada e'tiqodiy qarashlar asosida paydo bo'lgan sakral qahramonlar, o'zbek xalq og'zaki nasridagi homiy obrazlar haqida mulohaza yuritilgan. Maqolada 2018-2024- yillarda Navoiy va Buxoro viloyatlarida o'tkazgan ekspeditsiyalarida to'plangan folklor materiallari, shuningdek, axborotchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar jalb qilingan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Filologiya fanlari doktorlari, M.Jo'rayev va Sh.Shomusarovlarning yozishicha, “Voqelikni badiiy idrok etish an'anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folkloridagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo'lgan”[5]. Masalan, har bir kasb-hunarning o'z piri mavjudligi to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'zida aks ettirgan homiy-obrazlar (onalar va yosh bolalarni himoya qiluvchi Umay ona, to'quvchilar piri Bulqisarmast, yamoqchilar piri Boboy Porado'z, Bobo dehqon, chig'irlar piri Noiloj bobo va Ali Chinor, qassoblar piri Jo'mard qassob va h.k.)

O'lkamizda Islom kirib kelguniga qadar shakllangan Cho'pon ota ham ezgu homiy sifatida tasavvur qilinadigan sakral personajlardan biridir. Cho'pon ota to'g'risidagi afsonada aytilishicha, Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning tug'ilishlaridan bir ming yilcha oldin Samarqand shahrining yeri tekislikdan iborat bo'lgan ekan. Bu yerda aholi tinch, totuv yashar ekan. Kunlarning birida bosqinchilar shaharga bostirib kelishibdi. Shu davrga qadar but va ilohlarga sig'inib yurgan aholi bosqinchilar zulmidan qutulish maqsadida o'z ma'budlaridan, ilohlaridan yordam so'rashibdi. Ammo, ma'budlari ularning iltijosini eshitmabdi. Shundan so'ng shaharliklar o'zlari sig'ingan barcha but, haykal, sanamlarni sindirib tashlashibdi. Endi ular yolg'iz Yaratgan Ollohdan yordam so'rashni boshlashibdi. Yer va osmon Xudosisiga ularning iltijosi yetib boribdi. Xudo aholiga yordam beribdi. Ertasi kuni dushmanlar zulmidan xalos bo'lgan Samarqandliklar qayerdandir paydo bo'lib qolgan ulkan tog'ni ko'rib qolishibdi. Tog'dagi tosh ustida uxlab yotgan cho'ponga ko'zi tushgan kishilar mana shu kundan e'tiboran, cho'ponga xaloskor va chorvachilik homiysi sifatida qarab Ota sifatini qo'shib atay boshlashibdi [6]. Qadimgi davrda yashagan kishilarning muayyan qarashlari va diniy inonchlarni o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar va e'tiqodlar majmuini totem asosida kelib chiqqanligi xususidagi fikrlar ko'pchilik folklorshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. S.A.Tokarevning ma'lumotiga ko'ra [7], ayrim urug' yoki qabilaning

—totemi bo'lgan hayvonlar kishilar tasavvurida diniy e'tiqodning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bu o'sha hayvon urug', qabila ijtimoiy xo'jalik hayotida muhim rol o'ynaganligi bilan bog'lanadi. Turkiy mifologiyada ham har bir hayvon turining o'ziga xos homiy ruhi borligi haqidagi qarashlar mavjud. Qadimgi ajdodlarimizning tasavvuriga ko'ra, o'lgan odamlarning ruhi ko'pincha muayyan jonivorlar shaklida moddiylashish xususiyatiga ega deb qaralgan. Rus xalq sehrli ertaklarining tarixiy asoslarini tadqiq etgan V.Ya.Proppning yozishicha, «qadimgi misrliklar o'lgan odam ruhi narigi dunyoga borganida u yerdagi biror narsa yoqmasa, o'zi xohlagan birorta jonivor ko'rinishiga kirib, bu dunyoga qaytib keladi, deb ishonganlar» [8]. Qahramonning muayyan jonivor ko'rinishiga evrilishi yoki jonzotlarning o'z terisini yirtib, odamga aylanishi motivlari qadimgi kishilarning jon bilan aloqador animistik tasavvurlariga bog'liqligini G'.Akramov, B.Sarimsoqov, J.Yusupov kabi olimlar ham e'tirof etishgan. Jumladan, etnograf Y.M.Pesherevaning fikricha [9], O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan qo'yga insonlarni balo-ofatlardan asrovchi ilohiy jonivor sifatida munosabatda bo'lishgan. Qadimgi diniy tasavvurlarga ko'ra, qo'y himoyalovchi jonivor sanaladi. Hozirda ham xonadonlarda qo'y kalla suyagini daraxtga osib qo'yish, «ko'z tekkan» bemorni yangi so'yilgan qo'y ko'zi bilan silash odati mavjud. Xalq e'tiqodiga ko'ra, qo'y kalla suyagi hovlini va uning egalari yomon ko'zdan hamda turli ofatlardan saqlar ekan.

Turmush tarzi chorvachilik va dehqonchilikka daxldor bo'lgan xalqimizda cho'ponlar piri sanalgan Cho'pon ota va Chorvadorlar piri Zangi Ota ruhiga bag'ishlab amallar o'tkazish o'lkamizda islom dini kirib kelguniga qadar ham mavjud bo'lgan. Zangi otaga sig'inish O'rta Osiyo va Janubiy Sibirdagi turkiy xalqlar, shuningdek, Rossiyada istiqomat qiluvchi tatarlar orasida ham keng tarqalgan. O'lkamizda Islom dini tarqalganidan so'ng ham butparastlik an'alarining ayrim qoldiqlari saqlanib qolgan. Qadimda asosiy boylik chorva bo'lganligi sababli, azaliy turmush tarzi chorvachilikka daxldor bo'lgan ajdodlarimiz osmon xudosidan podani ko'paytirish va himoya qilish uchun madad so'rashgan. Shuningdek, chorvadorlarning e'tiqodicha, yaylovdagi har bir hayvonning o'ziga xos piri bo'lgan va har yilda bir marta mana shu e'tiqod qilingan homiy pir nomiga atab qurbonlik qilingan. Qo'y homiysi-Cho'pon ota, qoramol homiysi- Zangiota, ot piri- Qambar ota, echki homiysi- Chig'at ota deb qaralgan. Qozoq xalqlari azaldan chorva bilan shug'ullanganligi sababli, Zangi boboni e'zozlab undan chorvani saqlash, balo-qazodan asrash va ko'paytirishni so'rashgan. «Zangi ota kimga qarasa, darhol boyib ketadi» kabi qarashlar ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, tasavvurlarda totemizmning ayrim xususiyatlari xanuzgacha saqlanib qolgan. Afsonalarda aytilishicha, Turkmanistonning shimol tomonida uzoq yillar yashab o'tgan solih cho'pon bo'lgan ekan. Halollikda nom chiqargan cho'pon dafn qilingan hududidagi tog' va ko'l hozirda Zengibaba deb ataladi. Tatar xalqlari orasida esa Zangi boboga hovli egasi deb qaralgan va sayixsona, molxonada yashashiga ishonilgan. Uni sharafiga vaqti-vaqti bilan qurbonlik qilib turishgan. Hatto chorvachilikdagi ayrim anjomlarga (cho'pon tayog'i, no'xta, tizgin, yugan va boshqalar) muqaddas buyum sifatida qaralgan. Cho'ponlar uchun yaylovda qo'ylarning sog'lig'ini saqlash eng muhim vazifa hisoblangan. Agar yaylovda qo'ylar biror-bir xastalikka chalinib, otarga zarar yeta boshlasa, cho'ponlar jonivorlarni yaylov atrofida joylashgan muqaddas qadamjo va aziz avliyolarning qabrlari tomon haydab borganlar. Shuningdek, chorvadorlar orasida cho'pon tayog'i magik xususiyatga ega deb hisoblangan. Cho'ponlarning odatda har birida bittadan cho'pon tayog'i bo'lib, uni olish sharafiga har kim ham musharraf bo'lmagan. Cho'pon o'z tayog'ini o'z o'g'liga yoki ishongan shogirdi (cho'lig'i)ga topshirgan. Cho'pon tayog'i asosan gujum, tut, tol kabi daraxt novdalaridan qilingan. Cho'pon tayog'ining uzunligi 18 bo'g'imdan iborat bo'lib, undan kalta ham, uzun ham bo'lmagan. Keksa cho'ponlarning so'zlariga qaraganda, cho'pon tayog'i tekkan bo'ri ham ko'p o'tmay jon bergan. Tayoqni ustidan sakrash va sindirish qat'iy man etilgan, ya'ni, tayoq cho'ponlar oldida o'ziga xos ashyo, cho'ponning himoya quroli sifatida qadrlangan. Axborotchilarning aytishicha, Navoiy viloyatining Nurota, Karmana, Tomdi va boshqa hududlarida «Cho'pon to'yi» deya ataladigan marosim o'tkazilgan [10]. Shogird (cho'lig') ustoz oldida mashaqqatli vazifani o'z zimmasiga olganligining isboti sifatida tayog'ni yerga qo'yib, - uch marta uning ustidan sakragan: — «Tayoqday quriy», -deya qasamyod qilgan. «Cho'pon to'yi»da asosan cho'poning qarindoshlari va kekse cho'ponlar ishtirok etishgan. Shogird yigit ko'pchilik oldida ustoz cho'pondan tayoqni qabul qilib olgan. Mazkur marosimda qurbonlik qilish shart bo'lgan. Kekse cho'pon kaltak, xurjun, pichoq, belbog' nishvan (arqon- jindan to'qilgan) kabi cho'ponlar uchun zaruriy buyumlarni shogirdiga taqdim etishi mazkur marosimning asosiy vazifasi sanaladi. Nishvan- uzunligi 1-1,20 m, qo'y yungidan to'qilgan arqon bo'lib, tunda qo'yning bo'yniga podadan qochib ketmasligi uchun bog'langan va cho'ponni uyg'otish maqsadida uni cho'pon uxlayotgan paytida qo'lga bog'lab yotgan. Xalqimiz orasida cho'ponlar piri Cho'ponotaga bag'ishlab is chiqarish va cho'ponlar risolasini o'qish amallarida ham islomiy qarashlarning qadimiy e'tiqodiy kultlar bilan sinkretlashgan ko'rinishlari mavjud.

Хулоса. Umuman olganda O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi odamlarning turmush tarzi chorvachilik madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli ularning e'tiqodiy qarashlari kult zamirida shakllangan. Shuningdek, og'zaki nasrda epik homiy sifatida talqin etilish an'anasi islomning sakral mohiyatini yanada oshirish maqsadida maydonga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев Н. А. Шаманизм тюркоязычных народов Сибири: опыт ареального сравнительного исследования. — Изд-во "Наука, " Сибирское отд-ние, 1984. — 268 с.
2. Селезнёв А., Селезнёва И., Беличю И. Культ святых в сибирском исламе: специфика универсального. — М.: 2009. — 218 с.

3. Мырзашова А. К. Зооморфные признаки интеллектуальной концептосферы казахов и русских // Вестник Карагандинского государственного университета. — Караганда, 2010. — № 02 (58). — С. 13—18.
4. Кондыбай С. Зенги-баба // Казахская мифология. — Алматы: Нурлы Алем, 2005. — С. 127—128. — 272 с.
5. Jo‘rayev M, Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. — T: 2001. — B.10-11.
6. Dissertantning folklor ekspeditsiyasi materiallari: Axborotchi: Samarqand viloyati Narpay tumanida yashovchi Mo‘tabar Shukurovadan 2020 yilda yozib olingan.
7. Токарев.С.А.Ранние формы религии. —М., 1990. —С. 65.
- 8.Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. 2-ое издания. — Л.: Наука, 1986. -с.187
- 9.Пещерова Е.М. Гончарное производства Средней Азии. М., 1959. - С. 100.
- 10.Dissertantning folklor ekspeditsiyasi materiallari: Axborotchi: Karmana tuman Do‘rmon qishlog‘ida istiqomat qiluvchi Bozorov Nuriddindan 2020 yilda yozib olingan.

Muallif:

Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna – Navoiy davlat universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,f.f.f.d(PhD)

UDK 372.881

INFLUENCE OF EUROPEAN LINGUISTICS ON THE INTERPRETATION OF UZBEKISTAN LEXEMES

O‘ZBEK TILIDA LEKSEMALAR TALQINIGA YEVROPA TILSHUNOSLIGINING TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ ЕВРОПЕЙСКОГО ЛИНГВИСТИЧЕСТВА НА ИНТЕРПРЕТАЦИЮ ЛЕКСЕМ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА

O‘razov Alisher Doniyorovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: orazovalisher96@gmail.com

Annotation. In this article, issues such as the impact of European linguistics on Uzbek linguistics, the development of the Uzbek language based on the examples and achievements of European linguistics, as well as the interpretation of lexemes are discussed. It is known that during the European renaissance, various information about the languages of the world increased significantly. The process of gathering important and necessary linguistic materials and facts for the further development of the science of linguistics was carried out. The development of linguistics in Europe did not fail to affect world linguistics. F. Bopp, G. Steinthal, A. Schleicher, K. Fosler, A. Pott, G. Kursius, A. Potebnya, B. de Courtenay, R. Rask, Ya. Grimm, A. The services of advanced linguists such as Vostokov, A. Schleicher, G. Steyenthal, Ferdinand de Saussure were extremely great. Their scientific research led to the rapid development of linguistics. It should also be mentioned that dozens of new linguistic currents and schools emerged in the system linguistics of the 20th century, founded by Ferdinand de Saussure, in which great modern achievements were achieved. In the linguistics of the world, the separation of language units, their speech realization based on the nature of the language, and scientific verification has become the main task of every developed language. Among other things, the scientific research of lexemes as the main language unit among other language units has become one of the main tasks of Uzbek linguists, and in general, some views and opinions on the interpretation of lexemes have been analyzed.

Key words: lexeme, word, European linguistics, system lexicology, language and speech phenomenon, linguistic unit, system

Аннотация. В данной статье обсуждаются такие вопросы, как влияние европейского языкознания на узбекское языкознание, развитие узбекского языка на основе примеров и достижений европейского языкознания, а также интерпретация лексем. Известно, что в период европейского Возрождения значительно увеличились различные сведения о языках мира. Осуществлялся процесс сбора важных и необходимых лингвистических материалов и фактов для дальнейшего развития науки языкознания. Развитие языкознания в Европе не могло не отразиться на мировом языкознании. Ф. Бопп, Г. Стейнталь, А. Шлейхер, К. Фослер, А. Потт, Г. Курсиус, А. Потеня, Б. де Куртенэ, Р. Раск, Ж. Гримм, А. Услуги передовых лингвистов, таких как Чрезвычайно велики были Востоков, А. Шлейхер, Г. Штейнталь, Фердинанд де Соссюр. Их научные исследования привели к бурному развитию языкознания. Следует также отметить, что в системной лингвистике XX века, основанной Фердинандом де Соссюром, возникли десятки новых языковых течений и школ, в которых были достигнуты большие современные достижения. В лингвистике мира разделение языковых единиц, их речевая реализация с учетом природы языка и научная проверка стали основной задачей каждого развитого языка. Помимо прочего, научное исследование лексем как основной языковой единицы среди других языковых единиц стало одной из основных задач узбекских лингвистов, и в целом проанализированы некоторые взгляды и мнения по поводу толкования лексем.

Ключевые слова: лексема, слово, европейское языкознание, системная лексикология, языково-речевой феномен, языковая единица, система.

Kirish. Umumiy tilshunoslikning yaqin o'tmishidan ma'lumki, Yevropada XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, tilshunoslikda jiddiy burilish yuz berdi va jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, "yuksalish" davrini o'z boshidan kechirdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalarini haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga "guvoh bo'ldi", shakllandi. Anig'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

O'rta Osiyoda tilshunoslik faniga qadimdan fan sifatida e'tibor berilib, taraqqiy etib kelayotgan fanlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab esa, O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarda ilm-fan, madaniyatga bo'lgan e'tibor yuksak darajada bo'lganligi bilan izohlanadi. Bu jarayon davom etib, bugungi kunda Oltoy til oilasiga kiruvchi va o'z shakllanish, taraqqiy etish tarixiga ega bo'lgan qadimiy tillaridan bo'lgan o'zbek tili turkiy tillar tarmog'idagi eng peshqadam, o'ziga xos tarixiy taraqqiyotga, zamonaviy ta'limotlarga, ilmiy-nazariy va amaliyot bilan bog'liq jiddiy va puxta tadqiqotlarga ega bo'lgan yetakchi tilshunoslikka aylanib ulgurdi. Albatta, bu Yevropa tilshunosligining ta'siri orqali kechdi.

Tadqiqotning obyekti va qo'llanilgan metodlar

O'zbek tili ilmiy tilshunosligini Yevropa tilshunosligidan kelib chiqqan holda talqin etish davriy bosqichlarini quyidagicha ajratish mumkin bo'ladi. Chunonchi, tilshunoslar 1900-1924-yil, 1925-1940-yil, 1940-1990-yil, 1990-yildan hozirga qadar kabi bo'linish bosqichlariga ajratadilar.

Bugungi zamonaviy tilshunosligining har tomonlama taraqqiyotiga asosiy sababchilardan biri bo'lgan va umuman barcha sathlarni Arab tilshunosligiga asoslanib emas, balki Yevropa tilshunosligiga tayangan holda tadqiq etishni boshlab bergan olim ham, asosiysi ham Abdurauf Fitrat edi [1].

Malumki, Yevropa tilshunosligida Ferdinand de Sossyur va Yevropa tilshunoslarining ilmiy nazariyalaridan keyin tilshunoslik fanida keskin burilish yuz berdi va dunyo tilshunosligi taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, o'zbek tilshunosligi ham Yevropa tilshunosligi sathlari ta'siri va andazasi asosida taraqqiy etib, takomillashib bordi. Yevropa tilshunosligida birinchi bo'lib til hodisalarini va nutq hodisalarini ajratishi va ularning bir-biriga bog'liq holatlari tahlil qilindi. Tilshunoslik fani taraqqiy etar ekan, til va nutq birliklariga qaysi birliklar mansub ekanligi, ularning o'ziga xos tabiati haqida tadqiqotlar olib borildi. Shu jumladan, tobora taraqqiy etib kelayotgan o'zbek tilining o'z tabiatidan kelib chiqqan holda til hodisalarini tadqiq qilish, til va nutq birliklarini ajratish maqsadida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borildi. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, yevropa yoki rus tilshunosligidan o'zbek tilining o'z tabiatidan kelib chiqmay to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishlar (akademik A.Hojiyev ham o'z kitoblarida o'zbek tilining tabiatini hisobga olmasdan ko'chirish o'zbek tilida turli chalkashliklarni ketirib chiqarganini ta'kidlaydi) ham kuzatildi.

O'zbek tilida sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Chunki olamning o'zi yaxlit sistema ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik til sistemalarini o'rganishi bugungi kunda fakt. Bu, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi. Shunday ekan, leksemaning til sistemasida naqadar ahamiyatli ekanligini fahmlash uchun, dastlab, til sistemasi haqida fikr yuritib, unga biroz to'xtalib, ma'lumot berib o'tish kerak, albatta.

Olingan natija va ularning tahlili

Ferdinand de Sossyurning quyidagi nazariyasi tilshunoslik fanida tub burulishga olib keldi, ya'ni til mohiyat (substansiya) emas, balki shakldir (formadir), degan o'ziga xos ta'rifni o'rta taga tashlaydi. Bu bilan u tilni mazmun, mohiyat (substansiya) bilan qorishtirmaslik, undan farqlash lozimligini, til u yoki bu mazmunni (fikrni) ifodalash shakli (formasi), vositasi ekanligini nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlarning tasdig'i sifatida ushbu jummalarni keltirish kifoya, ya'ni til sistemasi turli xil belgilardan iborat. Agar ushbu belgilarga real olamdagi obyektiv borliq kirsa, unda til sistemasini ushbu olamni tashkil qiluvchi lisoniy birliklar va ular orasidagi sintaktik munosabatlar tashkil qiladi. Demak, til sistemasi ma'lum semantik maydonni hosil qilsa, nutq sistemasi esa real nutq doirasida o'z ifodasini topgan lisoniy birliklar majmuyi tushuniladi. Ta'kidlash lozimki, til va nutq sistemasi jarayonida so'zlarning ma'nolari, ularni turli kontekst va holatlarda semantik va stilistik qulayliklardan foydalanish imkoniyatini beradi [2].

Bilamizki, til sistemasida til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash kecha yoki bugun paydo bo'lgan nazariya emasdir. professor H.Nematovning ta'kidlashicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab VIII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligiga oid ilmiy asarlarda uchratish mumkin bo'ladi. XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezoni til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi [3]. Har bir tilda til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu sathlarning har biri o'ziga xos sistema-ichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi-supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy - amaliy vazifa bajaradi.

Til sistemalar sistemasi – o'ta murakkab sistema sifatida jamiyatda ijtimoiy-amaliy vazifa bajarar ekan, shbu jarayonda til sistemasining struktural birliklari, qurilish "a'zolari" faol harakatga keladi. Til sistemasining elementlari, birliklari bo'lgan fonema, morfema, so'z kabilar o'zicha, alohida, yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq holda,

o'zaro munosabatda, mantiqiy uyushgan-bog'langan holda obyektiv borliq predmet, voqea - hodisalari haqida muayyan xabar beradi [4]. Demak, til strukturalari (yarusalari, sathlari) birlashib yaxlit sistemani tashkil qilgan ekan. Va ma'lum bo'ladiki, har bir til o'z sistemasi hamda strukturasi ega ekan.

So'z-leksemani tahlil qilish aslida juda qadimga borib taqaladi. Masalan, qadimgi hindlar so'zlarni tahlil qilish, tarkibini o'rganish jarayonida ularni quyidagi bo'laklarga ajratganlar: 1) o'zak, 2) suffiks, 3) qo'shimcha (turlovchi qo'shimcha). Shuningdek, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ham farqlaganlar. Ma'lum bo'ladiki, so'z-leksema masalasi til sistemasida qadimdan e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan dolzarb til birligi ekan. E'tibor beradigan tomoni, Yevropa olimlari ham hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so'zlardan o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ajratishga "kirishganlar". Qadimgi hind tilshunosligining yana asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi ham edi.

O'zbek sistem tilshunosligi taraqqiy etar ekan, uning tarkibiga kiruvchi makrosistema va mikrosistemalar ham taraqqiy eta boshladi. Shu jumladan, sistem leksikologiya ham. Lisoniy birlikni o'rganuvchi sistem leksikologiya so'zning (leksemaning) tarixan tub yoki yasamaligi bilan ham qiziqmaydi. Sistem leksikologiya uchun so'zning (leksemaning) tuzilishidagi ahamiyatli narsa ayni til birligi tayyor, umumiy, majburiymi yoki u biror qolipning hosilasimi ekanligidir [3]. H.Ne'matov leksemaga o'z munosabatini bildirib, lisoniy birlik hisoblangan leksemaning lingvistik obyekt sifatida oladigan bo'lsak, bu ideal psixoakustik strukturaning ham o'ziga xos xususiyatlari, qurilish qonuniyatlari borligi ma'lum bo'ladi. Leksemalarning tovush strukturalari o'zaro farqlanuvchanlik xususiyatiga egadir. Aks holda, inson taraqqiy etgan o'z tafakkurining katta miqdordagi hosila birliklarini — tushunchalarni (ma'nolarni) bir-biridan farqlay va xotirada saqlay olmas, ulardan kommunikatsiya jarayonida tez va o'rinli foydalana olmagan bo'lar edi [5-8] deya yozadi.

Xulosa. Umuman olganda, leksema tarixiga nazar tashlasak, bu termini qo'llash birinchi marta 1918-yilda rus tilshunosi A.M Peshkovskiy tomonidan taklif etilgan bo'lsa, leksema talqiniga umumiy tilshunoslikda V.V Vinogradov, A.I. Smirnitkiy, A.A.Zaloznyak, A.Martine kabi tilshunoslar ham o'z tatqiqotlarida fikr bildirib o'tishdi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham bu borada ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi. Masalan, o'zbek tilshunosligining yaqin o'tmishida olib borilgan tadqiqotlariga e'tibor berganimizda, shu vaqtgacha erishilgan leksema haqidagi tajribalar, xulosalardan kelib chiqib, leksemaning mohiyatini ochishda ancha mukammal tadqiqotlar yaratildi. Tilshunoslarimiz tomonidan leksemaning lisoniy mohiyati izchil dialektik qonuniyatlarga tayangan holda o'rganila bordi. Bunda E.Begmatov, O.Bozorov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, M.Narziyeva, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov kabi tilshunoslar va ular izdoshlarining ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda o'zbek tilshunoslarining asosiy maqsadi yangi bo'lgan zamonaviy lingvistik tushunchalarni, yevropacha tahlil va tavsif usulidan foydalangan holda, shu mezon asosida o'zbek tilida tasnifi va tavsifini berish edi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. –Toshkent. 2002. 40-bet
2. Badalov F., Yoqubov J. Til va nutq sistemasida frazeologik birliklarning leksik-grammatik turlari. Maqola. Til va nutq sistem-sath tahlilida. 2005. To'plam. 99-bet
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T. :”O'qituvchi”. 1995. 29-bet.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. (Tilshunoslikning nazariy masalalari) 2-qism–Toshkent. “O'qituvchi”. 2006. 34-bet
5. Ne'matov H. Til va nutq. –T. :”O'qituvchi” . 1993. 8-bet.

Muallif:

O'razov Alisher Doniyorovich – Guliston davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasida o'qituvchisi.

UDK: 811.512.133-1

THE POETICS OF TORA SULAYMAN'S LANDSCAPE LYRICS

ТО'РА СУЛАЙМОННИНГ ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИ ПОЕТИКАСИ

ПОЭТИКА ПЕЙЗАЖНОЙ ЛИРИКИ ТОРЫ СУЛЕЙМАН

Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna, Xayitboyev Yorqinjon O'rmonali o'g'li

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: yorqinjonhayitboyev@gmail.com

Annotation. This article talks about the landscape lyric art of Tora Sulayman, the national poet of Uzbekistan. Poet's poems about landscape lyrics included in "Saylanma", "Gul bir yon, chaman bir yon" and other books are analyzed. In the process of analysis, several scientific sources were used and a theoretical approach was taken to the issue.

Key words: landscape lyric, pleonasm, proraism, antithesis, folklore, poem, epic, consistency.

Аннотация. В данной статье рассказывается о пейзажной лирике Торы Сулеймана, народного поэта Узбекистана. Анализируются стихотворения поэта о пейзажной лирике, вошедшие в «Сайланма», «Гул бир ён,

чаман бир ён» и других книг. В процессе анализа было использовано несколько научных источников и применен теоретический подход к вопросу.

Ключевые слова: пейзажная лирика, плеоназм, прорайизм, антитеза, фольклор, поэма, эпос, последовательность.

Kirish. O‘zbek adabiyotida xalqona ohanglar kuychisi, atoqli shoir To‘ra Sulaymon ijodi, xususan, lirik poetikasi alohida ahamiyatga ega. Shoirning “Istar ko‘ngil”, “Qorasoch”, “Men qayga borar bo‘lsam”, “Jahongashta”, “Hamqishloqlarim”, “Intizor”, “Sirdaryo qo‘shiqi”, “Iltijo”, “Alhazar”, “To‘yboshi”, “Sizni eslayman”, “Qorako‘zginam”, “Gulshan”, “Sarvinoz”, “Xarsang”, “Jahonnoma”, “Gul bir yon, chaman bir yon”, “Yovqochdi”, “Sayhon”, “Mamlakatning tayanch nuqtasi”, “To‘ra Sulaymon. Saylanma” singari yigirmadan ziyod kitoblari nashr qilingan bo‘lib, ularda aks etgan ijod namunalari mavzu ko‘lami ham nihoyatda kengdir.

To‘ra Sulaymonning vatanparvarlik mavzusidagi “Muqaddas qo‘shiq”, “Ota makon”, “Toshkent metrosi”, “Go‘zal Gulistonimsan”, “Sirdaryo”, “Bu elning o‘g‘lonlari”, “Faxriya”; didaktik ahamiyatga ega hisoblangan “Bo‘lmasa”, “Yaxshi”, “Ayirma”, “O‘xshaydi”, “Bilingay”, “Nido” va boshqa mavzulardagi qator she‘rlari kitobxonlardagi badiiy didni o‘stiradi. Shuningdek, shoirning lirikasi, dostonlari, maqola-yu xotira, esselarida xushomadgo‘ylik, ta‘magirlik, badiiy saviyasizlik, “o‘xshamaganlik” kabi hodisalar kuzatilmaydi. Professor Qozoqboyo‘ldoshev ta‘kidlaganidek, “To‘ra Sulaymon so‘zga ayri-ayri bir erkinlik bilan yondashib, har qanday asov so‘zni ham yuvvosh torttirib, tasvirga bo‘ysundira oladi. O‘zi so‘zning emas, ruhning stixiyasi yetovida yuradi”. [5]

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida To‘ra Sulaymonning barcha she‘riy to‘plamlari, muallifning shaxsiy arxividagi shoir ijodiga doir manbalar, asosan, 2020-yilda nashr etilgan “Saylanma” kitobi olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Adibning lirikasida peyzajning yuqori namunalari ko‘rish mumkin. “Peyzaj (fr. paysage – joy, yurt) adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqealarning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon tasviridir. An‘anaga ko‘ra peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq, chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma‘noda, masalan, biron bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham peyzaj hisoblanadi”. [2] O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2020-yilda “Sharq” nashriyatida chop etilgan To‘ra Sulaymonning she‘rlar, dostonlar, maqolalar, ocherklar, esselar, xotiralardan iborat “Saylanma”sida o‘ttizga yaqin peyzaj lirikasiga doir asarlarni tadqiq etish mumkin.

Tadqiqotchi Azamat Zaripov o‘zining “Abdulla Oripov peyzaj lirikasi badiiyati” dissertatsiyasida shunday yozadi: “Badiiy adabiyotda tabiat manzarasi shunchaki tasvirlanmaydi, uning asosida ijodkor qismati, his-tuyg‘ular olami, ijtimoiy-estetik qarashlari yotadi. Peyzaj lirikasini o‘rganish asosida har bir davr odamlarining olamga munosabatini aniqlash mumkin. Shu tariqa peyzaj lirikasining mohiyatini belgilovchi yetakchi tamoyillar: olamni badiiy idrok etish, tabiatdan o‘z dardlariga malham izlash, tabiat ohanglaridan she‘riy shakl axtarish, o‘z ijodiy iqtidorini tabiatning yaratuvchilik qudrati ila qiyoslash, tabiatni asrashga chorlash, tabiatga aylanish istagining poetik talqini yuzaga keladi. Bularning barchasi tabiatning falsafiy-estetik mohiyatini chuqur tahlil etish uchun, eng avvalo, uni yuksak did va pokiza qalb bilan his qila bilish zarurligini ko‘rsatadi”. [6] Ta‘kidlaganidek, idrok etish, she‘riy shakl axtarish, qiyoslash, tahlil etish kabi yetakchi tamoyillar To‘ra Sulaymon lirikasida muhim ahamiyatga egadir. Uning ijodiyotida peyzaj lirikasiga oid shunday satrlar borki, ularni o‘qigan kitobxon shoirning tabiat bilan naqadar yaqinligiga, hattoki, bir butunligiga, tabiatsiz o‘zini tasavvur eta olmasligiga, atrofning olam bo‘yicha nuktadonligiga ishonch hosil qiladi.

Shoirning “Baxmal bog‘larida” she‘ri to‘laqonli peyzaj lirikasining namunasi bo‘la oladi. She‘rdagi “tog‘lari qoyali”, “bog‘lari bolli”, “sayhonlari suqsur, so‘nali”, “nomiga munosib ohu, olqori”, “tabiatning tuman giyosi”, “ko‘k bilan tutash Oqtosh, Oqtovi”, “qadamda yilqichi, qo‘ychi o‘tovi”, “g‘ozlidir Sangzor daryosi”, “besh oy qish degani shunda bo‘ladi”, “G‘o‘rolosda yo‘lbars, qoplon na‘rasi”, “Baxmal qimroni”, “yoz qimizi, ayroni” kabi jumlar peyzajni yuzaga chiqaradi.

O‘zi o‘sib, ulg‘aygan zaminning tabiatini, atrofning qay faslda qanday jilovlanishini yaxshi bilgan To‘ra Sulaymon ko‘rgan, kuzatganlarini she‘rlariga mohirlik bilan ko‘chira olgan. Buni quyidagi banddan ham bilish mumkin:

*Aldashmon, Qo‘ng‘irga saratonda kel,
Shikor etmoq bo‘lsang, qahratonda kel,
Yaxshi niyat, yaxshi o‘y, paymonda kel,
Mehmondan boshlanar gapning sirasi,
Baxmal tog‘larida bulbul navosi.* [3]

“Yaxshi niyat, yaxshi o‘y, paymonda kel, Mehmondan boshlanar gapning sirasi” satrlari orqali lirik qahramon qiyofasida nafaqat tabiatni sevuvchi inson, balki mehmonnavoz, yaxshi niyatli insondan jonini ham ayamaydigan o‘zbek qiyofasi anglashiladi.

Adabiyotshunoslikda soʻzbozlik salbiy holat sifatida baholanadi. Uzundan uzun satrlarda qisqa maʼno anglatish oʻquvchini haqiqiy lirikadan uzoqlashtirishi mumkin. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor nasridagi qisqa satrlarda keng mazmuni ifodalay olish uslubi adabiyotshunoslar tomonidan alohida eʼtirof etiladi. Garchi peyzaj tasvir asosiga qurilgani uchun kengroq ifodani talab etsa-da Toʻra Sulaymon buning oʻzgacha yoʻnalishini topadi, yaʼni bir band sheʼrda tabiatning toʻrt faslini ham yorqin satrlar bilan kuylay oladi:

*Bu kun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,
Koʻklamning har nafasi umrga arzigulik,
Bogʻsiz, bogʻbonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, Bahor, mening bogʻimdan. [3]*

Fasllarning har xil mintaqalarda turlicha jarayonda kechishi koʻpchilikka yaxshi maʼlum. Xususan, mart oyida Oʻzbekistonga bahor kirib kelsa, xuddi shu oyda qayerdadir qish hukmini davom ettiradi. Shoir esa yuqoridagi satrlar orqali aynan shunga ishora qilmoqda. “Qay bir yerdagi qish”, “qaydagi xazonrezgilik”, “qaylardagi yoz”, “har nafasi umrga arziydigan koʻklam” singari taʼriflar orqali shoir toʻrt faslni ham ijodiy imkon qadar tavsif etishga urinadi va buning uddasidan chiqadi. Bu esa peyzajning fasllar misolidagi tugal koʻrinishini ifoda etadi.

Shoir sheʼriyatiga eʼtibor bersak, ayniqsa, uning tabiatga oid satrlarini tahlil qilsak, Toʻra Sulaymon eng koʻp murojaat qilgan fasl bahor hisoblanadi. Shuningdek, mumtoz adabiyotdan maʼlumki, badiiy sanʼatlar koʻp qoʻllangan sheʼrlar mazmunan yuksak, haqiqiy sanʼat asari sifatida baholanadi. Adabiyotda tashxis (arabchada — shaxslantirish) — jonlantirish badiiy sanʼatining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, oʻsimliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni koʻchirish sanʼati [1] hisoblanadi. Shoirning “Loladan sep yozib keldi gulbahor” sheʼrida tashxis sanʼati orqali peyzaj yanada ifodali, joʻyali tarzda bayon qilinadi.

*Ming noz bilan qish koʻrpsin koʻtardi,
Qir qoʻynida qoʻziqorin koʻkardi,
Gʻoz, turnalar shimol tomon oʻtardi,
Vohalarda gul tovlanib yotardi,
Loladan sep yozib keldi gulbahor. [3]*

Yuqoridagi satrlarda oʻz aksini topgan “qishning noz bilan koʻrpsini koʻtargani”, “vohalarda gullarning tovlanib yotishi”, “gulbahorning loladan sep yozib kelishi” orqali insonlarga xos boʻlgan odatlar tabiatga koʻchiriladi va shu bilan bir vaqtda peyzaj unsurlarini ham namoyon qilib, sheʼrxonni zavqlantiradi.

Shoir ijodiyotida, xususan, nasrida, nazmida, publitsistik maqolalarida, dostonlarida bironta ham proraizm [2] kuzatilmaydi. Aksincha, Toʻra Sulaymonning xalqona ohanglar bilan yoʻgʻrilgan “Tebratar” sheʼri bugungi kunda koʻpchilik ijod ahli vakillarining sheʼriyatida koʻzga tashlanadigan pleonazmga [2] nisbatan antiteza [2] hodisasini yuzaga keltira oladi. Shoir tabiat hodisalarini, ketma-ketlik va hayot qonuniyatlarini badiiy yoʻsinda ifodalaydi:

<i>Shamol shamolni tebratar.</i>	<i>Qimiz yigitni tebratar.</i>
<i>Shamol bulutni tebratar.</i>	<i>Yigit suluvni tebratar.</i>
<i>Bulut yomgʻirni tebratar.</i>	<i>Suluv beshikni tebratar.</i>
<i>Yomgʻir maysani tebratar.</i>	<i>Beshik bolani tebratar.</i>
<i>Maysa biyani tebratar.</i>	<i>Bola dunyoni tebratar. [4]</i>
<i>Biya qimizni tebratar.</i>	

Shoir sheʼrning birinchi satridagi “shamolni tebratgan shamol”dan yakuniy satrdagi “dunyoni tebratgan bola”gacha boʻlgan davrni oʻzaro mutanosib tasvirlaydi va buning natijasida oʻquvchida yuqoridagi izchillikka nisbatan hech qanday shubha uygʻonmaydi. Chunki bu satrlar borliq qonuniyatlarining inkor etib boʻlmas haqiqatlarini oʻzida mujassam etadi. Toʻra Sulaymonning aynan shu sheʼrida peyzajning tadrijiyligini quyidagicha koʻrish mumkin:

“Shamol” → “bulut”;
“bulut” → “yomgʻir”;
“yomgʻir” → “maysa”;
“maysa” → “biya”;
“biya” → “qimiz”;
“qimiz” → “yigit”.

Oʻzbekiston xalq shoiri Xurshid Davron “Tebratar” haqida shunday yozadi: “Bu sheʼr erta koʻklam shamoli tebratgan olis va kimsasiz dashtning koʻkshin chechaklari shovullashiday sehrli va qadimiy edi. Bu sheʼr Koshgʻariy bobo zamonlaridan, bepoyon va yuksak Tangritogʻ tomonlaridan kelganday edi. Bu satrlarni ilk eshitganimda ularni XX asrning shoiri yozgani mutlaqo xayolimga ham kelmagan, bu koʻhna qoʻshiqni soqolini shamol qoʻmitgan qari, ammo koʻzlari tiyrak baxshi toʻqigan boʻlsa kerak, deb oʻylagan edim”. [7] Xurshid Davron taʼkidlaganidek Koshgʻariy zamonlari-yu Tangritogʻ tomonlaridan keladigan sheʼrlarni yozish uchun ijodkorda yuksak badiiy eying va Yaratgan tomonidan inʼom etilgan isteʼdod boʻlishi kerak. Toʻra Sulaymonning har bir sheʼri esa uning aynan ana shunday isteʼdod egasi boʻlganligidan dalolat beradi.

Shoir lirikasida shunday satrlar mavjudki, uni o'qigan kitobxon nafaqat tabiat tasvirini ko'z o'ngida gavdalantiradi, balki vatanparvarlik ruhida yaxshi asar bilan o'z ruhiy dunyosini oziqlantiradi. To'ra Sulaymon ijodiy laboratoriyasiga murojaat qilsak, shoir umri davomida Sirdaryoda yashab, ijod etgan. Gulistonda turib Mirtemir, Zulfiya kabi O'zbekiston xalq shoirlarining nazariga tushgan. Unga poytaxtda yashash, ishlash va ijod qilish bo'yicha ko'p bora takliflar tushadi, ammo shoir bularning barini rad etadi. Chunki To'ra Sulaymon umri davomida Mirzacho'lga, Sirdaryoga sadoqat bilan asarlar yaratgan. Uning "Bo'ston kezaman" she'ri ham yuqoridagi fikrlarning isboti o'laroq xizmat qiladi.

Cho'l chekinar va lekin chekinmaklik menda yo'q,

Na sho'ri, na taftidan o'kinmaklik menda yo'q,

Sahro qaysarligiga cho'qinmaklik menda yo'q,

Tekin gulzor ishqida suqinmaklik menda yo'q,

Shodon kun o'tkazarman sho'x jarang torim bilan. [3]

Yuqoridagi band orqali niyati qat'iy lirik qahramonning cho'llik ekanligi; sho'ridan ham, taftidan ham qat'i nazar shu cho'lni ardoqlashi; ammo sahro qaysarligiga qarshi tura olib, uni chamanzorga aylantirishi; boshqa gulzorlar chorlaganda ularga suqlanib, cho'lni tashlab ketmasligi kabi insoniy va ijodiy niyatlar anglashiladi. Shuningdek, she'rning keyingi bandida shoir quyidagilarni tarannum etadi:

Har qadamda poyandoz yo'llarimga gulg'uncha,

Sabr etmayin bo'lurmu gulg'uncha ochilguncha,

So'ngsiz qo'riq bag'rida ochilib sochilguncha,

O'tqazgan har niholim bog' ichra yetilguncha,

Bellashgayman bearmon yonimda yorim bilan. [3]

Inson o'z mehnati, azm-u shijoati va salohiyati bilan ko'p ishlarga qodir. Xususan, uning cho'lni obod qilishga, yo'qdan bor qilishga ham qurbi yetadi. Cho'lda ham har qadamda poyandoz bo'la oladigan gulg'unchalarning mavjud bo'lishi, bu kabi gulg'unchalarning ochilguniga qadar cho'lliklar sabr qilishi va ana shunday bog'lar yaratishga hissa qo'shishi – qo'riq vohasining asl shoiri hisoblangan To'ra Sulaymonning ijodiy mahorati orqali badiiyatda o'z aksini topadi.

Xulosa. To'ra Sulaymon lirikasida peyzajga oid she'rlar juda ko'p va ular o'z orginalligi, obrazlilik, she'riy san'atlar bilan birgalikda ifoda etilishi, umumiy qilib aytganda, badiiyati orqali shoirning so'z qo'llash, ma'no va shaklni bir nuqtada kesishtira olish mahoratini ko'rsatadi. Shubhasiz, so'z san'atida azaliy mavzulardan biri hisoblangan tabiat mavzusi To'ra Sulaymon lirikasida yetakchilik qiladi. Bu esa shoirning ijodiyotidagi hayotiylikni, olam va odamning o'zaro bir butunligi natijasida yuzaga kelgan tafakkur mahsulining badiiyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asallayev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2015. – 28 b.
2. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr nashriyoti, 2013. – 128 b.
3. Sulaymon T. Saylanma. – T.: Sharq nashriyoti, 2020. – 20 b.
4. Sulaymon T. Gul bir yon, chaman bir yon. – T.: Cho'lpon nashriyoti, 1995. – 6 b.
5. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018. – 124 b.
6. Zaripov A. Abdulla Oripov peyzaj lirikasi badiiyati. Fil.f.b.f.doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 34 b.
7. kh-davron.uz

Mualliflar:

Fayzullayeva Obida Xolbekovna – Guliston davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori

Xayitboyev Yorqinjon O'rmonali o'g'li – Guliston davlat universiteti magistranti

UDK 372.881

MEANS OF FORMING THE AUTHOR'S STYLE IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY STUDIES

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MUALLIF USLUBINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ АВТОРСКОГО СТИЛЯ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Ko'liboyev Bekzod Orzuboy o'g'li

Renessans ta'lim universiteti. 100071.Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Samarqand darvoza ko'chasi, Charxnovva 17.

E-mail: bekzodkulibayev@mail.ru

Abstract. This article analyzes the main tools in the formation and development of the author's style in English and Uzbek literary studies. The article separately considers aspects such as the author's language, vocabulary, style of expression, and use of grammatical structures in creating works. It also analyzes the methods and approaches used by literary scholars to determine style, and the similarities and differences in English and Uzbek literature. The article helps to determine the creative style of authors by applying modern approaches to stylistics. In this regard, the study of the

methodological approaches of literary scholars in analyzing language and style plays an important role. It shows the tools that form the author's style, as well as the changes that led to the emergence of new scientific approaches in literary studies.

Keywords: author, style, tool, aspect, analysis, synthesis, point, hero, characterization, image.

Аннотация. В данной статье анализируются основные инструменты формирования и развития авторского стиля в английском и узбекском литературоведении. В статье отдельно рассматриваются такие аспекты, как язык автора, лексика, стиль изложения, использование грамматических конструкций при создании произведений. Также анализируются методы и подходы, используемые литературоведами для определения стиля, сходства и различия в английской и узбекской литературе. Статья помогает определить творческий стиль авторов путем применения современных подходов стилистики. Важно изучить методологические подходы литературоведов при анализе языка и стиля. Показаны инструменты, формирующие авторский стиль, а также изменения, которые привели к появлению новых научных подходов в литературоведении.

Ключевые слова: автор, стиль, инструмент, аспект, анализ, синтез, точка, герой, характеристика, образ.

Kirish. Bugungi kunda o'zbek va jahon adabiyotidagi badiiy yangilanishlar, shakliy-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bo'liq. Darhaqiqat, istiqlool yillari o'zbek adabiyoti ham jahon durdonalaridan qolishmagan holda inson ongiga yo'nalgan falsafiy–intellektual ohang ancha kuchaydi. Asarlarda inson ruhiyati, fikrlari, his – tuyg'ularning keng silsilasini turli ziddiyatli bo'yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suratlantirish, shaxsning yuksak milliy–umuminsoniy mohiyatini jonli tarzda ochib berishga intilish yetakchi yo'nalishga aylandi. Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o'zgarishlar ifodasi sifatida ko'ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, o'zgarayotgan ma'naviy olamni idrok etishning yangicha shakl–tamoyillarini kashf etish uslubiy–shakliy izlanishlar tabiati hamda ko'lamini belgilab bera boshladi. Ijod, e'tiqod va so'zga nisbatan munosabat tubdan yangilandi. Natijada, inson va uning xarakterini, ichki va tashqi dunyosini, umid va intilishlarini, hayoti va kurashini ta'svirlash jahon adabiyoti kesimida o'z adabiyotimizda ham asta–sekin rivojlanib bordi.

Tadqiqot metodlari. Qadimgi yunon mutafakkiri Arastu “Poetika”sining “Tasvirlashning turli vositalari” deb nomlanuvchi qismida shunday fikr mavjud: “Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini tasvirlaydilar. Hozirgina eslab o'tilgan san'atlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo so'z va yoxud garmoniya yordamida yoki shularning hammasi uyg'unligida tasvirlaydilar” [1]. Arastu ta'rifi ko'ra, san'at asari hayotda mavjud voqea–hodisalarni badiiy–estetik idrok etish, ularning o'xshashini turli vositalar yordamida aks ettirish orqali dunyoga keladi. Badiiy adabiyotda bu jarayon, shubhasiz, so'z orqali amalga oshadi. Badiiy tasvirga yo'naltirilgan so'z muayyan tartib, mantiqiy izchillik, poetik bo'yoqdorlikni talab etadi. Shunday talablar majmuasi esa badiiy uslubni maydonga keltiradi. Arastu garmoniya, ya'ni mukammal, yaxlit uslubni yuzaga keltiruvchi g'oyaning uch shakli, ta'bir joiz bo'lsa, uchta darajasini keltirib o'tkan. Zotan: “Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini yaratadilar”. Mavjudlikning o'xshashini dunyoga keltirish, boshqacha aytganda, badiiy aks ettirish, adabiyotda uning yagona materiali so'z orqali amalga oshirilgan ekan, so'zni istifoda etishning darajasi mahorat (ko'p mashq qilish), malaka (uzoq vaqt bir narsa bilan shug'ullanish) va iste'dodga bog'liq, – deydi Arastu [1]. Bunday fikr o'z–o'zidan badiiy asar uslubida so'z san'ati ijodkori, muallifning o'rni va shaxsiyati masalasiga borib bog'lanadi. Istaymizmi yo'qmi, bundan qat'i nazar, muallifning darajasi badiiy asar, demakki, badiiy uslub darajasini belgilaydi. “Uslub demak – odam demakdir” degan fikr aynan shu jarayonda o'zining aniq mantiqiy ifodasini topadi [7].

Zamonaviy Sharq va G'arb adabiyotshunosligiga doir qarashlarni ma'lum darajada sintez qilishga muvaffaq bo'lgan professor Abdurauf Fitrat o'zining “Adabiyot qoidalari” darsligida “Uslubning umumiy va xususiy hollari” degan sarlavha ostida badiiy uslubga doir qator masalalar xususida to'xtaladi. Uslubning xususiy jihatlari o'laroq, Sharq mumtoz adabiyotida uzoq tajribadan o'tkan badiiy san'atlar (sifatlash, o'xshatish, istiora, kinoya, majoz, jonlantirish, mubolag'a, so'rash, undash, qarshilik, qaytish, kesish, burilish, so'z o'yinlari, tajnis, laffu nashr, saj', ta'rix, muammo) kabi tasvir vositalarini qayd etsa, umumiy jihatlari sifatida tuzuklik, soflik, ohang ochiqlik, uyg'unlikni ko'rsatadi. Albatta, bu o'rinda olimning badiiy ijodga xos ikki asosiy tur doirasida fikr yuritganini nazarda tutish joiz. Fitratgacha bo'lgan o'zbek adabiyotida ko'proq lirik tur asosida ish ko'rilgani sababli Sharq mumtoz she'riyatida ming yillardan beri istifoda etib kelingan badiiy san'atlarning uslub markaziga qo'yib o'rganilishi tabiiydir. Biroq shunga qaramasdan, Fitratning badiiy san'atlarni har uch adabiy tur doirasida muayyan poetik vazifa bajaradi, degan fikri o'zini oqlaydi. Shu bilan birga Fitrat dahosiga xos bo'lgan bunday yondashuv uslubning har qanday adabiy tur va janr uchun umumiy qonuniyatlari borligidan ham dalolat beradi [4]. Badiiy uslubni quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir:

Yozuvchining stilistik yondashuvi (mavzular, obrazlar, til usullari va boshqa badiiy vositalar). Adabiy makon: badiiy uslubning ma'lum bir adabiy makonda (epoxa, jamiyat sharoiti, madaniyat) qanday shakllanishi va taraqqiy etishi. Badiiy uslub va tilning birligi: til va uslubning o'zaro bog'liqligi va bu jarayonda estetik va ideologik g'oyalar qanday

namoyon bo'lishi. Badiiy uslubni tahlil qilishda o'zbek adabiyotshunosligi quyidagi yondashuvlarga asoslanishi mumkin: Tarixiy kontekst – badiiy uslubning tarixiy rivojlanishi, turli davrlar va jamiyat sharoitlariga bog'liq o'zgarishlar. Ijtimoiy, madaniy va etnik elementlar – adabiyotda o'zbek xalqining urf–odatlarini, an'analari va etnografik jihatlari qanday aks etganligi. Yozuvchining shaxsiy yondashuvi – badiiy uslubning individual va ijodiy jarayonlardagi roli.

Natijalar va munozaralar. Rus adabiyotshunosi V.Jirmunskiyning fikriga ko'ra: “Badiiy asar uslubi faqat uning tiliga oid hodisa emas, balki tasvir vositalari, badiiy so'z orqali ifodalangan badiiy asarning mavzu ko'lami, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi kabi unsurlariga ham taalluqlidir” [5]. Olim qarashlarida yuqoridagi fikrlarga nisbatan badiiy asar strukturasi tomon bir qadar chuqur kirib borish, konkretlashish bor. Badiiy asar va uslub masalasini struktura jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, olim sanab o'tkan barcha poetik komponentlar uslub originalligi va yaxlitligini ta'minlovchi vositalar ekani bilinadi. Birinchidan, asar mavzusining nimaga, kimga va qaysi davrga qaratilgani uslubga ta'sir etmay qolmaydi. Tarixiy asar uslubi bilan zamonaviy mavzudagi asar uslubi orasiga tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Misol uchun, garchand mavzu jihatdan ancha yaqin (kolxozlashtirishga doir) bo'lishiga qaramasdan, Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon” qissasi uslubi bilan, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asari uslubi o'zaro keskin farq qiladi. Ularning birinchisida XX asr boshlariga xos badiiy til xususiyatlari ustunlik qilsa, ikkinchisida 50–60–yillar badiiy ifoda tarzi yetakchilik qiladi. Yoki bunday farqlanishni bir yozuvchining ikki mavzuda yozgan asari misolida ham uchratishimiz mumkin. Deylik, A.Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” asari uslub jihatdan “Sinchalak” qissasi uslubiga nisbatan tubdan farqlanib turadi. Ikkinchidan, badiiy asardagi obrazlar tabiati, ular orasidagi munosabatlar (konfliktlar, harakat va dialoglar) ham uslub saviyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ulug'vor tabiatga, ezgu niyatga ega qahramon tasviri, shu qahramonning monologlari, dialoglari tuban va yovuz niyatli qahramonga xos shunday unsurlardan o'zgararoq bo'ladi. Ikki va undan ko'p qutblarni birlashtirgan roman, qissa va hikoyalarda bir butun tizimni tashkil qiluvchi obrazlar guruhi nafaqat xarakter, portret va badiiy maslak jihatidan, balki so'zlash, fikrlash, muloqot tarzlari nuqtayi nazaridan ham alohidalik kasb etganligi uchun tom ma'nodagi badiiy asar maydonga keladi. O'tkan asrning 80–yillarida uslub muammosini jiddiy o'rgangan adabiyotshunos O'rol Nosirov “uslub” termini doirasida “adabiy uslub”, “badiiy uslub”, “individual uslub”, “san'atkor uslubi”, “asar uslubi”, “yo'nalish uslubi”, “davr uslubi”, “zamonaviy uslub”, “romantik uslub”, “realistik uslub”, “milliy uslub”, “sotsialistik uslub”, “sotsialistik realizm uslubi” kabi tushunchalar ham vujudga kelganligi, hattoki, bir fan doirasida ham uslub bir necha tushunchada chunonchi, “adabiy uslub”da butun bir tarixiy davr adabiyotida namoyon bo'lgan umumiy belgilar (“davr uslubi”), u yoki bu xalq adabiyoti milliy spetsifikasini xarakterlovchi elementlar jamuljami (“milliy uslub”), u yoki bu adabiy maktab, oqimga mansub usul va vositalar birligi (“romantik uslub”), biron–bir san'atkor ijodiga xos xarakterli xususiyatlar yaxlitligi (“individual uslub”), konkret asarga xos xarakterli xususiyatlar birligi (“asar uslubi”) kabi tushunchalar qo'llanilganini ta'kidlaydi. Ammo bu o'rinda uslubning zamon, makon, muayyan yo'nalish yoki individual uslub bilan bog'liq jihatlari bevosita asar muallifi shaxsida aks etishini nazarda tutish lozimligi e'tibordan chetda qolgan ko'rinadi. Chunki biron bir millat davr, adabiy oqim yoki yo'nalishga mansublik bevosita muallif faoliyati, qolaversa, taqdiridan kelib chiqadi. Adabiy uslub, badiiy uslub, asar uslubi terminlari esa bevosita badiiy asar tushunchasida tashkil topadi. Shunga ko'ra tugal badiiy asar uslubi ikki jihatdan – muallif shaxsiyati va badiiy asar uslubi tarzida o'rganilganda yuqoridagi tushunchalarning hammasini qamrab oladi. Shu tariqa uslub muammosini o'rganishda sun'iy murakkablikning ham oldi olinadi. Fikrimizning isboti sifatida G'.G'ulomning “Shum bola” asarini keltiradigan bo'lsak, yozuvchi biografiyasi va asari uslubini o'rganish orqali uning qaysi adabiy yo'nalish, qaysi millat va qaysi davrga tegishli ekani haqida to'liq tasavvur hosil qilamiz. Muhimi, O'.Nosirov sanab o'tkan tushunchalarning hammasi jamuljamlikda G'.G'ulom va “Shum bola” qissasi uslubi degan umumlashtiruvchi tushunchada in'ikosini topadi.

Adabiyotshunos N.Shukurov ham shu yo'ldan borib, “davr uslubi”, “milliy uslub”, “oqim uslubi”, “uslubiy oqimlar”, “sotsialistik realizm uslubi” kabi istilohlar borligini ta'kidlab, uslub muammosini shu doirada o'rganishga moyilligini bildiradi. Holbuki, bunday qarashlarni bugungi kunda sho'rolar tuzumi to'la hukmronlik qilgan davrlarda shaxs tushunchasiga bo'lgan biryozlama qarash oqibati, deb baholash to'g'ri bo'ladi. Shuningdek, professor H.Boltaboyev o'zining “Nasr va uslub” deb nomlangan monografiyasida uslub istilohiga xos qator an'anaviy fikrlardan voz kechib, “badiiy asar uslubi”, “adib uslubi”, “badiiy oqim uslubi”, “davr uslubi” kabi muhim istilohlarni taklif etadi. Olimning uslub tushunchasini badiiy asar uslubi, adib uslubi tarzida belgilashi biz ilgari surayotgan muallif shaxsi va badiiy asar uslubi konsepsiyasiga tayanch vazifasini o'taydi. Davr uslubi istilohi mustaqillik davri adabiyotidagi keskin evrilishlar, sho'ro davri adabiyotiga nisbatan jiddiy tanqidiy munosabatni ifodalasa, badiiy oqim uslubi tushunchasi ostida olimning 90–yillarga kelib o'zbek adabiyotida ko'zga yaqqolroq tashlangan realizm va modern uslub o'rtasidagi farqlanishni nazarda tutgani ayon bo'ladi. Haqiqatan ham 90–yillarga qadar rasman yagona sotsialistik realizm talabi hukm surgan o'zbek adabiy muhitida adabiy oqim uslubi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Ayniqsa, nasriy ijoddagi adabiy oqim bilan bog'liq uslub rang–barangligi mustaqillikdan keyingina yorqin ko'rina boshladi. Shu ma'noda professor H.Boltaboyevning o'zbek nasriga nisbatan adabiy oqim uslubi istilohini qo'llashi adabiy jarayondagi manbalar misolida o'zini to'la oqlaydi [2].

Muallif nutqi ikki xilda ifodalanadi: muallif–hikoyachi nutqi hamda qahramon hikoyachi nutqi. Muallif–hikoyachi nutqi. Bunda voqealar yozuvchi tomonidan so'zlab beriladi. Peyzaj tasviri va qahramonlar qiyofasi, fe'l–atvori,

ularning ruhiy holati, ma'naviy takomili hamda ularning ongida ro'y bergan o'zgarishlar muallif–hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi. Muallif–hikoyachi nutqida voqelikni tashqaridan kuzatish, tasvirlanayotgan voqea–hodisalarga o'z munosabatini oshkora yoki yashirin bildirish tarzi sezilib turadi. Misol uchun, Xudoyberdi To'xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asaridagi parchani keltirishimiz mumkin: “Og'ir urush yillari... Shu urushning kasofati butun–butun qishloqlar huvillab qolgan. Yosh–u qari barcha urushning tashvishi bilan yashaydi, ular bir oz quv, bir oz sho'x–shaddod, bir oz latifago'y, juda ham pok Orifjon ismli bola ham bor. Urush kulfatlari uning ham yelkasiga tushgan.”

Qahramon hikoyachi nutqi. Ayrim asarlarda yozuvchi asar voqeasini atayin qahramonga hikoya qildiradi. Masalan, voqealar G'afur G'ulomning “Yodgor” qissasida Jo'ra tilidan, Asqad Muxtorning “Davr mening taqdirimda” romanida Ahmadjon tilidan, O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida Rustam tilidan hikoya qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Buni yozuvchining badiiyestetik niyati bilan bog'liq ehtiyojdan kelib chiqqan desak adashmagan bo'lamiz. Misol uchun, Xudoyberdi To'xtaboyevning “Besh bolali yigitcha asari” qahramon tilidan hikoya qilinadi: “Eshagimning o'lar–qolariga ham qaramay ketma–ket xala bosib, qamchilab uchirib ketyapman. Bu xabarni tezroq opamga yetkazishim kerak otamning oldiga esa hozir borib bo'lmaydi, juda uzoqda, qirning tagida! Armiyaga olsa nima bo'пти? Hammaning otasini olgan–da, mening otamni ham olishlari aniq edi–ku!” [9] Yozuvchi uchun o'z qahramoni haqida uning qanday ekanligini aytishdan ko'ra, qandayligini ko'rsata olish, ko'rsatganda ham personajning xatti–harakati, o'z xayollari, dunyoqarashi, atrofdagilarga bo'lgan munosabatida namoyon qila olish, ya'ni uni to'laligicha aks ettira olish katta yutuqdir. Qahramonlar nutqi dialogik yoki monologik nutq ko'rinishlarida bo'ladi. Dialogik nutq, ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotidir. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud. “Besh bolali yigitcha” asarida quyidagi misolni ko'ramiz: Shu paytda negadir juda, juda ham g'alati bo'lib ketdim. Tomog'imga iliq bir narsa tiqilgandek butun vujudim bo'shshib ketgandek bo'ldi, yig'lab yubordim. – Ie, tentak, nega yig'laysan?. – Ona! – Nima gap o'zi? – Xafa bo'lmaysizmi? – Nega xafa bo'lar ekanman! – Yig'lamayman, deb so'z bering! – Avval ayt–chi! – Yo'q, avval so'z bering. – Ha, aka so'z berdim. – Otamni... – dedim–u, yana yig'lab yubordim. Monologik nutq esa badiiy asar qahramonlarining o'z–o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqidir. Ham she'riy ham nasriy asarlarda ishlatiladi. Badiiy asarlardagi maktublar asosan monologik yozma nutq ko'rinishida bo'ladi (eslang: Kumushning Otabekka yozgan maktubi, yoki Otabekning Kumushga yozgan maktubi). She'riy matnlarda lirik qahramon kechinmalarini tugal tasvirlash uchun monologik nutqdan foydalaniladi. Ichki monologik nutq – “qahramonning o'z–o'zi bilan ichdan gapirishi, fikrlashi, fikr va tuyg'ularining ichki ifodasidir. Ichki monologda qahramon o'zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi, shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o'z–o'zini ochadi. Ichki monolog so'zlashuv nutqidan o'zining ochiq va oshkoraligi bilan ajralib turadi: “Kim nima desa deyaversin. Lekin dunyoda sataroshlikdan yaxshi kasb yo'q. O'sha har xil uylar qurib, odamlarni xursand qiladigan injenerlar ham, maza qilib she'rilar o'qiydigan shoirlar ham, qiziqchilik qilib hammani qiqirlatib kuldiradigan artistlar ham baribir egilib sataroshga salom berishadi.” [6].

Ingliz adabiyotida badiiy uslubning ilmiy–nazariy tahlili ham juda boy va rang–barangdir. Somerset Moem kabi yozuvchilarning asarlarini o'rganishda ularning stilistik yondashuvlari, asarlarning estetik va ideologik xarakteristikasi, o'ziga xos shakllari va janrlari alohida o'rganiladi. Ulug'bek Hamdam asarlarida esa xalqning hayotini tasvirlash, tasavvuf va ijtimoiy muammolarni ko'tarish, ma'naviy qadriyatlar, hamda shaxsning o'z–o'zini anglash masalalari asosiy mavzulardir. Uning uslubida metafora, an'analarga tayanish kabi o'ziga xos tasvirlar ko'p uchraydi. Ingliz abiyotida ham bunday badiiy uslub vositalari qo'llangan bir necha misollarni uchratishimiz mumkin. **Charlz Dikkensning “Katta umidlar”** asarida, Pipning ijtimoiy mavqei va orzulari orqali Viktoriya davri –Angliya jamiyatining turmush tarzi, ijtimoiy qiyinchiliklari va ziddiyatlari yoritilgan. Estellaning shaxsiyati va uning ta'sirchanligi orqali esa jamiyatdagi turli qatlamlar tasvirlanadi hamda ingliz jamiyatining ijtimoiy muammolarini, sinflararo farqlarni va adolatsizliklarni ko'rsatiladi. **Shuningdek, Jorj Orvellning “1984”** asarida Vinston Smit – totalitar jamiyatdagi oddiy inson obrazida yoritilgan. Vinstonning kurashi va ijtimoiy hodisalarni anglash jarayoni orqali jamiyatning qanday o'zgarishi va nazorat tizimlari tasvirlanadi. Asar, totalitarizmning xavfini va inson erkinligining ahamiyatini ko'rsatadi. Yuqoridagi misollar orqali, o'zbek va ingliz adabiyotidagi sotsial obrazlar badiiy uslub vositasi sifatida jamiyatning turli jihatlarini, muammolarini va ijtimoiy hodisalarni chuqur yoritishga yordam berishini, o'quvchilarga ijtimoiy muammolarni anglash va ularni hal qilishda yordam beradi, deyishimiz mumkin. Badiiy asarning kompozitsiyasi ham badiiy uslubni shakllantiruvchi asosiy vositalaridan hisoblanadi. Uning tarkibi, tashkil etilishi, voqealarning qanday tartibda yoritilishi va fikrlarning qanday aloqada bo'lishi, badiiy uslubning ichki jihatlaridan biri bo'lib, u asarning mazmunini yetkazishda va o'quvchini asar bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi birinchi va ikkinchi darajali kompozitsiyalarni qo'llash orqali asrni yaratish mumkin. Birinchisi –asarning asosiy voqealar tizimi (sarlavhalar, bosh voqealar), ikkinchisi –yordamchi yoki ortiqcha ma'lumotlar (o'quvchining o'zini anglash jarayoni, psixologik yoki falsafiy motivlar) bo'lishi mumkin. Shuningdek, Somerset Moemning **“Inson qulligi”** asarida esa qahramon Filip Kareyning hayotiy tajribasi va uning jamiyatdagi o'rni epik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Filipning o'z hayotidagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar, o'quvchini chuqur hayajonga soladi. Filip Karey asarning bosh qahramoni bo'lib, uning hayotiy sarguzashtlari va shaxsiy qiyinchiliklari tasvirlanadi. Filip kuchli iroda va qat'iyat bilan ajralib turadi, shuningdek, uning jismoniy nuqsonlari va hayotiy izlanishlari epik obrazni shakllantiradi. Filipning yetimlikdan boshlangan hayotiy yo'li, tibbiyotdagi izlanishlari va

sevgidagi muvaffaqiyatsizliklari orqali u shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash yo'lida epik qahramonga aylanadi. Mildred Rogers Filipning sevgilisi bo'lib, u asarda murakkab va ziddiyatli shaxs sifatida tasvirlanadi. Mildredning shaxsiy muammolari va uni atrofidagi insonlar bilan munosabatlari asarda katta ahamiyatga ega. Mildredning Filip bilan munosabatlari, uning o'ziga xosligi va shaxsiy izlanishlari orqali epik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Torpe Atelney asarda Filipning do'sti va qo'llab-quvvatlovchisi sifatida tasvirlanadi. U samimiy, mehmondo'st va madaniyatli inson sifatida epik obrazni shakllantiradi. Atelneyning Filipga yordam berishdagi roli va uning hayotdagi qadriyatlarini epik tarzda tasvirlanadi. **"Inson qulligi"** asaridagi epik obrazlar Somerset Moemning yozuvchilik mahoratini ko'rsatadi. Filip Carey, Mildred Rogers va Torpe Atelney kabi obrazlar o'zlarining shaxsiy qiyinchiliklari, izlanishlari va hayotiy tajribalari bilan o'quvchilarga chuqur taassurot qoldiradi. Yoki **"Oy va sariq chaqa"** romanidagi Charles Striklandning hayoti va san'atga bo'lgan muhabbati epik obraz sifatida tasvirlanadi. Striklandning o'z qarorlariga sodiqligi va jamiyatdan ajralib chiqishi, o'quvchini o'ziga jalb qiladi. E.Hemingueyning qisqa va aniq jumalari A.Qodiriyning realistik va keng tasvirlangan syujetlari bilan qiyoslanadi. Heminguey qisqalik bilan kuchli ta'sir qiladi, Qodiriy esa kengroq tasviriy detallar bilan hayotiylikni oshiradi.

Virginia Vulfning modernistik uslubi qahramonlarning ichki dunyosini va subyektiv tajribalarni yoritisa, Shukur Xolmirzayev milliy realizm uslubida yozadi va milliy urf-odatlarini tasvirlaydi. E.Hemingueyning qisqa va aniq jumalari uning minimalist uslubini namoyon qiladi. "For Sale: Baby shoes, never worn." (Sotiladi: hech qachon kiyilmagan chaqaloq poyabzallari,) Bu qisqa jumla, to'liq hikoyani kitobxonga yetkazishda kuchli ta'sir ko'rsatadi [10]. V.Vulf uzun va murakkab jumalar ishlatadi, ko'pincha ichki monologlar bilan boyitadi. "Mrs. Dalloway said she would buy the flowers herself. For Lucy had her work cut out for her." [11].

Yozuvchining paragraf tuzilishi, ya'ni qisqa yoki uzun paragraflar, fikrlarning qanday ajratilishi va tasniflanishi ham uslubga ta'sir qiladi. Virginia Vulf, masalan, "She felt somehow very like him—the young man who had killed himself. She felt glad that he had done it; thrown it away..." [11] kabi uzoq va murakkab paragraflarni ishlatadi. Bundan tashqari, asarlarning boshlanishi, rivojlanishi, cho'qqi nuqtasi va xulosasi ham yozuvchining uslubiga oid elementlar hisoblanadi. E.Heminguey esa qisqa va tezda asosiy fikrni yetkazadi. "The sun was shining, the water was blue. He was hungry, but he didn't care." (Quyosh porlardi, suv ko'k edi. U och edi, lekin unga ahamiyat bermadi.) [3].

Virginia Vulfning modernistik uslubi qahramonlarning ichki dunyosini va subyektiv tajribalarni yoritisa, Ernest Hemingueyning minimalistik uslubi ko'proq kichik jumalar va qisqa tasvirlardan iborat bo'lib, o'quvchiga chuqurroq ma'nolarni kashf etish imkonini beradi. Madaniy va tarixiy kontekst asarlarning badiiy uslubini shakllantirishda katta ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan sanaladi. Har bir yozuvchi o'z davrining madaniy va tarixiy voqealari, urf-odatlarini va an'analarini ta'sirida ijod qiladi. Asar janri ham tashqi jihatdan badiiy uslub vositasida sifatida qaraladi.

Xulosa. Badiiy uslubni shakllantiruvchi vositalar badiiy asarlarni yozish jarayonida qo'llaniladigan til va uslublar tizimi bo'lib, har bir yozuvchi o'z uslubini shakllantirishda tarixiy, madaniy, ijtimoiy sharoitlarni hisobga oladi. Shu bois, badiiy uslubning ilmiy–nazariy tahlili nafaqat yozuvchining individual uslubini, balki adabiyotning umumiy taraqqiyotini, estetik va ijtimoiy funksiyalarini ham o'rganishni talab qiladi. Adabiyotshunoslikda badiiy uslubning ilmiy tahlili muhim ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz adabiyotshunosligida badiiy uslubni o'rganish adabiy tahlilning ajralmas qismidir. Badiiy uslub asarlarning mohiyatini anglash, yozuvchilarning til va ifoda vositalaridan qanday foydalanishini tushunish, shuningdek, adabiyotning estetik va ideologik xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi. Adabiyotshunos Qozoqboyo'ldoshning "asl badiiy asar maullif uslubi vositasida yozuvchi nafaqat zamondoshlariga, balki kelajak avlodga ham ta'sir o'tkaza oladi. Shuning uchun ham adibning siyosiy mansubligi, ijtimoiy xayrixohligini tadqiqi etishdan ko'ra, uning ijodiy yo'rig'i, badiiy olami qonuniyatlarini kashf etish muhimroqdir. Negaki, chinakam badiiy asar abadiyot bilan yuzlashmoqqa da'vogar bitikdir hamda kelajakka ham xizmat qilishi kerak" [8] degan fikrlari, biz so'z yuritayotgan o'zbek va ingliz adabiyotshunosligida badiiy uslubni shakllantiruvchi vositalarga oid tadqiqalarimizni quvvatlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 20
2. Boltaboyev H. Nasr va uslub – Toshkent: Fan, 1992. – B. 4
3. Ernest H. The Old Man and the Sea – Asiaing.com, 1952. – pp.30-33
4. Fitrat A. Uslubning umumiy va xususiy hollari – Tanlangan asarlar. 4–jild, Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi prof. H.Boltaboyev. – T.: Ma'naviyat, 2006. – B. 17.
5. Jirmunskiy V. Stixotvoreniye Gyote i Bayrona: Ti znayesh kray? MGU. 1961. – S.29.
6. Qodiriy A. O'tkan kunlar – Yangi asr avlodi. T.: Yangi asr avlodi, 2006 – B.123-130
7. Xoldarov D. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida). – T.: 2017. – B. 94
8. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 187
9. To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha – Yangi asr avlodi, 2009. – 79
10. Vitalii Sh. The Hemingway's Six-Word Story Effect: A Psycholinguistic Verification Hryhorii Skovoroda University in Pereiaslav (Ukraine), 2021
11. Woolf V. Mrs. Dalloway – London, Alma classics LTD, – 1925. pp.103

Muallif:

Ko'liboyev Bekzod Orzuboy o'g'li - Renessans ta'lim universiteti, "Xorijiy filologiya" kafedrasini o'qituvchisi.

UDK 372.881

ETHNOTOPONYMS OF SYRDARYA REGION

SIRDARYO VILOYATI ETNOTOPONIMLARI

ЭТНОТОПОНИМЫ СЫРДАРЬНСКОЙ ОБЛАСТИ

Kenjayeve Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: kenjayeve88iroda@gmail.com

Abstrakt. The article analyzes the issue of ethnotoponyms of the Syrdarya region. The influence of ethnonyms in the formation of toponyms of the Syrdarya region, the appropriation of desert lands by various Uzbek clans, and the giving of ethnic names to the appropriated places are discussed. Ethnotoponyms serve as illustrative material of the article.

Keywords: Language, word, term, toponym, ethnotoponym, anthroponyms, stable toponyms.

Аннотация. В статье анализируется вопрос этнотопонимов Сырдарьинской области. Влияние этнонимов в формировании топонимов Сырдарьинской области. Существует мнение о присвоении пустынных земель различными узбекскими кланами и присвоенных мест этнических названий. Иллюстративным материалом статьи служат этнотопонимы.

Ключевые слова. Языковое слова, термин, топоним, этноним, антропонимы, устойчивые топонимы.

Kirish. Sirdaryo viloyati toponimlarini o'rganish jarayonida etnonimlar asosida shakllangan toponimlarning bir nechta aniqlandi. Aytish mumkinki, Sirdaryo viloyatida etnonimlar ellikka yaqin geografik obyekt nomlarining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Bu holat ayniqsa O'zbekiston toponimiyasining shakllanishida birmuncha ko'pchilikni tashkil qiladi. Chunki O'zbekistonda etnonimlar ko'plab toponimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan [5, 76-85].

Etnonimlar borasida keng qamrovli tadqiqot olib borgan X.Doniyorov o'zbek millatining etnik tarkibini turk-o'zbek, qipchoq-o'zbek, o'g'uz-o'zbeklari tashkil etganligini, bulardan turk-o'zbeklar, asosan, *qarluq, chigil, tuqsi, yag'mo, yag'bu, yoboqu, tangut, arg'u* kabi turkiy qabila-urug'larning birlashishi natijasida tashkil topganligi, bular o'zbek millatining eng qadimgi va eng birinchi komponenti bo'lib hisoblanishini qayd etgan [2, 96]. Sirdaryo viloyati mikrotoponimlari sirasida etnotoponimlar salmoqli o'rni egallaydi. Izlanishlar natijasida ellikka yaqin toponimga etnonim asos bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ishning obyekti "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati"dagi toponimlar, tadqiq predmeti – toponimlarning qo'llanishi va talqin etilishi, izohlanishi, toponimlar izohi va berilishi. Tadqiq materiali "Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati"dagi etnotoponimlar.

Sirdaryo viloyati toponimlarining kelib chiqish omillari, nomlanish sabablari, leksik-semantik va onomastik-grammatik, tarixiy-etimologik, etnolingvistik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Ishda, lingvogeografik, tahlil va umumlashtirish, nominativ-onomasiologik, tasniflash, funksional-semantik usullardan foydalanilgan: etnotoponimlarning qo'llanishini bayon etishda, tushunchalarning tushuncha ifodalashida paydo bo'luvchi yangi xususiyatlarni tavsiflashda tavsiflash metodidan; har qanday tushunchaning voqelanishi matniy xoslanganligini, toponimlar matndan tashqarida ham tushuncha anglata olishi, ifodalashini asoslashda kontekstual tahlil metodidan; toponimlarning leksik-semantik hodisalarini tavsiflash va farqlashda, ularning o'ziga xoslanishlarini yoritishda qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan; toponimlarni qiyoslash va farqlashda o'rni bilan qiyosiy-tarixiy metodidan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sirdaryo viloyatida xalq, millat, qabila va urug'lar hamda ularning tarmoqlari nomi bilan atalgan quyidagi geografik obyektlar shakllangan. Aholi punktlari: *Qarapchi, Parchayuz, Nayman, Uyas, Uvoq, Xitoy, Qoraxitoy, Boyovut* va b. [3].

Qarapchi – Boyovut tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Yuz qabilasining bir tarmog'i. Ba'zi olimlarning fikricha, *qarapchi* so'zi *qarovchi nozir, nazorat qiluvchi* deganidir, chunki qarapchilardan biylar, beklar, qo'mondonlar ko'p chiqqan (Qorayev, 2005:208). Tojikiston Respublikasi Shahriston tumaniga qarashli Qarapchi qishlog'idan ko'chib kelgan aholi yashaydigan joy nomi.

Parchayuz – Xovos tumanidagi qishloq nomi. Jizzax viloyati Zomin tumaniga qarashli Parchayuz qishlog'idan ko'chib kelgan aholi joylashgan yer. *Parchayuz* – yuz qabilasi tarkibidagi urug, "yuz qabilasining bir parchasi, bo'lagi" demakdir. Boshqa qabila, urug'lar tarkibida ham *parcha* etnonimi uchraydi.

Parcha (forscha erkalash-kichraytish affiksi "pora") – *parcha, qoldiq, nimaningdir kichkina qismi* [1]. *Parcha* termini o'zbek qabilalarining qator nomlarida uchraydi: *parcha-burqut, parchaqaramang'it, parchamitan, laqayparcha, parchaqipchoq* va boshqalar. *Parcha* termini urug' va qabilalarning turli qoldiqlari yoki qabilaviy birlashishlarini ifodalaydi.

Shuningdek, u kichkina qismni yoki urug'-qabila ittifoqlari yoki katta o'tmish qabilalarining qoldiqlarini ifodalashi mumkin. Agarda shunday bo'lsa, *parchaqipchoq* qipchoq bo'lmagan urug' va qabilalar hamda qator qipchoq qismlarini birlashtiradi. Bu xususida *parchaqipchoq* birlashmasiga kiradigan urug' nomlari va ularning tarkibi guvohlik beradi [7].

Nayman – Mirzaobod va Oqoltin tumanlaridagi qishloq. “Nayman” – etnik guruh bo'lib, o'zbek millatining tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi. Shuningdek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham naymanlar bor. Tarixning guvohlik berishicha, Temuriylar sulolasining hukmronligi tugagach, ko'chmanchi o'zbeklar o'troqlasha boshlagach, nayman nomida qishloqlar paydo bo'lgan [3].

Naymanlar – qadimda turkiy va mo'g'ul xalqlari tarkibida bo'lgan qadimiy qabila. O'zbek, qozoq, qirg'iz, no'g'oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining O'zbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Naymanlar o'zbek xalqining *saroy* qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni *naymansaroy* deb ham atashgan.

Mo'g'ul tilida *nayman* so'zi “*sakkiz*” degan ma'noni bildirgan. Shu ma'no tufayli naymanlarni *sakkiz urug', qabila, turkiy xalq* deb ham izohlashgan.

Taniqli toponimist T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, etnonimning so'nggi qismi hisoblangan *man (mon)* so'zi turkiy tillarning o'tmishida “*odam(lar)*”, “*kishi(lar)*”, “*urug'*” ma'nosini bildirgan. Qishloq nomiga *nayman* urug'i nomi asos bo'lgan. Respublikamizning ko'plab tumanlarida uchraydigan qishloqlar nomidir. Naymanlar, A.D.Grebenkin ma'lumotlariga qaraganda, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon, Farg'ona vodiylari va Xorazmda yashagan hamda uchta yirik urug'ga – *qo'shtamg'ali, sadirbek va voxtamg'ali* urug'lariga bo'lingan.

Bulardan tashqari, naymanlar *ag'ran, ayronchi, badir, biya, bag'anali, bukalay, burunsov, jag'alboyli, jestovon, jilonli (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oqto'nli, segizuruv (sakkizurug'), sarinayman, to'rtul (to'rto'g'il, to'rtovul), to'rttamg'ali, urguch, uchul, changali, cho'michli, qozoyoqli, qoragadoy, qorasiroq, qarg'ali, qiltamg'ali, qo'ltamg'ali, chirqirovuq, chuvulloq, oltamg'ali* kabi mayda tarmoqlarga ham bo'linadi. Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on va Narpay tumanlarida naymanlarning *oltio'g'il, po'lotchi, ulus, zarman, kichikdik, qoranayman, zaxnayman* bo'laklari bor. Nayman etnonimi qirg'iz, oltoy, no'g'ay, shuningdek, qozoq xalqlari tarkibida uchraydi.

Akademik V.V. Bartold “*nayman*” so'zi mo'g'ulcha bo'lib, “*sakkiz*” ma'nosida ekanligi, demak, ushbu xalq *sakkiz* tarmoq (urug')ga bo'linishini ko'rsatadi.

Rashididdin nayman feodal davlati haqida hikoya qilar ekan, Bukaxon Taybuka, Buyruqxon, Qushluk (Kuchluk) kabi hukmdorlar nomini tilga oladi. Naymanlar shajarasida sof turkiy ismlar uchraydi. Naymaning uch o'g'li – Tokpan, Yelota, Ukrashlar bo'lib, ularning avlodlari keyinchalik nayman urug'lari tarmoqlarini tashkil qilgan.

Qayd etilgan nomlarning paydo bo'lishi, bir tomondan, tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan nom berish an'alariga bog'liq. Hududdagi *Turkmanovul, Turkovul, Tojikovul, Qozoqovul* kabilar ma'lum manzillarga turli xalq va millatlarning turli sabablar bilan kelib o'rtnashishiga borib taqaladi. Shu nomlar asosida paydo bo'lgan *Pastki qayirma, Qorasiroq* kabilar aholining ortishi, aholi punktlarining kengayishi natijasi sanaladi.

Bolg'ali, Qarapchi, Parchajuz, Beshjuz, Nayman, Qipchoq, O'roqli, So'loqli kabilar esa turkiy qavmlar nomlari asosida shakllangan etnotoponimlardir.

Raqamlardan ikki sonini ifodalashga xizmat qiladigan qo'sh so'zini kuzatish mumkin:

Beshqo'sh – Mirzaobod tumanidagi qishloq bo'lib, o'zbek urug'laridan birining nomi. Asosiy aholisi “*beshqo'sh*” urug'idan bo'lgani uchun ushbu qishloq nomini olgan. Ikki so'ziga ma'nodosh sifatida qaraladigan qo'sh elementi toponimik atamalar orasida yolg'iz qo'llanmaydi. Sababi *qo'sh* so'zi omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, u ikki soni bilan aloqador ma'nolarni hamda “safar, sayohat va sh.k.da vaqtincha qo'nish joyi; vaqtinchalik qarorgoh” [6, 482] ma'nosiga ega. *Qo'sh* elementli toponim tarkibida joyning sonini emas, balki uning alohidaligini ajratib ko'rsatishga, ta'kidlashga, joyni boshqalardan farqlashga xizmat qiladi.

Mo'g'ol toponimi Xovos tumanidagi qishloq nomi. *Mo'g'ol, mug'ol* – etnonim. Nomning birinchi komponenti qishloq aholisining turkiy mo'g'ol qabilasidan ekanligini ko'rsatuvchi so'z. Mo'g'ullar istilosi davrida O'zbekistonga kelib o'rtnashib qolgan turkiy qabilalardan biri *mug'ul, mo'g'ul* deb ataladi. Rashididdinning qayd qilishicha, *mo'g'ul* so'zi dastlab *mungol* tarzida qo'llanib, “*kuchsiz, soddako'ngil*” ma'nosini bildirgan. Aholining etnik tarkibi qishloqning nomlanishiga asos bo'lgan.

Etnotoponimlarning aksariyat qismi oykonimlar, ular mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabatini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. To'plangan etnotoponimlar tahlili hudud miqyosida ularning areali turlicha ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi davrda bu borada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilib, geografik obyektlarga nom berilayotganda ularning ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi hamda mintaqa toponimiyasi tarkibida uyg'unlik hosil qilib, singib ketishini unutmashlik darkor. Albatta, viloyatning har bir tumanidagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish komissiyasi a'zolari geografik obyektlarga nom berishda hududning mahalliy xususiyatlari borligini inobatga olmo'g'i lozim. Etnonimlarni, urug'-qabila nomlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganishda tarixiy va lisoniy ma'lumotlardan keng

foydalanib, ularning etimologiyasi va hududiy tarqalish areallarini, shakllanishida ta'sir ko'rsatgan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarni ilmiy asosda tadqiq qilish zarur. Ma'lumki, har qanday mustaqil davlat o'z hududidagi toponimlarga befarq bo'lmaydi. Chunki, nomda davr madaniyati, zamon ma'naviyati va mafkurasi, nomlovchilarning dunyoqarashi aks etgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, nom davr, zamon, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli. Nom paydo bo'lgan davr tarixini yaxshi bilmasdan, uning zamiridagi ma'noni anglash qiyin. Buning uchun kamida nomlashga asos bo'lgan ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlab olish zarur. Joy nomlangan paytlarda uning ma'nosi va nomlanish sabablari shu nomni qo'ygan aholiga aniq ma'lum bo'lgan. Nom tanlashda hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, mahalliy geografik terminlari, aholining tili va shevalari, tarixi, etnografiyasi kabi omillarni inobatga olinadi. Etnotoponimlar mintaqa aholisining tarixi shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabatini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, ч. I. – С. 308.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 96 б.
3. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 92 b.
4. Ermatov I. Sirdaryo toponimlari. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2024. – 88 b.
5. Қораев С. Топонимика. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006. – Б. 76-85.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 482.
7. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974.

Muallif:

Kenjayeva Iroda Alisherovna - Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 372.882

SPIRIT AND COLOR HARMONY IN UZBEK LITERATURE

O'ZBEK ADABIYOTIDA RUHIYAT VA RANG UYG'UNLIGI

ГАРМОНИЯ ДУХА И ЦВЕТА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Mamirova Umida Xoljigitovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: u1680729@mail.ru

Abstract. This article explores such issues as color revealing the psyche, symbolic meanings, and the transfer of the symbolism of color in the author's psychology to the work. Also, there are opinions about the uniqueness of the expression of different meanings through the same color in different works. It is also shown that color is not a stable concept, it can have different meanings in different countries, and the reasons for this change. The expression of color content by other objects is proved by example in Uzbek literature. In addition, it was mentioned that character of the image can be revealed by connecting the color with the psyche. The use of colors and mood in works of art is gradually shown by the works.

Key words: creativity, symbolism, symbol, spirituality, creativity, creative thinking, subconscious, interior.

Annotatsiya. Ushbu maqolada rangning ruhiyatni ochib berishi, ramziy ma'nolari va muallif psixologiyasidagi simbolikasi asarga ko'chishi kabi masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, rangning boshqa-boshqa asarlarda bir xil rang orqali turli ma'no aks ettirib, ifodalanishining o'ziga xosligi haqida ham fikrlar keltirilgan. Rang barqaror tushuncha emasligi, u turli mamlakatlarda boshqa-boshqa ma'noda kelishi mumkinligi va bu o'zgarishning sabablari ham ko'rsatilgan. Rang mazmunini boshqa predmetlar bilan ifodalanishi o'zbek adabiyotida misol orqali isbotlangan. Bundan tashqari, rangni ruhiyat bilan bog'lagan tarzda obraz xarakterini ochish mumkinligi ham aytib o'tilgan. Ranglar va ruhiyatning badiiy asarlarda qo'llanilishi dadrjiiy ravishda asarlar misolida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijod, simbolika, ramz, ruhiyat, badiyat, badiiy tafakkur, ong osti, botin.

Kirish. Adabiyotda biror asarni rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rang asarga ko'rk berish bilan bir qatorda asardagi obrazlarga, lirik kechinmalarga qo'shimcha mazmun berish bilan birga ramziy ma'nolarini, qahramonlarning ruhiy holatlarini ochib beruvchi vositadir. Iste'dodli ijodkorlar ham aynan rangdan nom olgan bir qancha asarlar yaratgan. Masalan: "Qizil va qora", "Qora odam", "Oq kema", "Oq sut va oppoq nur", "Qora kitob", "Qarolar falsafasi" va boshqalar. Bu asarlarda rang faqatgina nomiga xos bo'lmay, ijodkor g'oyasi va maqsadini o'quvchiga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega. Rangning faqat san'atda rassomchilikda emas, adabiyotda ham o'zining chuqur o'rni va ma'nosi mavjuddir.

Tadqiqot obyekti va qo'llangan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Anbar Otinning "Qarolar falsafasi", Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", Abdulla Qahhorning "Ig'vogar" asarlari, Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azali va Oybekning "Na'matak"

she'ri olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik, funksional tahlil usullaridan foydalanilgan

Olingan natijalar va ularning tahlili

Adabiyot fan sifatida shakllanibdiki, uning ob'ekti inson hisoblanadi. Insonning shakl-u shamoyilini o'rganish, albatta, adabiyotning ishi emas. Insonning ruhiyati murakkab bo'lib, bu murakkablikni o'rganishdek mas'uliyatli vazifa adabiyotning chekiga tushgan. Insonning kayfiyati, qobilyati bevosita uning ruhiyatiga bog'liqdir, ruhiyat esa alohida mutaxassislar tomonidan o'rganiladigan sohaga aylangan. Ammo adabiyotshunoslar badiiy tafakkur orqali inson ruhiyatini, ong ostini va botinini o'rganadi. Bu ishni esa badiiy obrazlar vositasida amalga oshiradi. Badiiy adabiyotda ruhiy holat ranglar orqali ham yuzaga chiqishi kuzatiladi. Bu kuzatuv natijasida jahon va o'zbek adabiyotlarida rangni qo'llash qadimdan borligini va bu tadrijiy ravishda ma'lum darajada hududlararo o'zgarishga ham uchraganining guvohi bo'lganmiz.

Ranglar turli asarlarda turli obrazlarning bir –biriga o'xshash yo o'xshamaydigan xarakterini ochib berishga xizmat qilganining guvohi bo'lamiz. Abdulla Qahhorning "Ig'vogor" hikoyasidagi obraz qop-qora kiyimda yurishi uning ruhiyatini ochishdagi eng asosiy detal vazifasini bajargan. "Ig'vogor" hikoyasida o'sha qora kiyimli obrazning xarakteridan kelib chiqib, uni ig'vogor deb ataydi. U ig'vo bilan biror joyda huzursizlik chiqarmasligi uchun uning ortidan kuzatib yuradi. Ko'rinib turibdiki, ig'vo va qora rang yonma-yon keltirilayapti. Qora bu yerda ham yovuzlik ramzi sifatida qo'llanadi. Hatto, asarga ham qahramon sifati ko'chiriladi. Jahon adabiyotidagi yozuvchi Paola Koeloning "Alkimyogar" asaridagi Alkimyogar ham dastlab qop-qora kiyimda uchraydi. Bu obraz donishmand bo'lib, A.Qahhor obrazidan tubdan farq qiladi. Demak, har doim ham qora rang salbiy qahramonlarning xarakterini ochish uchun qo'llanilavermasligining guvohi bo'lamiz. Qora rang qorong'ilik, salbiylik, yovuzlik ramzi emasligini Anbar Otinning "Qarolar falsafasi" asarida ham ko'rishimiz mumkin. Arab, Eron, Afg'on, Hind, Kashmirning qora tanli mehnatkash xalqini tasvirlaydi. U yerda yashovchilarning yuzlari qora bo'lsa ham, ko'ngillari oqligini aytadi. Yana kishi go'zalligining asosi ham qora qosh, qora ko'z ekanligiga ham to'xtalib o'tadi.[5]

"Biror asarda rang bilan bog'liq o'rinlarda obrazlar qaysidir mamlakatning ijtimoiy-ma'rifiy, estetik, ma'naviy-ruhiy, diniy, falsafiy qarashlarini aks ettirayotgan bo'ladi"[4]. Ranglar faqat asar qahramonlaridan boshqa ijodkor ruhiyatini, didini, fe'lini ochib beruvchi vosita ham sanaladi. Ya'ni ijodkor yoqtirmagan obrazni, holatni yo birorta predmetni o'zi yoqtirmagan rang orqali ifodalaydi. Shuning uchun ham rangni barqaror deyish qisman xato hisoblanib, turli mamlakatlarda rangning simvolik ma'nosi o'sha hududning turmush tarzi, e'tiqodi, mehnat faoliyatiga ham bog'liqdir. Shu bois boshqa mamlakatlar adabiyotidagi ranglar o'z davlatlarining dunyoqarashlaridan kelib chiqib, biror ma'no kasb etadi. G'arb mamlakatlarida oq rang motam ma'nosini bildiradi, Sharqda esa yorug'lik, yaxshilik timsoli. Bir predmetning boshqa- boshqa ma'nolarda kelishi Oy misolida ham ko'rinadi. Yevropaliklar Oyni jaholat ramzi deb salbiy qaraydilar. Chunki g'ami bor insonning ko'ziga uyqu kelmaydi, uxlolmagan odam esa uyga sig'may yo derazadan tashqariga qaraydi, yo tashqaridan osmonga boqadi. Shu Oy g'amli kunidan bir xotira bo'lib qolaverar ekan. Sharq adabiyotida esa Oy go'zallik timsolidir. Ba'zan adabiyotimizda ishorali ranglar ham uchraydi, ya'ni bir predmed tilga olinadi, ammo uning rangi nazarda tutiladi. Bu rang va predmet bir ma'no kasb etayotgandek go'yo. Masalan, oy-oq, qon-qizil, ko'mir-qora, oltin-sariq kabi ranglar o'xshatilish orqali hosil qilinadi. Ijodkorlar personaj yoki lirik qahramonning ruhiy ahvolini ko'rsatishda predmetlarni qo'llaganligining misoli tariqasida ushbu g'azalni keltiramiz:

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yashurdi,

Ey siyimbarim, xoh inon, xoh inonma.[6]

Ma'lumki, ishqdan azoblangan qahramonning ayriliqdagi holati sariq rang bilan ifoda etilmoqda. Umidsiz, firoqda qolgan lirik qahramonning yuzi sarg'aymoqda. Hatto, oltindan ham sariqligiga ishora bor.

Ranglardan foydalanish orqali ijodkor o'z ichida tug'yon urayotgan hislarni yoki o'quvchiga oid bo'lgan his-tuyg'ularni junbushga keltirish ham mumkin. Shu bois ham ijodkorlar o'z asarlarida rangning ramziyligidan foydalanadi. Ranglarda shunday bir qadim ma'nolar aks etadiki, bu ma'no bir hududda yashovchilarning ongida uzoq vaqtlardan o'z ma'nosi bilan qotgan holda o'rnashib olgan bo'lib, nazmiy yoki nasriy asarlardagi lirik qahramon shu ma'noning bir bo'lagiga aylanib ketgan bo'ladi. O'quvchi ham ko'z oldiga u qahramonni shu holda keltiradi boshqachasini tan ham olmaydi. Ba'zan ijodkor shunday chiroyli, zavqli, sevimli asar yaratadi. O'sha asarda u qaysidir ma'noda yangi ramziylikni ham kashf qilib qo'yishi kuzatiladi. O'sha she'rda bu rang predmetga yarashiqli va mustahkam yopishishi bilan bir qatorda o'quvchisining ham ko'ngliga estetik zavq beradi. Iste'dodli shoir Oybekning mashhur she'ri "Na'matak"da ko'rishimiz mumkin:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak,

Yuksakda, shamolning belanchagida.

Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,

Viqor-la o'shshaygan qoya labida,

Nafis chayqaladi bir tup na'matak...[7]

Yuqoridagi she'rda aks ettirilgan na'matak gulining rangi oq bo'lib, bu she'r bilan tanishgan har qanday inson na'matak gulining rangi deganda dastlab oq rangli gulni ko'z oldiga keltiradi.

Xulosa. Bugungi kunda diniy leksikaga qayta murojaat qilishimiz zamonaviylik va o'tmish o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning tiklanayotganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, dinning nima ekanligi, turlicha izohlansa-da, umuman olganda din – ishonmoqlik tuyg'usidir. Bunday tuyg'usi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki biron-bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Insoniyat tarixida din turli shakllarida: fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik kabi qanday ko'rinishda namoyon bo'lgan bo'lmasin u diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg'u va sig'inish obyektlarini o'z ichiga oladi.

Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy ahloq, me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi.

Diniy leksika yillar, asrlararo o'z mohiyatini, ahamiyatini va dolzarbligini yo'qotmaganligi, aksincha, har qanday davrda qo'llanilishi omili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy hayotning barcha sohasida kishilik jamiyatida tarbiya, madaniyat va o'zaro muomalalar normasining belgilangan darajasi dunyoviy bilimlar bilan birga diniy ilmi ham o'rni o'ziga xos va inkor etib bo'lmas zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горюшина Р.И. К вопросу о термине конфессионального характера. 2007, № 3-2 - 48 с.
2. Лейчик В.М., Шелов С.Д. Лингвистический проблемы терминологии и научно-технический перевод. – М.: 1990. – С.77.
3. Потебня А.А. Мысль и язык. Т.1. – Одесса, 1922.
4. Биков Р.А. Новые религиозные движения как способ формирования социокультурного опыта в постиндустриальном обществе: диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук, - Томск, 2011.
5. www.qomus.info
6. Морковкин В.В. Основные функции лексических единиц. Вестник РУДН, сер. Вопросы образования: Языки и специальность, 2007, №1, - С. 43.
7. Qo'shoqova V. Til funktsional rivojlanishining sotsiolingvistik tahlili (o'zbek tili misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona, 2019. – B. 17.
8. Макуховская М. Функционирование современного польского языка. Язык религии. – Ополе, 2002, – С. 369-402.
9. Максимович Й.Е. Религиозная лексика на страницах Российских СМИ и проблемы культуры речи. – С. 134.
10. Тарасова Ф.Х., Мухамеджанова Е.Р. Изучение исламского (русского) социолекта в социолингвистике. Современный мусульманский мир, 2017. №2. - С. 10.
11. Мечковская Н.Б. Язык и религия. – М.: Гранд, 1998. - С.33.
12. Улуков Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, – Тошкент, 1997.
13. Кўзиёв У. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: фил.фанл. бўйича фалс. док-ри илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, 2018. – Б. 99.
14. Галиева М.Р. Теолингвистика. Истоки, направления, перспективы. – Т.: Изд-во “ВнешИнвестПром”, 2018. – С. 64-86.

Muallif:

To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna - Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

УДК 821.512.133(092)

ARTISTIC INTERPRETATION OF ISSUES OF FREEDOM AND ENLIGHTENMENT IN THE POEMS OF AVAZ UTAR

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СВОБОДА И ПРОСВЕЩЕНИЯ В СТИХАХ АВАЗА УТАРА

AVAZ O'TAR SHE'RLARIDA HURRIYAT VA MA'RIFAT MASALALARINING BADIY TALQINI

O'tanova Sirdaryoxon

Toshkent Amaliy fanlar universiteti, 100050. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och daha.

E-mail: utanova14@mail.ru

Abstract. At the beginning of the 20th century, themes such as national independence, freedom, union, progress and enlightenment did not leave most intellectuals indifferent. Avaz O'tar stands out among them. In the article analyzed the artistic interpretation of freedom and enlightenment in the poems of Avaz Utar. Extremely relevant issues that came to the agenda at the beginning of the last century: independence of the land, enlightenment, salvation of the people from ignorance were studied on the example of the creation of Avaz. The originality of the lyrical hero of the poet, his innovativeness in the creation of the image was evidenced by examples. In general, the work of each poet belongs to a certain period. Therefore, from the point of view of their time, the assessment given by scientists and researchers is relative. The study of the article shows that the work of Avaz O'tara does not lose its relevance at all times.

Keywords: Awaz Utar, freedom, image, enlightenment, poetry, development, nation, poetry, poetry, independence

Аннотация. В начале XX века такие темы, как национальная независимость, свобода, союз, прогресс и просвещение, не оставляли равнодушным большинство интеллектуалов. Среди них выделяется Аваз Утара. В статье проанализирована художественная интерпретация вопросов свободы и просвещения в стихах Аваз Утара. Чрезвычайно актуальные вопросы, которые встали на повестку дня в начале прошлого века: независимость страны, просвещение, спасение народа от невежества, были исследованы на примере творчества Аваза.

Оригинальность лирического героя, новаторство в создании образа поэт доказал на примерах. Вообще творчество каждого поэта принадлежит определенному периоду. Поэтому с точки зрения своего времени оценка, данная учеными и исследователями, относительна. Исследование статьи показывает, что творчество Аваса Утара не теряет своей актуальности во все времена.

Ключевые слова: Авас Утар, образ, свобода, просвещение, поэзия, развитие, нация, поэзия, вес стихотворения, независимость.

Kirish. Soʻzda mohir Avaz Oʻtar sheʼrlari davrning dolzarb muammosiga aylangan Milliy istiqlol, Hurriyat, Ittifoq, Taraqqiyot va Maʼrifatni anglatish kabi mavzularda yozilgani bilan yanada diqqatga molikdir. U oʻzi mansub hududning eng ogʻriqli nuqtalarini teran anglagan ziyoli, olim, koʻlamdor shoir edi. Ijtimoiy-siyosiy voqelikning badiiy ifodasi janrlar strukturasi va obrazlar tizimidagi oʻzgarishlarni, badiiy talqindagi ijtimoiylashuvni, individual idrokni, yangi uslubiy yoʻnalishlarni hamda publitsistik ifodaga asoslangan realistik tasvirni taqozo etdi. Bular yangilanayotgan davr, uning adabiyotining xos belgilari edi. Avazning sheʼrlari badiiy jihatdan goʻzal, poetik ifodasi mukammal, mazmunan va gʻoyaviy pishiq boʻlmasa-da, davrning muhim chizgilari hozirjavoblik va tezkorlik bilan, eng maqbul shakllarda ifoda etilgani bilan ajralib turadi. Asosiysi, anʼnaviylik va zamonaviylik uygʻun bir shaklda namoyon boʻlib, ikki maydonga koʻprik vazifasini bajarib berdi.

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Avaz Oʻtarning turli yillarda nashr qilingan kitoblari, shuningdek, unga zamondosh Sidqiy, Avloniy, Mulla Sodiqlarning ayrim sheʼrlari urkumlari olingan. Masalani yoritishda qiyosiy-tipologik, konseptual tahlil, qiyosiy-tarixiy hamda kontekstual tadqiq metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zero, vaqt tegirmoni Avaz Oʻtar sheʼriyatining hamma zamonlar uchun dolzarb boʻlganini koʻrsatmoqda. Bunga uning birgina “Millat” radifli gʻazali ham dalil boʻla oladi. “Ey millat” undovi ostida butun Turkiston ahlini kurash zamonini yetganidan ogoh qiladi. 1917 yilda Rusiyada boʻlib oʻtgan Fevral inqilobiga katta umidlar bogʻlagan shoir millatning har ishida ravnaq – yuksalish boʻlishiga astoydil ishonadi:

Topar erkan qachon, yo Rab, hayoti jovidon millat?

Topib ilmu hunar birla maorifdan nishon millat?

Vatanparvar fidoyi firqalar to boʻlmayin paydo,

Na mumkin topmogʻi oʻlgan tanigʻa toza jon millat? [1:19]

Garchi bu asar aruzning “mafoiylun” vaznida yozilgan boʻlsa-da, anʼnaviy lirikadan farqli oʻlaroq, obrazlar tizimida oʻzgarishlar yuz bergan. Chunonchi, “millat”, “Vatan”, “maktab”, “taraqqiy”, “vatanparvar”, “maorif”, “firqa” singari soʻzlar bosh obraz oʻlaroq kirib kelgani koʻzga tashlanadi. Shuningdek, ushbu sheʼr misolida shuni kuzatish mumkinki, “hayoti jovidon”, “komron”, “jonfido”, “gʻamxor”, “oʻlgʻan tan” kabi kalimalar ishqiylirikada tez-tez duch kelinadigan tushunchalar boʻlsa-da, matnda tamomila yangicha yoʻsinda, millatning gʻam-qaygʻusi, vatandoshlarning hazin nolasi, istibdod ostida bemor boʻlgan odamlarning ichki kechinmalari ifodasi uchun xizmat ettirilgan:

Fido millat yoʻligʻa molu jon etma kerak, har kim –

Boʻlay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat.

Ochib har bir saridan maktabing unvonin aylab choʻx,

Taraqqiy aylamasmi oʻqubon behaddu son millat?

Bu yangligʻ olam ahlidin keyin qolmay yurish ayla,

Avaz boʻlgʻay uyoni komkoru komron millat.

Lirik parchadan Hurriyat va Istiqlol shunchaki istak bilan qoʻlga kelmasligi, bu uchun har bir Vatan farzandi haqiqat mayogʻini baland koʻtarib, shonli bir xizmatkor yangligʻ harakat qilishga chorlov maʼnolari tushuniladi.

Avaz Oʻtar sheʼridan oʻquvchida yana bir boshqacha taassurot uygʻonadi. Ilm-fan, texnika va sanoatda toʻxtovsiz ilgarilab borayotgan Yevropaning ibrat qilib koʻrsatilishi, ammo tadanniy – maʼnaviy-axloqiy tubanlik ularning inkori ekanligini anglatishga urinish, shoir mansub boʻlgan hudud aholisining ham endi dunyoga ochilayotganidan, atrofga tanqidiy koʻz bilan qarayotganidan bir ishora beradi:

Taraqqiy aylamak lozim jahon ahli boʻlub bir tan,

Bilurga borcha ilm ila hunarni yashasun millat!

Gʻazalning keyingi baytlarida esa taraqqiyni maqsad qilgan musulmon axloq meyorlariga, shariatga rioya qilishi lozimligi, dinsiz holda ilgarilay olmasligi, mazhabsiz esa halokat yoqasiga borib qolishi qayta-qayta eslatiladi.

Ochib har navʻi maktab emdi himmatni qilib oliy,

Vatanni qilgʻoli obod lozim aylasak gʻayrat. [1:17]

Ijod ahli hamma vaqtlarda boʻlganidek, taʼsirchan asarlari bilan millat ongidagi oʻzgarishlarga, tafakkurda yangilanishlarga birinchilardan boʻlib yoʻl ochishgan. Natijada, milliy davlatchilik qurish borasidagi saʼy-harakatlarning sekin-sekin boʻlsa-da, ommaning siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirgani koʻrinadi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Avaz asarlarini nashrga tayyorlagan olim Y.Yusupovning: “Avaz rus madaniyati, ilm-fani va rus tilini samimiyat bilan sevdi. U yoshlarni dadil suratda rus madaniyati va rus tilini o‘rganishga chaqirdi. Bu jihatdan uning “Til” she‘ri juda ahamiyatlidir” tarzidagi talqini real haqiqat bo‘lib, haqiqatdan ham she‘rdagi:

Har tilni biluv emdi bani Odama jondur,

Til vositai robitai olamiyondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,

Bilmakka oni g‘ayrat eting, foydali kondur.

Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,

Anda o‘qiganlar bari yaktoyi jahondur, -[1:21]

misralarda til bilishning dolzarbligi “foydali kon”, “yaktoyi jahon” singari istiora va tashbehlar bilan uqtilgan. Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotshunosligida Avaz O‘tarning “Til” she‘ri mazmun, g‘oya, dolzarblik va badiiy ifoda jihatlaridan ham yuqori baholanib, alohida o‘rin egallagan. Til o‘rganishning mohiyati, siyosiy ahamiyati, yoshlarni faol bo‘lishga chaqirish va mustaqil fikrlashga da‘vat ruhi ustunlik qilgan mazkur sodda va nihoyatda kuyunchaklik bilan yozilgan misralarda millatparvar o‘zbek ziyolisining hozirjavobligi, Vatan istiqboli, el-yurt erkinligi uchun old safda amaliy harakatga o‘tgan ko‘rinadi. U o‘lkadagi siyosiy iqlimning barcha nozikliklari bilan tushungani uning ijodida ham aks eta borganki, XX asrning birinchi choragida yaratilgan adabiy asarlarga ilmiy nigoh tashlagan prof. B.Qosimov shunday degan edi: “1916-1917 yillarda yozilib, tezkorlik bilan bosilib chiqqan bu asarlar xalqimiz milliy ongidagi o‘zgarishlarni kuzatishda, mustaqillik va uning uchun kurash g‘oyasining adabiyotga kirib kelishi tadrijini belgilashda muhim ahamiyatga ega” [9:13].

Shuningdek, Avaz bir she‘rida maktabni vayron millatni obod etuvchi osoyish joyi, ko‘ngillarni shod etuvchi ma‘rifat uyi ekanligiga qayta-qayta urg‘u beradi. Devonda shu mazmundagi she‘rlarni o‘qir ekanmiz, muallif maktabga, yosh avlodga katta umid bog‘laganini his etish mumkin. Jami 7 baytli quyidagi g‘azalning takrorlanuvchi radiflari xalqni birlikka, hamjihatlikka va jon-dil bilan g‘ayrat ko‘rsatishga undashi bilan yanada ahamiyatlidir:

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,

O‘qusin yoshlarimiz, ko‘nglini shod etgusi maktab.

Shoirning g‘azalda maktabni komronlik – baxt kelinchagi ila maqsadiga yetgan kuyovga mengzashi, yoshlarni sof tiynatli, ilm egalari, ko‘ngillar sururi, ko‘zlar nuri deb tanitishi, izlarini ko‘zlarga to‘tiyo qilish darajasida muhabbatli bo‘lishga undashi, inqiroz yetgan millatni taraqqiy olib chiqadigan, jahlu nodonlikni barbod etadigan maskan deb e‘zozlashini shunday izohlash mumkin: birinchidan, ajdodlarimizning o‘quv dargohiga, ilm ahliga cheksiz izzat-ikromi natijasida shakllangan asriy urf-odatlariga hurmat; ikkinchidan, g‘azal aynan xalq ma‘rifatga chanqoq turgan chog‘da toza chashma o‘laroq maydonga kelgani uchun ularni rag‘batlantirish; uchinchidan va eng asosiysi, shoir jamiyatda obro‘-e‘tibori, ta‘siri tobora kuchsizlashib borayotgan din olimlariga asl vazifalarini xotirlatish, tarixiy missiyalariga munosib bo‘lishga da‘vat; to‘rtinchidan, alg‘ov-dalg‘ovli bir davrda ota-onalarga farzandlarini o‘qitish farzligi yuzasidan bir eslatma.

Avaz O‘tarning tarjimai holini o‘qiganimizda, uning saroyda o‘tgan umri, davlat amaldorlari bilan munosabatlari juda murakkab, ziddiyatli bo‘lgani ma‘lum bo‘ladi. Balki shu sababdir bir qator she‘rlarida musulmonlardan, xususan, qozi, a‘lam, mufti singari mamlakatning boshqaruv siyosatida hal qiluvchi kuchga ega diniy soha amaldorlaridan kuchli yozg‘irish kayfiyatlari seziladi, Islom axloqi va qonunlariga sarkashlik qilayotganlar tanqid qilinadi, mamlakatning fojiga yuz tutishiga sabab bo‘layotgan kamchiliklar ro‘y-rost aytiladi:

Bu falokatlar uchun mas‘ul o‘lursiz oqibat,

Zulmu istibdod ila millatni vayron etdingiz.

Yo‘qsa, odammiz, ochib maktab ilm bildirsangiz,

Bexabar ilmu hunardin bizni hayvon etdingiz!

Misralar ayrim din vakillarining dunyoqarashlari hali ham eski qoliplarda qolib ketayotgani, turg‘unlik va kelajakni ko‘ra olmaslik, aslida, millatning abgor holga olib borgan illatlar bo‘lganiga guvohlik beradi.

Ha, mutafakkir olim M.Behbudiy ham “Oyina” jurnali orqali millatning yuqoridagidek mayda-chuyda muammolarga o‘ralashib, asl muddao hosil bo‘lmay qolayotganini taassuf bilan yozgan edi. O‘tgan asrning boshlarida xalq og‘ir sinovli kunlarni boshdan kechirgandi. Avaz O‘tar tanazzul tushib qolgan qora xalqning ahvoliga behad kuyinadi:

Xalqi olamni bori aylar taraqqiy kun-bakun,

Biz tanazzul aylabon qolduk, eduk ne qora xalq? (18-6em)

Xalqonalik va soddalik qorishig‘ida yuzaga kelgan asarda chorasiz, tang ahvolda qolgan kishilarning qiyofasi bor fojiasi bilan bo‘y ko‘rsatgan. O‘sha davrda odamlarning og‘ir turmush tarzi, hukumatning adolatsizligi ortidan chekayotgan qayg‘u-iztiroblari inja tuyg‘ular, ishqqa to‘la qalb nolalari, go‘zallik, nafosat, yorga dil izhori kabi motivlar bilan to‘la she‘riyatning obrazlar olami va mavzu o‘zanini keskin burib yuborganligining nechog‘li tabiiyligini ko‘rsatib turibdi.

Xulosa. Sermahsul shoir Avaz O‘tarning “Devon”idagi she‘rlarning ba‘zilari din va saroy amaldorlariga qasdmaqad bitilgandek taassurot uyg‘otsa-da, aslida, shu millat, shu o‘lka, shu vatandoshlarning birligi, taraqqiysi, ittihodi, orzu-tilinishlarini ozmi-ko‘pmi yuzaga chiqarishga xizmat qilgani haqiqatdir. Shoir asarlarining ma‘rifat bilan yo‘g‘rilgani, milliy tuyg‘u, vatanparvalikka chaqiruvchi badiiy puxta she‘rlar ekanligi tahlillarda anglashildi. Shuningdek, ko‘p asrlardan buyon sinovdan o‘tib kelayotgan yana bir hodisa shuki, Sharq xalqlari har vaqt nazm bilan oshno bo‘lgan. Ularning ongu shuuriga, tuyg‘ulariga chiroyli so‘z, hikmat aytish bilan ta‘sir etish, ko‘pincha, ijobiy samaralar bergan.

Garchi muallif aruzda ijod qilgan bo‘lsalar-da, an‘anaviy poetik ifodalari, she‘riy san‘atlarning qo‘llanishi, shubhasiz, mumtoz adabiyotning qat‘iylashgan poetik qonuniyatlaridan, yorqin namunalaridan osonlik bilan voz kechish mumkin emasligini bildiradi. Mumtoz vazn va qofiyalar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, g‘oya va mavzu, radif qo‘llash va obrazlarda yangilanishlar yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Xususan, “Vatan”, “millat”, “Hurriyat”, “maktab”, “firqa”, “taraqqiy”, “fan”, “til”, “texnika” kalimalari obraz darajasiga ko‘tarilib, radif vazifasini ham bajara boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avaz. Saylanma. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: Yunus Yusupov va Vahob Rahmonov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. She‘rlar, ibratlar. To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: B.Qosimov; Izohlar lug‘atni tuzuvchi: O.To‘laboyev. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997.
3. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - T.: Ma‘naviyat, 2000.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. T.: “Ma‘naviyat”, 2002.
5. Mullo Sodiq Imonquli. She‘r. Al-Izoh. 1917 yil 22 iyul. №5.
6. Nishonova G.U. O‘zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida “Oyna” jurnalining o‘rni va ahamiyati: Fil. fan. nom. ... diss. – T., 2008.
7. Otinbek O. Karimbek Kamiy – milliy uyg‘onish shoiri. – Toshkent: Muharrir, 2018.
8. Pardayev Q.U. Milliy uyg‘onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini (“Al-Isloh” jurnali materiallari asosida): Filol. fan. nomz. diss... – T., 2008.
9. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1998.
10. Sirojiddin maxdum Sidqiy . “Taronai Islom”. Al-Izoh. 1917 yil 15 iyul. №4.
11. Utanova S. «Avaz O‘tar she‘rlarida hurriyat va ma‘rifat masalalarining badiiy talqini» / Urganch davlat universitetida Avaz O‘tar tavalludining 140 yilligiga bag‘ishlangan «Filologiyaning dolzarb muammolari» nomli anjuman. – Urganch, 2024.

Muallif:

O‘tanova Sirdaryoxon Hakimjonovna – Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

УДК 372.881.116.11

LINGUISTIC PROBLEMS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

SUN‘Y INTELIGENTNING LINGVISTIK MUAMOLALARI

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Каримова Малика Абди-Хафизовна

Гулистанский государственный университет, 120100. Сырдарьинская область, город Гулистан.

E-mail: mk6122268@mail.com

Abstract: This article analyzes the possibilities and problems of using artificial intelligence (AI) and provides a concept of it. The study emphasizes the growing need for effective communication tools between people of different cultural backgrounds. Particular attention is paid to the prospects for using AI as a technology that can overcome cultural and language barriers. The article considers both theoretical and practical aspects of using AI in translation and intercultural dialogue, identifying potential benefits and challenges in integrating such technologies into communication.

Keywords: artificial intelligence, translation, natural language, language model, neuronet, technology.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun‘iy intellektdan (SI) foydalanish imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi va u haqida tushuncha beriladi. Tadqiqot turli madaniy kelib chiqishi odamlari o‘rtasida samarali muloqot vositalariga ehtiyoj ortib borayotganini ta‘kidlaydi. Madaniy va til to‘siqlarini bartaraf eta oladigan texnologiya sifatida sun‘iy intellektdan foydalanish istiqbollari alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maqolada tarjima va madaniyatlararo muloqotda sun‘iy intellektdan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi, bunday texnologiyalarni aloqaga integratsiyalashuvining mumkin bo‘lgan afzalliklari va muammolari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, tarjima, tabiiy til, til modeli, neyron tarmoq, texnologiya.

Введение. Искусственный интеллект - это раздел информатики посвящённый моделированию интеллектуальной деятельности человека [1]. Под искусственным интеллектом (ИИ) понимают комплекс технологических решений, который позволяет имитировать когнитивные (мыслительные) функции человека и получать результаты, сопоставимые, как минимум, с результатами интеллектуальной деятельности человека. При этом имитация включает самообучение и поиск решений без заранее заданного алгоритма.

Комплекс технологических решений включает в себя информационно-коммуникационную инфраструктуру, программное обеспечение (в том числе в котором используются методы машинного обучения), процессы и сервисы по обработке данных и поиску решений. В рамках этого направления создаются своего рода искусственные существа, которые помещаются в некий специально сконструированный «мир». В этом мире искусственные существа «живут» и «эволюционируют». Как правило, это небольшой виртуальный (цифровой) мир с достаточно простыми законами. Изредка в качестве полигона для 40 функционирования этих существ выбирается реальный цифровой мир, в роли которого чаще всего выступает интернет [2].

Принцип работы ИИ заключается в сочетании большого объема данных с возможностями быстрой, итеративной обработки этих данных интеллектуальными алгоритмами, что позволяет программам автоматически обучаться на базе закономерностей и признаков, содержащихся в данных.

ИИ представляет собой комплексную дисциплину со множеством теорий, методик и технологий. Ключевыми понятиями в ИИ являются: Машинное обучение - алгоритмы анализа данных с целью найти в них закономерности. В нем используются методы нейросетей, статистики, исследования операций и т.п. для выявления скрытой полезной информации в данных; при этом явно не программируются инструкции, указывающие, где искать данные и как делать выводы. Нейросеть - это один из методов машинного обучения; математическая модель, а также её программное или аппаратное воплощение, построенная по принципу организации и функционирования биологических нейронных сетей - сетей нервных клеток живого организма. В общем случае искусственная нейронная сеть (ИНС) может состоять из нескольких слоев простейших процессоров (нейронов), каждый из которых осуществляет некоторое математическое преобразование (вычисляет результат математической функции) над входными данными и передает полученный результат на следующий слой или на выход сети.

По мере развития искусственного интеллекта (ИИ) возникает все больше вопросов в части лингвистики, понимание и решение которых является значимым для формирования ИИ, поддерживающего принципы инклюзивности и справедливости в процессе принятия решений. Формирующаяся в последнее время тенденция к усилению роли LLM в жизни людей не способствует сохранению языкового и культурного разнообразия.

Уровень и масштабы представления языка в виртуальном мире не всегда связаны с числом носителей в реальности. Глобализация и социально-экономические изменения приводят к доминированию определенных языков в цифровом пространстве, тем самым формируя глобальный лингвистический дисбаланс, приводящий к дискриминации отдельных языковых групп. По данным Ethnologue, крупнейшего языкового справочника, в мире насчитывается [7168 языков](#), из числа которых только около 20 имеют достаточно обучающих данных онлайн для создания информационных систем обработки естественного языка.

Объект исследования и используемые методы

В качестве объекта исследования взят переход от работы с текстом к работе с языками в виртуальном мире. При исследовании темы использовались сравнительный, теоретический методы – наблюдения, и анализ, дополняя их своей спецификой.

Полученные результаты и их анализ

Согласно данным [Statista](#), на английский, являющийся самым популярным языком для веб-контента, приходилось почти 59 % веб-сайтов. Остальные языки значительно уступают по степени представленности: русский язык занял второе место – 5,3 % веб-контента, далее испанский язык – 4,3 %. Эти цифры показывают, что носители всех языков, кроме английского, в той или иной степени отрезаны от результатов глобального технологического прогресса.

Например, хинди, на котором говорят почти 500 млн человек, считается языком с «низким ресурсом» (имеет недостаточное количество обучающих корпусов данных), в то время как западноевропейские языки технически являются «высокоресурсными» языками просто в силу того, что их носители наиболее значимо влияли на развитие сферы информационных технологий. Чем шире корпуса текстов, тем больше видимость языка и качественнее языковые модели.

Соответственно, в случае с «низкоресурсными» языками недостаток данных как правило сказывается на качестве работы нейросетевой модели и снижает ее эффективность. Исследователи из [Microsoft Research India](#) указали на один из не самых совершенных путей решения этой проблемы – создание отдельных слоев в составе генеративных моделей искусственного интеллекта, таких как ChatGPT или Llama.

Несовершенство решения определяется тем, что обработка естественного языка тесно связана с языковыми особенностями, поэтому методы и алгоритмы, которые работают для английского, могут быть

неприменимы для других языков. В русском языке присутствует свободный порядок слов и большое число словоформ, что влияет на выбор алгоритмов: для русского языка для нормализации слов применяют лемматизацию – перевод слов к их первоначальной словарной форме. Так, для существительных это будет слово в мужском роде и именительном падеже. Для английского языка работает метод стемминга, при котором исходная словоформа обрезается до его основы. Исследуемый подход позволил обойти защитные меры в 79% случаев при использовании таких языков, как зулу, шотландский гэльский, хмонг и гуарани. Важно отметить, что лингвистика в данном случае стала мощным инструментом, позволяющим обходить многоязычные фильтры.

Помимо безопасности генерируемой информации и совершенно иного механизма в основе формирования текста, генерация текста порождает еще одну задачу – необходимость снижения языковой предвзятости генеративного ИИ и сохранения культурных особенностей. Простой межязыковой перевод на основе значений различных языковых единиц не является оптимальным решением. Если перевод осуществляется на уровне словарных значений и часто употребляемых конструкций, он может иметь несоответствия контекста, не учитывать особенности диалекта, нарушать коммуникативную равноценность на уровне лексической, фразеологической и грамматической сочетаемости. Например, модели, обученные на текстах английского языка, в процессе предоставления результата могут переносить ценности и предположения, закодированные на данном языке, в другие языковые контексты, где они могут быть неуместны. Тем самым стирается национальная идентичность и оказывается влияние на когнитивный суверенитет [3].

Машины уже умеют обрабатывать, анализировать и понимать изображения, а также снимать фото или видео и интерпретировать окружающую обстановку.

Обработка естественного языка – это способность компьютеров анализировать, понимать и синтезировать человеческий язык, включая устную речь. Используя Siri или Google assistant, уже можно управлять компьютерами с помощью обычного языка, используемого в повседневном обиходе.

Системы автоматического распознавания речи, как правило, являются компонентом программных продуктов и используются для автоматизации процессов и упрощения взаимодействия между пользователем и информационной системой. Примерами наиболее успешного применения технологии распознавания речи могут служить программные продукты, использующиеся в call-центрах. Распознавание в составе таких продуктов позволяет в автоматическом режиме обрабатывать простые запросы, контролировать качество оказываемых услуг и оценивать уровень удовлетворенности клиентов. Также среди большого числа людей популярность приобрели различные голосовые помощники.

Внедрение ИИ расширило область применения технологий синтеза речи. В недалеком будущем синтез станет применяться для автоматического создания новостных сюжетов, озвучивания фильмов, игр и интерактивных образовательных курсов. Каждый сможет создать цифровую копию своего голоса и свободно общаться на различных языках. Возможно, что голосовые интерфейсы будут внедряться даже в обычные бытовые устройства, а умные колонки станут незаменимым атрибутом любой квартиры.

Хотя нейронные системы синтеза дали большую свободу в плавности и натуральности звучания, по-прежнему остается множество нерешенных проблем, например, эмоциональный синтез или синтез редких языков, для которых трудно найти достаточный объем данных для моделирования. Все эти вопросы должны быть решены в будущем. Главное препятствие сегодня состоит в том, что нейросеть генерирует речь слово за словом. Т.е., хотя она и генерирует связный текст, глядя далеко назад, она не держит мысль, глядя далеко вперед. У нее нет плана диалога и намерения донести до собеседника какую-то идею, как-то подвести его к ней. Она просто развивает определенную тему. Соответственно, следующее поколение моделей языка должно иметь определенный замысел истории и развивать свою мысль, исходя из какой-то конечной цели. Без этого невозможно будет создать искусственный разум, способный аргументированно отстаивать и доказывать свою точку зрения [4].

Вывод. Таким образом, возникает понимание, что ключевая задача в работе с текстом для ИИ та же, что и для переводчика – передать смысл с учетом географических, культурных и прочих нюансов, а не сделать перевод собственно текстовой информации. Это ставит вопрос о том, что модели ИИ, работающие с языками, должны «понимать» и «интерпретировать» смыслы и контекст. Такой подход означает переход к мультимодальности и, следовательно, увеличение самой модели. С развитием возможностей ИИ предстоит перейти от работы с текстом к работе с языками. По мере того, как мы ориентируемся в ландшафте лингвистических проблем в области искусственного интеллекта, усиливается уверенность в необходимости разработки лингвистически справедливых систем. Постоянное совершенствование языковых моделей должно происходить в сочетании с этическими соображениями и равноправием всех языковых групп. Все эти аспекты уже сегодня рассматриваются экспертами и безусловно должны лечь в основу следующих шагов в развитии ИИ.

Литература:

1. Ясницкий Л.Н. (2010). Введение в искусственный интеллект. Учебное пособие.
2. Потапов А.С. (2010). Технологии искусственного интеллекта - СПб: СПбГУ ИТМО, 218 с.
3. Иванова О. (2016). Переводческая и ИКТ-компетентность в глобализованном мире. ScienceDirect, 134 с.

4. Бейкер Р. С. и Инвентадо П. С. (2014). Интеллектуальный анализ образовательных данных и аналитика обучения: приложения к конструктивистским исследованиям. Технологии, знания и обучение, 19 (1-2), 220 с.
5. Беннетт М. Дж. (2008). Основные концепции межкультурной коммуникации. В М. Дж. Беннетте (ред.), Основные концепции межкультурной коммуникации: избранные материалы 22 с. Intercultural Press.

Автор:

Каримова Малика Абди-Хафизовна - Гулистанский государственный университет, преподаватель кафедры «Дистанционного образования».

UDK: 894.375.(045)

THE DEVELOPMENT TRAJECTORY OF THE METAMORPHOSIS (TRANSFORMATION) MOTIF IN ANCIENT LITERATURE

ANTIK DAVR ADABIYOTDA METAMARFOZA (EVRILISH) MOTIVNING TARAQQIYOT TADRIJI
ЭВОЛЮЦИЯ МОТИВА МЕТАМОРФОЗЫ (ПРЕВРАЩЕНИЯ) В АНТИЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Ramazonova Go'zal

Termiz davlat universiteti. 190111. Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Fayzulla Xo'jayev ko'chasi, 43- uy.

E-mail:aliyevadilshoda3@gmail.com

Annotation: In this article, we will talk about the metamorphoses that have come down to us as part of the works of the ancient literature representatives of Homer, Hesiod, Ovid and others, and the specific signs of this phenomenon, the reasons for its formation. It is also thought that types, which are the product of primitive thinking, developed rapidly in antiquity and turned into a literary tool, serving the socio-aesthetic goals of the creator.

Key words: myth, mythology, metamorphosis (transformation, transformation), Homer, Aesiod, Aeschylus, Aristophanes, Ovid, etc.

Аннотация: В данной статье говорится о метаморфозах, дошедших до нас в составе произведений представителей античной литературы Гомера, Гесиода, Овидия и других, и конкретных признаках этого явления, причинах его формирования. Считается также, что шрифты, являющиеся продуктом первобытного мышления, быстро развивались в древности и превратились в литературный инструмент, служащий социально-эстетическим целям творца.

Ключевые слова: миф, мифология, метаморфоза (превращение, превращение), Гомер, Эзиод, Эсхил, Аристофан, Овидий и др.

Kirish. Badiiy adabiyot borliqning barcha hodisotlarini o'zida in'ikos ettirgani singari tabiat qonunlari, jumladan, metamarfoza jarayonini ham chetlab o'tmaydi. Buyuk rus adabiyotshunos olimi Mixail Baxtin adabiyotdagi bu istilohga shunday ta'rif beradi. "Metamarfoza(evrilish) – asosan, insoniy evrilish – o'zlikni anglash bilan birgalikda ibtidoiy fol'klor xazinasiga oiddir. Evrilish, o'zni anglash ibtidoiy fol'klordagi odam obrazi bilan teran va mustahkm bog'lanishga ega" [1].

Badiiy adabiyotda metamarfoza hodisasi dunyoning yaralishi bilan bog'liq jarayon, tiriklikning belgisi bo'lgani bois, ming yillar muqaddam, ibtidoiy insoniyatni ham idrok etishga undagan. Dunyo va unda ro'y berayotgan evrilishlar, tabiat hodisalari, fasllar almashinuvi, tug'ilish va o'lim, turli xildagi kasalliklar ibtidoiy insoniyatni hayratga, vahimaga, qo'rquvga solgan, ular tabiatdagi bu to'qnashuvlar, toshqinlar, evrilishlar oldida har tomonlama ojiz qolganlar. Natijada fanlarning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan miflar yuzaga kelgan.

Ilm-fan rivojlanmagan ibtiboiy davrlarda odamlar bu jarayonni anglash uchun iloh va ilohalar, dunyoning yaratilishi, koinotdagi hodisalar, kurrai zamindagi jonli va jonsiz tabiat yaratilishining paydo bo'lishi haqidagi miflarni o'ylab topishgan. "Mif ijtimoiy ongning o'ziga xos turi bo'lib, unda jamoa amaliyoti, borliqni idrok etishning ma'lum jihatlari saqlangan, u avtonom obrazli hikoya shakliga moyil va xalqlarning tarixiy hayotida ishtirok etib keladi va uni bezab, boyitadi" [2].

Qadimni insonlar borliqdagi o'zgarishlar, evrilishlar, to'qnashuvlarda ilohiy qudratni payqashgan. Dunyoning yaralishida ham ilohiy sir-sinoatlar mavjudligini aglashgan va cheksiz kuch-qudrat sohibi bu olamni boshqarib turganiniga ishonishgan. Ik odamlar borliqdagi mavjudliklarni, turlanishlarni xudolar istagi, buyrug'i yoki qarg'ishi sababli metamarfoza asosida paydo bo'lib qolgan deb tasavvur qilganlar. Shu asosda, metamarfozaga asoslangan miflar paydo bo'la boshlagan.

Metamarfozalarning dastlabki ko'rinishlarini keyingi avlodga etkazib berishda qadimgi dunyo (antik davr) mifologiyasining o'rni beqiyos. Bu borada Homerning "Illiada" va "Odiseya" dostonlari, Hesiodning "Mehnat va kunlar" va "Teogeniya" asarlarini eslash kifoyadir. Yunon va Rim adabiyotida, ayniqsa, ellinizm davri poeziyasida Ovidiy singari metamarfozalarni bir-biriga uzviy suratda bog'lab, 250 turlanishni ichiga olgan "Metamarfozalar" kabi yaxlit asar holiga

keltirgan shoirni uchratmaymiz. Bizgacha to'liq etib kelgan evrilish motivi asosida yozilgan birinchi lotin romani Rim adabiyotining so'nggi vakili Apuleyning "Metamorfозalar" (yoki "Oltin eshak") asaridir.

Chunonchi, "Illiada"ning "Yunonlar Alvidada" sarlavhali bobida Alvida bandargohidagi mehroblardan birining ostidan chiqqan bahaybat qizil ilonning chinor daraxtining uchidagi sakkiz polapon va qushning o'zini bir onda yutib yuborishi va o'sha zahoti toshga aylanib qolishi haqida hikoya qilinadi. Eposdagi ushbu evrilish motivi kelajakdan bashorat qiluvchi xudolarning mujdasi sifatida talqin qilinadi.

Homerning "Odyssey"da ham bir qancha metamorfозalarni ko'rish mumkin. Binobarin, o'n yillik sarguzashtlar davomida tasodifan sehrGAR parizod Kirkaning oroli sohiliga kelib qolgan Odiseyani sharob bilan mehmon qilishadi. Uning sharob ichgan sheriklari birin-ketin to'ng'izga aylanib qoladi, ammo aql-xushini yo'qotmaydi. Mazkur epizodda ham metamorfозa insonlar tomonidan yoki tasodifan emas, sehrGAR parizoda tomonidan xiyla-nayrang orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, asar davomida ma'buda Afina pahlavon Odysseya chorasiz qolganida unga maslahat berib, ezgu niyatda uni tilanchi qiyofasiga kiritib, o'z saroyiga kirishiga yordam beradi. Asar voqealari davomida hatto ma'budlar ham real hayotga aralashib ketadilar va o'zlarining sevimli qahramonlaridan yordamlarini ayaamaydilar. Bu esa yunon xalqining ma'bud va ilohlar, kezi kelganda, har qanday chorasiz yoki mushkul vaziyatlarda o'z qullariga yordam beradilar, g'azablenganda esa turli yo'llar bilan bo'lsa-da o'ch oladilar degan e'tiqodlarini mifologik tafakkur tarzida namoyon qiladi.

Gesiodning "Mehnat va kunlar" va "Teogeniya" asarlarida ham metamorfозalar muhim o'rin tutadi. Gesiod miflar qobig'idagi metamorfозalarga xos umumiylik, bir-biridan mutloq farq qiladi. "...unda asosiy geneologik qator, ya'ni asarlar va avlodlar almashinuvi (oltin, kumush, mis, troya va temir davri deb nomlangan besh asrga doir miflar), tabiat tabiat metamorfозasiga xos betakror teogeniya, don turkum metamorfозalari, uzum novdalariga doir turkum metamorfозa qatorlari tajassumini ko'ramiz. Shu bilan birga, Gesiodda dehqonchilik jarayoniga doir turkum ham "Dehqon metamorfозasi" tarzida ifoda etiladi", deb yozadi M.Baxtin [1].

Esxilning "Zanjirband prometei" tragediyasi ham butun tanasi qontalash, og'zidan ko'pik sochib, jonsarak yugurib yuradigan sigir yanglig' Io haqida mif keltiradi. Io daryo maxbudi Inaxning qizi, Zevsning xushdori bo'lgan, ularning ishqiy sarguzashtlaridan xabar topgan Zevsning rafiqasi – Gera, qasos ilinjida uni sigirga aylantirib qo'ygani Prometei tilidan so'zlab beriladi.

Ushbu mifologik metamorfозa epizodi orqali muallif Zevsni dovyurak va jasur Prometei ga qarama-qarshi tarzda tubanliklarini, zinokorligini hamda sharmandali qiyofasini ochib tashlaydi. Yunon xalq og'zaki ijodi mifologik syujetlarida har qanday turlanishlar iloh va ilohalari xohish-istagiga ko'ra amalga oshadi. Ammo bu davr mifologiyasining hech birida metamorfозalar insoniyat tomonidan amalga oshirilmaydi.

Dramaturg Aristofan davrga kelib yozma adabiyot ijtimoiy-siyosiy tus ola boshlagan, asarlarda evrilishlar haqidagi uydirmalardan ko'ra real voqealar tasviri aks eta boshlagan edi. Ana shunday asarlardan biri "Suvoriylar" komediyasi bo'lib, Asar evrilish motivi bilan xotima topadi. Qazifurush Agorakritdan yordam qilishini so'ragan Demosni sexr yo'li bilan qaynoq suvga cho'miltirib, yana navqiron yigit holiga qaytaradi. Mazkur komediyada metamorfозa motivi echim o'laroq qo'llanadi va turlanish, yuqoridagi mifologizmlar asosida yaratilgan asarlardan farqli ravishda inson tomonidan sehr-jodu yo'li bilan amalga oshiriladi.

Taxminan milodiy 1-8 yillarda yozilgan "Metamorfозalar" mifologik Ovidiy ijodining cho'qqisidir, shu bilan birga, Rim adabiyotining buyuk yodgorliklaridan biri. Doston qariyb 250 ta ana shunday rivoyatlarni o'z ichiga oladi. "Metamorfозalar"ning birinchi kitob xudolar tomonidan borliq va undagi barcha jonli va jonsiz jismlarning yaratilib, har bir maxluqot uchun bir makon tayinlangani haqidaga satrlar bilan boshlanadi.

Eposda keltirilgan eng qadimgi metamorfозalar turiga kiruvchi afsonalardan biri quyosh ma'budining o'g'li Faeton va uning opa-singillari haqida. Afsonaga ko'ra, yosh Faeton chindan ham Gelios o'g'li ekanligini bilish uchun uning saroyiga borganida, otasi o'z so'zining rostligini o'g'li nima istasa rozi bo'lishi bilan isbotlamochi bo'ladi. Faeton bu haqiqatni boshqalarga ham ko'rsatib qo'yish uchun quyosh aravani minib fazoni aylanib kelishga otasini ko'ndiradi. Ammo otlarni boshqara olmay, jilovni qo'yib yuboradi va quyoshli arava erga yaqinlashgan joyda daxshatli yong'in ko'tariladi. Yupiter Erni yong'in ofatidan qutqarish niyatida uni chaqmoq bilan urib o'ldiradi. Uning jonsiz tanasi Erida daryosiga kelib tushadi. Foetonning halokatidan opa-singillari tinmay ko'z yosh to'kaverganidan ma'budalar ularni terakka, ko'z-yoshlarini qahraboga aylantirib qo'yadilar. O'shandan buyon barvasta teraklar Erida daryosi qirg'oqlariga egilib, yosh to'kadilar, yoshlari qahraboga aylanib daryoga tomadi.

Shuningdek, Ovidiyning "Metamorfозalar"i turli mavzudagi turlanishlarni o'z ichiga oladi, ayniqsa, fojiali sevgining qurboni bo'lish motivlari ham asosiy o'rin tutadi. Ishq yo'lidagi mash'um fojialarning bosh sababchisi sifatida ma'budlar talqin etiladi. Ularning odiiy insonlarning qizlariga bo'lgan muhabbati so'ngida eng qayg'uli ko'rgliklarga olib keladi. Chunonchi, Yupiterning Io bilan ishqiy sarguzashtlari zerikarli tus ola boshlagach boshiga balo bo'lmasligi uchun uni kunchi rafiqasining ixtiyoriga topshirgan. Yunona esa uni sigirga aylantirib qo'ygan. Go'zal Kalistonning ham Yunonaning qahriga uchrab ayiqqa aylanib qolishiga ham Yupiter sababchi bo'lgan.

Jahon xalqlari og'zaki ijodi mifologiyasi asosida shakllangan metamarfozalar, keyinchalik turlanish sabablari o'zgarib, yana-da taraqqiy etib, ijtimoiy tus olib boradi. Bizgacha to'liq etib kelgan evrilish motivi asosida yozilgan lotin romani bu ml 125-180 yillarda, yashab o'tgan Rim adabiyotining so'nggi vakili Apuleyning "Metamarfozalar" (yoki "Oltin eshak") asaridir. Bu davrda insonlar metamarfozalarga ko'nikib qolgan va uni ral hayotda ham, ma'budlar aralashuviz sodir bo'lishiga ham, allaqachon ishona boshlagan hamda bu ular uchun na'anaviy mavzuga aylanib bo'lgan edi. romanning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Asar qahramoni Lutsiy savdo ishi bilan Korinf viloyatidan sexr-joduda nom chiqargan Fessaliyaga kelib qoladi. Tez orada u yashayotgan uy bekasining tun mahalida yalang'och tanasiga qandaydir dorilar surkab, boyqushga aylanib derazadan chiqib ketganini ko'rib jodugar eknligini payqaydi. Shundan so'ng bu sirlardan voqif bo'lish uchun uning kanizagi bilan yaqin munosababt o'rnatib, uning yordami bilan qushga aylanishni maqsad qiladi. Ammo Fotida dorilarni chalkashtirib yuborgani bois Lutsiy eshakka evriladi. Shundan so'ng ko'pgina qiziqarli va kulgili sarguzashtlarni boshdan kechirib, so'ngida ma'buda Izidaning yordami bilan atirgulli gulchambarni eb o'z holiga qaytadi hamda ma'budaga e'tiqod qilishga, ma'budlar tomonidan belgilangan hayotiy qonunlarga amal qilib yashashga ont ichadi [3].

Mo'jiza va evrilishlarga haddan tashqari moyil bo'lgan, qiziqishlari chegara bilmaydigan, poyloqchilikni sevadigan, shu sababdan eshakka aylanib qolgan qiziquvchan Lutsiyning ajoyib sarguzashtlari yangi yo'nalishning boshlanishini belgildab beruvchi birinchi lotin romanidir. Eslatib o'tish kerakki Lutsiyning aynan eshakka aylanib qolishi uning harakteriga monand tushadi. Uning asl, axloqsiz va tuban qiyofasi eshak bo'lib yashaganda namoyon bo'ladi. Ammo u eshak bo'lib yashashdan charchaydi, o'z holiga qaytib odamlardek yashashni sog'inadi va ma'budaga yolvorib duo qiladi. Antik adabiyot davridagi yunon hamda Rim mifologiyasi asosida shakllangan metamarfozalarning yozma adabiyotdagi namunalarini, real voelik aks etgan ijtimoiy-maishiy mavzudagi asarlardagi transformatsiyasini, keyingi asrlarda esa miqlar qobig'ida shakllangan evrilish motivining badiiy-sintezini sifatida yuzaga kelgan va hattoki, Apuleyning "Metamarfozalar"ida diffuziyaga uchragan metamarfoza shakllarini ko'rishimiz mumkin. Davrlar o'tgani sayin metamarfozalarning dastlabki ahamiyati va vazifasini yo'qotib, mavzu va ta'sir doirasi kengayib, ilohiy hodisadadan adabiy hodisaga evrilib borganini hamda an'anaviy motiv shaklini olganiga guvoh bo'lamiz. Metamarfoza antik davrning o'zidayoq shiddatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, adabiy hodisa sifatida shakllanishga ham ulgurdi.

Badiiy adabiyotda turlanishlar muallifning maqsad va g'oyalarni anglatishda, asarni qiziqarliligini ta'minlashda, kutilmagan voqealar rivoji va echimni shakllantirishda, shuningdek, falsafada idelistik va materialistik qarashlarning shakllanishida ham muhim o'rin tutganini ta'kidlash o'rindir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent: "Akademnashr" 2015. 77-bet
2. Жизнь мифа в античности. Материалы научной конференции «Випперовские чтения – 1985». Вып. XVIII. В 2-х Т. / По ред. И.Е. Даниловой. М.: Сов. художник, 1988. Т. 2. С. 390.
3. Апулей Л. Метаморфозы, или Золотой осел / Л. Апулей – «Public Domain» // Книга иллюстрирована офортами из французского издания Les Métamorphoses ou L'Âne d'or d'Apulée. – Paris: Jean-François Bastien, 1787.

Muallif:

Ramazonova Go'zal - Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.

UDK:821.512.133-1

HISTORICITY AND ARTISTIC TEXTURE IN GENRE NOVELS

TURKUM ROMANLARDA TARIXIYLIK VA BADIY TO'QIMA

ИСТОРИЧНОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФАКТУРА В ЖАНРОВЫХ РОМАНАХ

To'rayeva Dilnoza Nematullayevna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: dilnozatorayeva@gmail.com

Abstract. This article discusses the issue of historicity and artistic texture in serial novels, the artistic and aesthetic characteristics of serials, and the specific features of epic serials in general. Attention is paid to such aspects as the issue of historicity in serial novels, the proportion of historical truth to artistic content, and the role of artistic texture. The issue of historicity and artistic texture in serial novels was studied using the example of Sa'dikhon Mavlavikhan oglu's novel "Tanazzul"

Key words: series, artistic texture, historical truth, form and content, mobile images, writer's style, creative intention of the hero, harmony of space and time, tendency, perfection, integrity, author's concept, artistic expression, etc.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы историчности и художественной фактуры в сериальных романах, художественные и эстетические характеристики сериалов, а также специфические особенности эпических сериалов в целом. В жанровых романах внимание уделяется таким аспектам, как проблема

историчности, соотношение исторической правды и вымысла, роль художественной фактуры. На примере романа “Таназул” туркум Саъдихона Мавлавихана оглу исследован вопрос историчности и художественной фактуры в серийных романах.

Ключевые слова: серия, художественная фактура, историческая правда, форма и содержание, подвижные образы, манера письма, творческий замысел героя, гармония пространства и времени, тенденция, завершенность, целостность, авторский замысел, художественное выражение и др.

Kirish. Turkumlilik hodisasi alohida asarlarning turkumga qo‘shilishi, nafaqat, ularning yig‘indisini, balki mazmun jihatidan ham yakka kombinatsiyani, yangi badiiy yaxlitlikni yuzaga keltiradi. Turkumning umumiy qiymati har doim uning tarkibiy qismlari qiymatlarining yig‘indisidan kattaroq, chunki turkumni tashkil etuvchi unsurlar, ularning o‘zaro badiiy-estetik uyg‘unlashuvi butun turkumda yangi ma‘no keltirib chiqaradi, Adabiy turkum keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, odatda badiiy adabiyotda mazmun jihatdan asarlarni badiiy birlashtirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Turkum asarlar adabiyotning barcha janrlarida uchraydi. Adabiy turkumning badiiy birligi mustaqil asarning yaxlitligi bilan bir xil emas. Ular o‘rtasida farq bor. Turkumni tashkil etuvchi asarlarning, asosan, aksariyatini alohida qismlariga ajratib bo‘lmaydi. Bu jarayon turkum asarlarga birlik mezonini qo‘llashning maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. Unda mavzuning umumiyliigi, muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega tarzda shakllanishi, qismlar orasidagi aloqalar asosida yaratilganligini bu fikrni asoslaydi. Tarixiy mavzudagi turkum romanlarda tarixiy haqiqatga mos badiiy to‘qimani olib kirish mavzuning **dolzarbligini** ko‘rsatadi. Mazkur maqolada turkum romanlarda tarixiylik va badiiy to‘qima masalasi, turkumlilikka xos badiiy-estetik xususiyatlarini uning tendensiyalari, tadrijiy taraqqiyoti, estetik tabiati, turkumlardagi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi tadqiqi orqali ochib berish **maqsad** qilingan va o‘z oldiga quyidagi **vazifalarni** qo‘yadi: bir-biri bilan ichki semantik aloqalar orqali bog‘langan bir necha asarning mavjudligini aniqlash; matnlar o‘rtasida assotsiativ aloqa mavjud bo‘lgan montaj kompozitsiyasi – tuzilmaning yaxlitligini ko‘rsatish; mazmuniy birlikning yetakchilik qilishini isbotlash.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘lining “Tanazzul” turkum romani olingan. Masalani yoritishda qiyosiy-tipologik, konseptual tahlil, qiyosiy-tarixiy hamda kontekstual tadqiq metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

“Tanazzul” tarixiy romaniga bir qator tarixiy asarlar tayanch manba sifatida xizmat qilgan. Jumladan, Qo‘qon xonligi tarixiga oid dastlabki manbalardan biri Xoja Muhammad Hakimxon To‘ra Ho‘qandiy tomonidan yozilgan “Muntaxab at tavorix” asari hisoblanadi. Asarda shayboniylar, mang‘itlar haqida, shu bilan birgalikda Qo‘qon xonligi tarixiga oid qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari ham Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardan biridir. Xonlik tarixiga oid yana bir manba Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston” asaridir. Bu manbalarning bari asar voqealariga asos vazifasini o‘tagan. Bundan tashqari mustaqillik yillarida yaratilgan H.N.Bobobekovning “Qo‘qon tarixi” asarlari xonlik tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, Qo‘qon xonligi tarixiga oid muhim asarlardan biri Y.Qosimovning “Qo‘qon xonligi tarixi ocherklari” deb nomlangan kitobning birinchi bobida Qo‘qon-Buxoro, Qo‘qon-Rossiya munosabatlari, madaniy hayot haqida ma‘lumotlar mavjud. Ikkinchi bobda esa xalq harakatlari, xususan, Po‘latxon qo‘zg‘oloni, Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubematorligining tashkil etilishi haqida ma‘lumotlar bor. Bu kabi qator tarixiy manbalarning turkum roman voqealariga tayanch manba sifatida xizmat qilgan.

“Tanazzul” romaning beshinchi kitobi syujetini, asosan, ruslarning Qo‘qon xonligiga tegishli hududlarni bosib olishi, shu bilan birga Po‘latbiy boshliq bir guruh mahalliy xalq vakillarining ruslarga qarshi harakatlari bilan bog‘liq voqealar tashkil etadi. Rus askarlari qomondoni, polkovnik Chernyayevning yo‘llagan xatida Avliyota qal‘asi hokimi Niyozali do‘xohga yo‘llagan maktubida ruslarning G‘arbiy tomondan Qo‘shqo‘rg‘on, Kumushqo‘rg‘on, Oqmasjid, Yangiqo‘rg‘on, Dinqo‘rg‘on, Sharqiy tomondan Jungal, Ko‘rtka, To‘qmoq, Pishpak, Talas qal‘alarining tor-mor etilishi, endi navbat Avliyotaga kelganligi aytiladi. Bunda qo‘mondonning taslim bo‘lish taklifi bilan chiqishi Niyozali do‘xoh boshliq mahalliy xalqni nafratini qo‘zitadi. Ayovsiz jangda jonini ayamay kurashadi. Afsuski, ruslarning qo‘li baland kelib, Avliyota qal‘asi 1864-milodiy yil 4-iyunda yaxshiylarcha zabt etiladi. Ruslarning O‘rta Osiyoga qarshi yurishlari bilan bog‘liq qator hujjatlarda mavjud tarixiy faktlar asar syujetiga singdirib yuborilgan. Muallif tomonidan qayta badiiy talqin etilgan. Asarga tarixiy voqealar asos bo‘lsa-da, kurash jarayonidagi mahalliy xalqning jasorati, qomondonning taslim bo‘lish haqidagi taklifini eshitgandagi xalqning nafrati barchasi tarixiy faktning badiiylik bilan uyg‘unlashuvini yuzaga keltirgan. General Chernyayev, general Lebed singari tarixiy shaxslarning ham asarda badiiy obraz sifatida harakatlanishi, ularga xos xarakter yaratilishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tarixiy asarlarning barchasiga asar voqealariga mos hujjatlar asos vazifasini o‘taydi. Tarixni mukammal bilmagan, uni nafasini his qilmagan yozuvchi o‘sha davr koloritini yarata olmaydi. Beshinchi kitobning birinchi bo‘limiga ikkita tarixiy voqea, Avliyota qal‘asi va Turkiston shahrining qo‘lga olinishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar asos qilib olinadi. 1864-yil 12-iyunda o‘rslarning Turkiston shahrining qonga botirib, zabt qilinishi voqeasi yozuvchi tomonidan mahorat bilan badiiy talqin etiladi. Asarda, ayniqsa, jang tasvirlari takrorlanmas lavhalar orqali aks ettirilgan. Bunday jang

talqini bilan bog'liq lavhalar kitobxonni o'sha davr nafasini tuyishiga imkon beradi. Asarda shahardagi barcha ulamolarning hokim Mirza Davlatning g'ayriqonuniy zug'umlaridan, qimmatchilik sabab turmush tarzining qiyinlashib borayotganligidan bezgan xalq nomidan shahar darvozasini o'z qo'llari bilan o'rislarga ochib berilishi tasvirlanadi. Turkiston shahri ulomalari nomidan rus qo'shinlari sarkardasi Verefkunga ixtiyoriy ravishda yo'llagan xatida o'rislarning shaharni osonlik bilan qo'lga kiritish sabablari ko'rsatilgan. Yozuvchi tomonidan asarda xonlik tarixida bu kabi ichki nizolarning avj olganligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ruslar bosqinining avj olishi Sulton Sayidxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Toshkent shahar hokimi Normuhammad qushbegining Sulton Sayidxonga yo'llagan xati mazmunidan bo'lib o'tgan (Avloyota qal'asi va Turkiston shahrining zabt qilangani) va endi ro'y beradigan (Chimkand va Toshkent shaharlari havf ostida ekanligi) voqealar bayoni keltiriladi. Romandan o'rin olgan bu kabi barcha xatlar asar voqelarining umumlashma mazmuni aks ettirishga ham xizmat qiladi. O'n bir yoshli yosh xonning taxtga o'tirishi, xonlikni amirlashkar Alimqul boshqarishi asar voqelarining ma'lum bir davrini tashkil qiladi. Alimqulning Musulmonqul mingboshi singari xonlik boshqaruvni qo'lga olishi, o'ylamasdan ruslarga hayrixoh bo'lgan qozoq biylarini dorga torttirishi mahalliy xalqning ikkiga bo'linishiga sabab bo'ladi. Boyzoqbiyning qatli sabab uning farzandlari va tarafdorlari ruslar tomonga o'tib ketishi asarda ichki nizolarning yuzaga kelishiga sababi sifatida ko'rsatiladi. Tarixiy hujjartalga qayta badiiy tus bergan holda, yozuvchi tomonidan bu faktlar obrazlar xatti-harakatlari orqali badiiy talqin etiladi. Boyzoqbiyning dorga tortilishi uning tarafdorlarini xonga qarshi bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirilishi yozuvchi ijodiy laboratoriyasining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijod jarayoni bu muhim jihatni o'zida mujassamlashtirar ekan, adibdan katta mahorat va tajribani talab qiladi. Yozuvchi nafaqat tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan, balki qahramonlari ijodiy fantaziya mahsuli bo'lgan asarlarda ham davr ruhi, hayotning turfa qirralari va ma'lum bir nuqtalariga jiddiy e'tibor beradi. "Badiiy ijodning muhim shartlaridan biri badiiy to'qimadir. Ijodkor biron-bir asar yaratar ekan, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo'lsin, avvalo, hayotiy faktlarni saralaydi; ularni badiiy g'oya atrofida yagona, yaxlit holga keltirib mujassamlashtiradi. Biroq voqea-hodisalar manzarasi, turli fe'l-atvorli odamlar qiyofasi xuddi hayotda kechganidek asarga kiritiladi, tasvirlanadi. Bular yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo'lib, u ana shularning hammasiga kitobxonni ishonitirishga harakat qiladi" [6]. Asosli qayd qilinganidek, ijodkor har qanday badiiy asarni, eng avvalo, o'z tafakkurida sintezlaydi, davr voqeligiga ijodiy yondashadi va obrazlar galareyasini yaratadi. Badiiy asar ijodiy jarayonda yetilar ekan, yozuvchi, avvalo, obraz yaratishda uning mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. U badiiy to'qimasiz ijodiy niyatini yuzaga chiqara olmaydi. To'qima obraz yaratish bevosita yozuvchi fantaziyasi orqali amalga oshiriladi. Adib badiiy to'qimaga ham asosni hayotdan oladi. Lekin bu bilan hayotdagi insonning yoki biror bir voqeaning butun xususiyatini boricha asariga ko'chirib qo'yadi, degani emas. Badiiy obraz yaratishda ijodkor hayotiy haqiqatga suyanadi, xolos. Yozuvchi Sa'dixon Mavlavixon o'g'li "Tanazzul" tarixiy romanida fozil va bilimdon, yuksak til madaniyatiga ega bo'lgan ijodkor sifatida ko'rinadi. U tarixiy tavsillarni xayoliy, ammo ayni choqda haqiqatga yaqin manzaralar bilan ularni boyitishga mohirligi ko'rinadi. Uning tarixiy voqeaga singdirilgan "to'qimalari" shu voqeani ishonarli qilish, uni sun'iy suratda ta'sirchan etish, ayni shu voqeani boyitish, yanada ibratliroq, yanada jozibaliroq chiqarishga qaratiladi. Qo'qon xonligining tanazzulga yuz tutishi, unda Xudoyorxonning hukmronlik yillari alohida o'ringa egaligi, Rossiyaning qarshi hujumlari, Amir Nasrullo davrida Buxoro amirligi bilan munosabatlarning keskinlashuvi singari tarixiy haqiqatlar talqinida yozuvchi badiiy to'qimadan unumli foydalanadi. Uning asar mohiyatini ochib berishda tafakkur va tahayyul mahsuli bo'lgan badiiy to'qimadan o'z o'rnida foydalanishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Yozuvchi asarga Xudoyorxon hukmronlik qilgan yillardagi tarixiy voqealarni asos qilib olar ekan, unga mazkur davrga oid, O'rta Osiyo, xususan, Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi va Rossiya davlatining ayrim ijtimoiy hamda siyosiy tuzumi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni badiiy to'qima orqali uyg'unlashtirib talqin etgan.

Yozuvchi asarda XIX asrdagi O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar manzarasini yaratar ekan, tarixiy ma'lumotlarni badiiy talqin etishda, tasvirlar tabiiyligini ta'minlashda asarga badiiy to'qima mahsuli bo'lgan qator qahramonlarni olib kiradi. Asarda mavjud tarixiy shaxslar obrazi bilan birga yozuvchi badiiy niyatining to'la ifodalanishi uchun mutavalli Rabbanoqulbiy, Bahodir shig'ovul, Saidbek, Qilich, Oltinoy, Sarvi ena, Selimoxun, Bodomgul kabi bir qancha to'qima obrazlarni ham harakatlantiradi. Masalan, Saidbek obrazi orqali o'sha davrdagi madrasa ko'rgan, dunyo ilmlarini puxta egallagan, zamonaviy dunyoqarashga ega insonlarning umumlashma obrazi aks ettiriladi. Bu qahramon asarda o'z manfaatidan xalq va saltanat manfaatini ustun qo'yadigan inson sifatida harakat qiladi. Saidbek Xudoyorxonning bolalikdagi do'sti, maslakdoshi, maslahatdoshi, ayniqsa, saltanat ishlaridagi eng ishonchli kishisi sifatida talqin qilinishi, asarda uni bosh qahramon xarakterini yaratishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Said obrazi orqali adib inson ko'ngil kechinmalariga oid chizgilarni ham qahramon bilan bog'liq voqealar mohiyatiga singdirib yuboradi. Garchi bu tasvirlar yozuvchining badiiy to'qima mahsuli bo'lsa-da, asarda tarixiy voqealar zanjiriga bog'lanib, ularning yuzaga chiqishida muhim o'rin tutadi. Romanning birinchi kitobida uning Rossiyaga o'qishga ketishdan oldin sodda yosh, o'z fikrini bemalol ayta olmaydigan yigit sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi kiroblarda bu obraz xarakteridagi keskin o'zgarishni ko'rish mumkin. Rossiyadan tahsil olb qaytgan Saidbek endi mustaqil fikriga ega, har qanday masalada xonga ham maslahat bera oladigan bilimli, madaniyatli inson obrazi sifatida harakatlanadi. Hattoki,

hukumdorning onasi Hokimoyimdek ayolning qiziga kuyovlikka loyiq ko'rishidan ham bu obrazning kim ekanligini anglash qiyin emas. Saidbek xonga yurtini ruslar bosib olishga qaratilgan harakatlarni boshlaganini aytishi, Buyuk Britaniya konsuli Richard Ul'yamsning taklifini yetkazishi bilan bog'liq tarixiy voqealar bir-biri bilan uyg'unlashtirib talqin etiladi. Saidbekning hukumdorga bunday qaltis vaziyatda uch xonlik birlashib sarhadlarini zamonaviy aslahalar bilan mustahkamlash zarurligi haqidagi taklifini berishi ham bu obraz haqidagi tasavvurimizni yanada boyitadi. Jiddiy siyosiy masalalar boshida turgan Saidbek keyingi kitoblarda ham shu tahlit harakatlanadi. Endi Saidbekning ham bimalol davlat ishlariga aralashuvi – xonning xos odami bo'lishi boshqa ko'pchilik mas'ullarning g'ashiga tegadi. Ayniqsa, o'qishdan kelgandan keyin xon Saidbekni mushovir, Qilichni esa qo'rboshidek mas'ul lavozimlarga saylab qo'yishi ayrim mansabdorlarning ularga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishiga sabab bo'ladi. Musulmonqulning Qo'yiliboyga Saidbekni daf qilishi haqidagi buyrug'i yozuvchining badiiy to'qima mahsuli bo'lsa-da, xon zamonlaridagi ichki ixtiloflardan biri sifatida tasavvur uyg'otadi. Muallif tomonidan xon saroyidagi ichki muhitning noso'g'lom ekanligi shu singari voqealar orqali juda ishonarli bayon etiladi. Mamlakatda Musulmonqul mingboshi boshliq qipchoqlarning hadidan oshishi bilan bog'liq tarixiy voqealar ham badiiy to'qima bilan uyg'un holda asar qatiga singdirib yuboriladi. Masalan, Saidbek bilan Qilichning Bahodir shig'ovulnikiga xon topshirig'iga ko'ra mingboshini yo'q qilish masalasida borib qaytishlarida choyxonadagi noxush voqealar qipchoqlarning xatti-harakatlaridan o'quvchini voqif etadi. Asarda Eshboy boshliq qipchoqlarning qovun sotib kelgan bechora bir dehqonning bor buduni tortib olishi yoki Oxun choyxonachining bisotda bo'lgan bitagina choyxonasini olib qo'yishini aytib qo'rqitishi kabi voqealar tarixiy asosga ega bo'lmasada, mingboshi bergan vakolatdan foydalanib, qipchoqlarning xalqqa qilgan zulmidan ogoh etadi. Bu voqealarni ko'rib turgan Saidbek bilan Qilichning qipchoqlarga qarshi chiqqanlarida, ularni o'ldirishga urinishlari orqali ham o'sha davrga xos ijtimoiy hayot murakkabliklari badiiy talqin etiladi. Asar voqealar rivojida Xudoyorxonni qipchoqlarning mahalliy aholiga bo'layotgan bunday munosabatlari g'azablantiradi. Saidbek bilan Qilichga qilingan nohaq hujumni shundayligicha qoldirmay oltita bosqinchi qipchoqni yo'q qilishga farmon beradi. Lekin bu rejani keyinga qoldirishga majbur bo'ladi. Negaki, aholi o'rtasida ichki nizo kuchayishi mumkinligini hisobga olib, Bahodir shig'ovul va Saidbeklarning maslahatiga ko'ra, avval, Musulmonqulni daf qilib, keyin bu ishni amalga oshirish ma'qul ko'radi. Shu o'rinda asarda Xudoyorxonning tadbirli ekanligiga urg'u berilsa, bu voqea bilan bog'liq Musulmonqulning ham o'z o'rnida o'ta xushyor, hamma ishda yetti o'lchab bir kesadigan ehtiyotkor qilib tasvirlanadi. O'razinbiyning ovulida qipchoq biylari bilan kengashib, Normuhammadning qilgan ishini, Bahodir shig'ovulnikidagi maslahatni muhokama qilishadi. Xudoyorxon singari Musulmonqul ham Said va Qilichga ayni paytda tegmaslikni ma'qul ko'rishi xonlikdagi vaziyatni murakkablashtirmaslik edi. Negaki, mingboshi ham o'ziga yarasha rejalarini amalga oshirishida bu voqealar bilan bog'liq holat ta'sir etishi mumkinligini biladi. Yozuvchi asarda bu ikki qarama-qarshi tasvirni berish orqali birinchidan, voqealar rivojidagi dramaturgiya kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchidan, qahramonlar xarakteriga xos qirralarni ochishga harakat qiladi. Yana bir misol, Toshkentga yurish qilishidan oldin Xudoyorxon saroyda shu masalada kengash qilganida puxta o'ylangan rejasi borligidan ko'ngli hotirjam xonni mingboshi tangani ikkinchi tomoni – ya'ni paytdan foydalanib Buxoro amirning hujum qilishi mumkinligini haqiqatga yaqin ehtimolini aytib xushyor torttiradi. Shu o'rinda yozuvchi mingboshini ham xondan ancha puxta ekanligiga urg'u beradi.

Musulmonqulni o'ldirish uchun uyushtirilgan Toshkentga qarshi yurush, nafaqat xon uchun, balki mingboshi uchun ham ayni damda juda yaxshi vaziyat edi. Negaki, mingboshi ham bu vaqtdan unumli foydalanib xon va unga qarashli navkarlarni yo'q qilish payiga tushadi. Ammo xonning ayg'oqchilari bu rejadan voqif bo'lib, darhol bu xabarni hukumdorga yetkazishadi. Asarda konfliktni yuzaga keltiruvchi bunday voqealar ikki tomonning bir-biridan sir tutgan rejaları asosida rivojlantiriladi. Musulmonqulning tarafdorlari bilan qo'lga olinishi va o'ldirilishi bilan bog'liq sahnasi ham yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlanadi. Saidbek bilan Qilichning qipchoqlarning ovuluga Musulmonqulning badaliga butun qipchoq urug'ini qirg'indan saqlab qolish shartini aytib borishi, ularni qanchalik g'azablantirsa, ruslardan madad so'rab yozgan xatlarini ko'rsatganlarida ham hayratdan, ham qo'rquvdan lol qoladi. Musulmonqul boshliq qipchoq biylari imzo chekkan bu xat o'z manziliga yetib bormay xonning odamlari tomonidan ushlab qolinishi ularning xayollariga ham kelmagan edi. Asarda kuchli dramaturgiyaga boy bu holatda faqatgina mingboshining ruhiy holati emas, balki, davrada o'tirgan barcha qipchoq biylarini ham ichki kechinmalari mahorat bilan tasvirlanadi. Ularning gap-so'zlari, xatti-harakatlaridan tortib, yuz ifodalaridagi o'zgarishlarni ham yozuvchi bir-biriga oxshamagan xarakterlar talqiniga singdirib yoboradi. Ayni damgacha mingboshining chizgan chizag'idan chiqmagan aksariyat biylar ham qaltis vaziyatda o'z jonini, qolaversa, oilasining taqdirini o'ylab ish tutishi asarda real tarzda talqin qilinadi. Shu zaylda hibsga olingan. Mingboshining olomon oldida o'ldirilish sahnasi ham obrazga xos xarakterni ochishga xizmat qiladi. Musulmonqul hayoti davomida qilgan amallariga yarasha jazo olar ekan, uning o'limi oldi xayolidan o'tgan oilasi, otmishi, farzandlari taqdiri haqidagi o'ylari bu obrazda ham insoniy hislar bor murakkab xarakterga ega ekanligini namoyon qiladi. Asarda O'razinbiy, Quvondiqbiy, Oqbo'tabiy, Norbo'tabiylarning katta olomon ichidan yorib o'tib bir umrlik qadrdoni bo'lgan mingboshi bilan vidolashuvi orqali ham ular ortasidagi oqibatni, munosabatni qandayligini bilish mumkin.

Normuhammadni qo'shini bilan birlashgan xon navkarlari mingboshini hibsga oladi. Uning o'rniga O'tabboyni mingboshi qilib saylab Qo'qonga jo'natib yuboradi. Shu o'rinda xon tomonidan aynan qipchoqlarning o'zidan mingboshi saylanishi ham mamlakatda ichki nizolarning kuchayishini oldini olishga qaratilganligi ko'rsatadi. Xudoyorxonning

mingboshi bilan bog'liq rejasi amalga oshganidan keyin Toshkentda qolib, Normuhammaddan ruslarning bosqini haqida xabar topishi voqeasi uni yanada sergak tortishiga turtki beradi. Hukumdor bo'lib birinchi marta hech kimning maslahatiga tayanmay avval mamalakatdagi ichki ziddiyatlarni bartaraf qilib, keyin esa tashqi kuchlarga qarshi kurashish fikrini bildiradi. Tarixga muhrlangan qarashlardan farqli o'laroq, Xudoyorxon asarda murakkab xarakterga obraz sifatida harakat qiladi.

Romanda nafaqat xonlikdagi ichki vaziyat, balki tashqi kuchlarning mamlakatga qilgan hujumlari bilan bog'liq tarixiy voqealar ham asar sujetiga mahorat bilan singdirib yuborilgan. Bu tarixiy voqealar o'z o'rnida badiiy to'qima bilan to'yintiriladi. Ruslarning Oqmachitga dastlabki hujumi, uning muvaffaqiyatsiz yakuni, bu jangda yerli xalqning jasorati real tasvirlangan. Shu bilan birga asarda russiya hukumatining Turkistonni bosib olishi bilan bog'liq voqealarda tarixiy shaxslar obrazlari aslidan uzoqlashmagan holda harakatlantiriladi. Ruslarning maqsadi dastlab Farg'onani mustamlaka qilib keyin boshqa hududlarni qo'lga kiritish rejasi asarda batafsil beriladi. Belyaminov tomonidan Boyzoqbiydan Turkistondagi ichki vaziyatni bilib, aynan Xudoyorxon bilan Musulmonqul o'rtasidagi nizodan boxabar bo'lishi ruslarga qo'l keladi. Ularning Turkistonga dastlabki yurishi, garchi, muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, mas'ullarning har birini hukumati tomonidan munosib rag'batlantirishi kabi voqealarni asarda keltirish orqali yozuvchi u yerdagi muhitni, jumladan, O'rta Osiyoni bosib olish bilan bog'liq vaziyatni ochiq ko'rsatishga urunadi. Ruslar bosqini bilan bog'liq tarixiylik qatiga singdirilgan badiiyat shu zayilda yuzaga chiqadi.

Yozuvchi asardagi tarixiy haqiqatni badiiy talqinida, qahramonlar xarakterini yaratishda, umuman, davr ruhini yoritishda tasvirlar tabiiyligini saqlaydi. Xudoyorxon hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy muhit atroflicha badiiy talqin qilinadi. Asar xonning taxtga o'tirishi bilan boshlanar ekan, adib uning atrofidagi har bir to'qima obraz haqidagi tasavvurni ularga xos xarakter orqali ochib beradi. Masalan, asarda tarixiy shaxs – Xudoyorxon murakkab obraz sifatida harakat qiladi. Yozuvchi uning xonligi uchun bor ijodiy imkoniyatini ishga solib “bezamaydi”. Aksincha, aslida Xudoyorxon tarixda qanday bo'lsa, bor murakkabligicha badiiy talqin qilinadi. U o'z o'rnida qat'iyatli davlat boshlig'i, o'rni kelganida qahrli, qattiqqo'l inson ekanligi mahorat bilan badiiy talqin etiladi. Adib tomonidan bu obrazning portretiga bergan chizgilarda ham, yurt boshqaruvidagi siyosiy ishlarida ham uning gardanida buyuk davlatni boshqarishdek katta mas'uliyat borligi anglashilib turadi. Asardagi bu kabi tarixiy obrazlar xarakterini yaratish imkoniyati to'qima obrazlar orqali amalga oshiriladi. Tarixdan ma'lumki, Xudoyorxon hukmronlik qilgan davrda Qo'qonda san'atning barcha turlari, qurilish ishlari ancha taraqqiy etib, arxitekturaning noyob durdonalari qad rostlagan. Boshqa davlatlar bilan elchilik munosabatlari ham ancha rivojlangan. Bu tarixiy ma'lumotlarni Sa'dixon Mavlavixon o'g'li ijodiy laboratoriyasida badiiy tus olishi asar muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Tarixiy mavzuda ijod qilgan yozuvchi ijodiy jarayonda hayotiy materialning tanlanishiga alohida ahamiyat beradi. Aniq tarixiy faktlarni asariga asos qilib olarkan, ularni hammaga birday tushunarli tarzda badiylashtirishga harakat qiladi. Unda tasvirlangan voqea joylari va jang sahnalari, hattoki sanalarigacha aniq ko'rsatiladi. Lekin bu adib tarixiy voqeahodisalarini ehtirossiz oddiy bayon qilgan, degani emas. Aksincha, bu bilan yozuvchi badiiy so'z yordamida voqealarning asl mohiyatini chuqurroq ko'rsatishga erishadi. “Tanazzul” romani shu bois o'qishli, ularda tarixiy davr ruhi yorqin aks etib turadi. Obrazlarida sun'iy yasamalik yo'q. Yozuvchining ortiqcha bo'yoqdorlikdan qochishi ijodiy fantaziyasining yo'qligidan darak bermaydi. Aksincha, badiiy to'qima yaratishda estetik talqin me'yoriga e'tibor berishini ko'rsatadi. Adibning ijodiy jarayonda badiiy to'qimaga o'z o'rnida murojaat qilishi asarlaridagi hayotiylikni saqlaydi.

“Prozaik va dramatik janrlar hayotni epik ko'lamda qamrab olish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Shuning uchun romanist va dramaturg ijodxonasida hayotiy fakt bilan badiiy to'qimaning dialektik birligi boshqacharoq shaklda namoyon bo'ladi” [1]. Tarixiy asarda bo'lib o'tgan voqea tasvirini badiiy talqinda ishonarli tarzda berish ham muhim hisoblanadi. Har qanday tarixiy asardagi material ijodkor tomonidan badiiy to'qima asosida jonlantiriladi. Tarixiy haqiqat badiiylik mezonlari asosida syujetga singdiriladi. Yozuvchi asarda hayotiylik va badiiy to'qimaning mutanosib bo'lishini ta'minlashi lozim. Badiiy to'qimasiz asar maromiga yetmaydi. Hayotiy asos yozuvchining ijodiy fantaziyasi orqali badiiy to'qima bilan to'yintirilsagina, uning badiiyati oshadi. “Badiiy to'qima hayotiy fakt bilan qo'shilgan, uyg'unlashgan paytdagina chinakam umumlashma – badiiy obraz vujudga keladi. Badiiy to'qima yozuvchining hayotga faol munosabati natijasida yuzaga chiqadi. Yozuvchi badiiy to'qima yordamida konkret odamlarda mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy xislatlar va imkoniyatlarning hali ro'yobga chiqmaganlarini ham xayolan ro'yobga chiqarib tasvirlaydi, hayotiy faktni o'z ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi” [2]. Ijodkor asar mohiyatini tarixiy haqiqatga mos ravishda to'qima obrazlar vositasida ochib beradi. Kitobxon ko'pincha tarixiy shaxslar haqidagi ilk qarashlarni, tasavvurni badiiy asar yoki kinolardan oladi. Ijodkor tarixiy shaxsni badiiy obraz sifatida gavdalanitirish uchun aynan uni real inson xarakteriga xos boshqa jihatlar bilan boyitib umumlashma tarzida shakllantiradi.

“Badiiy to'qima voqelikni obrazli aks ettirishning zarur sharti bo'lib, san'at va adabiyotning ma'rifiy ahamiyati imkoniyatlarini to'liqroq idrok etishimizga imkon beradi”[7]. Yozuvchi tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishda, ya'ni badiylashtirishda badiiy to'qimadan unumli foydalanishi uni badiiy-estetik jihatdan ko'nglidagiday talqin qilishiga imkon yaratadi. Badiiy to'qima yozuvchining ijodiy fantaziyasi bo'lishi bilan birga, uning qaysidir jihati hayotda uchragan insonlarga xos xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topadi. Matyoqub Qo'shjonov “Biografik janrning tug'ilishi” nomli maqolasida asarda badiiy to'qimaning o'rnini atroflicha yoritadi [8].

Yozuvchi asarlarida badiiy to‘qimadan o‘z o‘rnida foydalanib, hayotiy haqiqatni badiiylilik sari yo‘naltiradi, bunda u hayot bilan hamohanglikka alohida e‘tibor qaratadi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov tarixiy mavzudagi asarlarni ikki guruhga bo‘ladi. Birinchisi, bosh qahramoni real shaxslar, ikkinchisi, konkret tarixiy davr ruhi birinchi o‘rinda turib, “tarixiy ruhni ifodalovchi xarakterlar yozuvchi fantaziyasining mahsuli” bo‘lgan asarlardir. Badiiy asar hech qachon tarixning aynan aksi bo‘lmagani kabi ayni paytda bu ham yozuvchi yaratgan o‘ziga xos badiiy olamdir. Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li “Tanazzul” tarixiy romani birinchi tur, ya‘ni bosh qahramoni real shaxs bo‘lgan asarlarga kirsam, tarixiy asarlarning aksariyati ikkinchi tur, konkret tarixiy davr ruhi birinchi o‘rinda turib, tarixiy ruhni ifodalovchi xarakterlar yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo‘lgan asarlardir. Tarixdan ma‘lumki, Xudoyorxon shaxsi va hukmronligi xususida barcha davrlarda turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Shu o‘rinda bu masalaning tarixiy ildiziga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, Xudoyorxon shaxsi, uning hukmronlik yillari haqida bir qancha tarixiy asarlarda ma‘lumotlar berilib, bu manbalarda mazkur masalaga turlicha munosabat bildirilgan. Qayd qilinganidek, tarixiy manbalarda Xudoyorxon xarakteriga xos ba‘zi qusurlar bilan ayblangan bo‘lsa-da, yozuvchilarimiz buni inkor qilmagan holda, tarixiy haqiqatning har bir davr nuqtayi nazaridan turlicha baholanganini inobatga oladi. Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarning barchasida Xudoyorxon hukmronligi davri o‘ziga xos uslubda badiiy talqin qilingan. Bu asarlarning har biri o‘zbek tarixiy nasrida o‘ziga xos estetik ahamiyatga ega.

“Mehnatni hamisha bosh harfda yozish kerak. Mehnat – inson bolasining abadiy yo‘ldoshi. Ammo mehnatning asl qiyofasi uning yaratuvchisidadir” [5]. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev ta‘kidlaganidek: “Asar syujeti rivojida bevosita ishtirok etmaydigan personajlarning murakkab kompozitsion o‘zaro munosabatlarini tekshirish ham juda qiziq va foydalidir. Chunki badiiy obrazlar o‘rtasidagi bir qarashda ko‘zga tashlanmaydigan yashirin, ammo muhim kompozitsion aloqalar borligini tushunib olish tekshirilayotgan asar qurilishidagi uyg‘unlik va yaxlitlikni yaqinroq anglab yetish imkonini beradi” [4]. Badiiy asar syujetidan o‘rin olgan to‘qima obrazlarda ham o‘ziga xos badiiy yuk mavjud bo‘ladi. Qayd qilinganidek, ijodkor avval hayotni kuzatib, so‘ngra ularni ifoda qiluvchi hodisalar orqali badiiy niyatini amalga oshiradi. Bu jarayonda ijodiy niyatni amalga oshirish uchun yozuvchi iste‘dodiga ko‘ra “o‘zidan qo‘shib” voqelikni badiiy talqin qiladi.

Xulosa. Yozuvchi hayotiy haqiqatni obrazli tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, uni badiiy to‘qima orqali to‘yintiradi. O‘tmish qatlaridan olingan tarixiy haqiqatlarisiz badiiylilik shakli shamoyiliga yetarli darajada sayqal berib bo‘lmaydi. Adib har qanday dalil va voqelikning mohiyatiga badiiy ifodalar bilan sayqal beradi. Bunda badiiy to‘qimaning o‘rnini yozuvchi bilimi, dunyoqarashi va fantaziyasi belgilaydi. U yozuvchining hayotga faol munosabati natijasida yuzaga chiqadi. Badiiy to‘qima hayotiy fakt bilan qo‘shilgan, uyg‘unlashgan paytdagina chinakam umumlashma – badiiy obrazga aylanadi. Ijodkor obraz yaratishda hayotdan uning prototipini olishiga hayotiy haqiqatning badiiy ifodasi, deb qarash lozim. “Yozuvchi talantining o‘zi asl e‘tibori bilan hayotiy haqiqatni chuqur ko‘rishi va uning mohiyatini so‘zlar vositasi bilan haqqoniy tasvirlab bera bilish qudratidan iboratdir. Bu qudrat qanchalik zo‘r bo‘lsa, yozuvchi ijod jarayonida hayotiy haqiqatning mohiyatini shunchalik to‘g‘ri va shunchalik chuqur ko‘radi va ochadi” [1]. Badiiy haqiqatni tarixiy haqiqat asosida yuzaga chiqarishda yozuvchi hayot haqiqati atrofida o‘ralashib qolish va tafsilotga berilish yaxshi emas. Bu uni so‘z san‘ati uchun xos go‘zallikdan uzoqlashtiradi. Kuzatish, o‘rganish tufayli ijodkor ongida voqelikning umumlashma holatda aks etishi yozuvchining ijodiy tajribasi, iqtidori, aqlu zakovati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Hayotning ko‘z ilg‘amas qirralarini kuzata bilgan, uni idrok qila olgan yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy to‘qima yordamida yuzaga chiqaradi. Bu masalani Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li “Tanazzul” tarixiy romani misolida o‘rganar ekanmiz, o‘zbek adabiyotida Xudoyorxon obrazi yaratilgan asarlar talaygina, ularning har biri o‘ziga xos tarzda badiiy talqin qilingan. Yozuvchining Xudoyorxon haqidagi ijodiy niyati dastlab ko‘nglida yetilib, keyinchalik uning ijrosi – romanida o‘z aksini topganligini ko‘ramiz. Adib o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan, hanuz ahamiyatini yo‘qotmagan tarixiy voqea bilan birga, ezgulik va yovuzlik kurashi, turli murakkab taqdiralar, bir-biriga o‘xshamas xarakterlar, chigal psixologik holatlarni asarga asos qilib olgan. Yozuvchi moziy haqida qalam tebratar ekan, o‘sha davrning shiddatli ziddiyatlarini – taxt uchun kurash, adolat va adolatsizlik, haq va haqsizlikni eng xarakterli tomoniga alohida urg‘u beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Jamoa. II jildlik. II jild.– Toshkent: Fan, 1979. – B.109.
2. Boboiev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.49.
3. Golsuorsi J. Adabiyotda xarakter yaratish. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010. – B. 95.
4. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 227.
5. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. – B. 169.
6. Rahimjonov N., Ko‘baev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. – Toshkent: Adolat, 2005. – B. 144.
7. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘AJBNT, 2003. – B.49.
8. Qo‘shjonov M. Biografik janrning tug‘ilish G‘G‘ O‘zbek tili va adabiyoti. 1967. 4-son. – B. 46.
9. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 227.
10. Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. – Toshkent: Ziyoy, 2018. 4-kitob, - B.176.

Muallif:

To‘rayeva Dilnoza Nematullayevna - Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

УДК 811.161.1

TRANSITION IN THE PARTS OF SPEECH SYSTEM: INTERJECTIVATION

SO‘Z TURKUMLARI TIZIMIDA O‘TISH: INTERYEKTIVATSIYA

ПЕРЕХОДНОСТЬ В СИСТЕМЕ ЧАСТЕЙ РЕЧИ: ИНТЕРЪЕКТИВАЦИЯ

Жумаева Феруза Рузикуловна

Навоийский государственный педагогический институт. 210101. Навоийская область, г. Навои, ул. Мейморлар, 31.

E-mail: feruzaruziyevna68@mail.ru

Annotation: the purpose of the study is to consider one of the types of part-speech transposition - interjectivization in the Russian and Uzbek languages. Transposition is the fact when a word belonging to a certain category has a semantic and grammatical character specific to another group of words, weakening the semantics of the function. In Turkic languages, parts of speech are not strictly limited from each other, they are inextricably linked, forming a whole system. The relationship between independent words and their transition into each other occurs as a result of the development of lexeme semantics, and the speech and linguistic forms of transition are different. The speech transition expresses figurative meaning. The article provides a comparative analysis of interjectivization in the languages under study. Interjectivization is the transition of full-meaning words into the category of interjections. During interjectivization, the semantic, morphological and syntactic properties of words, as well as their functional features, change. In the languages under study, interjectivization is an unproductive type of part-speech transposition.

Key words: transitivity, analysis, interjection, interjection, noun, transposition, transition, part of speech, linguistics.

Annotatsiya: tadqiqot maqsadi rus va o‘zbek tillarida so‘z turkumlari transpozitsiyasi turlaridan biri – interyektivatsiyani ko‘rib chiqishdan iborat. Ma‘lum turkumga mansub so‘zning boshqa so‘z turkumiga xos semantik va grammatik xususiyatga ega bo‘lib, vazifa semantikasini susaytirishi transpozitsiyadir. Turkiy tillarda so‘z turkumlari bir-biridan qat‘iy chegaralanmagan, ular uzviy bog‘lanib, bir butun tizimni tashkil qiladi. Mustaqil so‘zlarning o‘zaro munosabati va ularning bir-biriga o‘tishi leksema semantikasining rivojlanishi natijasida yuzaga keladi va o‘tishning nutqiy va lingvistik shakllari har xil bo‘ladi. Nutqning o‘tishi majoziy ma‘noni ifodalaydi. Maqolada o‘rganilayotgan tillardagi interyektivatsiyaning qiyosiy tahlili keltirilgan. To‘liq ma‘noli so‘zlarning undov so‘zlar turkumiga o‘tishi interyektivlashuvdir. Interyektivlashtirish jarayonida so‘zlarning ma‘no, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, ularning funktsional xususiyatlari o‘zgaradi. O‘rganilayotgan tillarda interyektivatsiya so‘z turkumlari transpozitsiyasining samarasiz turi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘tish, tahlil, interyektivatsiya, undov so‘zlar, ot, transpozitsiya, o‘tish, so‘z turkumi, tilshunoslik.

Введение. Вопросу переходности слов в системе частей речи посвящено немало работ. В современном русском языке существует 14 типов транспозиции. [3]. Значительное количество переходных случаев даёт преобразование знаменательных слов в служебные. Например, слова из класса существительных, утрачивая значение предметности, переходят в междометия. В зависимости от направления диахронной трансформации различают два типа: иммиграционную, пополняющую какую-либо часть речи за счет других частей речи, и эмиграционную, при которой какая-либо часть речи «отдает свои слова в другие части речи, иммиграционная трансформация, в свою очередь, включает следующие процессы: субстантивацию – переход в имена существительные, адъективацию – в прилагательные, нумерализацию – в числительные, прономинализацию – в местоимения, адвербиализацию – в наречия, предикативацию – в безлично-предикативные слова, препозиционализацию – в предлоги, конъюнкционализацию – в союзы, партикуляцию – в частицы, интеръективацию – в междометия. [2].

Интеръективация (от лат. *interjectio* – междометие) – переход полнозначных слов в разряд междометий. При таком переходе слова знаменательных частей речи теряют свое лексическое значение и превращаются в слова-сигналы, выражающие эмоции и волеизъявления [3]. Вопрос о транспозиции, классификация всех случаев переходности в области частей речи рассматривался в трудах Л.Л. Буланина, В.Н. Мигирова, В.И. Чуглова, М.Ф. Лукина, Е.П. Калечица, Т.М. Николаевой, Л.Д. Чесноковой. [2]. Некоторые вопросы транспозиции и проблемы классификации частей речи изучали учёные-лингвисты Узбекистана: Я.Д. Эльтазаров, А.Е. Ботирова, Т. Турдибоев, Г. Абдурахмонов, А. Гулямов, С. Облокулов, Ж. Хамдамов, О. Ким, З.С. Исоков, А.Б. Пардаев, С. Маматкулов, А. Бегматова, И.И. Расулов и др. [4].

Объект исследования. В данной статье будем анализировать процесс интеръективации на материале двух языков: русского и узбекского. **Использованные методы.** В исследовании данной проблемы использован сравнительно-сопоставительный метод, который позволил определить семантические, грамматические и функциональные особенности интеръективации в современном русском и узбекском языках.

Полученные результаты и их анализ. В русском языке в междометия могут переходить: имена существительные (Батюшки! Беда! Глупости! Караул! Право!); глаголы (Здравствуйте! Поди! Помилуй!);

местоимения (То-то же!); наречия (Полно! Куда!); частицы (Как? И ты с ними?); отдельные фразеологические обороты (Вот оно что! Вот так-так! Вот те раз! Еще что! Черт возьми! Дело – табак!). В русском языке интеръективации чаще всего подвергаются существительные. Рассмотрим несколько примеров на интеръективацию (примеры взяты из словаря омонимов О.С.Ахмановой) [1]. В таблицу №1 мы включили отсубстантивные междометия (междометия, образованные путём перехода существительных в разряд междометий).

Таблица 1.

Существительное	Междометие
безобразие	
отталкивающе некрасивая внешность; уродство: <i>Кавалеристы лежат под ногами усталых лошадей, и никто не думает, что одно движение лошади может нанести ему вред или вечное безобразие, как это иногда и случается.</i>	употребляется для выражения возмущения: – <i>Безобразие!</i> – <i>ворчал про себя Ворчун.</i> – <i>Сидишь вот и даже собственной тени не видишь.</i>
блин	
плоская тонкая лепёшка, испеченная из жидкого теста на сковороде: <i>Что делать, если уже далеко не первый, а десятый блин продолжает прилипать к сковороде и выходит натуральным комом?</i> плоский круглый предмет, диск: <i>Штангист установил на штангу дополнительные блины.</i>	выражает любую сильную эмоцию: <i>Где-где, в автосалоне. Шутник, блин. Тарапунька и Штупсель.</i>
вира	
денежный штраф в пользу князя за убийство свободного человека в Киевской Руси: <i>И передайте боярам да посадским в Новгороде, что отныне кончилась здесь дармовщинка и не будет ни ясака, ни хабара, а коли торговать захотите – не забывайте Московскому князю пошлину платить, вира дороже станет.</i>	например, команда при подъёме тяжестей с помощью крана, лебёдки и т. п., соответствующая по значению: <i>поднимай! вверх!</i> <i>Год за годом, вира-майна.</i>
проклятие	
церковное осуждение, отлучение от церкви; анафема. <i>Собор лишил их духовного сана, предал проклятию и осудил на заточение.</i> <i>крайнее, бесповоротное осуждение, знаменующее полный разрыв отношений и отторжение.</i> <i>Отец послал ей на дорогу проклятие, а преследовать не заботился.</i>	выражает сильное раздражение, негодование – <i>Стойте, стойте, бога ради! Помогите, помогите, братцы!</i> – <i>кричу я; но топот дюжих коней, стук шашек и шумный казачий говор громче моего хрипенья – и меня не слышат!</i> <i>О проклятие! Я в изнеможении падаю лицом к земле и начинаю рыдать.</i>
чур	
у славян – далёкий предок, родоначальник. <i>Божеством, охраняющим род, дом был у них прежде всего Род, или Чур, Щур (т. е. дед, прадед, что ясно из употребительного пращур).</i>	выражает требование соблюдения какого-либо условия, какой-либо договор (обычно в играх): <i>Только, чур, не подглядывать!</i> выражает боязливое пожелание избежать какой-либо опасности, избежать чего-либо неприятного (обычно в заклинаниях против «нечистой силы» и т. п.): <i>Ох, чур меня!</i>

Примеры, данные в таблице №1 свидетельствуют о том, что при транспозиции существительных в междометия происходит изменение не только в семантике, но и в грамматических свойствах исходного слова, которое приводит к переходу его в иной лексико-грамматический класс. Рассмотрим следующие примеры. 1. *Что делать, если уже далеко не первый, а десятый блин продолжает прилипать к сковороде и выходит натуральным комом?* 2. *Где-где, в автосалоне. Шутник, блин. Тарапунька и Штупсель.*

В первом предложении слово *блин* имеет вещественное значение, существительное в форме единственного числа, мужского рода и именительного падежа, выполняет синтаксическую функцию подлежащего. Слово изменяемое, имеет окончание. Во втором предложении слово *блин* выражает сильную эмоцию. Это междометие, оно не изменяется, не имеет грамматических форм, не является членом предложения.

Следует различать предлог «О» и междометие «О». Данный предлог употребляется с винительным и предложным падежом.

1. О, предлог. 1. с вин. п. Указывает на близкое соприкосновение, столкновение, пребывание вплотную к чему-н. *Опереться о край стола. Споткнуться о камень. Жить бок о бок с кем-н. (совсем близко, рядом).* 2. с предл. п. Указывает на то, что составляет объект, предмет, цель чего-н. *Заботиться о детях. Мечты о славе. Весть о победе. На память о нашей встрече.* 3. с предл. п. употр. при указании на наличие чего-н. у предмета (устар. и обл.). *Избушка о двух окошках. Крылечко о трёх ступеньках.*

2. О, межд. 1. Выражает какое-н. сильное чувство. *О Родина-мать! О, если бы ты знал!* 2. Усиливает утверждение или отрицание. *О да! О нет!* [1]

Также нужно различать частицу «то-то» от междометия. **ТО-ТО частица.** Разг. 1. Употр. в ответной реплике для подтверждения главного в словах собеседника; в том-то и дело, вот именно. *Я понял, что не прав. – Вот то-то. Я замёрзла. – То-то, возьми одеяло. Все болезни от нервов. – То-то и оно.* 2. Употр. Толковый словарь Кузнецова **то-то. ТО-ТО межд. разг.** 1. Возглас при подчеркивании главного в предшествующей речи, соответствующий по значению сл.: *вот именно! в том-то и дело!* 2. Возглас, выражающий удовлетворение словами или поведением собеседника и соответствующий по значению сл. [1].

В узбекском языке интеръективация осуществляется путём перехода существительных, наречий, прилагательных и местоимений в разряд междометий. Рассмотрим примеры из толкового словаря узбекского языка под редакцией А.Мадвалиева. [6]

1) Переход существительного в междометие. MAZA [a. - sho‘r, nordon gazak] 1 Narsalarning ta‘m-lazzat bilish a‘zolariga ta‘sir etib, sezgi uyg‘otish xususiyati; ta‘m, lazzat. Nordon maza. Olmaning mazasi. Mazasini totib ko‘rmoq. *O‘zi shirin, to‘qligina, mazasi ham totligina (topishmoq: shafioli).* 2 Qanoat hissi, ruxiy zavq, lazzat, rohat. *Munchalik mazani topa olmaydi Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.* F. G‘ulom. 3 sft. Mazali, shirin. *Jarkop, shavla, kichiri – Biri-biridan maza. Xolam qo‘li gultoza.* Q. Muxammadiy. 4 und. s. Qoniqish, rohat hissini bildiradi. *-Eh, maza, maza! – deb Popuk sevinchidan quyonday dikang-dikang sakradi.* X. Nazir, Yonar daryo. *Haligi irjaygan odamning ko‘ngli chopdimi, so‘lakayini oqizdi: -Maz-za!* «Mushtum».

2) Переход наречия в междометие. OLG‘A 1 rvsh. Oldinga, ilgaritomonga. *Olg‘a yurmoq. O‘z pulemyotini sudrab, olg‘a emaklab ketdi.* A. Qahhor, Oltinkuz. *Olg‘a bosmoq* 1) oldinga tomon yurmoq, ilgariga qarab siljimoq. *Xon yonida turgan xos navkar qilichini ushlab, beixtiyor bir qadam olg‘a bosdi.* S. Siyoyev, Avaz; 2) rivojlanmoq, ilgarilamoq. *Ish olg‘a bosmoqda.* 2 und. s. Ilgari tomon siljishga, oldinga tomon yurishga chaqirish nidosi. *Qani, olg‘a, g‘alaba arslonlari! Qani, olg‘a, vatan qahramonlari!* H.Olimjon, Tanlangan asarlar.

3) Переход прилагательного в междометие. QOYIL 1 sft. Zavqlanib yoki tan berib, ofarin o‘qishga, tasanno aytishga arziqli. *Qoyil ish. Qoyil odam.* 2 und.s. Ofarin, tasanno. *Qoyil! Qoyil! Obbo siz-e! Zo‘rekansiz-ku, jigar.* «Guldasta».

В рассмотренных примерах слова, образованные путём интеръективной транспозиции, используются в различных функциональных стилях. Переход из других частей речи в разряд интеръекционных единиц происходит в результате функционально-семантического преобразования слов из других лексико-грамматических разрядов в процессе интеръективации. Германович А.И. отмечал, что в процессе интеръективации слова из разных частей речи меняют свою «внешнюю форму», теряя свою «внутреннюю форму», и превращаются в «слова восклицания». [7]. В русском и узбекском языках можно наблюдать и обратный процесс – субстантивацию интеръекционных единиц, т.е. переход междометий в состав других частей речи. Переход интеръективизмов в глаголы и имена существительные «является результатом использования междометий в функциях подлежащего, дополнения и сказуемого и других членов предложения». [3].

Заключение. Таким образом, в результате изучения различных источников и словарей, мы пришли к следующему выводу: в русском и узбекском языках использование одной языковой единицы (слова, формы, конструкции) в функции другой языковой единицы встречается довольно часто; в исследуемых языках в разряд междометий могут перейти как знаменательные части речи (существительное, местоимение, глагол, наречие), так и служебные части речи (частицы, предлоги); при интеръективации частей речи происходит изменение не только в семантике, но и в грамматических свойствах исходного слова, которое приводит к переходу его в иной лексико-грамматический класс; наши исследования подтверждают, что в сопоставляемых языках интеръективация является малопродуктивным типом транспозиции. Итак, основная характеристика процесса интеръективации – это отсутствие лексического значения и номинативной функции. Этот процесс можно наблюдать в обоих исследуемых языках.

Использованная литература:

1. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. – М., 1986. – 448 с.
2. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 47 (389). — С. 468-472.
3. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи // Universum: филология и искусствоведение : электрон. научн. журн. 2021. 12(90).
4. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. – Журнал: «Образование и инновационные исследования», №6. – Бухара, 2022. – С. 61-67
5. Jumaeva F. R., Mamurova F. N. Transposition of parts of speech as a non-morphological method of word formation // ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102). – 2021. – С. 566-572.
6. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. - Тошкент, 2020. – 680 б.
7. Нигметзянова А. Р. О характеристике междометий по происхождению в татарском и английском языках.

Автор:

Жумаева Феруза Рузикуловна – зав.кафедрой русского языка и литературы, кандидат педагогических наук, доцент Навоийского государственного педагогического института.

Ijtimoiy fanlar

UDC 372.82

ISLAM AND OUR NATIONAL VALUES ATTENTION TO THE FAMILY

ISLOM DINI VA MILLIY QADRIYATLARIMIZDA OILAGA E'TIBOR

ИСЛАМ И НАШИ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ ВНИМАНИЕ К СЕМЬЕ

Abdurahimova Farida Yo'ldoshevna

Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti. 100000. Toshkent sh.,
Chilonzor tumani, Chilonzor, 25.

E-mail: farida-abdurahimova2024@gmail.com

Annotation: In this article, based on the principles of knowledge, peace, and purity, which serve the strength of the family, the well-being and development of the people, the sources of Islam, legal documents, honored national traditions, and scientific theoretical views on the field of family and marriage lit.

Key words: Family, marriage, Islamic religion, man and woman, Qur'an, parentage, universal human values, humanitarianism, child, legal documents.

Аннотация: В данной статье на основе принципов знания, мира и чистоты, служащих силе семьи, благополучию и развитию народа, использованы источники ислама, правовые документы, почитаемые национальные традиции, научные теоретические взгляды на область семьи и брака, лит.

Ключевые слова: Семья, брак, исламская религия, мужчина и женщина, Коран, происхождение, общечеловеческие ценности, гуманизм, ребенок, правовые документы.

Kirish. Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar xalqlar madaniy hayotidagi asrlar davomida qaror topgan nikoh munosabatlarining degradatsiyaga uchrayotgani bilan xarakterlanmoqda. Nikoh va oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglamasdan, ularni yo'qotishga, insoniyat erkinligiga putur yetkazuvchi sarqit sifatida baholovchi nigilistik qatlamlar shakllanmoqda. Bunday qarashlar G'arb-u Sharq xalqlari hayotiga birdek kirib bormoqda. Shu bois oila-nikoh munosabatlarining axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish, transformatsiyasiga sabab bo'luvchi konseptual asoslarini aniqlash va insoniyatning progressiv taraqqiyotidagi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Ma'lumki, oila jamiyatning eng ko'hna va muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Aynan oilada reproduktiv funktsiya amalga oshiriladi. Keyinchalik esa shaxsning ijtimoiylashuvi ham aynan oilada sodir bo'ladi. Shuningdek, milliy an'analar, urf-odatlar, udumlarni idrok qilish va ularni o'zlashtirish ham oilaviy hayotda kechadi. Shu va boshqa muhim jihatlari tufayli oila jamiyat hayotining poydevori hisoblanadi. Qaysiki jamiyatda oila instituti mustahkam bo'lsa, o'sha yerda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash qonuniyat xususiyatiga ega bo'ladi. Oila barqarorligi esa bir qator omillar ta'sirida mavjud bo'ladi. Ularning har biri muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy izlanishlar yordamida tadqiq qilinib, jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayonida oila institutini mustahkamlash yanada murakkablashib borishining sabablari aniqlashtirilishi dolzarblik kasb etadi.

Xususan, zamonaviy sharoitlarda oila ma'naviy muhitining beqarorlashuvi, yuz berayotgan oilaviy ajrimlar tufayli ota yoxud ona mehridan benasib voyaga yetayotgan farzandlar ham, afsuski, ko'payib borayotgani, oilaviy ajrimlardan, avvalo, voyaga yetmagan bola, ayol aziyat chekayotgani, norasidalarining moddiy ta'minoti, ruhiyati, tarbiyasi, taqdiri, kelajagi savol ostida qolayotgani har bir fuqaroni ogohlikka chaqiradi. Chunki bugungi kunda jamiyat a'zolari o'rtasida norasmiy shar'iy nikohni noqonuniy holatlarda, belgilangan tartiblarga zid ravishda o'qilishi hamda nosog'lom oila muhitlarida nikohsiz yashash holatlari ushbu nikohlarning noqonuniy bo'lishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 2-apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-son, 2020 yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmonlari hamda 2021 yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yor damchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-son Qarorida ham jamiyatning barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining turli toifa oilalar mustahkamligi va farovonligini ta'minlashning huquqiy asoslari belgilab berilgan bo'lib, ularning ijrosini ta'minlashda ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'ini raisi, profilaktika (katta) inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar etakchisi, "Oqila ayollar" harakati a'zolari hamda keng jamoatchilik oldidagi dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mahallalardagi oilalarning o'ziga xos xususiyatlari va nikoh munosabatlari masalalari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyociy tahlil,

umumlashtirish, ijtimoiy metodlar (anketa, cavol-javob, suhbat, ekspert bahosi) pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini umumlashtirish kabi usullardan va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Yangi ma'naviy makon yaratish, Yangi O'zbekistonning axloqiy qiyofasi rivojida oila va nikoh munosabatlarining o'rni muhim. Mamlakatimizda oila-nikoh instituti mustahkamligi va farovonligini ta'minlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, sog'lom, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash hamisha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu – oiladir. Xalqimizda "Qush uyasi ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya – oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutaymiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi" [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga[2], ko'ra, Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlari deganda, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga, shu jumladan, Oila kodeksiga zid bo'lmagan an'analari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha fuqarolarning an'anaviy oilaviy qadriyatlarini hurmat qilishi e'tirof etiladi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi.

Islom dini va milliy qadriyatlarimizda ham oilaga alohida e'tibor qaratilgan. Islomda nikoh bu – erkak va ayol o'rtasida ma'lum me'yor va shartlar asosida oila qurish hamda nasl qoldirish maqsadida Alloh taoloning nomi, Muhammad (s.a.v.) ning sunnati va ko'p sonli musulmon kishilarning guvohligida tuziladigan bir umrlik ahdlashuv hisoblanadi. Shu bois er va xotin zimmasiga muayyan mas'uliyatlar yuklatiladi va undan qochish hamda bo'yin tovlash mumkin emas. Darhaqiqat, shariatga ko'ra, nikohsiz noqonuniy yashash bir jihatdan Qur'onda va hadislarda jazosi qattiqligi borasida ogohlantirilgan – katta gunohning biri hisoblangan zino bo'lsa, ikkinchi tomondan, shar'iy nikohsiz tug'ilgan norasida bolaga "valadizino" tamg'asi bir umrga bosiladi.

Ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar ham oilaning tarixiy epistemologiyasi insoniyat paydo bo'lgan davrga borib taqalishini hamda u erkak va ayol o'rtasida tuzilishini ta'kidlaydi.

Zero, islom dini manbalarida ham bu zikr qilingan. Jumladan, Qur'oni karimda quyidagicha marhamat qilingan: "Alloh sizlar uchun o'z'laringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralari paydo qildi" (*Nahl surasi, 72-oyat*). Islom dini tarkidunyochilikdan va yolg'iz o'tishdan qaytargan. Shunga ko'ra, oila qurmasdan yakka o'tish gunoh bo'ladi. Abu Ayyub al-Ansoriy (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda quyidagicha marhamat qilingan: Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "To'rt ish payg'ambarlarning sunnatlaridandir: hayo, atir sepish, misvoq ishlatish va nikoh (oila qurish)". Demak, barcha payg'ambarlar oila qurish lozimligini insonlarga yetkazishga buyurilganlar. Shuningdek, Tovus ibn Kayson (r.h.)dan rivoyat qilingan hadisda bu holat alohida ta'kidlangan:

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Islomda tarki dunyochilik yo'qdir".

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Dunyodagi barcha insonlar, xususan, har bir qiz yoki har bir ayol baxtli bo'lishga haqli, bu esa oila qurish bilan to'kis bo'ladi. Shu bois ular o'z baxtini izlashi, o'ziga munosibroq yor, bir umrlik yo'ldosh tanlashi hamda axtarishi mumkin. Ushbu xayrli niyatda har bir shaxs bironing fe'l-atvorini, nasl-nasabini va hokazolarni bilishga hamda surishtirishga haqli. Zotan, oilaning mustahkam bo'lishida er va xotinning o'zaro bir-biriga munosibligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda ushbu ikki jihat ham alohida ta'kidlangan:

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Zurriyotingiz uchun (ayollarni) tanlanglar, mos kelganlari bilan nikohlaninglar va (qizlaringizni) munosib (erkak)larga turmushga beringlar"

Sevgi-muhabbat va mehribonlik insoniy tuyg'ularning eng oliylaridan sanaladi. Oilada er-xotin o'rtasidagi sevgi-muhabbat va mehribonlik bor narsa. Shuningdek, islomda erning xotiniga xushmuomala bo'lishi ta'kidlangan. Zero, ushbu ikki holat oila mustahkamligini ta'minlashdagi muhim omillardandir. Qur'onikarimda quyidagicha marhamat qilingan:

"Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar taskin topishingiz uchun o'z'laringizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda muhabbat va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir" (Rum surasi, 21-oyat).

Nikohning er-xotin o'rtasini bog'lovchi bitim oila instituti ekanligi, qolaversa, erkak va ayol borlig'ini mehr-muhabbat rishtasi bilan bog'lovchi, zurriyot qoldirishga hamda buzuqlikdan saqlovchi ilohiy ahd ekanligi diniy manbalar asosida tahlil qilingan. Diniy nikoh munosabatlari o'zbek xalqi milliy nikoh marosimlari bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib go'zal axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi. Juftlashish, nikohdan o'tib, oila qurib birgalikda halol umr kechirish oliy aql sohiblariga xos fazilatdir.

Islom ta'limotida nikoh erkak va ayolning oila qurishning shartlari, qoidalarini shariat ko'rsatmalari, talablari asosida amalga oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Mazkur tushuncha ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, qo'shilish degan ma'noni anglatadi.

Islom dini oila nikoh munosabatlari mohiyatida iffat va saqlanish me'yorlari mujassam. Islom dinida balog'at yoshiga yetgan har bir yigit-qiz nikohga oila qurishga chaqirilgan. Uylanish musulmonlar uchun nafsni haromdan tiyish vositasi sifatida qarab kelinadi.

Islom qoidalariga muvofiq, nikoh asosida tashkil etilgan oila asosida insonga uchta yaxshilik ifodalanadi.

Birinchisi, bir umrlik jufti-haloliga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, xotirjamlik, nafs rohati va baxtli turmush hayoti soyasida topadigan inoqlik va sokinlikdir.

Uchinchidan, er-xotin bir-biri uchun xuddi badanning ayblarini yashirib, uni issiq-sovuqdan asrab, harorat bag'ishlab turadigan libos kabidirlar.

Islom huquqiga ko'ra, nikohning haqiqiyliigi – quyidagi to'rt shartning uyg'unligi, chunonchi: birinchisi – bevosita monelik qiluvchi holatlarning yo'qligi; ikkinchisi – muayyan shaxslarning roziligi; uchinchisi – mahrning belgilanishi; to'rtinchisi rasmiy qoidalarga rioya etilishi bilan belgilanadi. Mana shu to'rt talabdan kelib chiqib oila tashkil topadi.

Nikohning birinchi bosqichi kelishish, unashtirish (xutba) bo'lib, unda kuyov o'zi yoki vakili orqali kelinning otasi, vasiysi yoxud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va nikoh shartnomasi (sig'a)ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi. Islom manbalarida keltiriladiki, nikohning erkak va ayol uchun asosiy foydali tomoni zinoga botmaslik va farzandlarni dunyoga keltirishdir. Nikoh asosida bashariyat nasli dunyoni to'ldirib kelmoqda. Shahvat esa farzand dunyoga kelishi sababidir. Agar insonning shahvati qo'zg'asa, uni na aql, na din bu yo'ldan qaytarolmaydi. Shu sabab payg'ambarimiz, kimki nikohdan o'tishga imkoni bo'lmasa, ro'za tutishini buyurganlar. Toki oilalari bo'lgunlaricha gunohga botmasliklari uchun.

Nikoh erkak va ayolni bir-birlariga yaqinlashtirib, hazillashish, o'ynash, muammolarini aytib yengillashish, birga o'tirib rohatlanish vazifasini ham bajaradi. Inson doimo lazzat bilan rohatlanib tursa, stresslardan qutulib, faoliyatida unumdorlik oshadi. Jufti bilan yaqin muomalada bo'lish qalbni rohatlantirib, o'jarlikni kamaytiradi. Islom shariatiga binoan ikki sevishgan qalb uchun ham nikohdan boshqa najot yo'qdir. Nikohdagi xursandchilik go'zal va sog'lom turmush kechirishga sabab bo'ladi.

Oila mustahkamligi va uning shaxs farovonligidagi o'rni, ijtimoiy hayotda erkak va ayolning nikohdan o'tib baxtli hayot kechirishi bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Insonning o'zini baxtli sezishi oilaviy hayotini mukammal ko'rish omillariga bog'liqdir. Ayniqsa, jamiyatimizda insonlarga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat-izzat, ishonch, muhojamat, muhabbat, hamkorlik tuyg'ulari mustahkam oila muhitida yaqqol namoyon bo'ladi.

Oilani ulug'lagan xalq o'zini ulug'lagan xalqdir. Oila jamiyatda farovon hayotni ta'minlashning dunyoviy instituti, insoniyat hayotini ham biologik, ham sotsiologik tartibga solish vositasidir. Oila kodeksiga ko'ra, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarining hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Islom shariatida ham oilaviy munosabatlarga oid barcha masalalar alohida belgilab qo'yilgan. Zero, ular oilaning ahl- inoqligini ta'minlashga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham islomda bu jihatlarga ham e'tibor qilingan. Ulardan bo'yin tovlash, ularni bajarishdan qochish va o'z holiga tashlab qo'yish shariat ko'rsatmalariga zid ishlar hisoblanadi. Jumladan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda mazkur holatlar ham alohida ta'kidlangan:

Xavla bintu Hakim ismli Usmon ibn Maz'unning xotini Oishaning oldiga kirdi. O'sha ayol (o'sha davrda turmush qurgan ayollar kabi) ziynatlanmagan edi. Shunda Oisha undan "ahvoling yaxshimi?", – deb so'radi. U esa, "erim kechalar bilan ibodat qilib chiqadi, kunduzlari ro'zador bo'ladi" (ya'ni eni o'z holimga tashlab qo'ydi), – dedi. Oisha esa Nabiy (s.a.v.) ga kirganlarida holatni aytdi. So'ng Nabiy (s.a.v.) Usmon ibn Maz'unga uchrashib, unga "Ey, Usmon! Darhaqiqat, tarkidunyochilik bizlarga farz qilinmagan. Bas, sen uchun menda biror chiroyli namuna yo'qmidi!? Allohga qasamki, Men sizlardan ko'ra Allohdan qo'rquvchiroqman va Uning hududlariga rioya qiluvchiroqman", – dedilar.

O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar. Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar.

Erning kundalik ro'zg'or ishlarida ham xotiniga ko'makdosh bo'lishi islomda maqtalgan ishlardan. Zero, bu ham oila faravonligiga xizmat qiladi. Payg'ambar (s.a.v.)ning turmush tarzlarida ham bu holat namuna sifatida kelgan. Zero, oddiy insonlar u zotdan har jabhada ustun bo'lishni da'vo qila olmaydi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Tobein olimlardan al-Asvad ibn Yazid (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambar (s.a.v.)ning oilaviy turmush tarzi quyidagicha bayon qilingan:

Men Oisha(r.a.)dan “Nabiy (s.a.v.) uyida nima ishlar qilardi?”, deb so‘radim. U (Oisha) “Nabiy (s.a.v.) uyida ahlining ishlariga ham yordamlashar edi. Namoz vaqti bo‘lganda esa namozga chiqib kelardi”, – deb javob berdi.

Shariatda oilaning ta‘minoti er zimmasidagi vojib amallardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Qur‘oni karimda quyidagicha zikr qilingan:

Ularni (ya‘ni onalarni) yaxshilik bilan yedirib-kiydirish otaning zimmasidadir (Baqara surasi, 233-oyat).

Shunday ekan, er oilaning kundalik turmushi uchun yetarli miqdorni ado etishga majbur hisoblanadi. Ba‘zan erning moddiy imkoniyati bo‘lsa-da, xotini va bolalariga yetarli ta‘minot bermaslik holatlari ham uchrab turishi mumkin. Jumladan, bu kabi holat borasida Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadisda zikr qilingan:

“Hind bintu Utba: Ey, Rasululloh! Abu Sufyon o‘ta baxil odam, menga va bolamga yetadigan (kundalik) ta‘minotni bermaydi. Magar, unga bildirmay olsamgina bo‘ladi”, – dedi. U zot: “O‘zingga va bolangga yetarlisini to‘g‘rilikcha ol”, – dedilar.

Garchi ushbu hadisda er baxillik qilib, ta‘minotni oz bersa, xotin undan berkitib olishi mumkinligi bayon qilingan bo‘lsa-da, bunda faqat ehtiyoj nazarda tutilgan. Aslida, er vaqtida ta‘minotni berib turgan bo‘lsa yoki u tejamkor bo‘lsa, xotin shunga qanoat qilgani va qo‘shimcha ta‘minotni esa erning ruxsati bilan qilgani maqsadga muvofiqdir. Zero, u oiladagi totuvlik va birdamlik bardavom bo‘lishi sabablaridan biri hisoblanadi.

Dunyoviy nikoh barcha davlatlarda majburiy belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, diniy nikoh ayrim diniy davlatlar va jamiyatlarda uchraydi. O‘z qadriyatlariga sodiq xalqlar nikoh bilan bog‘liq milliy urf-odatlarini ham bajaradilar. Bizning davlatimizda oila qurayotgan kelin-kuyov, albatta, dunyoviy nikohni amalga oshirishlari, davlat (FHDY) idoralaridan ro‘yxatdan o‘tishlari shart. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Nikohning diniy va milliy shakllari ixtiyoriy bo‘lib, “nikoh bu ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoqdir” [3]. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Avvalo, nikoh faqatgina jismoniy juftlashish emas, balki ma‘naviy-ruhiy mushtaraklik uyg‘unlashuvdir. Insonning boshqa jonzotlardan farqli jihati ham aynan mana shu ma‘naviy-ruhiy mushtaraklik bilan belgilanadi. Shunisi ahamiyatliki, nikoh ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun guvohlar ishtirokida amalga oshiriladi. Sababi jamoatchilikka ikki jins vakilining oila qurayotganini oshkor qilish hisoblanadi.

Xulosa

Demak, oilaning mustahkam va farovon bo‘lishida er va xotin barobar mas‘ul hisoblanar ekan. Har ikki tomonning mas‘uliyati va vazifalari birgina niyat bilan ibodat darajasidagi savobli amalga aylanishi mumkin. Aksincha, ulardan bo‘yin tovlash va qochish bir jihatdan gunoh amal bo‘lsa, ikkichi tomondan tushunmovchilikka sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 72-73.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Yuridik adabiyotlar, 2023. – 112 b.
3. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2003. 6-jild. – B. 355.
4. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. *Science and innovation*, 2(B1), 49-59.
5. Мусурмонов, P., & Мусурмонова, M. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 223-231.
6. Мусурмонов, P., & Мусурмонова, M. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 223-231.
7. Мусурманова, A. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. *Проблемы педагогики*, (1 (40)), 5-7.
8. Ауниса, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. *Проблемы педагогики*, (1 (33)), 5-7.
9. Мусурманова, O., Палуанова, X., Рискулова, K., & Курбаниязова, Z. (2019). Педагогик атамалар луғати: ўзбек, рус, инглиз тилларида. T.:“TURON_IQBOL”.

Muallif:

Abdurahimova Farida Yo‘ldoshevna - Respublika Oila va xotin- qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va oila psixologiyasi” bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

УЎК: 630(575.1)

FROM THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF FORESTRY IN THE COUNTRY OF TURKEY

TURKISTON O'LKASIDA O'RMON XO'JALIGINI VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ СОЗДАНИЯ ЛЕСНОГО ХОЗЯЙСТВА В СТРАНЕ ТУРЦИЯ

Olimov Jahongir Bo'riboevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy.

E-mail: olimovjahongir1982@gmail.com

Abstract. This article talks about the creation of the first forestry in the modern sense in Uzbekistan and the history of the first works carried out in this regard in our country. If we look at history, the period of human use of nature in Uzbekistan corresponds to long millennia. According to archaeologists, the exploitation of the lower Amudarya dates back to the IV-III millennia BC. During these times, primitive people lived mainly in the old delta of the Amudarya and lived by hunting aquatic animals. Waterside forests and the world of animals and plants living in them were one of their main sources of nutrition. Also, forests provided people with the necessary material for building houses. Therefore, the inhabitants tried to live without going far from these forests. Living in close proximity to forests and their flora has also taught people to a more sedentary lifestyle.

Key words and phrases: Forest, forestry, State Forest Fund, Quintus Curtius Ruf, Turkestan Range.

Аннотация. В этой статье рассказывается о создании первого лесного хозяйства в современном понимании в Узбекистане и истории первых работ, проведенных в этом направлении в нашей стране. Если обратиться к истории, то период использования человеком природы в Узбекистане соответствует долгим тысячелетиям. По мнению археологов, эксплуатация нижней Амударьи восходит к IV-III тысячелетиям до нашей эры. В эти времена первобытные люди жили в основном в старой дельте Амударьи и жили охотой на водных животных. Приводные леса и мир животных и растений, обитающих в них, были одним из основных источников их питания. Также леса давали людям необходимый материал для строительства домов. Поэтому жители старались жить, не отходя далеко от этих лесов. Проживание в непосредственной близости от лесов и их флоры также приучило людей к более малоподвижному образу жизни.

Ключевые слова и фразы: Лес, лесное хозяйство, Государственный лесной фонд, Квинт Курциус Руф, Туркестанский хребет.

Kirish. Tarixga nazar tashlanadigan bo'lsa, O'zbekistonda insonning tabiatdan foydalanish davri uzoq ming yilliklarga to'g'ri keladi. Arxeologlarning ta'kidlashiga ko'ra, quyi Amudaryoning o'zlashtirilishi eramizdan oldingi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi [1]. Bu davrlarda ibtidoiy odamlar, asosan, Amudaryoning eski deltasida yashab, suv hayvonlarni ovlab hayot kechirishgan. Suv bo'ylaridagi o'rmonlar va ularda yashovchi hayvonlar va o'simliklar dunyosi ularning asosiy ozuqaviy manbalaridan biri bo'lgan [2]. Shuningdek, to'qay o'rmonlari uy qurish uchun kerakli material bilan odamlarni ta'minlagan. Shuning uchun aholi bu o'rmonlardan uzoqqa ketmasdan yashashga harakat qilganlar. O'rmonlar va ulardagi o'simliklar dunyosiga yaqin bo'lib yashash odamlarni o'troq tarzidagi hayotga ham o'rgatgan [3].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Turkiston o'lkasida o'rmon xo'jaligini vujudga kelishi va shakllanishi bilan bog'liq dastlabki jarayonlar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Aslini olganda, O'rta Osiyoda o'rmonlar keng tarqalmagan. Hududning 6,7 foiziga o'rmonlar bilan qoplangan. Bir qator tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda o'rmonlar va o'simliklar ancha katta maydonlarni egallagan ekan. Masalan, Aleksandr Makedonskiy tarixini yozgan Kvint Kursiy Ruf Zarafshon vodiysini tasvirlashi mobaynida bu yerlarda ko'plab o'rmonlar mavjud bo'lganligini qayd etadi. U yana Panjikentga yaqin yerlarda o'tib bo'lmas o'rmonlar borligini ham yozgan [4].

Tarixga nazar tashlanadigan bo'lsa, O'zbekistonda insonning tabiatdan foydalanish davri uzoq ming yilliklarga to'g'ri keladi. Arxeologlarning ta'kidlashiga ko'ra, quyi Amudaryoning o'zlashtirilishi eramizdan oldingi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi [1]. Bu davrlarda ibtidoiy odamlar, asosan, Amudaryoning eski deltasida yashab, suv hayvonlarni ovlab hayot kechirishgan. Suv bo'ylaridagi o'rmonlar va ularda yashovchi hayvonlar va o'simliklar dunyosi ularning asosiy ozuqaviy manbalaridan biri bo'lgan [2]. Shuningdek, to'qay o'rmonlari uy qurish uchun kerakli material bilan odamlarni ta'minlagan. Shuning uchun aholi bu o'rmonlardan uzoqqa ketmasdan yashashga harakat qilganlar. O'rmonlar va ulardagi o'simliklar dunyosiga yaqin bo'lib yashash odamlarni o'troq tarzidagi hayotga ham o'rgatgan [3].

Faqatgina XIX asr oxirlaridan boshlab O'rta Osiyoda asta-sekin o'rmon xo'jaliklari paydo bo'la boshladi. Masalan, 1897-yili Amudaryo o'rmon xo'jaligi vujudga kelgan. Amudaryoning quyi oqimida o'rmonchilik ishlarini olib

borish 1909-yildan boshlangan. Shu yilgacha oʻrmonlarning maydonlari va ularni hisobga olish ishlari olib borilmagan edi. Shu davrdan boshlab oʻrmonlarni hisob-kitob qilish yoʻlga qoʻyila boshlandi.

Shunday boʻlsa-da, Oʻzbekiston hududida oʻrmon xoʻjaligiga XIX asrning ikkinchi yarmida asos solinganligi haqida maʼlumotlar uchraydi. Oʻzbekiston hududida zamonaviy maʼnodagi birinchi oʻrmon xoʻjaligi 1873-yili hozirgi Boʻstonliq tumani hududida tashkil etilgan. 1875-yilda Turkiston togʻ tizmasining Molguzar tarmogʻi yonbagʻrida Zomin oʻrmon dam olish maskani tashkil qilingan. 1890-yilda Amudaryo boʻlimida oʻrmon boʻlimi (lesnichestvo) tashkil qilingan. Turkiston oʻlkasida oʻrmon bilan bogʻliq qidiruv-tekshiruv ishlari 1889–1894-yillarda maxsus tashkilotlar yordamida amalga oshirilgan boʻlib, natijada oʻrmonlarning ayovsiz yoʻq qilingani aniqlangan. 1895-yilda Turkiston va Molguzar togʻli hududlarida Zomin oʻrmon xoʻjaligi tashkil qilingan. 1897-yilda esa, oʻrmonlarni himoya qilish va saqlash maqsadida “Oʻrmonlarni saqlash haqida” Nizom qabul qilingan [6].

1912-yili Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida toʻqay oʻrmonlari tashkil qilindi. Bundan koʻrinadiki, oʻsha davrlardan boshlab oʻrmonlarni saqlab qolish masalasi bilan jiddiy shugʻullanilgan. Turkiston oʻlkasini boshqarish bilan bogʻliq oʻsha davrga oid qonun hujjatlari orasida oʻrmonlarni saqlashga qaratilganlari ham bor edi. Masalan: yovvoyi oʻrmonlar ham, boʻsh yerlar ham davlat mulki deb hisoblangan, xalqlar yashayotgan yerlar ularga doimiy foydalanish uchun berilgan. Yoki Rossiya imperiyasi maʼmurlari saksovulzorlarni qoʻriqlash masalasini ilgari surib, ulardagi saksovullarni yoʻq boʻlib ketishiga qarshi turgan. Lekin shunga qaramay, aholi saksovullardan oʻz ehtiyojlari yoʻlida doimiy ravishda foydalanib kelgan. Jumladan, hukumatning taqiqlashiga qaramay, saksovullarni kesish va bozorda sotish holatlari koʻp uchrab turgan.

Maʼlumotlarda keltirilishicha, 1911-yili choʻl oʻrmonlarida 634 kishi oʻrmonlarni qoʻriqlash uchun tayinlangan boʻlsa-da, 1914-yilgi hisobotlarda oʻrmonlarni saqlash bilan bogʻliq qoidalar 616-marta buzilganligi qayd etilgan. Bu borada tarixiy hujjatlarga murojaat qiladigan boʻlsak, 1911-yili Sankt-Peterburgda boʻlib oʻtgan oʻrmon egalari haqida Turkiston oʻlkasi yer boshqarmasi va davlat mulki boshqaruvchisi knyaz Mosalskiy togʻ oʻrmonlarining qisqarishi haqida: “...oldingi davrlarda Turkistondagi togʻ oʻrmonlari ancha katta boʻlgan. Ular vodiylar hatto odamlar yashaydigan joylarga tarqalgan edi”, – deya taʼkidlaydi. Lekin asrlar davomida aholining taʼsiri bu oʻrmonlarining keskin kamayishiga sababchi boʻlgan. Togʻ oʻrmonlarining bunday yoʻq qilinishi tabiiy balansni buzishdan tashqari, tabiiy ofatlarga ham olib kelishi mumkin edi. Mana shunday sharoitda butun Turkiston hayotini yaxshilashga yordam beruvchi togʻ oʻrmonlarini muhofaza qilish oʻrmon xoʻjaligining asosiy vazifasi boʻlishi lozim edi [7]. Shuni qiziqki, aholining oʻzi ham oʻrmonlarni saqlab qolish va qoʻriqlashdan manfaatdor boʻlgan. Chunki oʻrmonlar ular uchun daromad manbai, yashash uchun vosita boʻlib xizmat qilgan.

1911-yildan boshlab Turkiston oʻrmon xoʻjaligida yangi davr boshlangan. Bunda oʻrmonlardan kelgan foyda davlat hisobiga oʻtkazilgan. Oqibatda, oʻrmondan olingan oʻtinlar narxi oshib ketgan. Oʻrmonda chorva mollari boqish uchun ham turli koʻrinishdagi narxlar belgilangan. Bu aholining noroziligiga sabab boʻlgan. Chor xuqumatining urinishlari katta va kutilgan natijalarga olib kelmaganligi sababli Turkiston general-gubernatori Kuropatkin 1917-yil 17-yanvarda Turkiston oʻlkasi hududiga tegishli boʻlgan oʻrmon bilan bogʻliq buyruq chiqargan. Bu buyruqda aholining oʻrmonlardan foydalanishiga erkinlik berilgan. Shunday qilib, Turkiston oʻlkasidagi oʻrmon xoʻjaligi bilan bogʻliq davlat ishlari muayyan chora-tadbirlar bilan yakunlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, insonlarning tabiatda mavjud boʻlgan daraxtlardan foydalanish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Oʻrta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz ham bundan ming yillar avval tabiiy oʻrmonlarda mavjud boʻlgan xomashyolardan oʻz ehtiyojlari yoʻlida foydalanib kelganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ягодин В.Н. Население Южного Приаралья в рабовладельческую эпоху. История Каракалпакской АССР (с древнейших времен до наших дней). – Ташкент, 1986. – С. 21-32.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 48.
3. Байраммурад А. Тугайные леса Амударьи и повышение их защитных функций. Автореф. дисс. канд. геог. наук. – Алма-Ата, 1987. – С. 20.
4. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского // История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 127
5. Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. – Toshkent: Gʻofur Gʻulom, 2007. – 109-113 bet
6. ЎзМА, И-1-fond, 11-roʻxat, 803-ish, 13-varoq
7. Лим В.П. Охрана живой природы на территории Узбекистана Дисс. докт. биолог, наук. – Ташкент, 2002. – С.19.

Muallif:

Olimov Jahongir Boʻriboevich-Qoʻqon davlat pedagogika instituti katta oʻqituvchisi, Tarix fanlari boʻyicha Falsafa doktori, PhD.

UDK 87.3

THE SIGNIFICANCE OF ABU NASRA AL-FAROBI'S "VIEWS OF COMPASSIONATE URBAN RESIDENTS" IN FORMING YOUTH'S WORLDVIEW

ABU NASR AL-FOROBIYNING “FOZIL SHAHAR ODAMLARI QARASHLARI” ASARINING YOSHLAR DUNYOQARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ «ВЗГЛЯДЫ МИЛОСЕРДНЫХ ГОРОДСКИХ ЖИТЕЛЕЙ» АБУ НАСРА АЛЬ-ФАРОБИ

Abdushukurov K. A. Abdushukurova I. K.

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: i-abdushukurova2024@gmail.com

Abstract. The article examines the role and significance of Abu Nasr al-Farabi's work "Views of compassionate urban residents" in shaping the worldview of young people. The philosophical ideas in the work are analyzed, ideas on moral education are given, and recommendations are given on the formation and development of the worldview of young people.

Keywords: being, power, philosophy, worldview, man, celestial bodies, universe, education, upbringing.

Annotatsiya. Maqolada Abu Nasr al-Farobiyning “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarining yoshlar dunyoqarashlarini shakllantirishdagi oʻrni va ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritilgan. Asardagi falsafiy fikrlar tahlil qilingan, axloqiy tarbiyaga oid fikrlar, yoshlar dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishiga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: borliq, kuch, falsafa, dunyoqarash, inson, osmon jismlari, koinot, taʼlim, tarbiya.

Аннотация. В статье рассматривается роль и значение произведения Абу Насра аль-Фараби «Взгляды милосердных городских жителей» в формировании мировоззрения молодежи. Анализируются философские идеи в произведении, приводятся идеи по нравственному воспитанию, даются рекомендации по формированию и развитию мировоззрения молодежи.

Ключевые слова: бытие, власть, философия, мировоззрение, человек, небесные тела, вселенная, образование, воспитание.

Kirish. Oʻrta asr uygʻonish davrining vakili, buyuk bobomiz Abu Nasr al-Farobiy “Fozil shahar odamlari qarashlari” asari boshida mukammal ilohiylik falsafasi asosida borliqni tushuntirishga va soʻngra asta-sekin hayotda yuzaga kelayotgan inson bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy, siyosiy, maʼnaviy hayotga oʻtadi va insonning inson sifatida yashashga loyiq turmushni oʻzining ushbu asarida koʻrsatib beradi.

Forobiy birinchi, ilk borliq, ilk mavjudlik – bu Tangridir, u boshqa barcha mavjudotlarning borligining birinchi sababchisidir. Ul zot har qanday nuqson, kamchiliklardan pokdir, boshqa barcha mavjudlarda esa koʻp nuqsonlar bordir, – deb taʼkidlaydi.

Forobiyning boshqa qator falsafiy asarlarida ham ushbu qonuniyat doimo ilgari suriladi va koinotdagi barcha jismlar doimo harakatda, ularning bir-biriga uzluksiz taʼsiri roʻy beradi, ammo dastlabki, ularni harakatga soluvchi, taʼsir etuvchi kuchni u hali koʻrsatmaydi. Bu holat oʻquvchini xulosalar qilishga, izlanishga majbur etadi.

Forobiy keyinchalik bu ilk kuchni, borliqni, boshqa barcha jismlarni, mavjudliklarni harakatga keltiruvchi va borliqning abadiylikini tashkil etuvchi kuch, - borliq boʻlgan zot (yaʼni, Tangri)dir, u oʻzining asl mohiyati bilan barcha narsalardan farqlanishini, uning borligi faqat oʻziga bogʻliqdir deb taʼrif beradi.

U borliq toʻgʻrisidagi fikrlarini mukammallik darajasiga koʻtarib, ilk borliqdan tashqari, turi-navi boqimidan uning oʻxshovi boʻlgan boshqa bir narsa boʻlsa, ilk borliqning borligi mukammal boʻlolmasligi, chunki mukammallik oʻz turidan boshqa boʻlgan borliqning oʻzidan tashqarida bor boʻlishi mumkin boʻlmagan narsa ekanligini, uning oʻzi bu borliqda yakka-yu yagonadir, deb xulosaga keladi.

“Ilk borliq - deydi Forobiy, aslida borliq boqimidan yagonadir, uning mavjudligida undan boshqa hech narsa ishtirok etmaydi, uning borliq turini boʻla oladigan hech bir narsa yoʻq. Demak, u birdir, u oʻz navi jihatdan ham, martabasi jihatdan ham yakka-yu yagonadir”.

Asarda ilk borliq-javhar-aslini maydonga keltiradigan narsalarga, qismlarga, sonlarga, parchalarga boʻlinmaydiganligi bunda uning ulugʻligi, u feʼli jihatdan ham, kayfiyati jihatdan ham, oʻz javharida ham boʻlinmasligi ayon boʻlishligi izohlari beriladi.

Birinchi borliq oʻz zotidan boʻlmagan boshqa barcha narsalardan ajralib turadi, uning yagonaligining maʼnosi shuki, u oʻziga xos boʻlgan mohiyatdir, - deb uqtiradi asarda.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Forobiy inson intellekti haqida fikr yuritib, u aql qabul qiladigan intellektdan iboratligi, lekin undagi bor bo'lgan ma'qul (aql) narsa hali aqlni egallaydigan fe'l bo'lolmasligini, u aql martabasiga erishgandan so'ng qabul qila olishi mumkinligi, bundan xulosa shukim, insondagi aql qabul qiladigan – ma'qul narsa hech mahal intellekt bo'lolmasligi, boshqacha aytganda "aqlga olib kelolmasligi" ni bayon etadi.

Asarda Forobiy ulug' Zotga bilag'on (olim) haqidagi ahvol ham xuddi shundan iboratdir, deb ko'rsatib, olim-insonni ulug'lab, ulug' Zotning ziddi tarzida (inson uning hech vaqt ziddi bo'lolmaydi A.Q.) misol keltiradi. Masalan, bilag'on (olim) o'z fazilati bilan bilish uchun o'z zotidan tashqarida bo'lgan narsadan foydalanishga, boshqa bir zotga zarurati yo'qdir, aksincha uning o'zi barcha narsalarni bilishi va bilinishi uchun o'z javhari bilan qanoatlanadi, degan fikrni, ya'ni Forobiy ham o'zining bilag'onligini namoyon qiladi.

"Eng mukammal bo'lgan bilim esa doimiy bilimdan iboratdir, u yo'q bo'lib ketmaydi, bu bilim esa uning o'zining belgisidir, ... uning to'g'rilik va haqiqat bo'lishining o'zi ham ayni shu holatni bayon etadi, chunki to'g'ri va haq bo'lgan narsa shu bor bo'lgan narsadan iboratdir - deydi faylasuf.

Ilk borliq nihoyatda go'zal, va olijanob va eng ziynatlidir, uning bilimi esa mutlaqo eng afzal ilmlardandir. Ilk borliqdan barcha borliq vujudga keladi, ilk borliq faqat o'zining borligi uchungina mavjud, boshqa mavjudot esa uning o'zida bordir - deb qayd etiladi asarda.

Ilk borliqning asli shundayki, barcha borliq undan fayz oladi, undan mavjudot qismlarga bo'linib, tartiblanadi, o'zlarining darajalariga qarab birlashadilar, bog'lanadilar.

Asarda Mavjudoti soniy (ikkinchi mavjudotlar) va ularning ko'pligi haqida fikr yuritib, birinchi Mavjudning mohiyatini ikkinchi borliq tushunib etishidan Uchinchi borliq vujudga kelishi va Uchinchi borliq javharida uning (birinchining, sillogizmda – Aning, A.Q.) mohiyati bo'lganligi sababli undan, o'z navbatida To'rtinchi borliq vujudga kelishi va bu qonuniy jarayon uzluksiz davom etib O'n birinchi borliq – olam paydo bo'lganligi va bu bilan olamlar tugashi, ularning barchasi doiraviy (aylanib) harakat qilishlari haqida xulosalar keltiriladi.

Forobiy borliq olamlardan to'qqiztasini azaliy javhariy komillikka egaligini, qolgan ikkitasi Oy osmoni va Er osmoni eng so'nggi qatorda turishligi bilan yuqori qatlamlardagi avvalgi borliqlarga nisbatan komilligi kamrog'ligi va ular javhariy komillikka, qudratga ega emasligini ta'kidlaydi.

Olamning bu tartibda va sifatda tuzilishlari hozirgi davrdagi rivoj topgan tabiiy fanlar egallagan yutuqlar bilan bevosita hamohang-ki, bu Forobiyning naqadar chuqur bilimlarga ega ekanligidan dalolatdir.

Forobiy moddiy va ilohiy mavjudotlar darajalari to'g'risida to'xtalib, mavjudotning tartib va darajalari dastlab eng quyidan, nomukammallikdan boshlanadi, so'ngra o'zidan mukammalroq, so'ngra yana mukammalroq va eng yuqori darajadagi mukammallikka erishgunga qadar borishligini aytib, ularning eng past qadrligi mushtarak bo'lgan ilk moddadir, deb qayd etadi.

U erdagi, ya'ni quyi borliqdagi olamning mukammal zoti inson ekanligi, u til va mukammal tushunchalar, aql sohibi bo'lgan jonzot ekanligini alohida qayd etadi.

Bu erda biz garchi inson olamning eng quyi qatlamida, nomukammal olamida yashasada, u o'zining Ollohdan berilgan yuksak aqliy salohiyati bilan barcha borliqni va ularning mohiyatlarini, tuzilishlarini, sifatlarini tafakkuri ila bila olishi mumkinligini, va umuman Olloh erni inson uchun yaratganligini va barcha yaratilgan xazrati inson manfaati uchun ekanligini qayd etib o'tish lozim deb o'ylaymiz. (A.Q muallif)

Biz ilk borliq eng mukammal borliq deb bilganimiz eng afzal darajalar bilan boshlanadi, keyin mukammallik darajalari o'z mukammallik darajalariga qarab boradi, bu tartib to O'n birinchiga etgunga qadar davom etadi, degan qoida, tartib asarda berilgan.

Forobiy narsalar zidlari to'g'risida to'xtalib, zidlar asl javharlari qarama-qarshi bo'lgan narsalardan yuzaga kelishi yoki bir-biriga qarama-qarshi (sovuq, issiq) bo'lgan narsalardan yuzaga kelishini ta'kidlab u shunday deydi.

"Bu ikkalasi ham quyoshdan chiqadilar. Ammo quyoshning turli-tuman ikki xil holati bor. Ba'zan u dunyoga (erga, A.Q) yaqinlashadi, ba'zan uzoqlashadi. Mana shu ikki qarama-qarshi holatda bir-biriga teskari bo'lgan hollar va nisbatlar chiqadi".

"Buning izohi – A.Q.: Quyosh erga yaqinlashganda yoz, issiq, insonlar o'zlariga ehtiyojlarini qondirish uchun oziq-ovqatlar jamg'armasini hozirlaydilar, uy-joylar va boshqa qurilish ishlarini bajaradilar, xullas bunyodkorlik ishlari avj oladi". Oddiy insonlar kuchlari ishtirokida, bu birinchi alomat, ikkinchisi, quyosh erdan uzoqlashganida esa tabiat bilan bevosita bog'langan insonlar faoliyatida yuqoridagi afzalliklar sezilarli darajada susayadi. Bulardan tashqari tabiat o'zgarishlari, bu jismlar aylanishidagi o'zgarishlar sodirligi hamdir. Garchi insonlar minglab yillar mobaynida ushbu qarama qarshiliklar zahirida yashab o'rgangan, qanoat va sabr hosil qilgan bo'lsalarda, baribir bir-biriga qarama qarshi turgan (oq va qora kabi) tabiiy o'zgarishning o'z hayotiga ta'sirini kuchli tarzda sezadi va unga faol moslashadi, ya'ni majbur bo'ladi. (A.Q. muallif)

Asarda osmon jismlari to'qqiz turkumdan iborat bo'lgan to'qqiz darajadan tashkil topganligi, har bir turkum doiraviy bir jismni qamrab olishini, ularning birinchisi esa faqat yagona jismdan iborat bo'lib, u faqat doiraviy tusda tez harakatda bo'ladigan jism ichida bo'ladi. Va keyingi ikkinchisi biror mushtarak (o'xshash ma'noda, A.Q.) harakatga sohib

bo‘lgan jismni qamrab oladi, keyingilari uchinchisidan keyingi turkumlar har bir jism o‘z harakatlariga o‘ziga xos bo‘lgan ko‘p jismlarni qamrab olishi qayd etiladi.

Shular bilan birga mavjud jismlarning barchasi jins boqimidan bir xil bo‘lsada, tur jihatidan bir xil bo‘lmaydi, ular farqlanadilar, bir turga bir jism xos bo‘ladi. Masalan, har bir osmon jismlari o‘z zoti e‘tibori bilan, turi bilan ham yagonadir. Quyoshga sherik bo‘ladigan tur tabiatda yo‘q. Oy va yulduzlar turi ham xuddi shunday sabablarga ega.

Forobiy osmon jismlari harakatlari ilk borliqdan, Birinchi sababdan sodir bo‘ladigan go‘zallik va jamol bilan yuzaga kelishi, buning eng ustuni doira (aylana, A.Q.) shakli ekanligini, ularning sifatleri – ziyo chiqishi, (quyosh, oy, yulduzlar, A.Q.) ularning o‘zlariga xos bo‘lgan ulug‘lik tomonlari bilan kamolot hosil qilishliklari hosil bo‘lishligini uqtiradi.

Unsurlar (olov, suv, havo, tuproq) qo‘shilishi natijasida vujudga kelgan jismlar turli-xil suratlariga, shakllarga kirishidan, turli xildagi jismlar paydo bo‘ladi. Bu holat samoviy jismlarda ham yuzaga keladi. Unsurlar va jismlarda vaqtlar mobaynida quvvatlanish paydo bo‘ladi, ular yordamida jismlar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatadilar va o‘zlari ham boshqa quvvatdagi jismlar ta‘sirini o‘zida qabul qiladilar. Xuddi shunday turli-tuman quvvatlar ta‘sirida tabiatda qorishuvlar yuzaga kelib turgan, natijada sayyoralar, yulduzlar paydo bo‘lgan.

Forobiy qarama-qarshi quvvatlar to‘g‘risida gapirib, “bir unurning o‘zida qarama-qarshi quvvat yo‘q, kamroq unsurlar aralashgan qo‘shiluvda qarama-qarshi quvvatlar kamroq, murakkabroq qo‘shiluvlarda esa qarama-qarshi quvvatlar ko‘proqdir,” - deydi. Bundan sodda qo‘shiluvlarda ichki ziddi kamroq, murakkab qo‘shiluvda esa ziddi kuchliroq va ularning o‘z vujudlariga o‘tkazadigan ta‘sirlari ham turlichaligi, murakkab qo‘shiluvdan tarkib topgan vujudlar ichki emirilishi ham kuchli bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin degan xulosalar kelib chiqadi (A.Q.).

Forobiy insondagi istak, iroda va baxt-saodat haqida so‘zlab, insonning aqliy quvvati borliq narsalar haqida o‘ylashga, fikrlashga, eslashga kirishadi, xulosaga keladi, yoqimli narsalarga intiladi, yoqimsiz narsalardan o‘zini tortadi - deb izohlaydi.

Inson ilk boshlang‘ich bilimlardan foydalanib, yangi bilimlarga intilishi va uni egallashi unga berilgan imkoniyat ekanligi va inson bu imkoniyatlardan o‘rinli foydalanib, kamolatga erishishi mumkinligi asarda ko‘rsatilgan.

U insonlarning o‘zaro birlashuvlari, o‘zaro yordam ehtiyojlar to‘g‘risida fikr yuritib, “har bir inson tabiatiga ko‘ra o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko‘p narsalarga (kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kitoblar, ustozlarga, do‘stlarga)” ehtiyoji bor. Inson barcha zarur narsalarni bir o‘zi hosil qilmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatida muhtojlik sezadi” deb ko‘rsatadi.

Buning uchun insonlar jamoaga va jamiyatlarga birlashuvlari, har bir shaxs o‘z iste‘dodiga va qobiliyatiga qarab kasb-hunarli bo‘lishi va o‘z hunarida kamolotga erishuvi zarurligi ko‘rsatiladi asarda.

Forobiy fozillar shahri haqida to‘xtalib, “Haqiqiy baxt-saodatga etishuv yo‘lida bir-biriga yordam berib yaxshi, go‘zal ish amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar fozil shahar, ya‘ni fozil odamlar shaharidir” - deydi.

Forobiyning bu fikrlari hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli barcha sohalardagi samarali faoliyatga bevosita taaluqlidir. Bu muvaffaqiyatli ishlarning asosi - mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat boshqaruvi san‘ati (rais a‘zo san‘ati A.Q.) va uning joylardagi (a‘zolari) vazirlar, hokimlarning o‘z vazifalariga sadoqatli munosabatlari deb bilmoq kerak.

Ammo, davlat boshlig‘i qilayotgan buyuk maqsadlar va niyatlar jamiyatni tashkil etuvchi a‘zolar oldiga katta-katta ijodiy mehnatlarni, bunyodkorlikni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Qilingan va kelajakda bajarilishi zarur bo‘lgan ishlar mamlakatni buyuk, har tomonlama taraqqiy etgan davlatga aylantirishi haqiqat bunga etarli asoslar, iqtisodiyot, ilmu-fan taraqqiyoti, eng muhimi inson omili-ilimli, shijotli yoshlarimiz bor (A.Q.)

Xulosa. Shunday qilib, buyuk bobomiz Sharq Uyg‘onish davrining yirik vakili Abu Nasr al-Farobiyning ilmiy faoliyati nafaqat musulmon dunyosining, shu bilan birga jahon xalqlari hayotining javhari tarzida insonlar tomonidan o‘rganilmoqda va ularning dunyoni falsafiy, mantiqiy jihatdan anglashlariga bevosita xizmat qilmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etayotgan yoshlarimizning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda va ularning faolligini yanada oshirishda Forobiy va u kishi kabi buyuk allomalarimiz ilmiy faoliyatlarini o‘rganish va chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004. - 160 b.
2. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf G‘ Taqdirilar, hikmatlar, aforizmlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 398 b.
3. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. - T. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot”. T; 2010. B. -707.
4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. – T. Sharq, 1998, - 279 b.

Mualliflar:

Abdushukurov K. A. - GulDU dotsenti.

Abdushukurova I. K. - GulDU katta o‘qituvchisi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

BOYOVUTLIK KASHSHOF HAKIM

Ismoilov Sobirjon

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: sobirjon-ismoilov2024@gmail.com

Mumtoz falsafiy fikr namoyandalaridan biri - P.Lavrovning ta'kidlashicha, falsafa insoniy ruh faoliyatining o'zga sohalaridan farq qilib, u ularning barchasiga hayotiylik, insoniylik baxsh etadi, natijalarini inson uchun tahtil etadi. Falsafasiz fan, bu - ashyolar yig'indisiga, san'at - hunarmandchilikka, hayot esa - murvatga aylanib qoladilar. Falsafiy mushohada, mulohaza yuritish, bu - o'zida insonni, bir butun, yaxlit mavjudot sifatida kamol toptirmoq demakdir.

Mustaqilligimiz tufayli xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan – kunga boyib bormoqda. Bu jarayonda yurtimizda faoliyat ko'rsatgan zamondosh olim faylasuflarni alohida o'rni bor. Shunday olimlarimizdan biri falsafa fanlari doktori, professor Haydar Aliqulovdir.

Kashshof-kashf etuvchi, ilk, birinchi demakdir. Hakim-faylasuf, donishmand ma'nosini beradi, ammo tabib, vrach sifatida ham ishlatiladi. Shu maqsadda ushbu maqolani boyovutdan chiqqan ilk faylasuf olim, hakim bo'lgan ustoz Haydar Aliqulov sharafiga "Boyovutlik kashshof hakim" deb nomladik. Maqola joriy yil u kishi tavallud topganligiga 85 yil to'lishi munosabati bilan "to'yga to'yona" sifatida yozilib, olim hayot falsafasi va ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlanadi.

Har bir falsafiy maktabni, garchi u kichik maktab maqomida bo'lsa ham karvonboshisi, etuk namoyandasi bo'ladi. Shu ma'noda Sirdaryo falsafa maktabining darg'asi, karvonboshisi deya so'zsiz, Respublikamizdagi taniqli faylasuf olim, Ibrohim Mo'minov falsafa maktabining nevara shogirdi, akademik Muzaffar Xayrullaevning shogirdi, falsafa fanlari doktori, professor Haydar Aliqulovni tan olamiz.

Haydar Aliqulov akademik Ibrohim Mo'minov asos solgan o'zbek milliy falsafa maktabining haqiqiy davomchisi, etakchi va zabardast olimlaridan biri sifatida nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda ilm ahliga yaxshi tanish bo'lgan falsafa fanlari doktori, professordir.

Haydar Aliqulov 1939 yilning 1 mayida Toshkent viloyatining (hozirgi Sirdaryo viloyati) Boyovut tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgandan so'ng 1957 yildan to 1959 yilning iyun oyigacha Bekobod metallurgiya zavodida oddiy ishchi bo'lib ishladi. 1959 yil sentyabr oyidan u O'rta Osiyo davlat universitetining (hozirgi O'zMUning) eron-afg'on bo'limiga o'qishga kirdi va uni 1964 yilda muvaffaqiyatli tamomladi.

Haydar Aliqulov 1964-1965 yillarda Afg'onistonning Qobul universitetida stajyor-tadqiqotchi sifatida malakasini oshirdi. Afg'onistondan qaytib kelgach, 1965 yilning avgustidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutining kichik ilmiy xodimi lavozimiga ishga qabul qilinadi. O'sha davrda falsafa tarixi bo'yicha mutaxassis kadrlar kamchil edi. Shuning uchun sharqshunoslik fakultetini bitirgan, sharq tillari, ayniqsa, arab, fors, hind va urdu tillarini biladigan yosh kadrlar imtiyoz asosida ishga qabul qilinardi. Ularning bir guruhi aspiranturaga kirdi, qolganlari esa ilmiy xodim sifatida ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar. H.Aliqulov ham boshqa yosh kadrlar qatorida institut direktori Muzaffar Xayrullaev rahbarligida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Bu sa'y-harakatlarning natijasi o'laroq 1971 yilda u "XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikri va Davoniy sotsial-axloqiy qarashlarining shakllanishida uning roli" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

Yosh olim Eronning o'rta asrlardagi mashhur faylasufi Jaloliddin Davoniy (1427-1502)ning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarini ilk bor tahlil qilib berdi. U Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan fors va arab tilidagi asarlarning qo'lyozmalarini qunt bilan o'rgandi va Davoniy dunyoqarashining shakllanishida O'rta Osiyo mutafakkirlari, ayniqsa Abu Nasr Forobiyning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarining ta'siri kuchli bo'lganligini isbotlab berdi. Haydar Aliqulovning nomzodlik dissertatsiyasiga opponenlik qilgan akademik I.Mo'minov mazkur tadqiqotga yuksak baho berar ekan, o'z navbatida Davoniyning falsafiy qarashlari Movarounnahr va Xuroson olimlari dunyoqarashining shakllanishida g'oyaviy manbalardan biri bo'lib xizmat qilganligini alohida qayd etgan edi. Xususan, domlaning ma'lumotiga ko'ra, Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliiy" nomli fundamental asari Samarqand, Buxoro, Hirot, Qo'qon va boshqa shaharlarning maktab va madrasalarida o'quv qo'llanma sifatida mutolaa qilingan. Ushbu kitob muallim va mudarrislar hamda talabalar uchun dasturilamal vazifasini o'tab kelgan.

Faylasuf 1972-1979 yillarda pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. Toshkent davlat universitetida Axloqshunoslik fanidan talabalarga saboq berdi. Bundan tashqari o'tgan yillar mobaynida Toshkentning turli oliy o'quv yurtlarida, xususan Toshkent muhandislik va temir yo'llar instituti, Toshkent texnika universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik, Toshkent davlat madaniyat hamda Toshkent pediatriya institutlarida o'rindoshlik asosida Falsafa, Axloqshunoslik fanlaridan talabalarga ma'ruzalar o'qidi, seminar mashg'ulotlari olib bordi.

Iqtidorli olim Haydar Aliqulov ko'p yillik izlanishlari natijasida akademik Muzaffar Xayrullaevning ilmiy rahbarligida 1984 yilda "XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo va Eron ijtimoiy fikrining o'zaro ta'siri va ravnaqi" mavzusida

doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olimga falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi berildi. H. Aliqulov ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati uchun 1991 yili professor unvoniga sazovor bo'ldi.

Taniqli faylasuf olim, professor Haydar Aliqulov XX asr milliy o'zbek falsafa maktabining yorqin vakili edi. Uning ilmiy merosi rang-barang va serqirra bo'lib, milliy falsafamiz tarixida alohida o'rin va ahamiyat kasb etadi.



Ilmni dengizga mengazishadi odatda. Ilm dengiz kabi ulkan va cheksiz. Dengizga kirib kelish yo'llari ham turli-tuman. Falsafa ilmi ham ilm dengiziga quyiladigan ulkan bir daryo. Ilm shaydolari dengiz yoki daryo suvlaridan bahra oladilar. Haydar Aliqulovning "falsafa daryosiga" kirib kelishi ham o'ziga xos bo'lib, bu jarayon ustoz akademik Muzaffar Xayrullaev ko'magi va maslagida amalga oshgan.

Haydar Aliqulov o'zining ilmiy faoliyatida ko'plab asarlar va ilmiy maqolalar chop ettirib, Sharq falsafasi tarixi bo'yicha taniqli olim darajasiga ko'tarildi. Olim 350 dan ortiq monografiya, risola va ilmiy maqolalar muallifidir. "Sotsialno-utopicheskie idei v Sredney Azii" (hammualliflikda, 1992), "Eticheskie vozzreniya mo'slitley Sredney Azii i Xorasana" (1992), "Gumanistik meros va shaxs kamoloti" (2006) va boshqalar H. Aliqulov qalamiga mansubdir.

Olim shu bilan birga ko'plab yirik jamoaviy monografiyalar, to'plamlarning faol mualliflaridan hisoblanadi. Bular jumlasiga "Iz filosofskogo naslediya narodov Vostoka" (1972), "Materiali po istorii obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane" (1976), "Filosofskoe nasledie narodov Sredney Azii i borba idey" (1988), "Antologiya pedagogicheskoy misli" (1988), "O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan" (1995), "Temuriylar tarixi davr manbalarida" (1997), "Islom, tarix va ma'naviyat" (2000), "Pedagogika tarixi" (2000), "Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni" (2004), "O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari" (2007) va boshqalar kiradi.

Haydar Aliqulovning tadqiqotlari falsafiy merosimizning dolzarb muammolari to'g'risida bo'lib, Sharq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikri tarixining shu vaqtga qadar o'rganilmagan jihatlari, ya'ni, o'tmish mutafakkirlarining tadqiq qilinmagan ontologik, gnoseologik, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Olim 40 yildan ortiq vaqt mobaynida XIV-XV asrda Movarounnahr va Eronda yashab ijod etgan mutafakkirlar Majid Xavofiy, Sharif Jurjoniy, Abdurahmon Jomiy, hazrat Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Kamoliddin Binoiy va boshqalarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarini, ularning ilm-fan va madaniyat ravnaqiga qo'shgan ulkan hissalarini o'rgandi. Domlaning kitoblari, ilmiy maqolalarida O'rta Osiyo va xorijiy Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg'inoniy, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Jaloliddin Davoniy, Jomiy, Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor, Mirzo Bedil, Ahmad Donish, Avloniy va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy, diniy-irfoniy hamda axloqiy qarashlari tahlil qiladi.

Shu bilan birga Haydar Aliqulov Guliston davlat universitetida "GulDU axbarotnomasi" ilmiy jurnalning 2001-2011 yillarda tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan. Ayni kunlarda bir qator shogirdlari Guliston davlat universitetida faoliyat ko'rsatib, ustoz ilmiy va ijodiy ishlarini Sirdaryo vohasida davom ettirayotibdilar. Sirdaryoliklar, xususan boyovutliklar tumanlaridan etishib chiqqan Haydar Aliqulovdek faylasuf olim bilan haqli ravishda faxrlanib yuradilar.

Etuk faylasuf olim Haydar Aliqulov ilmiy faoliyatining bir necha qirralarini qayd etib o'tish mumkin:

-birinchidan, sharqshunos Haydar Aliqulov falsafa ilmiga uning eng mashaqqatli sohasi bo'lgan falsafa tarixi orqali kirib keldi. U 32 yoshida "XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikri va Davoniy sotsial-axloqiy qarashlarining shakllanishida uning roli" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu yo'nalish keyinchalik uni O'zbekistonda ilk axloqshunos olimlardan biriga aylantirdi.

-ikkinchidan, Haydar Aliqulov yurtimizda davoniyshunoslikka asos solgan olimdir. U 1992 yil O'zbekiston nashriyotida "Jaloliddin Davoniy" monografiyasini 3000 nusxada chop ettirdi. U 1984 yili 45 yoshida akademik Muzaffar Xayrullaev rahbarligida "XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo va Eronda ijtimoiy fikrning o'zaro ta'siri va ravnaqi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

-uchinchidan, Haydar Aliqulov yurtimizda Markaziy Osiyo falsafa tarixi mutafakkirlarining gumanistik merosi mavzusini o'rgangan dastlabki faylasuf olimdir. U A. Mets, V. Chaloyan, I. Braginskiy, N. Konrad kabi falsafa tarixi tadqiqotchilari kabi O'rta Osiyo falsafa tarixi yoki Markaziy Osiyo falsafa mutafakkirlarining gumanistik merosini o'rgandi va ilmiy asoslab berdi.

-to'rtinchidan, Haydar Aliqulov Markaziy Osiyo falsafasi tarixini tadqiq etgan olimdir. Uning akademik Ibrohim Mo'minov nomidagi falsafa va huquq institutidagi yaqin 40 yillik faoliyati va rahbarlik tarixi asosan falsafa tarixi masalalarini tadqiq etishga qaratildi.

-beshinchidan, Haydar Aliqulov Markaziy Osiyo allomalarining hayoti va ilmiy faoliyatini tadqiqotchisidir. U kishi nafaqat Jaloliddin Davoniy hayoti va ilmiy merosini o'rganish bilan, balki u Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Mahdumi A'zam, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Poshshaxo'ja,

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Ahmad Donish, Berdaq kabi mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan dissertatsiyalarda bevosita rahbarlik qildi.

-oltinchidan, Haydar Aliqulov Ibrohim Mo'minov asos solgan o'zbek falsafa maktabining nevara vakillari, ayni paytda zamonaviy falsafamizning falsafa tarixi yo'nalishining etuk vakillari: M.Jakbarov, A.Abdurasulov, E.Boboeva, M.Qodirov, A.Zohidov kabi olimlarni tarbiyalab, etishtirgan rahbar ustozdir.

Ayni chog'da domlani Sirdaryolik olimlar: R.Mahmudov, F.Jo'raqulov, S.Ismoilov, B.G'afurov, Y.Karimov, U.Mavlyanovlar ilmiy faoliyatida sezilarli darajada rollari borligi bizni juda quvontiradi. Bundan tashqari olimning: Toshkentda, O.Muhammadiyeva, Buxoroda: G.Navro'zova, O.Sharipova, G.Yunusova, E.Zoirov, Z.Axmedova va M.Pardaeva, Xorazmda M.Safarboev, O.Safarboev, Qoraqalpog'istonda, U.Xudoyberganova, Jizzaxda: B.Ochilova, M.Xoshimov, S.G'oziev, Farg'onada, Sh.Bobojonova kabi shogird izdoshlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Olim ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish mumkin: falsafa; falsafa tarixi; adolatshunoslik; axloqshunoslik; bedilshunoslik; madaniyat tarixi; davoniyshunoslik; manbashunoslik; Markaziy Osiyo allomalari merosi; mashrabshunoslik; naqshbandiyashunoslik; nafosatshunoslik; tarjimashunoslik; tarixshunoslik; tasavvufshunoslik; futuvvatshunoslik; sharqshunoslik; eronshunoslik va boshqalar.

Olimning falsafa tarixi sohasidagi xizmatlari yuzasidan to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayonda uning falsafa faniga tarixiy yondashuvlar, axloqiy ta'limotlar, gumanistik meros, adolat, tasavvuf tarixi kabi qirralarni qayd etib o'tish mumkin.

Birinchidan, olim falsafaga butun umr o'zining tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan Jaloliddin Davoniy merosi va dunyoqarashi asosida yondashib tadqiqotlar olib bordi.

Davoniy "Risolayi isboti vojib", "Nur-ul-hidoya", "Risolat-ul- huruf", "Axloqi Jaloliy" va boshqa asarlarida o'zining falsafiy dunyoqarashini bayon etadi.

Ikkinchidan, olim axloqiy ta'limotlar tarixi mavzusiga ham Jaloliddin Davoniy merosi va dunyoqarashi asosida yondashib tadqiqotlar olib borgan bo'lsada, bu boradagi qilgan ishlari tahsinga sazovordir.

Uchinchidan, gumanistik meros tarixi yo'nalishi.

Faylasuflar gumanizmni tor va keng ma'noda qo'llanishini ko'rsatadilar. Gumanizm tor ma'noda G'arb Uyg'onish davriga nisbatan ishlatiladi. Bu tushuncha ijtimoiy harakat, shakllangan yaxlit dunyoqarash sifatida Ovrupo Uyg'onish (Renessans) davriga xos falsafiy tafakkur tarzidir.

Olim faoliyati haqida quyidagi xulosalarga keldik:

- falsafa, falsafa tarixi va falsafiy tafakkur insoniyat hayotida etakchi o'rin tutuvchi, o'ziga xos hodisalardan biridir;
- milliy falsafa umuminsoniy falsafa kabi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi;
- sirdaryolik faylasuflar sardori bo'lgan professor Haydar Aliqulov falsafiy merosida falsafaning inson kamolotida o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tilgan;
- falsafa tarixida nafaqat ilmiy-madaniy markazlardan, balki mintaqalardan etishib chiqqan, jumladan sirdaryolik faylasuflar: Haydar Aliqulov, Abduvohid Ochildiev va Furqat Jo'raqulov kabi faylasuflarning ham o'ziga xos va mos o'rinlari bor.

-ko'pchilik faylasuflarga xos bo'lgan gumanistik meros va yondashuv professor Haydar Aliqulov hayot va ilmiy faoliyatiga ham xos jihaddir.

Demak, falsafa butun ma'naviyat olamining ham ma'naviyati, uning mag'zi, gulto'ji, ibtidosi va intihosidir. Bundan ayni falsafaning, faylasuflarning yuksak ijtimoiy mas'uliyati kelib chiqadi.

Muzofotimizda falsafa yo'nalishda fan doktori darajasini olganlar barmoq bilan sanarli darajada. Ular: falsafa fanlari doktorlari, Haydar Aliqulov, Usmon Qoraboev, Abduvohid Ochildiev va siyosiy fanlar doktori Furqat Jo'raqulovlardir. Biz sirdaryoliklar ular bilan haqiqatdan ham faxrlanib yuramiz. Ular orasida esa professor Haydar Aliqulovning o'ziga xos va o'ziga mos o'rni borki, buni ushbu maqolamizda baholi qudrat yoritishga harakat qildik.

XX-XXI asr bo'sag'asida o'zbek falsafasi tarixida professor Haydar Aliqulovning ilmiy madaniy foliyati Vatanimiz falsafasi tarixida alohida bir iz qoldirgan insonlardan biridir.

Xullas, domla nafaqat professor, falsafa fanlari doktori, ustoz-murabbiy, nufuzli oilaning ibratli ustuni, olim sifatida yurtimiz ilm ahli tan olgan, sirdaryoda, uning boyovut deb atalmish bir fayzli go'shasidan chiqqan qaldirg'och faylasuf sifatida, umrini ilm yo'lida ezgulikka baxshida qilgan qomusiy olim va olijanob inson sifatida mazmunli, ibratli, havas qilarlik umrlari, ezgu ishlari ila o'zlariga barhayotlikni - tirik haykalini qo'yib ketgan boyovutlik kashshof hakimdir.

Muallif:

Sobirjon ISMOILOV - GulDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Raximov Atanazar Karimovich. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYALARI - SIFAT VA SAMARADORLIK OMLIDIR.....	3
Kasimova Odina Alimjanovna. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA IMPROVIZATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK VOSITALARI.....	7
Qurbonova Maftuna Faxriddinovna. O'QISH SAVODXONLIGINI PIRLS BAHOLASH DASTURI TALABLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	10
Hayitov Anvar Isomidin o'g'li. BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING REFLEKSIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	12
Aripov Masud Marufovich. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	14
Eshboltayev Iqbol Mamirjonovich. KVANT MEXANIKASIDA KOMPYUTER DASTURI KETMA-KETLIGI YORDAMIDA ERKIN HARAKAT UCHUN TO'LQIN PAKETINI O'RGANISH METODIKASI.....	18
Ibragimova Mayramxon G'ulomovna. DARSLARDA TALABALARNI MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	26
Usmonova Muxlisaxon Sobirovna. MAXSUS MAKTAB INTERNATLARIDA TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	28
Mamadaliyeva Nargizaxon Zokirjon qizi. ELEKTROSTATIKA BO'LIMINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR.....	32
Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna. O'QUVCHILARIDA GAZLAMALARGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI DARSLARIDA KASANACHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	35
Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich. ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASINING SO'NGGI TARAQQIYOT YO'NALISHLARI VA TENDENSIYALARI.....	38
Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna. O'ZBEK AYOL XONANDALIGI: MILLIY MUSIQA MEROSI VA ZAMONAVIY IJODNING UZVIY BOG'LIQLIGI.....	41
Ханбабаев Хакимжон Икрамович, Мамаджанова Светлана Валентиновна. KELAJAKDAGI CHET TILI O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI DIGCOMPEDU MODEL ASOSIDA BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH.....	44
Алимсаидова Сайёра Амидьеевна. RUS TILINI O'QITISHDA TIL VA LINGVISTIKANING ASOSIY ASPEKTLARI.....	48
Marasulova Zulayho Abdullayevna, Muxammadjonova Muzammilaxon Maxmudjon qizi. TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	51
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna. TURKISTON ASSR VA O'ZBEKISTON SSR TARIXIDA TA'LIM SOHASIGA KADRLAR MASALASIDA XOTIN-QIZLARNING JALP ETILISHI.....	54
Qo'chqorov Mavzurjon Xursanboyevich. FIZIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	58
Botiraliyeva Maftunaxon Botirali qizi. ZAMONAVIY SHAROITDA INFORMATIKA BO'YICHA TO'GARAK FAOLIYATINI TASHKIL QILISH.....	61
Primov Dilmurod Dusmatovich. TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGILARI.....	65
Raximov Jo'rabek Qadamovich. MEDIA KOMMUNIKATSIYALAR – PEDAGOGNING IJODKORLIGINI OSHIRISHDA O'ZARO TA'SIRNING YANGI OMILI SIFATIDA.....	71
Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna. BO'LAJAK PEDAGOGLAR METODIK TAYYORGARLIGINI MEDIATA'LIM VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	76
Nurmuhamedova Feruzaxonim Ahmadjon qizi. VR, AR TEXNOLOGIYALAR TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI.....	79
Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna. BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	85
Jonibekov Doniyor Baxtiyor o'g'li. TA'LIM TIZIMIDA INTELLEKTUAL SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA ANIQLASH USLUBLARI.....	88
Abdullayeva Shoira Isajanovna. STEAM YONDOSHUVINI QO'LLASH OPRQALI FIZIKA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	92
Eshnazarov Dilshod Azamatovich. TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARI KASBIY TAYYORGARLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK KONTSERTSIYASI.....	96
Abdug'aniyev Otabek Abduhamidovich. MENEJMENT PSIXOLOGIYASIDA LIDERLIK VA RAHBARLIK TUSHUNCHALARI.....	99
Abdurazakova Shakhida Rakhimovna. XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ARALASH O'QITISH YONDASHUVLARI.....	104
Inoyatova Zulfiya Xamdamovna. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHNING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	107
Тулкунни Мадина Туроб Зода, Ташпулатова Умида Каинджон кызы. BO'LAJAK O'QITUVCHINING INNOVATSION TA'LIM MAKONIDA PROFESSIONAL YUQORI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	109
Muradova Feruza Abdurazak qizi. O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA "LESSON STUDY" YONDASHUVIDAN FOYDALANISHDA YAPONIYA TA'LIM TIZIMINING O'RNI.....	113
Pazilov Elyor Abduvohid o'g'li, Ummatov Bakhtiyor Toshqo'zi o'g'li. TA'LIM TIZIMIDA KLASTERLI YONDASHUVNI JORIY ETISH PRINSIPLARI VA YO'NALISHLARI.....	116
Saidov Jasur Doniyor o'g'li. INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	120
Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna. TARBIYA FANI O'QITISHDA BUKTERELER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	125
Abduraimova Sohiba Karimkul qizi. KRETIV MATEMATIKANING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	130
Saitmurodova Malohat Boymurod qizi. OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHIDA DASTLABKI DAVRNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	134

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Matjanov Nurjan Sultamuratovich. FIZIKA FANIDAN BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	137
Annakulova Dildora Baymurotovna. BAXSHI-SHOIRLAR ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI VA FOZIL YO'LDOSH O'G'LINING O'ZBEK DOSTONCHILIK MAKTABIDA TUTGAN O'RNI.....	140
Irmuxamedova Navruza Abdullajonovna. KOMPYUTER TARMOQLARI FANINI O'QITISHDA DASTURIY VOSITALAR TAHLILI.....	148
Xodjakulov Baxodir Xudaykulovich. MUSIQA FANI O'QITUVCHISINING O'QUV FAOLIYATIDA KOMMUNIKATIV TAYYORGARLINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	151
Konurova Leyla Ruslanovna. MUSIQA TERAPIYASI ORQALI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN VOSITALAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.....	154
Berdiqulova Nasiba Jurakulovna. NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.....	157
Berdiqulova Mahbuba Erkinjon qizi. RAHBAR FAOLIYATIDA STRESS VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	159
Sharapova Saboxat Djabbarovna, Abulfayziyev Sardor Rashidovich. YOSHLARNI TURLI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYA QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	161
Shavkieva Dilfuza Shakarboevna. TIL O'RGANISHDA GEYMIKATSIYA: CHET TILI DARSLARIDA MOTIVATSIYA VA FAOLLIKNI OSHIRISH.....	165
Badriddinova Dilnoza Najmiddinova. TA'LIM VA TARBIYADA ODOB VA AXLOQNING O'RNI.....	167
Karlibayeva Guljaxon Ermekbayevna. KO'RGAZMALI ELEKTRON VOSITALAR ASOSIDA FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	169
Saidov Umid Abduq'aforovich. SPORTCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	173
Adilov Sarvar Qaxramonovich. KURASH TURLARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI SPORTCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN O'TKAZILGAN SO'ROVNOMA NATIJALARI.....	176
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li. SHAXS O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHGA AVTONOMLIK VA TOBELIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI.....	179
Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHILARIDA WEB-DIZAYN BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....	183
Botirov Ilhom Saydullayevich. O'QUVCHILARNI HARBIIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH - DOLZARB VAZIFA.....	187
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li. OLIY TA'LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT JIHATIDAN BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	190
Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi. TIL VA MAZMUN INTEGRATSIYASI CBI DARSLARINING ASOSIY XUSUSIYATI SIFATIDA.....	195
Ummatqulov Adhamjon Zafarjon o'g'li. BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.....	197
Ernazarov Abduvali Beknazarovich. TALABALARIDA SALOMATLIKNI ASRASH TAFAKKURNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	201
Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich. SALOMATLIKNI TA'MINLASHDA JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOMLASHTIRISHGA BO'LGAN DUNYOQARASH OMILLARI.....	204
Karimova Mashhura To'likinova. TISH SHIFOKORLARI ORASIDA PROFESSIONAL STRESS VA CHARCHASH SINDROMI.....	208
Zikirova Dildora Shuhrat qizi. PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FANLARNING BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA KASBIY-KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	211
Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna. O'QUVCHILARDA TABIIY FANLARNI O'QITISH ASOSIDA LOYIHA ISHLARIGA YO'NALTIRISH VA TABIATNI ANGLASH KO'NIKIMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	214
Bozorov Vakhobiddin Nuriddinovich. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'QUV-BILUV MOTIVINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	217
Xamidova Gulmira Xamidovna. PROYEKSION CHIZMACHILIKNI O'QITISHDA TALABALARNING FAZOVIIY TASAVVURLARINI OSHIRISHDA GRAFIK DASTURLARNING O'ZIGA XOS O'RNI.....	221
Sultonov Abdurahim Abduraxmonovich, Abdurasulov Baxodir Saydurasulovich. MAQOM VA MUMTOZ MUSIQIY ASARLARNI QAYTA ISHLASH.....	225
Muxlilboyev Maxmut Qarshiboyevich. TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	227
Melibayeva Farog'at Madaminovna. TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	230
Begmatova Dilfuza Abdullajonovna, Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li. FIZIKA FANINI O'QITISHNI CHET TILLARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	234
Kuychieva Zamira Unarovna. MILLAT NOMI, BARHAYOT KUY VA QO'SHIQLAR.....	237
Karimov Xasan Narzullayevich. TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHLARIDA ELEKTROMAGNITIZM BO'LIMINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	242
Qarov Botir Xamro o'g'li, Rahmonov Shohobiddin Safaraliyevich. O'QUVCHI VA TALABA YOSHLARINING ENERGIYA TEJAMKOLIGI KOMPETENTLIGI.....	244
Axmedova Shoiraxon Bilalxonovna. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH NAZARIY ASOSLARI.....	247
Safarova Madina Azamat qizi. O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	251
Korayeva Latifa Zarifovna. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA O'QUV FAOLIYATIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASI SHAKLANISHINING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	253
Yermekbayeva Xalima. TALABALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	256
Suvonqulov Husan Toirovich. O'QUVCHILARGA "TARBIYA" FANINI O'QITISH JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	258
Tursinov Makset Perdebay o'g'li. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID EKOLOGIK TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH HAQIDA.....	262
Уразимбетов Айбек. TALABALARNING MEDIA VA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA.....	263

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4 ***

Mirzayev Diyorbek Azamjonovich. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	265
Badalov Azamat Obil o'g'li. DASTURLASHNI O'RGATISHDA INTERAKTIV YONDASHUVLAR.....	268
Davurova Go'zal Akbarovna. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ILMIIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TAMOIYILLARI.....	271
Barakayev Akmal Musurmonovich. RAQAMLI TA'LIM RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH.....	273
Rahmatova Feruza Abulqosimovna. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI.....	276
Ahtamqulov Muhridin Ahtamqul o'g'li. ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASHNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	281
Urabakov Alijon Djurabayevich. PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	283
Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich. BO'LAJAK HARBIIY RAHBARLARIDA YOD G'OYALARGA VA IJTIMOIIY TAHDIDLARGA QARSHI PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	286
Samatova Iroda Azamjon qizi. VITAGEN TA'LIM TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	290

FILOLOGIYA

Sharipov Fazliddin Galiyevich. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIIY KORPUS MASALASI.....	293
Mamatkulov Azizbek Rustamovich. HOZIRGI O'ZBEK ADABIIY TILINING TARIXIIY TARAQQIIYOTIDA LEKSEMALARINING MORFEMAGA O'TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR.....	295
Abdisalomova Shahlo Abdumurod qizi. NLPDA KOREFERENSIYANI HAL ETISH VAZIFASINING O'RNI.....	297
Jumanazarov Umirzoq Abdurazzoqovich. O'ZBEK FOL'KLORIDA TARIXIIYLIK MASALASI.....	301
Jumanazarova Guljahon Umirzakovna. XALQ DOSTONLARI TILIDA METONIMIYALAR LINGVOPUETIKASI.....	308
Abdimurodov Doston Dilmurod o'g'li. "OTA-ONA" KONTSEPTINI TARJIMA QILISHDA KONTEKSTUAL MOSLIK VA MADANIIY FARQLAR.....	314
Mirobidova Nilufar Murodjon qizi. AYOLLAR NUTQIDA NUTQIIY AKT.....	319
Бабанов Бахадир Абдикадрович. TILLARDA QISTQARMALARINING SHAKLLANISHI VA FOYDALANISH XUSUSIYATLARI.....	321
Sharipova Raxima Muxtorovna. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA TABIIAT RAMZLARINING BADIIIY TALQINI.....	324
Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna. O'ZBEK FOLKLORIDA HOMIIY PERSONAJLAR TALQINI.....	326
O'razov Alisher Doniyorovich. O'ZBEK TILIDA LEKSEMALAR TALQINIGA YEVRUPEA TILSHUNOSLIGINING TA'SIRI.....	329
Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna, Xayitboyev Yorqinjon O'rmonali o'g'li. TO'RA SULAYMONNING PEYZAJ LIRIKASI PUETIKASI.....	331
Ko'liboyev Bekzod Orzuboy o'g'li. INGLIZ VA O'ZBEK ADABIIYOTSHUNOSLIGIDA MUALLIF USLUBINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR.....	334
Kenjayeva Iroda Alisherovna. SIRDARYO VILOYATI ETNOTOPONIMLARI.....	339
Mamirova Umida Xoljigitovna. O'ZBEK ADABIIYOTIDA RUHIYAT VA RANG UYG'UNLIGI.....	341
Uzakov Akram Khikmatovich. MUHAMMAD ALINING "ULUG' SALTANAT" ASARIDA AMIR TEMUR SIYAMOSINI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI.....	344
To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna. RELIGIONIMLARNI TADQIQ ETISHDA TURLI YONDASHUVLAR.....	348
O'tanova Sirdaryoxon. AVAZ O'TAR SHE'RLARIDA HURRIYAT VA MA'RIFAT MASALALARINING BADIIIY TALQINI.....	351
Каримова Малика Абди-Хафизовна. SUNYI INTELIGENTNING LINGVISTIK MUAMOLALARI.....	354
Ramazonova Go'zal. ANTIK DAVR ADABIIYOTDA METAMARFOZA (EVRILISH) MOTIVINING TARAQQIIYOT TADRIJI.....	357
To'rayeva Dilnoza Nematullayevna. TURKUM ROMANLARDA TARIXIIYLIK VA BADIIIY TO'QIMA.....	359
Жумаева Феруза Рузikuловна. SO'Z TURKUMLARI TIZIMIDA O'TISH: INTERYEKTIVATSIIYA.....	365

IJTIMOIIY FANLAR

Abdurahimova Farida Yo'ldoshevna. ISLUM DINI VA MILLIIY QADRIYATLARIMIZDA OILAGA E'TIBOR.....	368
Olimov Jahongir Bo'riboevich. TURKISTON O'LKASIDA O'RMON XO'JALIGINI VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN.....	371
Abdushukurov K. A. Abdushukurova I. K. ABU NASR AL-FOROBIIYNING "FOZIL SHAHAR ODAMLARI QARASHLARI" ASARINING YOSHLAR DUNYOQARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	374
Ismoilov Sobirjon. BOYOVUTLIK KASHSHOF HAKIM.....	377

“Guliston davlat universiteti axborotnomasi” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “Guliston davlat universiteti axborotnomasi” ilmiy jurnali quyidagi sohalar bo‘yicha ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi:

- Tabiiy, qishloq xo‘jaligi, texnika fanlari (fizika, biologiya, qishloq xo‘jaligi, texnika).
- Gumanitar - ijtimoiy fanlar (pedagogika, filologiya, ijtimoiy fanlar).

2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar: ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi; maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 9-10 betgacha; maqola nomi, annotatsiya (180-200 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK, mavzu, muallifning F.I.O.(to‘liq yozilishi kerak), tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning E-mail, annotatsiya (namunaga qarang) berilib, keyin matn keltiriladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati (kiril va lotin imlosida, namunaga qarang) albatta keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,5; abzats 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap tomon 3 sm, o‘ng tomon 1,5 sm.

Namuna:

UDK 581.14

REPRODUCTION CHARACTERISTICS OF *GOBELIA PACHYCARPA* (FABACEAE) IN THE ARID ZONES OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTONNING QURG‘OQCHIL MINTAQASIDA *GOBELIA PACHYCARPA* (FABACEAE)NING REPRODUKTSIYASI

РЕПРОДУКЦИЯ *GOBELIA PACHYCARPA* (FABACEAE) В АРИДНОЙ ЗОНЕ УЗБЕКИСТАНА

Botirova Laziza Axmadjon qizi¹, Karimova Inobatxon²

¹Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mikrorayon.

²Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 150100. Andijon shahri, Uvaysiy ko‘chasi 12-uy.

E-mail: *liliya_15@mail.ru*

Abstract. The article is devoted to the reproduction processes of 3 populations of *Goebelia pachicarpa* (C.A.Mey.) Bunge in the arid zones of Uzbekistan. While studying the reproductive biology of plants the works of Sasyperova I.F. (1993), Ashurmetov A.A. and Karshibaev H.K. (2002) were used. Seed production of plants was defined according to the methods of Ashurmetov A.A. (1982) and Zlobin Yu.A. (2002). Reproduction strategies of species were determined by Ramenskiy –Grime system.....(Abstract 180-200 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak).

Keywords: *Goebelia pachicarpa*, reproduction, reproduction strategy, seed productivity, dissemination, seed and vegetative reproduction, diaspore, seed renewal (8-10 ta).

Annotatsiya. Ushbu maqola *Goebelia pachicarpa* (C.A.Mey.) turining 2 ta populyatsiyasida.....(180-200 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak)

Tayanch so‘zlar: *Goebelia pachicarpa*, reproduksiya, (8-10 ta).

Аннотация. Данная статья посвящена к двум популяциям *Goebelia pachicarpa* (C.A.Mey.).....(180-200 шт.)

Ключевые слова: *Goebelia pachicarpa*, репродукция, 8-10 шт.

Matn keltiriladi:

Kirish. Muammoning dorzarbligi asoslanadi va maqsad ko‘rsatiladi (maqolaning maqsadi ... aniqlash, ishlab chiqish, tavsiya berish, tasdiqlash, baholash, yechimini topish, ...).

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar... .

Olingan natijalar va ularning tahlili...

Xulosa, rahmatnoma (*majburiy emas*) ketma-ketlikda keltiriladi.

5. Foydalanilgan adabiyotlarga havola to‘rtburchak qavsda [1], jadval va rasmlarga havolalar esa dumaloq qavslarda keltiriladi (1-jadval), (2-rasm). Jadval va rasmlar matndan keyin berilishi lozim. Ularning umumiy soni 5 tadan oshmasligi kerak.

6. Adabiyotlar ro‘yxati matnda kelishi bo‘yicha keltiriladi, masalan [1], [2],

Adabiyotlar ro‘yxati: (*adabiyotlar nomi asl (original) holda keltiriladi*)

Kitoblar: Muallif, nomi, shahar, nashriyot, yil va betlar keltiriladi (*Namuna:* 1. Иванов И.И. Лекарственные средства. - М.: Медицина, 1997. - 328 с.)

Maqolalar: Muallif, maqola nomi // Jurnal nomi, yil, №, betlar. (2. Каримова С.К. Адир минтақасининг лала турлари. // Ўзб. биол. журн., 2009. -№ 2. - Б. 10-18.)

Avtoreferatlar: Muallif, nomi: doktorlik. diss. avtoreferati, shahar, yil, betlar. (3. Ходжаев Д.Х. Влияние микроэлементов на урожайность хлопчатника: Автореф. дисс... д-ра биол.наук.- Москва, 1995. - 35 с.)

Tezislari: Mualliflar, nomi // To'plam nomi, shahar, yil va betlar. (4. Каршибаев Х.К., Ахмедов Г.А. Биоэкологические исследования видов янтaka // Материалы Респуб. науч. конф. "Кормовые растения Узбекистана". - Гулистан, 2006. - С. 15-17.)

7. Adabiyotlar ro'yxati qo'shimcha lotin imlosida takror keltiriladi:

References:

1. Ivanov I.I. Lekarstvennie sredstva. - M.: Medisina, 1997. - 328 s. (in Russian)
2. Karimova S.K. Adir mintaqasi lola turlari // O'zb. biol. jurn., 2009.-№ 2. - B. 10-18.
3. Xodjaev D.X. Vliyanie mikroelementov na uroжайnost xlopchatnika: Avtoref. diss... d-ra biol. nauk.- Moskva, 1995. - 35 s. (in Russian)
4. Karshibaev X.K., Ahmedov G.A. Bioekologicheskie issledovaniya vidov yantaka // Materiali Respub. nauch. konf. "Kormovie rasteniya Uzbekistana". - Gulistan, 2006. - S. 15-17. (in Russian)

8. Tahririyat fizik o'lchovlarni keltirishda xalqaro tizim (SI), biologik ob'ektlarni nomlashda xalqaro Kodeks nomenklaturasidan foydalanishni tavsiya etadi. Butun sondan keyingi sonlar nuqta bilan ajratiladi (0.2).

9. Tahririyatga maqolaning elektron varianti topshiriladi. Maqolaning so'ngi betida hamma mualliflarning imzosi bo'lishi shart. Qo'lyozmaga ish bajarilgan tashkilotning yo'llanma xati, tasdiqlangan ekspertiza akti, taqrizlar ilova qilinadi. Maqolaning oxirgi betida mualliflar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Masalan:

Mualliflar:

Botirova Laziza Axmadjon qizi – Guliston davlat universiteti Dorivor o'simliklar va botanika kafedrasini mudiri, b.f.n., dotsenti. E-mail: liliya_15@mail.ru

Karimova Inobatxon - Andijon qishloq xo'jaligi instituti tadqiqotchisi. E-mail: inobat_90@inbox.ru

10. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo'lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Maqola jurnalda maxsus hisobga (Guliston davlat universiteti Moliya vazirligi G'aznachiligi x/r. 23402000300100001010, INN 201122919, MFO 00014. Markaziy bank XKKM Toshkent sh. BB STIR 200322757, ShXR 400110860244017094100350002 axborotnoma uchun) mehnatga haq to'lashning bazaviy hisoblash miqdorida (375 000 so'm) to'lov amalga oshirilgandan keyin chop etiladi. Jurnalda anjuman tezislari va ma'ruzalari chop etilmaydi. **E'lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko'chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

11. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o'zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 120100, Guliston shahri, 4-mavze, Guliston davlat universiteti, Asosiy bino, 4-qavat, 423-xona.

Web site: www.guldu.uz

E-mail: guldu-vestnik@umail.uz

Muharrirlar: U.Mavlyanov, R.Sh. Axmedov

Terishga berildi: 2024-yil 16-dekabr. Bosishga ruxsat etildi: 2024-yil 27-dekabr.

Qog'oz bichimi: 60x84, 1/8. F.A4. Shartli bosma tabog'i 24,0. Adadi 100.

Buyurtma № _____. Bahosi kelishilgan narxda.

"Universitet" bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze, Guliston davlat universiteti, Asosiy bino, 4-qavat, 423-xona.

Tel.: (67) 225-41-76